

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I YA

R.X. DUSHANOV, Y. A. FARFIYEV

KASBIY PSIXOLOGIYA

*O‘zbekiston Respublikasi IIV tomonidan
Vazirlik oliy ta’lim muassasalari uchun
darslik sifatida ruxsat etilgan*

Toshkent — 2014

T a q r i z c h i l a r:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti psixologiya kafedrasining mudiri
psixologiya fanlari doktori, professor **E. G‘. G‘oziyev**;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor,
psixologiya fanlari nomzodi **G‘. B. Shoumarov**;
yuridik fanlari nomzodi, dotsent **D. M. Mirazov**

D-86 Dushanov R.X.

Kasbiy psixologiya: Darslik / R. X. Dushanov, Y. A. Farfiyev.
– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 319 b.

Mazkur darslik ta‘lim standartlari hamda «Kasbiy psixologiya» fanining o‘quv dasturi asosida davlat tilida tayyorlangan dastlabki ishlardan biri bo‘lib, unda ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining psixologik jihatlari batafsil yoritilgan.

Yurisprudensiya va yuridik psixologiya sohalarida ichki ishlar xodimlari faoliyati psixologiyasini o‘rganayotgan tinglovchi va talabalar, uni tadqiq etish bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar hamda professor-o‘qituvchilarga, shuningdek, ichki ishlar organlarining amaliyotchi xodimlariga mo‘ljallangan.

BBK 88.4ya73

K I R I SH

Bugungi kunda mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatimizda adolat hamda qonun ustuvorligiga erishish ichki ishlar idoralari xodimlari, qolaversa, har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Mamlakatimizda ichki ishlar idoralari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, olijanob, fidoyi, o'z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan vijdonli xodimlarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini qo'yimoqda. Chunki bugungi murakkab sharoitda ichki ishlar idoralari xodimlarining xalq oldidagi nufuzini ko'tarish, unga bo'lgan ishonchini mustahkamlash bevosita ana shu islohotlar samarasiga bog'liq.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi kasb mas'uliyatiga oid quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Bu sohada xizmat qiladigan odamlar o'zining professional kasb va fuqarolik burchini, o'z vazifasini qanchalik halol va sidqidildan ijro etishi mubolag'asiz butun hokimiyatning obro'si, kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo'lishini belgilaydi»¹. Shu bois ichki ishlar idoralari xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda o'zlariga berilgan vakolatlarni suiiste'mol qilmasliklari, aksincha har bir huquq va vakolat ortida xalq hamda davlat oldidagi burch, mas'uliyat turishini to'liq anglab yetishlari zarur.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillar, shuningdek, ushbu faoliyatning psixologik jihatlarini tahlil qilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, shu orqali bu faoliyatni takomillashtirishning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish davr talabidir.

Har qanday inson kundalik hayotida odamlar bilan uchrashib, muloqotga kirishadi va bu muloqot jarayonida har ikki tomon o'zining ichki va tashqi ruhiy olamini namoyon qiladi. Ana shu ruhiy holatlarning barchasi insonning psixikasini tashkil qiladi.

¹ *Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди.* Т. 13. – Т., 2005. – Б. 189.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chunki ular doimiy ravishda turli toifadagi odamlar bilan uchrashadilar, muloqotga kirishadilar. Bu esa xodimdan kasbiy psixologiya fanini, jumladan ichki ishlar idoralari faoliyatida yuz beradigan psixik holat va jarayonlarni yaxshi bilishni, ularga qarshi doimo tayyor turishni talab qiladi. Ana shu nuqtai nazardan kasbiy psixologiya fan sifatida o'rganiladi.

Ushbu darslik aynan shu maqsadni ko'zda tutgan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari hamda kasbiy psixologiya fanining o'quv dasturi asosida tayyorlandi. Uni tayyorlashda psixolog olimlar – M. I. Yenikejev, A. M. Chufarovskiy, E. G'. G'oziyev, V. M. Karimova, S. V. Asyamov va boshqalarning ilmiy ishlaridan keng foydalanildi.

O'z navbatida shuni ta'kidlash joizki, darslik ushbu yo'nalishda davlat tilida yaratilgan dastlabki ishlardan biri bo'lganligi bois, unda ayrim kamchiliklar, juz'iy xatolar bo'lishi tabiiy. Mualliflar darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar hamda uni to'ldirish, takomillashtirish borasidagi takliflarni bajonidil qabul qildilar va kelgusi ishlarida albatta inobatga oladilar.

I bob.

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA ICHKI ISHLAR IDORALARI FAOLIYATINI PSIXOLOGIK TA'MINLASH

1. Kasbiy psixologiya fanining obykti va predmeti

Ichki ishlar idoralari xodimi fuqarolarning xavfsizligi, tinchligi, haq-huquqi va erkinliklarini ta'minlashga mas'ul bo'lgan davlat xizmatchisi hisoblanadi. Ana shu mas'uliyat xodimdan birinchi navbatda o'z kasbining bilimdoni, ustasi bo'lishni talab qiladi.

O'z kasbining bilimdoni bo'lish uchun nafaqat yuridik fanlarni, balki shaxslarning ruhiy holati va kechinmalarini ham yaxshi bilish kerak bo'ladi. Bu esa har bir ichki ishlar idorasi xodimidan psixologiya ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo'lish va shu asosda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: «Psixologiya fani biz uchun eng zarur sohalardan biri. Psixologiyani o'rganish – hayotni, insonni o'rganish degani. Kerak bo'lsa, rahbarlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo'lib, odamlarga ko'rsatma bermoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o'rganish kerak»¹, – degan edi. Ushbu fikr kasbiy psixologiya fanining metodologik asoslaridan birini tashkil qiladi

Har qanday inson kundalik hayotida odamlar bilan uchrashib, muloqotga kirishar ekan, u o'zining bosiq yoki qiziqqon, beparvo yoki qiziquvchan, mehribon yoki bag'ritosh, jahldor yoki bosiq va hokazolardan iborat ichki va tashqi ruhiy olamini namoyon qiladi. Bu ruhiy holatlar ongli va ongsiz tarzda namoyon bo'ladi. Ana shu holatlarning barchasi insonning psixikasini tashkil qiladi.

Inson psixikasi moddiy va ma'naviy borliqdagi narsa va hodisalarni jonli in'ikos etuvchi murakkab jarayon bo'lib, u insoniyatning uzoq davom etgan fiziologik rivoji uyg'unligining mahsuli hisoblanadi.

Xo'sh, psixika nima?

¹ Qarang: *Karimov I. A.* Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрят. – Т. 14. – Т., 2006. – Б. 121–122.

Psixika – yuqori darajada tashkil topgan materiyaning tizimli xossasi (xususiyati), subyekt tomonidan obyektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarini subyekt o‘zidan uzoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda o‘z xulqi va faoliyatini shaxsan boshqarishdir. Psixikada o‘tmishning, hozirgi davr va kelgusi zamonning hodisalari ifodalangan, tartibga solingan¹. Psixikaning asosiy vazifalari – aks ettirish – faoliyat va xatti-harakatlarni boshqarishdir.

Uning namoyon bo‘lish shakllari va ularning o‘zaro bog‘liqligi psixik (bilish) jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq va diqqat), psixologik holatlar (hissiyot, emotsiya, e‘tiqodlilik, bardamlilik, tetiklik, qiziquvchanlik, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish), shaxsning xususiyatlari (yo‘nalishlar, temperament, xarakter, qobiliyat, iqtidor, aqliy salohiyat, xulq motivatsiyasi, ish uslubi, mas’uliyat)da kuzatiladi.

Psixologiya – psixikaning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek insondagi onglilik va ongsizlik fenomenlarining xilma-xil ko‘rinishlarini o‘rganuvchi fan.

Psixologiya yunoncha «psixologos» so‘zidan olingan bo‘lib, «jon», «ruh» haqidagi fan, ta’limot degan ma’noni anglatadi. Biroq hozirgi davr ilmida «jon» tushunchasi o‘rniga «psixika» atamasini qo‘llash qabul qilingan. Chunki lingvistik nuqtai nazardan «jon», «psixika» tushunchalari aynan bir ma’noni bildiradi. Lekin «psixika» atamasi bugungi kunda «jon»ga nisbatan kengroq ma’noga, ko‘lamga ega bo‘lib, inson ruhiyatining ham ko‘zga ko‘rinuvchi, ham ko‘zga ko‘rinmas tomonlarini o‘zida aks ettiradi.

Psixologiya fanining obyektiga psixika, ong va ongsizlik, shaxs va uning faolligi kirsam, uning predmetini ana shu obyekt haqidagi muayyan bilimlar tashkil qiladi (Obyekt – kishilarning diqqatini o‘ziga tortadigan moddiy va ma’naviy borliq. Predmet – moddiy va ma’naviy borliq haqidagi bilimlar majmuasi va o‘rganiladigan masalalar).

Psixologiya fani: umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya, zoopsixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yuridik psixologiya, harbiy psixologiya, tibbiyot psixologiya, savdo psixologiyasi kabi tarmoqlarga bo‘linadi. Bunda:

– umumiy psixologiya psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlari va ularning o‘ziga xos jihatlarni o‘rganadigan maxsus soha hisoblanadi;

¹ Qarang: *Фозиев Э. Умумий психология.* – Т., 2002. – Б. 25.

– pedagogik psixologiya kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;

– yosh davrlari psixologiyasi turli yoshdagi odamlarning tug'ilganidan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini individning yoshiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi;

– ijtimoiy psixologiya odamlarning jamiyatda birgalikda faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinma va xulq-atvorlarni o'rganadi;

– muhandislik psixologiyasi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari operatorlarining faoliyatini, *odam-texnika* o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;

– harbiy psixologiya kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, zobitlar bilan oddiy askarlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

– savdo psixologiyasi – jamiyatda tijoratning psixologik shart-sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi;

– tibbiyot psixologiyasi shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

Shuningdek, psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, sport psixologiyasi, psixodiagnostika, siyosiy va tashkiliy psixologiya kabi ko'plab sohalar mavjudki, ularning har biri jamiyatdagi real ehtiyojlar va ularni qondirishda psixologiyaning fan sifatidagi o'рни va maqsadidan kelib chiqadi¹.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyati jamiyatda mavjud bo'lgan barcha kasblardan, birinchidan, davlat tomonidan qat'iy belgilab berilgan qonunlar, buyruqlar, nizom va yo'riqnomalar asosida ish ko'rishi; ikkinchidan, bevosita jinoyatchilar dunyosi bilan ishlashi; uchinchidan, hayotining doimo xavf-xatar ostida bo'lishi; to'rtinchidan, davlat hokimiyatining vakili sifatida ish ko'rishi bilan ajralib turadi. Ana shu faoliyat ma'lum psixologik qonunlar, usullar asosida ish ko'rishni talab etadi. Bu esa ichki ishlar idoralari faoliyatida yuz beradigan psixik holat va jarayonlarni alohida fan – kasbiy psixologiya sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Xo'sh, kasbiy psixologiya fanining bahs mavzui nima?

¹ Qarang: *Karimova V.* Психология: Ўқув қўлланма. – Т., 2002. – Б. 20–21.

Kasbiy psixologiya, o‘z mohiyatiga ko‘ra, yuridik psixologiya fani tarkibiga kiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda *kasbiy psixologiya* o‘ziga xos *predmet* bo‘lib, yurisprudensiya va psixologiyaning nozik tomonlarini qamrab oladi. Ya’ni bu fan huquq bilan psixologiya sohalarining kesishuvida yuzaga keladi. Huquq insonning xulq-atvorini, xatti-harakatlari bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganadi. Psixologiya esa muayyan shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganadi. Bundan ko‘rinadiki, har ikkala fanning obykti va subyekti shaxs, inson hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, kasbiy psixologiya yuridik psixologiya tarkibida yuzaga kelgan bo‘lib, aniq faoliyat, ya’ni ichki ishlar idoralari faoliyatidagi psixologik jihatlarning muhim tomonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan fan hisoblanadi.

Kasbiy psixologiya ilmiy-amaliy fan bo‘lib, umumiy psixologiyaning qonuniyatlarini o‘rganadi va bu fanni samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

Kasbiy psixologiya fani huquq doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandır. Bunda guvohlar, xolislar, jabrlanuvchi, gumonlanuvchilarning ko‘rsatmalari hamda so‘roq olib borishning psixologik asoslarini o‘rganish *maqsad* qilib qo‘yilgan.

Kasbiy psixologiya fanining maqsadi – ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, turli toifadagi shaxslar bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Shu ma’noda, kasbiy psixologiya fanining metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, faylasuf-allomalarning psixologiya faniga oid g‘oya va nazariyalari hamda hukumat qonunlari, Ichki ishlar vazirligiing buyruq va ko‘rsatmalari tashkil etadi.

Kasbiy psixologiya fanining predmeti quyidagilardan iborat:

- ichki ishlar idoralari xodimlarining psixikasini har tomonlama o‘rganishdan hosil bo‘lgan bilimlar;
- jabrlanuvchi, aybdor, guvoh, gumon qilinuvchi va hokazolarning ongi, ruhiyati, onglilik va ongsizlik holatidan hosil bo‘lgan xulosalar;
- jinoyatchi shaxsining tuzilishi, uning faoliyati va faolligini o‘rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalar.

Barcha fanlar singari kasbiy psixologiya fanining ham o‘z obykti mavjud, ular quyidagilardan iborat:

- ichki ishlar idoralar xodimlarining psixologiyasi;
- jabrlanuvchi, aybdor, guvohlarning psixologiyasi;
- fuqarolarning onglilik va ongsizlik holatlari;
- shaxsning tuzilishi;
- shaxsning faoliyati;
- shaxsning faolligi va uning shakllari.

Shunday qilib, kasbiy psixologiya fani ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi psixika, ong, ongsizlik kabi fenomenlarning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandır.

2. Kasbiy psixologiya fanining yuridik psixologiya tizimida tutgan o‘rni

Yuridik psixologiya ko‘pgina sohalarni o‘z ichiga qamrab oluvchi amaliy fan hisoblanib, bir tomondan psixologiya, ikkinchi tomondan umumiy huquqshunoslik fanlari doirasiga kiradi. Bu fan ijtimoiy-gumanitar fanlarning integrallashuvi jarayonlarining mahsuli sifatida XVIII asrdan boshlab paydo bo‘la boshlagan.

Yuridik psixologiya o‘z ichiga sud, kriminal va huquq psixologiyasi yo‘nalishlarini qamrab oladi. Gumanistik nuqtai nazardan sud psixologiyasi muammolarini M. M. Sherbatov (1733–1790) o‘rgana boshlagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida I. M. Sechenov, S. M. Bexterov, A. F. Koni faoliyat yuritgan davr yuridik psixologiyaning o‘shish davri hisoblanadi. Jinoyatchi shaxs psixologiyasi ustidagi izlanishlar natija bera boshlaydi va ayni shu davrda yuridik psixologiyani mustaqil fan sifatida qabul qilish zarurati tug‘iladi.

Gans Grosning 1898-yilda chop etilgan «Kriminal psixologiya»si ko‘plab psixolog olimlarning mashaqqatli mehnatlarini o‘zida aks ettirgan birinchi ilmiy adabiyot sanaladi.

Alfred Bine 1900-yilda nashr ettirgan «Ta’sir etish» asarida yosh bolalarning guvohlik berishida ta’sir ko‘rsatishning muhimligi muammosini o‘rgangan.

1925-yilda birinchi bo‘lib Rossiya davlatida Jinoyat va jinoyatchilikni o‘rganish instituti tashkil etiladi.

1964-yilda «Yuridik psixologiya» fani huquqshunoslik yo‘nalishidagi barcha institutlarning o‘quv dasturlariga kiritiladi.

1970-yilda Amerika milliy ruhiy sog‘lomlashtirish markazida o‘tkazilgan 45 ta izlanish natijalari asosida «Jinoiy xromosoma anomaliyasi»

mavjudligi haqida ma'ruza qilinadi. Kriminal psixologiya nazariyasiga ko'ra, Klaynfelter gipotezasi tahlil qilinadi va 5242 nafar jinoyatchi (aynan bo'yi balandlari) tajribadan o'tkaziladi. Olingan natijalarga ko'ra, baland bo'yli erkak jinsiga mansub shaxslarning 2 % ida, o'rta bo'yli shaxslarning 0,7 % ida, qonunga itoatkor deb topilgan shaxslarning 1,0 % ida tajovuzkor xulqning shakllanishiga bog'liq xromosomalar aniqlangan.

Yuridik psixologiya fanining rivojlanishiga S. S. Romanov, M. I. Yenikeev, V. L. Vasilyevlar katta hissa qo'shganlar. Shu ma'noda yuridik psixologiya psixik qonuniyatlarning huquqiy faoliyat va huquqiy tartibga solish jarayonlarida paydo bo'lishi hamda amalda qo'llanishini o'rganuvchi fandır¹.

Yuridik psixologiya ilmiy-amaliy fan sifatida birinchidan, qonunga itoatgo'ylik xulqi (huquqiy ong, axloq, ijtimoiy fikr, ijtimoiy stereotiplar); ikkinchidan, jinoiy xulq (jinoyatchi shaxsining xulq-atvoridagi og'ishlar, jinoiy stereotip, jinoiy guruh tarkibi, tuzilishi, kriminogen vaziyat, jabrlanuvchining shaxsi, xulq-atvori va ularning jinoiy xulq genezisidagi roli); uchinchidan, huquqni muhofaza qilish faoliyati (profilaktik faoliyat psixologiyasi, tergov faoliyati psixologiyasi, sud-psixologik ekspertiza); to'rtinchidan, huquqbuzarlarni resotsiolizatsiya qilish (jinoiy jazoni ijro etuvchilar psixologiyasi, ozodlikka chiqqanlar psixologiyasi); beshinchidan, voyaga etmaganlar kabilarning psixologik asoslarini ishlab chiqadi.

Yuridik psixologiya bir qator vazifalarni, jumladan, huquq va huquqni muhofaza qilish faoliyatida alohida shaxs, guruh va jamoalarga ta'sir qilishning psixologik qonuniyatlarini o'rganish; ikkinchidan, qonunchilikni mustahkamlash, huquqni muhofaza qilish ishlarining samaradorligini oshirish, jinoyatga yarasha jazo tayinlash, jinoiy yo'lga kirganlarni qayta tarbiyalash bo'yicha ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish kabi vazifalarni hal qiladi.

Yuridik psixologiya fanining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi.

- 1) kriminal psixologiya;
- 2) sud psixologiyasi;
- 3) jinoiy jazoni ijro etish psixologiyasi;
- 4) fuqarolik huquqlarini tartibga solish psixologiyasi;
- 5) sud-psixologik ekspertiza;
- 6) advokatlik ishlari psixologiyasi;

¹ Qarang: *Еникеев М.И.* Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 5.

- 7) notarial ishlar psixologiyasi;
- 8) ichki ishlar idoralari faoliyati psixologiyasi.

Yuridik psixologiyaning tarkibiy qismlarini tizimlashtiradigan bo‘l-sak, u quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

Huquqiy psixologiya: muhim hodisalarning huquqiy jihatdan individ va jamiyat oldidagi in‘ikosi bo‘lmish huquqiy psixologiya; shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi, huquqiy ijod va huquqqa munosabat psixologiyasi; huquqni tushunish va huquqiy ong psixologiyasi; huquqni ijro etish xatti-harakati psixologiyasi.

Kriminal psixologiya: jinoiy xatti-harakatning sotsiogenetik determinantlari. Shaxs jinoiylashuvining biologik va ijtimoiy omillari; «jinoiyatchi shaxs» tushunchasi; ayrim toifadagi jinoiyatchilarning tipologik tavsifi. Jinoiy qilmish psixologiyasi, viktim xulq, guruhiy va uyushgan jinoiyatchilar psixologiyasi. Ayb va javobgarlik psixologiyasi.

Sud psixologiyasi ikki qismdan iborat. 1. *Dastlabki tergov psixologiyasi*: jinoyat protsessi ishtirokchilarining psixologiyasi; surishtiruv-tergov faoliyati va ayrim tergov harakatlarining psixologik asoslari; nizoli vaziyatlarda jinoyat protsessi ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari psixologiyasi; sud-psixologik ekspertiza. 2. *Sud muhokamasi psixologiyasi*: sud protsessi ishtirokchilarining psixologik tavsifi; sud tergov va sud muzokaralari psixologiyasi; prokuror va himoyachining faoliyati, sud qarorlarini qabul qilish psixologiyasi.

Axloq tuzatish psixologiyasi: jazo va pushaymonlik psixologiyasi; qayta ijtimoiylashuvning psixologik muammolari; axloq tuzatish muammolari psixologiyasi; mahkumlar hayoti va faoliyati psixologiyasi. Qamoqdan ozod etilgan shaxslarning qayta ijtimoiy moslashuvi hamda jinoiy retsidivlarning oldini olish muammolari. Penitensiar ekspertiza.

Fuqaroviy-huquqiy tartibga solish psixologiyasi: fuqaroviy sudlovning psixologik jihatlari; fuqaroviy sudlovda sud psixologik ekspertiza; sud qarorlarini qabul qilish psixologiyasi; fuqarolik sudining kognitiv (bilish) va ishonch hosil qilish faoliyati; hakamlilik sudi faoliyati psixologiyasi.

Yuridik psixologiya fani ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi kasbiy psixologiya fani uchun metodologik asos vazifasini o‘taydi. Yuridik va kasbiy psixologiya fanlari o‘rtasidagi umumiy tomonlar quyidagilardan iborat:

- 1) yuridik psixologiya ham, kasbiy psixologiya ham psixologiya va yuridik fanlar integratsiyalashuvi jarayonida paydo bo‘lgan bo‘lib, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga kiradi;

2) yuridik psixologiya va kasbiy psixologiyaning umumiy o'rganish obyekti va predmeti bir xil, ya'ni xodim shaxsining psixik holati, ularning rivojlanish qonuniyatlari hisoblanadi;

3) yuridik psixologiya va kasbiy psixologiyani o'qitishni amal qilish doirasiga ko'ra davlat tomonidan belgilab qo'yilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida ish ko'radi;

4) yuridik psixologiyaning ham, kasbiy psixologiyaning ham bosh maqsadi fuqarolarning haq-huquqlarini ta'minlashda qonuniylikning samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Yuridik psixologiya va kasbiy psixologiya o'rtasida farq qiluvchi tomonlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) kasbiy psixologiya fanining ko'lami yuridik psixologiyaga qaraganda torroq, chunki u sud jarayoni, advokatlik, notarial holatlar psixologiyasi bilan shug'ullanmaydi;

2) kasbiy psixologiya fanida nazariyaga qaraganda amaliy holatlar ko'proq, bu bevosita jinoyatchini qo'lga olish bilan bog'liq psixik jarayonlarning o'ziga xosligi bilan ifodalanadi;

3) kasbiy psixologiya fanining ishlash metodlari aksariyat hollarda «maxsuslik» xarakteriga ega;

4) kasbiy psixologiyaning ish uslubi tezkorlik xususiyatiga ega;

5) kasbiy psixologiya katta psixologik stress holatlarini ham o'z ichiga oladi;

6) kasbiy psixologiya ichki ishlar idoralari xodimlarining psixologiyasini shakllantirish va rivojlantirishi bilan ajralib turadi.

Kasbiy psixologiya fani yuridik psixologiya kabi bir necha tarmoqlarga bo'linadi. Bular:

1) profilaktika faoliyati psixologiyasi;

2) dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi;

3) tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi;

4) ekspert-kriminalist faoliyat psixologiyasi.

Profilaktika faoliyati psixologiyasi. Ushbu faoliyat psixologiyasining predmeti huquqbuzarliklarning oldini olish jarayonida turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik muloqot o'rnatish va huquqiy normalar orqali ta'sir etish usullarini o'rganishdan iborat bo'lib, maqsadi huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda tinglovchilarda psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Uning asosiy vazifasi ichki ishlar idoralari faoliyatida psixoprofilaktik ishlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqidagi

tasavvurlarni shakllantirish hamda profilaktika xizmati xodimlarining kasbiy sifatlari va mahoratlarini shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari bilan tanishtirish hisoblanadi.

Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida ishtirokchilarning o'ziga xos psixologik jihatlarini o'rganadi. Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida zarur psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Tergov faoliyatining psixologik tuzilishi haqidagi tasavvurlarni hamda tergov jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish malakalarini rivojlantiradi, fuqarolar bilan aloqa o'rnatish olish qobiliyatini takomillashtiradi.

Tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi tezkor vaziyatlarda xodimlarning turli toifadagi shaxslar bilan aloqa o'rnatishi va kerakli ma'lumotlar olishining psixologik jihatlarini o'rganadi. Turli toifadagi shaxslar bilan aloqa o'rnatish va kerakli ma'lumotlarni olishda psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikmalarini, psixologik aloqa va kerakli ma'lumotlar olishning psixologik asoslari haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Ekspert kriminalistik faoliyati psixologiyasining ham maqsad va vazifalari har xil turdagi jinoyatlarni kriminalistik ekspertizadan o'tkazishda ekspert kriminalistik faoliyatning psixologik tuzilishini, ekspertiza o'tkazishda psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini, shuningdek sud psixologik ekspertizalarning mohiyati va ularning psixologik asoslari borasidagi tasavvurlarni hamda ekspert-kriminalistlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini o'stirish va kasbiy mahoratlarini takomillashtirishdan iborat. Shunday qilib, yuridik psixologiya kasbiy psixologiya uchun metodologik tayanch bo'lsa, kasbiy psixologiya yuridik psixologiya uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy psixologiya va yuridik psixologiya bir-biridan ajralmaydigan, bir-birini to'ldirib boradigan fanlar hisoblanadi.

3. Kasbiy psixologiya fanining qonuniyatlari, metodlari va prinsiplari

Kasbiy psixologiya fani ham ma'lum bir psixologik qonuniyatlarni o'rganadi va ularni amalda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Psixologik qonuniyat u yoki bu ruhiy hodisani keltirib chiqaruvchi va rivojlantiruvchi sabab bilan natijaning ichki bog'liqligidan iboratdir. Bunday psixologik qonuniyatlardan biri ma'lum sharoitda u yoki bu ruhiy hodisaning takror namoyon bo'lishidir. Psixologik qonuniyatlarni bilish – muayyan psixik hodisani tushunish, oldindan ko'ra olish va

ularni qayta tiklash imkonini beradi. Shuningdek, ichki ishlar idoralari xodimlariga fuqarolarning ruhiy faoliyatlari umumiy xususiyatlarini chamalab ko‘rishga, fikr yuritish va xulq-atvorlarini belgilashga, ayniqsa, jinoyatchi shaxsining qilmishlarini ochish ishlarini tashkil qilishda xatoga yo‘l qo‘ymasliklarida yordam beradi. Har bir xodim shaxsning individual xususiyatlarini, sof tasodifiy holatlarni keltirib chiqaradigan boshqa narsalarni hamisha o‘rganib borishi va hisobga olishi shart. Psixologik qonuniyatlar umumiy va juz‘iy bo‘lishi mumkin. Umumiy qonuniyatlar hamma shaxslarga yoki ko‘pchilikka aloqador bo‘lishi mumkin. Masalan, hamma shaxslarda sezgilarning intensivligi (tez, jadal) qo‘zg‘atuvchining kuchiga nisbatan (o‘rtacha kuchiga nisbatan) logarifma mutanosibligida o‘sib boradi.

Juz‘iy qonuniyatlar ba‘zi yoshdagi kasb egalari va ba‘zi toifadagi shaxslarga xos qonuniyatlardir. Masalan, o‘smirlarda abstrakt fikrlashning tezlik bilan rivojlanishi hamma shaxslarga emas, faqat o‘smirlarga xos bo‘lgan juz‘iy qonuniyatdir. Psixologik qonuniyatlarni jiddiy o‘ylab tashkil qilingan hamda rejali ravishda olib boriladigan tekshirishlar orqali aniqlash mumkin. Qanchalik murakkab bo‘lishidan qat‘i nazar, ko‘pgina psixologik tekshirishlar mutaxassis uchun tushunarlidir va ularni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish mumkin.

Psixologik qonuniyatlar jarayonini ba‘zi asosiy bosqichlarga ham bo‘lish mumkin.

1. *Masalaning qo‘yilishi.* Har qanday ilmiy-tekshirish ishlari kabi, psixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalani aniqlashdan, shuningdek, bu masala fanda qanchalik o‘rganilganligini bilish uchun mazkur mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganishdan boshlanadi.

2. *Tekshirish metodikasini tanlash.* Psixologik kuzatishlar turli metodlar (bu metodlar haqida quyida batafsil fikr yuritiladi) bilan olib boriladi. Ishning muvaffaqiyatli chiqishi ko‘p jihatdan metodni tanlashga bog‘liq bo‘ladi.

3. *Aniq ma‘lumotlarni to‘plash.* Ma‘lumotlar, I. P. Pavlov ta‘biri bilan aytganda, olim uchun go‘yo havodek zarur narsadir. To‘plangan ma‘lumotlar o‘rganilayotgan muammoga mos kelishi zarur. Ilmiy ma‘lumotlarga bo‘lgan asosiy talab – ularning to‘liq va izchil bo‘lishidir. To‘plangan ma‘lumotlar o‘rganilayotgan masalani har jihatdan tavsiflab berishi kerak.

4. *Aniq ma‘lumotlarni ishlash.* To‘plangan ma‘lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiylikni, tipiklikni topish va

ularni tasodifiy materiallardan ajratish imkonini beradi. Bunda to'plangan materiallarning o'rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va h.k.), foizi va boshqalar aniqlanadi, songa oid ma'lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma ko'rinishlarida aks ettiriladi. Murakkab mutanosiblikdagi ma'lumotlarni aniqlashda esa variatsion statistika metodlari qo'llanadi.

5. *Qonuniyatning ifodalanishi.* Bu tekshirishning eng qiyin va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Chunki bu bosqichda ma'lumotlarning mohiyatini chuqur tushunish, ularning o'zaro bog'liqlikni hisobga olish kerak bo'ladi, binobarin, bitta ma'lumotdan turlicha xulosa chiqarish mumkin. Ko'pincha chiqarilgan xulosalar taxminiy xususiyatga ega bo'lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo'ladi.

Qonuniyatni amalda qo'llash. Aniqlangan qonuniyat ma'lum bir amaliyot sohasida, masalan, tergov jarayonida gumon qilinuvchini so'roq qilish psixologiyasini o'rganishdan to'plangan tajriba keyingi tergov jarayoni uchun kerak bo'ladi. Ko'pgina xodimlar amaliy faoliyatlarida hamisha shaxsiy hamda boshqalarning tajribalarini umumlashtiradilar. Lekin, shunday bo'lsa ham, har holda bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan yetarli asoslangan bo'lmaydi, boshqacha qilib aytganda muhim aniqlik va teranlik bilan ajralib turmaydi.

Kasbiy psixologiya fani o'rganishi kerak bo'lgan qonuniyatlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1) ichki ishlar idoralari xodimlarining shaxsi va ish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan psixik qonuniyatlar;

2) jinoyatchi shaxsining psixikasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar;

3) ichki ishlar idoralariga har xil sabablar bilan murojaat qiladigan fuqarolarning psixologiyasini o'rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar. Hozirgi kunda o'zbek psixolog olimlari ushbu muammolar ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Kasbiy psixologiyaning o'ziga xos prinsiplari mavjud. Har qanday usulda o'tkaziladigan psixologik tekshirishlar qator prinsiplarga rioya qilishni talab etadi. Masalan: subyektiv (psixologik) asosga nisbatan obyektiv (moddiy) asosning birlamchiligi, psixikaning taraqqiyotida faoliyatning yetakchilik roli, psixik hodisalarning o'ziga xos bog'liqligi prinsipi, psixologik faoliyatni o'rganishda obyektivlik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi.

Subyektiv asosga nisbatan obyektiv asosning birlamchiligi prinsipi psixika moddiy bo'lmasa ham moddiylikdan ayri holda yashay

olmasligidan kelib chiqadi. Shaxsni o'rganishda biz psixik faoliyatning ko'plab tashqi ko'rinishlariga duch kelamiz. Ulardan asosiylari:

– og'zaki va yozma nutq. Psixolog uchun shaxsning o'zi (shaxsiy hisobot ma'lumotlari) haqidagi mulohazalari g'oyat muhim hisoblanadi. Nutq orqali shaxslarning fikrlari, hissiyotlari, qarashlari, intilishlari, bilimi va boshqalar haqida xulosaga kelish mumkin;

– shaxs faoliyatining mahsuli. Shaxslar psixikasi haqida ularning o'z qo'llari bilan yasagan buyumlar, asbob-uskunalar, turli yasamalar, rasmlar va boshqalar aniqroq ma'lumot beradi;

– psixik faoliyatning tashqi ko'rinish va tanada namoyon bo'lishi. Bu ko'z qarashining ma'nodorligi, yuz mimikasi, imo-ishora, nafas olish va qon aylanishining o'zgarishi, miya elektr faolligining o'zgarishi va hokazo.

Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, bunday holatda faqat psixikaning tashqi namoyon bo'lishigina emas, balki psixikaning o'zi tashqi namoyon bo'lishiga qarab ham o'zgaradi. Agar tergovchi yoki aybdor masalan, so'z yozishda xatoga yo'l qo'ydi. Ushbu faktni aniqlash (bir harf o'rniga boshqa harf yozilgan)dan avval xatoning sabablarini bilish lozim.

Psixikani tashqi namoyon bo'lish shakli orqali o'rganish vositali bilish deyiladi. Psixologiya fani tarixida uzoq yillarga qadar psixikani o'rganishning asosiy metodi sifatida o'z-o'zini kuzatish (introspeksiya) metodidan foydalanib kelingan. Biz o'z ichki dunyomizni bevosita his qilamiz. Psixologiya uchun o'z-o'zini kuzatish metodi o'ta qulay tuyuladi. Lekin masalaga bunday qarash xatodir, chunki o'z-o'zini kuzatish ko'pincha umumiydan oddiy yoki tasodifiyni farqlash imkonini bermaydi, psixik faoliyat jarayonini noto'g'ri ko'rsatadi.

Psixika taraqqiyotida faoliyatning yetakchi o'rin tutishi prinsipi inson psixikasining mehnatda yuzaga kelishi va faoliyatda tarkib topishidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, psixikani kishining amaliy faoliyatidan ayri holda o'rganish mumkin emas.

Psixik hodisalarning o'zaro bog'liqlik prinsipi bizning ichki dunyomiz yagona, bir butun ekanligidan, ma'lum shart-sharoitlarda shakllangan, muayyan shaxslarga xos miyaning mahsuli ekanligidan kelib chiqadi. Shu jihatdan shaxslarning ayrim tomonlarini, uning psixikasini o'rganishning o'zi asosiy maqsad bo'lib qolmasligi kerak. Har bir tekshirishda biror psixik hodisaning boshqa psixik hodisalar bilan uzviy aloqasini va ta'sirini hisobga olish lozim bo'ladi.

Psixik faoliyatni o'rganishda obyektivlik prinsipi boshqa tekshiruvchilar qatori psixologdan ham hodisaning aniq tafsilotlarini o'rganishni, real holatni ifodalamaydigan shoshilinch umumlashtirish va xulosalarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi nazariya amaliyot uchun asos ekanligini, u o'z qobig'iga o'ralib olmasdan amaliyot uchun yangi-yangi yo'nalishlar ko'rsatishni anglatadi.

Kasbiy psixologiya fanining bu prinsiplari birgalikda qo'llaniladi va ular har bir aniq psixologik metodning asosini tashkil qiladi.

Kasbiy psixologiya fanining o'ziga xos ilmiy o'rganish metodlari mavjud. Psixologiya fanini ilmiy o'rganish metodlari («metod» grekcha so'z bo'lib, «biror narsaga borish yo'li» degan ma'noni anglatadi) psixik jarayonlar, holatlar va individual xususiyatlar to'g'risidagi bilimlarni egallashda qo'llaniladigan nazariy tadqiqotlar hamda amaliy harakat qilish usullari va ularning yig'indisidir.

Kasbiy psixologiya yurisprudensiya va psixologiya sohasining obyektiv qonuniyatlarini o'rganishda uning metodlaridan keng foydalanadi. Ushbu metodlar o'zining maqsadi va yo'nalishiga qarab tasniflanadi. Tadqiqot maqsadiga ko'ra sud psixologiyasi metodi quyidagi uch guruhga bo'linadi.

Ilmiy tadqiqot metodi. Ushbu metod yordamida shaxslarning huquq normalariga nisbatan munosabatining psixik qonuniyatlari o'rganiladi, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi amaliyot xodimlari uchun ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shaxsga psixologik ta'sir etish metodi. Bu metod jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishda rahbar xodimlar tomonidan qo'llanilib, jinoyat-protsessual qonunchilik va etikaga rioya etilgan holda olib boriladi. Ushbu metodning asosiy maqsadi jinoiy faoliyatning oldini olish, jinoyatni ochish va uning sabablarini aniqlash; jinoyatchilarni qayta tarbiyalash, ularni kundalik ijtimoiy muhitda normal yashash sharoitlariga moslashtirishdan iborat. Bu metodlar, jinoyat-protsessual qonunlarda tartibga solinishidan tashqari, psixologiyaning ilmiy usullariga asoslangan bo'lib, kriminalistika, kriminologiya, axloq tuzatish va mehnat pedagogikasi hamda boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Sud-psixologik ekspertiza metodi. Tergov yoki sud idoralarining qarori bo'yicha psixolog-ekspert tomonidan o'tkaziladigan sud-

psixologik ekspertiza eng to'liq va xolisona tarzda o'tkaziladigan tadqiqotdir. Ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar doirasi ekspertiza o'tkazilishini tartibga soluvchi qonunchilik talablari bilan cheklangan.

Sud-psixologik tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

- jinoyat ishi materiallarini psixologik tahlil qilish metodi;
- anamnestik (biografik) metod;
- kuzatish va tabiiy eksperiment metodlari;
- shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning instrumental (test, anketa va boshq.) metodlari.

Ushbu metodlarning qo'llanishi ekspertdan tergov muloqoti vaqtidagi ziddiyatli vaziyatlarda subyektning xatti-harakati, emotsional holatlari, tafakkuri va shu kabilarni qayd etishning zamonaviy yo'llarini bilishni, shuningdek, individual xatti-harakat fenomenologiyasini tahlil qilish ko'nikmalarini talab etadi.

Individual-psixologik xususiyatlarni o'rganishning instrumental metodlariga avvalo eksperiment metodining turli variantlari, shuningdek, har xil testlar o'tkazish, anketalar, so'rovnomalar kiradi. Ularning mazmuni psixodiagnostikaga oid asosiy qo'llanmalarda berilgan.

Metodlarning ushbu guruhi insonning ayrim ruhiy xususiyatlarining doimiyligi yoki o'zgaruvchanligi darajasi, tuzilishini aniqlash uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq, sud-psixologik ekspertiza yordamida olinadigan materiallarda ayrim xatolar ham bo'lishi muqarrar. Ushbu xatolar inson shaxsini psixologik o'rganishning o'ziga xos «artefaktlari» hisoblanadi. U eksperiment tadqiqotining barcha bosqichlarida maxsus o'rganish va hisobga olishni talab qiladi.

Har bir muayyan ekspertizaning sifati ko'p jihatdan tadqiqot metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Ammo sud-psixologik eksperiment (SPE)da foydalaniladigan metodlarning hech biri ekspert oldida turgan savollarga bevosita javob topishga olib kelmaydi. Eksperimental, testga oid, anketalashtirish va boshqa metodlarni birgalikda qo'llash, olingan ma'lumotlarni o'zaro solishtirish ekspertiza predmetining har tomonlama tavsiflanishini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan asossiz tanqidga uchramaslik uchun, psixolog-ekspertlar ushbu ekspertiza aktlarida nafaqat ularning diagnostik (tashxis qo'yish) imkoniyatlarini ko'rsatishlari, balki turli psixik (ruhiy) hodisalarning yaxlit manzarasini tiklashga imkon beruvchi tizimli tavsiflar sohasida ham nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishlari zarur.

Psixolog-ekspert ekspertiza tadqiqotida psixodiagnostikaning yetarlicha sinovdan o'tmagan metodlarini qo'llashga haqli emas. Ekspertiza predmetini o'rganish uchun qo'llanishi nihoyatda zarur bo'lgan ayrim holatlarda har bir yangi metod SPE dalolatnomasida diagnostik imkoniyatlari va o'lchovlarining ishonchliligiga oid ma'lumotlar ko'rsatilgan holda batafsil bayon etilishi lozim.

SPEni tashkil qilish va o'tkazishning metodologik prinsiplaridan biri psixologik jarayonlarni hamda ekspertizadan o'tkazilayotgan shaxsning jinoyat hodisasi yuz berishidan avvalgi, jinoyat paytidagi va bevosita undan keyingi holatini qayta tuzish (rekonstruksiya qilish), ushbu jarayonlarning psixologik xususiyatlari va dinamikasini (o'zgarish sur'atini) aniqlash prinsipidir.

Bir qator mualliflar jamiyatga qarshi harakat (ish)ning shakllanishida uch bosqichni ajratadilar: 1) g'ayriijtimoiy yo'nalishga (moyillikka) ega bo'lgan shaxsning shakllanishi; 2) sub'yektda g'ayriijtimoiy harakat sodir etish bo'yicha aniq qarorning shakllanishi; 3) ushbu qarorning amalga oshishi, jumladan nojo'ya harakatning sodir etilishi va zararli oqibatlarining kelib chiqishi. Psixolog-ekspert oldida har bir bosqichdagi psixologik determinantlar (omillar)ni ajratish vazifasi turadi. Birinchi bosqichda o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi baholashning shakllanishi, haqiqiy hayotiy qadriyat va axloqiy-me'yoriy yo'naltirishlarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish zarur. Ekspertizadan o'tkazilayotgan shaxsning individual-tipologik xususiyatlarini tahlil qilish ham muhim o'rin tutadi. Ikkinchi bosqichda ekspertizadan o'tkaziluvchining qaror qabul qilishining o'ziga xos tomonlari tadqiq etiladi. Qaror qabul qilish subyektning shaxsiy jihatlari, xatti-harakat motivlarining obyektiv tashqi vaziyat bilan o'zaro ta'sir jarayoni sifatida baholanadi.

G'ayriijtimoiy harakat sodir etish haqidagi qarorning shaxsiy sabablarga egaligi muammolari – psixikaning individual xossalari qanday rol o'ynashi, shuningdek, ular qaror qabul qilish jarayonini tartibga solish-solmasligiga oid masaladir. Agar birinchi bosqichda psixolog-ekspert shaxsning individual xususiyatlarini o'rgansa, ikkinchi bosqichda aniqlangan shaxsiy xususiyatlarni obyektiv tashqi vaziyat bilan solishtirishi zarur bo'ladi. Ushbu masalalarni hal qilish jarayonida shaxsning hayotdagi qiyinchilik tug'diruvchi holatlarga nisbatan munosabatini tadqiq etish talab etiladi. Har bir shaxs qiyinchilikdan chiqishga imkon beruvchi yo'llarni individual hal qilishi bilan ajralib turadi va bu yo'llarni moslashish shakli sifatida baholash mumkin.

Qandaydir to‘siq va qarshi ta‘sir natijasida motiv amalga oshmasa yoki amalga oshish jarayonida to‘xtagan taqdirda yuzaga keladigan ong va faoliyatning tarqoqlik (dezorganizatsiya) holati «frustratsiya» deb ataladi. Insonning frustrasiya holatini oldindan bashorat qilish uchun uni ehtiyojlari, maqsadlari, harakatlari to‘silgan vaziyatda kuzatish kerak. Frustratsiyaning reaksiyalari ikki asosiy yo‘nalishga ega: impulsivlik yoki tolerantlik (barqarorlik). Psixolog-ekspert ekspertizadan o‘tkazilayotgan shaxsning frustratsiyaga nisbatan munosabatini eksperimental psixologik metod (Rozensveyg testi), biografik metod va kuzatish metodi yordamida tahlil qiladi.

G‘ayriijtimoiy harakat (ish) shakllanishining uchinchi bosqichi, ya‘ni uning amalga oshishi, jumladan nojo‘ya harakatning sodir etilishi va zararli oqibatlarining kelib chiqishi hozirgi vaqtda yuridik fanda yetarlicha to‘liq o‘rganilgan. Biroq, SPEni o‘tkazishda ekspert ekspertizadan o‘tkazilayotgan shaxsning nojo‘ya harakat (ish)ga munosabatini, qilmishni anglash darajasini, ruhiy stress darajasini, psixologik himoyalashining namoyon bo‘lishini inobatga olishi lozim. *Psixologik himoya* – nizoning anglanishi bilan bog‘liq xavotir hissini bartaraf etish yoki eng kam darajaga yetkazishga qaratilgan shaxsni barqarorlashtirishning maxsus izga tushirish tizimi. Psixologik himoyaning vazifasi ongni salbiy, shaxsni jarohatlovchi kechinmalardan «to‘sis»dan iborat. Himoya mexanizmlari orasida voqelikni rad etish, orzu-xayollar, ratsionallashtirish (oqilonallashtirish), proyeksiya, siqib chiqarish va boshqalar ajralib turadi. Simulyativ va dissimulyativ xatti-harakatda himoyaning murakkabroq shakllari kuzatiladi. Psixologik himoya mexanizmlari qadriyatlar tizimining anglanadigan va anglanmaydigan tarkibiy qismlarining qayta tashkil etilishi (reorganizatsiyasi), shuningdek, individual-psixologik va yosh xususiyatlariga ham bog‘liq. Masalan, tekshirilgan jabrlanuvchi ayolda unga nisbatan ko‘p bora sodir etilgan guruh bo‘lib zo‘rlash oqibatida ekstremal ta‘sirlarga hissiy javob shakllari: o‘y-xayolga botish, o‘zi bilan o‘zi bo‘lib qolish, nizoni o‘zgalarning yordamisiz mustaqil hal qilishni istash, vaziyatni yashirish kuzatilgan. Ekspertizadan o‘tkazilayotgan shaxsning bunday xatti-harakatini omadsizlik hissini yengillashtirish, xavotir va ruhiy jarohatlarni bartaraf etish maqsadida stress vaziyatlarga nisbatan himoyalash majmui sifatida baholash mumkin. Jabrlanuvchi ayolning muhim himoya mexanizmi bo‘lib, bir tomondan, boshidan kechirgan voqeani ratsionallashtirish (oqilona deb tushunish), ya‘ni o‘zini oqlash maqsadida

harakati oqilona, shu bois jamiyat tomonidan ma'qullanadigan ekanligini isbotlashga urinish xizmat qildi. Boshqa tomondan, ekspertizadan o'tkaziluvchi ayolning muhim himoya mexanizmini hissiy ajralish, ya'ni o'z-o'zi bilan bo'lib qolish va yetkazilgan ozordan himoyalanişda passivlik tashkil etdi.

Shunday qilib, psixolog-ekspert oldida turgan vazifalarning keng qamrovligi va xilma-xilligini inobatga olgan holda, ekspertizadan o'tkaziluvchining shaxsini bir marta tekshirish emas, balki uning rivojlanish jarayonini o'rganish, turli sharoitlarda o'zini namoyon etishini tahlil qilish zarur. Hech bir psixologik metod shaxs haqida mutlaqo to'g'ri ma'lumot olinishini kafolatlamaydi. Shaxsni samarali psixologik tadqiq etishning muhim tomoni – standart va nostandart tadqiqotlar ma'lumotlarini, eksperimental va noeksperimental metodlarni qo'shish hisoblanadi.

Kasbiy psixologiyaning o'ziga xos metodlariga jinoyat ishini psixologik tahlil qilish kiradi. Bu o'rinda qaror qabul qilish muammosini tadqiq etish ayniqsa samarali hisoblanadi (bu bilan kriminal psixologiya, tergov psixologiyasi, sud jarayoni psixologiyasi, jabrlanuvchining psixologiyasi kabilar shug'ullanadi).

Kasbiy psixologiyaning o'rganish sohalariga, jumladan, tekshirilayotgan shaxs – jabrlanuvchi, jinoyatchi, guvoh-shohid, favqulodda sharoitlar va holatlar kiradi. Shaxs harakat qiladigan bu sharoitlar (kriminogen vaziyat, kriminal vaziyat, tergov vaziyati va h.k.) shaxsning odatdagi tadqiqot sharoitida yo aniqlash juda qiyin bo'lgan, yo umuman ko'rinmaydigan tomonlarini ko'rsatadi.

Shaxsning ong osti holatini chuqur va har tomonlama o'rganishga imkon beradigan psixoanaliz metodi kasbiy psixologiya uchun muhim hisoblanadi. Psixoanaliz jinoiy xatti-harakat motivlari, murakkab nizolarning haqiqiy sabablarini tadqiq etish darajasini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Sud psixologiyasi quyidagi tadqiqot metodlariga ega.

Kuzatish metodining asosiy jihati shundaki, tadqiqot jarayonida insonning odatiy faoliyat tarzi buzilmaydi. Ushbu metod orqali obyektiv natijalarga erishish uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur: qaysi qonuniyatlar qiziqtirayotganligini oldindan belgilash, kuzatish dasturini to'g'ri tuzish, asosiysi, kuzatuvchining o'rganilayotgan shaxslar muhitidagi o'rnini aniqlab olish zarur. Ushbu talablarga rioya etish sud psixologiyasida o'rganiladigan vaziyatlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Kuzatish natijalarini qayd etishda texnik vositalar, birinchi navbatda, kuzatilayotgan shaxsning nutqini magnit tasmasiga yozishdan foydalanish mumkin. Ba'zi hollarda fotosurat va kinotavsirga olishni ham qo'llash yaxshi samara beradi. Dastlabki tergovda texnik vositalardan faqat protsessual qonun doirasida foydalanish mumkin. Tergov harakatining shu tariqa olingan va qayd etilgan natijalari ayni vaqtda dalillarni mustahkamlash metodi hamda muayyan sharoitlarda shaxsning xatti-harakatini kuzatishning qayd etilgan natijasi sifatida baholanishi mumkin. Masalan, ayblanuvchini so'roq qilishda amalga oshirilgan magnitofon yozuvini eshitib, uning hissiy holatiga doir ma'lumotlarni aniqlash mumkin.

Kuzatish nafaqat psixolog-tadqiqotchi, balki tahlil ma'lumotlaridan jinoyatchilikka qarshi kurashda foydalanish uchun tegishli axborot olishi zarur bo'lgan har qanday mansabdor shaxs tomonidan o'tkazilishi mumkin. Xususan, kuzatishni tergovchi shaxsga to'g'ri tashxis qo'yish (uni diagnostika qilish) maqsadida qo'llashi mumkin.

So'roq qilinayotgan shaxsning jinoyat hodisasiga aloqasi bo'lishi mumkinligiga doir axborotni olishda uning mimikasi va imo-ishorasini kuzatish katta ahamiyatga ega. Bunday kuzatish natijalarini bir tomonlama subyektiv baholashning oldini olish uchun kuzatuv xolisona o'tkazilishi, kuzatish chog'ida olingan barcha faktlar qayd etilishi va kuzatish natijalari yetarlicha ilmiy talqin etilishi kerak.

Tergovchi tintuv qilinayotgan shaxsning xatti-harakatini kuzatish va ushbu kuzatish natijalarini tahlil qilish orqali juda muhim ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin.

Eksperiment metodi. Ushbu metoddan foydalanganda eksperiment o'tkazuvchi ruhiy jarayonlar xususiyatlarining tekshirilayotgan shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi stimul (rag'batlantiruvchi omil)larga bog'liqligini o'rganadi. Eksperiment tashqi stimulyatsiya (qo'zg'ovchi)ga aniq belgilangan dastur bo'yicha o'zgaradigan qilib o'tkaziladi. Eksperimentning kuzatishdan asosiy farqi shundaki, kuzatishda tadqiqotchi u yoki bu ruhiy hodisaning yuz berishini kutishi kerak, eksperimentda esa u tashqi vaziyatni o'zgartirish orqali kerakli ruhiy jarayonni atayin keltirib chiqarishi mumkin. Sud-psixologik tadqiqotlar amaliyotida laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment keng tarqalgan.

Laboratoriya eksperimenti asosan ilmiy tadqiqotlarda, shuningdek, sud-psixologik ekspertiza o'tkazishda keng qo'llaniladi. Unga ancha murakkab laboratoriya asbob-uskunalari (ko'p kanalli ossillograflar,

taxistaskoplar va boshq.)ning qo'llanishi xosdir. Laboratoriya eksperimenti yordamida, xususan, tergovchilarning diqqat, kuzatuvchanlik kabi kasbiy xislatlari tadqiq etilgan. Laboratoriya eksperimentining kamchiliklariga huquqni muhofaza qilish idoralarining amaliy faoliyati sharoitida texnikadan foydalanish qiyinchiliklarini, shuningdek, laboratoriya sharoitlarida ruhiy jarayonlar kechishining odatdagi sharoitlarda kechishidan farqli tomonlarini kiritish lozim. Bu kamchiliklar tabiiy eksperiment usulidan foydalanishda bartaraf etiladi. Birinchi navbatda, bu gap jabrlanuvchilar, guvohlar va boshqa shaxslarning muayyan psixofiziologik xislatlarini aniqlash maqsadiga ega bo'lgan tergov eksperimentlarini o'tkazishga taalluqlidir. Murakkab vaziyatlarda tergov eksperimentlarini o'tkazishda mutaxassis-psixologni taklif etish tavsiya qilinadi.

Anketa metodi. Bu metodga tadqiqotchini qiziqtiruvchi faktlar haqida bir qator materiallar olish uchun nisbatan ko'p sonli shaxslar guruhiga beriladigan savollarning bir xilligi xos. Materiallarga statistik ishlov beriladi va tahlil qilinadi. Sud psixologiyasi sohasida anketali metod jinoiy qasdning hosil bo'lish mexanizmini tekshirishda keng tarqalgan (davlat mulkini talon-toroj qiluvchilar, bezorilarning ko'pchiligi o'rtasida anketalashtirish o'tkazilgan). Anketali metod tergovchining professiogrammasini, kasbiy jihatdan yaroqliligi va kasbiy deformatsiyasi (buzilishi)ni tadqiq etishda ancha keng qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda anketali metodni amaliyot xodimlari jinoyatchilik sabablarining ba'zi jihatlarini tadqiq etishda qo'llay boshladilar.

Suhbat (intervyu) metodi. Ushbu yordamchi metod tadqiqotning eng boshida umumiy yo'nalish olish va ishchi farazlarni yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bu erkin, majburiy bo'lmagan suhbat bo'lib, uning davomida tergovchi suhbatdoshining shaxsiga xos asosiy xususiyatlarini o'rganadi, individual yondashuv ishlab chiqadi va so'roq qilinayotgan shaxs bilan muloqotga kirishadi. Bunday suhbat juda ko'p hollarda so'roq qilishning asosiy qismidan avval bo'lib o'tadi va asosiy maqsadi jinoyat hodisasi haqida xolisona va to'liq ma'lumot olishdir.

Suhbat (intervyu) anketa tadqiqotlaridan keyin ham qo'llanishi mumkin. Bunda anketa tadqiqotlari natijalari suhbatlashish orqali chuqurroq o'rganiladi. Suhbatga tayyorgarlik jarayonida savollarni berishga katta e'tibor qaratish lozim. Savollar qisqa, aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

So'nggi yillarda psixodiagnostika o'tkazishda kompyuterdan foydalanishga qiziqish keskin oshdi. Avtomatlashtirilgan psixologik tizim-

larning dastlabki variantlari mamlakatimizda XX asrning 60-yillaridayoq ishlab chiqilgan edi. Ammo ular, EHMlardan foydalanish qiyinligi va ularning qimmat turishi sababli, ommaviy tarzda yoyilmadi. Oʻtgan asrning 80-yillari oʻrtalaridan boshlab esa kompyuter tizimlari test oʻtkazish amaliyotiga keng tatbiq etila boshlandi.

Kompyuterlashtirishdan avval psixologik test oʻtkazish uzoq davom etadigan, bir xil tUSDagi bir muncha murakkab ish boʻlgan. Testdan oʻtayotgan shaxs juda koʻp savollarni oʻqir hamda maxsus jadvallarning katta qogʻoz «choyshab»larini toʻldirar edi. Toʻldirilgan jadvalarga «qoʻlda» ishlov berish ayniqsa qiyin va katta hajmli ish boʻlgan. Psixolog yoki uning yordamchilari javoblarni guruhlariga ajratar (yordamchi jadvalarga yozib qoʻyar yoki maxsus trafertalardan foydalanar), har bir guruhdagi javoblarni hisoblar va aniq psixologik koʻrsatkichlarni aniqlar edilar. Bunday psixologik diagnostika quyidagi sabablarga koʻra amalda qoniqarsizdir:

– testlarda kam sonli xohlovchilarning ishtirok etishi, javoblarga ishlov berishning nihoyatda qiyinligi statistik jihatdan ishonchli natijaga erishish uchun zarur boʻlgan maʼlumotlarni shakllantirishga imkon bermasligi;

– jarayonning testdan oʻtkazilayotgan shaxs ruhiyati va his-tuygʻulariga taʼsiri, natijada uning psixologik holatini buzib koʻrsatishi;

– javoblar ishlovi hajmining kattaligi muqarrar ravishda hisob-kitob xatolariga olib kelishi;

– koʻpchilik tadqiqotchilarning fikricha, test oʻtkazuvchi psixologning subyektiv qarashlari va test natijalarini amaliy qilishi.

Hozirgi vaqtda test oʻtkazish jarayoni kompyuterda erkin suhbat shaklida olib boriladi. Savollarning bir xildagi ketma-ketligiga barham berilgan. Har bir savol ekranda paydo boʻladi va javob kiritilganidan keyin yoʻq boʻladi. Soʻngra keyingi savol paydo boʻladi va hokazo. Vaziyat uzluksiz oʻzgarib turadi. Testdan oʻtayotgan shaxsning oʻzi suhbat (dialog) surʼatini, hissiy boyligini belgilaydi. Bularning bari shaxsning suhbatda oʻzini toʻliq namoyon etishiga yordam beradi.

Hozir kompyuterlarda psixologik parametrlarni hisoblash hamda testdan oʻtayotgan shaxs javoblarining butun majmui boʻyicha berish jarayoni bir necha soniya vaqt talab qiladi. Psixolog test oʻtkazib boʻlingan zahoti asosiy psixologik koʻrsatkichlarning toʻliq toʻplamiga ega boʻlgan tayyor psixokartani oladi. U faqat mutaxassis sifatida ishlaydi. Asosiy koʻrsatkichlar majmui dastlabki tarzda baholanganidan soʻng ancha ixtisoslashgan dasturlar boʻyicha qoʻshimcha test tayin-

lanishi mumkin. Bunday dasturlar bloki ishlab chiqilgan, yo'lga qo'yilgan va amalda foydalanilmoqda.

Psixokartalarning to'planib boruvchi massivi kompyuterda keyinchalik ishlov berish – umumiy statistik qonuniyatlarni (mutaxassisning psixologik portreti xususiyatlariga jins, yosh, ish staji, kasb va boshqa omillarning ta'sirini) aniqlash uchun foydalaniladi.

Testdan o'tish 90 daqiqadan oshmasligi kerak. Asosiy testdan keyin tekshiriluvchi shaxs o'zining individual-tipologik va shaxsiga xos xususiyatlarni raqamlar ko'rinishida ifodalovchi maxsus psixogrammalarni oladi. Psixolog-mutaxassis yakka tartibdagi suhbatda tekshiruvchiga test natijalarini tushuntirib beradi. Ta'kidlash joizki, ba'zi test o'tkazish tizimlarida kompyuterda tekshiriluvchilarga o'z shaxsini test ma'lumotlari bo'yicha tavsiflash taklif etiladi. Bunday xarakteristikalar (tavsiflar) rasmiy (formal) xususiyatga ega, ularda olingan empirik ma'lumotlar inobatga olinmaydi. Bundan tashqari, test o'tkazish tizimi o'z-o'zicha emas, balki inson faoliyatini yaxshilash uchun zarur. Olingan ma'lumotlarni psixolog muayyan maqsadga yo'naltirilgan suhbat, kuzatish kabilarning natijalari bilan solishtiradi.

Psixolog test natijalari bo'yicha individual maslahat jarayonida psixik adaptatsiya (moslashuv) xususiyatlari, hissiy-irodaviy holati, shaxsning tuzilishi va ehtiyoj yo'nalishlarini tahlil qiladi.

Yuridik psixologiyada muammoli vaziyatda huquqiy oqibatlarga ega bo'ladigan shaxs xatti-harakatining psixik qonuniyatlarini tadqiq etish juda samarali hisoblanadi. Bunday yondashuv qonunga itoatkor xatti-harakatning ruhiy qonuniyatlarini o'rganish uchun ham, g'ayriqonuniy xatti-harakat mexanizmlari va ularning turli oqibatlarini (jinoyatni ochishdan tortib jinoyatchining qayta ijtimoiylashuvigacha) aniqlash uchun ham samaralidir.

Shunday qilib, tizimli yondashuv psixologiya va huquqshunoslikning turli usullari bilan birga, faoliyat jarayonining asosiy psixologik qonuniyatlari, shaxsning tuzilishi va huquqiy normalar tizimining o'zaro ta'sirini yetarlicha chuqur tahlil etish va aniqlashga, ushbu o'zaro ta'sirning barcha ishtirok etuvchi elementlarini inobatga olgan holda aniq tavsiflash va muhim xususiyatlarini ajratishga imkon beradi.

4. Kasbiy psixologiya fanining asosiy vazifalari

Mamlakatimizda huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining borishi ichki ishlar idoralari xodimlari zimmasiga bir qator yangi vazifalarni yuklaydi.

Kasbiy psixologiyaning asosiy vazifasi shaxsning ichki his-tuyg'ularini o'rganish, jinoyatning kelib chiqishining subyektiv va obyektiv sabablarini o'rganishdir.

Shu bilan birga bu fanni o'rganish jarayonida quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish muhimdir:

- jinoyatchilikning oldini olish;
- jinoyatchilikni batamom tugatish;
- yuridik shaxslar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish;
- fuqarolarning huquqiy bilimdonligini oshirish;
- inson omilini birinchi o'ringa olib chiqish.

Kasbiy psixologiya fanini o'qitishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

- bo'lg'usi huquqshunos mutaxassislarni kasbiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish;
- kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish;
- huquq mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarni har tomonlama shakllantirish;
- huquq yo'nalishida ta'lim olayotgan mutaxassislarning kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish;
- kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo'lish va psixologik aloqa o'rnatish mahoratiga ega bo'lish.

Kasbiy psixologiya fani ana shu vazifalarning maqsadi va ko'lamidan kelib chiqqan holda quyidagi bir qator vazifalarni bajaradi.

1) huquqiy va psixologik bilimlarni chuqur o'rganish hamda ularni ilmiy jihatdan sintezlash;

2) yuridik tushuncha va kategoriyalarning yuridik-psixologik mohiyatini ochib berish;

3) ichki ishlar idoralari xodimlariga asosiy obyekt – inson xulq-atvorining ruhiy jihatlarini tushuntirish;

4) huquqiy munosabatlarga kirishayotgan subyektlar o'rtasidagi psixik jarayonlarni o'rganish va ularning ruhiy holatlarini ko'rsatish;

5) jamiyatning ijtimoiy holatini tartibga solishni yanada takomillashtirish uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish;

6) ichki ishlar idoralari xodimlari uchun psixologik xizmat ko'rsatish taktikasi va metodikasini ishlab chiqish.

Shu ma'noda, ichki ishlar idoralari xodimlari uchun psixologik bilimlar jinoiy-huquqiy kategoriyalar (ayb, motiv, maqsad, jinoyatchi

shaxs va boshq.)ni va alohida huquqiy vazifalar, ya'ni sud-psixologik ekspertizasini tayinlash, jinoyat tarkibini klassifikatsiya qilish (yengillashtiruvchi holatlar – JKning 55, 98, 106-moddalari)da muhim ahamiyatga ega.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Kasbiy psixologiyani fan sifatidagi ahamiyatini aytib bering.
2. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Kasbiy psixologiya fani metodlarini tavsiflang.
4. Kasbiy psixologiya fanining qonuniyatlari va o'ziga xos tomonlari nimalarda ko'rinadi?
5. Kasbiy psixologiya fani qaysi fanlar bilan uzviy bog'liq?
6. Yuridik psixologiyaning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
7. Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasining dolzarb muammolari nimalardan iborat?
8. Profilaktik faoliyat psixologiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
9. Tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasining muhim jihatlarini ko'rsating.
10. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyati qanday?

II bob.

**ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMI SHAXSIGA
PSIXOLOGIK TAVSIF**

**1. Psixologiyada «shaxs» tushunchasi. ichki ishlar idoralari
xodimi shaxsini o‘rganishning psixologik muammolari**

«Shaxs» tushunchasi keng va ko‘p qirralidir. Shaxsni u yoki bu yo‘nalishda bir qator fanlar: falsafa, tarix, pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot va psixologiya o‘rganadi. Psixologiya fani boshqa fanlardan farqli o‘laroq, shaxsning ichki dunyosini, boshqacha qilib aytganda, uning ruhiy jarayonlarini, hissiy-irodaviy holatlarini, individual psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Psixologiya fanida shaxs muammosini o‘rganish bo‘yicha turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik kabi qarashlar, yondashuvlar qiradi.

Biogenetik nazariya negizida insonning biologik rivojlanishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo‘lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etadi, ular bilan o‘zaro aloqalar tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlarga (aniqllovchilariga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar kelib chiqadi.

Taraqqiyot jarayonining o‘zi avval biologik rivojlanishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi.

Biogenetik qonuniyat F. Myuller va E. Gekkellar tomonidan kashf qilingan bo‘lib, ular ushbu qonuniyat taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilish hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o‘ynagan. Biroq, inson organizmining individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Jumladan, biogenetik qonuniyatga ko‘ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g‘oya yotadi.

Psixologiya tarixida biologizmning yaqqol ko‘rinishi Z. Freyding shaxs talqinida o‘z ifodasini topgan. Uning ta’limotiga binoan, shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, u jinsiy (seksual) maylga (libidoga) bog‘liq-

dir. Bunga o'xshash biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki vazifasini bajara olmaydi.

Sotsiogenetik nazariya. Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi sotsiogenetik nazariya hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashuvga binonan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

Kognitivistik yo'nalish. Kognitivistik yo'nalishning asoschilari qatoriga J. Piaje, Dj. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J. Piajening intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta'limotini o'z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko'nikish)dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarni ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug'ilishdan to 2 yoshgacha);
- 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha);
- 3) muayyan operatsiyalar davri (7–8 yoshdan 11–12 yoshgacha);
- 4) formal (rasmiy) operatsiyalar davri.

J. Piajening g'oyalarini davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyaga birlashtirish mumkin. Bu yo'nalishning namoyandalari qatoriga L. Kolberg, D. Bromley, Dj. Birrer, A. Vallon, G. Grimm va boshqalar kiradi.

Shaxs psixologiyasining rivojlanishi muammosini o'rganishga Rossiyalik atoqli olimlar L. S. Vigotskiy, P. P. Blonskiy, S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontyev, B. G. Ananyev, A. G. Kovalev, L.I. Bojovichlar o'zlari-ning salmoqli hisslarini qo'shganlar.

Quyida psixologlarning ayrim fikrlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

A. G. Kovalevning fikricha, shaxs – ijtimoiy munosabatlarning ham obykti, ham subyekti. A. N. Leontyevning tushuntirishicha, shaxs faoliyat subyektidir. K. K. Platonov jamiyatda o'z vazifasini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli individni shaxs deb ataydi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S. L. Rubinshteynning

ta'rificha, shaxs tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi, ichki shart-sharoitlar mahsulidir.

A. V. Petrovskiyning quyidagi ta'rifini shaxsning psixologik ta'rif sifatida qabul qilish mumkin: «O'z mehnati tufayli hayvonot olamidanda ajralib chiqqan, jamiyatda rivojlanuvchi va odamlar bilan til yordamida munosabatga kirishuvchi odam shaxsga voqelikni beruvchi hamda faol o'zgartiruvchi subyektga aylanadi». Ko'rinib turibdiki, psixolog olimlar shaxsni tushunishga turli tomonlardan yondashib, unga har xil ta'rif berishgan.

Muayyan fikrlarni jamlagan holda shaxsga quyidagicha ta'rif berish mumkin. «*Shaxs o'z menligini anglagan, o'zgalari bilan o'zaro munosabatlarga kirisha oladigan tabiat va jamiyatga faol ta'sir o'tkaza oladigan har qanday individ*».

Yuqorida bayon qilingan nazariyalar va psixolog olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, psixologiyada «shaxs» masalasini tushunish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1) jamiyatning a'zosi hisoblangan va ong egasi bo'lgan har bir individ shaxsdir;

2) shaxs hamma vaqt muayyan, faqat o'ziga xos bo'lgan murakkab individual sifatlar va xususiyatlar egasidir. Bu sifatlar va xususiyatlar shaxs xulqida, boshqa shaxslar bilan munosabatlarida, irodasi va xulq-avtorida, xislatlarida, qobiliyatlari, mayllari va qiziqishlarida ifodalanadi;

3) odam shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki u ijtimoiy taraqqiyot jaryonida shaxs sifatida shakllanadi.

4) shaxs psixologiyasini aniq tarixiy sharoitlardan, u mansub bo'lgan jamiyatdan, jamiyatda egallagan mavqeidan kelib chiqqan holda o'rganish mumkin.

Ushbu xulosalardan ichki ishlar idoralari faoliyatida amalda foydalaniladigan bo'linsa, shaxs muammosini o'rganishning ikki tendensiyasi (tendensiya lotincha so'z bo'lib, «intilish», «g'oya», «fikir», «mayl», «tamoyil» degan ma'nolarni anglatadi) birligini kuzatish mumkin.

Birinchi tendensiya ichki ishlar idoralari xodimlarini jamiyatda mavjud shaxs sifatida tan olib, uning shaxsiy individual psixologik xususiyatlarini o'rganish, ya'ni uni psixologik jihatdan tavsiflash, tasniflashdir. Buni xodimning yuridik mehnati psixologiyasi nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin. Ya'ni yuridik mehnat huquqni qo'llash faoliyatining psixologik qonuniyatlarini tadqiq etadi va huquqshunoslikka oid mutaxassisliklar professiogrammalarni, huquqiy usul va

mahoratni, mutaxassislik ko'nikmalari va malakalarini, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishni, huquqni muhofaza qilish faoliyati shakllari va boshqaruvini, mutaxassislik yo'nalishini, mutaxassislikka tanlovni; huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari shaxsini shakllantirish va ixtisoslikka oid tarbiyalashni, mutaxassislik deformatsiyasi (buzilishi) va uning oldini olish, ish joyini, ish vaqtini to'g'ri tashkil etishini va boshqa masalalar bo'yicha ularning psixologik asosini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Ikkinchi tendensiya ichki ishlar idoralari xodimlari xizmat faoliyatining obykti va predmetini tashkil etuvchi shaxslar psixologiyasini har tomonlama o'rganish. Bu tendensiya jinoyatchi shaxs, aybdor, jabrlanuvchi, guvoh va hokazolarning ichki ruhiy holatlarini tadqiq qilish ishlarini o'z ichiga oladi. Bu tendensiyaning yechimi ichki ishlar idoralari xodimlari zimmasiga yanada murakkabroq bo'lgan vazifalarni yuklaydi¹.

Bu ikki tendensiya ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida shaxs muammosini psixologik jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida shaxs muammosini o'rganishning bu ikki tendensiyasi rasman ikki xilda ko'rinsa ham uning yechimi bir nuqtaga, ya'ni mamlakatimizda yashab mehnat qilayotgan shaxslarning psixologiyasini o'rganib, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga kelib taqaladi. Bu har ikki tendensiya uchun ham ustuvor vazifa hisoblanadi.

2. Ichki ishlar idoralari xodimlari shaxsining psixologik tuzilishi

Ichki ishlar idoralari xodimlari shaxsining psixologik tuzilishi yetarli darajada o'rganilmagan. Uning psixologik tuzilishi quyidagi masalalarning hal qilinganligi darajasiga bog'liq.

Birinchidan, ichki ishlar xodimi davlat xizmatchisi sifatida mavjudmi, mavjud bo'lsa, unga qanday majburiyatlar yuklangan va qanday vakolatlar berilgan?

Bizning davlatimizda bu masala yetarli darajada hal qilingan. Masalan, IIV mavjud, u har doim takomillashib bormoqda.

Ikkinchidan, ichki ishlar xodimlarining o'zaro va fuqarolar bilan bo'ladigan munosabatlari qanday ijtimoiy normalarga asoslangan? Bu

¹ Qarang: *Васильев В. Л. Юридическая психология.* — СПб., 1999. — С. 198.

masala ham ijobiy hal qilingan bo‘lib, u qonunchilikka hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan.

Uchinchidan, ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy va ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarlik darajasi qanday yo‘lga qo‘yilgan? Bu masala ham to‘g‘ri hal qilingan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi IIV tomonidan 2011-yil 04-iyulda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlarining «Kasb madaniyati»ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 96-sonli buyruq, 2013-yil 29-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi bilan «Ma‘rifat va siyosiy o‘qish» darslarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida»gi 93-sonli buyruq va «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlarining ma‘naviy saviyasini oshirish, shaxsiy tarkib bilan yakka tartibda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 171-sonli buyruq va boshqalar.

To‘rtinchidan, xodimlarning har bir ijobiy xatti-harakat qanday baholanadi? Mana shu masalalarning qonuniylik, adolat, axloqiylik mezonlari bilan hal qilinishi ichki ishlar idoralari xodimlarining psixologik tuzilishini belgilaydi.

Psixolog olimlar shaxsning psixologik tuzilishini quyidagicha talqin qiladilar. Masalan, atoqli rus psixologi S. L. Rubinshteynning fikriga ko‘ra, shaxs psixologiyasi quyidagi tuzilishga ega:

1) yo‘nalganlik, u ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e‘tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi;

2) bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar hayot va faoliyat jarayonida egallanadi;

3) individual tipologik xususiyatlar temperament, irodada aks etadi.

K. K. Platonov ta‘limotiga ko‘ra, shaxs psixologiyasining tuzilishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Yo‘nalganlik kichik tizimi (ost tuzilish) shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko‘lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

Ijtimoiy tajriba kichik tizimi (ost tuzilishi) ta‘lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko‘nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

Psixologik aks ettirish shakllari kichik tizimi (ost tuzilishi) ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Biologik shartlangan kichik tizimi (ost tuzilishi) miyaning morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog‘liq

bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A. G. Kovalev talqiniga ko'ra, shaxs psixologiyasi quyidagicha tuzilishga ega:

– *yo'nalganlik* voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil g'oyaviy va amaliy yo'nalishlar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

– *imkoniyatlar* shaxs faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlovchi tizim. O'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlarni qamrab oladi;

– *iroda* ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvorini aniqlaydi. Odanning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Iroda tizimida irodaviy va ma'naviy sifatlari ajratiladi;

– *mashqlar tizimi* hayotiy faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, boshqarishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, inson shaxsining o'zi «endopsixik» va «ekzopsixik» tizimga bo'linadi, degan fikr ham ilgari surilgan. Shaxs psixologiyasining ichki tuzilishi sifatida «endopsixika» bamisoli kishining nerv psixik tuzilishiga o'xshash bo'lgan inson shaxsining ichki mexanizmi kabi psixik qismlar va funksiyalarning o'zaro ichki bog'liqligini ifoda etadi. «Ekzopsixika»ning tashqi muhitga munosabati, ya'ni shaxs qanday bo'lmasin, baribir munosabatga kirishishi va shaxsga qarama-qarshi turadigan tizimlarning barchasiga nisbatan munosabati bilan belgilanadi.

«Endopsixika» moyillik, xotira, tafakkur, xayol, irodaviy zo'riqish, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik kabi xislatlarni, «ekzopsixika» esa kishi munosabatlari tizimi va uning tajribasini, qiziqishlarini, moyilliklarini, his-tuyg'ularini, shakllangan bilimlari va boshqa xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Tabiiy asosdagi «endopsixika», ijtimoiy omil bilan belgilanadigan «ekzopsixika»ga qarama-qarshi o'laroq, biologik jihatlar bilan bog'liq.

Psixolog olimlarning yuqorida bayon qilgan fikrlarini metodologik asos qilib olgan holda, ichki ishlar idoralari xodimlari shaxsining psixologik tuzilishi quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

1) kasbiy yo'nalganlik xodimning ehtiyojlari, qiziqishlari, e'tiqodlari, faoliyati va xulqining ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarida ifodalanadi;

2) kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar xodimning hayotiy faoliyati jarayonida egallanadi;

3) individual tipologik xususiyatlar xodimning temperamenti, irodasi va qobiliyatida aks etadi;

4) mashqlar tizimi hayotni, faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

3. Ichki ishlar idoralari xodimlari shaxsining bilish faoliyatiga psixologik tavsif

Ichki ishlar idoralari xodimlarining bilish faoliyati boshqa kasb kishilarnikiga qaraganda chuqurligi, keng qamrovliligi, tezkorligi, aniq maqsadga qaratilganligi, mantiqiyiligi, maxsusligi bilan farq qiladi. Quyida bularning barchasiga batafsil to'xtalamiz.

Diqqat va uning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida tutgan o'rni. Diqqat kishi faoliyatining barcha turlari, eng avvalo, mehnat va o'quv faoliyati samaradorligining muhim va zarur shartidir. Bilish jarayonlari kechishining eng muhim xususiyati uning tanlanganligi, yo'naltirilganligidan iboratdir. Tevarak-atrofdagi ko'plab ta'sirlar orasidan kishi hamisha nimanidir idrok etadi, nimanidir faraz qiladi, nima haqidadir fikr yuritadi, o'ylaydi. Ongning bu xossasi diqqat kabi xususiyat bilan o'zaro bog'liq. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy faoliyatida bilish jarayonlarining ahamiyati beqiyosdir. Biz quyida bilish jarayonlariga va uning ichki ishlar idoralari faoliyatidagi o'rniga to'xtalamiz.

Diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligidir.

E'tiborni ma'lum obyektga qaratish uchun irodaviy kuch-g'ayrat sarflash zarurati yuzaga kelganda, binobarin, qiyinchiliklar paydo bo'lganida, bilishga oid qiziqish susayganida va shuningdek, to'siqlar mavjud bo'lgan kezlarda diqqat aniq-ravshan namoyon bo'ladi.

Hosil bo'lish xususiyati va amal qilish usullariga ko'ra diqqatning uchta asosiy turi mavjud:

- ixtiyorsiz diqqat;
- ixtiyoriy diqqat;
- ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat

Ixtiyorsiz diqqat kishining niyatlari va maqsadlaridan mustasno tarzda hosil bo‘ladi va qo‘llab-quvvatlanadi. Ixtiyorsiz diqqatning paydo bo‘lishi jismoniy, psixofiziologik va psixik omillar bilan belgilanadi. Individning ehtiyojlariga mos keladigan, uning uchun ahamiyatiga ega bo‘lgan qo‘zg‘atuvchilar ixtiyorsiz diqqatni qo‘zg‘aydi. Ixtiyorsiz diqqatda bevosita qiziqishning roli benihoya kattadir. Nimaiki qiziqarli, maroqli, hissiyotga boy, zavqli bo‘lsa, diqqatning uzoq vaqt mobaynida to‘planib turishini taqozo etadi. Ixtiyorsiz diqqat shaxsning umumiy yo‘nalganligiga ham bog‘liqdir.

Ixtiyoriy diqqat ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan diqqat-e‘tibordir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat zamirida hosil bo‘ladi. Ixtiyoriy diqqat, agar kishi o‘z oldiga ma‘lum bir vazifa qo‘ygan va harakat dasturini ongli tarzda ishlab chiqqan bo‘lsa, yuz beradi.

Ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy to‘planganligidagi kabi, faqat uning mazmuni va jarayonining qiziqarli hamda ahamiyatli bo‘lishi natijasida qiziqib, kirishib ketish xususiyatida namoyon bo‘ladi. Diqqatning jamlanishi, jalb qilinishi ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatda unumli va sermahsul hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat sharoitiga o‘tish uchun ish jarayonini faollashtirish talab etiladi. Ish jarayonini xotira qonuniyatlarini yaxshi bilgan holda, uning yordamidan foydalanib amalga oshirish talab etiladi. Bular mantiqan tushunish va qiziqish uyg‘otish qonuniyatlari hisoblanadi¹.

Kasbiy diqqat yaxshi shakllangan ixtiyoriy diqqatning anglanganligi va keragicha boshqarish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turuvchi va nima, qachon, qayerda hamda nimaga diqqatni qaratish kerakligini belgilab beruvchi jarayon hisoblanadi. Kasbiy diqqatning yaxshi rivojlanganligi uning maqsadli va mohirona yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Diqqatni bir joyga jamlash va uni to‘g‘ri yo‘naltirishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

- ish jarayoniga xos va mos sharoitni yaratish, ya’ni ish joyini saranjomlash, yorug‘likka qulay joylashib olish;
- muayyan vazifani bajarish uchun psixologik tayyorgarlik ko‘rish;
- aqliy tayyorgarlik, zarur adabiyotlardan foydalanish, tajriba orttirish, aqliy faoliyat yuritish uchun qulay vaqtlarni hisobga olish

¹ Qarang: Военная психология / Под редакцией А. Г. Малакова. – М., 1999. – С. 82.

(tongi soat 5 dan 11 gacha, kunduzgi soat 16 dan kechki 20–24 gacha aqliy faoliyat unumdorligi yuqoriligini kuzatish mumkin).

Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy faoliyatida diqqatning asosiy xususiyatlari (*taqsimlanishi, tarqoqligi, barqarorligi, tez o‘rin almashishi*) ham o‘zisha xos ahamiyat kasb etishi, ya’ni sodir bo‘lgan voqea-hodisalarning zarur tomonlarini o‘rganish va aniqlik kiritishda, jinoyatchi shaxsning psixik holatini kuzatishda qo‘l kelishini anglab yetish lozim. Masalan, diqqatning hajmi 7–12 ta obyektga to‘liq qamraydi, barqarorligi 10–12 daqiqa to‘liq saqlanadi, bir soniya ichida diqqatni 3–4 marotaba ko‘chirish mumkin.

Shunday ekan, ichki ishlar idoralari xodimlari o‘z xizmat faoliyatida kasbiy diqqatni yuzaga keltirish uchun quyidagi usullardan foydalanishlari zarur:

- obyektga kuzatish jarayonida jinoyatchining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish va jinoyatchi o‘rinda o‘zini tasavvur qilishi;

- obyektga kuzatish jarayonida diqqatni to‘g‘ri taqsimlash va tez ko‘chira bilish ko‘nikmasini shakllantirish usullaridan foydalanish;

- davomli mashq qilish yordamida diqqat markazida 2–7 tadan, 8–15 tagacha bo‘lgan obyektga ushlab turish;

- diqqatni bir obyektga ikkinchisiga ko‘chirishda har bir soniyadan unumli foydalanish;

- diqqat doirasining torayishini hisobga olish, ya’ni axborot qanchalik muhim bo‘lmasin, bir obyektga bog‘lanib qolmaslik;

- umumiy kuzatuv obyektida, sharoitni o‘rganish maqsadida, diqqatni teng taqsimlash orqali obyektga qismlarga bo‘lib kuzatish.

Diqqatni kuchaytirish usullari:

- javobgarlik hissini sezish, faoliyat samaradorligini belgilovchi ahamiyatli tomonlarni hisobga olish;

- muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishda irodaviy kuchga tayanish;

- obyektga «e’tibor bilan kuzat», «yaxshilab qara», «yana bir bor tekshir» kabi diqqatni kuchaytiruvchi buyruqlarni berish;

- salbiy hissiyotlarni kuzatish jarayoniga aralastirmaslik;

- kuzatuvchanlik faoliyatini susaytiruvchi omillarni inobatga olmaslik.

Diqqatni jamlash prinsiplari:

- muayyan holatga diqqatni yo‘naltirish;

- ahamiyatsiz ma’lumotlarni miyada saqlamaslik;

– keraksiz fikrlarga chalgʻimaslik.

Diqqat jarayoni, oʻz navbatida, kuzatuvchanlik faoliyati bilan uygʻun shakllanadi. Kuzatish ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy faoliyatida oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. U operativ qiziqish uygʻotgan shaxslarning jinoiy faoliyatini fosh etishda, ularning aloqalarini, shaxsiy xislatlarini oʻrganishda, tergov jarayoniga tegishli maʼlumotlarni toʻplashda namoyon boʻladi.

Kuzatish deganda, maʼlum bir maqsadli rejani amalga oshirish uchun narsa va hodisani ongda ataylab idrok etish tushuniladi.

Kasbiy kuzatish esa ichki ishlar idoralari xodimlarining operativ xizmat vazifalarini amalga oshirishda muhim voqea va hodisalarni maqsadga muvofiq tarzda idrok etish jarayonidir.

Kasbiy kuzatuvchanlik xodimning shaxsiy xususiyati emas, balki tabiiy xususiyatiga aylanib, faoliyatning barcha turlarida namoyon boʻlishida, kuzatuvchanligining oliy darajaga chiqqanida namoyon boʻladi¹.

Kasbiy kuzatishda koʻzga tushgan barcha narsa idrok etilmaydi, balki eng muhim, zarur, xizmat faoliyati uchun ahamiyatga molik boʻlgan obyekt (narsa, predmet)lar idrok etiladi. Bu, odatda, kuzatish asosini tashkil qiladigan maqsadlar, vazifalar, rejalar bilan bogʻliq boʻladi.

Kasbiy kuzatuvchanlik samaradorligi esa albatta psixologik mexanizmlar, qonuniyatlar va omillar bilan belgilanadi. Yaʼni ular namoyon boʻlish xususiyatlariga koʻra *obyektiv, sharoitga xos va subyektiv* guruhlarga boʻlinadi.

Kasbiy kuzatish jarayonini amalga oshirishda subyektiv omillarga muhim vazifa yuklatiladi.

Obyektiv va sharoitga xos omillar kuzatilayotgan shaxs, obyekt va ular oʻrtasida mavjud sharoit xususiyatlarini qamrab oladi.

Subyektiv tomon jinoiy guruh aʼzolarining xatti-harakatlarini yashirish niyatida amalga oshiradigan niqobli (yashirin) harakatlari, yaʼni jinoyat sodir etilgan joyda iz qoldirmaslik, dalil-isbotlarni topishni qiyinlashtirish, dastlabki surishtiruv ishlarini olib borishda anglashilmovchiliklarga sharoit yaratish kabilarda namoyon boʻladi.

Shu nuqtai nazardan kasbiy kuzatuvchanlik faoliyatini shakllantirishda xodimdan kasbiy diqqat, idrok xususiyatlari va operativ xotira jarayonlarini rivojlantirish talab etiladi.

¹ Qarang: *Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 39.*

Ichki ishlar idoralari xodimi operativ qiziqish uygʻotgan shaxsga nisbatan kuzatuv ishlarini olib borishda quyidagi psixologik omillarni hisobga olishi kerak.

– oʻzi kuzatayotgan gumonlanuvchi shaxsning xulq-atvoriga xos boʻlgan xususiyatlar (masalan, jinoiy faoliyatiga xos xususiyatlari, yoʻnalishi, jinoiy tajribasi, nimalarga qiziqishi, moyilligi va boshq.)ni;

– zarur boʻlganda maxsus texnik vositalar va eslab qolish orqali kuzatilayotgan obyektning xatti-harakatlarini toʻliq esda saqlashi, kerak boʻlsa aniq qayd etishi;

– qayd etilgan faktlarni kuzatilayotgan obyekt toʻgʻrisida olingan avval maʼlumotlar bilan qiyoslashi va xulosalar chiqarishi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy kuzatuvchanlikni rivojlantirishda quyidagilarni eʼtiborga olishi zarur:

– kuzatuvdan oldin oʻrganilayotgan shaxs, narsa yoki hodisa haqida toʻliq tasavvurga ega boʻlish;

– vazifani aniq maqsad asosida belgilab olish (xayolan boʻlsa-da) va kuzatuv rejasi hamda tartibini tuzish;

– kuzatilayotgan obyektida nafaqat topilishi kutilgan narsani, balki uning teskarisini ham izlash;

– kuzatish predmetini qismlarga boʻlib oʻrganish bilan birga, butun jarayonni kuzatishni esdan chiqarmaslik;

– bir martalik kuzatishga ishonmaslik, obyektни turli nuqtai nazar va turli vaziyatlarda tekshirish;

– kuzatish davomida har bir elementga nisbatan «nega?», «nima uchun?» kabi savollar qoʻyish, oʻz fikr va xulosalari asosida taxmin qilish;

– kuzatuv obyektlarini solishtirish, ularni bir-biriga qarama-qarshi qoʻyish va ulardagi oʻxshash hamda farq qiluvchi tomonlarni topish;

– kuzatish natijalarini ushbu predmet haqida maʼlum boʻlgan maʼlumotlar bilan qiyoslash;

– kuzatish natijalarini aniq ifodalash va tegishli shaklda qayd etish;

– kuzatishga turli mutaxassislarni jalb etish, kuzatish natijalarini solishtirish va hamkasblari bilan muhokama qilish;

– kuzatuvchi oʻzi ham kuzatish obyekti boʻlishi mumkinligini esda tutishi¹.

¹ Qarang: Ратинов А. Р. Судебная психология для следователей. – М., 1967. – С. 90.

Kasbiy kuzatuvchanlikni rivojlantirishning muhim yoʻnalishi omili tegishli psixologik qonuniyatlarga asoslangan kasbiy kuzatish texnikasini egallash sanaladi.

Sezgi va uning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida tutgan oʻrni. Sezgi oddiy psixik jarayon boʻlib, u moddiy olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari aksidan, shuningdek, moddiy qoʻzgʻatuvchilar tegishli retseptorlarga bevosita taʼsir etganda organizmda hosil boʻladigan ichki holatlardan tarkib topadi. Materiya bizning sezgi, irodalarimizga taʼsir etib, sezgi hosil qiladi. Sezgi aʼzolari axborotni qabul qilib oladi, saralaydi, jamlaydi va miyaga yetkazib beradi.

Sezgi aʼzolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yoʻllaridir. Sezgilarning mohiyatiga koʻra obyektiv olamning subyektiv siymosi hisoblanadi. Lekin sezgilarning hosil boʻlishi uchun organizm moddiy qoʻzgʻatuvchining tegishli taʼsiriga berilishi kifoya qilmaydi, balki organizmning oʻzi ham qandaydir ish bajarishi darkor.

Kishining hayoti va faoliyatida sezgilarning roli juda katta. Chunki, ular bizning olam haqidagi va oʻzimiz toʻgʻrimizdagi bilimlarimiz manbai hisoblanadi. Inson tevarak atrofda sodir boʻlayotgan voqea-hodisalar haqida hamisha axborot olib turishi kerak.

Shu maʼnoda, sezgilarning maʼlum bir qoʻzgʻatuvchining muayyan retseptorga taʼsiri natijasida hosil boʻlgani uchun ham sezgilarning tasnifi ularni hosil qiladigan qoʻzgʻatuvchilarning va ana shu qoʻzgʻatuvchilarga taʼsir qiladigan retseptorlarning xususiyatlariga asoslanadi.

Sezgilarning Arastu tomonidan alohida ajratib koʻrsatilgan turlari mavjuddir:

- koʻrish;
- eshitish;
- hid bilish;
- badanning tegishli aʼzolari orqali sezish;
- taʼm bilish.

Sezgilarning maʼlum bir qoʻzgʻatuvchining muayyan retseptorga taʼsiri natijasida hosil boʻlgani uchun ham sezgilarning tasnifi ularni hosil qiladigan qoʻzgʻatuvchilarning va ana shu qoʻzgʻatuvchilarga taʼsir qiladigan retseptorlarning xususiyatlariga asoslanadi.

Aks etish xususiyatiga va retseptorlarning joylashgan oʻrniga qarab sezgilarning, odatda, uch guruhga ajratiladi:

1. Tashqi muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda tananing yuzasida retseptorlari bo‘lgan ekstrotseptiv sezgilar.

2. Tananing ichki a‘zolarida va to‘qimalarida joylashgan hamda ichki a‘zolarining holatini aks ettiradigan retseptorlarga ega bo‘lgan interotseptiv sezgilar.

3. Retseptorlari mushaklarda va paylarda o‘rnashgan proprioseptiv sezgilar, ular gavdamizning harakati va holati haqida axborot berib turadi.

Ekstrotseptivlarni ikki guruhga, ya‘ni aloqa bog‘laydigan kontakt va distant retseptorlarga ajratamiz. Aloqa bog‘laydigan retseptorlar ularga ta‘sir qiladigan obyektlar bilan bevosita aloqa bog‘lagan paytda qo‘zg‘aydi; badanning tegishli a‘zolari orqali sezish, ta‘m bilish retseptorlari shular jumlasidandir. Distant retseptorlar uzoqdagi obyekt-dan keladigan qo‘zg‘atishdan ta‘sirlanadi; distant retseptorlarga ko‘rish, eshitish, hid bilish retseptorlari kiradi.

Adaptatsiya yoxud moslashuv sezgi organlari sezgirlikning qo‘zg‘atuvchi ta‘siri ostida o‘zgarishi demakdir.

Bu hodisaning uch xil turini alohida ko‘rsatish mumkin:

1. Qo‘zg‘atuvchining uzoq muddat davomida ta‘sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo‘qolib qolishiga o‘xshaydi. Doimiy qo‘zg‘atuvchilar ta‘sir qilgan taqdirda sezgi yo‘qolib qolish xususiyatiga ega. Masalan, terining ustiga qo‘yilgan yengilgina yuk tezdayoq sezilmaydigan bo‘lib qoladi. Hid bilish sezgilari atrof-muhitga yoqimsiz hid yoyilganidan keyin ko‘p o‘tmay batamom yo‘qolib qolishi ham oddiy bir hodisadir;

2. Adaptatsiya – kuchli qo‘zg‘atuvchining ta‘siri ostida sezgining zaiflashib qolishi. Masalan: sovuq qo‘zg‘atuvchi hosil qiladigan sezgining jadalligi qo‘lni sovuq suvga solganda susayadi. Biz yarim qorong‘u xonadan yorqin yoritilgan joyga chiqqanimizda oldiniga ko‘zlarimiz qamashadi va tevarak-atrofdagi biror-bir narsaning farqiga yeta olmaydigan bo‘lib qolamiz, bir muncha vaqt o‘tgandan keyin esa ko‘rish analizatorlarining sezuvchanligi keskin susayib, biz odatdagidek ko‘ra boshlaymiz;

3. Kuchsiz qo‘zg‘atuvchining ta‘siri ostida sezgirlikning ortishi ham adaptatsiya deb ataladi.

Ichki ishlar idoralari faoliyatida ham sezgining o‘rni beqiyosdir. Kasbiy sezgirlik his qilish jarayonlarini mashq qildirish orqali rivojlan-tiriladi. Bu xususiyat faoliyat davomida shakllanib boradi. Masalan, yo‘l-

patrul xizmati xodimi o'z faoliyati mobaynida kelayotgan mashina tovushidan undagi texnik nosozliklarni aniqlay boshlaydi.

Idrok va uning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida tutgan o'rni. Idrok sezgiga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok etadi.

Narsa yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri jarayonida kishi ongida uning aks etishi idrok deb ataladi.

Idrok etish jarayonida alohida holdagi sezgilarning tartibga solinishi hamda narsa va voqea-hodisalarning yaxlit obrazlarga birlashuvi yuz beradi.

Qo'zg'atuvchining alohida xususiyatlari aks etadigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsalarni uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiradi. Bunda idrok alohida sezgilar yig'indisi tarzida emas, balki hissiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan sifat jihatidan yuqori bosqichi sifatida tasavvur qilinadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida idrok kasbiy faoliyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan hodisa, holat, obyektlardan predmetli ravishda kerakli narsalarni ajratib olib, yaxlit holda ongida aks ettirish, oddiy shaxs ko'ra olmaydigan holatlardagi narsalarni tez va oson ilg'ash jarayonidir. Yaxshi rivojlanmagan kasbiy idrok xodimda illyuzion (noto'g'ri) idrok qilish xususiyatini shakllantiradi.

Shu nuqtai nazardan idrok ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy faoliyatida muayyan o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Ya'ni, ichki ishlar idoralari xodimi aniq ma'lumot olish uchun guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini kuzatayotganda o'rganilayotgan obyekt to'g'risida turli ko'rinishlarda olingan tasavvur va tushunchalarni yaxlit holatda idrok qiladi. Ichki ishlar idoralari xodimlari voqelikni to'g'ri idrok etishlari uchun uning prinsiplariga rioya qilishlari zarur.

Idrok qilish prinsiplari quyidagilar:

– bilish zarur bo'lgan holat yuzasidan miyada aniq aqliy zanjir tuzish;

– sezgi a'zolarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish;

– o'rganilayotgan obyektga nisbatan qiziqish uyg'otish;

Idrok qilish prinsiplari asosida xodim turli nuqtai nazarlarni, masofadan, vaziyatdan, holatning yoritilish darajasi, sharoitdan kelib chiqib, obyektдан olgan taassurotlarni tahlil qiladi.

Xotira va uning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida tutgan oʻrni. Odam koʻrgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qoladi. Psixikaning eng muhim xususiyati shundan iboratki, individ tashqi taassurotlardan oʻzining keyingi xatti-harakatlarida doimo foydalanadi. Individual tajriba orta borishi hisobiga xulq-atvor sekin-asta murakkablashadi. Agar tashqi dunyoning miya qobigʻida hosil boʻladigan obrazlari beiz yoʻqolib ketaversa, tajribaning shakllanishi mutlaqo mumkin boʻlmay qolar edi. Bu obrazlar bir-biri bilan oʻzaro turli xil aloqalar bogʻlagan holda mustahkamlanib, saqlanib qoladi hamda hayot va faoliyat talablariga muvofiq tarzda yana boshqatdan namoyon boʻladi.

Individning oʻz tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deyiladi.

Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib koʻrsatiladi. Bu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va oʻsha faoliyat bilan belgilanadi.

Xotira mexanizmlarini oʻrganishning psixologik darajasi xronologik jihatdan boshqalaridan ustunroq boʻlib, fanda turli yoʻnalishlar va nazariyalarning ilgari surilganligi bilan maʼlumdir. Bu nazariyalarni ular xotira jarayonlarining shakllantirilishida subyektning faolligi qanday rol oʻynashiga va bunday faollikning mohiyatiga qanday yondashuviga bogʻliq holda tasniflash va baholash mumkin.

Xotiraning esda olib qolish va qayta esga tushirish jarayonlari sodir boʻladigan faoliyatning xususiyatlariga bogʻliqligi xotiraning har xil turlarini ajratish uchun umumiy asos boʻlib xizmat qiladi. Bunda xotiraning ayrim turlari uchta asosiy mezonga muvofiq tarzda boʻlinadi:

1) faoliyatda koʻproq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab xotira harakat, his-hayajon, obrazli va soʻz-mantiqli turlarga boʻlinadi;

2) xotira faoliyatning maqsadi, xususiyatiga koʻra ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga boʻlinadi;

3) materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga koʻra (uning faoliyatdagi roli va tutgan oʻrniga bogʻliq ravishda) xotira qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ turlarga boʻlinadi.

Shu oʻrinda xotirani mustahkamlashning quyidagi sakkizta qonunini eslab qolish tavsiya etiladi:

Anglanganlik qonuni. Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni xotirada mustahkam muhrlagan bo'lamiz.

Qiziqish qonuni. Anatol Frans «Bilimlarni yaxshi hazm qilish uchun uni ishtaha bilan yutish kerak» deganda, albatta, materialga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.

Ilgarigi bilimlar qonuni. Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday his qilsangiz, siz ilgarigi tajribangizni his qilishingiz mumkin. Demak, eski bilimlar tajribaga aylangandagina yangilariga zamin bo'la oladi.

Eslab qolishga tayyorgarlik qonuni. Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lg'usi aqliy ishga qanday hozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz. Agar materialni mutaxassis bo'lishim uchun juda kerak deb, muhimligini anglasangiz, u narsa xotirada muqim saqlanadi.

Assotsiatsiyalar qonuni. Bu qonun haqida eramizdan avval Arastu ham yozgan. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi. Masalan, muayyan xona o'sha yerda ro'y bergan hodisani ham eslatadi.

Ketma-ketlik qonuni. Harflarni alifbodagi tartibida yoddan aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo'lganidek, xotirada ham ma'lumotlarni ma'lum tartibda joylashtirishga va kerak bo'lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

Kuchli taassurotlar qonuni. Eslab qolinadigan narsa to'g'risidagi birinchi taassurot qanchalik kuchli bo'lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo'ladi va siz uchun ahamiyatli ma'lumotlar oqimida eslanayotgan material ham yaxshi esga tushadi.

Tormozlanish qonuni. Har qanday yangi ma'lumot o'zidan oldingi ma'lumotni tormozlaydi. Oldingi ma'lumotning o'chib ketmasligi uchun, yangini esda saqlashdan avval, uni mustahkamlash choralari ko'rishimiz kerak¹.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida «**kasbiy xotira** – xodimning ilgari idrok etib amalga oshirgan, boshidan kechirgan, tezkor

¹ Qarang: Каримова В. М., Акрамова Ф. А. Психология. – Т., 2000. – Б. 75–76.

xizmat faoliyatiga aloqador va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish, esda saqlash va keyinchalik yana xotirada qayta tiklash xususiyatlarini ifodalovchi xislat»¹.

Ichki ishlar idoralari xodimlaridan faoliyatini tashkil etishda xotiraning muvaffaqiyatga erishtiruvchi asosiy jarayonlarini bilish talab etiladi. Xotirada axborotni eslab qolish, keyin esga tushirish jarayoni subyekt faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi va bu axborotdan qanday maqsadda foydalanishga bog'liq.

Faoliyatning maqsadi bilan bevosita bog'liq material ko'proq esda qoladi, u hatto astoydil esda saqlash jarayonidan ham kuchli bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, esda saqlash jarayonida his-tuyg'ularning ham ta'siri kuchli bo'ladi. Kuchli hissiyot ta'sirida axborot esda yaxshi saqlanadi.

Voqea-hodisalar his-tuyg'ularni qo'zg'atsa (ya'ni kechirilgan hissiyotlarning qayta-qayta qo'zg'alishi natijasida), fikr yuritish qobiliyati yoki aqliy faoliyat yanada faollashadi.

«Shaxs ongidagi qabul qilingan yoki qabul qilinmagan axborotlar ko'p hollarda ahamiyatga ega bo'lmay qolganda turli muddat ichida yoddan ko'tarilishi kuzatilgan. Bu holat axborotning shaxs faoliyatidagi ahamiyati bilan emas, balki hayoti yoki faoliyatida vujudga kelgan yangi sharoitlar, o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, uning birlamchi ahamiyatini susaytirib yuborishi mumkin»².

Tergov jarayonida guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ayni vaziyatda ularga qaysi bir holat ahamiyatli bo'lsa (ijobiy yoki salbiy ta'sir), o'sha holatni eslashi mumkin. Xodim guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga xos alohida xususiyatlarni hisobga olishi, shaxsning ko'tarinki (optimistik) yoki tushkun (pessimistik) kayfiyatiga qarab bir xil vaziyatni turli shaxslar turlicha talqinda (yaxshi va yomon taassurotlar asosida) eslab qolishi mumkinligini inobatga olishi zarur. Sodir etilgan jinoyat tafsilotlarini guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi turlicha talqin qilishi, eslab qolishi va yodga olishi kuzatilgan.

Xotiraning idrok qilinishi ongda saqlanish muddatiga qarab qisqa va uzoq muddatli bo'lib, ularning ishlash mexanizmi ham turlicha bo'ladi. Har qanday voqea-hodisa, avvalo, *birlamchi qisqa muddatli xotira*

¹ Qarang: Столяренко А. М. Психологическая подготовка сотрудников ОВД. – М., 1997. – С.20.

² Qarang: Зинченко П. И. Непроизвольное запоминание. – СПб., 2000. – С. 26.

blokiga tushadi. Ishlatilish ahamiyatiga qarab uzoq *muddatli xotira blokiga* o'tishi mumkin.

Aks etish – *reverbatsiyaning* davomiyligi (30–50 daqiqa) miyaning asab katakchalarida turg'un o'zgarishlarni qo'zg'atadi. Bu jarayon uzoq muddatli xotira mexanizmi hisoblanadi¹.

Eslash va eslashga harakat qilish bir-biridan ajralgan jarayonlar emas. Bir tomondan, eslashga harakat qilish dastlabki ma'lumotlarni tiklash bo'lsa, ikkinchi tomondan, natijadir. Eslashga harakat qilish fikrni erkin hikoya, bayon qilish natijasida vujudga keladi. Shuni unutmaslik kerakki, zaruratsiz guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining fikrini chalg'itmaslik, savol berib gapini bo'lmaslik, hikoyasini uzmaslik zarur. Miyaning muhrlangan latent qobiqni faollashtirish uchun so'roqni erkin bayondan boshlash lozim².

Esdan chiqarish eslash va esda olib qolish jarayonining aksi bo'lib, *normal fiziologik* hodisa hisoblanadi. Agar xotiradagi barcha ma'lumotlar inson ongiga qalqib chiqsa, samarali tafakkur bo'lmaydi.

Inson faqat iroda kuchi yordamidagina aynan kerakli manbalarni eslay oladi. «*Fikrlar harakati – uzoq muddatli xotira blokidan tezkor xotira blokiga o'tishni ta'minlovchi ip*»³, deydi A. N. Luk. Bu jarayon unchalik oson kechmaydi. Me'yorida faoliyat yuritadigan miya individning butun hayotiy tajribasini saqlab qoladi. Uning murakkab tomoni ma'lumotlarni erkin eslash mumkin emasligidadir. Xotiraning faqat ma'lum sharoitga aloqador qismigina zarurat tug'ilganida tiklanishi, ya'ni yodga tushishi mumkin. Inson xotirasidagi doimiy ishlatilmaydigan, eslab yangilanmaydigan axborot tez yoddan chiqadi. Gohida doimiy harakatdagi axborot ham, agar ayni vaqtda muhim deb hisoblanmasa, esdan chiqishi mumkin.

Xodimning kasbiy xotirasini maqsadli rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda mashqlar bajarishni taqozo etadi:

– odamlarning yuzlari, tashqi qiyofasi, belgilari va xatti-harakatlaridagi o'ziga xosliklarni eslab qolish va tanish;

– xizmat vazifalarini bajarishda doimo yuzaga keladigan muam-molarni hal etish xususiyatlarini ifodalovchi so'zdagi axborotni eslab qolish va xotirada saqlash;

¹ Qarang: Лук А. Н. Памят и кибернетика. – М., 1999. – С. 11.

² Qarang: Васильев В. Л. Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 75.

³ Qarang: Лук А. Н. Память и кибернетика. – М., 1999. – С. 80.

– qidiruvda bo‘lgan avtomashinalarning nomeri va belgilarini eslab qolish va tanish;

– o‘g‘irlangan buyumlar va ularning belgilarini eslab qolish va tanish;

– joy chizmalari, harakatlanish yo‘nalishlarini eslab qolish va xotirada saqlash.

Xodimlarning kasbga oid muhim ma’lumotlarni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirishlarida bir qator psixologik usullardan foydalanishlari kasbiy xotirani rivojlantirishga yordam beradi.

Ma’lumotni esda saqlash prinsiplari:

1) maqsadni to‘g‘ri tanlash;

2) axborotni saqlash uchun (hissiy, obrazli, eshitish, ko‘rish orqali) turli bog‘liqliklarni o‘rnatish.

Ma’lumotni yodlash prinsipi:

– ma’lumot idrok qilinganidan so‘ng 20 soniya ichida takrorlash;

– ma’lumotni takrorlash, takrorlashni har ikki soatda amalga oshirish;

– mavjud imkoniyat chegarasidan ortiqcha ishlashga harakat qilish;

– ma’lumotni mantiqiy butunlikda takrorlash.

Kasbga oid muhim ma’lumotni eslab qolish samaradorligini oshirish usullari:

Eslab qolish haqida o‘ziga buyruq (ustanovka) berish. Xodim har safar kasbga oid muhim axborotga duch kelganida o‘ziga: «*Buni eslab qolish kerak!*», deb aytishi zarur.

Yodlash. Katta hajmdagi, eslab qolish qiyin bo‘lgan ma’lumotni odam «ichida» yoki fikran takrorlashi, uning xotirada aniq saqlanib qolishiga erishishi lozim.

Anglash. Har qanday ma’lumot, agar u anglangan bo‘lsa, esda yaxshi saqlanib qoladi. Eslab qolinadigan ma’lumotdagi ma’noli aloqalarni aniqlashga «Nima uchun?» degan savolini qo‘yish yordam beradi;

Qonuniyatlarni izlash. Bu raqamli ma’lumotlarni, masalan, avtomashina va telefon raqamlarini eslab qolishni osonlashtiradi. Ushbu usul eslab qolinadigan ma’lumotda muayyan qonuniyatni – ma’noli, raqamli va boshqa qonuniyatlarni topishga asoslanadi.

Analogiya, o‘xshashliklardan foydalanish. Yangi ma’lumotni ma’lum ma’lumot bilan qiyoslash doimo uni eslab qolishni osonlashtiradi. Obyekt nimaga o‘xshashini aniqlash kerak.

Obrazli tasavvur. Soʻzda ifodalangan maʼlumotni tasavvur qilish orqali eslab qolish ancha oson.

Xayolan gapirish. Qidirilayotgan shaxsning surati, agar xodim uni eslab qolayotganda fikran, ichki nutqida «gapirsa», yuzidagi ayrim jihatlarni taʼkidlasa, xotirada mustahkamroq va aniqroq saqlanib qoladi.

Modellashtirish. Mantiqiy aloqalar yordamida betartib faktlar yagona tizimga birlashtiriladi. Ana shu tizim eslab qolish uchun model boʻlib xizmat qiladi. Taxminni ilgari surish yordamida boʻlgan voqea qayta gavdalantirilsa, modellashtirilsa, kerakli maʼlumotni yaxshi eslab qolishga yordam beradi.

Oqibatlarini tasavvur qilish orqali xotirani faollashtirish. Kerakli maʼlumot xotirada saqlanib qolinmasa (yoki, aksincha, saqlab qolinsa) nima boʻlishini tasavvur qilish ham yaxshi samara beradi.

Tartibga keltirish. Ilgari esda olib qolingan maʼlumotni endi esda olib qolish kerak boʻlgan maʼlumot bilan bogʻlash ularning xotirada ishonchliroq saqlanib qolishiga imkon beradi.

Unutish orqali eslab qolish. Nimanidir unutishni istasak, biz ana shu narsaga diqqatimizni jamlaymiz va natijada uni esda olib qolamiz. Xayolan yoqtirgan odamingizni dushmaningiz deb tasavvur qilishga harakat qilib koʻring... Tasavvur qildingizmi? Endi esa uni kallangizdan chiqarib tashlashga harakat qiling. Siz bu toʻgʻrida oʻylamaslikka qanchalik koʻp harakat qilsangiz, u sizni shunchalik kuchliroq taʼqib etadi.

Vaziyatni jismonan tiklash. Goʻyoki «oʻsha joyning oʻzida boʻlib qolish» va u yerdagi narsalarni, masalan, kerakli tartibda joylashtirish lozim. Koʻrish tasavvurlariga tayanish zarur narsalarni eslashni osonlashtiradi.

Vaziyatni xayolan esga tushirish. Har doim ham oʻsha sharoitda jismonan boʻlish, ahvolni jismonan esga tushirishning imkoni boʻlmaydi, ammo butun vaziyatni uning qismlari boʻyicha xayolan tasavvur qilish, esga tushirish orqali maʼlumotni ham eslash mumkin.

Vaziyatlarni saralab tanlash. U kim? Eslay olmaysiz... Shunda u kishini qayerda koʻrgan boʻlishingiz mumkinligini tasavvur qiling: boʻlimda, uyingiz hovlisida, transportda va hokazo. Vaziyatlarni saralash chogʻida sizni qiziqtirayotgan shaxs haqidagi maʼlumotlar ham chiqib keladi.

Voqealar ketma-ketligini xayolan esga tushirish (uzilgan zanjirni tiklash). Xotirada voqealarning butun ketma-ketligini tiklash zanjirdagi

yo‘qolgan halqani topishga yordam beradi. Qidirilayotgan ma‘lumot saqlanishi kerak bo‘lgan ma‘lumotlarning xayoliy zanjiridagi barcha halqalarni ketma-ket tekshirib chiqing. Zanjirda kemtik topganingizda undan sakrab o‘ting, oldinroqqa o‘ting, so‘ngra orqaga qayting. Agar halqa tiklanmasa, xotirangizni uzoq vaqt zo‘riqtirmang – buning yordam berishi gumon.

Tanani bo‘sh qo‘yish. Relaksatsiya – tanani bo‘shashtirish amalda hammaga yordam beradi. Masalan, uch daqiqaga tanangizni bo‘sh qo‘ying va hech narsani o‘ylamaslikka harakat qiling, kerakli fikr miyaga tez va oson keladi¹.

Xotira turlari ichida kasbiy xotira eng samarali hisoblanadi, chunki u insonning qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lib, muddatli mashq va iste‘dod (musiqachi, matematik), diqqat xususiyatlariga bevosita aloqador. Ayrim shaxslarda obrazli xotira rivojlangan bo‘ladi (insonning tuzilishi, predmetlar, ovoz, rang), boshqalarda so‘z, raqamlar bilan bog‘liq (so‘z, fikr, sonlar) xotira ustuvor hisoblanadi. Inson hamma taassurotlarni eslab qola olmaydi. Axborotni ham turli ma‘no, shaklda saqlash mumkin.

Yana alohida *obrazli ko‘rish xotirasi ham mavjud bo‘lib (eydetizm)*, inson ko‘rgan narsalarini (*tezkor xotirada*) ko‘rish maydonidan chetda, hatto mayda tafsilotlari bilan uzoq saqlay oladi. Xotiraning ma‘lum turi rivojlanishida shaxs xususiyatlarining bevosita ahamiyati katta.

Faylasuf, yurist, advokatlarda *mantiqiy xotira kuchli* bo‘ladi. San‘atkor, sportchilarda *harakat xotirasi*, musiqachilarda *eshitish xotirasi*, degustatorlarda ta‘m bilish, mazani sezish xotirasi, kimyogarlarda *hid xotirasi*, ko‘rlarda *sezish xotirasi* rivojlangan bo‘ladi. Masalan, hisobchilarda son, sanalarni, kadrlar bilan ishlovchilarda ismlarni, rassomlarda ranglarni ajratib farqlash, ilg‘ash xotirasi yaxshi rivojlangan bo‘ladi.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ko‘rsatmalarini baholashda ular xotirasining rivojlanganlik darajasini o‘rganish lozim. Xotira butun umr davomida rivojlanib, takomillashadi. Unga asab tizimi, tarbiya va o‘qish jarayonlari ta‘sir qiladi².

Xotira qonuniyatidan samarali foydalanish uchun eslab qolish va esga tushirish jarayonida tabiiy assotsiatsiyalardan foydalanishni, shuningdek, xotiraning ishini yengillashtiruvchi sun‘iy assotsiativ aloqalar o‘rnatishni o‘rganish zarur.

¹ Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 32.

² Qarang: Васильев В. Л. Юридическая психология. – М., 2005. – С. 77.

Xotirani rivojlantirish qonuniyatlari¹

№	<i>Nomlanishi</i>	<i>Tavsifi</i>
1.	Assotsiatsiya qonuni (Aristotel)	Notanish narsani eslab qolish uchun uni birorta tanish narsa bilan bog‘lash zarur.
2.	Mustahkamlash qonuni (A. R. Luriya)	10 daqiqa insonga biror narsani xotirasida mustahkamlash uchun yetarli hisoblanadi.
3.	Esdan chiqarish qonuni (G. Ebbingauz)	Har qanday material yodlanganidan so‘ng, 1–2 soat ichida xotirada 40% qoladi. Keyinroq esdan chiqish tezligi kamayadi, 6 sutkada axborotning 20% saqlanib qoladi.
4.	B. V. Zeyngarnik qonuni	Mashg‘ulotni eng qiziq joyida tugallash, yodlanayotgan materialni eng qiziq joyida to‘xtatish qayta yodlash jarayonigacha materialning to‘liq saqlanib qolishini ta‘minlaydi.
5.	Yosh qonuniyati	Xotira 18–25 yoshgacha yaxshilanib boradi, 45 yoshda bir xillik saqlanib qoladi, 45 yoshdan sustlasha boradi.
6.	«Boshidan oxirigacha» qonuni	Yodlanayotgan materialning boshi va oxiridagi axborot, o‘rtasidagiga qaraganda yaxshi saqlanadi.

Ko‘pgina mnemotexnik tizimlar ushbu qonuniyatlarning amal qilishiga asoslanadi. Eslab qolishning quyidagi asosiy usullari mavjud: mantiqiy, ma’noli, mexanik va mnemotexnik.

Mantiqiy eslab qolish – eslab qolishning asosiy usuli. Ushbu usuldan qanchalik samarali foydalanish aqliy imkoniyatlarga, ma’noli va mantiqiy aloqalar o‘rnatishga bog‘liq. Mantiqiy eslab qolishga asos bo‘ladigan ma’noli aloqalar tasodifiy yuzaga keladigan aloqalarga qaraganda ancha mustahkamligi bilan ajralib turadi. Mantiqiy eslab qolishning muhim usullaridan biri, avvalo, manbani guruhlarga ajratish, ya’ni ma’nosi bo‘yicha guruhlantirishdan iborat.

Mexanik usul – ma’nosini tushunmay quruq yodlanadigan usul. Uning asosini esda olib qolinadigan ma’lumotlarni oddiy takrorlash, ma’nosini anglamasdan turib ko‘p martalab idrok etish tashkil etadi. Mexanik xotira ancha yuqori turdagi xotiralarning eng oddiy asosidir, usiz ma’lumotlarni eslab qola olmaymiz.

¹ Qarang: Мальцева О. А., Ратова И. В. Профессиональная психологическая подготовка сотрудников ОБД. – М., 1998. – С. 29.

Mnemotexnika eng qiziqarli va mashq qilib rivojlantirsa bo‘ladigan usul. U asosan ma’nosiz axborotni bilvosita eslab qolishga xizmat qiladi. Uning yordamida ma’noli axborotni eslab qolishning ratsional usulini ancha kuchaytirish va ma’nosiz materialni mexanik eslab qolish samaradorligini benihoya oshirish mumkin¹.

Kasbiy xotirani rivojlantirishning asosiy qonuniyatlarini yodda tutish zarur.

Shuningdek, axborot inson hayoti va faoliyati uchun qanchalik muhim bo‘lsa, shunchalik mustahkam esda qoladi va oson yodga tushadi. Shuning uchun ham qandaydir axborotni yod olayotganda doimo uni o‘zingiz, masalan, kasbiy faoliyatda maqsadga erishishingiz uchun muhimligini ta’kidlab turishingiz zarur.

Axborot inson faoliyatiga qanchalik aloqador bo‘lsa, shunchalik mustahkam yodlanadi (eslab qolinadi). Xotirani rivojlantirish uchun biron bilimni, qonuniyatni oddiygina yodlash emas, balki uni amaliy faoliyatda iloji boricha kengroq qo‘llash muhimdir.

Axborot qanchalik chuqur anglansa, u xotirada shunchalik yaxshi saqlanib qoladi. Ushbu qonuniyatdan foydalanish eslab qolish jarayonini fikrlash jarayoniga eng ko‘p darajada yaqinlashtirishni bildiradi. Anglangan holda eslab qolish obyektlarning eng muhim jihatlarini va munosabatlarini ifodalovchi mantiqiy aloqalarga asoslanadi.

Qiziqish uyg‘otuvchi yoki manfaat keltiruvchi axborot oson eslab qolinadi. O‘zlashtirayotgan narsamizni bizni qiziqtirayotgan, biz uchun manfaat keltiradigan narsalar bilan bog‘lash – muvaffaqiyatli eslab qolishning asosiy shartlaridan biridir. Muvaffaqiyatli eslab qolishda muayyan axborotni idrok etishga tayyorgarlik va yaxshi eslab qolish maqsadini qo‘yish katta ahamiyatga ega. Bular eslab qolish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, uning natijalarini oldindan ko‘rish imkonini beradi va xotirada tiklashni osonlashtiradi.

Bir vaqtning o‘zida yuzaga keladigan tasavvurlar eslash jarayonida bir-birini yodga tushiradi. Xotiraning ushbu qonuniyatidan foydalanish uchun eslab qolish va esga tushirish jarayonida tabiiy assotsiatsiyalardan foydalanish, shuningdek, ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy faoliyatida xotiraning ishini yengillashtiruvchi sun’iy assotsiativ aloqalar o‘rnatishni o‘rganishimiz zarur.

Xotirani shakllantirish usullari:

¹ Qarang: *Асямов С.В., Пулатов Ю.С.* Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – 2002. – Б. 30.

- bilishga bo‘lgan qiziqishlar doirasini, xotirada saqlash maqsadlarini shakllantirish;
- mantiqiy eslash usullarini o‘rganish;
- javobgarlik hissini kuchaytirish: bilim olishga, o‘rganishga, qunt qilishga, o‘zini tarbiyalashga e’tibor berish;
- o‘tilgan mashg‘ulotlardagi materiallarni tizimli ravishda qayta takrorlash, xotirani mustahkamlovchi mashqlarni bajarish.

Shu ma’noda ichki ishlar idoralari faoliyatida kasbiy xotira – tezkor, uzoq muddatli, so‘z mantiqli shaklda, raqam, son, ism, familiya, qiyofalarni tez tanib eslab qolish, qayta tiklash (keyinchalik farqlay olish)da namoyon bo‘ladi¹.

Tafakkur va uning ichki ishlar idoralari xodimlar faoliyatida tutgan o‘rni. Tafakkur atrof-muhitdagi voqealikni nutq yordamida bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik yaratish va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir². Insonning bilish faoliyati voqealikni, narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi, so‘ngra asta-sekin tafakkurga, fikr yuritishni aqliy yo‘l bilan aks ettirishga o‘tadi.

Tafakkur jarayonida inson hissiy bilish qobig‘idan tashqari chiqib, sezgi va idroklarda bevosita aniqlash imkoniyati mumkin bo‘lmagan murakkab holatlarni anglay boshlaydi. Insonning bilish faoliyatida sezgi, idrok, tasavvur obrazlari bilan tafakkur uzluksiz bir-birlarini boyitib turadi.

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda rivojlanishi mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun shaxsning tafakkuri rivojlanishi bilan birga nutq faoliyati ham o‘sadi. Bu esa shaxsda o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq ifodalash malakasini tarkib toptiradi, nutqining tuzilishini takomillashtiradi va lug‘at boyligini oshiradi.

Ichki ishlar idoralari faoliyatida tafakkur kasbiy masalalarni yechishga oid holat va hodisalarning mohiyatini tez anglash, turli tuman axbotlar ichidan zarurini ajratib olish, ular o‘rtasidagi farq va tafovutlarni oson aniqlash, ko‘pchilik ilg‘ay olmaydigan mayda narsalarni ko‘rish bilan ularni turli harakat, shakllarda obrazlashtirish, jonlantirishda namoyon bo‘ladi.

¹ Қаранг: *Арифходжаева И. Х.* Ички ишлар идоралари ходимлари психологияси. – Т., 2008. – Б. 134.

² Қаранг: *Фозиев Э.* Тафаккур психологияси. – Т., 1990. – Б. 15.

Ichki ishlar idoralari xodimi oldida turgan vazifalarni hal etishi uchun uning kasbiy tafakkurini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Idrok va tasavvurda aks etadigan narsa tafakkurda taqqoslanadi, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

Ichki ishlar idoralari xodimi fikrlash orqali masalani samarali hal qilishda to'xtovsiz ishlaydi, bunda ijodiy jarayon – tafakkur ishga tushadi. Bu bosqichda yangi ma'lumotlar izlanadi, zarur materiallarni yig'ish, ishga daxldorlarni so'roq qilish amalga oshiriladi. Keyin barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi, tahlil qilinadi va ular asosida turli taxminlar ilgari suriladi.

Ichki ishlar idoralari faoliyatda tafakkurga «o'ta xavfli sharoitda ongning yuqori darajada samarali ishlash qobiliyati»¹, deb ta'rif berish mumkin.

Umumiy psixologiya asoschilari talqinida esa tafakkur voqelikning umumlashtirilgan, bevosita, to'liq hamda eng aniq ifodasi hisoblanadi.

Tafakkur, xususiyatiga ko'ra, shaxs faoliyatida vujudga kelgan muammo va masalalarni hal qilishga yordam beradi, muammoning yechimini topish bilan bir qatorda, muammoli vaziyatga aloqador narsa va hodisalarning noaniq xususiyatlari, ayni vaziyatdagi munosabatlariga ham aniqlik kiritadi. Tafakkur yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad muayyan vaziyatdagi turli munosabatlar, holatlar yuzasidan avval alohida, so'ngra umumlashtirilgan holda olingan manbalarni o'zaro solishtirish orqali masalaga oydinlik kiritish usullarini ongda shakllantirishdir².

Kasbiy tafakkur nafaqat harakatga keltirish zarur bo'lgan aqliy imkoniyat, balki inson omilini faollashtirish qurolidir³. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy tafakkuri deganda, o'z xizmat vazifalarini bajarishlarida muhim ahamiyat kasb etadigan voqea, hodisa va holatlardagi umumiylikni ko'ra olish, analiz va sintez qilish, taqqoslash, asoslash va taxminiy xulosalar chiqarish jarayoni tushuniladi.

¹ Qarang: *Теплов Б. М.* Проблемы индивидуальных различий. – М., 1998. – С. 328.

² Qarang: *Рубинштейн С.Л.* О мышлении и путях его исследования. – М., 1999. – С. 14.

³ Qarang: *Столяренко А.М.* Психологическая подготовка сотрудников ОВД. – М., 1997. – С 21.

Kasbiy rivojlangan tafakkur xodimning muhim xislati bo‘lib, narsalar, odamlar va ularning xatti-harakatlaridagi muhim jihatlarini bilish, ular o‘rtasidagi qonuniyatli aloqalarni topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Xodimning tafakkuri murakkab tezkor xizmat vazifalarini bajarish, amaliy muammolarni hal etishning yangi yo‘llarini topish qobiliyati.

Kasbiy tafakkurni faollashtirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat¹.

Kasbiy vazifani tushunish usuli. Dastlab umumiy vazifani oddiy vazifalarga bo‘lish zarur. Ishning tafsilotlari, ikir-chikirlariga e‘tibor berish, hech narsani nazardan qochirmaslik, vazifani bajarishning bir necha variantlariga ega bo‘lishga harakat qilish kerak.

Masalaning yechimini topish usuli. Avvalo, izlanishning dastlabki nuqtasi ajratib olinadi, bunda izlash chegaralari aniqlanadi va tartibga solinadi. Izlash yo‘nalishlari tanlanadi, uyg‘unlashtiriladi va qayta ko‘rib chiqiladi.

Tekshirilayotgan hodisaning manzarasini fikran shakllantirish usuli. Xodimdan umumiy manzara va undagi elementlarning obrazli ishlovini amalga oshirish hamda shu asosda tekshirilayotgan hodisaning qolipi (sxemasi)ni shakllantirish talab etiladi (bu tezkor yoki taxminlar (tasmollar) shaklida amalga oshirilishi mumkin). Hodisaning elementlari o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rib chiqish va ishlash, ularni bir butun ko‘rinishga birlashtirish hamda asosiy bo‘g‘inni topish zarur.

Tafakkurni yo‘naltirish usuli tadqiq etilayotgan vaziyatda ruhiy yo‘nalish olish (masalan, gumon qilinuvchining xatti-harakatlari motivlarini tushunishga harakat qilish), shuningdek psixologik tahlil o‘tkazish va uning asosida vaziyatning bundan keyingi rivojlanishini bashorat qilishdan iborat. Ba’zi murakkab vaziyatlarda refleksiya usulidan, ya’ni raqib nuqtai nazaridan mulohaza qilishdan foydalaniladi.

Tafakkur jarayonida nazoratni kuchaytirish usuli. Xodim o‘zini nazorat qilishning so‘zda ifodalangan formulalaridan («Men buni qanday qilib bajara oldim?», «Nima uchun men bunday xulosaga keldim?» va h.k.) foydalangan holda tekshirib turishi zarur. O‘z xulosalari va baholarida subyektivlikka yo‘l qo‘ymaslikka, shaxsiy moyillik va xusumatni yo‘q qilishga harakat qilishi kerak.

Tafakkurni shakllantirish usullari:

¹ Qarang: *Асямов С.В., Пулатов Ю.С.* Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 44.

1) mustaqil fikr yuritish, javobgarlik hissini anglash kabi shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish;

2) kasbiy masalalarni hal qilishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va tajribani egallashga harakat qilish;

3) kasbiy masalalarni hal qilishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va tajriba egallashga harakat qilish;

4) bir-biriga qarama-qarshi fikrlar chigalini yechish, qiyin, mavhum vaziyatlarda yechim topish mashqlarini mukammallashtirish;

5) mantiqiy fikrlash, tafakkur operatsiyalar mohiyatini anglash, masalani yechishdagi g'ayritabiiy usullar bilan tanishish;

6) aqliy imkoniyatlarni takomillashtirish.

Xayol va uning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida tutgan o'rni. Xayol yoki fantaziya tafakkur kabi yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, har bir kishida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordamida kutilayotgan natijani tasavvur qilish inson mehnatining hayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir. Istalgan mehnat jarayoni zarur tarzda xayolni o'z ichiga qamrab oladi. Xayol badiiy, konstruktorlik, ilmiy-adabiy, musiqaviy va, umuman, ijodiy faoliyatning zarur tomoni sifatida namoyon bo'ladi.

Xayol – inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo'lib, mehnatning oxirgi va oraliq mahsulotlarida o'z ifodasini topadi, shuningdek, muammoli vaziyat, noaniq holatlarda xulq-atvorning namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, xayol faol faoliyatni yo'naltiruvchi emas, balki uning o'rnini almashtiruvchi timsollar hosil qilish vositasi sifatida yuzaga keladi.

Xayol tafakkur bilan chambarchas bog'langan. Xayol ham tafakkur singari kelajakni oldindan ko'rish imkonini beradi. Tafakkur singari xayol shaxslarning ehtiyojlariga asoslanadi. Ehtiyojlarni qondirishning real jarayonidan oldin ularni qondirishning soxta, xayoliy jarayoni sodir bo'ladi, ya'ni bu ehtiyojlarning qondirilishi mumkin bo'lgan vaziyatni jonli, yorqin tasavvur qilish mumkin.

Xayol o'zining faolligi bilan tavsiflanadi. Ayrim hollarda xayol faoliyatning o'rnida, uning sun'iy aralashmasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Mana shunday holatda odam hal qilib bo'lmaydigandek ko'rinadigan masalalar, turmushning og'ir sharoitlari, o'z xatolarining ta'qibi va shu kabilardan qochish uchun real tasavvurlardan uzoq bo'lgan fantastika olamiga vaqtincha kirib ketadi.

Fantaziya hayotda gavdalanmaydigan obrazlarni yaratadi, amalga oshmaydigan va ko‘pincha amalga oshirib bo‘lmaydigan ish-harakat dasturlarini belgilaydi. Xayolning bunday shakli *passiv xayol* deyiladi. Kishi passiv xayolni oldindan o‘ylab yuzaga keltirishi mumkin. Ataylab yuzaga keltirilgan, iroda bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin hayotda gavdalanirishga qaratilgan xayolning mana shunday obrazlari *shirin xayol* deb ataladi. Qandaydir quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar haqida shirin xayol surish hamma odamlarga xos. Mana shunday shirin xayollarda fantaziya bilan ehtiyoj o‘rtasidagi aloqa yengil namoyon bo‘ladi. Ammo insonning xayoliy jarayonlarida shirin xayol kechirish hollari ko‘proq bo‘lsa, bu shaxsning passivligidan dalolat beruvchi nuqson hisoblanadi. Agar kishi passiv bo‘lsa, u kelajakda yaxshi hayot kechirish uchun kurashmasa, uning hozirgi hayoti esa qiyin, ko‘ngilsiz bo‘lsa, bunday holda u o‘zining ehtiyojlari to‘la qondiriladigan, istagan narsasini qo‘lga kiritmay oladigan, hozirgi paytda umid qila olmaydigan biror mansabni egallaydigan soxta hayotni ko‘p xayol qiladi.

Agar passiv xayolni oldindan o‘ylab va o‘ylamasdan qilingan turlarga bo‘lish mumkin bo‘lsa, *aktiv xayolni* ijodiy va qayta tiklovchi xayol turlariga bo‘lish mumkin bo‘ladi. O‘z asosida tasviriga muvofiq keladigan obrazlar tizimini yaratuvchi xayol *qayta tiklovchi xayol* deb ataladi.

4. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyati samaradorligini oshirishda hissiy-irodaviy va shaxsiy fazilatlarning o‘rni

Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatlarida turli voqeahodisalarga nisbatan muayyan munosabatlarini bildirib, u yoki bu tarzda hissiyotlarini namoyon etadilar. Xodim psixologiyasida namoyon bo‘ladigan bunday ruhiy holatlar voqealikka sodir etilgan hodisalar ta’siri natijasidir. Bu esa, o‘z navbatida, xodimning o‘ziga xos individual psixologik xususiyatlarini bildiradi va u haqidagi birlamchi tasavvurlarni bilishga yordam beradi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» atamaları bir xil ma’nodā ishlatiladi. Lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish noto‘g‘ridir. Odatda, tashqi alomatları yaqqol namoyon bo‘ladigan his-tuyg‘ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiqdir. Masalan, ranglarning o‘zgarishi, yuzlarning tabassumi,

lablarning titrashi, ko'zlarning yarqirashi, kulgi, yig'i, g'amginlik, ikkilanish, sarosima va boshqalar emotsiyaning ifodasidir. Lekin vatanparvarlik, javobgarlik, mas'uliyat, vijdon, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g'ayritabiiy hisoblanadi. Ularning eng muhim farqi shundaki, biri (hissiyot) ijtimoiy, ikkinchisi (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda hissiyot shaxs hayotiy faoliyatining muhim jabhasi bo'lib, inson emotsional holatining rang-barangligi, ko'p qirraligini bildiradi. Hissiy ton (tus) (yunoncha «tonos» – zo'riqish, urg'u berish ma'nosini bildiradi), emotsiyalar (lotincha «emovere» – qo'zg'atish, hayajonlash demak), affektlar (lotincha «affectus» – ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi), stress (inglizcha «stress» – zo'riqish degani), frustratsiya (*frustration* – rejalarning barbod bo'lishi, maqsadga erisha olmaslik) va kayfiyat kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

Kishi idrok etishi, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqealikni bilib qolmay, balki hayotdagi u yoki bu narsalarga qaysidir ma'noda munosabat bildiradi, ularga nisbatan u yoki bu tarzda hissiyotlar paydo bo'ladi.

Hissiyot – kishining hayotida yuz berayotgan voqealarga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'ziga turli shaklda bildiradigan ichki munosabati.

Ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmasligi kishida turli xil o'ziga xos kechinmalarni: emotsiya, affekt (hissiy buhronlar), kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress) holatlarini va his-tuyg'ularni hosil qiladi.

Hissiyot aksariyat hollarda ruhiy jarayonning o'ziga xos ko'rinish sifatida faqat emotsional shaklda vujudga keladi. Shu o'rinda hissiyot o'zicha emas, balki bilishga intilayotgan, uni egallayotgan shaxsda ma'lum munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisalar va harakatlarning alohida xossasi, xususiyati ma'nosida gavdalanadi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ko'rish, eshitish, hidlash, kinestetik (harakat) sezgi hamda idrokka taalluqli hissiyot muhim ahamiyatga ega. Masalan, xonalar, ish joyi, transport vositalarining rangi taassurotidan vujudga kelgan yoqimli yoki yoqimsiz hissiyot mehnat samaradorligiga, xizmatchilarning kayfiyatiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Xotirjamlik, yoqimli musiqa, shaxslararo iliq munosabatlar, muomala, ahillik muvaffaqiyat kafolati, ijtimoiy taraqqiyot omili hisoblanadi.

Emotsiya. Emotsional jarayonlar, holatlar yoki, qisqacha aytganda, emotsiya hissiy kechinmalarning o'ziga xos shakllaridan biri. Emotsiya u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iborat. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno aytish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoqmasa, g'azabli hissiy kechinma hosil bo'lishi ijobiy yoxud salbiy emotsiya deyiladi. Qo'rqinch, dahshat hissiy kechinma sifatida obyekt-larga shaxsning munosabatini aks ettirib, turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin: odam dahshatdan qochadi, qo'rquvdan serrayib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto, xavf-xatarga ham o'zini tashlashi mumkin.

Ba'zi holatlarda emotsiya ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. U xatti-harakatga, fikr-mulohaza bildirishga turtki beradigan kuch bo'lib, shijoatni oshirib yuboradi va bu holat *stenik* hislar deb ataladi. Boshqa bir holatda emotsiya (*astenik* deb atalmish emotsiyalar) faollikning sustligi yoki loqaydligi bilan ajralib turadi, his-tuyg'ularning boshdan kechirilishi kishini bo'shashtirib yuboradi.

His-tuyg'ular hissiyot (emotsiya), kayfiyat, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilarga ham ega bo'ladi. Masalan, yuzlarning ifodali (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, turq-tarovat, ohang, ko'z qorachiq-larining kengayishi yoki torayishi kabilar shular jumlasiga kiradi. Bu ifodali harakatlar ba'zan shaxsga o'ziga o'zi hisob bermagan tarzda yuz bersa, boshqa bir holatda ongning nazorati ostida sodir bo'ladi¹.

Affekt (hissiy portlash) – kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tadigan jarayon. U ongning anchagina o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmaslik, shuningdek, shaxsning hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi. Affekt holatida birdaniga katta kuch sarf qilinishi sababli ham u qisqa muddatli bo'ladi. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishni ifoda etsa, affekt bo'rondir.

Hissiy portlash ro'y berganda kishi o'zini nazorat qila olmay qoladi, qilayotgan ishining oqibatini o'ylamaydi va aql-hushini yo'qotib qo'yadi. Tormozlanish miya qobig'ini egallab, kishining tajribasi, uning madaniy va ma'naviy asoslarda mustahkamlangan muvaqqat bog'lanishlarning tarkib topgan tizimini ishlatmay qo'yadi. Masalan,

¹ Qarang: *Фозиев Э. Умумий психология.* – Т., 2002. – Б. 188–190.

jinoyatchilik olamida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JKning 98-moddasi) yoki kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishda (JKning 106-moddasi) affektiv holatlarni kuzatish mumkin. Hissiy portlashdan keyin holdan toyish, majolsizlik, barcha narsalarga befarq munosabatda bo'lish, harakatsizlik, ba'zan esa mudroq bosish boshlanadi.

Kayfiyat. Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deb ataladi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodlik, hazilkashlik, umidsizlik, jur'atsizlik, zerikish, qayg'urish singari his-tuyg'ular ruhiy holatining umumiy tizimiga aylanadi. Ushbu vaziyat ba'zi emotsional taassurotlarning vujudga kelishiga qulay zamin hozirlaydi, boshqasi uchun esa qiyinchilik tug'diradi. Inson xafa, ma'yus hissiy holat hukmronligida bo'lsa, tengdoshlarining hazili, keksalarning pand-nasihatlari, maslahatlariga, quvnoq kayfiyat chog'dagiga nisbatan, boshqacharoq munosabat bildiradi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xalq ta'limi tizimi jamoalarida, rasmiy doiralardan ishchanlik, o'zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ruhiy muhit yaratish, samimiy muomalani shakllantirish ham jismoniy, ham aqliy mehnat samaradorligini oshirishning kafolatidir.

Stress, psixologik ta'rifiga ko'ra, affektiv holatga yaqin turadigan, lekin davomiyligiga ko'ra kayfiyatga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli bo'lib, kuchli hayajonlanish (stress) holati (inglizcha «*stress*»– tazyiq ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan)dan yoxud hissiy zo'riqishdan iboratdir. Hissiy zo'riqish xavf-xatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan, tahlika ostida qolgan va shunga o'xshash vaziyatlarda ro'y beradi. Psixologiya faniga «*stress*» tushunchasini olib kirgan olim kanadalik fiziolog G. Selye hisoblanadi. Uning talqini bo'yicha «*stress – inson organizmiga qo'yilgan ortiqcha talabdir*»¹.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari keskin tarzda o'zgaradi, qo'zg'alishning umumiy reaksiyasi paydo bo'ladi, harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomondan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin, biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalikni stressning tashqi

¹ Qarang: *Селье Г. Стресс и дистресс.* – М., 1999. – С. 25.

ifodasi deb taxmin qilish mumkin. Shaxs stress holatida telefon raqamini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil buziladi, idrok ko‘lami torayadi va boshqa holatlar kuzatiladi.

Frustratsiya kishi maqsadga erishish yo‘lida bartaraf etib bo‘lmaydi deb hisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan to‘sqinliklarga, g‘ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi.

Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvorida va o‘zini anglashida turli xil o‘zgarishlarga olib keladi. Frustratsiya holati shaxs o‘zini yo‘qotib qo‘yishi, ya’ni jabrlanuvchi jinoyatchiga qarshilik ko‘rsata olmaganida, jinoyatchi ko‘zlagan maqsadiga erisha olmaganida, kutilmaganda turli to‘siqqa duch kelganida namoyon bo‘ladi¹.

Iroda kishining oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyati, xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z-o‘zini boshqarishidir. Iroda shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo‘yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turidir. Shu ma’noda iroda to‘siqlarni yengib o‘tishga qaratilgan aqliy, maqsadga yo‘naltirilgan psixik faollik bo‘lib, maqsadga intilishda sodir bo‘ladi va instinktlar manbaida shakllanadi².

Irodaviy faoliyatda shaxs o‘zini o‘zi boshqaradi, o‘zini qo‘lga oladi, o‘zi nazorat qiladi.

Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o‘z ehtiyojlariga ko‘ra o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo‘ladi.

Iroda o‘zaro bog‘liq ikki vazifaning bajarilishini ta’minlaydi. Birinchisi – undovchi, ikkinchisi – taqiqlovchi vazifalar.

Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan ta’minlanadi. Taqiqlovchi vazifasi faollikning yoqimsiz ko‘rinishlarini jilovlashda namoyon bo‘ladi.

Kishining harakatga undovchi mayllari ma’lum bir yo‘lga solingan tizimni – oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, issiq va sovuqdan himoyalanih ehtiyojidan tortib, to ma’naviy, estetik va intellektual his-tuyg‘ularni boshidan kechirish bilan bog‘liq, yuksak niyatlarga borib taqaladigan motivlar iyerarxiyasini tashkil etadi.

¹ Qarang: *Левитов Н. Д.* Фрустрация – один из видов психических состояний // Вопросы психологии. – 2000. – № 6. – С. 120.

² Qarang: *Васильев В.Л.* Юридическая психология. – М., 2005. – С. 68.

Irodaning undovchi va taqiqlovchi funksiyalari bir butun holdagina shaxsning maqsadga erishish yoʻlidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishini taʼminlaydi.

Odamlar qilgan ishlari uchun masʼuliyatni kimga yuklashga moyil boʻlishiga qarab sezilarli ravishda farqlanadilar. Kishining oʻz faoliyati natijalari uchun masʼuliyatni tashqi kuchlar va sharoitlarga yuklashi yoki aksincha, ularni shaxsiy kuch-gʻayratlari va qobiliyatlariga bogʻlashini belgilaydigan sifatlar *nazoratni lokallashtirish* deyiladi (psixologik adabiyotlarda «nazorat lokusi» degan atama qoʻllaniladi, lotinchada «Lokus» – «oʻrnashgan joy» va fransuzchada «conrole» – «tekshirish» degan maʼnolarni anglatadi). Oʻz xulq-atvori va ishlari sabablarini tashqi omillar (taqdir, holatlar, tasodiflar va boshqalar)dan deb bilishga moyil boʻladigan odamlar bor. Shunaqa paytda nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirilishi toʻgʻrisida fikr yuritiladi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarida irodaviy fazilatlarini shakllantirish faoliyat samaradorligini taʼminlovchi psixologik omillardan sanaladi. Ichki ishlar idoralari xodimlari oʻz kasbiy vazifalarini benuqson bajarishlarini qiyinlashtiradigan, baʼzan xizmat faoliyatlarida maqsadga erishish uchun toʻsqinlik qiladigan turli toʻsiqlarga duchor boʻladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchiliklar va toʻsiqlarni yengishga undovchi irodaviy fazilatlarini namoyon qilishlari muhimdir. Irodaviy koʻnikmalarni rivojlantirish uchun mashgʻulotlar jarayoniga qoʻyilgan vazifani bajarishga toʻsqinlik qiluvchi muayyan elementlar, toʻsiqlarni kiritish katta yordam beradi.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari quyidagi shartlarni oʻz ichiga oladi:

- 1) irodani tarbiyalashni nisbatan arzimas qiyinchiliklarni bartaraf etishdan boshlash;
- 2) qiyinchiliklarni va toʻsiqlarni bartaraf etish maʼlum maqsadga erishish uchun amalga oshirilishini tushunish;
- 3) qabul qilingan qaror bajarilishi kerakligi;
- 4) maqsadga erishish bosqichlarini koʻra olish juda muhimdir.

Irodani tarbiyalashni arzimas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Dastlab unchalik katta boʻlmagan qiyinchilikni, vaqt oʻtishi bilan kattaroq qiyinchiliklarni muntazam ravishda yenga borib, kishi oʻzining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy faoliyatida hissiy-irodaviy holatlarning oʻrni beqiyosdir. Chunki xodimning murakkab vaziyat-

larda qulay ruhiy holatni saqlash qobiliyati faoliyat samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi.

Xodimning hissiy-irodaviy turg'unligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ekstremal vaziyatlarda harakat samaradorligini pasaytiruvchi, adashishlar tug'diruvchi psixologik reaksiyalarning yo'qligi;

– psixologik jihatdan murakkab sharoitlarda kasbiy vazifalarni beixato bajarish;

– kasbiy ziyraklikni saqlash, tavakkal, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan oqilona ehtiyotkorlik bilan yondashish.

Shu nuqtai nazardan xodim faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan o'z xatti-harakatlarini boshqara olishi, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olishiga bog'liq. Shuningdek, ichki ishlar idoralari xodimlarining o'zlarini irodaviy boshqara olishi, murakkab vaziyatlarda tezkor, oqilona qarorlar qabul qilishi kasbiy qobiliyati bilan belgilanadi. Ya'ni xodim o'zini irodaviy boshqarish orqali salbiy hissiyotlarni yo'q qilishi, o'zida ishonch hissini uyg'otishi, diqqatini bir joyga jamlashi va butun kuchini qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar etishi uning asosiy sifatlaridan sanaladi.

Xodim o'zining psixologik holati va xatti-harakatlarini boshqara olmasligi uning irodasi sustligi, ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashish qobiliyatining pastligidan dalolat beradi va bu aksariyat hollarda salbiy oqibatlariga olib kelishi barchaga ma'lum.

Shu bois xodimlarning hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish yo'llari va usullarini egallashlari bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Xizmat faoliyatida kuchli irodaga ega bo'lgan, o'z hissiyotlarini boshqara oladigan, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishda o'zining jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan xodim ko'proq muvaffaqiyatga erishadi.

Shu ma'noda hissiy-irodaviy boshqarishning asosiy maqsadi ham xodimning o'z ichki imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishiga, ijodiy salohiyatining ochilishiga, kasbiy xislatlari va qobiliyatlari namoyon bo'lishiga yordam beradigan alohida psixologik xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Psixologiya fanning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida shaxsning o'ziga xos sifatleri, ya'ni temperament, xarakter va qobiliyatga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan.

Temperament lotincha «*temperamentum*» soʻzidan olingan boʻlib, «aralashma» degan maʼnoni anglatadi. Temperament toʻgʻrisidagi dastlabki taʼlimotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460–356-yillarda yashagan) yaratgan boʻlib, uning tipologiyasi hozirgi davrgacha qoʻllanilib kelinmoqda

Psixikaning individual jihatdan oʻziga xos, tabiiy shartlashgan dinamik koʻrinishlari majmui kishining temperamenti deyiladi.

Gippokratning toʻrt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, yaʼni «*temperament*» tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, holerik, flegmatik, melanholik) ramziy maʼnoda hozirgi zamon psixologiyasida ham qoʻllanilib kelinmoqda. Organizmda suyuqliklarning aralashuvi (u qonning koʻpligi bilan xarakterlanadi) *sangvinik* temperament (lotin tilidagi «*sangvis*» – «qon» soʻzidan olingan); limfa koʻp boʻlganda *flegmatik* temperament (grekcha «*flegma*» – shilimshiq parda degani); sariq oʻtning koʻpayganligini *holerik* temperament (grek tilidagi «*hola*» – «oʻt») soʻzidan olingan); qora oʻt koʻp boʻlganda *melanholik* temperament (grekcha «*melayna hole*» – «qora oʻt») deb ataladi.

Kishining temperamenti qanaqaligi haqida tasavvur odatda shu shaxsga xos boʻlgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida vujudga keladi.

Psixik faollikka ega boʻlgan, atrofda boʻlayotgan hodisalarga tez munosabat bildiruvchi, taassurotlarini tez-tez oʻzgartirishga intiluvchi, koʻngilsizliklarni nisbatan yengil oʻtkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan boʻlgan kishi *sangvinik* deyiladi.

Yuragi keng, barqaror intilish va kayfiyatga, doimiy va chuqur his-tuygʻuga ega, harakatlari va nutqi bir maromida boʻlgan, ruhiy holatini tashqi tomonda ifoda etadigan kishi *flegmatik* deb ataladi.

Juda gʻayratli, ishga ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega boʻlgan, tez, qizgʻin emotsional «portlash» va kayfiyatning keskin oʻzgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi *holerik* deb ataladi.

Taʼsirchan, chuqur kechinmali, gap koʻtara olmaydigan, atrofdagi voqealarga unchalik eʼtibor bermaydigan, oʻzini nazorat qila oladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar *melanholiklar* deb ataladi.

Temperament turlarining tasnifi (I.P. Pavlov taʼlimotiga koʻra):

- 1) kuchli, ehtirosli, behalovat – holerik;
- 2) kuchli, bosiq, epchil – sangvinik;
- 3) kuchli, bosiq, sust – flegmatik;
- 4) kuchsiz – melanholik

Temperament turlarining tizimli tavsifi¹

Ichki xususiyat	Holerik	Sangvinik	Flegmatik	Melanholik
<i>xulqi</i>	beqaror	barqaror	o‘ta barqaror	juda beqaror
<i>hissiyoti</i>	kuchli, qisqa muddatli	yuzaki, qisqa muddatli	kuchsiz	chuqur va uzoq muddatli
<i>kayfiyati</i>	turg‘un emas, yaxshi	turg‘un, ko‘tarinki ruhda	turg‘un, doimo xursand va qayg‘usiz	turg‘un emas, pessimistik ruhda
<i>nutqi</i>	baland, keskin, bir xil emas	baland, jonli, bir xil sur‘atda	ohista, bir ohangda	juda sekin
<i>sabri</i>	sust	boshqariladi	juda kuchli	besabr
<i>moslashish qobiliyati</i>	oson	juda oson	sekinlik bilan	juda qiyin
<i>muomalasi</i>	yuqori	o‘rtacha	past	juda past
<i>o‘zini tutishi</i>	tajovuzkor	do‘stona	bosiq	qiyinchilikdan qochadi
<i>tanqidga munosabati</i>	asabiy	bosiq	befarq	qabul qilmaydi
<i>faoliyatga munosabati</i>	qiziqqon, berilib ishlaydi	jonli, ko‘p gapirib ishlaydi	betinim ishlaydi	vaziyatga qarab turlicha, reaktiv
<i>yangilikka munosabati</i>	ijobiy	befarq	salbiy	manfaatli
<i>xavfga munosabati</i>	jangovar, tavakkaliga	yaxshi tayyorgarlikdan so‘ng tavakkalsiz	sovuqqon, o‘zidan chiqishi qiyin	xavotirli, o‘zini yo‘qotib qo‘yadi
<i>maqsadga intilish</i>	kuchli, bor imkoniyatini ishga soladi	tez yetishish, to‘siqlarni aylanib o‘tish	qat‘iyat bilan, shoshmasdan	to‘siqlardan qochish orqali tez yoki sust
<i>imkoniyatni baholashi</i>	juda ortiqcha	bir muncha	real baho	hisoblay olmaydi
<i>ta’sirga berilish</i>	past	biroz mavjud	kuchsiz	juda kuchli

¹ Qarang: Щекун Г. В. Визуальная психодиагностика и её методы. – Киев, 1991.

Xarakter – shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon boʻladigan barqaror individual xususiyati boʻlib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Shaxs baʼzida oʻz xarakteridan afsuslanadi, lekin boshqacha harakatni amalga oshirishni uddasidan chiqqa olmaydi. Xorijiy psixologlarning tasdiqlashicha, ayrim insonlar faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka uchrashidan xavfsirab, oʻz yutuqlarini qadrlaydilar va yuqori baholaydilar. Muvaffaqiyatsizlik ular uchun fojia emas, shuning uchun «tavakkalchilik»ka qoʻl urishda davom etaveradilar. Boshqa toifadagi odamlar muvaffaqiyatsizlikdan choʻchiydilar, oʻta ehtiyotkor boʻladilar, qiyinchilikdan qoʻrqib, yengil ishga qoʻl urishni lozim topadilar. Fanda shaxsning munosabatlarini aks ettiruvchi xarakterni quyidagi toʻrt tizimga ajratish qabul qilingan:

1. Jamoaga (guruhga) va baʼzi bir insonlarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar.

2. Mehnatga nisbatan munosabatni mujassamlashtiruvchi xususiyatlar: mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, masʼuliyatlilik, masʼuliyatsizlik kabilar.

3. Narsalarga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar: ozodalik, ifloslik, ayash, ayamasklik va hokazo.

4. Shaxsning oʻziga nisbatan munosabatini ifodalovchi xislatlar: izzat-nafslilik, shuhratparastlik, magʻrurlik, takabburlik, dimogʻdorlik, kamtarinlik, samimiylik va boshqalar.

Xarakter va kishining tashqi koʻrinishi. Psixologiya tarixida inson bosh suyagining shakliga, yuz tuzilishiga, qaddi-qomatiga (tana tuzilishi va hokazolarga) yaʼni ayrim tashqi alomatlariga qarab kishi xarakterini belgilash nazariyalari mavjud boʻlgan. *Arastu* va *Aflotun* ham kishi xarakterini tashqi koʻrinishiga qarab aniqlashni taklif qilganlar qatoriga kiradi. Ularning xarakterni oʻrganish nazariyasi asosi qanchalik sodda boʻlsa, shunchalik gʻaroyib faraz yotdi. Masalan, kishining tashqi koʻrinishida qandaydir hayvon bilan oʻxshashlik belgisini topish tavsiya qilingan, soʻngra esa uning xakteri ana shu hayvonning xakteri bilan aynan bir xil deb qaralgan. Arastuning fikricha, buqaniki singari yoʻgʻon burun ishyoqmaslikni bildiradi¹.

¹ Qarang: Умумий психология / А.В. Петровский тахрири остида. –Т., 1992. – Б. 467.

Qobiliyat shaxs faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblab, zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning o'sishida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Qobiliyat individual-psixologik xususiyat bo'lib, bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida ta'riflanadi.

Qobiliyat umumiy va maxsus turga bo'linadi.

Shaxsning umumiy qobiliyati yoki umumiy fazilati muayyan psixologik ko'rinishlarga ega bo'lib, ularni tadqiq qilishga psixologlar allaqachon kirishgan. Shaxsning aniq faoliyat sharoitida qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan umumiy fazilatlari jumlasiga odamlarning uch tipdan bittasiga mansubligini ko'rsatadigan individual-psixologik fazilat kiradi.

Iste'dod, uning tuzilishi va paydo bo'lishi. Qobiliyat taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilar ta'kidlab o'tiladi. Chunonchi, shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasi *iste'dod* deyiladi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida qobiliyat asosiy o'rinni egallaydi. Chunki har bir xodimning mehnatga loyiq yoki loyiq emasligi ham uning qobiliyatini aniqlashdan boshlanadi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining individual-psixologik xususiyatlari, ya'ni temperamenti, xarakteri, maxsus va umumiy qobiliyatlari jinoyatchilikning oldini olishda va jinoyatchilarni qayta tarbiyalashda juda muhim hisoblanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Psixologiyada «shaxs» tushunchasiga psixologik tavsif bering.
2. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida shaxs muammosi qanday hal qilinadi?
3. Shaxs nazariyasining psixologik asoslari nimalardan iborat?
4. Ichki ishlar idoralari faoliyatida shaxsning obyekt va subyekt sifatidagi o'rnini ayting.
5. Ichki ishlar idoralari xodimlari shaxsining psixologik tuzilishi qanday?
6. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy yo'nalishiga psixologik tavsif bering.
7. Ichki ishlar idoralari xodimlarining bilish faoliyatiga psixologik tavsif bering.
8. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy faoliyatida hissiy-irodaviy sifatlar qanday ahamiyatga ega?

III bob.

**KASBIY FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAVSIF VA
KASBIY BUZILISHNI BARTARAF ETISHNING
PSIXOLOGIK MUAMMOLARI**

**1. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatiga
psixologik tavsif**

Ma'lumki, ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatining bir nechta xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar xodimlarning ruhiy jihatdan tayyorgarligiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri – xodimlar faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligi. Xodimlarning faoliyati huquqiy normalar (Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, qonun hujjatlari, IIVning normativ hujjatlari, buyruqlari va shu kabilar) bilan qat'iy tartibga solingan. Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatining normativ hujjatlar, yo'riqnomalar va buyruqlar asosida belgilab berilishi mehnatni samarali tashkil etish, faoliyatni erkin amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, xodimlar faoliyatining qonun normalari bilan qat'iy belgilanganligi, ularning xatti-harakatini tartibga soladi. Xodimning o'z xizmat vazifalarini bajar-masligi yoki bajarishdan bosh tortishi yoxud unga sovuqqonlik bilan qarashi uning u yoki bu qonunni buzishi hisoblanadi va u O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 280 va 302-moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bularning hammasi oxir-oqibatda xodimga o'z qarorlari va harakatlari uchun katta mas'uliyat yuklaydi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining navbatdagi psixologik xususiyati ***hokimiyat vakolatiga egaligidir.*** Ish manfaati yo'lida xodimlarga zarur hollarda odamlarning shaxsiy hayotiga aralashish, ko'pincha atrofdagilardan yashirishga harakat qilinadigan holatlarni aniqlash, fuqarolarning turar joylariga kirish, zarur hollarda ayrim fuqarolarning erkinligini cheklash va hatto undan mahrum qilish huquqi berilgan.

Bunday hokimiyat vakolati berilgan xodimning psixologik holatini avvalo yuksak darajadagi mas'uliyat belgilab beradi. Uning o'z vakolatlarini qo'llashi esa harakatlarining zarurligi va oqilonaligini,

qonuniy asosga egaligini aniqlash imkonini beradigan bir qator masalalarni hal qilishni taqozo etadi. Ko‘pincha bu holat qonunda belgilangan moddalardan birini tanlash zarurati bilan bog‘liq bo‘ladi, shu bois bu xodimdan juda katta hissiy-irodaviy zo‘riqishni talab etadi. Berilgan vakolatdan oqilona va qonuniy ravishda foydalanish – ichki ishlar idoralari xodimlariga qo‘yiladigan juda muhim kasbiy talablardan biri. Hokimiyat vakolatidan foydalanishning qonunga va maqsadga muvofiqligi ko‘p hollarda xodimning shaxsiy fazilatlariga bog‘liq.

Xodimlar kasbiy faoliyatining muhim psixologik xususiyatlaridan biri ***manfaatdor shaxslarning doimiy ravishda qarshilik ko‘rsatishi va to‘sqinlik qilishidir.*** Bu xodimning jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatiga ba‘zan juda keskin shakllarda kechadigan kurash tusini beradi. Xodimning yo‘liga atayin qo‘yiladigan to‘siqlarni yengish, xavfli vaziyatlarni bartaraf etish zarurati unda turli hissiy va ruhiy zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa, o‘z navbatida, xodimdan doimiy asabiy zo‘riqish va aqliy tafakkurni talab etadi. Natijada xodim doimiy ravishda murakkab aqliy faoliyatni amalga oshirish, o‘z maqsadlarini yashirish, haqiqiy ijtimoiy vazifalarini niqoblashga majbur bo‘ladi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri keng doiradagi kishilar bilan muomala qila olish qobiliyatini bildiruvchi ***kommunikativlikdir.*** Xodim ushbu faoliyatni olib borishda IIVning 2011-yil 4-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb madaniyati haqida qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida»gi 96-sonli buyruq talablariga rioya qilishi lozim. Bu ko‘p tomonlama va alohida xususiyatga ega bo‘lgan xislatdir. Xodim o‘z faoliyati davomida turli yoshdagi, kasbdagi va turli huquqiy maqomga ega bo‘lgan shaxslar bilan muomala qilishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa xodimdan shaxs psixologiyasini, xususan muomalaning psixologik asoslarini bilishni talab etadi.

Xodim kommunikativligining alohida jihati shundaki, u xodimdan boshqa qiyofaga kirishni talab etadi. Ushbu zarurat uning o‘z faoliyati sohasiga kiradigan barcha shaxslar bilan psixologik aloqaga kirishishi muhimligidan kelib chiqadi.

Vaqt tanqisligi va ishning haddan tashqari ko‘pligi ham xodim kasbiy faoliyatining xususiyatlaridan biridir. Tezkorlik va saranjomlik jinoyatchilarni qidirish, jinoyatlarni ochish va tergov qilishning asosiy prinsiplariga kiradi. Jinoyatchi erkinlikda qancha ko‘p yursa, unda javobgarlikdan qutilish, o‘z jinoiy faoliyati izlarini yo‘qotish va

tergovdan qochib yashirinish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. U vaqtdan yutadi. Paysalga solish muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Vaqt tanqisligi esa jinoyat ishni tergov qilish, fuqarolarning arizalarini ko'rib chiqish kabi jinoyat-protsessual hujjatlarga rioya etish zarurligida namoyon bo'ladi. Xodim shu tufayli doimo asabiy zo'riqishda bo'ladi.

Asabiy zo'riqish xodim faoliyatining yuqori ekstremalligi, nizoli vaziyatlar sharoitida harakat qilish, turli stress omillar ta'siri, me'yorsiz ish kuni, faoliyatida salbiy his-hayajonlarning mavjudligi tufayli yuzaga keladigan katta jismoniy va ruhiy zo'riqish bilan bog'liq. Chunki xodim kasbiy faoliyatda murakkab sharoitlarga duch keladi.

Albatta, xodimning kasbiy faoliyatiga yorqin ifodalangan ***bilish xususiyati*** xosdir. Bu esa turli xil qiyinchiliklarni, fikriy vazifalarni turlicha hal qilishnigina emas, balki ushbu qarorlarni amalga oshirishni tashkil etishni ham talab etadi. Bunda turli tasmollar tuzish, operativ xizmat tadbirlarini amalga oshirish uchun ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan sof aqliy faoliyatni amalga oshiradigan ishni amalda tashkil qilish kerak bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy faoliyatida quyidagi asosiy psixologik tizimlar mavjud: *bilish faoliyati, konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ faoliyat*. Albatta, xodimlarning amaldagi faoliyatida ushbu tarkibiy qismlarning har biri sof holda uchramaydi, ularning hammasi uzviy birlikda namoyon bo'ladi.

Bilish faoliyati. Xodim faoliyati uchun bilish jarayonining ahamiyati nihoyatda kattadir. Bilish faoliyatini amalga oshirmay turib jinoyatchilikka qarshi kurashishning hech bir samarasi bo'lmaydi. Bilish faoliyatisiz umuman faoliyatni ham, yuqorida ko'rsatilgan barcha tarkibiy qismlarni ham amalga oshirib bo'lmaydi. Bilish jarayoni natijasidagina xodimda harakatlarini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini bajarish uchun xodim bilish jarayonlari asosida hozirgi vaqtdagi, o'tmish va kelgusidagi voqealarga taalluqli faktlar, holatlar, aloqalarni aniqlaydi. Masalan, sodir etilgan jinoyatlarni ochishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishda, operativ qiziqish uyg'otuvchi shaxslarni aniqlashga doir ma'lumotlarni to'plash, ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish hamda ularning kelgusidagi g'ayriqonuniy harakatlarini oldindan ko'ra bilishda bilish jarayonlariga asoslaniladi.

Faoliyatning konstruktivligi deganda, jinoyatlarni ochish, tergov qilish, ularning oldini olish, yashiringan jinoyatchilarni qidirib topish kabi harakatlarni rejalashtirishga qaratilgan tafakkur faoliyati tushuniladi. Ya'ni, konstruktiv faoliyatda bilish faoliyatining bosqichlari rejalashtiriladi, bunda bizga noma'lum bo'lgan voqelikni qanday ketma-ketlikda izlashimiz kerakligi haqidagi savolga javob beriladi. Boshqacha aytganda, xodimning izlanishi va konstruktiv faoliyati yagona fikrlash jarayonining turli bosqichlarini ifodalovchi omildir.

Tashkilotchilik faoliyati. Ushbu faoliyat xodimning kasbiy faoliyati jarayonida turi vazifalarni amalga oshirish uchun maqbul sharoitlarni ta'minlovchi bosh omildir. Uning mazmuni jinoyatlarni ochish, tergov qilish, ularning oldini olish jarayonlarini boshqarishda namoyon bo'ladi. Ushbu mazmuni operativ rahbarlikda, hisob va nazoratda, ushbu jarayon ishtirokchilari o'rtasida hamkorlikni uyushtirishda kuzatish mumkin. Mazkur faoliyat xodimlarning o'z xizmat topshiriqlarini bajarishlarida axborot berish va almashishlarida hamda operativ qiziqish uyg'otgan shaxslarning harakatlarini oldindan ko'ra bilishda katta ahamiyatga ega.

Kommunikativ faoliyat, yuqorida ta'kidlanganidek, xodimning kasbiy faoliyati, uning keng kommunikativligi (muloqotmandligi) bilan ajralib turadi. Uning kommunikativ faoliyati muloqot orqali, ya'ni amaliy tezkor xizmat vazifalarini bajarish maqsadida atrofidaqilar bilan bevosita nutqiy aloqa qilish orqali zarur ma'lumotlarni olishda namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida ta'sir etish uchun xodimda yuksak aql va bilimdonlik, kuchli iroda, shuningdek, uning insoniylik sifatlarini belgilovchi shaxsiy xislatlari uyg'unlashishi kerak.

Xodim kasbiy faoliyatining asosiy psixologik xususiyatlari va tarkibiy elementlarini ko'rib chiqish ham uning faoliyati qanchalik murakkab va serqirraligidan dalolat beradi. Kasbiy faoliyat xodimga ko'plab turli xil talablar qo'yadi, ular orasida eng muhimlaridan biri — *shaxsda kasbiy muhim xislatlarning rivojlanganlik darajasi bo'lib*, ular quyidagilardan iborat:

- xodim shaxsiga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yo'nalganligi;
- xodimning psixologik tayyorgarligi;
- rivojlangan irodaviy xislatlar;
- noodatiy vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;
- yaxshi rivojlangan kommunikativlik;

– turli toifadagi shaxslar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o‘rnatish olish va sir saqlay olish;

– turli tezkor xizmat vazifalarini bajarishda odamlarga psixologik ta’sir ko‘rsatish qobiliyati;

– rolga, boshqa qiyofaga kira olish;

– rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvur;

– rivojlangan mantiqiy tafakkur, murakkab aqliy ishga moyillik, farosat, rivojlangan intuitsiya;

– ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Ushbu xislatlar insonga avvaldan xos emas. Ularni shakllantirish va rivojlantirish davomli va qiyin jarayon, ammo u ichki ishlar organlari xodimining kasbiy shakllanishi uchun zarur va shartdir.

Ushbu xislatlarning xodim shaxsida bo‘lmasligi yoki yetarli rivojlanmaganligi uning o‘z funksional vazifalarini to‘g‘ri va aniq bajarishiga xalaqit beradi, shaxsning o‘z kasbiga moslasha olmasligi va kasbiy buzilishiga olib keladi. Shu bois ham xodimlarda ushbu xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan kasbiy-psixologik tayyorgarlik katta ahamiyat kasb etadi.

2. Ichki ishlar idoralari tizimida kasbiy qobiliyat va kasbiy mahorat

Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy qobiliyati va mahoratini takomillashtirishning yetakchi omillaridan biri xodimlarni psixologik jihatdan tayyorlashdir.

Ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik jihatdan tayyorlashdan ko‘zlangan *maqsad* ularda xizmat faoliyatining har qanday noodatiy sharoitlarida kasbiy jihatdan to‘g‘ri, aniq, yuqori ishchanlik bilan harakatlanishga tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Ichki ishlar idoralari xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini oshirishda shaxsiy xislatlariga alohida talablar qo‘yiladi. Ushbu faoliyat xodimlarda hissiy-irodaviy barqarorlikni rivojlantirish, zo‘riqishni vujudga keltiruvchi omillar ta’siriga qarshi psixologik tayyorgarlikni shakllantirishni talab etadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy mahoratini shakllantirish va faoliyat samaradorligini oshirishda asosiy omillar quyidagilardan iborat:

– ichki ishlar organlari xodimlari shaxsi uchun tipik bo‘lgan konstruktiv, kommunikativ, bilish, tashkilotchilik, guvohlik, dalillash va tarbiyaviy faoliyat tizimini yaratish;

– operativ xizmat faoliyatining har qanday murakkab va xavfli vazifalarini yuqori samara bilan bajarishlariga yordam beruvchi uquv va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Xodimlarning psixologik tayyorgarligi ularning faoliyat tizimi va kasb mahoratining kompleks tarkibiy qismidir. U xodimning shakllangan va rivojlangan psixologik xususiyatlari majmui bo‘lib, tergov, operativ xizmat va profilaktik faoliyatning o‘ziga xos muhim psixologik xususiyatlariga javob beradi, ularni amalga oshirishning zarur shart-sharoitlari hisoblanadi. U to‘rt guruhga kiruvchi tarkibiy qismlardan iborat:

– *xodimning psixologik jihatdan kasbiy faoliyatga yo‘naltirilganligi va his-tuyg‘ulari* (o‘zi ishlayotgan vaziyatlarni psixologik jihatlarini va kishilarni tushunishga intilishi, qiziqishlari va ularni tushuna olishi);

– *xodimning kasbiy mahorat va taktik faoliyat samaradorligini oshirishga oid psixologik tayyorgarligi*. Ushbu tayyorgarlik kasbiy mahorat samaradorligini oshirishda, kasbiy faoliyat tizimida psixologik sharoitlarni tushunish va ularni yarata olishda, kasbiy (nutqli va nutqsiz) harakatlarni amalga oshirishning psixologik vositalaridan mahorat bilan foydalanish, operativ xizmat vazifalarining samarali hal etilishini ta‘minlovchi psixologik usullarning butun kompleksini mohirlik bilan qo‘llay olishda namoyon bo‘ladi;

– *xodimning rivojlangan kasbiy kuzatuvchanligi va xotirasi* (kasbiy kuzatish samaradorligini oshirish uchun psixologik asoslangan usul va qoidalarni qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi) rivojlangan kasbiy diqqatlilik, sezgi va tasavvur organlarining mashq orqali rivojlanganligi, hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar uchun muhim bo‘lgan ma‘lumotlarni tez, to‘liq va aniq esda olib qolish, xotirada yaxshi saqlash va to‘g‘ri bayon etish bo‘yicha mashq qilganlik;

– *psixologik barqarorlik* (xodimning tergov, operativ xizmat faoliyatining psixologik jihatdan murakkab, hissiy jihatdan tarang, xavfli va mas‘uliyatli vaziyatlarda xotirjam va ishonch bilan harakat qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi).

Xodimning kasb mahoratini oshirishda uning psixologik bilimlarga egaligi muhim ahamiyatga ega. Ilmiy dalillar va mavjud ijobiy tajriba professional ta‘lim tizimiga psixologik tayyorgarlikni maqsadga yo‘nalgan tarzda oshirib borishning maxsus vazifalari, shakl va usullarini

kiritish zarurligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda kasbiy mahorat – ichki ishlar organlarining faoliyat samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir.

Shu ma'noda ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy mahorati, xodimlarda operativ xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli va samarali bajarish uchun zarur bo'lgan xislatlarni shakllantirish, rivojlantirish va faollashtirish bo'yicha maxsus tashkil etilgan maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Xodimlarning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish va kasbiy qobiliyat hamda mahoratini rivojlantirishda ular ma'lum bir kasbiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim.

Xodimlar kasbiy mahorati mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

– jinoyatchilikka qarshi kurashishga psixologik jihatdan tayyor bo'lish, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

– maxsus operativ xizmat faoliyatining turli jihatlariga psixologik yo'nalganlikni rivojlantirish;

– kasbiy jihatdan muhim bo'lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

– turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish ko'nikmalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

– operativ xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirishish ko'nikmalarini shakllantirish;

– fuqarolar bilan muloqotga kirishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta'sir etishning psixologik usullarini qo'llash mahoratini takomillashtirish;

– operativ xizmat faoliyatining og'ir vaziyatlarida o'zini tuta bilish, psixologik barqarorlikni shakllantirish;

– shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o'zini tutish va boshqarish usullarini o'rgatish;

– irodaviy faollik va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish;

– ishdagi ruhiy zo'riqlashlarga tayyor turish.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid kasbiy mahoratni shakllantirish ushbu faoliyatning muhim jihatlaridan biridir. bu o'rinda eng asosiysi xodimlarning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror kasbiy qiziqishni rivojlantirish hisoblanadi. Bu, shuningdek xodimlarda har qanday qonunbuzarliklarga nisbatan kelishmovchilik, huquqiy normalarni so'zsiz bajarishdan iborat

barqaror odat, kuchli rivojlangan haqiqat, adolat va qonuniylik hissini shakllantirishni taqozo etadi.

Maxsus operativ xizmat va tergov faoliyatining turli jihatlariga oid psixologik yoʻnalganlikni rivojlantirish xodimlarni psixologiya asoslari bilan tanishtirish, ularda oʻz ishlarida odamlar, guruhlar psixologiyasini inobatga olish koʻnikmalari va odatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Tergov va operativ xizmat faoliyatining psixologik jihatlarini tushunish xodimlarning oʻtkaziladigan tergov, operativ qidiruv va boshqa harakatlardagi psixologik xususiyatlarni bilishlari va hisobga olishlarini taqozo etadi.

Kasbiy jihatdan muhim boʻlgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish xodimlar faoliyatining samaradorligini taʼminlaydi. Ularga kasbiy ziyraklik, idrok, kuzatuvchanlik, xotira, tafakkur va tasavvur kiradi. Ushbu xislatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar xodimlarning kasbiy jihatdan muhim maʼlumotlarni esda olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirish samaradorligini oshiradi, mantiqiy fikrlash va ijodiy tasavvurlarini rivojlantiradi.

Turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa oʻrnatish uquv mahorati hamda koʻnikmalarini takomillashtirish va rivojlantirish. Ichki ishlar organlari xodimlari turli toifadagi fuqarolar (jabrlanuvchilar, guvohlar, gumon qilinuvchilar, maxsus hisobda turganlar va h.k.) bilan doimiy muloqotda boʻladilar. Olinadigan operativ jihatdan muhim axborotning sifati xodimlarning ular bilan muomala qilish, psixologik aloqa oʻrnatish, ishonchli munosabatga kirishish qobiliyatiga bogʻliq. Bu esa, oʻz navbatida, butun faoliyatining samaradorligiga taʼsir koʻrsatadi. Psixologik tayyorgarlik davomida xodimlar psixologik aloqa oʻrnatish usullari va yoʻllari tizimini egallashlari kerak. Ularda notanish kishilar bilan tezda aloqa oʻrnatish va ularni oʻziga moyil qilish, odamlarning fikrini eshita olish, muloqot jarayonida psixologik toʻsiqlarni yenga olish mahorati shakllangan boʻlishi kerak. Psixologik tayyorgarlik xodimlarning psixologik aloqa oʻrnatish jarayonini yengillashtirishga imkon beruvchi muayyan qoidalarni oʻzlashtirishlarini taqozo etadi.

Tergov va operativ xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirish koʻnikmalarini shakllantirish. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy mahoratini tashkil qiluvchi muhim tarkibiy qismlardan biri jinoyatlarni ochish yoki ularning oldini olish uchun zarur axborotga ega boʻlish maqsadida rolga kirish koʻnikmalaridir. Shuning uchun xodimlar psixologik tayyorgarlik davomida oʻzlarining ichki ishlar organlaridan

ekanliklarini, haqiqiy xislatlari va holatlarini, muloqotga kirishishdan ko'zlagan maqsadlarini niqoblay olish mahoratini egallashlari kerak.

Fuqarolar bilan muloqotga kirishishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta'sir etishning psixologik usullarini qo'llash mahoratini takomillashtirish. Fuqarolar bilan muomala qilish jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida odatiy holdir. Shu bois xodimlarda nizoli vaziyatni bartaraf etish mahoratini shakllantirish, ularga nizolarni hal qilish usullarini o'rgatish juda muhim. Xodimlar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan odamlarga psixologik ta'sir ko'rsatishning ishontirish, majburlash, rag'batlantirish singari muayyan usullaridan mohirlik bilan foydalanishlariga bog'liq. Xodimlarda nizoli vaziyatda o'zini tutish, turli taktik usullarini qo'llash hamda nizoli vaziyatdan operativ maqsadda foydalanish ko'nikmalari ham shakllangan bo'lishi kerak.

Tergov va operativ xizmat faoliyatining og'ir vaziyatlarida o'zini tuta olish, psixologik barqarorlikni shakllantirish. Xodimlar kundalik amaliy ishlarida kasbiy harakatlarini bajarish sifatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan ko'plab noqulay psixologik holatlar ta'siriga duch keladilar. Psixologik barqarorlik xodimlarning salbiy holatlar ta'siriga berilmaslik qobiliyatida namoyon bo'ladigan psixologik tayyorgarlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Bu o'rinda xizmat vazifalarini bajarish chog'ida mazkur qiyinchiliklarni oldindan ko'rish qobiliyatini shakllantirish muhim. Psixologik barqarorlikning shakllanganligi xodimlarga eng qiyin psixologik sharoitda o'z vazifalarini kamchiliksiz bajarishlariga yordam beradi. Bunga mashqlar va amaliy mashg'ulotlar jarayonida og'ir vaziyatlarni modellashtirish yo'li bilan erishish mumkin.

Shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o'zini tutish va boshqarish usullarini o'rgatish. Xodimlarning psixologik barqarorlik va og'ir vaziyatlarda o'zini tuta bilish qobiliyati ularda mas'uliyat, muvaffaqiyatsizlikka chidash, tavakkalga moyillik va barqarorlik, o'zini boshqara olish, sobitlik kabi muayyan hissiy-irodaviy xislatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Xodimlar o'z xatti-harakatlari va his-tuyg'ularini nazorat qilish va boshqarish olishlari shart. Ular mashg'ulot va mashqlar jarayonida o'zlarini boshqarish, asabiy zo'riqishni yo'qotish, ichki imkoniyatlarni qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar qilish usullarini egallashlari kerak.

Irodaviy faollik va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish. Ichki ishlar organlari xodimlari amaliy faoliyatlarida ishni sifatli

bajarishni qiyinlashtiradigan, ba'zan esa qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladigan turli xil qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchilik va to'siqlarni yengishga undovchi irodaviy faollikni namoyish etishlariga to'g'ri keladi. Irodaviy harakat ko'nikmalarini rivojlantirishga mashg'ulotlar jarayonida qo'yilgan vazifani bajarishga to'sqinlik qiluvchi muayyan elementlar, to'siqlar kiritish yordam beradi. Bunday mashqlar jarayonida to'plangan irodaviy faollik tajribasi shaxs irodasini, irodaviy xislatlarini rivojlantirishga ta'sir etadi.

Ishdagi ruhiy zo'riqishlarga tayyorlik. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga xos xususiyatlardan biri shundaki, ta'sir etuvchi omillar ko'pincha stress holatini keltirib chiqaradi, asab tizimiga haddan tashqari katta og'irlik tushadi. Bu, o'z navbatida, ular amalga oshiradigan faoliyat samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xodimlar ushbu jarayonlar kechishining asosiy qonuniyatlari hamda qisqa vaqt ichida ish qobiliyatini tiklash va ortiqcha asabiy zo'riqishni bartaraf etishga yordam beradigan usullar (psixologik boshqaruv mashqlarini bajarish usullari) bilan tanish bo'lishlari lozim.

Turli kasblarning psixologik tuzilishida bilish faoliyati turli mazmunga ega bo'lishi mumkin. Bu bilish faoliyatining o'ziga xosligini belgilab beruvchi maqsad, obyekt, sharoit va usullarga bog'liq. Ichki ishlar organlari faoliyatdagi bilish jarayoni ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Birinchi, ichki ishlar faoliyatida bilish yagona maqsad emas, balki boshqa turdagi faoliyatni ta'minlash vositasidir.

Ikkinchi, jinoyatni tergov qilish faoliyati jinoyat sodir etilganidan so'ng boshlanadi. Demak, bilish faoliyatining ushbu turida bevosita bilishning o'zi unchalik katta o'ringa ega emas. Faktlarning asosiy ko'pchiligi bilvosita, ya'ni boshqa shaxslar (jabrlanuvchilar, guvohlar)ning ko'rsatmalari orqali bilinadi.

Uchinchi, maqsad sodir etilgan jinoiy hodisaning fikriy modelini yaratish bo'lsa-da, bilish hozirga ham, kelajakka ham qaratilgan bo'ladi.

To'rtinchi, axborotning juda katta oqimi ma'lumotlarni tanlashni taqozo etadi, ya'ni muayyan jinoyatga bevosita aloqador ma'lumotlarni ajratib olishni talab etadi.

Beshinchi, axborotning kelib tushishiga juda katta o'zgaruvchanlik xos. Jinoiy hodisaga oid xabarlar doimiy ravishda o'zgarib va to'ldirilib turiladi. Ko'pincha axborotni qayta olib bo'lmaydi yoki u

mavjud ma'lumotlarga zid keladi, bu esa ushbu axborotni qat'iy tarzda qayd etishni taqozo etadi.

Nihoyat, protsessual tartibning mavjudligi. Ichki ishlar organlari faoliyatidagi bilishning o'zi huquqni ichki ishlar organlar faoliyatning quyidagi maqsadlaridan kelib chiqadigan muayyan protsessual shaklda yuz beradi: ish bo'yicha xolis haqiqatni va aybdorlarni subyektivizmni inkor etgan holda aniqlash va hokazo.

Bularning hammasi xodimlarda kasbiy jihatdan muhim bo'lgan va bilishning samaradorligini ta'minlaydigan xislatlarni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ichki ishlar organlari xodimlarda bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirishda maxsus trening katta ahamiyat kasb etadi. Trening jarayonida mazkur xislatlar rivojlantiriladi.

3. Kasbiy buzilish tushunchasi va ularning oldini olish yo'llari

Ichki ishlar idoralari xodimlari jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida o'z faoliyatlarini amalga oshirar ekanlar, ular tomonidan ba'zan fuqarolarning huquq va erkinliklariga taalluqli qonunchilikni buzish holatlari ham uchrab turadi.

Huquqbuzarlik qonun va boshqa huquqiy normalarga rioya qilmaslik natijasida shaxslarning qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazishida ifodalanadi.

Ichki ishlar idoralari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, respublikamiz uchun har tomonlama yetuk va munosib kadrlar tayyorlash masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Ayni damda olib borilayotgan islohot va kadrlar tayyorlash dasturlari e'tiborni xodimlarda mavjud kasbiy xususiyatlarga qaratishni, ularning jismonan, ma'nan sog'lomligi, dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, Vatan himoyasida o'z aqidalariga sodiqligi, o'quv va ish jarayonida axborot, bilim va tajribalarni o'zlashtirishda shaxsning psixik xususiyatlari dolzarb ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlamoqda.

Fuqarolar tomonidan xodimlarning salbiy xatti-harakatlari doim ham tanqid qilinavermaydi yoki fuqarolar adolat o'rnata olmasligiga ishonchi ortgan sari bunday holatga qo'l siltaydilar, oqibatda hech qanday jazoga tortilmay qolgan xodimlar tomonidan qo'pollik, tan jarohatlari yetkazish, haqorat, tamagirlik yoki poraxo'rlik, xizmat vakolatini suiiste'mol qilish kabi qonun buzilishlari davom etaveradi.

Fuqarolik huquqlari poymol bo'layotgan vaqtda ham odamlar zo'rovon xodimlarga bas kelishga hadlari sig'maydi va xodim javobgarlikdan osongina qutulib ketadi.

Xush, xodimlarning kasbiy buzilishlariga qanday omillar sabab bo'lmoqda?

Masalan, Rossiyada bu muammoni bir qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazish natijasida psixolog olim A.V.Budanov 3 ta asosiy omillar guruhiga bo'lib o'rgandi, ya'ni:

- xizmat sohasining o'ziga xosligi (spetsifikasi);
- shaxsiy fazilatlar omili;
- ijtimoiy-psixologik omillar1.

S. Medvedevning fikricha, xodimning soha yo'nalishi uning huquqbuzarlikka moyilligiga ta'sir qiluvchi asosiy omildir. Xususan, uning tadqiqoti natijasida eng kuchli ta'sir darajasi jinoyat qidiruv xodimlarida, o'rtacha ta'sir darajasi patrul-post xizmati va tergov xodimlarida, past ta'sir darajasi esa pasport va shaxsiy tarkib bilan ishlash sohasida aniqlangan.

Bu tadqiqotni o'tkazgan Rossiya psixologlari xodimlarning kasbiy buzilishlarini ularning ish tajribasi bilan solishtirganlarida quyidagi natijalarni taqdim qilganlar:

1) 5-yilgacha ishlagan xodimlarda kasbiy tanazzul arziyas bo'lib, bu toifa xodimlar xizmat sirini endi tushunib borayotganligi bois kasbiy buzilish past darajada;

2) 6–10 yil ishlayotganlarda o'rtacha darajada;

3) 11–15 yil ishlayotganlarda kasbiy buzilish darajasi juda yuqori;

4) 15-yildan ortiq ishlayotganlarda esa axloqiy-kasbiy buzilishlar bo'lishi aniq.

Biroq, har qanday statistik ma'lumotlarning nisbiyligini inobatga olish lozim. Shu bilan birga, bu axloqiy-kasbiy buzilgan xodimning har biri pora oladi yoki tamagirlik qiladi degani emas. Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmatidagi ko'p yillik kuzatishlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ko'p ishlagan xodimlarda xizmat vazifalarini bajarishga nisbatan beparvolik, loqaydlik, sansalorlik (masalan fuqarolarning arizalarini ko'rishda) kabi illatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish holatlari ko'plab uchraydi. Bularning sababi esa xodimning asosan surunkali ruhiy va jismoniy jihatdan zo'riqishdir.

Axloqiy-kasbiy buzilishning xavfli tomoni shundaki, uning eng past darajasi ham ichki ishlar idoralari xodimlarining shaxsiy va xizmat qobiliyatlariga jiddiy zarar yetkazadi.

Psixologik nuqtai nazardan bu muammoga xodimning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib yondashish qabul qilingan.

Xodimlarning kasbiy buzilishida ularning shaxsiy xususiyatlari ta'sirini rus psixologi A. V. Budanov quyidagicha tahlil qiladi¹:

1) xodimning intellekti ta'siri (ya'ni, mustaqil fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishi tormozlanadi, mustaqil tarzda o'z ustida ishlashi va kasb mahoratini oshirishda layoqatsiz bo'lib qoladi, ekstremal yoki kutilmagan vaziyatda qaror qabul qila olmaydi);

2) shaxsiy salbiy sifatlar ta'siri (ochko'zlik, qo'pollik, tajovuzkorlik, faqat o'z manfaatlarini ko'zlash, bilimsizlik, to'porilik, o'z shaxsiga yuqori baho berish) kabi.

Bu xususiyatlar xizmat ta'sirida (vakolat doirasining kengligi, xizmat kiyimidan havolanish, hammaning diqqat-markazida bo'lish) xodimga yanada o'ziga yuqori baho berishiga sababchi bo'lib qolishi mumkin.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining samarasini belgilovchi shaxsiy xususiyatlarini aniqlash uchun, avvalo, ushbu faoliyatning psixologik jihatlarini tahlil qilish, o'ziga xos tomonlarini aniqlash, shu orqali bu faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish talab qilinadi.

Xodimlardan yuksak madaniyatli, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, murakkab sharoitlarda davlat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qila olish, aholining har xil toifalari bilan ishlay olish, jinoyatchilikka qarshi kurashda zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Oxirgi paytlarda ichki ishlar idoralari xizmatiga tanlanayotgan nomzod ko'pincha xizmat talablariga javob bermayapti. Shuningdek, tanlangan nomzodning shaxsiy salbiy sifatleri ifodalanishi forma kiyganidan keyin xizmat kiyimi va vakolati ta'sirida yanada zo'rayadi.

Bundan tashqari, nomzodda xizmatda uchraydigan tashqi omillar ta'siriga ruhiy immunitetning rivojlanmaganligi, qaltis vaziyatda tez va aniq qaror qabul qila olish reaksiyasining pastligi, o'ziga yuqori baho berishi, iroda qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi, dunyoqarashi

¹ Буданов А.В. Работа с сотрудниками органов внутренних дел по профилактике профессиональной деформации: Практическое пособие для руководящих работников УВД, ОВД, служб по работе с личным составом, подразделений морально-психологического обеспечения деятельности ОВД. – М, 1992.

va madaniyat darajasining pastligi tufayli xizmat boshlagandan keyin qisqa muddat ichida uning axloqiy jihatdan yemirilishiga sabab bo'radi.

Kasbiy tanazzul avvalo, shaxsning o'zida, keyinchalik esa uning harakatlari orqali kasb faoliyati va atrof-muhitidagi munosabatlarda ifoda bo'lishni boshlaydi. Bu holat ichki ishlar idoralari jamoalarida ham yuz berishi mumkin. Masalan, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish holati shu bo'lim yoki bo'linmada xizmat intizomining sustligiga dalil bo'la oladi.

Kasbiy tanazzulning xavfli tomoni shundaki, u «latent», ya'ni yashirin tarzda kechadi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina holatlarda xodimning mast tarzda xizmatga chiqishini, avvalo, rahbarlarning o'zlari (o'zlariga gap tegmasligi uchun) yashiradilar. Intizomiy jazoga tortilmagan xodim esa mas'uliyat hissini sezmay, osongina qutulib ketadi. Bu hol atrof-dagilarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Bu o'rinda xodimlar bilan olib borilishi kerak bo'lgan psixologik faoliyat haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Zero, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, aksariyat huquqbuzarliklar xodim psixologiyasidagi o'zgarishlar, og'ishlar natijasi deb oladigan bo'lsak, ularga moyillikni aniqlash va psixologik profilaktika qilishni ichki ishlar idoralaridagi psixologik faoliyat orqali amalga oshirish mumkin.

Ajablanarlisi shundaki, inson psixikasi bilan ishlaydigan mutaxassislardan ko'pchilik xodimlar negadir cho'chishadi. Xodimlar psixologik, psixoterapevtlik yordamini psixiatriya xizmati bilan adashtiradilar va bu o'z o'rnida psixodiagnostika ishlarini qiyinlashtiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan holatlar bugungi kunning muhim muammosiga aylanganligini inobatga olgan holda respublika ichki ishlar idoralari tizimlarida muhim bir yangilik, ya'ni 2010 yilning 7 sentabr kuni IIVning 44-sonli buyrug'i bilan joylardagi ichki ishlar bo'limlarga «axloqiy psixologik ta'minlash guruhleri inspektori (katta inspektor)» shtat birlikleri kiritildi.

Ularning xizmat vazifalariga quyidagilar kiritildi:

– shaxsiy tarkibni bir yilda bir marotaba majburiy psixologik diagnostikadan o'tkazish hamda jamoadagi ruhiy muhitni o'rganish, xodimlarning individual xususiyatlari, psixologik holatlari, asab turg'unligi darajalari, qobiliyati, xizmatga yaroqliligi, shaxsiy tarkibning xizmatdan qoniqqanligi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va hokazo;

– xodimlar o'rtasida xizmat intizomi va qonunchilikni buzish, o'z joniga qasd qilish (suitsid) holatlari, xizmat faoliyati davomida yuzaga

keladigan turli qiyinchiliklar va yo‘l quyiladigan intizom buzilish sabablarini o‘rganib, ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish;

– uzoq xizmat safaridan qaytgan xodimlarni xizmatga ko‘nikma hosil qilishlariga ko‘maklashish;

– ishga yangi qabul qilingan xodimlar bilan psixologik usullarni qo‘llab suhbat o‘tkazish va boshqalar.

Bu yangilik ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy buzilishi, uning kelib chiqish sabablarini tugatish yo‘llaridagi muhim qadamdir. Chunki ichki ishlar idoralari xodimlari davlat hokimiyatining vakili sifatida ish ko‘rar ekanlar, ularning har bir xatti-harakati odamlarning diqqat-e‘tiborida turadi. Bir xodimning qilgan xatosi, qo‘polligi yoki pora olishi butun tizimni xalq oldida abgor qilishi, boshqa halol ishlayotgan xodimlarning obro‘sigga putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun kasbiy buzilishning oldini olish, unga yo‘l qo‘ymaslik bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy buzilishlarining oldini olishda asosan qo‘yidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

1. Professional faoliyatni tashkil etish sohasida:

– har bir xodimni tanlash va ishga tayinlashda qiziqishlarini inobatga olish;

– xodimlarga aniq vazifalar, topshiriqlar berish, ularning bajarilishi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rish;

– xodimlarga fuqarolar bilan muomala qilish madaniyatini, ruhiy aloqa o‘rnatish mahoratini o‘rgatish;

– xizmat vazifasini bajarishda ishga ijodiy yondashuvchi, chigal masalalarning yechimini tezlikda topuvchi, muammolarni hal qilishda ilmfan yutuqlaridan unumli foydalanuvchi xodimlarni taqdirlash, izzat-hurmatini joyiga qo‘yish;

– qo‘l ostidagilarni o‘z ishini o‘zi tahlil qilishga, o‘zini o‘zi nazorat qilishga o‘rgatish;

– xodimlarning bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun, oilasining tinchligi, hayotining sermazmun bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish;

– o‘zgalarga ruhiy ta’sir o‘tkazish usullarini amalda qo‘llashni o‘rgatish va xodimni janjalli va qo‘rqinchli vaziyatlarda ishlashga ruhiy jihatdan tayyorlash ishlarini amalga oshirish;

– jismonan chiniqtirish va chidamliligini oshirish.

2. *Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish sohasida:*

– xodimlarda ilmiy dunyoqarashni, axloqiy-huquqiy e'tiqodni, g'oyaviy-siyosiy madaniyat va irodaviy xislatlarni, qisqacha aytganda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish;

– ularni tanqid va o'z-o'zini tanqid ruhida tarbiyalash;

– iroda va xarakter kuchini chiniqtirish;

– jinoyatchilar dunyosining ta'siriga qarshi tura olish qobiliyatini hosil qilish;

– xizmatda va turmushda shaxsiy namuna orqali ta'sir ko'rsatish;

– tarbiyalash jarayonida o'rgatish va majburlash, rag'batlantirish va jazolash usul va vositalaridan unumli foydalanish;

– jamoada sog'lom ruhiy muhitni vujudga keltirish;

– qo'l ostidagilarning yashash sharoitlarini, dam olishini yaxshilash borasida g'amxo'rlik qilish;

– tarbiyaning barcha turlarini, usul va vositalarini, prinsiplarini birga qo'shib olib borish, ayniqsa, huquqiy va axloqiy tarbiyaning uzviy birligiga asosiy e'tiborni qaratish;

– xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlar va tili bilan bog'liq qadriyatlardan tarbiya jarayonida milliy g'ururni o'stirish va milliy ongini shakllantirishda unumli foydalanish.

Huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari axloqiy-kasbiy buzilishlarining sabablari va ularni tugatish chora-tadbirlari to'g'risida davlatimiz rahbari Islom Karimov shunday degan edi: «Huquqni himoya qilish organlarining ayrim nopok xodimlari o'z vazifasini suiiste'mol qilib jinoyatga qo'l urmoqda. ... huquqni muhofaza etuvchi idoralar – militsiya, sud, prokuratura xodimlari saflarini malakali, Vatanga va o'z burchiga sadoqatli, insofli, yosh, iqtidorli va zamon talablariga javob beradigan kadrlar bilan to'ldirish ishlari kuchaytirilishi lozim.

Barcha bo'g'inlarda insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbarlar boshchilik qilmas ekan, mustaqil mamlakatimizning obro'si, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan ishlamas ekan, ishlarimiz ko'ngildagidek bo'lmaydi»¹.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy buzilishlarining oldini olish asosan ikki yo'nalishda, ya'ni umumiy chora-tadbirlar va bevosita chora-tadbirlarni qo'llash asosida olib boriladi.

¹ *Каримов И.А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996. – Б. 287–288.

Umumiy chora-tadbirlarga jamiyatdagi ziddiyatlarni tadrijiy yo‘l bilan hal qilgan holda, huquqni himoya qiluvchi barcha idoralarda qonunga itoatkorlikni, hayotning barcha jabhalarida qonunlarning ustunligini ta‘minlash kabilar kiradi. Bevosita chora-tadbirlarga aynan xodimga qaratilgan chora-tadbirlar hosdir.

«Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy oni va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda»¹.

Shunday ekan qonunga bo‘ysunish yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib yetish, ijtimoiy burch, ya‘ni o‘z qilmishlari uchun davlat oldida javobgarlik tuyg‘usi bilan uzviydir. Qonunlarga itoatkor har bir fuqaro qonunlarning talablari jamiyatning yuksak manfaatlarini ifoda etishini, huquqiy qonunlarga rioya qilish faqat xalq manfaatlariga emas, balki uning o‘z manfaatlariga ham xizmat qilishini yaxshi tushunadi. Mazkur ma‘noda qonunlarga itoat qilishni xalq birligi va kuch-qudratining manbai deb atash mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ichki ishlar idoralari xodimining huquqiy ongi va uning asosiy funksiyalarini izohlang.
2. Qonun buzilishining psixologik sabab va sharoitlarini tushuntiring.
3. Ichki ishlar idoralari tizimida kasbiy qobiliyat va kasbiy mahorat qanday o‘rin tutadi?
4. Kasbiy buzilishning sabablari va ularni hal etish yo‘llari qanday?
5. Kasbiy buzilishning oldini olish uchun nimalarga e‘tibor berish kerak?

² *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б. 15–16.

IV bob.

**ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARI KASBIY
MUOMALASINING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**1. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida «muomala»
tushunchasi va uning psixologik o‘ziga xosligi**

Insonlar o‘z faoliyati davomida, tabiiyki, boshqa odamlar bilan muloqotda bo‘ladilar. Ushbu jarayonda axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatadilar, ta’lim beradilar, tajriba almashadilar. Bu jarayon shaxslararo o‘zaro munosabatlarda *muloqot, muomala* deb yuritiladi.

Muloqot har qanday faoliyatning muhim jihati hisoblanib, u orqali insonning mohiyati namoyon bo‘ladi, ya’ni o‘zaro tushunishga, ishni bajarish chog‘ida uyg‘unlikka erishiladi yoki aksincha, nizolar va axloqiy ziddiyatlar, ishdagi kelishmovchiliklar muloqot tufayli yuzaga keladi.

Muloqot yoki kommunikatsiya – odamlarning o‘zaro hamkorligi shakllaridan biri. Muloqot odamlarning voqelikni aks ettirishi natijasini ifodalovchi xabarlar almashish jarayoni bo‘lib, ular ijtimoiy borliqning ajralmas qismi hamda ularning individual va ijtimoiy ongi shakllanishi va amal qilishining vositasidir. Odamlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida maqsadli hamkorlikni tashkil etish, tajriba almashish, mehnat va turmush ko‘nikmalarini olish, ma’naviy ehtiyojlarni namoyon etish va qondirish muloqot yordamida yuz beradi.

Muloqot yoki muomala yangi axborotlarning almashinuv jarayoni hamdir, bu haqda Bernard Shou quyidagilarni qayd etadi: «Agar menda bitta olma va sizda ham shuncha olma bo‘lib, o‘zaro almashsak, sizda ham, menda ham bittadan olma qoladi, agar har birimizda shaxsiy fikr bo‘lsa va o‘zaro almashsak, unda har birimizda ikkitadan g‘oya bo‘ladi»¹. Ushbu ta’kiddan ham muloqot davomida o‘zaro fikr almashinuv munosabatlari yuzaga kelishini ko‘rish mumkin.

Ichki ishlar idoralari xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda fuqarolar bilan muloqotga kirishadilar. Ular faoliyatining samaradorligi

¹ Qarang: *Коган М.С.* Мир общения. – М., 1990. – С. 149–150.

odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa oʻrnatish qobiliyatlariga bogʻliq. Kommunikativ xususiyatlar ichki ishlar idoralari xodimlari kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir.

Muloqot ijtimoiy psixologik hodisa boʻlib, odamlar oʻrtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bogʻlanishlar rivojlanishining koʻp qirrali jarayonidir. Shaxslar oʻzaro munosabatga kirishar ekan, aloqaning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir muhim tomoni shundaki, munosabatga kirishuvchilar muomala jarayonida faqat soʻzlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham axborot ayirboshlashadilar. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashi, muomala madaniyatiga ham bogʻliq boʻladi, chunki shaxslardagi oʻzaro muloqot bu tabiiy ehtiyojdir.

Muloqot orqali shaxslarning birgalikda aloqa qilish metodikasi ketma-ket boʻlgan olti bosqichdan iborat:

I bosqich – oʻzaro bir-birini tushunish;

II bosqich – umumiy yoki mos keladigan qiziqishlarni topish;

III bosqich – muloqot uchun taklif etiladigan sifat va qabul qilinadigan prinsiplar;

IV bosqich – muloqot uchun xavfli boʻlgan sifatlarni aniqlash;

V bosqich – individual taʼsir etish va suhbatdoshga moslashish;

VI bosqich – umumiy qoidalarni yaratish va oʻzaro harakat qilish.

Bosqichlar ketma-ketligiga rioya qilish toʻgʻri taʼsir etishni tashkillashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Bosqichlar aloqa qilish jarayonida amalga oshirilayotgan faoliyatning ketma-ketligini kuzatish dasturi sifatida namoyon boʻlishi, oʻzaro taʼsir yoʻllarini nazorat etishi mumkin.

Kasbiy muomala har bir ichki ishlar idoralari xodimi faoliyatida muhim oʻrin egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har biri turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda shaxslar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashga, voqeani oʻtmishdagi vaziyat bilan bogʻlashga, oʻzaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Muloqot psixologik jihatdan bir-birlari bilan bogʻliq boʻlgan odamlar oʻrtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita

yoki bilvosita aloqani oʻrnatish va saqlab turish jarayonidir¹.

Muloqotning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida quyidagi turlari mavjud:

- 1) bevosita;
- 2) bilvosita;
- 3) rolli;
- 4) mazmunli;
- 5) rasmiy;
- 6) norasmiy.

Bevosita muloqot «yuzma-yuz» suhbat boʻlib, uning har bir ishtirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qoʻllaydi.

Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi boʻlib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan, telegraf, telefon orqali gaplashish).

Muloqotning baʼzi turlari ijtimoiy rollar orqali amalga oshirilib, rolli muloqot deyiladi. Bunday holatda odamlar muayyan ijtimoiy rollarni bajaruvi kishilar tarzida muloqotga kirishadilar. Masalan, tergovchi va jabrlanuvi oʻrtasidagi muloqot rollidir.

Individning boshqa shaxsga oʻz holati, kayfiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishi mazmunli muloqot deb ataladi.

Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega boʻlib, davlat va jamiyat manfaatini koʻzlagan hamda qayd etiladigan muloqot turi (masalan, tergov jarayonidagi soʻroq qilish)dir.

Shaxslararo oʻzaro muloqot jarayonida oʻzini qiziqtirgan u yoki bu maʼlumotga ega boʻlish norasmiy muloqot hisoblanadi.

Muloqotga kirishishda faqat soʻzlar emas, balki harakatlar, imo-ishoralar ham muhim ahamiyatga ega. Shaxslar oʻzaro muloqotga kirishar ekan, ushbu muloqot oʻzida uch muhim jihatni qamrab oladi;

- 1) kommunikativ (axborot berish);
- 2) interaktiv (oʻzaro birgalikda harakat qilish);
- 3) perseptiv (oʻzaro birgalikda idrok qilish).

¹ Qarang: *Асямов С. В., Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 47.*

Muloqot jarayonida axborotni boshqa kishiga yo‘llayotgan kishi *kommunikator*, uni qabul qilayotgan kishi *retsepiyent* deb nomlanadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida muloqot, ayniqsa, bevosita muloqot o‘ziga xos ahamiyatga ega. Chunki tokar temir bilan, zootexnik hayvonlar bilan ishlasa, huquqni muhofaza qilish organi xodimi shaxslar bilan, aholi bilan, jinoyatchi, guvoh, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi bilan ishlaydi. Ularning har biri o‘ziga xos dunyoqarash va muomalaga ega, bu muloqot jarayonida ko‘rinadi.

Muloqotda nutq muhim rol o‘ynaydi, uning ravonligi, so‘zlarning yaxshi va o‘z joyida to‘g‘ri ishlatilishi muvaffaqiyat garovidir. Nutq eshittirilishi yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo‘yilishi yoki karsoqov kishilar uchun biror-bir mohiyatga ega bo‘lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi mumkin. Muloqotda ma‘lumot beruvchi va qabul qiluvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik yuzaga keladi. Nutq shaxsning tashqi ko‘rinishi, kiyinishi, mimikasi, tez yoki sekin gapirishi, ovozi, salmoqlab yoki vazmin gapirishiga bog‘liq bo‘ladi.

Shaxs ma‘lumotni ikkinchi bir shaxsga nutq bilan birga xatti-harakat, mimikalar orqali, shuningdek yozma yoki ko‘rgazmali usulda berishi mumkin. Muloqot davomidagi emotsional holat muloqotga kirishayotgan shaxsning xatti-harakatiga salbiy ta‘sir qiladi.

Muloqotning uzoq davom etishi ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Har qanday muloqotdan biror-bir maqsad ko‘zda tutiladi. Muloqotga kirishgan har bir shaxs uning yakunidan turlicha, ya‘ni ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarishi mumkin.

Muloqot aniq ijtimoiy munosabatlar orqali belgilanadi. U ijtimoiy axloq normalari asosida tartibga solinadi. Individ hayotida muloqotning bajaradigan vazifalari turlicha, shu bois muloqotning quyidagi psixologik vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- informatsion;
- regulyativ;
- xabar;
- nazorat;
- tarbiya.

Informatsion vazifasi axborotni qabul qilish va uni tarqatishdir.

Regulyativ vazifasi muloqotni tartibga solish va boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatni tashkil qilishdan iborat.

Xabar vazifasi ko‘magida biz muhim ahamiyatga ega voqealar, hodisalar haqidagi xabarlarni qabul qilamiz.

Nazorat vazifasi ko‘magida axborotni qabul qilish va tarqatish jarayoni nazorat qilinadi.

Muloqot orqali shaxsni shakllantirish jarayoni uning tarbiyalash vazifasi bo‘lib, nihoyatda muhim omil hisoblanadi.

2. Muomala vositasi va kommunikativ ta’sir etish usullari

Ichki ishlar idoralaridagi faoliyatida xodim muloqot orqali o‘z xizmat burchini bajaradi va ushbu muloqot qonun asosida tartibga solinadi. Ichki ishlar idoralari faoliyatida nafaqat «til», yuqorida aytib o‘tganimizdek, imo-ishora, eng asosiysi, muloqot davomida shaxsning yuzidagi o‘zgarishlar ham muhim hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining muloqoti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) bevosita kasbiy vazifani bajarishga yo‘naltirilganligi;
- 2) huquqiy jihatdan tartibga solinganligi;
- 3) maxsus obyektning mavjudligi;
- 4) psixologik to‘siqlarning mavjudligi;
- 5) jinoyatchilarning maxsus tili hisoblanmish taturivkalar va jargonlarni bilish va hokazo.

Har qanday muloqot doimo obyekt bilan subyektning bir-birga moslashish jarayonini qamrab oladi.

Har qanday axborot faqat belgilar, aniqrog‘i, belgilar tizimi orqali beriladi. Kommunikativ jarayonda foydalaniladigan bir qancha belgilar tizimi mavjud bo‘lib, ularga mos tarzda muloqot jarayonida foydalaniladigan vositalarni tasniflash mumkin. Nutqli (belgilar tizimi sifatida nutqdan foydalaniladi) va nutqsiz (turli nutqsiz belgilar tizimidan foydalaniladi) muloqot vositalari farqlanadi.

Nutqiy muloqot vositasi. Eng universal aloqa vositasi inson nutqidir. Chunki nutq yordamida axborot berishda xabar mazmuni eng kam darajada yo‘qotiladi. Nutq – verbal aloqa, ya’ni til yordamida muloqot qilish jarayoni. Nutqning yozma va og‘zaki turlari farqlanadi. Og‘zaki nutq dialogik va monologik nutqlarga bo‘linadi. Dialog – biror masalani birgalikda muhokama qilayotgan va hal etayotgan suhbatdoshlarning so‘zlashuvi. Monologda esa bir odam uni tinglayotgan boshqa odam yoki odamlarga axborot beradi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida muloqotning nutqiy vositalaridan foydalanish juda muhim o‘rin tutadi. Xodim xizmat faoliya-

ting samaradorligi ko'p jihatdan bevosita muloqot jarayonida yoki turli xil hujjatlarni tuzishda o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash, ularni to'g'ri bayon etishiga bog'liq. Nutq muloqotning universal vositasi bo'lsa-da, u faqat faoliyat tizimiga aloqador bo'lgan sharoitdagina ahamiyatga ega bo'ladi, faoliyatga daxldorlik esa muloqotning boshqa – nutqsiz vositalarini qo'llash bilan to'ldiriladi.

Ushbu vositalarning birinchi guruhiga imo-ishora va mimika kiradi. *Mimika* – yuzning muloqot paytidagi dinamik ifodasi. *Imo-ishora* – jamiyatda ishlab chiqilgan va ruhiy holatni ifodalaydigan harakat. Ularga qarab biz insonning biror-bir voqeaga, shaxsga, narsaga munosabati haqida xulosa qilamiz. Imo-ishora odamning istaklari, uning ahvolidan darak berishi mumkin.

Muloqotning nutqsiz vositasiga kiruvchi boshqa guruhini vokallashtirish tizimi, ya'ni ovoz sifati, uning diapazoni, tonalligi va boshqalar tashkil etadi. Ushbu qo'shimchalarning hammasi axborotning ahamiyatini oshiradi va o'ziga xos nutqqa qo'shilgan «qo'shimcha» vazifasini bajaradi.

Nutqsiz vositalarning uchinchi guruhiga kommunikativ jarayonni tashkil qilish makoni va zamoni kiradi. Ular ham maxsus belgilar tizimi bo'lib, kommunikativ tizimning tarkibiy qismlari sifatida ma'noga ega. So'nggi vaqtlarda psixologik tadqiqotlarda muloqotga kirishuvchi shaxslar o'rtasidagi oraliqning kommunikativ ahamiyatiga va muloqot samaradorligining sheriklar joylashuviga bog'liqligi masalalariga e'tibor berilmoqda. Muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi masofalarning to'rt turi farqlanadi: intim (0–0,5 m), shaxsiy (0,5–1,5 m), ijtimoiy (1,5–3 m), ommaviy (3 metrdan ortiq).

Xodim masofani o'zgartirish orqali gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh kabilarga qo'shimcha ta'sir ko'rsatishga erishishi mumkin, chunki bu bilan sheriklar o'rtasidagi munosabatlar xususiyati o'zgaradi¹.

Muloqotning psixologik vositalari:

<i>verbal (nutq orqali)</i>	<i>noverbal (nutqsiz)</i>
– og'zaki nutq;	– imo-ishora;
– yozma nutq;	– mimika;
	– pantomimika.

¹ Qarang: *Asyomov S.B. Puлатов Ю.С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 76.*

Verbal muloqotning asosiy vositasi inson nutqi bo'lib, u aloqaning universal vositasi hisoblanadi. Zero, nutq orqali axborotning mazmuni deyarli to'liq beriladi. Verbal muloqot orqali shaxs o'zining fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladi.

Nutq, o'z navbatida, boshqa noverbal muloqot vositalari bilan birga olib boriladi. Bunday nutqsiz vositalarga, birinchi navbatda, imo-ishora va mimika kiradi.

Ichki ishlar idoralari faoliyatida ko'p holatlarda muloqot shaxslar uchun majburiydir, ya'ni ayblanuvchi, guvoh va gumon qilinuvchi muloqot qilishga majburdir. Shuningdek, shaxs muloqot qilmasa, qonunga asosan jazolanishi mumkin. Muloqotdagi har bir fakt shaxs ongi orqali amalga oshadi, eng asosiysi, bu faktlar shaxslarda ba'zi bir narsalarni bo'rttirib ko'rsatish yoki yashirishga olib kelishi mumkin. Ba'zan muloqotga kirishayotgan shaxs o'z aybini yoki maqsadini yashiradi, ma'lum bir vaqtdan keyin uning bu yolg'oni fosh bo'lishi mumkin. Ichki ishlar idoralari faoliyatida muloqot ikki yoki bir necha (ko'p) kishilik bo'lishi mumkin. Muloqot maqsadidan kelib chiqqan holda har xil tugashi, ya'ni keskin, agressiv holatda yoki muloqotni qayta davom ettirish yoxud butunlay muloqotga qaytmaslik ham mumkin.

Muloqot, shuningdek, individlarning bir-birlariga kommunikativ ta'sirining muayyan usullarini ham o'z ichiga oladi. *Ta'sir etish usullarining* quyidagi turlari farqlanadi:

Yuqimlilik – ta'sir ko'rsatishning kishilar ommasini muayyan tarzda, ayniqsa ommaviy tartibsizliklar, diniy jazavalar, ommaviy psixozlar bilan bog'liq ravishda integratsiya qiluvchi maxsus usuli.

Umumiy tarzda yuqimlilikni individning ongsiz, ixtiyorsiz ravishda muayyan ruhiy holatlarga tushishga moyilligi sifatida ta'riflash mumkin. U muayyan hissiy holatning birovga o'tkazilishida namoyon bo'ladi.

Yuqimlilikning psixologik mexanizmlarini inobatga olish ichki ishlar idoralari xodimlari uchun ommaviy tartibsizliklar oqibatlarini bartaraf etish, ommaviy madaniy-tomoshabop va sport tadbirlarini o'tkazish davrida jamoat tartibini ta'minlashda muhimdir.

Ishontirish – isbotsiz tasdiqlanadigan yoki inkor etiladigan xabarlarini tanqidiy qarashsiz qabul qilishga qaratilgan kommunikativ ta'sir ko'rsatish usuli. Ushbu psixologik hodisa haqidagi bilimlar rivojining hozirgi bosqichida «ishontirish mantiqiy isbotlashsiz

shakllangan ishonchga tayanadi va individdan individga, jamoadan shaxsga beriladi yoki aksincha, aniqroq aytganda, avtomatik tarqaladi», degan qoidaga asoslaniladi. Inson ishontirish ta'siriga ixtiyorsiz tushib, o'zi anglamagan holda harakat qila boshlaydi. Ichki ishlar idoralari xodimlari ta'sir etishning ushbu usulidan juda ehtiyot bo'lib foydalanishlari kerak, ba'zan (masalan, tergov harakatlarini o'tkazish chog'ida) undan foydalanish qonun bilan taqiqlanadi.

E'tiqod mavjud qarashlar, mayllar, nuqtai nazarlar, munosabat va baholarni o'zgartirish maqsadida u yoki bu qoida, qarash, qilmishning to'g'riligini yoki ularga yo'l qo'yib bo'lmasligini muloqot, tushuntirish va isbotlash orqali odamlarning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir ko'rsatish bo'lib, kommunikativ ta'sir ko'rsatishning eng universal usulidir. E'tiqod mexanizmi inson aqliy faoliyatini jadallashtirishga, uning maqsadga erishish yo'llari va vositalarini ongli ravishda tanlashiga asoslangan. Kimnidir nimagadir ishontirish – ishontirilayotgan shaxs mantiqiy mulohazalar va xulosa chiqarishlar natijasida muayyan nuqtai nazarga qo'shiladigan va uni himoya qilishga yoki unga muvofiq harakat qilishga tayyor bo'ladigan holatga erishishni bildiradi.

Ishontirish ichki ishlar idoralari xodimlarining fuqarolarga ko'rsatadigan asosiy ta'sir usuli bo'lishi kerak. Undan foydalanishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq:

- ta'sir ko'rsatuvchi shaxsning shaxsiy ishonchi;
- uning tayyorgarligi va bilimi;
- xabar berilayotgan faktlar, hodisalar, harakatlarning to'g'riligi, aniqligi va ishonchliligi;
- foydalanilayotgan faktlarning xarakterli, tipik bo'lishi;
- odamlarni o'ziga nisbatan moyil qilish, ularning ishonchini qozonish;
- ta'sir ko'rsatuvchi shaxsning talabchanligi, uning vazminligi va odobi.

Taqlid qilish ongli yoki ongsiz ravishda namunadan nusxa olishdir. U guruh, jamoani tashkil etuvchi odamlarning xatti-harakatiga xos bir xil usullarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Muloqot jarayonida ishtirokchilar bir-birlarini o'zaro tushunishlari kerak. Bunda muloqotga kirishgan sherikning uni qanday qabul qilayotgani katta ahamiyatga ega. *Shaxslararo idrok etish* qonuniyatlari, effektlarni inobatga olish ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida, ayniqsa, shohidlar, guvohlar, jabrlanuvchilarning ko'rsatmalarini, shuningdek, o'z idroklarini baholash chog'ida katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxslararo idrok effektlaridan biri – boshqa shaxs haqidagi umumiy tasavvurning uning shaxsiga xos xislatlarni idrok etish va baholash ta'sirida namoyon bo'ladigan «oreol effekti»dir. Agar umumiy tasavvur yaxshi bo'lsa, uning ijobiy xislatlari ortiqcha baholanadi, salbiy xislatlari esa sezilmaydi yoki aksincha. Ushbu effekt ta'sirida, masalan, ichki ishlar xodimi «surunkali» huquqbuzarning tuzalish tomon tashlagan dastlabki qadamlarini ko'rishi mumkin va, tabiiyki, uni bu ishda qo'llab-quvvatlay boshlaydi.

«Izchillik effekti» ma'lumotlar ziddiyatli bo'lgan taqdirda inson qiyofasini va u to'g'risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma'lumotlar eng ko'p ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo'lsa, aksincha, ya'ni eng oxirgilari ko'p ta'sir ko'rsatadi.

«Stereotiplashtirish effekti» idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlar unga ham xos deb baholashda namoyon bo'ladi. Har birimizda muayyan ijtimoiy stereotiplar – o'qituvchi, harbiy kishi, jinoyatchi kabi guruhlarining stereotiplari mavjud. Muayyan guruh vakiliga duch kelganda, biz oldindan ushbu guruh kishilarga xos muayyan xislatlarni unga ham xos deb qabul qilamiz. Ko'pincha bunday stereotipdan xalos bo'lish juda qiyin bo'ladi.

Ijtimoiy idrok etish effektlari *ijtimoiy mayl* (ustanovka) bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning paydo bo'lishiga olib keladi. Ijtimoiy maylning o'zi insonning boshqa odamni idrok etishga ichidan tayyor bo'lishi sifatida ta'riflanishi mumkin. Notanish kishi haqida taassurotning shakllanishida maylning ahamiyati ayniqsa katta. Fanda A. A. Bodalevning ijtimoiy maylning ahamiyatini ochib bergan tadqiqotlari yaxshi ma'lum.

Tadqiqotlardan birida ikki guruh odamlarga ayni bir kishining surati ko'rsatilgan. Ammo suratni ko'rsatishdan avval birinchi guruhga suratdagi kishining ashaddiy jinoyatchi, ikkinchi guruhga esa qahramon ekanligi aytilgan. Shundan so'ng har bir guruhga fotosuratdagi kishini so'z bilan tasvirlab berish taklif etilgan. Birinchi guruh uni quyidagicha tavsiflagan: chuqur ko'zlari yashirin yovuzligidan, bo'rtib chiqqan engagi jinoyatda «oxirigacha borishga» qaror qilganligidan darak beradi va hokazo. Ikkinchi guruhda aynan o'sha chuqur joylashgan ko'zlar tafakkurning teranligidan, turtib chiqqan engak esa qiyinchiliklarni yengishdagi iroda kuchidan darak beradi, deb baholangan. Shu, ichki ishlar idoralari xodimlari o'z faoliyatlarida shaxslararo idrok etish xususiyatlarini inobatga olishlari, ijtimoiy idrok effektlarining salbiy

ta'sirlarini yo'q qilishga, o'zida va tergov qilinayotgan voqeaga daxldor shaxslarda ijtimoiy maylning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasliklari juda muhim. Masalan, tergovchi tanib oluvchini tanib olishga tayyorlash chog'ida «Hozir sizni tunagan jinoyatchini tanib olishingiz kerak» kabi iboralardan qochishi lozim. Bunday iboralar jinoyatchini idrok etishga mayllik yuzaga kelishiga olib keladi, agar tanib olinayotgan shaxsning qiyofasi «jinoyatchi» stereotipiga mos kelmasa, bu tanib olish natijalarining noto'g'ri chiqishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda «Hozir siz ko'rsatilgan shaxslar orasida sizning pul solingan hamyoningizni tortib olgan odamni tanib olishingiz kerak» kabi neytral iboralardan foydalanish kerak. Bu maylning salbiy ta'siri imkoniyatini kamaytiradi¹.

3. Ichki ishlar idoralari xodimlarining fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish usullari

Muloqot turlarining keng ravishda amalga tatbiq qilinishi ushbu jarayonda insonning holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xohlagan axborotni muloqot jarayonida to'liq berish, uning to'g'ri qabul qilinganligi haqidagi signal qoniqish holatini vujudga keltiradi va muloqot jarayonini faollashtiradi.

Har bir muloqotda bir necha maqsad ko'zda tutilishi mumkin. Masalan, tergovchi shaxsning voqealarga aloqadorligi qay darajada ekanligidan kelib chiqqan holda dalillarni yana bir marotaba tekshirib ko'rish, o'zidagi mavjud dalillarni boyitish maqsadini ko'zlashi mumkin. Muloqot doimo inson tabiati bilan bog'liq bo'ladi, masalan, shaxs janjalkash bo'lishi mumkin, janjal ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi. Bunda shaxsning ziddiyatni keltirib chiqaradigan holatlarini o'rganish kerak bo'ladi.

Ichki ishlar idoralari xodimi odamlar bilan muloqot qilishi uchun chuqur bilim va quyidagi ijtimoiy-psixologik fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

- notanish shaxslar bilan tezda muloqotga kirishish, ularga ma'qul bo'lish;
- boshqa shaxslarning gapini eshitish qobiliyatiga ega bo'lish;
- odamlarga psixologik ta'sir ko'rsata bilish;

¹ Qarang: *Асямов С. В. Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 75–80.*

– muloqot jarayonida psixologik to‘siqlarni bartaraf etish va hokazo.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining kommunikativ faoliyati maxsus jihatlarga ega bo‘lib, u bir qator psixologik xususiyatlarni, birinchidan, ichki muloqotning o‘ziga xos tomonlarini, ikkinchidan, uning qiyinligini ko‘rsatadi.

Ushbu muloqotning muhim xususiyati uning kasbiy yo‘nalganligidir. Zero, xodimlar jinoyat qilgan shaxslarni, guvohlar va jabrlanuvchilarni aniqlash maqsadida boshqa shaxslar bilan muloqotda bo‘ladilar. Organ xodimlari haqiqatni ochishga harakat qilsalar, jinoyatchilar, aksincha, jinoyatni yashirishga, yolg‘on ma‘lumot berishga, jinoiy javobgarlikdan qutilishga intiladilar.

Tergovchi protsessual qonunlar doirasida harakat qiladi, ya‘ni jinoyatchi shaxsga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatiga qaramasdan muloqot qilishga majbur.

Muloqot jarayonida obyektning o‘ziga xos tomonlari borligini ham hisobga olish lozim. Shuni aytish joizki, ko‘p holatlarda jinoyatchi shaxslar jamiyatdagi axloqsiz, odobsiz va vijdotsiz kishilar bo‘ladilar. Natijada muloqot jarayonida har xil psixologik to‘siqlar paydo bo‘lib, ko‘proq ular sun‘iy ravishda vujudga keltiriladi.

Muloqot jarayonida quyidagi psixologik to‘siqlar vujudga kelishi mumkin:

- 1) motivatsion to‘siqlar;
- 2) aqliy to‘siqlar (intellektual);
- 3) emotsional to‘siqlar;
- 4) tarbiyaviy jarayondagi to‘siqlar.

Motivatsion to‘siqlar shaxsning muloqotga kirishishdan bosh tortishi, muomalani to‘g‘ri, aniq ko‘rinishda olib borilishini xohlamasligida namoyon bo‘ladi.

Aqliy to‘siqlar shaxsning xodimga nisbatan bilim doirasining kengligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va huquqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan taqdirda vujudga keladi.

Emotsional to‘siqlar muloqotga kirishuvchilarning psixologik va emotsional-irodaviy holatlaridan kelib chiqadi (tajovuzkorlik, qo‘rquv, asabiylashish, xo‘rlanish va boshqalar).

Tarbiyaviy jarayonlardagi to‘siqlarga ichki ishlar idoralari xodimlari tarbiyasi «qiyin» o‘smirlar, nosog‘lom oilalar va muqaddam sudlangan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlar olib borayotgan vaqtda uchraydi.

Psixologik aloqa o'rnatishning bir necha bosqichlari mavjud:

- 1) bo'lajak muloqotni bashorat qilish;
- 2) aloqani yengillashtiruvchi tashqi omillarni yaratish;
- 3) tashqi kommunikativ sifatlarning namoyon bo'lishi;
- 4) umumiy va betaraf qiziqish doiralarini aniqlash;
- 5) muomaladagi og'ishlarni bartaraf etish;
- 6) individual ta'sir ko'rsatish.

Bo'lajak muloqotni bashorat qilish. Psixologik aloqa o'rnatishning samarali bo'lishi uchun dastlabki rejalar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun muloqotga kirishuvchi shaxs haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Bundan tashqari, shaxsning psixologik xususiyatlarini bilish ham aloqa o'rnatishda yordam beradi. Shuningdek, shaxsning emotsional psixologik sifatlari: jizzakilik, tajovuzkorlik, yashirin xarakter, gumonsirash va boshqalar psixologik aloqa o'rnatishga salbiy ta'sir etadi. Keltirilgan sifatlarni bashorat qilish davrida inobatga olinishi kerak.

Aloqani yengillashtiruvchi tashqi omillarni yaratish. Muloqotda namoyon bo'ladigan har qanday holatlarda tashqi omillar ijtimoiy vaziyatlarga mos tushishi zarur. Suhbatdoshingizga hech nima xalaqit bermasligi va uni chalg'itmasligi kerak. Suhbat davomida o'zaro ishonch muhiti saqlanib qolinishi shart.

Tashqi kommunikativ sifatlarning namoyon bo'lishi. Nutq madaniyati, mimika, tashqi ko'rinish psixologik aloqa o'rnatishda ijobiy natija beradi. Suhbatdoshingizda ham shunga qarab ijobiy emotsional holatlar yuzaga keladi, bu esa aloqa o'rnatishda zarur omillardan hisoblanadi. Suhbatdosh bilan muloqotning boshidan hamfikir bo'lishga harakat qilish kerak.

Umumiy va betaraf qiziqish doiralarini aniqlash. Muloqotning boshida shaxs bilan umumiy til topish muhimdir. Bu vazifani hal etishda umumiy, shu bilan birga, betaraf qiziqishlar doirasi, masalan, tangalar, markalarni yig'ish, sport, sayohat va boshqa qiziqishlarni aniqlash yordam beradi. Umumiy qiziqishlarni qidirib topish ijobiy emotsional holatlarga olib keladi. Bu o'z-o'zidan muloqotda suhbatdoshni yaqinlashtiradi. Betaraf qiziqishlar psixologik muhitni yengillashtiradi va mavqeni tenglashtiradi.

Muomaladagi og'ishlarni bartaraf etish. Shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish davrida muomaladagi og'ishlarni bartaraf etishga diqqatni ko'proq qaratish kerak, chunki bu og'ishlar, masalan, bo'lajak emotsional zo'riqish, muloqotning shakllanishiga ta'sir etuvchi salbiy

omillar, muloqot mobaynida begona shaxslarning aralashuvi va boshqalar muomalaga salbiy ta'sir etadi. Muomaladagi og'ishlarni bartaraf etish – psixologik aloqa o'rnatishning majburiy shartidir.

Individual ta'sir etish. Psixologik aloqa o'rnatishning yakuniy bosqichida xodim suhbatdoshga individual ta'sir ko'rsatishi lozim. Bu ta'sirning maqsadi suhbatdoshidan ishonchli ma'lumotlarni olish, shu bilan birga, kelajakda ishonchli aloqa o'rnatishdir.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatleri, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insoniylik, to'g'ri so'zlik, vijdonlilik kabilar), muloqot jarayoni ham yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun samimiy bo'lishlari lozim.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, muloqot ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Muloqotning verbal va noverbal turlari, ijtimoiy idrokning effektlari shaxslararo munosabatlarda hamma vaqt ishtirok etadi. Keltirib o'tilgan fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1) muloqot murakkab jarayon bo'lib, inson hayotida muhim omil va shaxsning shakllanishida katta rol o'ynaydi;

2) muloqot ichki ishlar idoralari xodimlari uchun kasbiy vazifalarini bajarishlarida asosiy vositadir;

3) muloqotni olib borish vositalarini to'g'ri qo'llash ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda aholi bilan muloqot qiladilar va, tabiiyki, ushbu faoliyatning samaradorligi ularning odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o'rnatish qobiliyatiga bog'liq. Kommunikativ xususiyatlar ichki ishlar idoralari xodimlari kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Kasbiy muomala ichki ishlar organlari faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
2. Muloqotning qanday turlari mavjud?
3. Muloqotning psixologik vazifalari nimalardan iborat?
4. Verbal muloqotning ko'rinishlarini tushuntirib bering.
5. Noverbal muloqotning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
6. Mimika va pantomimika nima?
7. Muloqot jarayonida qanday psixologik to'siqlar vujudga kelishi mumkin?
8. Psixologik aloqa o'rnatish qanday bosqichlardan iborat?

V bob.

**ICHKI ISHLAR IDORALARI FAOLIYATIDA
«ZIDDIYATLAR» TUSHUNCHASI VA ULARNI
HAL ETISH YO‘LLARI**

1. Psixologiya fanida «ziddiyat» tushunchasi va uning turlari

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida odamlar orasida o‘zaro kelishmovchiliklar, ziddiyat va nizolar mavjud bo‘lib kelgan. Chunki har qanday taraqqiyotning asosida qarama-qarshilik va ziddiyat yotadi. Shaxs jamiyat taraqqiyotini amalga oshiruvchi asosiy kuch va vosita hisoblanib, jamiyat va tabiatni o‘ziga moslashtirish barobarida, undagi ba’zi holatlarni taqiqlash bilan ham shug‘ullanadi. Shuning uchun ham nizo va ziddiyat jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari hisoblanadi.

Ziddiyat insoniyat paydo bo‘lgan davrdanoq mavjud bo‘lib, uni ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish borasidagi ilk qarashlar ham o‘z tarixiga ega. Hayot tarzi, mehnat faoliyati, shaxslararo munosabat muhitining o‘zgarayotganligi ziddiyatlarning ham o‘ziga xos tomonlari mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Ziddiyat, nizo haqidagi dastlabki konsepsiyalar XIX–XX asrlarda vujudga kelib, uning yechimlarini topish yo‘llari bo‘yicha qo‘yilgan qadamlar o‘tgan asrning oxirlarida bir qadar salmoqli bo‘ldi.

Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada V. O. Ageyev, A. A. Bodalev, V. I. Juravlev, N. N. Obozov, I. A. Kox, Y. A. Ansupov, A. I. Shipilov, F. M. Borodkin, A. K. Zaysev, A. G. Zdravomislov va boshqalarning tadqiqotlarida nizoning nazariy asoslari yoritilgan.

Bu muammoni o‘rganishda dastlab «ziddiyat» va «nizo» tushunchalarining etimologiyasi, ya’ni ularning mazmun-mohiyatini ochish kerak bo‘ladi. Xo‘sh nizo va ziddiyat nima?

Nizo lotincha «konflikt» so‘zidan olingan bo‘lib, «to‘qnashish», ya’ni maqsad, qiziqish, nuqtai nazar, fikrlar, kishilarning o‘zaro

ta'sirlashuvidagi qarama-qarshi yo'nalishlar borasida to'qnashishlaridan iborat¹.

Ziddiyat ijtimoiy-psixologik muammo bo'lib, konfliktologiyaning asosiy tushunchalaridan biridir. Ziddiyat muhokama yuritishda, matnda, nazariyada va umuman predmet, hodisalarda biri ikkinchisini inkor etadigan ikki mulohazaning mavjudligi va ular o'rtasidagi munosabatlar. U obyektiv olamning va bilishning o'z-o'zidan harakati va taraqqiyotida namoyon bo'ladi². Fan tarixida dastlabki ziddiyatlar konsepsiyasi Geraklitga taalluqlidir, ya'ni «abadiy vujudga kelish» faqat ziddiyatlarning birligi sifatidagina mumkin.

Bundan ko'rinadiki, «ziddiyat» tushunchasi «nizo» tushunchasiga qaraganda kengroq ma'noni kasb etib, o'zida hodisa, voqea, jarayon, narsa va predmetlar hamda insonlar fikri o'rtasidagi o'zaro nomutanosiblikni, ya'ni qarama-qarshilikni aks ettiradi.

Nizo esa o'zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik orqasida tug'ilgan holat, munosabat, ixtilof³.

Nizo jamiyatdagi guruhlar yoki individlar o'rtasidagi antoganizm, u ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchisi, ikki yoki undan ortiq individ yoki guruhlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuz berishi, ikkinchisi, o'zaro kurashga faol jalb etilishi. Manfaatlar zidligi har doim ham ochiq kurashga olib kelavermaydi⁴.

Ziddiyatlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish ichki ishlar organi xodimlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari o'z xizmat faoliyatida maishiy ziddiyatlardan tortib, to jinoyatchilar o'rtasidagi ziddiyatlargacha duch keladilar. Shuning uchun ular ziddiyatli holatlarda sharoitdan tez chiqib ketishi, chiqqanda ham to'g'ri yo'l topishi, ziddiyatni yechishi shart, chunki ziddiyat yo ijobiy, yo salbiy natija bilan tugaydi.

Ziddiyat o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ziddiyat keng va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'nodagi ziddiyat jamiyatdagi yangi va eski qarashlar o'rtasidagi kurashdir. Tor ma'nodagi ziddiyat bir muammoni yechishda har bir shaxsning o'z fikrini qattiq turib himoya

¹ Qarang: *Гришина Н.В.* Психология конфликта. – СПб., 2000. – С. 464.

² Qarang: *Ўзбек тилининг изоҳли лугати.* Т.2. – Т., 2006. – Б. 147.

³ Qarang: *Ўзбек тилининг изоҳли лугати.* Т.3. – Т., 2006.

⁴ Qarang: *Энтони Гидденс.* Социология. – Т., 2002.

qilishida yuzaga keladi. Masalan, har bir yangilik yaratilgunga qadar va yaratilgandan keyin ham ma'lum vaqt ziddiyatlarga uchraydi.

Ziddiyat ijtimoiy psixologiyada muomalaning buzilishi yoki psixologik jihatdan ichki ruhiy kelishmovchilikdir. Umuman olganda, ziddiyat insonlar o'rtasida ijtimoiy va shaxsiy masalalarni yechishda vujudga keladigan holat, lekin har qanday qarshilik ziddiyat bo'lavermaydi. Odamlar bir-birining fikri bilan kelishmasligi, tortishishi mumkin, har biri o'z fikrida qoladi va baribir ko'p hollarda kelishib ishlashga majbur bo'ladilar. Qarama-qarshilik, ba'zan yoqtirmaslik, salbiy emotsiya, tushunmaslik, ko'ra olmaslik va boshqa sabablar ziddiyatning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ziddiyat nafaqat qarama-qarshilik, shuningdek, o'ziga xos kurashish hamdir. Har ikkala tomon ham bunday holatda o'zlarini haq deb bilishadi va o'z qarashlari uchun kurashadilar. Ziddiyat qarama-qarshiliklar negizida yuzaga keladi, uni albatta hal qilish kerak, chunki busiz hayot me'yorda davom etmaydi.

Yuqorida aytib o'tilganlarni tahlil qilib, psixologik nuqtai nazardan «ziddiyat» tushunchasini quyidagicha tavsiflash mumkin. Ziddiyat shaxslar o'rtasidagi qarashlar, qiziqishlar, qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga kelgan psixologik holat bo'lib, shaxslarning o'zaro hamkorligi jarayonida yuzaga keladi. Ziddiyat bor joyda rivojlanish bor, ayni paytda, ma'lum ma'noda orqaga qaytish ham kuzatiladi.

Umuman olganda, ziddiyat shaxslarning psixologik tuzilishga bog'liq bo'lsa-da, ammo hayotning o'zi ziddiyatsiz bo'lishi mumkin emas.

Ziddiyatlarni baholash va tahlil etish ularni turlariga ko'ra guruhlash va tizimlashtirishni taqozo etadi.

Sotsiologlar ziddiyatlarning makro yoki mikro darajasiga, asosiy tiplariga, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-etnik, siyosiy tabiatiga e'tibor beradilar. Huquqshunoslar esa ichki va tashqi tizimli ziddiyatlar, ularning namoyon bo'lish sohasi, shuningdek, maishiy-oilaviy, madaniy va ijtimoiy mehnat hamda bozor iqtisodiyoti jarayonida keng xo'jalik yo'nalishidagi moliyaviy va mulkiy nizolarga ajratadilar.

Boshqaruvda ziddiyatlarni tasniflash nizoning elementlari, xususiy holatlari, ularning o'ziga xos namoyon bo'lish sabablariga, nizoli vaziyatga, motivlariga, qiziqishlarga alohida shaxsning faoliyati, ijtimoiy guruh (jamo) va jamiyat maqsadlariga tayanib amalga oshiriladi.

Ziddiyatlarni ijtimoiy hayotda namoyon bo'lish shakliga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:


- iqtisodiy ziddiyatlar (insonlarning moddiy iqtisodiy faoliyati doirasida vujudga keladi);
- ijtimoiy ziddiyatlar (sotsial guruhlarining ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqadi);
- sinfiy ziddiyatlar (ijtimoiy sinflar o'rtasidagi tafovut asosiy nizo manbai);
- siyosiy ziddiyatlar (ma'lum guruhlarining manfaatlari doirasidagi kurash);
- mafkuraviy ziddiyatlar (dunyoqarashlar o'rtasidagi tafovutlar asosida vujudga keladi);
- madaniy ziddiyatlar (turli madaniyat vakillari o'rtasidagi to'qnashuvlar jarayonida vujudga keladi);
- aksiologik ziddiyatlar (qarama-qarshi qadriyatlarga ega har xil guruhlarini boshqarish oqibati tarzida);
- pozitsiyali ziddiyatlar (tashkiliy munosabatlar tuzilishidagi o'rniga qarab farq qiluvchi manfaatlari bir-biriga zid ijtimoiy guruh yoki shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi nizolar).

Odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatning turli vaziyatlariga qarab, nizolarni ketirib chiqaruvchi sabablarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- mehnat jarayonidagi;
- shaxslararo munosabatlardagi psixologik xususiyatlar, simpatiya va antipatiya, madaniy va etnik tafovutlar, rahbarning yomon kommunikatsiyaga egaligi va boshqalar;
- guruh a'zolarining o'ziga xosligi, masalan, emotsional holatlarini boshqara olish uquviga ega emasligi, agressivligi, kommunikabellik va taktning yetishmasligi.

Ziddiyatning o'ziga xos xususiyati buzish va buzilish xarakteriga egaligidir. Ziddiyatli holat jamoaning buzilishiga, undagi ijtimoiy-psixologik sharoitning yomonlashuviga olib keladi. Ziddiyatli holatni hal qilish uchun uning tuzilishini o'rganib chiqish kerak.

Ziddiyatning tuzilishi



2. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida ziddiyatlarning paydo boʻlish sabablari

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida ham ziddiyatli holatlarni kuzatish mumkin. Ushbu holatlar maʼlum bir nosogʻlom psixologik muhit, masalan xodimlarning biri-birlari yoki rahbarlar bilan oʻzaro kelisha olmasligi asosida yuzaga kelishish mumkin. Shu maʼnoda ziddiyatli harakatlarning ham oʻz diapazoni bor, baʼzi ziddiyatli holatlarda shaxs raqibini yengish uchun hamma imkoniyatini ishga soladi, xizmatdagi shaxslarni aralashtiradi, oʻzlarining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi. Ziddiyatli vaziyat esa ijtimoiy psixologik muhitni yuzaga keltiradi

Ijtimoiy psixologik nuqtai nazaridan qaraganda ziddiyatning yuzaga kelishida shaxslarining alohida qarashlari, shaxslararo va ijtimoiy guruhlar oʻrtasidagi munosabatlar sabab boʻlishi mumkin.

Ijtimoiy psixologik yoʻnalishda (aspektda) ziddiyat har xil sabab bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, maqsad, dunyoqarash toʻgʻri kelmaydi, natijada antipatiya yuzaga keladi.

Birinchi bosqich – ziddiyatning yuzaga kelishigacha boʻlgan holat va ziddiyatning yuzaga kelishida ichki qarama-qarshiliklarning paydo boʻlish davri. Bu bosqichda ikkala tomonda ham ichki ruhiy kuch yigʻilib boradi va ular buni bir-birlariga bildirmaydilar.

Ikkinchi bosqich – ziddiyatning qaror topishida tashqi taʼsir kuchlari maydonga chiqadi. Bu davrada ziddiyatni ikkala tomon ham biladi, lekin ular ongli, aqlli harakat qilishadi. Har xil maʼlumotlar yigʻilgan sari ziddiyat kuchayib boradi va bu ularning ish faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Uchinchi bosqichda ikkala tomon ham ochiq kurashga o'tib oladi, ikkalasidan biri xayrixohlik bildirsa, ziddiyat ma'lum ma'noda yumshaydi, ammo ma'lum vaqtgacha ichki ruhiy ziddiyat saqlanib qoladi. Agar har ikki tomon ham xayrixohlik bildirmasa, u holda psixologik portlash yuzaga keladi va ikkalasidan birortasi g'alaba qozongunga qadar kurash davom etadi. Bu bosqichda ham ikki tomon hamma imkoniyatlarini ishga soladi.

To'rtinchi bosqichda bir-birlarining harakatlarini tahlil qilib norasmiy baholaydi. Agar ulardagi qiziqish bir-biriga to'g'ri kelsa, o'rtadagi ziddiyat susayadi va vaziyatdan chiqsa bo'ladi.

Beshinchi bosqich – o'tib ketadigan, turg'un holat. Bu bosqichda jarayon o'tib ketgandan keyin unga rasmiy va norasmiy baho beriladi. Bo'lib o'tgan voqealarini eslashda tomonlar o'zlarida noxush holatni sezishadi.

Oltinchi bosqich – tamoman yangi psixologik holat bo'lib, ziddiyat rivojining nihoyasida, ya'ni jazo qo'llanilganidan keyin ishtirokchilarning jamoadagi mavqei o'zgarishidan so'ng paydo bo'ladi. Bu davrda ijobiylik yuzaga keladi, faqat haqiqatni yuzaga chiqarish uchun harakat qilinadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida uchraydigan ziddiyatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) mazmuniga ko'ra;
- 2) chuqurlashganligi va o'tkirligiga qarab;
- 3) davomiyligiga ko'ra (qancha vaqt davom etadi);
- 4) ijtimoiy holatiga qarab;
- 5) izohlashning shakliga qarab.

Ziddiyatda kishilarning axloqiy sifatleri, shart-sharoitlar hisobga olinadi. Xodim ba'zi shaxslar yoki rahbarlarning tartib-qoidalarini, haqoratlarini ko'tara olmaydi, natijada ziddiyat kelib chiqadi.

Ziddiyat xodimning o'zini o'zi baholashi, shuningdek, uni boshqalar, ya'ni boshliq yoki jamoatchilik tomonidan baholanishi. Inson hamisha o'zini o'zi yuqori baholashga harakat qiladi, rahbar tomonidan ba'zi salbiy tomonlari (kamchiliklari) aytilsa, ular o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Agar shaxs o'z imkoniyatlarini ko'proq baholasa, bunday holatda ham ziddiyat yuzaga keladi.

Ichki ishlar idoralarida ziddiyatni yuzaga keltiruvchi bir qancha omillar mavjud:

1) rahbar tomonidan xodimga berilgan baho bilan xodimning o'ziga o'zi bergan bahosi o'rtasidagi tafovut.

2) rahbar va jamoatchilik tomonidan baholashning to'g'ri kelmasligi;

3) shaxsning o'zini o'zi baholashi bilan uni jamoatchilik tomonidan baholanishining to'g'ri kelmasligi;

4) shaxsning boshqalar tomonidan baholanishi.

Ziddiyat oddiy va o'tkir (chuqur) ziddiyatga bo'linadi;

Oddiy ziddiyat yomon psixologik vaziyatda yuzaga keladi, inson o'zini tushuntira olmay qoladi, bunday holatda ko'pincha kayfiyati yo'q, deb tushuntiriladi.

O'tkir ziddiyatda shaxs yuqori emotsional, o'zini boshqara bilmalik, muloqotdagi qo'polligi bilan ajralib turadi. Eng qizig'i, bu shaxslar tabiatida qo'rqitish asosiy o'rinni egallaydi. Bu ziddiyatda, nima bo'lishidan qat'i nazar, raqibni mag'lubiyatga uchratish muhim hisoblanadi.

Ziddiyat qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi.

Qisqa muddatli ziddiyat ma'lum vaqt – uch kungacha davom etadi, uzoq muddatli ziddiyat bir yoki bir necha yilga cho'zilishi mumkin. Uzoq muddatli ziddiyat maishiy xarakterda bo'lib, ularning 70% 6 oygacha davom etadi.

Ziddiyat ijtimoiy mohiyatiga ko'ra arzigulik yoki arzimas bo'ladi. Agar ziddiyat ataylab qilinsa va jamoatchilikka qarshi bo'lsa, bu arzigulik ziddiyatdir. Arzimas ziddiyat masalaning mohiyatiga chuqur tushunmaslik oqibatida kelib chiqadi. Buni shunday izohlash mumkin: shaxs xarakteridagi kamchiliklarni tushunsa va ularni to'g'rilashga harakat qilsa, bu arzimaydigan ziddiyat deyiladi. Masalan, shaxs bilmasdan ikkinchi bir shaxsning oyog'ini bosib olsa yoki turtib yuborsa, ikkinchi shaxsning bundan jahli chiqsa va oyog'ini bosgan odam undan kechirim so'rasa, bunday ziddiyat qisqa muddatli bo'lib arzimas hisoblanadi.

Ziddiyat o'zi ko'rinishga ko'ra, ochiq va yopiq bo'ladi. Ochiq ziddiyatda hamma ushbu holatni bilishadi, ziddiyatlashgan tomonlar esa bir-biridan o'z niyatlarini yashiradi, lekin kerak vaqtda o'z qarashlarini oshkor qiladilar.

Ziddiyatni yuzaga keltiruvchi obyektiv va subyektiv sabablar mavjud.

Obyektiv sabablarga ishni tashkil qilishdagi kamchiliklar, normativ hujjatlarning mukammal emasligi, xizmatdagi (ishdagi) qiyin sharoitlar, qarashlarning to'g'ri kelmasligi va hokazolar kiradi.

Subyektiv sabablar shaxsning o'ziga xosligi, madaniyatning pastligi, tarbiyaning yetishmasligi, shaxs xarakteridagi kamchilik, o'ziga yuqori baho berish, psixologik jihatdan tomonlarining bir-biriga to'g'ri kelmasligi, jamoaning o'ziga xosligi bilan bog'liq holatlar, psixologik sharoitlarni noqulayligi, salbiy ko'rinishga ega bo'lgan kichik guruhlar, salbiy emotsial guruhlar va hokazolarni qamrab oladi.

Ishlab chiqarishdagi kamchiliklarga mehnat jamoasida mehnatni taqsimlash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishdagi tengsizliklar kiradi.

Odamlarni mutaxassisligiga qarab joylashtirmaslik ham boshqarishdagi kamchilik bo'lib, psixologik jihatdan jamoadagi muhitni buzadi.

Jamoadagi kishilar (guruhlar) orasida ham kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin.

Ziddiyatni tasniflash xususiyatlariga asoslanib ajratiladi. To'qnashish darajasi va shakliga ko'ra ziddiyatlarni ochiq (munozara-tortishuv, janjal va boshqalar) va yopiq turdagi (asl maqsadlarni yashirib, zimdan ta'sir o'tkazish); tasodifiy paydo bo'lib qoluvchi (stixiyali) va oldindan rejalashtirilgan nizolarga ajratish mumkin.

Ziddiyatlar kommunikativ jihatdan yo'nalganligi, bir-biriga bog'liq yoki tobeligiga qarab gorizontal vertikal nizolarga ajratiladi. Bo'ysunish va bo'ysunmaslik munosabatiga muvofiq aralash turda ham bo'lishi mumkin. Asosiy ziddiyat vertikal yo'nalish olib, unda («yuqoridan quyiga yoki quyidan yuqoriga») nizolashuvchi tomonlar o'rtasida ancha tafovutlar va tengsizlik hukmronlik qiladi (masalan, rahbar bilan xodim, ish beruvchi bilan ishchi). Bunday holatlarda ularning kuchlari (status) bir xilda bo'lmaydi.

Masshtabi va davomiyligiga ko'ra ziddiyatlar o'zida tashkilotning bir qism xodimlari, biror-bir mintaqa yoki alohida olingan tarmoqdagi, shuningdek, tashkilotning butun xodimlari, xalq xo'jaligining ma'lum tarmoqdagi ishchilari nizoga ishtirok etishiga ko'ra lokal nizoga ajratiladi. Odatda bunday nizolar tashkilotdagi yetishmovchiliklar tufayli fikr va qarashlar o'rtasidagi ziddiyatlar, xavfsizlik, mehnat shartnomalarini bajarish va boshqa turdagi jamoa shartnomalari, ish haqi va mehnat sharoitlari tufayli vujudga kelishi kuzatiladi.

Ziddiyatlar hal etilish va boshqarilish usuliga ko'ra yon bermaslik va tan olmaslik oqibatida yuz beruvchi antogonistik hamda manfaat,

maqsad, qarashlarni yaqinlashtirish, fikrlar xilma-xilligini bartaraf etish maqsadida yo‘l qo‘yiladigan kompromistik (murosasozlikka) turlarga ajratiladi.

Ziddiyatlarni bunday turlarga ajratish shartli bo‘lib, ularning turlanishi o‘rtasida keskin chegara qo‘yish mavjud emas, ammo amaliyotda nizolar tashkiliy, vertikal, shaxslararo, gorizontal, ochiq, guruhlararo va boshqalar tarzda vujudga keladi.

Ziddiyatlar to‘g‘risidagi odatiy tasavvurlar maxsus tadqiqotlar yordamida salbiy xususiyatga ega ekanligi tasdiqlanadi. M.Doychning ishlarida ziddiyatlar nazariy jihatdan tahlil qilinib, ular *destruktiv va produktiv* turlarga ajratiladi.

Destrktiv ziddiyatni aniqlash kundalik tasavvurlar bilan mos keladi. Aynan bu tipdagi nizo o‘zaro ta’sirlashuvda xilma-xillikni ko‘rsatadi va fikrlar toptalishiga olib keladi. Destrktiv ziddiyat ko‘pincha sababga bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsning stressga tushishiga olib keladi. Uning o‘ziga xos belgilar nizo sodir bo‘lishiga qiziquvchilar sonining ortishi, ularning nizoli harakatlari, bir-birlariga nisbatan salbiy qarashlarga egaliklari va bildirilayotgan fikrlarning keskinligida ifodalanadi. Boshqa bir belgisi sifatida nizoda opponetning xislatlarini, o‘zaro ta’sirlashuv vaziyatlarini noto‘g‘ri idrok etishi va sheriklarga ishonchni o‘ta ortib ketish nazarda tutiladi. Bu turdagi nizolarni hal etish ancha murakkab bo‘lib, yagona yo‘li ancha qiyinchilik bilan erishiladigan murosa (kompromiss) hisoblanadi.

Produktiv ziddiyatni muammo va uni yechish yuzasidan nuqtai nazarlardagi tafovutlar va shaxslar o‘rtasidagi hamjihatlikning yo‘qligi keltirib chiqaradi. Bunday holda nizo muammoni atroflicha tushunishni, sheriklar motivatsiyasini, boshqa nuqtai nazarlarni himoyalashlarini taqozo etadi.

Bundan tashqari, M.Doych ziddiyatni olti turga bo‘ladi va jinoyatni ochishda nafaqat uning metodologiyasi, shuningdek, amaliy roli ham muhimligini ta’kidlaydi.

- 1) haqiqiy ziddiyat;
- 2) tasodifiy ziddiyat;
- 3) bilmay aralashib qolgan ziddiyat;
- 4) noto‘g‘ri talqin qilingan ziddiyat;
- 5) yopiq holatdagi ziddiyat;
- 6) yolg‘on ziddiyat.

Ziddiyat obyektiga unda ishtirok etuvchilar tomonidan qo'lg'a kiritishga qaratilgan yaqqol moddiy yoki ma'naviy qadriyatlar kiradi. Ziddiyat subyekti sifatida qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni, qiziqish va ehtiyojlarini namoyon qiluvchi tashkilot xodimlari xizmat qiladi.

3. Ichki ishlar organlar xodimlari faoliyatida ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llari

Hozirgi kunda jamoada muvaffaqiyatga erishish rahbariyat va xodimlar faoliyatini to'g'ri tashkil etish asosida ma'naviy-axloqiy muhit yaratishni taqozo etmoqda.

Ichki ishlar idoralari jamoalarida har bir xodim ijtimoiy psixologik muhit yaxshi bo'lishiga mas'ul va majbur sanaladi. Faqat shunday sharoitdagina qo'yilgan muammolar maqsadga muvofiq, topshiriqlar o'z vaqtida bajarilishi va shaxsning shakllanishi me'yorda kechishi ta'minlanadi.

Ammo ichki ishlar idoralari jamoalarida ham ba'zi yuqoridagi kabi nizoli holatlar ro'y berib turadi.

Nizolarning salbiy oqibatlarini bartaraf hal etish ularni atroflicha o'rganishni talab etadi. Bunga esa jamoani yaratish o'zaro iliq ijtimoiy psixologik muhitni yaratish orqali erishish mumkin.

Hozirgi kunda nizolarni samarali bartaraf etish jamoadagi psixologik muhitni yaxshilashga, hamkorlikda ishlash samaradorligini ta'minlashga qaratilmoqda.

Ichki ishlar idoralari jamoalaridagi nizolarning mohiyatini yoritishdan oldin, ularning o'ziga xos ikki jihatini inobatga olish kerak bo'ladi. Birinchisi, nizo va ikkinchisi, nizoli vaziyatdir. Psixologik adabiyotlar tahlili asosida nizo bilan nizoli vaziyatni ajratib turuvchi quyidagi formulani e'tiborga olish muhimdir:

Nizo + muammo + nizoli vaziyat + nizo ishtirokchilari + insident.

Yuqoridagi «nizo modeli»dan ko'rinadiki, muammo nizoli vaziyat hosil bo'lgandagina uning boshqa elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni keltirib chiqaradi. Ushbu modelni har qanday faoliyatdagi nizolarni izohlashga asos qilib olish mumkin. Biz quyida ichki ishlar jamoalaridagi nizolarni tahlil qilishda buni inobatga olamiz.

Ichki ishlar jamoalaridagi nizolarni tahlil qilish va uni hal etish zarurati tugʻilganda, nizo tarkibidagi har bir elementning oʻrnini aniq baholashga toʻgʻri keladi. Nizolarni vujudga kelishi va uning oldini olishda yuqorida keltirilgan formulaga alohida eʼtibor qaratish lozim.

Psixologik muhit guruhiiy manfaatlarni qondirish, shaxslararo va guruhiiy nizolarni hal etishda amalga oshiriladigan muloqotda vujudga keladi va namoyon boʻladi. Shu bois ushbu munosabatlar turlicha xarakter kasb etib, ular doʻstona, hamkorlik, musobaqa yoki raqobat, hamjihatlik, qoʻpollik yoki ongli tartib-intizom tarzida kechadi.

Psixologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, odamlarning oʻzaro munosabatlari koʻpchilik holatlarda beshta asosiy taʼsir koʻrsatish usuli orqali amalga oshiriladi: eʼtiqod, ishontirish, taqlid, taʼsir oʻtkazish, majburlash.

Taʼkidlab oʻtilgan usullar ichki ishlar idoralari jamoalarida boshliq va xodimlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatda ham oʻz aksini topishi tabiiy. Chunki baʼzi holatlarda, favqulodda vaziyatlarda boshliq tomonidan berilayotgan topshiriq va buyruqlarning berilish tartibi belgilangan ichki ishlar Nizomiga, muassasaning ichki tartib-qoidalariga mos kelish va kelmasligiga qarab nizoli holatlarni vujudga kelishi bilan baholanadi. Agar boshliq jamoada yetarlicha mavqega ega boʻlsa, beriladigan buyruq va topshiriqlarning bajarilish tartibi taʼsir koʻrsatishning eʼtiqod darajasini namoyon qilishi mumkin. Aks holda boshliqqa qoʻl ostidagilarning boʻysunishi anchagina sustlashadi.

Ishonch va nufuzning yoʻqolishi, muloqot jarayonlarida shubha paydo boʻlishi va boshqalar ham aynan nizoli vaziyatlarning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi.

Ichki ishlar idoralari jamoalaridagi nizoli vaziyatlarning kelib chiqishi bilan bogʻliq uch guruh sabalarni keltirib oʻtish mumkin:

- 1) ishchi muhitni tashkil etishdagi kamchiliklari;
- 2) boshqaruvchi xodimlar faoliyatidagi nuqsonlar, xodimlarning bilim darajasi, individual-psixologik xususiyatlari, salohiyatiga koʻra ishni taqsimlay bilmaslik;
- 3) jamoa ichidagi shaxslararo munosabatlar bilan bogʻliq kamchiliklar.

Jamoadagi psixologik muhitning buzilishi va ziddiyatlarga moyillik asosida bir qator koʻrsatkichlar yotadiki, ularni psixologlar quyidagilarga ajratganlar:

- rahbariyatning ish faoliyati va jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatdan qoniqmasligi;
- kayfiyatning buzilishi;
- rahbar bilan xodimlar o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi, rahbar yoki xodimning obro'ga ega emasligi;
- jamoa a'zolarida boshqaruv va o'zini o'zi boshqarishdagi faollik darajasining yetishmasligi;
- jamoa a'zolarining bir maqsad yo'lida jipslashmaganligi;
- ongli tartib-intizomning yo'qligi;
- faoliyat natijalaridan qoniqmaslik.

Ko'rinib turibdiki, jamoada nizoli vaziyatlarning kam va psixologik muhitning me'yorda bo'lishi boshliq shaxsi, xodimlarning bilimi, yuqoridan berilgan topshiriq va buyruqlarni bajarishdagi ijrochilik intizomi va hamjihatliklariga bog'liq ekan. Agar ichki ishlar idoralari jamoalaridagi nizo nizoning psixologik va ijtimoiy psixologik tabiati, funksiyalari, tipologiyasi va tuzilmasidan kelib chiqqan holda baholansa, amaliy jihatdan nizoga xos barcha xususiyatlar namoyon bo'lishi mumkinligini tasdiqlasa bo'ladi. Ichki ishlar jamoalarida nizoning quyidagi turlari namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Shaxsning ichki ziddiyatlari. Bu ko'proq ichki ishlar idoralari xodimlarining yuklatilgan vazifalarni bajarish jarayonida uchraydi. Vazifani hal etishda kasbiy bilim, ko'nikma va malakaning yetishmasligida va favqulodda holatlarda ko'proq ish bilan mashg'ul bo'lishda namoyon bo'ladi.

Guruh ichidagi ziddiyatlar. Bu jamoa a'zolarining manfaat va qiziqishlarining mos kelmasligi, vazifalarning teng taqsimlanmaganligi va o'zaro bir-birlariga hurmatning yo'qolishi oqibatida namoyon bo'ladi. Oqibatda jamoaning har bir a'zosi boshqalari bilan chiqisha olmasligi, manfaatlar o'rtasida to'siqlar qo'yishida yuz beradi.

Shaxslararo ziddiyatlar. Ichki ishlar jamoalarida rahbar bilan xodimlar, xodim bilan xodim o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarning vujudga kelishi oqibatida nizoning paydo bo'lishi ko'zga tashlanadi. Shaxslararo ziddiyatlar ishchi muhitning yaxshi emasligi, boshliqning xodimlar bilan insoniy nuqtai nazaridan munosabat o'rnatmasligi, xodimlarning individual qobiliyati va fazilatlarini inobatga olmasligi sababli ham yuz berishi kuzatiladi.

Agar ichki ishlar idoralari jamoalaridagi ziddiyatli holatlarni bir

tizimga soladigan bo‘lsak, quyidagi ko‘rinishni oladi:

Ziddiyat turlari	Ziddiyatning sabablari	Ziddiyat ishtirokchilari	Ziddiyatning oqibatlari
Shaxsning ichki ziddiyatlari	Topshiriqlarning ko‘payib ketishi, ortiqcha ruhiy charchoq, taqdirlash va jazolash o‘rtasida muvozanatning ta‘minlanmaganligi	Xodimning o‘zi	Ruhiy zo‘riqish, faollikning susayishi, jazavaga tushish, tajovuzkor-likning ortishi, muomala me‘yorlar-ning buzilishi
Guruh ichdagi va shaxslararo ziddiyatlar	Jamoadagi xodimlar-ning qiziqish va manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar, qobiliyat va mehnatning faoliyat natijasiga ko‘ra baholanmasligi, rag‘batlantirishning yetarlicha emasligi, xodimlarning shaxsiy fazilatlari mos kelmasligi va boshqalar	Jamoadagi boshliq bilan xodimlar, xodim-xodim, boshliq-boshliq.	Jamoadagi jipslik, hamkorlikning, mas‘uliyatning yo‘qolishi, shaxsiy adovatning o‘sishi va boshqalar
Guruhlararo ziddiyat	Jamoadagi guruhlarining paydo bo‘lishi, tarafkashlik, mahalliychilik, etnik jihatdan tafovutlanishning ortishi	Jamoa ichidagi guruhlar	Keskin va siyosiy tus olishi, jamoaning bo‘linib ketishi va xodimlar o‘rtasida jamoaviy adovatni keltirib chiqarishi.

Ichki ishlar idoralari jamoalaridagi ziddiyatlarni bartaraf etishda psixologik bilimlarning o‘rnini beqiyosdir. Bu xususda keyingi paragrafda batafsil to‘xtalsak-da, ammo shu o‘rinda ayrim tavsiyalarni ham keltirib o‘tamiz.

Guruh ichidagi va guruhlararo munosabatlarda ziddiyatlarni bartaraf etish, barqaror muhitni yaratish nizolarning oldini olishga olib keladi. Buning uchun jamoa boshliqlari quyidagi holatlarni inobatga olishlari maqsadga muvofiq:

- xodimlarni to‘g‘ri tanlash va joy-joyiga qo‘yish;
- mehnatni to‘g‘ri tashkil etish;
- boshliq bilan xodim o‘rtasidagi munosabat xususiyatlarini farqlay olish;

- jamoaning har bir a'zosining burch va majburiyatlarini yaxshi bilishi;
- ishda qat'iy intizomni yaratish;
- har xil salbiy psixologik hodisalarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik (mish-mish, g'iybat, anonim holatlar).

Har qanday kasbiy faoliyat kundalik muomala jarayonidan iborat. Ichki ishlar idoralari xodimlari o'rtasidagi munosabatlar rasmiy-ma'muriy qurilganligi bois nizoli vaziyatlar uchun shart-sharoitning namoyon bo'lishi anchagina qulaydir. Berilgan buyruqni bajarish, boshliq bilan munosabatda nizoli holatlarning oldini olishga shay turish, jazolashning murakkab ko'rinish olishi xodimlarda ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Agar ichki ishlar idoralarida faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar o'rtasidagi munosabat ma'muriy ko'rinish bilan hamkorlikda ishlash ko'rinishini olgan sharoitlarda rahbar bilan xodim o'rtasidagi munosabatlarda subordinatsiya saqlangan taqdirda ham o'zaro hurmat tamoyiliga asoslansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshliq-xodim, xodim-boshliq, xodim-xodim munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish nizoli holatlarning oldini olish va bartaraf etishning asosiy shartlaridan biri sanaladi. Bu esa munosabat ishtirokchilaridan odamlar bilan muomalaga kirishish malakasini talab etadi. Psixologiyada shaxslararo munosabat o'rnatish texnologiyasi yetarlicha ishlangan bo'lib, bu borada xodimlar ma'lumotga ega bo'lishlari kerak, Xorijiy psixologik tajribalar nizoli vaziyatlarni hal etishda emotsional ko'rinishdagi shart-sharoitlarni yaratish kerakligini uqtiradi.

Ichki ishlar idoralari jamoasida boshliqdan shaxsning individual xususiyatlarini farqlay olishi, ularning kechinmalari va qobiliyatlarini sezish layoqatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Ko'pchilik ziddiyatlar boshliqning jamoa a'zolari bilan nizolashishiga sabab bo'lib qolmoqda.

Muomalaga kirishimlilikni ta'minlashda, aloqa o'rnatishda quyidagi prinsiplarni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim.

- 1-bosqich – psixologik to'siqlarni bartaraf etish;
- 2-bosqich – mos keluvchi qiziqish va manfaatlarni topish;
- 3-bosqich – muomala prinsiplarini aniqlash;
- 4-bosqich – muomala uchun xavfli sifatlarni ajrata olish;
- 5-bosqich – muomalada sherigiga moslashish va psixologik aloqa o'rnatish.

Prinsiplardan foydalanish bosqichlariga amal qilish hamsuhbatga

ta'sir ko'rsatishning va nizolarga shart-sharoit tug'dirmaslikning eng yaxshi vositasiga aylanadi.

Ziddiyatning nafaqat nazariy tomonlarini, shuningdek, uning amaliy tomonlarini ham, yechimini ham bilish kerak. Bu huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari faoliyatidagi juda ham zarur va dolzarb muammomdir, bu dolzarblik uni o'rganishimizga sabab bo'ladi.

Ziddiyatni yechish metodikasi amaliyotga hech qanday ta'sir qilmasligi kerak. Umuman, jamoada ziddiyat chiqmasligida rahbarning o'rni beqiyosdir, rahbar asabiylashmasligi, boshqacha qilib aytganda, ziddiyatni yechishda bardoshli bo'lishi kerak.

Ziddiyatni yechishning ijobiy (pedagogik) va ma'muriy (salbiy) yo'llari mavjud. Birinchisida kishilarning yaxshi ishlashlari uchun sharoit yaratilsa, ikkinchisida ziddiyatni yuzaga keltirgan shaxslar jazolanadi.

Pedagogik-psixologik ta'sir etishning asosiy usullaridan biri ishon-tirish usulidir. Bu usul jamoa murojaat qilganida qo'llaniladi. Ziddi-yatning barcha turlari jamoa faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki uning sabablarini aniqlash, uni yechish yo'llarini izlash, aybdorlarni jazolash hamma-hammasi vaqt talab qiladi. Umuman olganda, ma'muriy jazolash hech iloji bo'lmagan hollarda qo'llanishi kerak.

Ziddiyatni yechishning asosiy usullaridan tashqari, quyidagi qo'shimcha yo'llari ham mavjud:

1) ziddiyatni umuman yo'q qilish (bo'shatish, bir ishdan ikkinchi ishga olib qo'yish);

2) ziddiyatlashgan tomonlardan biri yutadi, ikkinchisi yutqazadi, yutqazgan uni tan olishi;

3) ziddiyatda ikki tomondan biri ikkinchisiga yo'l berishi;

4) ziddiyatning asta-sekinlik bilan o'z-o'zidan yo'qolishi;

5) ziddiyatlashgan kishilardan biri ikkinchisining talabini qondirish;

6) ziddiyatni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarning oldini olish;

7) tomonlarni ishon-tirish (bir-birga) yo'li bilan yarashtirib qo'yish.

Ziddiyatni yechish qiyin ijtimoiy psixologik muammo bo'lib, u keltirib chiqargan tomonlarning ikkalasi ham o'zlaricha ruhiy tomondan haqdirlar.

Ziddiyatning oldini olish va yechishda quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

– ziddiyatni bartaraf etishda avval ziddiyatlarning kelib chiqish sharoitlarini to'g'ri baholash;

- ziddiyatning kelib chiqishga shart-sharoit yaratib bermaslik;
- ziddiyatning o‘zagini aniqlash, ziddiyatning eng yuqori nuqtasida shaxsiy o‘zaro kelishishlarni topish;
- ziddiyatning subyektiv sabablarini aniqlash;
- subyektlar tomonidan ziddiyatning yo‘nalishini aniqlash.
- ziddiyat qatnashchilarining hamma fikrlarini eshitish, shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarib qo‘ymaslik, asosiy diqqatni ziddiyat predmetiga qaratish;
- ziddiyatni yechishda eng maqbul yo‘l izlash.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, ziddiyat borasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) ziddiyat psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda o‘ta murakkab nazariy va amaliy muammodir;

2) ziddiyatni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan ikkiga bo‘lamiz: qarama-qarshilik va qarama-qarshi kurashlar;

3) ziddiyat o‘zining tuzilishi va dinamikasiga ega;

4) ziddiyatni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv sabablar mavjud;

5) ziddiyatni yechishda asosan pedagogik va ma‘muriy usullar qo‘llaniladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Psixologiyada ziddiyat tushunchasiga qanday ta’rif beriladi?
2. Ziddiyatli holatlarning shaxs psixologiyasi va uning xulq-atvoriga ta’siri nimalarda ko‘rinadi?
3. Ziddiyatning turlarini aytib bering.
4. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida ziddiyatli holatlarni psixologik tahlil qiling.
5. Ziddiyat dinamikasi va uning rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni aytib bering.
6. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi qanday holatlar oddiy ziddiyatli holatlar hisoblanadi?
7. Ziddiyatlarni hal qilish va oldini olish, o‘z vaqtida to‘xtatish yo‘llarini aytib bering.
8. Ziddiyatlarni bartaraf etishning qanday usullari mavjud?

VI bob.

JAMOADAN TASHQARI AXLOQ PSIXOLOGIYASI

1. Jamoadan tashqari axloq psixologiyasi va uni belgilovchi omillar

Jamoadan tashqari xatti-harakat shaxsning qonun doirasidan chetga chiqishi va jamiyatda oʻrnatilgan tartib-qoida va qonunlarni bilib-bilmasdan ularga qarshi zid xatti-harakatlarni sodir etishidir.

Shu sababli har qanday jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlar, yaʼni ommaviy ijtimoiy tartibbuzarliklar ijtimoiy qoʻrquv, vahima ostidagi delikvent xulq oʻzgarishlarini yuzaga keltiradi. Delikventlik – tartib, tarbiyaning izdan chiqishi, yaʼni tartibsizlik, tarbiyasizlik, konformlilik (tashqi taʼsirlarga berilish), madaniyatsizlik kabi psixik kamchiliklarni namoyon etadi. Inson xulq-atvorida konformlilik darajasining kuchayishi oqibatida noadekvat (nomunosib) xatti-harakatlar yuzaga keladi va tashqi taʼsirlarga beriluvchanlik holatlari kuzatiladi. Natijada shaxs xatti-harakatlarining maʼlum maʼnoda qolipdan chiqishi va jamiyatdagi mavjud qonunchilikka mos kelmaydigan, jamiyat uchun zid boʻlgan jamoadan tashqaridagi xulq-atvor yuzaga keladi.

Insonlarning jamoadan tashqaridagi salbiy xatti-harakatlariga oid jinoyatlar Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244, 277-moddolari asosida huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Insonning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlari doirasi keng boʻlib, biz shundan faqat *mish-mishlar* va *olomon psixologiyasiga* toʻxtalib oʻtamiz.

Turli jamoalarni harakatga keltiruvchi omillardan boʻlmish mish-mish gaplar hamda olomon doimo huquqshunoslar, psixologlar va sotsiologlar diqqat-eʼtiborida boʻlgan. Jamoadan tashqari axloq psixologiyasi haqida bir qator olimlar oʻz qarashlarini bayon etgan. Masalan, fransuz psixologi Le Bon Gyustavning fikriga koʻra, «insonning maʼlum bir guruh yoki jamoa orasida oʻziga boʻlgan ishonchi, irodaviy kuchining ortishini va intellektual ongining susayishini kuzatamiz. Aksariyat

hollarda olomondagi odamda o‘z xatti-harakatiga nisbatan nazoratning yo‘qolganligini ko‘rish mumkin»¹.

Rus olimi F. N. Plevako insonlarning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlarini psixologik jihatdan tahlil etgan va umumiy xulosaga kelgan. Muallifning fikricha, olomon – katta bir devor, undagi odamlar esa ushbu devor elementlaridir. Olomon orasida bo‘lish, undagi instinkt belgilaridir². Insonning jamoadan tashqari xatti-harakatlardagi zarur elementlardan biri unda liderning mavjudligidir.

Shu nuqtai nazardan «insonning jamoadan tashqari xatti-harakati» tushunchasi ijtimoiy psixologiya va yuridik psixologiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lib, inson xulq-atvorining ma‘lum ma‘noda huquqiy normadan chiqishi, unda impulsiv (shartsiz refleks) harakatning namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, inson ruhiyatida kuchli qo‘zg‘alishni, hissiy muvozanatsizlikning ortishini va idrok etish ko‘lamining torayishini sezish mumkin. Jamoadan tashqari xatti-harakatda asosiy rolni, ya‘ni dominantalik (ustunlik)ni insonlarga rahbarlik, tashkilotchilik qilayotgan yo‘lboshchilar bajaradi. Shuning uchun ham insonlarning jamoadan tashqari xatti-harakatlariga jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan baho berilganda yo‘lboshchilar jamoaning tashkilotchisi va rahbari hisoblanadi. Ular asosan mish-mishlarni tarqatishda hamda olomoni harakatga ketirishda katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, turli ijtimoiy ko‘rinishlardagi xatti-harakatlarining ijtimoiy psixologik qonuniyatlari o‘rganiladi. Chunki insonlarning bir-birlarini idrok etishi munosabatlar mexanizmini yaratadi. Shu nuqtai nazardan insonlarning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlarini tartibga solishda bevosita olomon psixologiyasini o‘rganish, ya‘ni inson xulq-atvorini huquqiy jihatdan tartibga solish va me‘yorlash maqsadga muvofiqdir.

Chunki har bir jamiyatda jamoatchilik fikri, kayfiyati va ichki ma‘naviy-ruhiy dunyoqarashi asosida ijtimoiy psixologik ko‘rinishlar, hodisalar, voqealar namoyon bo‘lib, bu dinamik xarakterga ega. Ya‘ni olomondagi insonning xatti-harakatlariga ham biologik, ham ijtimoiy omillar dominantlik (ustunlik) qiladi. Natijada insonda tashqi hodisalar ta‘siriga berilish ichki irodaviy boshqaruv va o‘zini o‘zi nazorat qilishning susayishini kuzatish mumkin.

¹ Qarang: *Ле Бон Гюстав*. Психология масс и народов. – М., 2000. – С 56.

² Qarang: *Плевако Ф.Н.* Избранные речи. – М., 1993. – С. 74.

Bu borada atoqli rus olimi M.I. Yenikeyevning «aksariyat jinoiy xatti-harakatlarning zamirida odamlarning ayrim ijtimoiy ko‘rinishlarga bo‘lgan dezadaptatsiyalashuvi (moslasha olmasligi) sabab bo‘ladi»¹, degan fikrlarida qaysidir ma’noda haqiqat mavjud.

Shu nuqtai nazardan ichki ishlar idoralari xodimlari o‘z kasbiy faoliyatlarida asosiy ijtimoiy-psixologik ko‘rinishlar (mish-mishlar, olomon)ga qarshi kurashishda olomonning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini va geografik shart-sharoitlarini chuqur o‘rganishi hamda tahlil qilishi muhim o‘rin tutadi. Inson hayoti davomida urf-odatlar, etnik va ijtimoiy qadriyatlarga rioya etishga majbur. Bu, o‘z navbatida, uning jamoada ichki muhitni yaratishida psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Aksariyat hollarda insonlarning xatti-harakatlarida huquqiy normalardan chetga chiqishlarda ularning ayrim ijtimoiy munosabatlarga moslasha olmasligi bosh omillardan biri sanaladi. Chunki ijtimoiy moslashuvchanlikning yo‘qligi nafaqat ichki qadriyatlarning, yo‘nalishlarning sustligida, balki undagi ijobiy ijtimoiy stereotiplar va ko‘nikmalarning shakllanmaganligida va o‘ziga o‘zi bergan bahoning pastligida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan olomon tarkibiga kiruvchi odamlarning aksariyatida mish-mish gaplarga psixologik yuqimlilik, konformlilik (tashqi ta’sirlarga tez beriluvchanlik) holatlari ko‘proq kuzatiladi. Shuni aytish joizki, bugungi kunda jamiyatda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bevosita insonlar ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va bu, qaysidir ma’noda, inson xatti-harakatlarini ma’lum bir me’yordan chiqishiga sabab bo‘luvchi bosh omillardan biridir. Chunki har bir inson ma’lum bir jamoada o‘zining ichki dunyoqarashlari, ehtiyoj va motivlari asosida qandaydir vazifani bajaradi.

Asosiy ijtimoiy psixologik ko‘rinishlar, ya’ni mish-mish gaplar va olomon ichki ishlar idoralari xodimlari uchun doimo operativ qiziquv uyg‘otgan va hamma vaqt mish-mish gaplar tarqatgan hamda jamoat xavfsizligi, tartibiga xavf soluvchi shaxslar hisobga olingan.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, asosiy ijtimoiy-psixologik ko‘rinishlardan biri bo‘lmish mish-mish gaplar va olomon psixologiyasini o‘rganish bugungi kunda ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi muhim muammolardan biri sanaladi. Shu sababli ushbu ijtimoiy-psixologik ko‘rinishlarga batafsil to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

¹ Qarang: *Еникеев М. И.* Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 65.

2. Ichki ishlar organlari faoliyatida ashaddiy va g'arazli mish-mishlar va ularning oldini olish

Mish-mishlar odatda asoslarga ega bo'lmagan axborotdir. Ularning obyektiv mazmuni matbuot, radio, televideniye orqali tarqatiladigan axborotga nisbatan nihoyatda kam. Ammo faqat shu asosda ularga e'tiborsizlik ko'rsatish, majoziy qilib aytganda, bola cho'miltirilgan tog'oradagi suvni bola bilan birga tashlab yuborishni anglatadi. Gap shundaki, mish-mishlar mantiqsizligiga qaramay, aholining muayyan tabaqalari ongi va xatti-harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda, afsuski, mish-mish gaplar xatti-harakatning rasmiy axborotga qaraganda kuchliroq determinanti (omili) bo'ladi.

Shu ma'noda, mish-mish psixologik tuzilishga ko'ra ijtimoiy hodisa bo'lib, o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab maxsus o'rganilib kelinmoqda. Buning sababi o'sha yillardagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy ahvol va aholining savodsizligi bo'lib, bundan ko'pgina shaxslar g'arazli niyatlarda foydalanishgan. Shu davrda mish-mishlar insonlar hayoti va taqdirida katta rol o'ynagan.

Ichki ishlar idoralarining mish-mishlarga qiziqishi bejiz emas, albatta. Mish-mishlar ko'pgina holatlarda operativ vaziyatni murakkablashtiruvchi juda xavfli omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Masalan, u yoki bu tovar narxining oshirilishi haqidagi mish-mish xaridorlarning do'konlarga ommaviy «oqib borishiga» hamda oson pul topishga qiziquvchilar foydalanib qoladigan sun'iy taqchillikni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Odamlar orasida tarqatiladigan xilma-xil mish-mishlarning barchasini bir qator asoslarga ko'ra tasniflash mumkin.

Aks ettirilayotgan voqea **adekvatligiga ko'ra**, mutlaqo ishonchsiz, haqiqatga yaqin unsurlari bo'lgan ishonchsiz, haqiqatga o'xshash hamda haqiqatga o'xshamaydigan elementlari bo'lgan ishonchli mish-mishlarga ajratiladi.

Mish-mish tarqatuvchining so'zlaridan aniqlanadigan **pozitsiyalarga ko'ra** quyidagilar ajratiladi: *istak mish-mish*, bunda xabar amalga oshmagan istak tufayli umidsizlik keltirib chiqarish va, binobarin, odamlarni tushkunlikka tushirish maqsadiga ega bo'ladi; *qo'rqituvchi mish-mish* – tashvish, qo'rquv va ishonchsizlik kayfiyati ustunlik qiladigan odamlar orasida eng samarali tur; *tajovuzkor mish-mish*, u muayyan shaxslar yoki muayyan odamlar guruhlariga nisbatan adovat (nafrat) urug'ini sochadi; *ajratuvchi mish-mishlar*, bular odamlarning o'zaro

munosabatlarida nizo-janjal keltirib chiqaradi, ular o'rtasida shubha, ishonchsizlik kabilarni yuzaga keltirib odatdagi ijtimoiy aloqalarni buzadi¹.

Kelib chiqishiga ko'ra tartibsiz ravishda yuzaga keladigan yoki atayin o'ylab topiladigan mish-mishlar bo'ladi. Oraliq turlari ham bo'lishi mumkin. Ba'zan mish-mish o'z-o'zidan yuzaga keladi, ammo muayyan zaminga tushgach, axborotni o'z manfaatlaridan kelib chiqib o'zgartirishga tayyor, uning tarqalishidan manfaatdor shaxslar topiladi. Dastlab mish-mish atayin tarqatilgan, ammo stixiyali ravishda amal qiluvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarga tushib, ular tufayli ko'p bora kuchaygan hollar ham bo'lishi mumkin. Masalan, dushmanlarning mamlakatimizga qaratilgan radio eshittirishlarida mavjud bo'lgan ba'zi mish-mishlarni siyosiy va axloqiy jihatdan yetarlicha yetuk bo'lmagan odamlar eshitib, o'z harakatlarining oqibatlarini o'ylamay uni yana tarqatgan hollarda ana shunday bo'ladi.

Odamlar ongiga **ta'sir kuchiga ko'ra** mish-mishlar quyidagi turlarga bo'linadi. Ijtimoiy fikrni *qo'zg'atuvchi*, ammo aniq ko'rinib turgan g'ayriijtimoiy xulq sohasiga kirmaydigan mish-mishlar; aholining muayyan qismida *g'ayriijtimoiy xulqni keltirib chiqaradigan* mish-mishlar; odamlar o'rtasidagi *ijtimoiy aloqalarni buzuvchi* va jamoat tartibini guruh bo'lib buzishga (masalan, stadionlardagi tartibsizliklar, tabiiy ofat sharoitidagi sarosimalar va boshqalarga) aylanuvchi mish-mishlar mavjuddir.

Mish-mishlar muayyan **psixologik** sharoitlar mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Ushbu sharoitlarni tushunish uchun taniqli olim P. V. Simonov his-hayajonlar (emotsiyalar) axborot nazariyasiga qiziqish uyg'otadi², degan fikrni bayon qilgan.

Ushbu nazariyaga ko'ra, vaqtning har bir muayyan daqiqasida dolzarb bo'lgan ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun inson aniq harakatlar sodir etishi kerak. Lekin u doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtimolli muhitda harakat qilgani bois, qo'yilgan maqsadga erishish uchun unga ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi narsalar va shart-sharoitlar haqidagi axborot kerak bo'ladi. Ehtiyoj qanchalik keskin bo'lsa, insonning zarur axborotni izlashga qaratilgan faoliyati ham shunchalik jadal bo'ladi. Agar inson xatti-harakati (xulqi)ni tashkil qilish uchun yetarli axborotga

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 168–190.

² Qarang: *Симонов П. В.* Что такое эмоции. – М., 1966. – С 57.

ega bo'lsa, his-tuyg'ular (emotsiyalar) amalda yuzaga kelmaydi, yuzaga kelsa ham juda sust ko'rinishga ega bo'ladi. P. V. Simonovning yozishicha, agar raqibni yengish usullari yaxshi ma'lum bo'lsa va unga qarshi kurashayotganlar ana shu usullarni bilsalar, g'azabning keragi yo'q; himoya vositalari mavjud bo'lsa va samaradorligi shubha uyg'otmasa, tashvish va qo'rquv uchun sabab yo'q. Inson tasarrufidagi axborotning yetarli emasligi natijasida aniq vaziyatlarda salbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Axborotga bo'lgan ehtiyojni qanoatlantirish uchun zarur deb bashorat qilinayotgan hajmdan ortib ketganida insonni ijobiy hissiyotlar chulg'ab oladi.

P. V. Simonov matematik simvollardan foydalanib quyidagi ifodani keltiradi:

$$H=E (Z-M)$$

Bunda **H** – hissiyotlar; **E** – ehtiyojlar; **Z** – ehtiyojni qondirish xulqini tashkil qilish uchun zarur hisoblangan axborot; **M** – mavjud bo'lgan, ya'ni inson tasarrufidagi axborot.

Bizning mavzuga tatbiq etganda mazkur ifodani quyidagicha talqin etish mumkin. Agar ehtiyoj nolga teng bo'lsa (masalan, u yoki bu voqea insonni aslo qiziqtirmasa), u holda shaxs axborotga muhtoj bo'lmaydi va bu masalada hissiyotlar yuzaga kelmaydi. Binobarin, mish-mishlar yuzaga kelishi uchun ham asos bo'lmaydi. Ehtiyojni qondirish uchun zarur deb hisoblangan axborot (**Z**) mavjud axborot (**M**)ga teng bo'lganida ham ular yuzaga kelmaydi. Agar muayyan sababga ko'ra odamlarning bunday axborot bilan to'liq ta'minlangan jamoasiga tashqaridan mish-mishlar kirsas, bundan keyin ular tarqalmaydi, balki uning ichida barham topadi.

M nolga teng bo'lganida, ya'ni inson o'z xulqini tashkil qilish va dolzarb ehtiyojini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan hech qanday axborotga ega bo'lmasa, hissiyotlar maksimal ahamiyatga ega bo'ladi, mish-mishlar uchun esa eng qulay zamin yuzaga keladi. Bir tomondan, ehtiyojlarni qondirish uchun harakat qilishdek keskin zarurat, ikkinchi tomondan, buning uchun kerakli har qanday axborotning yo'qligi insonni axborot manbalarini baholashda ularning farqiga yetmaydigan qilib qo'yadi.

Mish-mishlar nafaqat hech qanday rasmiy axborot bo'lmagan sharoitda, balki bunday axborot odamlarning qiziqishlarini qondirmagan,

yetarlicha ishonchli bo‘lmagan yoki shubhali bo‘lgan hollarda ham yuzaga keladi va tarqaladi.

Inson unga kelayotgan axborotni beparvolik bilan qabul qilmaydi. U ushbu axborotni o‘z qarashlari va e‘tiqodlari, yanglishuvlari va xurofotlari, mayl va xush ko‘rmasliklari bilan solishtiradi. Shaxs agar norasmiy yo‘llar bilan boshqa xabar olgan bo‘lsa, rasmiy axborotga tanqidiy munosabatda bo‘ladi. Bunday vaziyatda nafaqat axborot berish, balki qayta ishontirish talab etiladi. Bu esa yanglishayotgan odamning o‘zi uchun ham, uni qayta ishontirayotganlar uchun ham juda qiyin bo‘ladi.

Psixologiya fanida axborotni odamlar aynan o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun tarqatadilar va o‘zlashtiradilar deb to‘g‘ri ta’kidlanadi¹. Ushbu ehtiyojlarni ularning mish-mishlar bilan qondirilishi nuqtai nazari bilan ko‘rib chiqamiz.

Utilitar effekt odamlar olingan ma’lumotlardan o‘z hayotiy muammolarini hal qilish uchun foydalanishlarida namoyon bo‘ladi. Bu rasmiy axborot tarqatilgan, ammo mish-mishlar ham muayyan, lekin o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ladigan holatlarda eng yorqin ko‘zga tashlanadi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davomida ingliz razvedkasi Gitler Germaniyasining harbiy zavodlari ishini izdan chiqarish uchun portlovchi moddalar ishlab chiqarilayotgan shaharda sartaroshxonada sochi quritilayotgan zavod xodimalaridan birining boshi portlab uzilib ketgani, bu go‘yoki atmosferada porox changi haddan tashqari ko‘pligidan aholining sochlariga ilashib qolayotgani va sirli portlashning imkoniyatdagi xavfi yuzaga kelishi sababli kelib chiqqani haqida mish-mish tarqatdi. Inglizlarning aytishicha, bunday mish-mish ta’sirida ko‘pchilik zavod xodimalari shahardan qochib ketganlar va oqibatda qo‘yilgan maqsadga erishilgan.

Obro‘ samarasi axborot insonning yoki shaxs o‘zini mansub deb hisoblayotgan guruhning obro‘sini oshirishidan qoniqish hosil qilishida namoyon bo‘ladi. Bu hodisa odamlar ichki jihatdan qabul qilgan maqsad va qadriyatlarni tasdiqlovchi axborot (jumladan mish-mishlar)ni jon deb qabul qilishi va oson o‘zlashtirishiga asoslanadi. Bizni qiziqtirayotgan muammo nuqtai nazaridan, masalan, axloqiy jihatdan yetuk bo‘lmagan

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. рад. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 192–196.

xodimlari uning shuhratparastligini xushomad bilan ko'klarga ko'taradigan, o'ziga bino qo'ygan boshliqning xatti-harakatida yorqin namoyon bo'ladi.

Mish-mishlar taraflardan biriga boshqasiga qarshi qo'shimcha dalillar bergan hollarda *pozitsiya (mavqe)ni kuchaytirishi effektini* yuzaga keltiradi. Bu kabi misollar mamlakatga qarshi olib borilayotgan psixologik urushlarda xohlagancha topiladi.

Pozitsiyalarning kuchaytirishga mo'ljallangan mish-mishlar ba'zan, afsuski, bizning mehnat jamoalarimizda ham yuzaga keladi. Masalan, axloqan buzuq insonning hamkasblariga nisbatan shaxsiy adovati ba'zan halol odamlarning yaxshi nomiga dog' tushirishiga olib keladi. Turli idora va tashkilotlarga kelib tushayotgan anonim xatlar tahlili ana shundan dalolat beradi. Epistolyar janrning bu turi ko'pincha o'ziga yoqmagan odamlarning mavqeini boshqalarning qo'li bilan susaytirish, oqibatida o'z mavqeini mustahkamlash maqsadiga ega bo'lgan mualliflarning eshitgan va o'ylab topgan mish-mishlaridan iborat bo'ladi.

Mish-mishlar darajasida *bilishga bo'lgan qiziqishlarni qanoatlantirish* effekti haddan tashqari qiziquvchan odamlarga xosdir. Bu yerda ham qanoatlanish, albatta, xom-xayol, qiziqishlarning o'zi ham arziyasiz va axloqiy jihatdan umidsizdir. Shunga qaramay, bu jamoani qo'zg'atuvchi mish-mishlar yuzaga kelishi va tarqalishining psixologik sabablaridan biri hisoblanadi.

Bu hodisaning boshqa tomoni ham mavjud. Agar, masalan, shaharda kunduzi odamlar mavzelardan biri uzra ko'tarilayotgan quyuq tutunni ko'rgan bo'lsalar, nima bo'lganini bilishga intilishning yuzaga kelishi tabiiydir. Agar odamlarning qiziqishi vakolatli organlarning rasmiy axboroti bilan qanoatlantirilmasa, aqlga to'g'ri kelmaydigan mish-mish gaplar yuzaga kelishi muqarrar. Binobarin, odamlarda tushunmaslikdan berilgan savol yuzaga kelsa, bunday savol qanchalik nozik va achchiq bo'lmasin, undan qo'l siltab ketish mumkin emas. Xodimlar jamoalarida ham bunday zarurat yuzaga keladi. Qo'l ostidagi xodimlarning bilishga oid qiziqishining bahs mavzuiga aylangan muammolarni o'rganmaydigan, ular yuzasidan rasmiy izoh berish zarur deb hisoblamaydigan rahbar bu bilan nosog'lom mish-mishlar yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Mish-mishlardan kelib chiqadigan *hissiy effekt* ijobiy modallikni o'tkir his etish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Hissiyotlar axboroti nazariyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, inson his qilayotgan qoniqish, lazzat mish-mishlardagi xabar (garchi yolg'on, voqelikka mos kelmaydigan, ammo rostga o'xshab ketadigan bo'lsa ham) kutilganidan ortiq axborot berganidagina mavjud bo'ladi. Qandaydir (moddiy yoki ma'naviy) qadriyatlarga ega bo'lishga intilgan hollarda axborotning bunday o'ziga xos ko'pligi zavq, xursandchilikni yuzaga keltiradi. Masalan, amalga oshish ehtimoli juda kamdek tuyulgan azaliy orzu kutilmaganda ushalganini ta'kidlovchi mish-mishning oqibati ana shunday. Ushbu holda hissiy zavqlanishga (razradkaga) bo'lgan ehtiyoj qanoatlantiriladi, holbuki, albatta, mish-mish bunday maqsadga o'ziga xos tarzda, inson xabarning chin yoki chin emasligini bilmagan baxtli holatda bo'ladigan davr mobaynidagina erishadi.

Ko'rib turganimizdek, mish-mishlarga qarshi kurash – oson ish emas, bu maqsadda turli-tuman usullardan foydalaniladi. Ammo, asosiysi – odamlarda mish-mishlarga qarshi ma'naviy-ruhiy barqarorlikni shakllantirish. Bunga esa butun mafkuraviy ishlar tizimi bilan erishiladi.

Mish-mishlar o'zi mohiyatiga ko'ra ma'lum ma'noda tasdiqlagan yoki hech kim tomonidan tasdiqlanmagan xabar (ma'lum ma'noda) vazifasini bajaradi, shuning uchun ham ba'zi shaxslar hayotida va jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Natijada jamiyatni, insonlar turmush tarzini o'zgartirib yuborish xususiyatiga ega.

Shu nuqtai nazardan mish-mishlar ijtimoiy psixologik xususiyatga ega bo'lib, jamoatchilik ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jamiyatga zid bo'lgan ommaviy tartibbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatini yanada murakkablashtiradi.

Ko'p hollarda mish-mishlarning kelib chiqishi va tarqalishining asosiy sabablaridan biri shaxslarda kerakli ma'lumotlarning yetishmasligidir. Buning natijasida shaxslarning ma'lum muammo, voqea-hodisaga nisbatan talab, ehtiyoj va qiziqishlari qondirilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, xabarlarni tarqatishda unlarga emotsional tus beradi, ularni bo'rttirish va boyitishga olib keladi. Mish-mishlar ma'lum maqsad va manfaatlarga qaratilib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-maishiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Ular g'arazli niyatlarda tarqatiladi.

Mish-mishlarni tarqatuvchi shaxslarning psixologik xususiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular hamisha xabarlarini ishonchli manbalardan olingan deb aytishadi va insonlarga o'zlarini bilag'on qilib ko'rsatishga harakat qiladilar. Bunday shaxslar insonlardagi hayajonni ko'rib, voqealarga yanada ko'proq emotsional tus berishga intilishadi.

Albatta, ba'zan mish-mishlarning kuchi haqiqiy axborotdan ham kuchli bo'lishi mumkin va ayrim hollarda ma'lum vaqt xuddi shunday bo'ladi.

Ko'p hollarda mish-mishlar hududdagi operativ vaziyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, narx-navoning ko'tarilishi, pulning almashtirish borasidagi mish-mishlar inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va bu ko'pchilik holatlarda insonlarning hissiy zo'riqishiga sabab bo'ladi, natijada ular xatti-harakatlarining izdan chiqishiga olib keladi.

Ko'pchilik holatlarda mish-mishlarning tarqalishi va e'tirozli holatlarning paydo bo'lishiga manfaatli shaxslarning xatti-harakatlari va xabarlarini sabab bo'lishi mumkin. Masalan, 2004 – 2005-yillarda shunday mish-mishlar tarqaladi, go'yoki yosh bolalarni o'g'iraydigan manyak paydo bo'lgan va u bolalarning tana a'zolarini transplantatsiya qilishi haqidagi mish-mish gaplar insonlar ruhiyatida qo'rquv hissini paydo qilgan.

Bunday paytlarda ichki ishlar idoralari xodimlari ma'lum vaqtgacha xabarning o'zagini topishga qiynalishadi, oxir oqibat shaharda kuchaytirilgan operativ vaziyat yuzaga keladi.

Demak, mish-mishlar ma'lum bir voqea, hodisalar haqidagi xabar bo'lib, bir kishi tomonidan ikkinchi bir kishiga yetkaziladigan og'zaki xabardir. Mish-mishlar ba'zi shaxslar tomonidan o'ylab topilgan bo'lishi ham mumkin.

Mish-mishlarni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

- 1) hodisalarni tasvirlash;
- 2) emotsional ton (tus) berish, izohlash;
- 3) mish-mish gaplarni ta'sir kuchidan foydalanish.

Mish-mishlar o'z ma'no mohiyatiga ko'ra uch turga bo'linadi:

- 1) umuman haqiqatga to'g'ri kelmaydigan mish-mish gaplar;
- 2) ma'lum ma'noda tasdiqlangan (haqiqat bor) mish-mish gaplar;
- 3) to'liq ma'noda haqiqatga ega bo'lgan mish-mish gaplar.

Umuman, mish-mishlar o'z xarakteriga ko'ra to'g'ri, aynan haqiqatning o'zini tashkil qilmaydi, sababi mish-mishlar bir shaxsdan ikkin-

chi shaxsga yoki bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tishda qandaydir qo'shimcha o'zgarish bo'ladi, ya'ni «mish» qo'shiladi.

Mish-mishlar agressiv (ashaddiy) bo'lishi mumkin (1992-yildagi talabalar shaharchasida bo'lgan voqeani ko'z oldingizga keltiring). Bunday vaziyatlarda odamlar hech narsaga ishonmaydigan bo'lib qoladi, bu holatlar ayniqsa kichik-kichik guruhlardagi odamlar orasida ko'p uchraydi. Mish-mishlar o'z xususiyatiga ko'ra maxsus tashkil etiladi va birdan yuzaga kelishi mumkin.

Maxsus tashkil etilgan mish-mishlardan ko'zlangan maqsad yashirin motivlar, g'arazli niyatlar bilan amalga oshiriladi.

Mish-mish gaplar shaxslar ongiga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

- 1) shu muammo bo'yicha ongda ma'lum tasavvur yuzaga keladi;
- 2) aholi orasida guruh-guruh bo'lib yurishib, jamiyatdagi mavjud tartibni buzish yuzaga keladi.

Shuningdek, yer qimirlash, tabiiy ofatlar, terrorchilik aktlari haqidagi mish-mishlar insonlar ongida qo'rquv hissini paydo qiladi.

Mish-mish gaplarga qarshi kurashish uchun:

– ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish va mish-mishlar haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritish hamda mazmun-mohiyatini ochib berish;

– mish-mishlarning tarqalish hududini kuzatish va o'sha hududda profilaktik ishlarni tashkil etish;

– jamoatchilikka mish-mishlar bilan bog'liq masalalarni to'g'ri tushuntirish va aniq axborotlar berish;

– mish-mishlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda jamoatchilik kuchlaridan foydalanish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosalarga kelish mumkin:

1) mish-mishlar ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, ichki ishlar idoralari xodimlari ishini qiyinlashtiradi, jamoatchilik ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

2) mish-mishlar tasdiqlanmagan xabar bo'lib, o'z kuchi, mazmuni, xarakteridan kelib chiqqan holda odamlarda emotsional hislarni yuzaga keltiradi;

3) mish-mishlar tarqatishning asosiy sabablari shaxslarning guruhlar, jamoalar, odamlar orasida o'zini ko'rsatishi, mish-mishlarni qayoqdan kelishini bilgan holda boshqalarni sodir etilishi mumkin

bo'lgan voqealardan xabardor qilish, o'zlaridagi mavjud zo'riqishni tushirishdir.

3. Ichki ishlar idoralari faoliyatida olomon psixologiyasi va uni hisobga olishning o'ziga xosligi

«Olomon» atamasi ijtimoiy psixologiyaga XIX asrning oxiri va XX asrning boshida yuz bergan ommaning qudratli inqilobiy ko'tarilishi davrida kirib keldi.

O'z tabiatiga ko'ra olomon harakatdagi, shuningdek, *tajovuzkor, qutqarilayotgan, manfaatparast, ekstatik* (masalan, pir, aytaylik mashhur jaz muxlislarining diniy mutaassibliyi yoki aqlsizligi tufayli yuzaga keladigan olomon) turlarga bo'linadi. Yuqorida keltirilgan tasnifning muallifi psixolog Y. A. Sherkovin ta'kidlaganidek¹, bunday ajratish shartlidir. Olomonning bir turi ayni vaqtda boshqasining jihatlariga ega bo'lishi va yangi turiga aylanishi mumkin.

Sobiq Ittifoq ijtimoiy psixologlari (B. F. Porshnev, B. D. Parigin, Y. A. Sherkovin, N. F. Fedenko va boshqalar)ning ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida olomonning bir qator psixologik xususiyatlarini ko'rsatish mumkin.

Olomonning eng muhim farqli jihati uni tashkil etuvchi odamlar tarkibining tasodifiy xususiyatlaridir. Bu, albatta, olomonning yuzaga kelishi ijtimoiy hodisalarning sabab-oqibatlarini doirasidan chetga chiqishini bildirmaydi. Olomonning dastlabki o'zagi oqilona mulohazalar ta'sirida shakllanishi va o'z oldiga juda aniq maqsadlar qo'yishi mumkin. Biroq o'zakning bundan keyingi rivojlanishi shiddat bilan va o'z-o'zidan yuz beradi. Olomon bungacha bir-birini mutlaqo tanimagan, umumiy tomonlariga ega bo'lmagan odamlarni o'z ichiga olib, o'sib boradi.

Bunga ishonch hosil qilish uchun spirtli ichimlik iste'mol qilgan va bezorilik qilayotgan o'smirlar olomoniga murojaat etishning o'zi yetarli. Bunday olomon tarkibida uni jipslashtirish bo'yicha faol harakat qiluvchi va sekin-asta uning xatti-harakatini yo'naltiruvchi *boshlovchilar* ajralib turadi. Bular jamiyatda o'rnatilgan axloq qoidalarini tan olmaydigan, axloqi buzilgan odamlardir. O'z qadriyatlarini olomon harakatlarning yo'nalishi bilan *birday ko'ruvchi* olomon ishtirokchilari ulardan ajralib

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 289–290.

turadi. Masalan, baʼzan olomonning tajovuzkor harakatlari qaratilgan obyektidan alamzada boʻlib yurgan odamlar ham guruhiiy tartibbuzarliklarga tortiladilar. Ular boshlovchi emas, ammo olomonning taʼsir doirasida qolib, unda faol ishtirok etadilar. Olomon ichida unga faqat oʻz «bebosh feʼlini» koʻrsatib qoʻyish, oʻzining shafqatsizlikdan huzur qiladigan impulslarini chiqarish imkoniyati paydo boʻlgani tufayligina olomonga qoʻshilgan *tajovuzkor* shaxslar ayniqsa katta xavf tugʻdiradi. Eng ogʻir harakatlarni odatda ular sodir etadilar.

Guruhiiy tartibbuzarlik ishtirokchilari orasida halol, ammo *adashganlari* ham mavjud. Ular vaziyatni xato, adolat prinsipini notoʻgʻri tushunganligi tufayli olomonga kirib qoladilar. Bunday insonning xulqini baholashda uning obyektiv oqibatlarini va subyektiv jihatlarini farqlash zarur. Obyektiv jihatdan u guruhiiy tartibbuzarlik ishtirokchisi boʻlib qoladi, subyektiv jihatdan esa u oʻzini jamiyatga qarshi unsur deb hisoblamaydi.

Olomonga, shuningdek tasodifiy qoʻshilib qolganlar (*obivatellar*) ham kiradi. Ular katta faollik koʻrsatmaydilar, ularni, sport sharhlovchilar aytganlaridek, hayajonga soluvchi tomosha sifatidagi tartibbuzarlik oʻziga jalb qiladi. Bu tomosha goʻyoki ularning bir xil va zerikarli, bemaʼni tirikchiligiga qandaydir yangilik kiritadi. Guruhiiy tartibbuzarliklarda umumiy kayfiyatga beriluvchan, stixiyali hodisalar hukmiga oʻzini qarshiliksiz berib yuboradigan oʻta *taʼsirchan* odamlar ham ishtirok etadilar. Nihoyat, olomonga tashqaridan (ichki pozitsiyasi nuqtai nazaridan) kuzatib turadigan, voqealarning borishiga aralashmaydigan oddiygina *tekin tomoshabinlar* ham kiradi. Biroq ularning hozir boʻlishi ommaviylikni oshiradi, olomon stixiyasining odamlar xatti-harakatiga taʼsirini kuchaytiradi.

Demak, yuqorida taʼkidlanganidek, olomonning tasodifiy tarkibi – uning oʻziga xos psixologik xususiyatlaridan biri boʻlib, buni guruhiiy tartibbuzarliklarga qarshi kurash choralari koʻrishda inobatga olmaslik mumkin emas.

Olomonning keyingi xususiyati odamlar *xatti-harakatining bir xilligini belgilovchi* ijtimoiy-psixologik hodisalarning oʻziga xosligida namoyon boʻladi. Jamoada, maʼlumki, bir xildagi xatti-harakat ongli ravishda qoʻyilgan va barcha eʼtirof etgan hamda ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan qadriyatlarning umumiyliigi bilan taʼminlanadi. Olomon esa asosan odamlarning bunday umumiyliigini norozilik obyektiga qarshi qoʻyish evaziga yaratiladi. B. F. Porshinev

ta'kidlaganidek, olomonni uning «qarshiligi», «ularga» qarshiligi umumiylikka aylantiradi.

Olomonning keyingi xususiyati – unda, shartli ravishda, *hissiy rezonans* deb atash mumkin bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy psixologik hodisaning amal qilishi sanaladi. Guruhiy tartibbuzarlikda ishtirok etuvchi odamlar nafaqat oddiygina bir-biri bilan yonma-yon keladi, balki atrofdagilarni qo'zg'atadilar va o'zlari ham ulardan ta'sirlanadilar. Bir kishining olgan qo'zg'alishi, boshqasining idrok etish obyektiga aylanib, uning qo'zg'alishini yanada kuchaytiradi va bu hol ong tomonidan nazorat qilinishi qiyin bo'lgan hissiy portlashgacha borishi mumkin.

Olomon shakllanishining ilk belgilaridan guruhiy tartibbuzarlikkacha bir qancha bosqichlar bosib o'tiladi.

Bahonaning *yuzaga kelishini* guruhiy tartibbuzarliklarning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Odamlarning e'tiborini tortgan va ular noto'g'ri talqin etgan har qanday voqea yoki fakt ana shunday bahona bo'lishi mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bahonalar nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Guruhiy tartibbuzarlikning yetilishidagi ikkinchi bosqich dastlabki *xavotirli mish-mishlarning* paydo bo'lishi bilan bog'liq. Tartibbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyat ushbu bosqichda ancha qiyinlashadi. Odamlar voqeaga nisbatan muayyan qarashni o'zlashtirishga ulgurgan bo'ladilar va har qanday axborotni o'zlarining yanglishuvlari orqali qabul qiladilar. Vaziyatning yanada murakkablashuviga qarshi kurashning yo'li – odamlarni qayta ishontirish, mish-mishlarning yolg'onligini dalillar bilan isbotlashdir. Bu bosqichda voqea yoki fakt manfaatlariga ko'p darajada ta'sir ko'rsatgan odamlarni yakka tartibda qayta ishontirish eng ko'p samara beradi. Bu bosqichda omma oldida mish-mishni rad etish vaziyatni chigallashtirishi, mish-mishlarning yanada ko'proq tarqalishini keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchi bosqichni shartli ravishda *aqllarning achishi* deb atash mumkin. Darhol rad qilinmagan mish-mishlar tarqalishda davom etadi, katta o'zgarishlarga uchraydi va odamlarda hozircha «kar» qo'zg'alishni yuzaga keltiradi. Bu bosqich ham, avvalgi ikkita bosqich ham odamlarning – olomonning to'planishidan avval keladi va uni psixologik jihatdan tayyorlaydi.

To'rtinchi bosqich olomonning shakllanishi bilan bog'liq. Dastlab to'plangan odamlar orasida o'ziga xos *sirkular reaksiya* boshlanadi, ya'ni bundan keyin bir xildagi xatti-harakatga ruhiy asos yaratuvchi

fikr va hissiyotlarning jadal almashinuvi ro'y beradi. So'ngra aylanish jarayoni boshlanadi: hissiy qo'zg'alish kuchayadi, odamlar buning oqibatida zudlik bilan harakatga o'tishga tayyor bo'lib qoladilar. Aylanish jarayonida norozilik obyekti aniqlashadi, nafrat obrazi shakllanadi. Nihoyat, odamlarning faollashuvi boshlanadi. Bu jarayonda, masalan, olomon yetakchisi amalga oshirayotgan qo'shimcha rag'batlantirish aylanish jarayonida shakllangan obrazga qarshi qaratilgan impulslarni yuzaga keltiradi¹.

Beshinchi bosqich olomonning *g'ayriijtimoiy xulqining rivojlanishi*, ya'ni guruhiiy tartibbuzarliklarning o'zidir. Tartibbuzarlikni boshlovchilar ig'vosiga uchgan eng tajovuzkor shaxslar boshlab beradilar. So'ngra, taqlid asosida, olomon yomon namunaga ergashadi, beboshlikni rivojlantiradi. Olomonning g'ayriijtimoiy harakatlarining oldini olish va ularga chek qo'yish uchun turli shakl va usullardan foydalaniladi. Ular uchun umumiy bo'lgan jihat – olomon xulqining psixologik qonuniyatlarini chuqur bilish va aniq hisobga olish. Masalan, anonimlik hissi olomon ishtirokchilarini ongsiz harakatlarga undashidan quyidagicha foydalanishi mumkin. Olomon ancha katta bo'lganida ovoz kuchaytirgich vositasi orqali uning aniq ishtirokchilariga murojaat etish to'g'ri bo'ladi. Bu hol eng sog'lom fikrlovchilarni o'z harakatlarini anglashga undaydi, ularga o'zini nazorat qilishdek yo'qotgan hissiyotini qaytarishda va o'z xatti-harakati uchun mas'uliyatni his qilishida yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan **olomon**, psixologik jihatdan kelib chiqishiga ko'ra, maxsus, hech qanday insonlar tomonidan tashkil etilmagan odamlarning xatti harakatlari yig'indisidir.

Fransuz psixolog olimi Le Bon Gyustavning fikricha, «olomon yig'ilganda millati, kasbi, tilidan qat'i nazar, ularda maqsad bitta bo'ladi va ularning ongida to'la fikrlash yo'qoladi, hatto o'lim ham ularga qo'rqinchli emasdek ko'rinadi»².

Olomon psixologiyasini bilish ichki ishlar idoralari xodimlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ommaviy tartibsizliklar, namoyishlar, mitinglar kabi salbiy holatlarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda qo'l keladi.

¹ Qarang: Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 291.

² Qarang: *Ле Бон Гюстав*. Психология народов и масс. – М., 2000. – С. 62.

Ommaviy tartibsizliklar, mitinglar va turli namoyishlar uyushmagan bir guruhning salbiy xatti-harakatlari asosida amalga oshiriladi. Olomonga qo'shilgan shaxslar ongida taqlid qilishga kuchli moyillik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik va ijtimoiy javobgarlik hissining yo'qligini kuzatish mumkin. Shu sabali olomon ayrim g'arazli, ig'vogar shaxslar uchun obyektini yo'q qiluvchi qurolga aylanadi.

Ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari yig'ilgan olomonning salbiy xulq-atvor mexanizmlaridan ustalik bilan foydalanib, ulardagi tajovuzkorlik instiktlarini qo'zg'atadilar. Ommaviy tartibsizliklar davlatga, uning yuritayotgan siyosatiga qarshi mish-mishlar uyushtirish, xalq o'rtasida tajovuzkorlik holatlarini keltirib chiqarish uchun qo'llaniladi. Bunday vaziyatlarda ommaning xatti-harakatini tartibga solib bo'lmaydi.

Olomon o'zi xarakteriga ko'ra agressiv (ashaddiy) bo'lishi mumkin, ashaddiy mish-mishlar ommaviy tartibbuzarliklarni yuzaga keltiradi.

Olomon psixologiyasida meniki va ularniki degan fikr albatta mavjud. Ya'ni olomon vaziyatni murakkablashtiruvchi va o'ziga xos tezlashtiruvchi generatoridir. Misol sifatida 2006-yili Ispaniyada, 2007-yil Pokistonda bo'lgan xalqaro mitinglardagi olomonni keltirish mumkin. Olomon psixologiyasida ma'lum o'zgarishlar ro'y beradi, bu o'zgarishlar nimalarda sodir bo'lishini ko'rish mumkin.

Olomon xatti-harakatining yuzaga kelish psixologiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

1) olomonda ko'rish va eshitish orqali kuchli emotsional holat yuzaga keladi;

2) o'zining xatti-harakatlariga javob berish ular uchun oxirgi o'ringa o'tadi;

3) o'zida qo'shimcha kuch va ongida o'zgarish sezadi.

Olomon, sodir bo'lgan voqea va hodisaga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi.

1) to'satdan yuzaga kelgan olomon;

2) ekspressiv (to'satdan yuzaga kelgan) olomon;

3) konvensial olomon.

To'satdan yuzaga kelgan olomon birdan to'planadi, voqea-hodisaning mohiyatini tushunishni xohlaydi. Ushbu turga to'y-hasham, xudoyi, janozalardagi olomon – xalq kiradi.

Konvensial olomonga ommaviy sport tadbirlari, masalan, futbol uchrashuvlariga yig'ilgan odamlar kiradi. Ushbu toifadagi olomonning

o'ziga xosligi shundaki, ko'p hollarda ularning axloqi ma'lum qolipdan chiqib ketadi. Bu ularning baqiriqlari, qayg'urishlari, quvonganlarida ko'rinadi.

Harakatdagi olomonga Donbasdagi shaxtyorlar harakatini, Bryansk va Brestdagi o'qituvchilar harakatini misol qilishimiz mumkin. Harakatdagi olomonni, ko'pincha, qo'zg'olonchi olomon deb atashadi, bunday olomon qo'zg'olon orqali o'z niyatini amalga oshiradi.

Ashaddiy olomon hamma yoqni buzadi, sindiradi, o't yoqadi, bu bilan olomonning o'zi ham vahimaga tushadi.

Olomon ham o'z tarkibiga ega, masalan:

- 1) adashib qo'shilib qolgan shaxslar;
- 2) ashaddiy harakatdagi shaxslar;
- 3) olomon harakatini qo'llab-quvvatlaydigan shaxslar;
- 4) boshlovchilar (ya'ni, o't yoquvchilar.)

O't yoquvchilar olomonning xatti-harakatini, axloqini izdan chiqaradi va bir yo'nalishga qaratadi. Bunday shaxslar o'zlari hech qanday yo'lga yurmaydi, ishni boshlab keyin olomon orasidan qochadilar.

Olomonning xatti-harakatini qo'llab-quvvatlab yuradigan shaxslarning bevosita ishtiroki kam bo'ladi.

Olomon tarkibidagi eng qo'rqinchli shaxslar tajovuzkor shaxslardir, ular o'z axloqini ko'z-ko'z qiladilar.

Ba'zi hollarda ayrim shaxslar o'zlari bilmagan holda shu oqimga qo'shilib ketadilar va olomonni to'ldiradi. Ularning shunday ahvolga tushishiga sabab yolg'on xabarga uchishidir.

Olomonning shakllanish bosqichlari:

- 1) sharoitning yuzaga kelishi (sirkulatsiya);
- 2) miyadagi qaynash;
- 3) dushman obrazining shakllanishi;
- 4) olomonning faollashuvi;
- 5) jamiyatga qarshi harakatning avj olishi.

Sirkular, ya'ni aylanma reaksiya olomonning shakllanishiga olib keladi, bunda har xil imkoniyatlar, masalan, faktlar (dalillar), turli xabarlar yaratiladi.

Miyadagi qaynashda odamlar bir-biri bilan faqat xabar almashadi va eng asosiysi ma'lum bir fikrda turishadi. Shuning uchun ham boshqa xabarni (yangi) eshitganda o'zlarini ma'lum ma'noda adashmagan deb hisoblaydilar.

Dushman obrazining shakllanishi shunday holatki, unda olomon faqat salbiy holatlarni tasavvur qilib, o'zi noroziligini bildiradi. Bularning hammasi olomonning harakatini faollashtiradi.

Bunday tasavvurdagi obyektlar ommani birlashtiradi va bir butun qiladi. Oxirgi bosqich jamiyatga qarshi xatti-harakatni yuzaga keltirish va olomon faoliyatini faollashtirishdir.

Vahima, qo'rquv va sarosimaga solish olomonning asosiy vazifalaridan bo'lib, bunday holatlarda shaxslarning xatti-harakatida o'zini o'zi boshqarish oxirgi o'ringa turishini, javobgarlik hissining yo'qolishini kuzatish mumkin. Vahima, qo'rquv va sarosima asosida mavjud yoki ehtimollik xavfi oldida ojizlik, uni yengib o'tish o'rniga undan qochish fikri paydo bo'ladi. Vahima qo'rquvning psixofiziologik mexanizmi bo'lib, bosh miya po'stlog'ining katta maydonida induksion tormozlanish, anglash faolligining susayishiga olib keladi va tez emotsionallik holatini yuzaga keltiradi. Natijada shaxsda noadekvat (nomos) fikrlash, illyuzion (noto'g'ri) idrok qilish, kuchli emotsional qo'zg'alish oqibatida xavfni bo'rttirish, kuchli ta'sirchanlik, beriluvchanlik holatlarini kuzatish mumkin.

Vahima va qo'rquv guruhiy va individual tarzda yuz beradi. Individual tarzda yuz beradigan vahima yoki qo'rquv harakatlarning noadekvatligida, biror-bir xulosa, qarorga kelish, mavjud xavfdan qochish, undan kutilish uchun xavfsizlik choralari ko'ra olmaslik holatlarida namoyon bo'ladi. Ommaviy tartibsizlik holatlaridagi vaziyat yetakchining individual vahima va sarosimaga bo'lgan aks ta'siri bilan bevosita bog'liqdir.

Vahima, sarosima, qo'rquv asosan ikki turga bo'linadi:

- qaltis vaziyatlarda qo'rqish natijasida o'lim xavfini his etish;
- muddatli xavotirlanishdan so'ng kuchli zo'riqish, asab tizimining buzilishi, diqqatning xavotir predmetiga yo'nalganligi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari vujudga kelishi mumkin bo'lgan bunday salbiy hodisalarning oldini olish maqsadida oldindan profilaktik chora-tadbirlarni qo'llashlari lozim. Ommaviy tartibsizliklar paytida ommani tarqatish uchun uni kichik guruhlariga ajratish, olomondagi ashaddiy ishtirokchilarni topish va ularni jazolash muhim ahamiyat kasb etadi.

Olomondagi jamiyatga qarshi harakatlarning oldini olishda ichki ishlar idoralari xodimlari ijtimoiy psixologiya va uning qonuniyatlarini yaxshi bilishlari, ya'ni ijtimoiy jarayonlar, jamoa va guruhlarining

psixologik xususiyatlarini, ularni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlarni hisobga olishlari muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganishlari, ijtimoiy psixologik munosabatlar tizimida jamoa va guruhlarining o'rnini bilishlari zarur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jamoadan tashqari axloq subyektlari va ularning psixologik tavsifni aytib bering.
2. Mish-mishlar tarqalishining psixologik sabablari qanday namoyon bo'ladi?
3. Mish-mishlar qanday ijtimoiy psixologik tavsifga ega?
4. Olomon psixologiyasi va olomon turlariga izoh bering.
5. Olomon harakatida qanday psixologik mexanizm va ko'rinishlar mavjud?
6. Olomon ta'sirida shaxslar psixikasida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
7. Olomon va guruhli eksesslarning farqi nimada?
8. Favqulodda holatlarda olomonning axloqi to'g'risida fikr bildiring.

VII bob.
HUQUQBUZAR SHAXS PSIXOLOGIYASI

1. Jinoiy xulq va unda «normadan chetga chiqish» tushunchasi

Inson xulqi murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uni o‘rganishda tizimli yondashuv va ehtimol tutilgan jarayonlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Har bir axloqiy hodisaning mohiyati uning shaxs xulqining umumiy tuzilishidagi o‘rni bilan bog‘liq. Individual rivojlanish jarayonida axloqiy tizimlar individual axloqiy strategiyaning murakkab majmuiga aylanadi va shaxsning axloqiy tipini hosil qiladi.

An‘anaga ko‘ra, g‘ayriijtimoiy xulq sabablari ikki guruhga – ijtimoiy va biologik sabablarga ajratiladi. Biroq, axloq-odob me‘yorlari (qoida)dan og‘uvchi xulqning ko‘plab ko‘rinishlarini tahlil qilish mazkur muammoni boshqacharoq, ya‘ni tizimli-integratsiyalashgan (birlashgan) holda o‘rganish zarur, degan xulosaga olib keladi.


Ijtimoiylik yoki biologiklik omillariga «ruhiylik» nomli tizim hosil qiluvchi omilni kiritish hamda inson xulqining sababiy bog‘lanishlari (determinatsiyasi) bilan bog‘liq barcha muammolar majmuini ijtimoiy-psixologik-biologik sabablar deb atash zarur. Bunda «psixologik» jihatning o‘rtada joylashgani uning ham ijtimoiy, ham biologik omil uchun birlashtiruvchi funksiyaga egaligini anglatadi.

G‘ayriijtimoiy xulq sabablari haqida so‘z borar ekan, avvalo, muammoni tahlil qilishning asosiy prinsiplarini keltirib o‘tamiz.

1. G‘ayriijtimoiy xulq, normadagi xulq kabi, ko‘p omillidir, u bir yoki hatto bir qancha sabablarning oqibati emas. Biroq, alohida olingan individual axloqiy ko‘rinishning ko‘p omillar bilan bog‘liqligi va ehtimolli xususiyati uni o‘rganib bo‘lmasligini bildirmaydi. Bu o‘rinda shaxsning tipik individual-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini aniqlash ustun ahamiyatga ega. Ijtimoiy va biologik omillar o‘z-o‘zicha emas, balki jinoyatchi xulqining tipini hosil qiluvchi uning shaxsiy-psixologik xislatlarida birlashgan holda g‘ayriijtimoiy xulqning aniqlovchilariga aylanadi.

2. G‘ayriijtimoiy xulq ijtimoiy ijobiy xulqdan yo‘nalishining mazmuni bo‘yicha ham, psixoregulyatsion xususiyatlari bo‘yicha ham

ajralib turadi. Shaxs xulqi uning ehtiyojlari, anglangan va anglanmagan mayllari tizimi, oldiga maqsad qo'yish va unga erishish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Agar uni sxema tarzida tasvirlaydigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinish hosil qiladi.



Aksariyat jinoyatchilarning xulqiga ijtimoiy qadriyatlarga moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) va o'zini o'zi boshqarishdagi nuqsonlar xosdir. Individning o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlari past darajada bo'lganida, g'ayriijtimoiy mayllari, odatlari nafaqat nazorat qilinmaydi, balki ularning o'zlari xulqning maqsad hosil qiluvchi mexanizmlariga aylanadi.

3. G'ayriijtimoiy xulq individning o'z ijtimoiy mas'uliyatini himoya qilish (o'zini oqlash) motivatsiyasi, umum qabul qilingan ijtimoiy qadriyatlarning qadsizlanishi asosida amalga oshiriladi. Inson xulqi uning ehtiyojlari va yo'nalganlik sohasi, qabul qilgan qadriyatlar tizimi, umuminsoniy madaniyatdan bahramandlik darajasi bilan bog'liqdir. Inson hayvondan farqli ravishda qandaydir yagona xulq tizimlariga mahkum emas, u ko'p funksiyalidir. Uning xulqini aniq instinktiv (tug'ma) mayllari emas, balki ijtimoiylashuv darajasi yuzaga keltiradi.

4. G'ayriijtimoiy xulq – mojaroli xulq bo'lib, doimo jamiyatda, ijtimoiy guruhlarda, shaxs bilan ijtimoiy guruh, ayrim shaxslar o'rtasida va, nihoyat, shaxsning o'zidagi ichki ziddiyatlarga asoslangan. Inson xulqidagi tashqi holatlar tizimi unda shakllangan ichki ruhiy shart-sharoitlar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Ushbu ichki ruhiy shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- qadriyatlar tizimi;
- axloqiy yo'nalganlik;
- xatti-harakatning umumlashgan usullari;
- o'zini o'zi tartibga solishning psixodinamik xususiyatlari.


5. Inson xulqida na obyektiv, na subyektiv omillarni alohida ajratish mumkin. Ijtimoiy omillar odamlar xulqiga bevosita ichki shaxsiy,

individual-psixologik hodisalar orqali ta'sir ko'rsatadi (va bu, ba'zan «jinoiy tabiat» illuziyasini yuzaga keltiradi).

6. Shaxs qanchalik kam ijtimoiylashgan bo'lsa (bu, odatda, jino-yatchi shaxsning o'ziga xos xususiyatidir), biologik omillarning ustun (dominanta) bo'lish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Inson ongining rivojlanishi qanchalik cheklangan bo'lsa, uning xulqida iyerarxik jihatdan quyi turadigan motivatsiya darajalari shunchalik katta rol o'ynaydi.

Kriminolog olim Z.S.Zaripov va I. Ismailovlar jinoiy xulq shakllanish jarayonini quyidagi toifalarga ajratishadi: a) shaxs ehtiyoji va manfaatlari buzilishi bilan bog'liq jinoiy xulq shakllanish jarayoni; b) shaxs ehtiyoji (manfaati) va imkoniyati o'rtasidagi farq (qarama-qarshilik) bilan bog'liq jarayonlar; v) shaxs ma'naviy va huquqiy tasavvurining, qadriyatlar va ijtimoiy yo'nalishining buzilishi bilan bog'liq jarayonlar; g) qaror qabul qilish va amalga oshirishdagi nuqson va kamchiliklar bilan bog'liq jarayonlar¹.

Jinoiy xatti-harakat jarayoni quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi: motivatsiya, qaror qabul qilish va uni amalga oshirish. Har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakat bu shaxsdagi o'ziga xos xususiyatlar bilan tashqi muhitning o'rtasidagi aloqaning natijasi degan fikrga asoslangan holda muayyan jinoiy xatti-harakat jarayonini quyidagicha tasvirlasa bo'ladi:



¹ Qarang: Zaripov Z.S., Ismailov I. Криминология. – Т., 1996. – Б. 130.

Rus olimi G. A. Avanesov inson xatti-harakatiga salbiy ta'sir etuvchi quyidagi biologik shart-sharoitlarni ajratadi:

– jinsiy buzilish va jinoyatlarning sababiga aylanadigan biologik ehtiyojlar patologiyasi;

– asab tizimining qo'zg'aluvchanligini kuchaytiradigan, noadekvat reaksiyani keltirib chiqaradigan va harakatlarni ijtimoiy nazorat qilishni qiyinlashtiradigan asab-ruhiy kasalliklar (psixopatiyalar, nevrosteniyalar, kasallik va sog'liq chegarasidagi holatlar);

– turli xil psixosomatik, allergik, zaharvandlik bilan bog'liq kasalliklarga olib keladigan va qo'shimcha jinoiy omil bo'lib xizmat qiladigan psixofiziologik zo'riqishlar¹.

Ruhiy anomaliya (normadan og'ish)lar esa irsiy (genetik) ildizlarga ega bo'lib, asabiy-ruhiy buzilishlar faqat noqulay muhit ta'siridagina jinoiy xulqning sababi bo'lishi mumkin.

XX asrning 20-yillaridayoq psixiatrlar (Antonyan Y. M., Borodin S. A., Vinogradov M. V., Golub S. A. va boshq.) jinoiy xulq turi bilan ruhiy anomaliya o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaganlar. Masalan, rus olimi Y. M. Antonyanning fikricha, «...aqli ojizlar, kundalik hayotga moslasha olmaydiganlar o'zlarining tuban ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'g'rilik, ba'zan esa qotillik jinoyatlarini sodir etadilar. Beqaror va tashqi muhit ta'siriga tez beriluvchan ixtiyorsiz psixopatlar odatdagi o'g'rilar safini oson to'ldiradilar; ma'nosiz ruhiy his-tuyg'ular va kuchli tuban mayllarga ega bo'lgan psixopatlardan esa banditlar, g'arazli qotillar boshqalarga qaraganda osonroq hosil bo'ladi; patologik qo'zg'aluvchanligi bilan ajralib turadigan psixopatlar arzimagan narsa tufayli atrofdagilar bilan oson aytishib qoladilar, jamoat tartibini buzadilar»².

Ruhiy anomaliyalarga chalingan shaxslarning ulushi (koeffitsiyenti) barcha jinoyatchiliklarning taxminan 70 % ini tashkil qiladi.

Ma'lum bo'lishicha, ruhiy anomaliya holatida shaxslar tomonidan jismoniy kuch ishlatish (odam o'ldirish, nomusga tegish, tan jarohati

¹ Qarang: *Аванесов Г. А. Криминология и социальная профилактика.* – М., 1999. – С. 226–230.

² Qarang: *Антонян Ю. М. Преступность и психические аномалии.* – М., 1990. – С. 67.

yetkazish) va bezorilik jinoyatlari sodir etilgan. Masalan, aqli raso deb tan olingan va odam o'ldirish, nomusga tegish, tan jarohati yetkazish jinoyatlarini sodir etgan voyaga yetmaganlar sud-psixiatriya ekspertizasidan o'tkazilganda ularning har besh nafaridan uch nafarida aqli raso bo'lgan holda o'z jinoiy qilmishlariga yo'l ochuvchi turli anomaliya holatlari borligi aniqlangan. Ichki ishlar organlarining tegishli xizmat sohalari hisobida turgan voyaga yetmaganlar sodir yetgan huquqbuzarliklarning¹ 23–43 % ini ruhiyatida turli darajadagi ruhiy kamchiliklar mavjud bo'lgan yoshlar amalga oshirganlar. Jismoniy kuch ishlatish orqali og'ir turdagi jinoyat² sodir etganlarning umumiy miqdorida anomaliya holatlarining mavjudligi tahlil etilganda 33 % shaxslarda anomaliya holatlari, 19 % da markaziy asab tizimining organik jarohati, 18 % da bosh miya jarohati, 17 % da surunkali alkogolizm alomatlarining mavjudligi aniqlangan³.

Shu ma'noda, aksariyat jinoyatchi shaxslarning xulqida janjal-kashlik, tez ta'sirlanish, salbiy mayllarning o'z-o'zidan paydo bo'lishi, o'z xulqini ijobiy qadriyatlar va motivatsiyalar bilan boshqarish mexanizmining sustligini kuzatish mumkin. Mazkur axloqiy ko'rinishlarning bari genetik anomaliyalar – Klayn Felter sindromi (ortiqcha X-xromosoma – 47/XXY sindrom yoki ortiqcha Y-xromosoma – 47/XYY sindrom) deb nomlanadi. Bunda ortiqcha X-xromosoma haddan tashqari tajovuzkorlik bilan, ortiqcha Y-xromosoma esa maqsad

¹ Huquqbuzarlik – jamiyatda o'rnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish. O'z xususiyatlariga ko'ra huquqbuzarlik – jinoyat, nojuya harakat, intizomni buzish shaklida bo'ladi. Ko'p hollarda huquqbuzarlik qonunbuzarlik so'zi bilan hamohang bayon etiladi. Barcha huquqbuzarliklar jinoyat emas. Shu bilan birga, qonunbuzarliklarning barchasi ham jinoyat bo'lmasligi mumkin. Jinoyat deb aytish uchun uning o'ziga xos belgilari bo'lishi zarur // Юридик энциклопедия / Проф. У.Таджихановнинг умумий тахрири остида. – Т., 2001. – Б. 652.

² O'zR JKning 14-moddasiga asosan, JK bilan taqiqlangan aybli, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb hisoblanadi. Jinoyat boshqa qoidabuzarliklardan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qilmishning ijtimoiy xavfliligidir. Chunki jinoyat natijasida jamiyat va shaxs uchun ham moddiy, ham ma'naviy zarar yetkaziladi. Shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoiy oqibatda aks etadi // Юридик энциклопедия / Проф. У.Таджихановнинг умумий тахрири остида. – Т., 2001. – Б. 156.

³ Криминология: Дарслик / Проф. З.С.Зариповнинг умумий тахрири остида. – Т., 2007. – Б. 91.

qo'yish va unga erishish sohasidagi og'ish (anomaliya)lar, xulqning irodaviy boshqaruvidagi buzilishlar bilan izohlanadi¹.

Hozirgi genetikaning yutuqlari individ psixikasining faqat «muhit» bilan bog'liqligi haqidagi ilgari shakllangan tasavvurlarga o'zgartishlar kiritmoqda. Biologik va ijtimoiy jihatlar inson xulqining murakkab tizimli bioijtimoiy omilini hosil qiladi.

Shunday qilib, inson xulqi yagona bioijtimoiy omil bilan bog'liqdir. Biologik jihatdan meros sifatida olingan inson xislatlari muayyan ijtimoiy sharoitlarda uning ruhiy xislatlari rivojlanishi uchun shart-sharoit hisoblanadi.

Har bir jinoyat g'ayriijtimoiy yo'nalishdagi boshqaruv mexanizmlarga ega xulq natijasidir. Xo'sh, bu subyektiv ruhiy omil jinoyatni keltirib chiqarishga sabab bo'ladimi?

Albatta, ruhiy omillar jinoyat sodir etilishida birinchi o'ringa chiqadi va bu ularning birinchi sababi ekanligi xususidagi fikrni yuzaga keltiradi. Aslida, ruhiy omillarning o'zi jinoyatchi shaxsi shakllanishining haqiqiy sharoitlarida yuzaga keladi.

Inson xulqida tashqi omillar tizimi ichki shart-sharoitlar tizimi bilan belgilanadi. Shu bois har bir jinoyatda obyektiv va subyektiv omillarning birligi ko'rinadi. Hech bir tashqi omil ham, hech bir ichki holat ham o'z-o'zicha axloqiy akti yuzaga keltirmaydi.

Shu ma'noda, aksariyat jinoyatchilarda o'z-o'zidan yuzaga keladigan mayllarning tasodifiy vaziyatlarga bog'liqligi xosdir. Shaxsning o'zini o'zi boshqarish tizimining tarqoqligi aksariyat jinoyatchilarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy psixologik jihatlardan biridir. Jinoyatchilarning ayrim xudbinona intilishlari g'ayriijtimoiy tus olganda ularning axloqiy tizimini ong osti mayllari darajasida boshqaradi.

Yaqin o'tmishda bo'lgan freydizmning asossiz tanqid qilinishi bizda «ong osti» tushunchasiga salbiy munosabatni yuzaga keltirdi. Hozirgi ilmiy psixologiya «ong osti omilini» «o'z» o'rniga qaytardi.

Biroq «ong osti omilining taqiqlanganligi» fikri hali bizning huquqshunoslikda hukmronlik qilishda davom etmoqda. Huquqshunoslik dastlabki bosqichlarida faqat ongga asoslanadi. Biroq, ushbu cheklangan konsepsiya asosida shaxsning aksariyat vaziyat va impulslar bilan bog'liq harakatlarining ma'nosi va g'ayriqonuniy mohiyatini tushunib bo'lmaydi. Garchi ushbu harakatlar mexanizmini ifodalash uchun soxta

¹ Qarang: *Еникеев М.И.* Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 55.

ilmiy surrogat – «motivsiz jinoyat» tushunchasi o‘ylab topilgan bo‘lsa-da, bu vaziyatdan chiqish yo‘li emas, chunki sababsiz hodisalar sodir bo‘lmaydi.

Ruhiy boshqaruvlarning ong osti mexanizmlari barcha maqsadli harakatlarda, axloqiy qarashlarning keng miqyosli tizimida namoyon bo‘ladi. Ong darajasi qanchalik past bo‘lsa (aksariyat jinoyatchilarga ana shu belgi xos), xulqni tartibga solishning ong osti mexanizmlari shunchalik katta rol o‘ynaydi.

Insonning asosiy axloqiy fondi umum qabul qilgan me‘yorlarga aylanib ulgurgan. Muayyan shaxs xulqining mustahkamlangan, umumlashgan usullari uning tabiatiga xos xislatlardir.

Ijtimoiylashgan shaxs barcha vaziyat va sharoitlarda barqaror va yaxlitdir. Jinoyatchi shaxs esa vaziyatga tobedir. Shu bilan birga, ashaddiy jinoyatchilarga xos barqaror g‘ayriijtimoiy yo‘nalganlik ularda tegishli ustunlik qiluvchi kriminogen motivlar, jamiyat uchun xavfli anglangan, ularning hayoti va faoliyatidagi boshqa barcha ko‘rinishlarni o‘ziga bo‘ysundiruvchi intilishlar borligidan dalolat beradi.

O‘z navbatida, shaxs, o‘zining ruhiy xislatlariga ko‘ra jinoyatchining ijtimoiy rolga muqarrar mahkum etilishi mumkin emas. Biroq, har bir jinoyatda uning subyektiv tomoni sifatida jinoyatchi shaxsning ruhiy holatlari doimo namoyon bo‘ladi.

Jinoyatchilar bir-birlaridan hamda ijtimoiy hayotga moslashgan, qonunga itoatkor odamlardan «jinoiy jihatlari» bilan emas, balki hayoti va faoliyatining turli sharoitlarida shakllangan fe‘li-atvoriga xos salbiy jihatlari bilan farq qiladilar.

«Jinoiy ruhiyat» ham, «jinoiy vorisiylik» ham mavjud emas. Ayni vaqtda ruhiyat ham, uning tabiiy shart-sharoitlari ham har qanday axloqiy aktga, jumladan g‘ayriqonuniy harakatlarga «daxldordir».

Ijtimoiy qarashlari qat’iy bo‘lmagan insonda hatto uning tabiiy mayllari ham g‘ayriijtimoiy axloq shakllarida, ya’ni jinsiy instinkt – nomusga tegishda; faol mudofaa refleksi – shaxsga tajovuz qilishda; o‘zini saqlash instinkti – dezertirlikda namoyon bo‘lishi mumkin. Huquqiy belgilariga ko‘ra bir xil jinoiy qilmish turli ruhiy omillardan kelib chiqishi mumkin. Masalan, o‘g‘rilik jinoyati aybdorning shaxsiy yo‘nalishi bilan ham, irodasining sustligi va ishonuvchanligi bilan ham, patologik xususiyati bilan ham sodir etilishi mumkin.

Insonning jinoiy qilmishida namoyon bo‘ladigan shaxsiy xislatlari «huquqiy ongdagi qandaydir umumiy nuqsonlar»dan emas, balki aniq


axloqiy-psixologik qusurlari (baxillik, shafqatsizlik, ijtimoiy negativizm)dan dalolat beradi.

Rus olimi A. R. Ratinovning o‘tkazgan tadqiqotida jinoyatchilar va qonunga itoatkor fuqarolar o‘rtasidagi jiddiy psixologik farqlar borligi kuzatilgan. Ya’ni shkalali tahlilda tekshiriluvchilarning qonunga itoatkor guruhi barcha asosiy qadriyatlarga ijtimoiy-ijobiy munosabatini, o‘z hayotining mazmunini baholashi bo‘yicha jinoyatchilardan ancha ustun ekanligi ma’lum bo‘lgan. Jinoyatchilar bilan qonunga itoatkor shaxslar o‘rtasidagi farqlar ijtimoiy muhit, faoliyat, badiiy zavq, nikoh, sevgi, farzandlar, oila kabi qadriyatlarda yorqin ko‘rinadi¹.

Ayrim huquqshunoslar aksariyat jinoyatlarni o‘z-o‘zidan jinoyatni keltirib chiqaradigan, uning amalga oshishi uchun sharoit yaratadigan kriminogen vaziyat bilan bog‘laydilar.

Kriminogen vaziyat – bu mazmun bo‘yicha jinoiy niyatning, jinoyat sodir qilish maqsadining shakllanishiga ijobiy ta’sir qiluvchi jinoiy natijaga erishish uchun qulay hisoblangan, ya’ni jinoyat sodir etishga ko‘maklashuvchi vaziyatdir. Shuni qayd etish lozimki, har qanday kriminogen vaziyat o‘z holicha mustaqil holda shaxsni jinoyat sodir etishga olib kelmaydi.

Jinoyat sodir etish vaqtidagi kriminogen vaziyat bu shaxsning muhit bilan aloqasining alohida darajasi hisoblanadi. Bu aloqada salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxsdagi jinoyat sodir etishga moyilligi kriminogen vaziyat ta’sirida muayyan xatti-harakatga aylanadi. Aniq hayotiy vaziyatning shaxs muayyan jinoyat sodir etishiga ta’siri quyidagi tasvirga ega²:



¹ Qarang: Ратинов А. Р. Судебная психология для следователей. – М., 1987. – С. 59.

² Qarang: Зарипов З.С., Исмаилов И. Криминология. – Т., 1996. – Б. 155–156.

Jinoyatlar birdan yuzaga kelgan kriminogen vaziyatlar tufayli emas, balki insonning muayyan barqaror shaxsiy xislatlari va qadriyatlarini sababli sodir etiladi.

Qonunga itoat qiladigan va o'zini o'zi yuksak darajada boshqara oladigan halol inson uchun «jinoiy» vaziyatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Vaziyat o'z-o'zicha jinoyatni keltirib chiqara olmaydi, u faqat g'ayriijtimoiy fe'lga ega bo'lgan shaxsning muayyan qarashlari va maqsadlarini amalga oshirishi uchun mos bo'lishi mumkin, xolos.

Har bir insonda ijobiy xulq mavjud bo'lib, bu xulq anglangan bo'lsa hamda qarorni erkin, to'g'ri qabul qilsa, vaziyatning quliga aylanmaydi, albatta.

Biroq, inson xulqining ruhiy boshqaruv darajasi qanchalik past bo'lsa, uning xulqida vaziyat bilan bog'liq holatlar shunchalik katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ko'pchilik jinoyatchilarga haqiqatan ham xulqining vaziyat bilan bog'liqligi xos bo'lib, bu uning fe'lga xos jihatdir.

Inson o'zi uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan narsa, hodisa sababligina faol harakat qiladi. Qadriyatlar tizimi individual bo'lib, u insonning ruhiy faolligini belgilab beradi: bir kishi uchun hayotiy muhim bo'lgan narsa, boshqa shaxs uchun unchalik muhim bo'lmasligi mumkin.

Jinoyatchining xulqi ham qadriyatlar asosida yo'nalgan. Ammo jinoyatchining qadriyatlari buzilgan, ular ijtimoiy qadriyatlarning umum e'tirof etgan tizimga mos kelmaydi.

Ba'zi odamlar notanish insonni o'lim xavfidan o'ylab o'tirmay qutqaradilar, boshqalar esa o'ylab o'tirmay pichoqni qarindoshiga sanchadilar – hammasi u yoki bu odamlar uchun hayotning qaysi tomonlari muhim ekanligiga bog'liq. Ijtimoiy jihatdan ijobiy qadriyatlar tizimi tug'ma emas, u jamiyatdagi tarbiya jarayonida shakllanadi.

Jinoyatchining ijtimoiy-ijobiy qadriyatlarga salbiy munosabati doimo jamiyatdagi tarbiya nuqsonlarining natijasidir.

Ijtimoiylashgan shaxsning eng asosiy ehtiyoji ijtimoiy-ijobiy qadriyatlarni amalga oshirish ehtiyojidir. Ashaddiy jinoyatchida bunday ehtiyojning yo'qligi uning asosiy xususiyatidir.

Jinoyatchining ijtimoiy xavfliligi uning alohida «jinoiy» qadriyatlari va ehtiyojlarida emas, balki ijtimoiy qadriyatlarni tan olmasligidadir. Jinoyatchining yo'nalishlarini aniqlash jinoyatchi rad etayotgan ijtimoiy qadriyatlarni aniqlashdir.

Jinoyatchilar odatda o'zini oqlash uchun motivlar, bahonalar tizimini keltiradilar va jinoiy maqsadlariga erishishlariga xalal beruvchi qadriyat-

larni rad etadilar. O‘z harakatlarini oqlash asosida javobgarlikdan bo‘yin tovlash aksariyat jinoyatchilarga xos xususiyatlardan biridir.

2. Yuridik psixologiyada «jinoyatchi shaxsi» tushunchasi

«Jinoyatchi shaxsi» ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, bir qator fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Uni nafaqat psixologlar, balki yuristlar ham predmet obyekti sifatida o‘rganadilar. Jinoyatchi shaxs psixologiyasi haqida bir qator psixolog (M.I.Yenikeyev, O.L. Kochetov, Y.V. Chufarovskiy, Y.L. Vasilyev va boshq.) olimlar ilmiy adabiyotlarda o‘z fikrlarini bildirganlar.

Yuridik psixologiyada ham ushbu muammo markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. **Jinoyatchi shaxsi** – jinoyatchining asosiy intellektual-ma‘naviy xislatlari, ruhiy va jismoniy holatining majmuidir. Jinoyatchi shaxsini o‘rganish shaxs sodir etgan qilmishni malakali baholashni, jumladan individual bashorat qilishni ta‘minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jinoyatchi shaxsi to‘g‘risida har tomonlama va chuqur tasavvurga ega bo‘lish uchun tahlil nafaqat jinoyat sodir etilgan vaqtni va uni tekshirish davrini, balki tekshiriluvchining rivojlanishini ham qamrab olish kerak. Bunda jinoyat sodir etilishining yashirin motivlarini ham, psixologik-psixiatrik xususiyatlarini ham baravar inobatga olish lozim. Jinoyatchining shaxsi va jinoyat o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi bois, kriminalistik ish doirasida jinoyatchining shaxsi to‘g‘risida tegishli ma‘lumotlarni olish jinoyatni tergov qilish faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki O‘zR JK 54-moddasiga binoan, sud jazo tayinlashda jinoyatchi shaxsini boshqa holatlar bilan bir qatorda inobatga olishi lozim¹.

Jinoyatchi shaxsning ichki dunyosini anglash uchun uning hayotda tutgan o‘rni, atrof muhitdagi voqelik, insonlar, jamiyat, davlat, qonun, mehnat va hokazolarga munosabatini bilish lozim. Buni esa uning ehtiyojlari, ma‘naviy yo‘nalishlari va faoliyatining motivlarini o‘rganmasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

Ya‘ni, har qanday jinoiy faoliyat ko‘p jihatdan jinoyatchining o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq. Jinoyat-protsessual qonuni isbotlash predmetini belgilashda ayblanuvchining javobgarlik darajasi va xususiyatiga ta‘sir etuvchi holatlarni, shuningdek,

¹ Юридик энциклопедия / Проф. У.Таджихановнинг умумий тахририда. – Т., 2001. – Б. 165.

ayblanuvchi shaxsini ifodalaydigan boshqa holatlarni aniqlashni talab etadi. Shu bois jinoyatchi shaxsining aniqlanishi lozim bo'lgan belgilarini ishlab chiqish yuridik psixologiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Jinoyatchi shaxsini psixologik jihatdan o'rganishda uni ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqadorlikda tahlil qilish kerak bo'ladi. Chunki jinoiy xulqni shaxs yoki muhit emas, balki aynan ularning o'zaro aloqasi yuzaga keltiradi. Ijtimoiy muhitning jinoiy xulqqa ta'siri murakkab xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlari jinoyatning modellashtiriladigan mexanizmi shakllanishiga tashqi ta'sir ko'rsatadi, ayni vaqtda, modellashtiriladigan jinoyatchining psixologik xususiyatlari uning go'yoki ichki mazmunini tashkil etib, uni shakllantiradi.

Jinoyatchi shaxsi yuridik psixologiya uchun ham, kriminologiya uchun ham alohida qiziqish uyg'otadi, zero u muayyan tashqi shart-sharoitlarni oddiygina aks ettirib qolmay, balki o'zaro aloqaning faol tomonini tashkil etadi.

Binobarin kriminologiyada «jinoyatchi» va «jinoyatchining shaxsi» kabi atamalar kategoriya, ya'ni har biri mustaqil tushuncha sifatida talqin qilinadi. «Jinoyatchi shaxsi» tushunchasi o'ziga xos ravishda jinoyatchining ijtimoiy belgilarini ifodalaydi, ya'ni shaxsning «ijtimoiy qiyofasi»ni ochib berishga xizmat qiladi¹.

Ijtimoiy shart-sharoitlarning g'ayriijtimoiy xulq bilan aloqasi murakkabdir, buning ustiga doimo ijtimoiy shart-sharoitlar jinoyatda muayyan shaxs orqali o'zgargan holda namoyon bo'ladi. Bir qator hollarda ular uzoq vaqt ijtimoiy o'zaro munosabatda bo'lish jarayonida shaxsda nisbatan barqaror iz qoldiradi va ayrim jinoiy harakatlarni emas, balki barqaror g'ayriqonuniy yo'nalishni yuzaga keltiradi. Bu yo'nalish jinoyatchiliklar majmuida ko'rinadi.

G'ayriijtimoiy xulqning qonuniy xatti-harakatdan farqi qadriyatlar, qarashlar va ijtimoiy maqsadlar tizimidan, ya'ni ongning mazmun bilan bog'liq tomonidan kelib chiqadi. Umum e'tirof etishicha, g'ayriijtimoiy xulqning bevosita sabablarini aynan shaxs va ijtimoiy muhitning qadriyatli-normativ tizimlaridan, ularning o'zaro munosabatidan izlash kerak².

¹ Qarang: Криминология: Дарслик / Проф. З.С.Зариповнинг умумий тахрири остида. – Т., 2007. – Б. 84.

² Qarang: Васильев В. Л. Юридическая психология. – М., 1999. – С. 222–224.

Yuridik psixologiyaga oid adabiyotlarni tahlil qilish ham jinoyatchi psixologiyasini o'rganish masalalariga katta e'tibor qaratilgani va qaratilayotganidan dalolat beradi

Shunga qaramay, amaliyotning ko'rsatishicha, jinoyatchilarning psixologik xususiyatlari borasida amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar jinoiy faoliyatning manzarasini yetarlicha to'liq aks ettira olmayapti, ya'ni ko'pgina savollar (masalalar) «kadr ortida» qolib ketmoqda. Masalan, jinoyatni sodir etish usulini tanlashda, jinoyatchi ko'p hollarda nafaqat psixologik xususiyatlarni, balki ruhiy holatlarni ham hisobga oladi. Ruhiy holat esa, ma'lumki, psixologiyaning predmetini tashkil etadi.

Shaxsni psixologik tiplashtirish mazkur hodisani bilish usullaridan biridir, ammo muayyan jinoyatchilarning shaxslarini o'rganishda olingan ma'lumotlarni tegishlicha nazariy asoslash zarur.

Jinoyatchilikni ijtimoiy determinatsiyalash mexanizmi shaxsni o'rganishda ikki xil yondashuvni – *ijtimoiy-tipologik* va *ijtimoiy-rolli* yondashuvlarni birlashtirishni talab qiladi. *Ijtimoiy-tipologik yondashuvda* avvalo shaxsning ijtimoiy o'rni (pozitsiyasi), unga mos ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar, ularning idrok etilishi va bajarilishi tahlil qilinadi. Ikkinchi holda shaxsga faol arbob, ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatida qaraladi. *Ijtimoiy-rolli yondashuv* obyektiv jihatdan kriminogen xususiyatga ega bo'lgan pozitsiya va funksiyalarni ko'rishga imkon beradi, chunki ular shaxs zimmasiga amaldagi qonunlarga zid majburiyatlarni yuklaydi va shu bois u ushbu majburiyatlarni faqat jinoyatchilik sodir etib bajarishi mumkin bo'ladi, shaxsga bir-birini istisno etuvchi talablar qo'yadi, bu esa ijtimoiy-huquqiy nizolarni keltirib chiqaradi, shaxsni uning uchun zarur bo'lgan ijobiy ta'sirlar majmui amal qiladigan doiradan chiqarib yuboradi.

Yuridik psixologiyadagi asosiy masalalardan biri, avvalo, shaxsning motivatsion sohasi tashqi muhitdagi muayyan omillar bilan o'zaro aloqadorlikda ushbu shaxs uchun kriminogen vaziyat yaratishi mumkin bo'lgan ichki shaxsiy shart-sharoitlarni ajratib olishdir.

Har bir insonga o'z ehtiyojlarini qondirish, shaxsiy va umumiy maqsadlarga erishish uchun boshqa odamlar bilan birlashishga intilish xosdir. Qonunga itoatkor odamlar, qonunbuzarlardan farqli ravishda, noqulay vaziyatlarda guruhdan chiqish, o'zlarini qanoatlantirmaydigan aloqadan qochishga qodirdirlar yoxud bunday holatlarga nisbatan o'z pozitsiyasini o'zgartirishga harakat qiladilar.

Amaliyotning ko'rsatishicha, jinoyatlarning har xil (g'arazli, zo'ravonlikka asoslangan, ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan) turlariga jinoyatchilarning motivatsion sohasida bo'ladigan turli buzilishlar xosdir.

Shaxsning aynan jinoiy harakatni sodir etishi ham tashqi vaziyat (obyektiv omil), ham ichki (subyektiv omil) maqsadlar bilan bog'liq.

Jinoyatchilik sabablari majmuidagi muhim tarkibiy qismlardan biri iste'molning aholining to'lovga qobiliyatli talabidan orqada qolishi bilan bog'liq bo'lgan ana shu iste'mol sohasi ishtirokchilari bo'lmish odamlar talablarining qanoatlantirilmagligidir. Hozirgi kunda moddiy-tovar boyliklar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi uzilish ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotgani hammaga ma'lum. Bu o'rinda jinoiy xulq shakllanishining kamida ikki variantini farqlash lozim.

U biz yuqorida ko'rib chiqqan mehnat va taqsimot sohalaridagi ijtimoiy ziddiyatning ta'siriga o'xshash tarzda yuz beradi, ya'ni iste'mol tovarlari va xizmatlarning taqchilligi aholining psixologiyasiga salbiy ta'sir etadi va noadekvat (nomos) ijtimoiy qarashlarni yuzaga keltiradi, bu esa aholining jinoiy faollik darajasida ko'rinadi. Xizmat (ish) o'rinlarining yetishmovchiligi jinoyatchilikning ortib borishiga olib keladi. Maishiy xizmatlarning yaxshi rivojlanmaganligi odamlar o'rtasidagi munosabatlarda keskinlikning ortishiga, nizoli ijtimoiy-psixologik muhit shakllanishiga olib keladi. Tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, maishiy xizmatlar kamroq rivojlangan hududlarda ushbu sohadagi nizolar boshqa joydagilardan ko'proq bo'ladi¹.

Ta'kidlash lozimki, taqchilik jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishga shart-sharoit yaratuvchi omillardan biri hisoblanadi. Iste'mol sohasidagi taqchilik buyurtma qotilliklar, terrorchilik harakatlari, firibgarlik, odam savdosi, poraxo'rlik, korrupsiya, narkobizneslarning tarqalishiga sharoit yaratadi².

Shu ma'noda jinoyatchi shaxsi – individ sodir etgan muayyan turdagi jinoiy qilmishni keltirib chiqargan uning tipologik xislatlari majmui.

¹ Алимов С., Антонов-Романовский Г. В. Криминологическое значение изучения конфликтов в основных сферах жизнедеятельности // Актуальные проблемы уголовного права и криминологии. – М., 1999. – С. 61–67.

² Чуфаровский Ю. В. Юридическая психология. – М., 2003. – С. 120.

Jinoyat sodir etgan shaxsni o'rganishda unda ustunlik qiluvchi, uning qadriyatlari, hayot-faoliyatining mazmuni, mayllari va qarashlarini aniqlash zarur.

Chunki, jinoyatchilar o'zlarining g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarining asl mohiyatini ko'proq yoki kamroq darajada anglagan holda, o'zlarini oqlaydigan motivlar, bahonalar tizimini axtaradilar va jinoiy maqsadlariga erishishlariga xalal beruvchi qadriyatlarni rad etadilar. O'z harakatlarini oqlash maqsadida javobgarlikdan bo'yin tovlash, o'zini ruhiy jihatdan himoyalash aksariyat jinoyatchilarga xos bo'lgan psixologik xususiyatdir.

Oldindan rejalashtirilgan va sodir etilgan jinoyatni oqlash turli usullar bilan amalga oshiriladi:

- jinoyat qurbonining aybdorligini bo'rttirib ko'rsatish;
- ijtimoiy va huquqiy normalarni g'ayriijtimoiy guruhlar (banda, o'g'rilar to'dasi)ning qoidalariga qarshi qo'yib qadrsizlantirish;
- javobgarlikni boshqalarning gardaniga qo'yish, yuzaga kelgan vaziyat bilan o'zini oqlash va sh.k.

Ijtimoiy qadriyatlardan begonalashgani bois jinoyatchi ruhiy dekompensatsiyalar (ichki ruhiy muvozanat hosil qiluvchi soxta «o'rinbosar»lardan foydalanish) asosida o'zining jinoiy xulqi sabablarini ichki salbiy xislatlarida emas, balki tashqi vaziyatlar, boshqa odamlarning xatti-harakatlaridan axtaradi.

Jinoyat motivlari jinoyatchining shaxsiy salbiy xislatlari – g'araz, kek saqlash, rashk, shuhratparastlik, yolg'on qarashlar tizimi (burch, o'rtoqlik kabi xislatlarni noto'g'ri tushunish) orqali shakllanadi.

Aksariyat jinoyatchilar ko'p narsaga da'vogar bo'ladilar, ammo buni amalga oshirish imkoniyatlari juda kam bo'ladi. Ushbu holat deyarli barcha jinoyatchilarning ichki shaxsiy nizolari asosida yuzaga keladi.

Ko'pchilik holatlarda jinoyatchi shaxslarning qadriyatlar va normalar tizimi buzilganini, ya'ni voqelikni noto'g'ri idrok etishini kuzatish mumkin. Ularning xulqini bir daqiqalik, muayyan vaziyat bilan bog'liq mayllar, eng quyi darajadagi ehtiyojlar egallab turadi.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning ehtiyojlari asosan quyidagi xususiyatlarga ega:

- ehtiyojlarning torligi, cheklanganligi, moddiy-utilitar xarakterga ega ekanligi;
- ijtimoiy zarur ehtiyojlarning (mehnat, axloqiy xulqqa bo'lgan ehtiyojlarning) rivojlanmaganligi;

– shakli buzilgan, o‘rtacha standartdan va qondirishning qonuniy imkoniyatlaridan ortiq bo‘lgan ehtiyojlar;

– buzilgan ehtiyojlar.

Shu ma‘noda aksariyat huquqbuzar shaxslarda iste‘molchilik gipertrofiyasi mavjuddir. *Iste‘molchilik gipertrofiyasi* deganda talon-torajlik, poraxo‘rlik, o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilikning asosiy shart-sharoitlaridan birini tushunish mumkin. Aksariyat odamlarning ijtimoiy buzilishi ularning yaratuvchilik xislatlarining buyumlarga egalik borasida ustunlik qiluvchi his-tuyg‘ulari tomonidan siqib chiqarilishida ko‘rinadi. Ularda «jamg‘arish instinkti» chegaraga ega bo‘lmaydi. Falokat to‘planadigan buyumlarda emas, balki iste‘molchi odam ishlab chiqaruvchi shaxs sifatida passiv bo‘lib qolishi, g‘ayriijtimoiy, so‘ngra esa odatda jamiyatga qarshi (firibgar, poraxo‘r, mansabni suiiste‘mol qiluvchi) bo‘lib qolishidadir.

Ba‘zan salbiy xulqning muayyan shakllari shaxsning dastlabki ehtiyojlari bilan bog‘liq shart-sharoitlardan uzilgan holda yakka-yu yagona manfaatga aylanadi. Fitna, g‘iybat, tuhmat, boshqalarga ko‘ngilsizliklar yetkazish, janjallar – ko‘pincha shaxsning o‘zini qaror toptirish va ijtimoiy faolligini namoyon etishning buzilgan shakli sifatida yuzaga chiqadi.

Biroq, hattoki bir qarashda bema‘ni tuyulgan jinoyatlar ham jinoyatchi uchun muayyan ma‘noga, tegishli shaxsiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Har qanday jinoyat jinoyatchi shaxsining ehtiyoji, manfaat yoki qarashlari bilan muayyan tarzda bog‘liq bo‘ladi.

Ba‘zi jinoyatlar odatdagi harakatlarning amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Ular ong osti va yarim avtomat xususiyatiga ega bo‘lib, javobgarlikni bekor qilmaydi, zero shakllanishi jarayonida to‘liq ongli nazorat bosqichidan o‘tgan bo‘ladi.

Aksariyat jinoyatchilarga o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan mayllar, ularning tasodifiy vaziyatlarga bog‘liqligi xosdir. Bu esa ularda o‘zini o‘zi boshqarish va uyushgan qadriyatlar tizimi yo‘qligidan dalolat beradi.

Har bir jinoyat nihoyatda individual va ko‘p omilli hodisadir. Jinoiy xulq genezisini nazariy qamrab olish uchun jinoiy xulqning eng ko‘p tarqalgan tiplarini tahlil qilish zarur. Jinoyatchi xulqining mexanizmlarini tushunish uchun «jinoyatchi shaxsining tipi» tushunchasidan kelib chiqish zarur.

Jinoyatchi shaxsining tipi – shaxsning unga xos bo‘lgan jinoiy xulq usullari bilan bog‘liq barqaror jinoiy yo‘nalganligi. Jinoyatchi shaxsining

tuzilishi, albatta, jinoyatning dastlabki sababi emas. Uning dastlabki sababini jinoyatchining shakllanish shart-sharoitlari tashkil qiladi.

3. Jinoyatchi shaxslarning tipologiyasi

Jinoyatchi shaxslarning tipologiyasida uch darajani farqlash lozim:

- 1) jinoyatchining umumiy tipi;
- 2) muayyan toifadagi jinoyatchi shaxs;
- 3) muayyan turdagi jinoyatchi shaxs. Bu darajalar bir-biri bilan umumiylik, maxsuslik va yakkalik kabi munosabatda bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiy o'zagini uning yo'nalganligi, hayotiy munosabatlari tizimi, motivli-qadriyatli mo'ljallari tashkil etgani bois, bu o'zakning o'zi jinoyatchi shaxsning tipini belgilashi lozim.

Jinoyatchidagi tipik xususiyatning mezoni, avvalo, uning ijtimoiy xavflilik darajasi, g'ayriijtimoiy buzilganlik me'yorida.

Ushbu mezonga ko'ra jinoyatchilarning uch tipini ajratish mumkin:

- g'ayriijtimoiy (ashaddiy);
- noijtimoiy (kamroq ashaddiy);
- ruhiy boshqaruv nuqsonlari bo'lgan jinoyatchi shaxs tipi (tasodifiy).

Ashaddiy jinoyatchilar qadriyatlari va mo'ljallarining yo'nalishi mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi.

G'ayriijtimoiy g'arazli yo'nalishdagi jinoyatchilar. Jinoyatchilarning bu guruhi jamiyatning moddiy boyliklariga, sarflangan mehnat miqdori va sifatiga ko'ra taqsimlanishiga tajovuz qiladi. Bunday jinoyatchilarni quyidagi to'rtta kichik guruhga ajratish mumkin:

- 1) xo'jalik sohasida jinoyat sodir etuvchi (tovarlarni soxtalashtirish, soliq to'lashdan, litsenziya olishdan bo'yin tovlash va h.k.) jinoyatchilar;
- 2) xizmat vazifasini suiiste'mol qiluvchi (xizmat lavozimini suiiste'mol qilish, mijozlarni aldash, pora so'rash orqali talon-toroj qilishlar) jinoyatchilar;
- 3) o'g'rilar – mulkni yashirincha talon-toroj qilish bilan bog'liq tajovuzlar qiluvchi shaxslar (o'g'riliklar);
- 4) firibgarlar (hujjatlarni qalbakilashtirish, aldab tovlamachilik qilish va h.k.).

G'ayriijtimoiy g'araz va zo'ravonlik yo'nalishidagi jinoyatchilar – shaxsga nisbatan zo'ravonlik qilish bilan g'arazli tajovuzlar qiluvchi shaxslar (zo'rlik bilan tovlamachilik qilish, talonchilik, bosqinchilik hujumlari va hokazo).

Insoniylikka zid, tajovuzkorona yo'nalishdagi jinoyatchilar – boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va shaxsiy qadr-qimmatiga mensimay munosabatda bo'ladigan shaxslar. Bu guruhda ham quyidagi to'rtta kichik guruh mavjud:

- bezorilar;
- ashaddiy bezorilar;
- haqorat va tuhmat orqali shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazuvchi shaxslar;
- shaxsga qarshi tajovuzkorona zo'ravonlik harakatlari – qotillik, nomusga tegish, badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar.

O'z navbatida, shuni ta'kidlash lozimki, yuridik psixologiyaning alohida bo'limida ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatchilikning psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi, bunda maishiy va kasbiy ehtiyotsizlik tadqiq etiladi.

Texnikaning jadal rivojlanishi va hayotning turli sohalariga kuchli energetik manbalarning kirib borishi bilan ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan jinoyatlarning ijtimoiy xavfi keskin oshganligini ko'rish mumkin. Shu sababli bunday jinoyatlarning psixologik mexanizmini ochib berish muhim vazifa bo'lib, ehtiyotsiz xatti-harakatlarni shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'lashga imkon beradi.

Garchi ehtiyotsizlikning psixologik manbaini tavsiflashda «e'tiborsizlik», «yengiltaklik» va «beparvolik» kabi iboralar ishlatilsada, biroq ularning yuzaga kelish mexanizmi hamon noma'lumdir. Shu bois, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladigan jinoyatlarning psixologik mexanizmini ochib berish, ehtiyotsiz xulqni subyektning ichki ruhiy olami va u asoslanadigan qadriyatlar tizimi bilan bog'lash muhimdir.

Ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etadigan jinoyatchilar tipini to'rt turga ajratish mumkin:

- beparvolik, harakatsizlik natijasida jinoyatga yo'l qo'yadigan shaxslar;
- o'ziga haddan tashqari ishonish natijasida jinoyat sodir etadigan shaxslar;
- kuchli ruhiy hayajon (affekt holati) natijasida va boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlariga javoban jinoyat sodir etadigan shaxslar;
- vaziyatga moslasha olmagan bo's jinoyat sodir etadigan shaxslar.

Qadriyatli yoʻnalishda nuqsonlari mavjud boʻlgan individual jinoyatchi shaxsni jinoiy guruh aʼzosi boʻlgan jinoyatchi shaxsdan farqlash lozim. Jinoiy guruh aʼzosi boʻlgan jinoyatchining muhim jinoiy belgisi uning guruhiy mavqei, jinoiy guruhdagi rolli funksiyasidir.

Jinoyatchi shaxsning tasnifi – «jinoiy-huquqiy» tasnif boʻlib, shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi tushunchasi bilan muvofiq kelishi kerak. Jinoyat qonunchilik normalarida ijtimoiy xavf, uning darajasiga aniq taʼrif berilgan. Jinoyatlar oʻz xususiyati va xavflilik darajasiga koʻra: *ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan; uncha ogʻir boʻlmagan; ogʻir va oʻta ogʻir* jinoyatlarga boʻlinadi.

Ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan koʻp muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan koʻp boʻlmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar qiradi.

Uncha ogʻir boʻlmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan koʻp boʻlmagan muddatga ozodlik mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Ogʻir jinoyatlarga qasdan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin oʻn yildan koʻp boʻlmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar qiradi.


Oʻta ogʻir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda oʻn yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar qiradi¹.

Jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi tavsifi sodir etilgan qilmishning koʻpligi, ularning shakl va turlari bilan bogʻliq emas. Bu jinoyatchi shaxsga tabaqalashgan holda yondashish imkoniyatini kamaytiradi.

Jinoyatning ogʻirligi bu oʻrinda shaxsning qanchalik chuqur jinoyilashganligi bilan bogʻlanmaydi. Baho qilmishni sodir etgan shaxsga emas, balki qilmishning oʻziga beriladi.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2008. – 15-м.

Ayni vaqtda jinoyatchining har bir tipi o'ziga xos «shaxs sxemasi» yo'nalishiga ega.



Shuningdek, jinoyatchi shaxs o'zining huquqiy ongi darajasi va jinoyat sodir etishga tayyorligi mezonlari bo'yicha ham tasniflanadi. Ushbu mezon bo'yicha quyidagi jinoiy tiplarni ajratish mumkin.

Jinoiy qilmishlarni majburan sodir etuvchi, eng zarur ehtiyojlarni qonuniy yo'llar bilan qondirib bo'lmaydigan hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy shart-sharoitlar qurboni bo'lgan shaxs tipi. Bunda jinoyatchi o'zini majburan yo'l qo'ygan xatti-harakati uchun qoralashi, ichki ziddiyat holatida bo'lishi mumkin.

Jinoyatni yuzaga kelgan vaziyatdagi vasvasa ta'sirida, uning uchun qimmatli bo'lgan natijaga, uning fikricha, hech qanday salbiy oqibatlarsiz erishish mumkin bo'lgan holatda jinoyat sodir etadigan shaxs tipi. Huquqiy ong darajasi, noijtimoiy xulq bu yerda birinchi holdagiga qaraganda ancha past.

Jinoiy qilmish sodir etishni doimo qonunga itoatkor xulqqa qaraganda afzalroq biladigan shaxs tipi. Bu jinoiy ta'sir yuqqan shaxs tipi.

Hayot va faoliyatning barqaror jinoiy obrazi shakllangan jinoyatchi shaxs tipi. Jinoiy qilmishlarni sodir etish o'z-o'zidan uning uchun ehtiyojga aylanadi. Bu – professional jinoyatchi tipi. Bunday jinoiy shaxs doimo jinoiy tajovuz predmetini izlash holatida bo'ladi. Uning jinoiy xatti-harakat usullari ishlab chiqilgan, zarur qurol va vositalari doimo yonida bo'ladi. Bu jinoyatchilarning ijtimoiy jihatdan eng xavfli tipi.

Impulsiv (g'ayriixtiyoriy) jinoyatchilar tipi. Ayrim hayotiy vaziyatlar ular uchun birdaniga, to'satdan noqonuniy xatti-harakatga undovchi hisoblanadi. Bunday tipdagilar asabiy-ruhiy zo'riqish kuchaygan sharoitda tezda «o'zidan ketadi», darhol tajovuz, g'azab, rashk, vaziyat bilan bog'liq nafrat holatiga kiradilar.

Bunday jinoiy tiplar, ayniqsa, alkogol va narkotik vositalardan mast hollarda o'zlarini namoyon etadilar. Ularning ijtimoiy xavfli xulqiga xos narsa ularda g'ayriijtimoiy xatti-harakat ko'rinishlarining shakllanganligi, ya'ni o'zini o'zi nazorat qilish darajasining pastligidir.

Shuningdek, jinoyat sodir etuvchi shaxslarning barqaror motivatsion yo'nalganligi ularning muhim tipologik xususiyati hisoblanadi. Shu asosga ko'ra, quyidagi jinoiy tiplarni ajratish mumkin:

1) axloqqa zid qarorlari ustunlik qiladigan jinoyatchilar;

2) barcha qulay sharoitlarda odatiy tusga kirgan jinoiy xatti-harakat motivlari ustunlik qiladigan jinoyatchilar;

3) muayyan hodisalar, muayyan guruh shaxslar, muayyan huquq bilan muhofaza etiladigan qadriyatlarga barqaror yomon munosabatda bo'lgan jinoyatchilar;

4) jinoiy xatti-harakati g'azablanish holati (disforiya), yuqori ruhiy hayajon (affektatsiya), jamiyatdan begonalashuv (autiklik), ijtimoiy begonalik hissi tufayli yuzaga keladigan jinoyatchilar.

5) o'ziga xos «majburiy» jinoyatchilar – jinoyatlarni ular go'yoki chorasiz vaziyatda, subyektiv talqin etiladigan zarurat orqasida sodir etadilar.

6) gedonistik (sodda-lazzatlanish) jinoyatchilarning jinoyatlari utilitar ehtiyojlari haddan tashqari ortib ketgan sharoitda ularni qonuniy yo'l bilan qondirish mumkin bo'lmaganida yuzaga keladi.

7) barqaror g'ayriaxloqiy mayllar, ijtimoiy salbiy ehtiros va intilishlarga ega bo'lgan maniyak jinoyatchilar. Ko'p hollarda ular alkogolizm va narkotiklarga bog'liqlikka, psixopatologik xususiyatlar va jinsiy buzuqlikka chalingan bo'ladilar.

Jinoyatchi shaxsining barcha og'ir motivatsion xususiyatlari ularning jinoiy xatti-harakatiga xos barqaror usullar, tegishli uquv va ko'nikmalari bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, shaxsning jinoiy xatti-harakati muayyan jinoiy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xususiyatlari tizimi orqali hosil bo'ladi:

– shaxsning jinoyatga berilganlik darajasi;

– asosan jinoiy harakatlari qaratilgan obyekt;

– jinoiy motivlarining ustunligi;

– jinoyat sodir etishning barqaror, yaxshi ishlangan usullari;

– ruhiy o'zini boshqarishning umumiy nuqsonlari (anomaliyalari).

Jinoiylashuvning ushbu barcha tarkibiy qismlari, garchi kelib chiqishi turlicha bo'lsa-da, o'zaro bog'liqdir. Individning jinoiy

harakatlari uchun asosiy turtki vazifasini umumijtimoiy (makromuhit) va mikromuhitdagi sharoitlar bajaradi. Mikromuhit sharoitlari orasida esa shaxsning jamiyatda tarbiya olayotgan dastlabki davrlaridagi jinoyatchilar muhiti, jinoiy submadaniyat eng katta ahamiyatga ega. Jinoyatchining jinoiy muhitga, jinoiy submadaniyatga «mosligi» ham uning muhim tipologik xususiyatlaridan biridir.

Jinoiy submadaniyat nafaqat jinoyatchilarning jinoiy jipsligi omili, balki jinoiy tajribani yangi avlodlarga berish, salbiy ijtimoiylashuv vositasi hamdir.

Yengish qiyin bo'lgan jinoiy submadaniyatning ijtimoiy xavfi jinoyatchilar muhitining jipsligida, jinoiy romantika muhitining yaratilishida bo'lib, u yoshlarning ijtimoiy beqaror qismini o'ziga tortadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jinoiy yo'nalganlik ijtimoiy boshqaruv va ijtimoiy nazoratdagi kamchiliklar, jinoiy tajovuz obyektlarining ko'payishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi jiddiy nuqsonlar, hokimiyat tepasidagi amaldorlarning korrupsiyaga berilganligi, umumijtimoiy va huquqiy ijtimoiylashuvning kamchiliklari bilan bog'liq. Barcha jinoiy tiplar jinoyatchilarning asosan uchta «klassik» tipi – *zo'ravonlik bilan, g'arazli niyatda* hamda *g'araz va zo'ravonlik bilan* jinoyat sodir etadigan shaxslar tiplariga mos tushadi. Ularda jinoyatchi shaxsining jinoiy qadriyatlari va axloqiy xususiyatlari birlashadi.

4. Alohida toifadagi jinoyatchilarning psixologik xususiyatlari

G'arazli jinoyatlarni sodir etishga moyil jinoyatchi shaxslar toifalari har xil bo'lib, ular safiga o'g'rilik, xo'jalik sohasida g'arazli jinoyatlarni sodir etuvchi jinoyatchilar va xizmat vazifalarini g'arazli niyatda suiiste'mol qiluvchi jinoyatchilar hamda talon-torojlik jinoyatlarini sodir etuvchi jinoyatchilarni kiritish mumkin¹.

O'g'rilik jinoyati (JKning 169-moddasi)ni sodir etuvchi shaxslar bir qator umumiy tomonlarga ega bo'lib, ular jinoyatchilarning ijtimoiy jihatdan eng tuban toifasiga kiradilar. Ularning jinoiy xatti-harakatlari boshqa toifadagi jinoyatchilarnikiga qaraganda ancha oldin yuzaga keladi.

¹ Qarang: *Еникеев М.И.* Юридическая психология. – СПб., 2005. – С. 80.

O'g'rilar katta jinoiy tajribaga, g'ayriijtimoiy xulqqa oid shakllangan qarashlar va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Ularning bu xulqi barqaror jinoiy yo'nalishga egaligi bilan ajralib turadi. O'g'rilar odatda bezori va mayxo'r bo'lib, ehtiyoj va manfaatlari nihoyatda cheklangan va sodda, ijtimoiy qadriyatlardan begona bo'lgan shaxslardir.

O'g'rilarning ijtimoiy nomosligi (dezadaptatsiyasi) odatda oilasi, mutaxassisligi, doimiy ishi va turar joyi yo'qligi, turli xil ruhiy anomaliyalari bilan chuqurlashadi. Ularning jinoiy xulqi ko'proq g'ayriijtimoiy turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqdir.

Jinoyatchi o'g'rining shaxsi odatda uning jinoyatchilar muhitiga barqaror kirishi bilan, ilk yoshidayoq oiladagi tarbiyasining nuqsonlari, asosiy ehtiyojlarining surunkali ravishda qondirilmasligi, doimo vaziyatga tobeligi bilan buzilganidir.

O'g'rilar o'zlarining psixologik xususiyatlariga ko'ra zo'ravon jinoyatchilarga yaqin turadilar. Ular moddiy muhitdagi to'siqlarni yengish tajribasiga ega bo'lib, talonchilik va bosqinchilik sodir etishga oson o'tadilar.

O'g'ri – qonundan vaqtincha chekingan inson emas, balki insofsiz, odatda oilada va mikromuhitda axloqiy me'yorlarni rad etish, muhtojlik, ijtimoiy rad etilish va ijtimoiy nazoratning past darajasi sharoitida shakllangan barqaror salbiy xislatlar tizimiga ega bo'lgan irodasi bo'sh shaxs.

Xo'jalik va xizmat sohalorida g'arazli niyatda jinoyat sodir etuvchi jinoyatchi shaxslar toifalarini esa alohida guruhga kiritish lozim. Ularga qo'shib yozish, aldash, nohaq ravishda olingan mukofotlar va shu kabilar orqali amalga oshiriladigan tor guruhiy manfaatlar xosdir. Bunda ruhiy himoyaning muayyan toifasi – g'ayriqonuniy firiblarini «ish manfaati», «xizmat burchi» bilan niqoblash hosil bo'ladi.

Talon-torojlik jinoyatlari esa ko'p hollarda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilib, poraxo'rlik, xaridorlarni aldash, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish, qalbaki hujjatlar yasash, firibgarlik va boshqa jinoyatlarda namoyon bo'ladi. Davomli talon-torojliklar talon-toroj qiluvchilarda nazorat-taftish xizmatlarini aldashning «professional» usullari borligidan dalolat beradi. Talon-torojlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasining ma'lum bir qismining ma'lumot darajasi yuqori. Ma'lumot darajasi jinoiy xatti-harakatning xususiyatida, talon-torojlik sodir qilish usullarida ma'lum darajada namoyon bo'ladi. Talon-torojlikning nisbatan yuqori ma'lumotga ega bo'lgan bunday toifadagi

shaxslar tomonidan sodir qilinishing murakkabligi, amalga oshirilayotgan har bir harakatni birma-bir oldindan hisob-kitob qilinishi va oldindan ko'ra bilish qobiliyati, kerakli aloqalarni o'rnatish, ishtirokchilarni tanlash, ularni har biriga ajratib berilgan rolni aniq bajarilishini tashkil qilish va ta'minlash bilan bog'liqdir. Sanab o'tilgan holatlar bajarilayotgan ishning barcha nozik tomonlarini chuqur bilishga kerakli imkon beradigan yuqori darajadagi professional bilimning mavjudligi haqida guvohlik beradi¹.

Aksariyat mansab talon-torojliklari norasmiy guruhlar dinamikasi qonunlari bo'yicha shakllanadigan jinoiy guruh tarkibida sodir etiladi. Bunda ko'plab guruhlararo aloqalar shakllanadi, ichki ruhiy ko'nikmalar hosil bo'ladi, mehnat vazifalari («foydali» va «foydasiz» ish) va boshqa odamlarni («kerakli» yoki «keraksiz» odam) tanlash rejasi ishlab chiqiladi.

O'z jinoyatlarini yashirishdek doimiy zarurat «ikki tomonlama hayot kechirishga», buzilgan moddiy ehtiyojlarni qondirish usullarini namoyishkorona «oddiy» hayot ko'rinishlari bilan niqoblashga olib keladi.

Barcha g'arazli jinoyatchilarda umumiy asos – g'arazli mayllarining barqarorligi mavjud. G'araz – eng barqaror, yo'q qilish qiyin bo'lgan insoniy qusurlardan biri, ya'ni shaxsning barqaror salbiy yo'nalganligining tizim hosil qiluvchi omili hisoblanadi.

G'arazli jinoyatlar shaxsning umumiy g'arazli yo'nalganligi bilan sodir etiladi. Bu esa shaxs xulqining tizim hosil qiluvchi omili hisoblanadi. G'arazli jinoyatlarning sabablarini shaxsning g'arazli maqsadlarini shakllantiradigan omillardan izlash lozim.

Zo'ravonlik jinoyatlarini ko'pchilik hollarda madaniy-bilim darajasi past bo'lgan shaxslar sodir etadi. **Zo'ravon jinoyatchi shaxs** (jismoniy kuch ishlatib jinoyat sodir etishga moyil shaxs) odatda tarbiyaning asosiy sohalari – oila, o'quv yurti, ishlab chiqarish jamoasidagi kamchilik va nuqsonlarni aks ettiruvchi past darajadagi ijtimoiylashuv bilan ajralib turadi. Ushbu shaxsning motivatsion sohasiga egotsentrizm (xudbinlik), jamiyat vakillarining bir qismi bilan barqaror nizolashuv va o'zini oqlashga bo'lgan intilishning mavjudligidir. Bu yerda, aksariyat hollarda, alkogol jinoiy maqsadni faollashtiruvchi omil hisoblanadi.

¹ Qarang: *Исмаилов И. Аҳолидан қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сотиб олишдаги талон-торојликларнинг тавсифи.* – Т., 1993. – Б. 21–22.

Jinoiy qasd hosil bo'lish mexanizmini aniqlashda jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda jinoyatchining shaxsini chuqur o'rganish ham zarur. Bunga ko'p jihatdan ushbu individ kiradigan ijtimoiy guruhlar bilan tanishish yordam beradi. Ushbu shaxsning yaqinlari o'rtasida hukmronlik qilayotgan o'zaro munosabatlar tarkibini o'rganish, bu shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar psixologiyasini bilish, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi aloqani, individual va ijtimoiy ong aloqasini aniqlash zarur. Har qanday insonning ijtimoiy qiyofasi ko'p jihatdan uning mikro olami mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ushbu mikro olamning psixologik tuzilishi individual xulq uchun kuchli katalizator bo'lib xizmat qiladi. Juda ko'p hollarda xulqning xususiyati atrof-muhitdagi axloqiy me'yorlarning mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Zo'ravonlikka asoslangan jinoyatlarning sodir etilishida ijtimoiy muhit bilan normal o'zaro aloqalarning buzilishi, kuchli nizoli vaziyat sabab bo'ladi. Ko'pincha nizoli vaziyatning «yuqishi» guruhiiy bezorilik harakatlari va katta shaxslar guruhlarining ommaviy tartibsizliklarida ishtirok etish jarayonida yuz beradi. Nizolarning bunday turi beqaror psixikaga ega bo'lgan, huquqiy ongi past, umumiy madaniyat darajasi sust, oson qo'zg'aluvchan, olomondagi shaxslarning ta'siriga tez beriluvchan shaxslarga xosdir. Bir insonning bezorilik harakatlari boshqa shaxslar uchun emotsional signal yoki taqlid uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslarning asosiy xususiyati – ijtimoiy qadriyatlarining nuqsonli ekanligi, hissiy to'mtoqlik, g'ayriixtiyoriy tajovuzkorlikda namoyon bo'ladi. Qotillikda, badanga shikast yetkazishda, qiynash, nomusga tegish, bezorilik harakatlari sodir etishda aybdor shaxslar nihoyatda ijtimoiylashmaganligi, g'ayriijtimoiy xulq ko'nikmalarining shakllanganligi bilan ajralib turadilar.

Ularning xatti-harakatlariga ashaddiy xudbinlik (egotsentrizm), qo'qqisdan yuzaga keladigan istaklarni darhol qondirishga intilish va surbetlik xosdir. Ular zo'rlikni nizolarni hal etishning yagona vositasi deb biladilar. Ularga psixologik himoya vositalaridan keng miqyosda foydalanish, ya'ni o'zlarining g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarini oqlash, aybni jabrlanuvchiga va tashqi holatlarga to'nkash xosdir.

Ashaddiy zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar bir qator shaxsiy-tipologik, psixologik xususiyatlarga ega bo'ladilar. Bular:

– atrofdagi shaxslarni doimo o'ziga dushman sifatida qabul qilish;

– eng kichik shaxsiy muvaffaqiyatsizliklardan haddan tashqari ta'sirlanish, ularni ijtimoiy jihatdan mos (adekvat) baholashga qobiliyatsizlik;

–jamiyatdan begonalashganlik (autiklik);

– hissiy jihatdan nihoyatda beqarorlik, patologik darajadagi jizzakilik, qasoskorlik, ruhiy notayinlik, kayfiyatning tez o'zgarishi;

– da'vogarlik darajasining nihoyatda yuqoriligi;

– ekstremal vaziyatlarda bo'lishga moyillik, ularni faol yuzaga keltirish;

– o'zini ko'rsatishga bo'lgan moyillik;

– o'zlariga xos hissiy nuqsonlarni doimo yashirishga intilish va hokazo.

Ushbu toifadagi jinoyatchilarning salbiy xislatlari ijtimoiy nazorat yetarli bo'lmagan, nihoyatda salbiy mikromuhit sharoitida shakllanadi. Ushbu xulq shakllanishining muhim omillariga quyidagilar kiradi:

– bolalikdagi emotsional zo'riqish;

– oila va ijtimoiy foydali guruhlardan ajralish.

Shu nuqtai nazardan zo'ravonlikka asoslangan jinoyatlarda ko'pincha shafqatsiz tajovuzkorlik xususiyati namoyon bo'ladi, og'ir jismoniy va ruhiy shikastlar yetkaziladi. Tajovuzkor xulqning bu tipi shaxsning chuqur buzilganidan, shaxsda tajovuzkor xatti-harakatga va odamlarga zarar yetkazishga bo'lgan moyillikning shakllanganidan, shaxsning o'zini nazorat qilish qobiliyati nihoyatda past darajada ekanidan dalolat beradi.

Ushbu shaxslarning xulqiga quyidagi xususiyatlar xosdir:

– o'zini tajovuzkor intilishdan tiya olmasligi;

– nizoning qay yo'nalishda rivojlanishi va tajovuzkor harakatlarning oqibatlarini ko'ra olmaslik;

– nizoli vaziyatdan chiqish usullarini bilmasligi.

Biroq, voyaga yetmaganlar sodir etadigan zo'ravonlik jinoyatlarining aksariyati g'ayriixtiyoriy tajovuzkorlik, jinoiylashgan guruh sharoitida ruhiy ta'sirga beriluvchanlik bilan bog'liqdir.

G'arazli zo'ravonlik jinoyatlarida tajovuzkorlikdan ko'pincha faqat g'arazli maqsadga erishish vositasi sifatida foydalaniladi.

Zo'ravonlik jinoyatlarida esa birinchi o'ringa adovatli tajovuzkorlik chiqadi – tajovuz, birovga ziyon yetkazish birinchi maqsadga aylanadi.

Zo‘ravonlikning davomiyligi va shafqatsizligi bu o‘rinda jinoiy maqsad – jinoyat qurbonini tahqirlash, unga rashk, qasos, o‘zini ko‘rsatish maqsadida og‘ir azob berish kabilarga bog‘liq bo‘ladi.

Guruh bo‘lib zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etish ko‘pincha guruh, guruhiy an‘analar va ruhiy ta‘sirlar natijasida sodir etiladi.

Zo‘ravon jinoyatchining barqaror *ashaddiy toifasi* doimiy tajovuzkorlik yo‘nalishi, qo‘pol kuch ishlatish stereotipining shakllangani bilan ajralib turadi. Uning uchun tashqi muhitda doimo bahona topiladi.

Zo‘ravon jinoyatchilarning ashaddiy toifalari uchun tajovuzkorlik – o‘zini ko‘rsatishida ustunlik qiluvchi usul, qilmishning shafqatsizligi esa yagona maqsad. Xulqning bu tipi jinoiylashgan mikromuhitda barqaror o‘z e‘tirofini topadi.

Zo‘ravonlikka asoslangan jinoyat qurbonlarining g‘alamis xulqi *viktim* xulq deb ataladi (lotincha *viktima* – qurbon). Viktim xulq – yengiltak, haddan tashqari ishonuvchan yoki axloqsiz, janjalkash, jinoyat sodir etilishi uchun bahona bo‘luvchi xatti-harakatdir.

Viktimlik jinoyat qurbonining jinsi, yoshi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei bilan bog‘liq umumiy hamda shaxsning individual psixologik xususiyatlari – ishonuvchanligi, bilimsizligi, irodasining sustligi, jinoyatchiga ruhan tobeligi, eksentrikligi, tavakkalga moyilligi, shaxsiy janjalkashligi bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus turlarga bo‘linishi mumkin.

Bezori zo‘ravonlar toifasida jismoniy kuch ishlatib, bezorilik sodir etishga moyil, barqaror salbiy odatlari bo‘lgan, jamoat tartibini muntazam buzadigan yoshlar ustunlik qiladi. Odatda bu shaxslar axloq va madaniyatga zid tarzda vaqt o‘tkazish, ruhiy kayfiyatini yuqtirish hamda g‘ayriijtimoiy misollarga taqlid qilish sharoitida jinoyat sodir etadilar.

Ularga xos umumiy ruhiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: beodoblik, nihoyatda tajovuzkorlik, jizzakilik, mas‘uliyatsizlik, zo‘ravonlik harakatlari jazosiz qolishiga ishonish, yuqori darajadagi da‘vogarlik, o‘z harakatlarini oqlash. Barcha zo‘ravonlik-bezorilik jinoyatlariga umumiy psixologik va axloqiy asos – boshqa odamlar hayoti, sog‘lig‘i va qadr-qimmatining qadrsizlanishi xos.

Ayollarning jinoiy zo‘ravonlik xatti-harakatlari o‘zining ba‘zi psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayollarning zo‘ravonlikka asoslangan jinoyatchiligi hajmiga ko‘ra erkaklarnikidan ancha kam.

Ayollar xulqi voqelikning ayrim hodisalarini keskinroq qabul qilishi, ularga ko'proq hissiyot bilan javob berishi, shaxslararo munosabatlarning ayrim holatlariga kattaroq ahamiyat berishi bilan ajralib turadi.

Ayollar keskin nizoli vaziyatlarda ruhiy shikastlanishga ko'proq moyil bo'ladilar, ular oiladagi kelishmovchilik va nizolarni keskinroq his qiladilar. Ular xavotirga ko'proq tushib tahdid solayotgan xavfni yuqori baholashga moyil bo'ladilar. Yuqori darajadagi hissiylik (sensitivlik), oilaviy ishlarning ko'pligi ularda yuqori darajadagi ruhiy zo'riqishning barqaror fonini hosil qiladi.

Ayollar orasida ruhiy anomaliyalar darajasi yuqoriroq. Aksariyat jinoyatchi ayollar tez ta'sirlanishlari, ijtimoiy o'zaro munosabat nuqsonlari, chiqisha olmaslik, asabiylik jihatlari bilan ajralib turadilar. Ular tajovuzkor harakatlarida ko'pincha tasodifan qo'l ostida bo'lib qolgan narsalardan foydalanadilar.

Biroq, ayollar qasddan qilinadigan og'ir jinoyatlarini odatda puxta o'ylab, niqoblashga harakat qiladilar. Shaxsga qarshi og'ir jinoyatlarni ko'pincha xatti-harakatlari erkaklarnikiga o'xshash ayollar sodir etadilar.

Zo'ravonlik jinoyatlariga *jinsiy jinoyatlar* ham kiradi. Bunday jinoyatlarda ustunlik qiluvchi ruhiy xislat jinsiy tajovuzkorlik – jinoyat qurboniga jinsiy zo'rlik va jismoniy zarar yetkazish, ko'p hollarda hayotdan mahrum qilishdir. Bu shaxsda psixik nuqsonlar borligidan dalolat beradi.

Mazkur normadan og'ishlar jinsiy jinoyatchilikning shart-sharoiti hisoblanadi, ammo uning sababi emas. Bunday shaxslarning aksariyati qonundan chetga chiqmaslikka harakat qiladilar.

Jinsiy jinoyat – nomusga tegish, ayolni jinsiy aloqaga majburlash, jinsiy yetuklik yoshiga yetmaganlar bilan munosabatga kirishishdir (JKning 118, 121, 128-moddalari).

Eng xavfli jinsiy jinoyat – nomusga tegish – jismoniy kuch, tahdid yoki jabrlanuvchining chorasiz ahvolidan foydalanib sodir etishdir. Bunday jinoyat uchun yuridik javobgarlik 14 yoshdan boshlanadi. Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi ayolning jinsiy erkinligini qo'pol ravishda mensimaslik, jinoyatchi harakatlarining zo'ravonlik xususiyatiga egaligi, jabrlanuvchiga ma'naviy va jismoniy zarar yetkazilishi, ko'p hollarda ruhiy va jismoniy sog'lig'ining buzilishidan iborat.

Shunday qilib, zo'ravon jinoyatchilar qadriyatli-motivatsion va ruhiy boshqaruv sohasida bir qator tipik buzilishlarga ega bo'ladilar. Voqelikni ular ijtimoiy taqiqlarga ta'sirchanlik keskin pasaygan sharoitda aks ettiradilar.

Har bir zo‘ravonlik jinoyatining asosida bir qator sabab va shart-sharoitlar, individual-biologik, ruhiy va ijtimoiy-psixologik omillarning ulanishi yotadi

Qotillik jinoyatlarini sodir etgan shaxslar psixologiyasi haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ularda boshqa shaxslarga nisbatan nihoyatda tobelikni kuzatish mumkin. Qotillar erkin hayotga moslashishi qiyin bo‘lgan shaxslar toifasiga kiradilar. Jinoyat fakti – jinoyat qurboni bilan aloqadan chiqish ular uchun xatti-harakatning deyarli imkoni yo‘q usuli ekanligini ko‘rsatadi. Shuni nazarda tutish lozimki, bu tobelik nafaqat jinoyat qurboni bilan aloqada, balki boshqa birov bilan aloqada ham amalga oshishi mumkin, o‘shanda jinoyat uchinchi shaxsga tobelik bilan bog‘liq bo‘ladi.

Qotillik jinoyatlarining kelib chiqishidagi asosiy omillardan biri – jinoyatchini boshqa shaxslarning rad etishi natijasida uning mustaqil bo‘lish qobiliyatini cheklanishi (bloklanishi)¹. Qotillik jinoyatlarining aksariyati to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi, tajribaning ko‘rsatishicha, ularning 1/3 qismi avvaldan rejalashtiriladi.

Qotilligi uchun jazoga hukm qilingan (500 nafar) shaxslarni o‘rganish quyidagilarni ko‘rsatdi. Ularning taxminan yarmi spirtli ichimliklarni yoshligidan iste‘mol qila boshlaganlar. Alkogol tajovuzkorlikning namoyon bo‘lishini bir necha baravar kuchaytirgan va og‘irlashtirgan. Tajovuzkor harakatlar asosan qo‘rqitish, do‘pposlash, haqoratlash va to‘polonlarda namoyon bo‘lgan, ya‘ni shaxs va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan. Qotillik jinoyatlarini asosan erkaklar sodir etib, qurbonlarning yarmidan ortig‘i ayollar bo‘lgan. Ushbu jinoyatlarning 1/3 holatida qotil va jabrlanuvchi (jinoyat qurboni) bir-biri uchun notanish yoki bevosita jinoyat sodir etilishidan oldin tanishgan shaxslar bo‘lganlar. 30 % holatda ular qarindosh, 8–6 % holatda er-xotin, qolgan holatlarda tanish, xizmatdosh, qo‘shni bo‘lganlar. Aksariyat qotilliklarni 20–30 yoshlardagilar sodir etganlar².

O‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinganlarning butun guruhiga shafqatsizlik xos bo‘lib, bunday shafqatsizlik hayvonlar, bolalar, qariyalar, ayollar bilan muomalada namoyon bo‘ladi.

¹ Qarang: *Самовичев Е.Г.* Убийство: психологические аспекты преступления и наказания. – М., 1998.

² Qarang: *Чуфаровский Ю.В.* Психология оперативно-розыскной и следственной деятельности. – М., 2004.

Tarbiyalanish sharoitini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qotillik jinoyatlari uchun hukm qilinganlar bir yarim baravar ko'p hollarda nosog'lom sharoitlarda tarbiyalanganlar. Bolalikda ularning 20 %ga yaqini ota-onasiz, 1/3 qismi to'liqsiz oilada, ayni vaqtda 9 % onasiz, 75 % otasiz o'sgan. Har beshinchi holatda oilaning to'liqsizligi ota-onaning sudlanganligi bilan bog'liq bo'lgan. Eng kriminogen omil – bu onaning sudlanganligidir.

Materiallarni tahlil qilish jarayonida bolalikdagi tajovuzkor xulqning o'smirlik va yigitlik davrida g'ayriqonuniy va jinoiy xulqqa o'tishi aniqlangan. Tekshirilganlarning 1/3 qismi ilk bor 16–17 yoshlarida jazoga hukm qilinganlar. Bu shaxslar ishga vijdonan munosabatda bo'lmagan, mehnat intizomini qo'pol tarzda buzgan, ichkilikbozlik qilgan, doimo janjalli vaziyatni yuzaga keltirganlar.

O'ta og'ir darajadagi qotilligi uchun jazolangan 500 nafar tekshirilganlarning 300 nafari sud-psixiatriya ekspertizasidan o'tkazilgan. 180 holatda, ya'ni ekspertizadan o'tgan har ikkinchi shaxsda aqli rasolikni istisno etmaydigan turli nuqsonlar – surunkali alkogolizm, psixopatiya, bosh miyaning organik kasalliklari, shizofreniya kabilar kuzatilgan.

O'z navbatida qotillik jinoyatlarini quyidagi turkumlarga ajratish mumkin.

Tasodifiy qotil jinoyatchilar. Ular o'zlarining ruhiy holatlarini boshqarishlarida nuqsonlari mavjudligi bilan ajralib turadilar. Jabrlanuvchini o'ldirish ular uchun fojiali tasodifdir. Lekin, aslida, bu tasodifiy emas. Bu yerda shaxsning murakkab, nizoli vaziyatdan ijtimoiy moslashgan holda chiqib keta olmasligi namoyon bo'ladi. Odatda bunday qotilliklar uzoq vaqt to'planib boradigan salbiy his-tuyg'ular, zo'riqishlar zahirida yuz beradi.

Individ himoyalashning axloqiy-ijobiy va qonuniy usullarini bilmagan holda chidab bo'lmas tushkunlik, juda og'ir ahvolining chorasizligi, hayotiy ziddiyatlardan qonuniy yo'l bilan chiqish mumkinligiga ishonmaslik natijasida oxirgi choradan foydalanadi. Bunda odatda jabrlanuvchi insoniy munosabatlarning oddiy asoslarini uzoq vaqt va qo'pol ravishda buzadi, jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratadi.

Ayrim tasodifiy qotilliklar qo'qqisdan, favqulodda vaziyatlarda, ayniqsa affekt (hissiy portlash) holatida sodir etiladi. Xalq ongida la'natlangan ashaddiy qotillar hamda ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish o'rtasida katta axloqiy-psixologik farq borligini inobatga olish lozim. Ushbu jinoyatlardagi ayni bir xil jinoiy natija jinoyatchilarning

turli darajadagi ijtimoiy xavfliligi, axloqiy-psixologik xususiyatlari bilan bogʻliqdir.

Aksariyat qotilliklar maishiy asosda, gʻayriixtiyoriy, baʼzan nihoyatda arziyasiz sabablarga koʻra sodir etiladi. Bu toifadagi qotillar koʻpincha oʻch olinmagan alamlar uzoq vaqt toʻplanishining natijasi hisoblanadi.

Shaxsiy magʻlubiyat (haqorat, qoʻpol tarzidagi xoʻrlash, doʻpposlash) holatlarida shaxs vaziyatga batamom tobe boʻlib, natijada oʻzini oʻzi boshqarishga qobiliyatsiz boʻlib qoladi.

Koʻp hollarda qotillarning hayot yoʻli tajovuzkor xulq tajribasining uzoq vaqt toʻplanishi bilan kechgan.

Ashaddiy qotil jinoyatchilar barqaror gʻayriijtimoiy qarashlari, yoʻnalishlari bilan ajralib turadilar. Ularning axloqqa zid ishlari, salbiy ehtiyojlarining ustunligi zoʻravonlik harakatlarining nihoyatda qoʻpol usullarini keltirib chiqaradi.

Ular, odatda, ilgari sudlangan, ozodlikdan mahrum qilish joylarida qayta ijtimoiylashmagan (tarbiyalanmagan) va sezilarli ijtimoiy oʻringa ega boʻlmagan shaxslardir. Ularning kundalik xulqi jinoyatga yaqin turadi, gʻayriijtimoiy, jinoiy submadaniyat sharoitida amalga oshadi.

Ular tashqaridan boʻladigan har qanday taʼsirni oʻziga nisbatan hujum deb hisoblaydilar, «toʻgʻri», hamma ishi joyida odamlarga nafrat bilan munosabatda boʻladilar. Ular surunkali ravishda hissiy-ruhiy zoʻriqish, xavotirlarni his qilib, arzimagan sabablarga koʻra tajovuzkor harakatlarga tayyor turadilar.

Qoʻpol, zoʻravonlik bilan, jinoiy usulda oʻzini koʻrsatishga boʻlgan moyillik, chuqur gʻayriijtimoiy buzilishlar – ashaddiy qotilning asosiy psixologik xususiyatidir

5. Professional jinoyatchilar va retsdivistlarning psixologik xususiyatlari

Professional jinoyatchilik odatda doimiy ravishda gʻayriqonuniy daromad olish bilan chambarchas bogʻlanadi. Biroq, professional jinoyatchilikni faqat «daromad» tushunchasi bilan emas, balki yaxshi ishlangan, yoʻnalish, izga tushgan usullar bilan amalga oshiriladigan barqaror, doimiy mashgʻulot sifatida tushuniladigan «professionalizm» degan psixologik tushuncha bilan ham bogʻlash lozim.

Masalan, oʻgʻrilik kasbga aylanganida u bilan har qanday kasb bilan boʻladigan hodisa roʻy beradi: mehnat taqsimoti yuzaga keladi, kasb

turmush tarziga aylanadi. Professional jinoyatchi o'z ishini yaxshi biladi va butun intilishlarini unga bo'ysundiradi, shuningdek jinoiy ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi.

Professional jinoyatchilar o'z hayotlarida bir necha marta aybli ijtimoiy xavfli qilmish sodir etib, muayyan bilim va tajriba to'plagan, faqat jinoyat sodir etish tufayli qo'lga kiritilgan moddiy ne'matlar evaziga yashashga o'rgangan kishilardir.

Professional jinoyatchilar ruhiy olamining mohiyati va xususiyatlari ularning axloqiy yomonlik qonunlarida o'z ifodasini topgan. Jinoyatchilar dunyosining axloqiy yomonlik qonunlariga quyidagilar kiradi:

1. *Har bir jinoyatchining, jinoyatchilar guruhi a'zolarining asosiy vazifasi, burchi «o'g'rilar g'oyasi»ga sadoqat bilan xizmat qilishdir.* Ushbu qonun har bir jinoyatchidan:

1) jinoyat sodir etish hayotining bosh maqsadini tashkil etishini;

2) to'plagan mablag'larini o'g'rilarning umumiy pul mablag'lari jamg'armasi (obshak)ga topshirishni, oshiqchasini esa har xil ko'ngilxushlikka, qimorbozlikka sarflashini;

3) maxfiylik qoidalariga qat'iy amal qilishni, har qanday ahvolda ham, ya'ni qiynoqqa solinganda, narkotik moddalar ta'sirida, aqldan ozganda ham «o'g'rilar birodarligi» g'oyalariga sodiq qolib, ularni sotmaslikni, huquqni muhofaza qiluvchilarga hech qanday ma'lumotlarni oshkor qilmaslikni;

4) jamiyat uchun foydali mehnat qilmaslikni, ya'ni umumiy foydali mehnat faoliyati bilan shug'ullanish – «frayer uchun ishlash»ni eng iflos, hazar qilinadigan ish deb bilishni;

5) oila qurmaslik, qarindoshlar bilan aloqada bo'lmaslikni talab qiladi. Bu axloqiy yomonlik talablarini buzganlar qattiq jazolanadilar.

Jinoyatchilar dunyosining axloqiy yomonlik qonunlari jinoyatchining o'z onasi bilan normal insoniy munosabatda bo'lishgagina monelik qilmaydi. Biroq, jinoyatchining badaniga yozilgan «Ne zabudu mat rodnuyu» degan tatuировkaning onaga bo'lgan mehr-muhabbatni ifodalashga hech qanday aloqasi yo'q. Bu tatuировka ularning faqat jinoyatchilar guruhiga bo'lgan muhabbatini, sadoqatini ifodalab, jinoyatchilar dunyosini «rodnaya mat» – «jonajon ona» deb bilishlarini ifodalaydi, xolos.

Jinoyatchilar dunyosining axloqiy yomonlik qonunlari jinoyatchilarga ishq-muhabbat, jinsiy hayot borasida faqat «shalavalar» – buzuq ayollar bilan ishqiy-intim munosabatda bo'lishlariga, ba'zida er-xotin

bo'lishlariga ruxsat beradi. Bunda professional jinoyatchining xotini boshqa jinoyatchilarni ham intim jihatdan ta'minlab yurishi kerakligi, ayniqsa, «qonuniy eri» qamoqqa tushsa, uning boshqa jinoyatchilar ixtiyoriga o'tib ketishi, ayni vaqtda qamoqdagi eridan xabar olib turishi talab qilinadi.

Bunday «shalava» xotinlar garchand o'z erki bilan o'g'rilarning xotini bo'lgan bo'lsa-da, o'g'rilar dunyosiga kirgandan keyin ular bu hayotdan o'z ixtiyorlari bilan chiqib keta olmaydilar va bir umr o'g'rilar dunyosining qul xotiniga aylanib qoladilar. Har qanday xiyonat, jinoyatchilar dunyosidan chiqib ketishga urinish uning uchun fojiali tugashi muqarrar bo'ladi.

Hozirgi zamon jinoyatchilari bola-chaqa masalasida ham axloqiy tarbiyani jinoyatchilar dunyosining axloqiy yomonlik qonunlari asosida olib borishga harakat qiladilar. Ayniqsa, professional jinoyatchining bolasi jinoyat sodir etsa, u bola va uning otasi katta nufuzga ega bo'lib, unga ishonch bildiriladi. Bundan asosiy maqsad ana shu jinoyatchilar ichidan «qonundagi o'g'rilarni» tarbiyalab yetishtirish hisoblanadi.

2. Har qanday professional jinoyatchining davlat organlari, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari bilan aloqa qilishlari, munosabatda bo'lishlari qat'iy taqiqlanadi.

Bu qonunni joriy qilishdan asosiy maqsad jinoyatchilarning o'z sheriklarini sotmasligini, ularning ishiga va g'oyasiga sodiq qoldirishni ta'minlashdan iborat. Shunga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bilan qilingan har qanday aloqa xiyonat hisoblanadi. Bordi-yu, jinoyatchi davlat organlariga, qamoq joylaridagi ma'muriyatga biror-bir ma'lumot bersa, u jinoyatchilarning «qardoshlik» oilasidan chiqariladi va jinoyatchilar sudi tomonidan o'limga hukm etiladi.

Bu qonunni amalga oshirish uchun maxsus «qasamyod» qabul qilish an'anasi qabul qilingan. Har qanday yosh, qobiliyatli o'g'ri ma'lum sinov tajribalaridan o'tganidan so'ng, jinoyatchilar dunyosiga qabul qilinishi oldidan «qasamyod» qabul qiladi. Bu «qasamyod»da, masalan, «men, yosh patsan, o'g'rilar yo'lini tanlar ekanman, mana shu yig'inda ishtirok etayotgan o'g'rilar oldida butun umrim davomida sadoqatli o'g'ri bo'lishga, chekistlar bilan hech qanday munosabatda bo'lmaslikka qasam ichaman...», deyiladi.

Bu qasam jinoyatchilar dunyosi axloqiy yomonlik qonunlarining eng oliy cho'qqilardan biri hisoblanadi.

Ana shunday qasamyod qilganlargagina o'g'rilar ishonadilar. «Qasamyod»ni buzganlar, albatta o'limga hukm etiladilar. Bu axloqiy

yomonlik tilsimotini ichki ishlar idoralarining har bir xodimi yaxshi bilmog'i zarur.

3. *Har qanday jinoyatchi o'z guruhi a'zolariga nisbatan halol va to'g'ri munosabatda bo'lishi, xushmuomalalik bilan ish ko'rishi lozim.* Bu qonun teng toifadagi jinoyatchilarning bir-birlari bilan urishishini, har xil haqoratomuz so'zlar aytib so'kinishlarini taqiqlaydi. O'g'rilar «odobi»da teng toifadagilar o'rtasida «qo'l siltash»ga ruxsat beriladi, xolos. Biroq, bu axloqiy talablar o'zlaridan pastki tabaqadagilarga nisbatan qo'llanilmaydi. Yuqori tabaqadagilarning pastki tabaqadagilarni urishi, so'kishiga ruxsat etiladi. Shuning uchun «qonundagi o'g'rilar» o'zlarini jinoyatchilar dunyosining «knazlari» deb ataydilar.

4. *«Qonundagi o'g'ri»larning qamoq joylaridagi tartibni nazorat qilishi, jinoyatchilar orasida butunlay o'z hokimiyatini o'rnatishi va uning ishlashini ta'minlashi shart.* Bu qonun qamoq joylarida «qonundagi o'g'rilar» boshchiligidagi hokimiyatni o'rnatib, jinoyatchilar dunyosining bir butunligini ta'minlash va ularni yangi a'zolar bilan to'ldirish maqsadiga xizmat qiladi. Bu ishni amalga oshira olmagan «qonundagi o'g'rilar» o'g'rilar yig'ini oldida javobgar hisoblanadilar va tegishli jazoni oladilar.

5. *Har bir o'g'ri-jinoyatchining asosiy vazifalaridan biri jinoyatchilar dunyosini yangidan-yangi a'zolar bilan to'ldirish ishlari bilan muntazam ravishda shug'ullanishdir.* Bu qonun jinoyat qilishga moyil bo'lgan yoshlar orasida «g'oyaviy-mafkuraviy ish» olib borishni, ya'ni jinoyatchilar dunyosidagi erkinlik, chiroyli hayot, har xil qo'shiqlar, tatuirovkalarni targ'ib qilish, ularni narkotik moddalar iste'mol qilishga, spirtli ichimliklar ichishga va buzuq ayollar bilan jinsiy aloqa qilishga o'rgatish; shantaj qilish, qo'rqitish, ig'vo qilish, qimor o'yinlariga jalb qilish, qarzdor qilish orqali ularni jinoyatchilar dunyosiga jalb etib, o'z saflarini kengaytirishni va jinoyatchilar avlodining uzluksiz davom etishini ta'minlashni talab qiladi.

6. *Har qanday professional jinoyatchining siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishi, ya'ni partiyalarga a'zo bo'lishi, gazeta o'qishi, tergov va sud ishlarida guvoh sifatida, jabrlanuvchi tarzida qatnashishi taqiqlanadi.*

7. *Har bir professional jinoyatchi qimor o'yinlarini yaxshi bilishi lozim.* Qimor o'yinlari jinoyatchilarning aqlini peshlashdan tashqari, jinoyatchilar dunyosining boshqa odamlar bilan til topishishining eng muhim usullaridan biri hisoblanadi. Bu o'yinlar orqali ular boshqa jinoyatchilar ustidan o'zlarining hukmronligini o'rnatadilar, ya'ni

ularning mol-mulki, xotini, bola-chaqasini va hatto hayotini ham yutib oladilar. Yutqazib qo‘yganlarni o‘zlarining xizmatkoriga aylantiradilar va eng xavfli topshiriqlarni bajarishga majbur qiladilar.

Professional jinoyatchilarning axloqiy yomonlik qonunlari talablarini buzganlarga va bajarmaganlarga qarshi quyidagi jazolar qo‘llaniladi.

1. *Oshkora tarzda shapaloq urish.* Bu jazo ko‘pincha qilgan mayda gunohlari, xususan haqorat qilganligi uchun qo‘llaniladi. Uni amalga oshirish chun jinoyatchilar yig‘iladilar va teng toifadagi gunohsiz jinoyatchi ularning oldida teng toifadagi gunohkorni bir shapaloq uradi.

2. *Jinoyatchilar guruhidan chiqarish yoki bir tabaqa pastga tushirish.* Bunda odamlar yig‘ilib, gunohkorning qulog‘i tagiga o‘yin kartasi bilan uriladi. Bu «qulog‘ining tagiga tushirish bilan jazolash» deyiladi.

3. *Katta pul jarimasini solish.* Bu jazo chorasi ayni bozor iqtisodiyotiga o‘tish vaqtida kengayib ketdi. Ayniqsa, o‘g‘ri-jinoyatchilar o‘g‘rilar yig‘iniga kechikib kelganliklari hamda o‘zlari bo‘lib olgan hududlardan chiqib, boshqalarning hududida ish olib borganligi uchun katta pul jarimalarini to‘laydilar.

4. *Oliy jazo – o‘lim jazosi.* Bu jazo asosan xiyonat uchun qo‘llaniladi. Bunda o‘ldirish quroli sifatida ko‘pincha pichoq ishlatiladi.

Professional jinoyatchilarning quyidagi to‘rt asosiy belgisi mavjud:

1) jinoyatchilik bilan shug‘ullanishdagi barqarorlik, ya’ni biror-bir jinoyat turini sodir etishga ixtisoslashganlik;

2) ma’lum ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish;

3) jinoyat tufayli mol-mulk topish hayotining asosini tashkil etishi;

4) jamiyatdagi tartibga xilof tarzda hayot kechiruvchilar bilan aloqada bo‘lish.

Jinoyatchilar dunyosi jamiyatning illati bo‘lib, undan ajralgan holda ish ko‘radi. Shuning uchun ham jinoyatchilar boshqalar bilmasligi yoki tushunmasligi uchun o‘zlarining tilini, har xil laqablarini, belgilarini ishlab chiqqanlar. Bu til (jargon), laqab, belgi (tatuировka)lar orqali ular sirli muloqotda bo‘ladilar. Ana shu sirni bilish va natijada ular sodir etmoqchi bo‘layotgan jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh qilish ichki ishlar idoralari xodimlarining vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jinoyatchilar dunyosi jinoyatchilardan kishilar orasida va ijtimoiy hayotning illatlari bo‘lgan boshqa qatlamlar bilan muloqot qilishda muomala qilish elementlarini, ya’ni: a) maxsus til, ya’ni jargonlarni; b) jinoyatchilarning belgilari (tatuировkalar)ni; v) jinoyatchilarning laqablarini yaxshi bilishlarini talab qiladi.

A. Jinoyatchilar dunyosi «estetik madaniyati»ning asosiy elementlaridan birini ularning nutq madaniyatiga kiruvchi tili (jargonlari) tashkil etadi.

Jinoyatchilar dunyosida amal qiluvchi jargonlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1) oddiy huquqbuzarlardan tortib, professional jinoyachilargacha foydalanadigan umumiy jargonlar;

2) ozodlikdan mahrum etilganlar qamoqxonalarda ishlatadigan jargonlar;

3) professional jinoyatchilar ishlatadigan maxsus jargonlar.

Jinoyatchilar dunyosining jargonlari ikki xil vazifani: birinchidan, jinoyatchilarning soʻzlarini oddiy fuqarolar tushunmasligi uchun maxfiylashtirish; ikkinchidan, jargoniga qarab jinoyatchining qaysi toifaga kirishi va jinoyatchilar dunyosida qanday oʻrin tutishini aniqlash, bilish vazifasini bajaradi.

Jinoyatchilar oʻzlarining tilini sanʼat bilan qiyoslab, ularga estetik tus beradilar, yaʼni «musiqa sadolari ostida qadamma-qadam yuradi» («по музыке ходит») deb oʻzlarining til hunarlarini maqtaydilar. Hozirgi kunda jinoyatchilarning lugʻaviy boyligi 10 ming soʻzdan ortiq boʻlgan har xil jargonlari mavjud. Shulardan baʼzi birlarini keltiramiz: masalan, polyak tilidan kirib kelgan jargonlarga *kapat* – yetkazish, chaqish, *ment* – militsioner, turma nazoratchisi; ukrain tilidan kirib kelgan jargonlarga *xavat* – yemoq, *xomka* – pichoq; loʻlilar tilidan kirib kelgan jargonlarga *chuvixa* – suyuqoyoq; turk tilidan kirib kelgan jargonlarga *yamaniy* – yomon, *kicha* – turma; nemis tilidan kirib kelgan jargonlarga *guten morgen* – ertalabki oʻgʻrilik; fransuz tilidan kirib kelgan *shpana* – mayda oʻgʻrilar kabi soʻzlar kiradi.

Shuningdek, hozirgi kunda muomalada boʻlgan baʼzi bir jargonlarni ham keltiramiz. Masalan, *ayva* – qoch, *alkash* – aroqxoʻr, *amba* – tamom, *ampula* – shisha idish, *balda* – nasha, *ban* – bozor, *baban* – qishloqi, *baruxa* – xotin, *bugor* – brigadir, *shayba* – pul, *juk* – tajribali oʻgʻri, *shaloto* – tilla, *artist* – firibgar, *zajigalka* – toʻpponcha, *brodyaga* – daydi, *basyaki* – yalangayoq, *shirmoch* – choʻntakkesar va boshqalar¹.

B. Professional jinoyatchilar olamining oʻziga xos jihatlaridan yana biri – bu jinoyatchilarning badanlariga chizilgan yoki kuydirib yozilgan har xil mazmundagi belgilar – tatuirovkalar hisoblanadi.

Tatuirovkalar quyidagi maʼnolarni anglatadi:

¹ Qarang: Империя страха. – М., 1992. – С.146–148.

1. Jinoyatchining qaysi tabaqaga mansub ekanligini anglatadi. Masalan, badanga chizib ishlangan «xoch» (krest) – kissavurni, «gladiator» – bezorini, «o‘rgimchak inidagi o‘rgimchak» – giyohvandni anglatadi va hokazo.

2. Jinoyatchining qasd olishga va qamoqdan qochishga bo‘lgan mayllarining mavjudligini anglatadi. Masalan, yo‘lbars boshining tasviri – tajovuzkor jinoyatchini, pogonga sanchilgan pichoq – huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlaridan o‘ch olishga qasd qilganligini, qurollangan echki – militsiya xodimidan o‘ch olish, kallaga qadalgan pichoq, xanjar – yetkazilgan hamma musibatlar uchun o‘ch olish, og‘zida pichoq tishlash – faollarni so‘yaman, yurakka qadalgan xanjar va o‘qdon – qonundagi o‘g‘rilaridan o‘ch olaman, degan ma’nolarni bildiradi.

3. Shunchaki badanni «bezash» uchun xizmat qiladi. Hattoki, jahonga mashhur san’at asarlaridan nusxalar chizdirish, ya’ni zavq-shavq olish maqsadida hamda o‘zining yuksak estetik did egasi, madaniyat sohibi ekanligani ko‘rsatish uchun maxsus chizilgan tatuirovkalar bor. Masalan, Vasnetsovning «Uch bahodir», Leonardo Da Vinchining «Sikstin Madonnasi» asarlarini badanga chizdiradilar.

4. Qahramonlik va chidamlilikni namoyish qilish uchun chiziladi. Masalan, jon og‘riydigan nozik joylarga, ko‘zning ustiga va boshqa joylarga chizilgan tatuirovkalar shular jumlasiga kiradi.

D. Professional jinoyatchilarda laqablar ularning ikkinchi ismi hisoblanadi. Jinoyatchilarning laqablari asosan konspiratsiya ya’ni niqoblash, yashirish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham har bir jinoyatchining laqabi mavjud bo‘ladi. Laqablariga qarab ular bir-birlarining nima ish bilan shug‘ullanishlarini, qayerda turishlarini, kim bilan aloqa qilishlarini biladilar.

Laqab uyushgan jinoyatchilarning ajralmas belgilaridan biri hisoblanadi. Ba’zida laqablar jinoyatchining jismoniy jihatlarini bildirish uchun ham ishlatiladi. Masalan, «Yaponchik» (V. Ivankov 1940-yilning 2-yanvarida Moskvada tug‘ilgan, uning bu laqabi haqida ikki xil taxmin bor: ba’zilar uning tashqi ko‘rinishi sharqona bo‘lgani uchun «Yaponchik» laqabini olgan deyishsa, ba’zilar V. Ivankov «djiu-djitsu» deb nomlangan yapon kurashining ustasi edi, laqab shundan kelib chiqqan deyishadi), «Qora kardinal» (Otari Kvantrishvili 1947-yilda Gruziyada tug‘ilgan, «kardinal» katolik dinida Rim papasidan keyin turuvchi martabasi ulug‘ligi jihatidan ikkinchi shaxs hisoblanadi) va hokazo. «Qonundagi o‘g‘ri»larning laqabi: «Masha» o‘g‘rilar bandasiga

boshchilik qiluvchi ayolning laqabi, «Malina» o'g'rilar uchun maxsus kvartira saqlovchilarning laqabi va boshqalar. «Ivan»lar deganda bosqinchilik, ig'vo bilan shug'ullangan jinoyatchilar; «Xrapn» deganda o'z ishlarini o'zgalar qo'li bilan qiladigan jinoyatchilar; «Igroki» deganda har xil qimorbozlar tushuniladi.

Jinoyatchilar dunyosining o'ziga xos «san'ati» ham mavjud. Bularga jinoyatchilar hayotini kuylaydigan qo'shiqlar, musiqalar, raqslar kiradi. Ularda jinoyatchilar dunyosi «romantik» tarzda targ'ib qilinadi. Bu «romantik» targ'ibot esa jinoyatchilar dunyosiga yangidan-yangi a'zolari jalb etishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda jinoyatchilik ruhida yozilgan qo'shiqlar, she'rlar, kuylar jinoyatchilarga zavq bag'ishlaydi. Masalan, Aleksandr Galichning «Turma motivlari» turkumidagi she'rlari shular jumlasiga kiradi.

Jinoyatchilar dunyosidagi axloqiy yomonlik qonunlari, ularning badanlariga chizilgan tatuirovkalar, qo'yilgan laqablar, kuylangan qo'shiqlar va boshqalar qanchalik go'zal ko'rinmasin, ular insoniylikka yot narsalar hisoblanadi.

Professional jinoyatchilarning tarkibiy tuzilishi va toifasi. Hozirgi zamon jinoyatchilar olamining tarkibiy tuzilishini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning bir necha toifaga bo'linganligini va har bir toifadagi jinoyatchilarning o'ziga xos ichki va tashqi turmush tarzi, unda amal qiluvchi qandaydir qonunlar va axloq, xulq-atvor me'yorlari borligini, ularning barchasi o'zining mazmun-mohiyati bilan jinoyatchilar olamini takomillashtirishga qaratilganligini ko'ramiz.

Jinoyatchilar olamining psixologik xususiyatlarini ifoda etuvchi o'ziga xos yozilmagan xulq-atvor me'yorlari, ko'rsatmalar, til (jargon), laqab, qo'shiq, musiqa, tatuirovkalari mavjud. Bularni bilmasdan turib, jinoyatchilar olamida bo'layotgan o'zgarishlarni bilish va ularga qarshi samarali kurashish mumkin emas.

Hozirgi kunda jinoyatchilar olami quyidagi toifalardan tashkil topgan:

- 1) «qonundagi o'g'rilar» («вор в законе»);
- 2) «obro'lilar» («авторитеты»);
- 3) «ishbilarmonlar» («дельцы»);
- 4) «qimorbozlar» («катылы»);
- 5) «tilyog'lamachi» («шестерки»);
- 6) «erkaklar» («мужики»);
- 7) «bolalar, yigitchalar» («пацаны»);

8) «shoʻrpeshonalar va pastkashlar» («обиженные и опущенные»).

Ushbu guruhlarning dastlabki beshtasiga jinoyatchilar dunyosining oʻzagini tashkil qiluvchi professional jinoyatchilar kiradi.

Xoʻsh, «qonundagi oʻgʻrilar» kimlar?

Biz jinoyatchi deb biladigan olamning oʻziga yarasha odatlari, anʼanalari mavjud. Oʻziga yarasha martabayu «unvonlari» ham bor. Bu olam oʻziga yarasha ulugʻlariyu xiyonatkorlaridan ham xoli emas. Jinoyat olamining eng yuqori tabaqalaridan biri oʻzbekchasiga «Toj guli» (ruslarda «Цветная масть») deb ataladi. Mana shu oliy tabaqa butun jinoyat olamini boshqaradi. Jinoyat olamida «qonundagi oʻgʻri» («вор в законе») degan tushuncha ham bor. Toʻgʻrirogʻi, bu oddiy tushuncha emas, balki martaba, unvon hisoblanadi. «Qonundagi oʻgʻri» nomini olish uchun, bu martabaga yetish uchun koʻp sinovlardan oʻtish kerak. «Qonundagi oʻgʻri» atamasini «qonuniy oʻgʻri» degan maʼnoda tushunish kerak emas. Ayrimlar bu mavzuda yozganlarida «вор в законе»ni «toza oʻgʻri» deb tarjima qiladilar. Bu ham unchalik toʻgʻri emas.

«Qonundagi oʻgʻri» – oʻgʻrilar olamining qonun-qoidalarini hech bir ogʻishmay amalga oshiradigan, oʻgʻrilik odatlariga sodiq, oʻgʻri doʻstlariga hech qachon xiyonat qilmaydigan, butun hayotini shu olamga bagʻishlagan odamdir. Bu nomni ularga NKVD xodimlari XX asrning 20 – 30 yillarida berishgan. U vaqtda bu ibora «ashaddiy oʻgʻri», «ashaddiy jinoyatchi» degan maʼnolarda qoʻllanilgan. Jinoyatchilar olamida «eng yaxshi oʻgʻri – halol oʻgʻri», degan qarash mavjud. Bu biz uchun bir oz kulgili tuyuladi, albatta. Chunki jamiyat ularni jinoyatchi deb hisoblaydi, ulardan nafratlanadi va ularni jazolaydi. Ular esa oʻzlarini jamiyat ustidan hukmronmiz deb his qiladilar va jamiyatdagi hech qanday qonun-qoidani tan olmay yashaydilar.

Ikkinchi jahon urushidan keyin jinoyat olamining tabaqalashuvi tezlashdi. Avvalo, jarima batalyonlarida («shtrafbat») jang qilib tirik qaytgan jinoyatchi-jangchilar hukumatdan qurol oldilar. Oʻgʻrilarning hukumat bilan murosa qilishi jinoyat olamining qonuniga mutlaq zid boʻlgani sababli ularga «qanjiq» degan «martaba» berilgan.

Urush paytida Gʻarbiy Yevropaga ketib qolgan ayrim jinoyatchilar urushdan keyin tijorat bilan shugʻullana boshlashgan. Oʻgʻrilar qoidasiga koʻra bu ham mumkin boʻlmagani sababli ular «polshalik oʻgʻrilar» deb nom olishgan. Mana shular va shularga oʻxshab oʻgʻri nomusini qadrlay olmaganlarga «egiluvchi oʻgʻrilar» degan nom berilgan va ular bilan

ayovsiz urush olib borilgan. Natijada «qonundagi o'g'ri»larning soni keskin kamayib, faqat 3 – 4 % nigina tashkil qilgan.

XX asrning 70–80 yillarida sobiq Kommunistik partiyaning kaltabinligi tufayli jinoyat kodekslaridan «banditizim», «shayka», «uyushgan jinoyatchilik» kabi tushunchalar chiqarib tashlandi. SSSRda go'yo bunday xavfli jinoyatchilar yo'q deb ko'rsatishmoqchi bo'lishdi. Kommunistik partiyaning bunday nodon siyosatidan jinoyat olami unumli foydalandi va rivojlandi. Oqibatda avval 300 o'g'ri rasmiy ravishda «qonundagi o'g'ri» tojini kiygan bo'lsa, to'qsoninchi yillarning boshlarida ularning soni 1500 dan oshdi. Bu malakalari oshgan, o'g'rilik nomusi, qoidalariga rioya qila oladigan yoshlar safi kengaydi, deganidir.

«O'g'rilik» deganda biz uyga bostirib kiradigan, yo'lda tunagan yoki cho'ntak kesgan odamlarni tushunamiz. To'g'ri bu ham o'g'rilik, ammo bu olam yo'lidagi birinchi bosqichlardan hisoblanadi. Jinoyat olami bizning halol olamga nisbatan farqli o'laroq millat va dinga ahamiyat bermaydi. Bugungi kunga kelib sobiq Ittifoq hududidagi «qonundagi o'g'ri»larning 33 % ini ruslar, 32 % ini gruzinlar, 8 % ini armanilar, 5 % ini ozarbayjonlar, 22 % ini kurtlar, abxazlar, qozoqlar, ukrainlar va boshqa millat vakillari tashkil etishlari aniqlangan.

«Qonundagi o'g'ri»lar odatda uzoq yashamaydilar. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ularning o'rtacha umri ko'pi bilan 50–55 yoshdan oshmaydi. Ayrimlari kam hollardagina 60 yoki undan sal ziyodroq umr ko'radilar. 65 yoshdan oshganlari barmoq bilan sanarli, 70 dan oshganlari ikkitagina bo'lgan. Shulardan biri saratovlik «Mordak»laqabli «qonundagi o'g'ri» bo'lsa, ikkinchisi amerikalik «Kas» laqabli «qonundagi o'g'ri» bo'lgan.

Shuningdek, jinoyatchilik olamida 18–20 yoshdagi «qonundagi o'g'ri»larni ham ko'rish mumkin. Masalan: «Xudo» laqabli Gasoyan 1953-yilda Tbilisida tug'ilgan, 1997-yilda o'ldirilgan. «Valter» laqabli Valeryan Djanashiya 1957-yilda Abxaziyada tug'ilib, 1997-yilda o'ldirilgan. Ular 20 yoshidayoq «qonundagi o'g'ri» unvonini olishgan

Ma'lumotlarga qaraganda, «qonundagi o'g'ri»larning 80 % ni 30 – 35 yoshdagi jinoyatchilar tashkil etar ekan¹. Jinoyatchilar olamining «oliy tabaqasi»ga kiruvchi bu toifadagi jinoyatchilarni o'zining og'ir va o'ta og'ir jinoyatlari bilan kamida 2–3 marotaba qamalib chiqqan, jazoni o'tash joylarida 13–15 yillab o'tirgan, jinoyatchilar olamining barcha axloqiy qonun-qoidalarini puxta o'zlashtirib olgan, jinoyatchilar

¹ Разинкин В.С. Воры в законе и преступные кланы. – М., 1995. – С. 30–31.

dunyasida obro‘-e‘tiborga sazovor bo‘lgan hamda o‘g‘rilarning maxsus yig‘inlarida ushbu «oliy unvonni» olgan professional jinoyatchilar tashkil qiladi.

«Qonundagi o‘g‘rilar»ga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- o‘g‘rilar g‘oyasiga cheksiz sodiqlik;
- jinoyat qilishda tajriba va katta tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish;
- o‘g‘rilarning «qonunlari»ni puxta bilish;
- «obro‘sizlantiradigan» (armiyada xizmat qilganligi, partiyaga a‘zo bo‘lganligi, davlat mukofotlari orden va medallar bilan taqdirlanganligi haqidagi) ma‘lumotlarning bo‘lmasligi;
- jinoyatchilar olamida nufuzga ega bo‘lganlardan og‘zaki yoki yozma tavsiyanomaning bo‘lishi.

Hayotning o‘zgarishi bilan «qonundagi o‘g‘rilar»ning turmush tarzi, ularga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib boradi. Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan «qonundagi o‘g‘rilar» 50-yillardagilaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: birinchidan, jinoyatni bevosita o‘zlari emas, balki boshqalarning («pexota»larning) yordamida amalga oshirishi; ikkinchidan, katta tashkiliy ishlarni bajarish, ya‘ni huquqni muhofaza qiluvchi va ma‘muriy organlar bilan aloqa o‘rnatib, ishni o‘zlarining foydasiga hal qilish bilan shug‘ullanishi; uchinchidan, bevosita o‘g‘rilik bilan emas, balki reket, qimor o‘yini, giyohvandlik bilan shug‘ullanishlari.

Shunday qilib, hozirgi kunda «qonundagi o‘g‘rilar»ning ikki toifasini, ya‘ni eski o‘g‘rilik an‘analariga sodiq qolib, ularning qonunlarini qat‘iy ravishda amalga oshirayotgan «nepman o‘g‘rilar» hamda eski qonun-qoidalarini zamonga moslab o‘zgartirgan «yangi o‘g‘rilar»ni kuzatish mumkin.

«Yangi o‘g‘rilar»ning qamoqda o‘tirgan bo‘lishi shart emas, ular katta pul evaziga «qonundagi o‘g‘ri» rutbasi (tituli)ni sotib olib, eski «nepman o‘g‘rilar»ga qarshi kurash olib boradilar. Bu kurash ko‘pincha bir-birlarini jismoniy yo‘q qilish bilan tugallanadi.

Umuman olganda, «qonundagi o‘g‘rilar» quyidagi axloqiy yomonliklarni bajaradilar:

- jinoyatchilar turmush tarzini, o‘g‘rilik «axloqi», xulq-atvori qonun-qoidalarini targ‘ib qilish, o‘z saflarini o‘g‘rilarning urf-odatlarini yaxshi egallab olgan yoshlar bilan to‘ldirish;

– boshqa uyushgan jinoyatchi guruhlar bilan aloqa o‘rnatish, bitim tuzish, ularga o‘zlarining ta’sirini o‘tkazish hamda yangi xulq me’yorlarini ishlab chiqish va jinoyatchilar dunyosiga tatbiq etish;

– umumiy pul jamg‘armasini tashkil etish va uni muntazam ravishda to‘ldirib borish;

– o‘g‘rilar, firibgarlar va boshqa tekin tomoqlarni topish hamda ularning ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatish;

– qamalgan o‘g‘rilarga, ularning oilasiga moddiy yordam ko‘rsatish;

– o‘g‘rilarning yig‘inini chaqirish va unda ko‘riladigan masalalarni belgilab olish (O‘g‘rilar yig‘ini o‘g‘rilar hayotining muhim masalalarini, masalan, pul jamg‘armasini tashkil etish, uni to‘ldirish, sotqinlarni yo‘q qilish, har xil nizolarni hal qilish kabi masalalar bo‘yicha ko‘pchilik tomonidan «demokratik» asosda qaror qabul qiladigan kengash hisoblanadi);

– jinoyat qidiruv xodimlariga qarshi ish olib borish, o‘zga jinoyatchi guruhlar tomonidan tarqatilayotgan gap-so‘zlarni tekshirib ko‘rish, jinoyatchilar boshliqlarining xavfsizligini ta’minlash ishlarini tashkil etish;

– jinoyatchilar o‘rtasida vujudga kelgan nizolarni, ziddiyatlarni hal etish, ularning axloq me’yorlariga, qonunlariga mos kelmagan xatti-harakatlarni sodir etganlarni sud qilish, qilmishiga yarasha jazo choralarini belgilash, ijro etilishini nazorat qilish va hokazo.

Xuddi shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida qamoq jazosini o‘tayotgan «qonundagi o‘g‘rilar» quyidagi axloqiy yomonliklarni bajaradilar:

– o‘ziga rutbasi to‘g‘ri keladigan yoki o‘g‘rilarning oliy tabaqasiga mansub yoxud shularga yaqin bo‘lgan jinoyatchilar bilan aloqa qilish;

– JIEMda bajariladigan g‘ayriinsoniy, axloqqa zid ishlarni bevosita o‘zi emas, balki xizmatkorlari «tilyog‘lamachilar», ularning qilgan gunohini o‘ziga oluvchi «balogardonlar» («fomootvodlar»), jazolash ishlarini bajaradigan «buqalar» («быки»), «soldatlar» orqali amalga oshirish;

– tashqi dunyo bilan maxfiy yo‘llar orqali aloqada bo‘lish, ya’ni har xil tovarlar, oziq-ovqat, pul kabilarni olib turishni ta’minlash;

– qamoqdagi nazoratchilar ustidan har xil ig‘vo gaplarni tarqatuvchi guruhga rahbarlik qilish, qonunlarni buzib talqin etish kabi targ‘ibot-tashviqot ishlarini uyushtirish;

– kamerada, oshxonada, yotoqda, hammomda o‘ziga yoqqan joyni zo‘rlilik bilan egallash;

– JIEM rahbarlarining, xodimlarining xatolarini, ishdagi kamchiliklarini topish va ulardan buzg‘unchilik, ig‘vo maqsadlarida unumli foydalanish;

– qiyin ishlarni bajarmaslik, yengil ishlar – brigadirlik, sartaroshlik kabi ishlar bilan shug‘ullanish;

– JIEM xodimlari va harbiy xizmatchilar orasidan g‘ayriqonuniy ish qiluvchilarni topish va ular bilan aloqa o‘rnatish;

– belgilangan shakldagi kiyim-boshlardan ajralib turuvchi kiyim kiyish, har xil maishiy hojat predmetlariga ega bo‘lish va hokazo¹.

«*Obro‘lilar*». Bular jinoyatchi unsurlar o‘rtasida katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan professional jinoyatchilar hisoblanib, «qonundagi o‘g‘rilar»dan keyin turuvchi toifani tashkil qiladi.

Bu toifadagi jinoyatchilar ham ikki guruhga ajraladi. Birinchi guruhga «qonundagi o‘g‘rilarga» yaqin bo‘lgan, ular bilan bevosita bog‘langan «obro‘lilar» kirsa; ikkinchi guruhga o‘zlarining moddiy imkoniyatlariga ko‘ra mustaqil bo‘lgan «obro‘lilar» kiradi. Bu «obro‘lilar»ning o‘z odamlari, qo‘riqchilari, maslahatchilari bo‘ladi. Bunday «obro‘lilar» odatda qallob, tamagir bo‘ladilar va ular bilan «qonundagi o‘g‘rilar» hisoblashishga, kelishishga majbur bo‘ladilar.

«Obro‘lilar» «qonundagi o‘g‘rilar» amal qiladigan axloqiy qoidalarni, burch va vazifalarni deyarli bajarsalar-da, biroq ba‘zi jihatlari bilan farq qiladilar. «Obro‘lilar» o‘g‘rilar yig‘inini chaqirishga, ozodlikdan mahrum etilgan joylarda umumiy pul jamg‘armasini tashkil etishga yoki tashkil etilgan «kassa»dagi mablag‘larni sarflashga, o‘g‘rilar yig‘inida hal qiluvchi ovoz bilan qatnashishga, «qonundagi o‘g‘rilar» vakolatlaridan foydalanib, har xil qarorlar qabul qilishga, sudyalik funksiyasini bajarishga haqli emaslar.

«*Ishbilarmonlar*» va «*sexoviklar*». Bu guruhdagilarga iqtisod va xo‘jalik yuritishda jinoyat sodir etganlar kiradi.

«Ishbilarmonlar»ga olibsozlarlar, mansabdor jinoyatchilar, «valutachilar» kirsa, «sexoviklar»ga xususiy tadbirkorlik bilan yashirincha, davlat hisobidan o‘tmagan holda mahsulot ishlab chiqaruvchi jinoyatchilar kiradi. Nima bo‘lganda ham mahsulotni ishlab chiqarish va tezlikda sotib katta foyda olish ularning asosiy qonuni hisoblanadi.

¹ Qarang: Гуров А. И. Профессиональная преступность: прошлое и современность. – М., 1990. – С. 175–176.

«*Qimorbozlar*» qimor o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi professional jinoyatchilar bo‘lib, bu toifadagi jinoyatchilar firibgarlar faoliyatining davomchilari sifatida kelib chiqqan. Ularning asosiy vazifalaridan biri jinoyatchilar dunyosining pul jamg‘armalarini to‘ldirish hisoblanadi.

«*Tilyog‘lamachilar*» jinoyatchilar dunyosining eng pastki tabaqasiga mansub bo‘lgan jinoyatchilar jumlasiga kirib, o‘g‘rilar boshliqlarining xizmatkorlari vazifasini bajaradilar, ya’ni ularning har xil topshiriqlarini bajaruvchi mayda jinoyatchilar hisoblanadilar. Masalan, chaqimchilik, vositachilik, aloqachilik, pul mablag‘larini yig‘ish kabi vazifalarni bajaradilar. «*Tilyog‘lamachilar*» ozodlikda bo‘lganida, o‘zlari jinoyatchi guruhlarga boshchilik qilishi, o‘z odamlariga ega bo‘lishi mumkin, biroq «obro‘li»ga qat’iyan bo‘ysungan holda ish ko‘radi, qamoqxonalarda esa xizmatkorlik vazifasini o‘taydi.

«*Erkaklar*» va «*bolalar, yigitchalar*». «*Erkaklar*» asosan xo‘jalik jinoyati bo‘yicha ozodlikdan mahrum qilinganlar bo‘lib, ular umuman yaxshi ishlaydilar, kun tartibini bajaruvchan, ma’muriyat bilan yaxshi munosabatda bo‘lib, «qonundagi o‘g‘rilar» bilan aloqasini uzib, tezlikda ozodlikka chiqishga harakat qiladilar. Yana shuni alohida qayd qilish kerakki, qattiq, alohida rejimdagi turmada o‘tirgan «erkaklar» o‘zlarining qadri-sha’ni himoya qilish uchun birlashib «qonundagi o‘g‘rilar» va ularning gumashtalariga qarshi kurashadilar. Ular o‘zlarini «banditlar» deb atagan holda «qonundagi o‘g‘rilar»ning yetakchilarini topib, ko‘pchilik oldida nomusiga tegish – besoqolbozlik qilish orqali «qonundagi o‘g‘rilar»ni sharmanda qilib, obro‘sini tushiradilar.

«*Bolalar, yigitchalar*» qaroqchiligi, o‘g‘riligi uchun ozodlikdan mahrum qilingan yosh jinoyatchilar bo‘lib, ular asosan jinoyatchilar dunyosida yaxshi obro‘ga ega bo‘lish uchun «qonundagi o‘g‘ri»larga yaqin bo‘lishga, ular o‘rnatgan axloq qoidalarini bajarishga harakat qiladilar.

«Qonundagi o‘g‘ri»larni qo‘llab-quvvatlovchilarning axloq me’yorlariga quyidagilar kiradi:

- ozodlikdan mahrum etilganlar orasida mustaqil bo‘lish, ya’ni hech kimga bo‘ysunmaslik, ularning axloqiy qoidalarini bajarish;
- o‘z haq-huquqlarini boshqa jinoyatchi guruhlarga poymol qilsalar, ularning ustidan «qonundagi o‘g‘ri»larga arz qilish;
- jamoat joylarini supurib-sidirish, tozalash ishlaridan bosh tortish;
- taqiqlangan predmetlarga ega bo‘lishga harakat qilish va h.k.

«*Shoʻr peshonalar va pastkashlar*». Bularga besoqolbozlar, bachcha-bozlar, balogʻat yoshiga yetmaganlarni zoʻrlab nomusiga tekkanlar va shu qilmishlari uchun ozodlikdan mahrum etilib, qamoqda oʻtirganlar kiradi. Ular odatda ana shu qilmishlari uchun qamoqxonadagi oʻgʻri-jinoyatchilarning ham tegishli jazosiga duchor boʻladilar, yaʼni zoʻrlanadilar. Bundaylardan koʻpchilik jinoyatchilar hazar qiladilar.

Oʻgʻrilar choʻntakkesarlar, uy oʻgʻrilari, doʻkon oʻgʻrilari, avtomobil oʻgʻrilari, antikvariat oʻgʻrilari kabi bir necha guruhlariga boʻlinadilar.

Firibgarlar esa shulardan, folbinlardan, «qoʻgʻirchoqboz»lardan, yolgʻonchi olib-sotarlardan tashkil topadi va ularning har bir toifasining oʻziga xos axloqiy qonunlari boʻladi.

Jinoyatchilar dunyosidagi qonunlar biror joyda yozilgan, tasdiqlangan yoki roʻyxatdan oʻtgan boʻlmaydi. Shuning uchun ham ularni qonun deb hisoblash mumkin emas, ularni faqat jinoyatchilarning «axloq qoidalari» deb atash mumkin.

Retsidivist jinoyatchi shaxslar va ularning tipologiyasi. Retsidivist¹ jinoyatchilarning eng koʻp qismi gʻarazli hamda gʻarazli-zoʻravonlik jinoyatchilari sodir etganlar orasida kuzatiladi. Ularning aksariyati guruh-hiy jinoyatlar ishtirokchilaridir. Ular ushbu jinoyatlarni oʻz daromadlarining barqaror manbaiga va hayotiy faoliyatining asosiy usuliga aylantiradilar.

Bekorchilik, ichkilikbozlik, muloqot doirasining jinoiy muhit, joriy ibtidoiy istaklar bilan cheklanganligi, vaziyatga tobelik ularning ruhiy rivojlanish darajasini nihoyatda cheklab qoʻyadi. Shafqatsiz urush-toʻpolonlarda ijtimoiy jihatdan roʻyobga chiqmagan shaxs namoyon boʻladi.

Retsidivist shaxslarning aksariyatida ruhiy buzilishlar va anomaliyalar kuzatiladi. Ularning xulqi yorqin koʻrinib turgan beboshlik, jizzakilik, beadablik, atrofdagi odamlarga nisbatan dushmanlik bilan ajralib turadi.

«Erkinlikdagi» hayot sharoitlarining nihoyatda noqulayligi, «zona»ga koʻnikib qolish uning jazodan qoʻrqish hissi yoʻqolishiga olib keladi. Yangi jinoyatni retsidivist odatdagi darajada – jinoiy xulqning afzalligiga boʻlgan qarash tufayli sodir etadi. Ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi odatda eng yuqori maqom, imtiyozli holat taʼminlangan hayot esa nafaqat qoʻrqitmaydi, balki oʻziga tortadi.

¹ Retsidivist – jinoyat huquqida sud hukmi bilan hukm qilingandan keyin, jazoni oʻtab boʻlganidan soʻng va sudlanganlik muddati sud hukmi bilan olib tashlanmay turib, qaytadan jinoyatga qoʻl urgan shaxs.

Retsidiv jinoyatchilik individning barqaror g'ayriijtimoiy xislatlarining namoyon bo'lishidir. O'zini boshqarishdagi nuqsonlari g'ayriijtimoiy qadriyatli mo'ljallari bilan birgalikda vaziyat bilan muhitga bog'liqligi retsidivistning asosiy psixologik xususiyatlaridan biridir. Retsidivistning jinoiy xulqida o'zini boshqarishining ongli va ong osti mexanizmlarining o'zaro ta'siriga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 34-moddasiga ko'ra, retsidiv jinoyat deganda, muqaddam qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxs tomonidan takroran jinoyat sodir etilishi tushuniladi. «Retsidiv» so'zi takroran, boshqatdan bo'lib o'tgan ishga yana qaytish ma'nosini anglatadi¹.

Retsidivist shaxs – xavfli jinoiy yo'nalishga va o'ta yuqori ongga ega bo'lgan g'ayriijtimoiy tip. Ya'ni kriminal olamida noijtimoiy ko'rinishdagi yuqori darajada anglangan jinoiy harakatlarga moyil shaxs.

Retsidivist jinoyatchi shaxsning barqaror g'ayriijtimoiy yo'nalishiga egaligi uning qiyinchilik va nizolarni faqat kuch ishlatish orqali hal qilishga doimiy tayyorligida namoyon bo'ladi.

Retsidiv jinoyatchilik ruhiy anomaliyalar, psixopatiyaning yengil darajasi, xarakterning aksentuatsiyalari, alkogolli degradatsiya kabilar bilan yuqori darajada mos keladi. Ayollarda retsidivlik isterik holat va alkogollashuv bilan birga keladi. Ular erkaklarga qaraganda ko'proq hollarda nevrotik va psixopatik buzilish holatida jinoyat sodir etadilar.

Retsidivist jinoyatchilarning ijtimoiy-axloqiy buzilishi ozodlikdan mahrum qilish joylarida uzoq vaqt bo'lish jarayonida chuqurlashadi. Nevrotizm, psixopatizatsiya, xarakterning aksentuasiyalashuvi, xatti-harakatning noadekvatligi, tajovuzkor ko'rinishlarga barqaror moyillik nafaqat jinoiy turmush tarzining, balki ozodlikdan mahrum qilish joylarida uzoq vaqt bo'lishning ham odatdagi oqibatlaridir.

XX asrning 20-yillardayoq mashhur psixolog va psixiatr A. F. Lazurskiy taklif etgan psixologik tiplashtirishga asoslangan holda retsidivist jinoyatchini shaxsning buzilgan tipiga kiritish lozim, ushbu tipning turlarini esa har xil xarakterologik og'ishlarga qarab aniqlash mumkin.

A. F. Lazurskiy barqaror jinoyatchilarni aqlli, irodasi sust, jizzaki va hissiy beqaror turlarga ajratgan. Masalan, irodasi sust retsidivistlar jinoyatlarni ijtimoiy hayotga moslashmaganligi, nihoyatda noqulay

¹ Криминология: Дарслик / Проф. З. С. Зариповнинг умумий тахрири остида. – Т., 2007. – Б. 203.

hayotiy vaziyatlar, turmushining yoʻlga tushmaganligi sababli sodir etadilar. Ular odatda har xil jinoyatlarni sodir etadigan, vaziyatga bogʻliq individlardir.

Retsidivist jinoyatchi shaxslarni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

Impulsiv (gʻayriixtiyoriy) retsivistlar tipi – eksploziv (portlovchi) tiplar, yaʼni oʻz harakatining oqibatlarini oldindan koʻrmaydigan individlar. Ular arzimagan sabablarga kuchli taʼsirni namoyon etadilar. Sodir etilgan jinoyatlarning ogʻirligi odatda ularning sabablariga mos kelmaydi.

Ular oʻz maqsadlari, qarashlari, odatlarining qullaridir. Ularning istaklari (ayniqsa, alkogoldan mast holatda) darhol keskin gʻayriijtimoiy harakatlarga aylanadi, yaxshi koʻrgan ishi – bezorilik, zoʻrlikka asoslangan qilmishlar hisoblanadi. Ular odatda nevrozlar, ichkilik tufayli buzilishlar, aqliy yetishmovchiliklar, infantivizmga duchor boʻlgan shaxslardir.

Affektiv (kuchli his-hayajon holati) retsivistlar tipi nihoyatda chuqur emotsional beqarorligi, asabiy holatni hatto murakkab boʻlmagan nizoli vaziyatlarda ham tezlashtirishi, qiyinchilikka bardosh bera olmasligi bilan ajralib turadilar.

Ular oʻzlarining kamchiliklarini oʻta tajovuzkorlik, xulqining umumiy kuchli energetizmi bilan qoplashga urinadilar. Ular doimo fuqarolarning hayoti va sogʻligʻiga tajovuz qilishga, mulkni ishdan chiqarish va buzishga moyildirlar. Ushbu jinoyatchilarning retsivdlari odatda bir xil yoki oʻxshash jinoyatlardan tashkil topadi.

Retsivistning emotsional tipi qandaydir barqaror, ustunlik qiluvchi hissiy-salbiy holat (haddan tashqari kuchli alam, qasos, rashk hissi) bilan ajralib turadi. Barqaror gʻazab, qasoskorlik, shafqatsizlik, baxillik uni uzoq vaqt jinoiy qasd rejasini koʻtarib yurishga, jinoiy maqsadga erishish vositalari va usullarini puxta oʻylashga undaydi. Jinoiy gʻarazni odatda oʻta shafqatsizlik va ustalik bilan bajaradi. Uning yaxshi koʻrgan ishi – ashaddiy bezorilik, qiynash, nomusga tegish, qotillik. Bunday jinoyatchilar hissizligi, achina olmasligi, shafqatsizligi bilan ajralib turadilar. Bu tipdagi retsivistlar odatda psixopatiya, degradatsiya va alkogol-lashuvning yengil darajalariga duchor boʻladilar.

Ushbu toifadagi jinoyatchilarga xos jihatlar orasida dominantlik – atrofida ustunlik, tavakkal qilish, soxta qahramonligi bilan oʻziga bino qoʻyish, maqtanchoqlik, savlatga zoʻr berish alohida koʻzga tashlanadi. Jinoyatchilar orasida ular shaddodlik, shafqatsizlik, nihoyatda qoʻpollik, kuch ishlatish, shantaj va tahdidlarni namoyon etadilar.

Retsidivist jinoyatchilarning ijtimoiy xavfliligi ularning axloqiy jihatdan beqaror shaxslarga, ayniqsa o'smirlar va yoshlardan bo'lgan ana shunday shaxslarga g'ayriijtimoiy ta'sirining kuchi tufayli oshib boradi. Retsidivist jinoyatchilar tergovga qarshilik ko'rsatish tajribasiga egaligi tufayli o'z jinoyatchilarini puxta yashiradilar.

Maxsus retsidiv (o'xshash jinoyatni takrorlash) jinoiy «ixtisoslashuv»ning kuchayib borishi, jinoiy qilmish usullarining takomillashuvi bilan bog'liq. O'ta xavfli retsidivistning belgilaridan biri – jinoyatni sodir etishning og'ir usulidir. Uzoq davom etuvchi jinoiy faoliyat muayyan barqaror sharoitlarning yaratilishi – «ishonchli» sheriklarning tanlanishi, jinoiy yo'l bilan topilgan buyumlar, qimmatbaho narsalarni o'tkazishning tashkil qilinishi va ko'p hollarda jinoiy guruhning tashkil etilishi bilan bog'liq.

Bir turdagi retsidivning ko'payib borishi jinoyatchilarning mahorati oshib borayotganidan, ularning g'ayriijtimoiy yo'nalganligi chuqurlashayotganidan, jinoiy faoliyatining ta'siri ortib borayotganidan dalolat beradi.

Retsidivist jinoyatchilar jinoyat olamining o'zagi, jinoiy submadaniyatning qo'riqchilari, jinoyat sodir etish va ularni yashirishning nozik usullarini ishlab chiquvchilardir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy axloq va unda «normadan chetga chiqish» nima?
2. Psixik anomaliyalar inson axloqi va psixikasiga qanday ta'sir qiladi?
3. Psixologiyada jinoyatchi shaxs tushunchasiga qanday ta'rif berilgan?
4. Shaxslarning asosiy kriminal tiplarini psixologik tavsiflang.
5. Alohida toifadagi huquqbuzarlarning psixologik xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Xo'jalik va xizmat sohaslariga oid g'arazli jinoyatchilar toifasiga ta'rif bering.
7. Retsidiv jinoyatchilarning qanday tiplari mavjud?

VIII bob.

**JINOIY GURUHLAR VA UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA
PSIXOLOGIK TAVSIF**

**1. Jinoiy guruhlar shakllanishining psixologik
sabab va sharoitlari**

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida fuqarolar, davlat va, umuman, jamiyatimizga xavf solayotgan, xalqimizning farovonligini ta'minlash siyosatini amalga oshirishga salbiy ta'sir o'tkazishga urinayotgan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash huquqni muhofaza qilish idoralari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Buni o'z vaqtida tushunib yetgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov inson, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan, ayniqsa uyushgan jinoyatchilikning xavfli ko'rinishlaridan biri bo'lgan terrorchilik tajovuzlaridan himoya qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, u «Jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemiradi. Jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga salbiy munosabat yuzaga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g'oyasining o'zini obro'sizlantiradi va eski zamonlarni, shu jumladan «qudratli markazning kuchli qo'li»ni qumsash hissini tug'diradi. O'tmish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'lik, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishi va qaror topishi mumkin. Qing'ir yo'l bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e'tiboridan chetda qolsa, odamlarni, ayniqsa hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarni yomon yo'lga og'diradi»¹, deb ta'kidlaydi.

Kasbiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri guruh bo'lib jinoyat sodir qiluvchi shaxslar psixologiyasini o'rganishidir.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida bir shaxsning ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etishi yoki jinoiy faoliyat yuritishi qonunda

¹ Qarang: *Karimov II. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiёт йўлида.* T. 6. – T., 1998. – B. 91–92.

aybni og'irlashtiruvchi holatlar qatoriga kiritilgan (masalan, takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etish). Haqiqatan ham ushbu ko'rsatkich shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradi. Agar jinoyiy faoliyatni ikki yoki undan ortiq shaxslar sodir etgan bo'lsa, jinoyatlarning hamda guruhning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'ladi.

Shu ma'noda jinoyatchilar dunyosiga qirib borayotgan jinoyiy guruhlar shakllanishining umumiy psixologik sabab va sharoitlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, jamiyatda mavjud iste'mol va taqsimot o'rtasidagi adolatsizlikning mavjudligi bo'lib, bu, o'z navbatida, ayrim shaxslar psixikasida kuchli emotsional zo'riqishlarni keltirib chiqaradi. Natijada ayrim shaxslar jinoyiy guruh tuzishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishi;

ikkinchidan, jamiyatdagi ayrim shaxs, guruh va jamoalar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvining doimiy mavjudligi bo'lib, uning keskinlashuvi ham jinoyiy uyushmalarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi;

uchinchidan, qonun hukmidan qoniqmaslik, odatda uni «adolatsiz» hukm deb bilish tariqasida his-hayajonning, ichki ruhiyatning jumbishga kelishi, nafrat hissining qo'zg'alishi ham o'z navbatida jinoyiy guruhlarning paydo bo'lishiga asosiy motiv bo'lib xizmat qilishi;

to'rtinchidan, jinoyatchilar dunyosining ta'siriga tushib qolish, uni targ'ib qiluvchi g'oyalarga emotsional holatda berilib ketish natijasida ongli va ongsiz tarzda jinoyiy guruh tuzilib qolishi;

beshinchidan, mavjud qonunlarni bilmaslik, undan yetarli darajada xabardor bo'lmaslik natijasida, yoshlik, uquvsizlik, shunchaki qiziqish tufayli jinoyiy guruh tuzish yoki unga aralashib qolish ehtimolining mavjudligi;

oltinchidan, aniq bir maqsadni ko'zlab, ma'lum reja, motiv asosida jinoyat sodir etish uchun birlashish natijasida paydo bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, jinoyiy guruhlarning shakllanishiga olib keluvchi maxsus psixologik omillar ham mavjud, ularga:

- «birlashmay turib» jinoyat sodir etib bo'lmasligi;
- jinoyiy manfaatlarning umumiyligi;
- shaxsiy mayllar;
- umumiy axloq normalari, umumiy e'tiqodlar, huquqiy ongdagi o'xshash nuqsonlar va shu kabilar kiradi.

Jinoyiy guruhlarga quyidagi belgilar xosdir (ular ushbu guruhlarning uyushqoqlik darajasiga ko'ra ko'p yoki kam darajada namoyon bo'ladi):

– uyushganlik – qat’iy iyerarxik tuzilishning mavjudligi, qattiq intizom, quyi bo‘g‘inlarning yuqori bo‘g‘inlarga bo‘ysunishi;

– barqarorlik – uzoq muddatli va barqaror jinoiy aloqalar hamda fosh bo‘lganidan va jinoiy ta’sir chorasi qo‘llanilganidan keyin tiklanish (butunlay yoki qisman);

– jipslik – guruh a’zolarining aloqa, birlashish darajasi. Jipslikning determinantlari quyidagilardan iborat:

a) a’zolarining bir-biriga tortadigan motivatsion asos, jumladan ularning g‘arazli shaxsiy manfaat va ehtiyojlari majmui;

b) jinoiy guruh a’zolarining guruh maqsadlari, dasturi, nizomida o‘z ifodasini topadigan motivlari;

– himoyalanganlik – tuzilmada himoya, ta’minot bloklarining, ruhiy ta’sir va jismoniy zo‘rlik apparatining mavjudligi.

Ishtirokchilikning uyushgan shakllariga uyushgan guruh va jinoiy uyushmalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 29-moddasining 4-qismida «uyushgan guruh» tushunchasi ko‘rsatilgan bo‘lib, unda «ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi»¹, deyilgan. Bu bilan qonun «jinoiy faoliyat» uyushgan guruhning zaruriy belgisi ekanligini ko‘rsatmoqda. Biroq, Jinoyat kodeksida «jinoiy faoliyat»ga ta’rif berilmagan. Xo‘sh, unda «faoliyat» so‘zining o‘zi nimani anglatadi?

Faoliyat – insonning turmush kechirish usuli. Bu tushuncha inson ongli ravishda ishtirok etadigan, maqsadga yo‘naltirilgan jarayonni bildiradi. Faoliyat odam ehtiyojini qondirish vositasi sifatida vujudga keladi. Lekin bu faqat vosita va sharoitdangina iborat bo‘lmaydi, balki turmushning shakli va usuli hisoblanadi. Faoliyatda insonning o‘zi shakllanadi, uning qobiliyati rivojlanadi. Inson faoliyatining boshlang‘ich shakli – mehnat, moddiy amaliyot hisoblanadi. Mehnat faoliyati jismoniy mehnat va tafakkurdan iborat bo‘lib, bir-birini o‘zaro taqozo etadi. Maqsad, predmet, vosita va natija faoliyatning zaruriy jihatlaridir.

«Faoliyat» tushunchasining mazmunidan ko‘rinib turibdiki, u insonning turmush tarzini anglatadi. «Faoliyat» tushunchasini jinoiy faoliyat bilan taqqoslab shuni aytish mumkinki, jinoiy faoliyat bir necha ijtimoiy xavfli qilmishlarni doimiy sodir etishda yoki jinoyat sodir etishni «kasb» qilib olishda namoyon bo‘ladi.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2008. – Б. 13.

Uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishi muammosiga ko'pgina olimlar tushuncha berishga harakat qilgan, ammo ularning mulohazalari turlicha bo'lib, hanuzgacha yagona fikr mavjud emas. Jumladan, A. I. Gurov «jinoiy faoliyat jinoyatchilarning asosiy yoki qo'shimcha foyda olish manbai»¹, deb yozadi

Bu fikr chuqurroq tahlil qilinsa, ayrim uyushgan guruhlariga mos kelmasligi ko'rinadi. Masalan, shaxslarning milliy, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab, ularning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazish maqsadida tuzilgan uyushgan guruh; genotsid jinoyatini sodir etish uchun birlashgan guruh; doimiy ravishda nomusga tegish jinoyatini sodir etish uchun birlashgan guruh va boshqalar.

Huquqshunos olimlar A. S. Yakubov va R. Kabulov quyidagi belgilarni ajratishgan va ularning yig'indisi guruhni uyushgan deb hisoblash uchun jinoiy-huquqiy asos bo'lishini ta'kidlashgan:

- 1) oldindan til biriktirish;
- 2) jinoiy faoliyat bilan hamkorlikda shug'ullanish uchun birlashish;
- 3) uyushganlik.

Yuqorida keltirilganlar olimlar bergan ta'rif bu borada masalaning mohiyatini aniqroq ifodalaydi. Ya'ni, «jinoiy faoliyat – ayrim jinoyat tarkiblari yig'indisidan iborat yagona tizimni vujudga keltiruvchi, tashkillashgan bir necha qilmishlardan iborat»², deyilgan. Bu ta'rif qisqa bo'lishiga qaramay, bir necha jinoyatlarni sodir etish faqat yagona tizim shaklida jinoiy faoliyatni tashkil etishini anglatadi. Ammo bu ta'rifda bir necha jinoyat tarkiblari haqida so'z yuritilgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, uyushgan guruh nafaqat tarkibida bir necha jinoyat bo'lgan qilmishni, balki tarkibida birgina jinoyat bo'lgan qilmishni sodir etish bilan ham ko'zga tashlanishi mumkin.

Uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishining obyektiv va subyektiv belgilari mavjud. Guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanganligini ko'rsatuvchi birinchi mezon sifatida guruh a'zolarining bir necha jinoyatlar sodir etganligini va yana sodir etishga tayyorgarlik ko'rayotganini aytib o'tish mumkin. Shu bilan birga, o'ta puxta tashkillashtirilgan, tayyorgarlik ko'rish uchun ko'p vaqt talab qilinadigan yagona jinoyatni sodir etgan guruhni ham jinoiy faoliyat

¹ Qarang: *Гуров А.И. О некоторые вопросы криминального профессионализма // Советское государство и право. – 1987. – №5. – С. 82 – 86.*

² Qarang: *Якубов А. С., Кабулов Р. Новое в уголовном законодательстве. – Т., 1995. – С 14.*

bilan shug‘ullangan deb hisoblash mumkin (bunda jinoyatning va unda ishtirok etgan shaxslarning ijtimoiy xavflilik darajasi hamda boshqa bir qancha omillar inobatga olinadi).

Umuman olganda, jinoiy guruhlar jinoyat sodir etish uchun tashkil etilgan, deb aytish mumkin.

Jinoiy guruhlarining shakllanganlik darajasiga qarab quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

- 1) jinoiy jamoa;
- 2) jinoiy korporatsiya;
- 3) guruh assotsiatsiyasi;
- 4) amorf (diffuz) guruhlar.

Amorf guruhdagilarda aniq tizim yo‘q, vazifa bo‘linmagan, aslida jinoyatni sodir qilish niyati yo‘q. Masalan, kinoga, samolyotga, poyezdga chipta olishda paydo bo‘lib qoladi.

Assotsiatsiya guruhi uyushgan, boshida ular jinoyat sodir qilish uchun emas, balki ba‘zi bir ehtiyojlarini qondirish uchun yig‘iladi, lekin yaxshi jinoiy guruh bo‘lib shakllanishi mumkin. Lekin bu guruhlarining yadrosini tashkil etadigan, jinoyatga qarshi zid harakat qiladigan shaxslar mavjud, ular baribir jinoyat sodir qilishi mumkin. Shuning uchun ular huquqbuzarlar kompaniyasi deb nomlanadi.

Tez-tez yig‘ilib turadigan jinoiy guruhlar mavjud, ular jinoyat sodir qilishdan avval yig‘ilishadi, masalan, o‘g‘irlik, firibgarlik, bularni guruh ichidagi yadro boshqaradi. Ular bilan ishlash ancha og‘ir, ularning o‘z an‘analari mavjud, bu an‘analardan chiqishning o‘zi bo‘lmaydi. Bu yerda vazifalar taqsimlanadi, o‘zaro hamkorlikda pog‘ona paydo bo‘ladi, subyektiv bog‘lanish juda to‘g‘ri va ishonchli bo‘ladi. Bunday guruhlar jinoyatni oldindan rejalashtiradi, tashkillashtiradi. Bu *jinoiy korporatsiya* deyiladi. Shaxs bu guruhda qolar ekan guruh axloqini o‘zlashtiradi va o‘zida shuni sinab ko‘radi.

2. Jinoiy guruh va uyushgan jinoyatchilik psixologiyasi

Uyushgan jinoyatchilikka xos asosiy xususiyat yuksak darajadagi o‘zini o‘zi boshqarish va iyerarxik tuzilishga ega bo‘lishdir. U boshqaruv, rahbarlik, bo‘ysunish va jinoyatchilar o‘rtasida vazifalar taqsimlanishining uchta, bir qator hollarda esa undan ko‘proq darajalariga ega. Aksariyat hollarda ushbu jinoiy tashkilotlar piramidasimon tuzilishga ega bo‘ladi. Mazkur piramidaning cho‘qqisida asosiy yetakchi (lider), uning bevosita atrofida esa asosiy qarorlarni qabul qiladigan kichikroq guruh bo‘ladi.

Jinoiy guruh psixologiyasi jinoiy psixologiyaning maxsus bo‘limi sifatida tuzilmaning kelib chiqishi, tarkibi, unda vazifalar taqsimoti, shuningdek, boshqaruvning psixologik mexanizmlarini o‘rganadi.

O‘z vaqtida fosh etilmagan va jazolanmagan jinoyatchi juda xavflidir, chunki u surbetlashib boradi va mayda jinoyatlardan ko‘pincha katta jinoyatlarga o‘tadi, buning ustiga jazosiz qolish boshqa beqaror shaxslarda ham jinoiy maqsadlar shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi va jinoiy guruhlar tashkil etilishiga ko‘maklashadi. Jinoiy guruhning tashkil etilishi ijtimoiy xavfning nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan kuchayishidir. Bir qator hollarda shaxs yolg‘iz o‘zi sof texnik jihatdan jinoiy harakatlarning butun rejasini amalga oshira olmasligini ham ta‘kidlash joiz.

Jinoiy guruhni tahlil qilishda ishtirokchilari orasidan quyidagilari ajratiladi:

– umuman guruh yoki uning ayrim qismlarining (ishtirokchilarining) tashkilotchisi;

– «mas‘ul» joydagi ijrochi;

– ikkinchi darajali ijrochi;

– muxolif, guruhning «bo‘sh bo‘g‘ini» (irodali inson bo‘lishi ham mumkin)

– o‘zi ishtirok etayotgan jinoyatning sodir etilishiga qalban rozi bo‘lmagan subyekt. Ko‘pincha bu bo‘g‘in guruh ichida nizoli vaziyatni yuzaga keltiradi.

Jinoiy guruhlar uyushganlik darajasiga ko‘ra uyushgan jinoiy guruhlar, jinoiy tashkilotlar va jinoiy uyushmalarga bo‘linadi.

Jinoiy guruhning psixologik tuzilishi – qaror topgan, integratsiyalashgan (birlashgan) munosabatlar – jinoiy guruh a‘zolarining atrof muhit bilan munosabatlari. Integratsiyalashgan munosabatlarning psixologik tavsifi guruh ichida shakllangan (shaxslararo, gorizontaal va vertikal) munosabatni bildiradi.

Uyushgan jinoiy guruhning integratsiyalashgan munosabatlari (masalan, huquqni muhofaza qilish organlari va hokimiyat organlari bilan munosabatlar) avvalo u jinoiy qilmishlarni sodir etadigan muhitga, uning shakllanishi va rivojlanishiga imkon bergan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va boshqa shart-sharoitlarga (korrupsiya, xufiya iqtisodiyot va sh.k.) bog‘liq.

Integratsiyalashgan munosabatlar guruh a‘zolarining funksional vazifalari tabaqalashuviga, ya‘ni vazifalar taqsimotiga, jinoiy guruh

ishtirokchilari o'rtasidagi jinoiy faoliyatning xususiyati bilan bog'liq vazifalarga, iyerarxik pog'onada egallab turgan mavqei, maqomi va shu kabilarga asoslanadi.

Jinoiy guruhning qanday faoliyat ko'rsatishiga qarab integratsiyalashgan munosabatlarning xususiyati haqida so'z yuritish mumkin.

Jinoiy guruh faoliyatiga uning faoliyat sohasining zamon va makonda asta-sekin kengayib borishi, sodir etilgan jinoyatlarning ko'payishi, og'irroq jinoyatlarga o'tishi xosdir.

Jinoiy faoliyatning kengayishi jarayonida jinoiy guruh ichida psixologik va funksional tuzilmalarning shakllanishi yuz beradi. Guruhning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning ichki psixologik tuzilishi ham shunchalik aniq ko'rinishga ega bo'ladi. Guruh jipslashib boradi, uning tarkibi barqarorlashadi, faoliyati maqsadga yo'nalgan tus oladi, guruh a'zolari o'rtasida vazifalar taqsimlanadi.

Jinoiy guruh rivojlanishining qonuniyatini ushbu guruh ishtirokchilari o'rtasidagi emotsional (hissiy) munosabatlarning asta-sekin birgalikdagi faoliyatga asoslangan sof ishga, funksional munosabatlarga aylanishi tashkil qiladi.

Uyushgan jinoiy guruhda ishga oid munosabatlar hal qiluvchi xususiyatga ega bo'lib, hissiy, shaxsiy munosabatlar asta-sekin yo'qolib boradi, bir qator hollarda esa bunday munosabatlar umuman bo'lmasligi ham mumkin. Ishtirokchilari qarindoshlik rishtalari bilan bog'liq bo'lgan guruhlarda ham xuddi shunday jarayonlar ko'zga tashlanadi.

Jinoiy guruh shakllanishi va faoliyat ko'rsatishining oxirgi qonuniyati – unda doimo ikki qarama-qarshi kuch amal qilishidir. Biri jinoiy guruh a'zolarini yanada jipslashtirish va yaqinlashtirishga qaratilgan bo'lsa, boshqasi ularni ajratishga qaratilgan.

Biroq jinoiy guruh muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan davrda ruhiy jihatdan jipslashgan tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. U jinoyatlarni muvaffaqiyatli sodir etishda davom etayotgan, fosh bo'lmay qolayotgan ekan, uning a'zolari o'rtasida birlashish va jipslashish tamoyili ustunlik qiladi. Agar jinoiy guruh qandaydir muvaffaqiyatsizlikka uchrasa hamda fosh bo'lish va guruh a'zolarining javobgarlikka tortilish xavfi yuzaga kelsa, uning ajralish tamoyili kuchayadi, yashirin nizolar, ziddiyatlar ko'rinadi, ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarda keskinlik ortadi.

Jinoyatning guruh tarkibida sodir etilishi jinoyat tarkibining aybni og'irlashtiruvchi belgisi hisoblanadi. Odatda oddiy, uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy tashkilotlar ajratiladi.

Har bir jinoiy guruh unga xos bo'lgan guruhiy tashkilot, guruhiy dinamika, a'zolarining guruhdagi vazifalarining va sotsiometrik maqomlarining funksional taqsimotiga ega bo'lgan ijtimoiy guruh hisoblanadi hamda jinoiy faoliyatning jamoa subyektini tashkil etadi.

Bir necha shaxsdan tashkil topadigan *oddiy jinoiy guruh* qat'iy iyerarxik tashkilotga ega bo'lmaydi, bunday guruhda yetakchilik qisqa muddatli xususiyatga ega bo'lishi mumkin (kvartira o'g'rilari, ko'cha talonchiligi, firibgarlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlar guruhlari).

Uyushgan jinoiy guruhga iyerarxik tuzilish, guruhda vazifalarning funksional taqsimlanishi, barqaror jinoiy jipslik, qat'iy yagona boshchilik, jinoiy submadaniyatga egalik xosdir. Bunday guruhda jinoiy «hunar» puxta rejalashtiriladi, keng tarmoq otgan guruhlararo aloqalar mavjud, axborot xizmati, jinoyat izlarini yashirish, niqoblash va yo'q qilish yo'lga qo'yilgan. Bunday jinoiy guruh tarkibida barqaror jinoiy-kasbiy malakalarga ega bo'lgan professional jinoyatchilardan iborat birlamchi guruh (guruh yadrosi) ajralib turadi. Bunday guruhlar nisbatan mustaqil bo'lib, odatda korrupsiyalashgan aloqalarga ega bo'lmaydilar. Ular doimiy daromad keltiradigan maskanlar va doimiy nazorat qilinadigan hududlarga ega bo'lmaydi. Biroq ularning jinoiy faoliyati yuqori darajadagi professionalizmi, guruhiy jipsligi, shafqatsizligi bilan ajralib turadi (bandalar, shaykalar). Bular odatda an'anaviy jinoiy guruhlar deb ataladi.

Bunday guruhlarining asosiy qismini «janggarilar» – jismonan baquvvat, shafqatsiz va guruh boshlig'iga sadoqatli odamlar tashkil qiladi. Ular muayyan hududni nazorat qiladi (firibgarlik bilan shug'ullanadi, tijorat tuzilmalariga «homiylilik» qiladi, o'lpon yig'adi va dayuslik bilan shug'ullanadi).

Uyushgan jinoiy guruhlar ijtimoiy uyushgan birlik sifatida faoliyat ko'rsatadilar, keng miqyosdagi ijtimoiy aloqalarga ega bo'lgan umumiy (yagona) funksional-iyerarxiyalashgan tizimga birlashadilar, katta miqdordagi pulga ega bo'lgan jamg'armalar tashkil qiladilar, huquqni muhofaza qilish organlarini korrupsiyaga tortish orqali o'z xavfsizligini ta'minlaydilar. Ularning jinoiy faoliyati ko'p hollarda legal (qonuniy) tashkilotlarning faoliyati bilan ham bog'liq bo'ladi. Jinoiy sindikatlar

xayriya ishlarini amalga oshirish, siyosiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali o‘zining obro‘cini mustahkamlashga harakat qiladilar.

Jinoiy guruhni uyushgan deb atash uchun asosiy mezon tariqasida quyidagi belgilarni hisobga olish lozim:

- guruhning barqarorligi;
- tashkilotchining bo‘lishi;
- bir necha jinoyat sodir etish maqsadida tuzilganligi;
- jinoyatni amalga oshirish rejasi va yo‘l-yo‘rig‘i ishlanganligi;
- har bir ishtirokchi o‘rtasida vazifalar taqsimlanganligi;
- texnika bilan ta‘minlanganligi;
- jinoyatni yashirish choralari ko‘rilganligi;
- umumiy intizomga va jinoiy guruh tashkilotchisining ko‘rsatmalariga itoat qilinishi va shu kabilar.

Uyushgan guruhning yana bir necha qo‘shimcha belgilari mavjud bo‘lib, ular fakultativ belgilar deb yuritiladi. Bu belgilarning mavjudligi guruhning ijtimoiy xavfliligini oshiradi, ammo ishtirokchilikni shakllarga ajratishga ta‘sir etmaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

Guruhning texnik vositalar bilan ta‘minlanganligi. Sud amaliyoti xodimlari ishini yengillashtirish maqsadida bu belgini biz fakultativ belgilar qatoriga qo‘shdik. Chunki guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun texnika kerak bo‘lmasligi mumkin, masalan, buyurtma orqali odam o‘ldirish jinoyatini bajaruvchi uyushgan guruhlarining jinoiy faoliyati uchun faqat o‘qotar qurol kerak va ular boshqa texnika sotib olmasligi mumkin. Texnika bilan ta‘minlanganlik deganda, guruhning faoliyat yuritishda texnikadan, masalan, avtotransport vositasi, ovoz eshitish, suratga olish, video va boshqa apparatlar, turli ratsiyalar va boshqa shunga o‘xshash vositalardan keng foydalanishini tushunish kerak.

Vazifalarning taqsimlanganligi. Bu uyushgan guruhning yana bir fakultativ belgisi hisoblanadi. Guruh a‘zolari belgilangan vazifalarni bajaradi, ammo ayrim hollarda vazifalar aniq belgilanmaydi va guruh a‘zosi keyingi jinoyatni sodir etishda qaysi vazifani bajarishini bilmaydi, jinoiy faoliyat davomida u bir vazifani bajarishdan ikkinchi vazifani bajarishga o‘tkazilishi yoki bevosita jinoyat sodir etish vaqtida vazifasi aniq bo‘lishi mumkin.

Umumiy pul jamg‘armasining mavjudligi. Umumiy pul jamg‘armasi jinoyatchilik dunyosida «obshak», «umumiy qozon» deb yuritiladi. Uni tashkil etishdan asosan ikki maqsad ko‘zda tutilgan: birinchidan, guruh

a'zolarining favqulodda vujudga keladigan ehtiyojlari (qamoqqa olingan paytda uni va oila a'zolarini ta'minlash), guruhning manfaatlari va yo'l boshchining ayrim xarajatlari uchun sarflash; ikkinchidan, guruh a'zolarining barqarorligini ta'minlash maqsadida tuziladi. Guruh a'zolari o'zlarini «ijtimoiy» himoyalangan hisoblaydilar va shu yo'l bilan uyushgan guruh a'zolariga nisbatan g'amxo'rlik qilinayotganligi ko'rsatiladi. Ushbu jamg'arma ayrim uyushgan guruhlarda mavjud bo'lmasligi mumkin.

Guruhda jinoiy faoliyatni kasb qilib olgan shaxslarning mavjudligi. Ayrim uyushgan guruhlar tarkibida jinoiy faoliyat hayot tarziga aylangan shaxslar bo'ladi. Ko'p hollarda bunday shaxslar guruhga yo'l boshchilik qiladi yoki guruhning «obro'mandi» sanaladi. Bunday shaxslar ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmaydi. Ularni guruh jinoiy faoliyatda uddaburon «malakali kadr» sifatida va jinoiy guruhning boshqa a'zolariga o'rnak qilib ko'rsatish maqsadida saqlaydi.

Guruhning o'qotar qurollar bilan ta'minlanganligi. Uyushgan guruhlar doimiy ravishda katta foyda olish va guruhning barqarorligini ta'minlash, jinoyatlarni «muvaffaqiyatli» sodir etishga intiladi. Ko'pchilik uyushgan guruhlar shu maqsadda o'qotar qurollarni qo'lga kiritadilar va jinoyatlarni sodir etishda bevosita undan foydalanadilar.

Ijtimoiy nazoratni bartaraf etib, jinoiy faoliyatga sharoit yaratib beruvchi tizimning mavjudligi. Uyushgan guruhning mavjudligi va jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishida ushbu tizimning ahamiyati katta. Uni tashkil etuvchi shaxslar bevosita jinoyat sodir etishda qatnashmasalar ham jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib beradilar. Masalan, ayrim davlat nazoratini olib boruvchi mansabdor shaxslar jinoiy guruh faoliyatiga, ma'lum sabablarga ko'ra, to'sqinlik qilmaydilar va buning natijasida davlat hamda fuqarolarga jiddiy moddiy va ma'naviy zarar yetkaziladi.

Uyushgan jinoyatchilikning asosiy belgilari:

- 1) turg'unligi va reja bilan ish qilishi;
- 2) yuqori tashkilotchiligi va lider yadrosining borligi;
- 3) qo'lga tushmaslik uchun niqoblanishning mavjudligi;
- 4) katta pulga egaligi;
- 5) chuqur konspirativ xarakterga ega ekanligi;
- 6) ta'sir doirasining kengligi;
- 7) faoliyatini yangilab borishi (tajriba asosida);
- 8) jamiyatga qarshi g'oyasining aniqligi.

Aniq vazifalarning taqsimlanishi, guruhlardagi iyerarxiyalashgan tizimning ichki jipsligi asosida manfaatlar yotadi. Qattiq tartib, topshiriqlarni soʻzsiz bajarish, faoliyatni oʻz qonun-qoidalarini asosida olib borish, sukut saqlash guruh uchun muhim rol oʻynaydi. Mana shu tartibdan qaysidir bandi buzilsa, guruh aʼzosi qattiq jazolanadi, ogʻir jismoniy jazo belgilanadi.

Guruh aʼzolari qoʻlga tushmaslik uchun niqoblanadilar. Bunda organ xodimlarini shantaj qilish, sotib olish va ularning rejalarini oldindan (razvedka qilib) bilish va kerakli choralarni koʻrish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat apparatidagi mansabdor shaxslarning organ xodimlari bilan bogʻliqligi, organ xodimlarining jinoyat olami bilan bogʻliqligi ularning ishini yengillashtiradi, ular orqali jinoyat olamiga kirib borishadi. Agar korrupsiya bilan ish bitmasa, mansabdor shaxslarni diskriminatsiya (kamsitadi, bolalarini oʻgʻirlyadi) qilish, ularni boshqa shaxslar bilan almashtirishga harakat qiladilar.

Uyushgan guruhda katta miqdordagi pulni mavjudligi mansabdagi shaxsni sotib olishga imkoniyat yaratib, bu bilan faoliyat masshtabini kengaytirishga xizmat qiladi.

Uyushgan jinoyatchilik chuqur konspirativ xarakterga ega. Jinoyat sodir etishga koʻproq odamlarni jalb qilish uni ochishni ancha mushkullashtiradi. Organ xodimlari jinoyatchilarning bir qismini qoʻlga olsa, ikkinchi qismi jinoyat sodir etadi. Organ xodimlari ular orasiga qancha koʻp kirib borsa, ish shuncha mushkullashadi. Bu uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashmaslik kerak degani emas, balki kurashning yangi usulini topish demakdir.

Jinoyat sodir etgan guruhni uyushgan deb baholash uchun yuqorida keltirilgan asosiy belgilar mavjud boʻlishi kerak. Chunki bu belgilar barcha uyushgan guruhlariga xos va shu belgilarning oʻzi guruhning uyushganligidan dalolat beradi.

Qoʻshimcha belgilar uyushgan guruhni kengroq taʼriflab, uning ijtimoiy xavfliligidan dalolat beradi, uning uyushganlik darajasini belgilaydi va shu bilan birga, huquqni muhofaza qilish idoralarining amaliy ishlarida guruhni uyushgan deb baholashda koʻmaklashadi. Bu turdagi belgilarning fakultativ deb atalishiga sabab ularning barcha uyushgan guruhlarda mavjud boʻlmasligidir.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, uyushgan guruhga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiqdir. «Uyushgan guruh – umumiy maqsadga ega bo'lgan, o'zining mustahkamligi, tarkibining barqarorligi, guruh rahbariga bo'ysunish asosida (doimiy yadroga ega bo'lgan) tashkil etilganligi bilan belgilanadigan ikki yoki undan ortiq shaxslarning bir yoki bir necha jinoyatni sodir qilish uchun bir guruhga birlashishi»¹ dir.

Biz yuqorida sanab o'tgan belgilari mavjud bo'lgan guruhni uyushgan deb atash mumkin. Chunki bu belgilar guruh faqat jinoiy faoliyat bilan shug'ullangandagina mavjud bo'ladi. Jinoyat kodeksida berilgan ta'rifda ham guruhning faqat jinoiy faoliyat bilan shug'ullangan vaqtda uyushgan bo'lishi e'tirof etilgan.

Amaliyotdagi jinoiy ishlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda bevosita jinoyat sodir etgan shaxslarning harakatlarini kvalifikatsiya qilishda huquqni muhofaza qilish xodimlari guruhni uyushgan deb baholaganlar, ammo qaysi belgilariga qarab bunday xulosaga kelganliklarini bayon qilmaganlar.

Demak, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish maqsadida barqaror yo'sinda birlashgan va norasmiy qoidalarga rioya qilib, tashkiliy tarzda jinoyat sodir etuvchi hamda yagona yo'l boshchiga bo'ysunuvchi guruh uyushgan deb hisoblanadi.

Jinoiy tashkilot – funksional-iyerarxik ko'rinishga ega bo'lgan, guruh ichida tabaqalashgan – rahbar, ijrochilarning turli guruhlari (qo'riqchilar, aloqachilar, kassa saqlovchilar, nazoratchilar va boshqalar), yaxshi yo'lga qo'yilgan razvedka va kontrrazvedka, hokimiyat tuzilmalaridagi o'z odamlariga, juda katta moddiy bazaga ega bo'lgan, nihoyatda uyushgan jinoiy guruh.

Jinoiy tashkilot quyidagi yo'llar bilan faoliyat ko'rsatadi:

– jinoiy faoliyatning foydali yo'nalishlari va barbod bo'lishining imkoniyatdagi yo'llariga oid zarur ma'lumotlarni doimiy to'plash. To'planadigan ma'lumotlar bashorat (prognoz) yo'nalishiga ega bo'ladi. Jinoiy faoliyatni rejalashtirishda bashorat (prognoz) qilish o'zini o'zi tashkil qilish xususiyatiga ega, ya'ni jinoyatchilar uni albatta amalga oshirish yo'nalishida harakat qiladilar. Ushbu faoliyatning barbod bo'lish

¹ Пулатов Ю.С. «Уюшган жиноятчилик» тушунчаси хақида айрим мулоҳазалар // Ўзбекистон Республикасининг янги кодекслари: назария ва амалиёт. – Т., 1994. – Б. 97–100.

imkoniyatlarini bashoratlash (prognozlash)da uni «o‘zini o‘zi buzuvchi» deb ifodalash mumkin: u uyushma yoki uning tegishli bo‘linmasi faoliyatini ehtimol tutilgan prognoz amalga oshmasligiga yo‘naltiradi;

– huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlarini zararsizlantirish va doimiy ravishda korrupsiya–lashtirish yo‘li bilan. Korrupsiyalashgan mansabdor shaxslar jinoiy tashkilotni zarur ma’lumotlar hamda kadrlarga oid masalalarni hal qilishda, jinoiy faoliyatning foydali yo‘nalishlarini aniqlashda va o‘zini himoya qilishni tashkil etishda haqiqiy yordam bilan ta’minlaydilar;

– o‘z harakatlariga tashqaridan qaraganda qonuniy tus berish maqsadida mamlakatda amal qilayotgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy institutlar va shart-sharoitlardan mohirlik bilan foydalanish;

– qo‘rquv hamda o‘zining qudrati haqida mish-mishlar tarqatish. Bu jinoiy guruhga ko‘p foyda keltiradi, mish-mishlar va qo‘rquv guvohlar va jabrlanuvchilarni tushkunlikka tushiradi. Ular jinoyatchilarning jazolashidan qo‘rqadilar va huquqni muhofaza qilish organlarining himoya qila olishiga ishonmaydilar;

– jinoiy faoliyatni boshqarishning rahbarlarni muayyan qilmishlarni bevosita tashkil qilish va ularning sodir etilishida ishtirok etish zaruratidan xalos etadigan tuzilmasini tashkil qilish. Bu tariqa ular jinoiy javobgarlikdan qutulib qoladilar. Jinoiy uyushma boshqa shaxslar yoki guruhchalarni jinoiy javobgarlikka tortish orqali o‘zini saqlab qoladi, o‘ziga sodiq odamlarga zarur yordamni ta’minlaydi;

– g‘arazli maqsadlarga erishish hamda muayyan bir soha yoki qaysidir bir hududda nazoratni, hokimiyatni qo‘lga olishdan iborat yetakchi va ustun motivlarga ega bo‘lgan holda turli jinoyatlarni sodir etish.

Uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy institutlar faoliyatining mexanizmi hisobiga yashovchi jinoiy tuzilma hisoblanadi.

Jinoiy uyushmalar jinoiy guruhlarining eng xavfli turi bo‘lib, jinoiy maqsadlari yo‘lida guruh uyushganlikning ijtimoiy-psixologik mexanizmlaridan – ijtimoiy nazorat vositasining guruh normalari, guruh ichidagi funksional tabaqalashuv va iyerarxiyadan, rasmiy tuzilmalar bilan qo‘shilib ketishdan, korrupsiyaga berilgan davlat, ma’muriy va huquqni muhofaza qilish organlarining himoyasidan foydalanadilar. Uyushgan jinoyatchilikning tarqalishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy beqarorligi bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 29-moddasi 5-qismida «Ikki va undan ortiq uyushgan

guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi»¹, deb ko‘rsatilgan.

Uyushgan jinoyatchilikni ajratib turuvchi jihat uning jamiyat «tanasiga» – davlatning ma‘muriy boshqaruv apparatiga, hokimiyatning eng yuqori pog‘onalarigacha kirib olganligidir. Bu esa uning ijtimoiy xavfliligini kuchaytiradi, ya‘ni davlat boshqaruvining negizlariga zarar keltiradi, ommaviy huquqiy ongga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi, huquqiy davlatning, madaniy-iqtisodiy munosabatlarning amal qilish imkoniyatiga putur yetkazadi.

Jinoiy uyushmalar boshliqlari salobatli turmush tarzi kechirib, rasmiy elita guruhlari tarkibiga kiradilar.

Quyidagilarni jinoiy uyushmaning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- tarkibida ikki va undan ortiq uyushgan guruhlarning mavjudligi;
- uyushgan guruhning hamkorlikda jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishi;
- uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi;
- jinoyatchilik olamida yagona yo‘lboshchining boshqarishi va uning atrofida jinoyatchilik dunyosida nom chiqargan «obro‘mand» shaxslarning to‘planishi;
- umumiy pul fondi («общак»)ning mavjudligi;
- uyushmada norasmiy tartib-qoidalarning mavjudligi;
- «jazo» guruhi yoki «shaxsiy soqchilar»ning mavjudligi;
- jinoiy faoliyatning maxsus tarzda tashkil qilinishi;
- jinoyatlarni sodir qilishda o‘ta uyushqoqlik bilan harakat qilish, ya‘ni jinoiy rejani puxta tayyorlash, texnika vositalaridan to‘la foydalanish, jinoyat izlarini yashirish choralarining ko‘rilishi va boshqalar;
- «himoya» guruhining tashkil qilinganligi;
- o‘qotar qurollarning mavjudligi;
- jinoiy mafkurani targ‘ib qilish;
- guruh a‘zolarining barqaror yo‘sinda birlashganligi;
- jinoyatchilik dunyosida yakkahokimlik qilishga qaratilgan harakatlar.

Jinoiy uyushmaning qo‘shimcha belgilariga quyidagilar kiradi:

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2008. – Б. 14.

- jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadni qonuniylashtirish;
- ozodlikdan mahrum qilish joylarida uyushmaning «filial»larini tashkil qilish va boshqalar.

Yuqori darajadagi jinoiy uyushmalar o‘z tashkilotining tarmoq otgan tuzilishga egaligi bilan ajralib turadi. Ular boshqaruvning murakkab iyerarxik tizimiga, barqaror, daromad keltiruvchi mulkka (bank hisobvaraqlari, ko‘chmas mulkka), rasmiy himoyaga (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar, jamg‘armalar, do‘konlar, restoranlar, kazinoga) egadirlar.

Bu guruhlar ba‘zan bir necha ming kishidan tashkil topadi, jamoa bo‘lib boshqaruvchi markazlarga, katta ijtimoiy guruhlar tipidagi barqaror tashkilotga, maxsus rejalashtirish va nazorat, axborot xizmatlariga, mintaqalararo aloqalarga, hokimiyatning korrupsiyaga berilgan tuzilmalari bilan o‘zaro aloqa ta‘minotiga, huquqni muhofaza qilish va sud organlariga ega bo‘ladi.

Ular juda katta ta‘sir zonalariga, ko‘plab mintaqaviy va «tarmoq» tuzilmalariga ega bo‘ladilar (qimor biznesi, fohishalikni nazorat qilish, jinoiy xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadilar), korrupsiyalashgan rasmiy idoralarda ildizlariga ega bo‘ladilar.

Ushbu guruhlar motivlarining yo‘nalishiga ko‘ra g‘arazli yo‘nalishga ega bo‘ladilar. Ularning asosiy maqsadlari – qonunga xilof yo‘l bilan katta foyda olish. Zo‘rluk ishlatib amalga oshiriladigan jinoyatlarni ular g‘arazli maqsadlariga erishish, kapital to‘plash uchun sodir etadilar. Ularning nihoyatda katta daromadlari xorijiy banklardagi hisobvaraqlarda turadi, mamlakatdagi va xorijdagi katta ko‘chmas mulkka investitsiya qilinadi.

Jinoiy uyushma jamiyat farovonligiga asosiy xavfdir. U o‘sib kelayotgan avlodning ijtimoiylashuviga tahdid soladi, jamiyat negizlari va iqtisodiyotiga putur, tadbirkorlik va kredit-bank tizimiga zarar yetkazadi. U milliy daromadni stixiyali tarzda jinoiy uyushgan holda qayta taqsimlaydi, qonuniy iqtisodiy tuzilmalarga ulkan moddiy zarar yetkazadi.

Jinoiy uyushma jinoiy yo‘nalishga ega bo‘lgan quyidagi g‘ayri-ijtimoiy funksiyalarni shakllantiradi:

- jinoiy uyushma faoliyatining strategiya va taktikasini ishlab chiqish;
- jinoiy mafkurani targ‘ib qilish va tarqatish;

- xavfsizlikni ta'minlash, «elita»ni qo'riqlash, uning yuksak obro'siga ko'maklashish;
- jinoiy yo'nalishga ega bo'lgan razvedka;
- jinoiy yo'l bilan topilgan boyliklarni legallashtirish;
- uyushma a'zolarining individual talablari va manfaatlari amalga oshishiga ko'maklashish.

Jinoiy uyushma asosiy e'tiborini xavfsizlikni ta'minlash, jinoiy tashkilotning fosh etilishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni yaratish, ijrochilarni qonuniy (legal) himoya vositalari bilan ta'minlashga qaratadi.

3. Jinoiy guruhlarda yetakchilik (liderlik) va uning psixologik tavsifi

Jinoiy guruhning rivojlanishidagi muayyan bosqichda uning ichki tuzilishida yetakchi siymosi paydo bo'ladi. U odatda guruh tashkilotchisi va rahbari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Guruh yetakchisi paydo bo'lishi bilan guruh uyushadi va jipslashib qoladi, uning faoliyati jadallashadi, maqsadga qaratilgan xususiyatga ega bo'ladi va borgan sari ijtimoiy xavfli tus ola boshlaydi. Ichki psixologik tuzilish bilan bir vaqtda jinoiy guruhning funksional tuzilishi ham tashkil topadi. Har bir yangi jinoyat guruh ishtirokchilarining vazifalarini yanada aniqroq belgilab beradi: ayrimlar qilmishni bevosita bajaradi, boshqalar jinoyat obyektini qidirib topadi, yana boshqalari o'g'irlangan narsalarning o'tkazilishini ta'minlaydilar va hokazo. Funksional tuzilish jinoiy guruhning shaxsiy tarkibi, sodir etilayotgan jinoyatning turi, tajovuz obyekti va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi.

Yetakchilik qobiliyati va atrofdagilarni boshqarish mahorati yetakchining qayg'udosh bo'lish subyektiv imkoniyatlarini jiddiy ravishda cheklovchi yoki bunga to'sqinlik qiluvchi hissiy sovuqqonlik bilan ta'minlanadi. Ayni vaqtda bu jihat atrofdagilar bilan zarur ijtimoiy-psixologik masofani saqlab turish, yuzaga kelayotgan vaziyatning barcha muhim jihatlarini inobatga olgan holda tahlil qilish hamda shu asosda oqilona qaror qabul qilishga imkon beradi. Yetakchilarning ushbu guruhlarida o'rtasida raqobat, yashirin dushmanlik mavjud, ammo maqsadlar va unga erishish yo'llari umumiyliги sababli ular hamkorlik qiladilar. «Yetakchi» ko'pincha sudlanmagan, juda aqlli, ma'lumotli, tashkilotchilik qobiliyatiga, maslahatchilar sifatida esa «obro'mandlar»

va hatto «qonundagi o'g'rilar»dan iborat tajribali professional jinoyatchilarga ega bo'ladi¹.

Jinoiy guruhlar yetakchilari qo'l ostidagilar ustidan ruhiy hokimiyatga egadirlar. Uyushgan jinoiy guruhlar yuzaga kelishi va mavjudligining o'zi ana shu hodisaga asoslanadi. Psixologiyada «hokimiyat» tushunchasining shunday ta'rifi mavjud: individ o'zini o'rab turgan dunyoga ta'sir ko'rsatib hosil qiladigan har bir samara (effekt) uning qobiliyat, kuch, bilimdonlik sifatida tushuniladigan hokimiyati bilan bog'liqdir. Hokimiyatning manbalari – hokimiyatni qo'llayotgan subyekt boshqa birovning tegishli motivlari qondirilishini ta'minlashiga, ushbu qondirilishning ushlab turilishi yoki oldi olinishiga yordam beradigan vositalardir. Mavjud tasniflardan biriga ko'ra hokimiyatning oltita imkoniyatdagi manbai ajratiladi².

Jinoiy guruh tashkilotchilari uning a'zolari o'rtasida yetakchiligini saqlab qolish uchun foydalaniladigan hokimiyat manbalarini ko'rib chiqamiz.

Mukofotlash hokimiyati. Uning kuchi guruh talablari hokimiyat obyektlari (jinoiy guruh a'zolari)ning umidlarini qanchalik qondirishiga, shuningdek yetakchi bunday qondirishni guruh a'zosining o'zi uchun istalgan xatti-harakatiga bog'lab qo'yishiga bog'liq. Aslida jinoiy guruh a'zosining g'arazli motivlari faqat yetakchi qo'ygan vazifalar benuqson bajarilgan taqdirdagina amalga oshishi mumkin. Ushbu hokimiyat kutiladigan mukofot miqdori bilan birga oshib boradi.

Majburlash yoki jazolash hokimiyati. Uning kuchi quyidagilarga bog'liq: 1) ehtimol tutilgan jazolar repertuariga; 2) jazo tahdidi minus itoatkorlik tufayli jazodan qutulish ehtimoligiga. Yetakchi o'rnatgan va saqlab turadigan qattiq intizom, sotqinlar va murtadlar, shuningdek, ularning yaqinlariga o'lim jazosini nazarda tutgan qonunlar hamda eng kichkina jazo sifatida – daromadni taqsimlash chog'ida ulushini kamaytirish (binobarin – g'arazli motivini qondirmaslik) – bularning bari hokimiyatning ushbu manbai ega bo'lgan kuchdan dalolat beradi.

Etalon hokimiyati. U guruh a'zosining yetakchi bilan identifikatsiyasiga hamda guruh a'zosining yetakchiga o'xshashga istashiga asoslangan. Dastlab «yangi kelganlar jamiyat oldidagi majburiyatlardan

¹ Qarang: Гуров А. Организованная преступность: не миф, а реальность. – М., 1992. – С. 23.

² Qarang: Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. – М., 1986. – С. 354–362; Политическая психология. – СПб., 1992. – С. 7.

xoli bo‘lgan go‘zal hayotning o‘g‘rilar romantikasi, odamlar ustidan hukmronlik qilish, ko‘p pul topish kabilar bilan yo‘ldan uriladi»¹. Bularning bari jinoiy guruh tepasida turgan «obro‘mand»da mavjud.

Normativ hokimiyat. Bunda gap yetakchi muayyan xatti-harakat qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, zarur bo‘lganida esa, buni talab qilish huquqiga ega bo‘ladigan normalar haqida boradi. «Jinoiy tashkilotlarning asosiy belgilaridan biriga norasmiy xulq normalari, an‘analar va qonunlar, ularni buzganlik uchun jazolar ko‘rinishidagi nizomning mavjudligi kiradi (o‘rganib chiqilgan tashkilotlardan ikkitasida yozma nizom mavjud bo‘lgan)»².

Bilimdon hokimiyati. Butun kuch guruh a‘zosi yetakchida bor deb hisoblaydigan hamda guruhning ushbu a‘zosi shug‘ullanadigan jinoiy faoliyat sohasiga doir alohida bilimlar, intuitsiya yoki mahoratlarning kattaligiga bog‘liq. Aytish mumkinki, rahbariyatning strategik xatolari jinoiy faoliyatning fosh etilishiga, o‘ta katta foyda olinmasligiga hamda jinoiy guruhlar o‘rtasida ta’sir doiralari bo‘lishda raqobatbardoshlikning yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yuksak darajada uyushgan jinoiy guruhlarda muayyan yetakchining obro‘si aynan shu hokimiyatga asoslanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, jinoiy guruhlar yetakchilari «...ularning ta’lim darajasi ancha yuqori – o‘rta, o‘rta-texnik va oliy ma’lumotga egaligi, aksariyati sudlanmaganligi bilan ajralib turadi»³, ular jinoiy guruhning aqliy markazi hisoblanadi. Guruh yetakchilarining turli sohalardagi mutaxassislarni jalb etishga intilishi ham ana shunday hokimiyat manbaining mavjudligi bilan bog‘liq.

Axborot hokimiyati. U yetakchi guruh a‘zolariga noma’lum bo‘lgan, buning ustiga vaziyatni baholash va xatti-harakatni boshqarish uchun muhim axborotga ega bo‘lgan sharoitlarda yuzaga keladi. Uyushgan jinoiy guruhlarda hokimiyatning bu turi avvalo yetakchining axborotni guruhning oddiy a‘zolariga oz-ozdan berishida, ayni vaqtda to‘liq axborotga faqat guruh yetakchisining o‘zi ega bo‘lganligida ko‘rinadi.

Hozirgi zamon jinoiy guruhlarida, maxsuslik qonuniga ko‘ra, quyi bo‘g‘inlar o‘z rahbarlarini umuman bilmaydigan tizim tashkil qilinishi ham yetakchilikka yordam beradi. Guruhning oddiy a‘zolari yetakchining faqat ko‘rinishlarini, atributlarini – kuchli qo‘riqlanish,

¹ Qarang: Гуров А. Организованная преступность: не миф, а реальность. – М., 1992. – С. 31.

² Ўша манба. – Б. 25.

³ Мафия: призраки и признаки // Экономическая газета. – 1988. – №. 48.

qattiq sir tutilishi (axborotning telefon orqali berilishi, rahbarning faqat ovozi eshitish mumkinligi, bu esa fantaziya uchun maydon beradi), operatsiyalarga sarflanadigan katta pul mablag'larini ko'radilar – bularning barchasi guruh a'zolariga psixologik ta'sir ko'rsatadi, yetakchining oldida qo'rqish va izzat-ikrom muhitini yaratadi.

Tashkilotda yetakchi qanchalik yuqori tursa, iyerarxik pillapoya qanchalik yuqori bo'lsa, unda qo'rquv shunchalik kam bo'ladi, qanchalik past bo'lsa, qo'rquv shunchalik ko'p bo'ladi. Nizolarning asosiy sababi – iyerarxik tuzilmadagi tengsizlik, daromadlarning teng taqsimlanmasligida ko'rinadi.

Biroq guruh yetakchisi ishtirokchilar uning jinoiy faoliyati haqida tergov organlariga xabar berishlari, guruh fosh bo'lgan taqdirda guruhning jinoiy faoliyati uchun butun aybni yetakchiga to'nkab, o'zlarining holatini yaxshilashlari, ehtimol tutilgan jazoni yengillash-tirishlari mumkinligidan qo'rqadi.

Yetakchi bilan «muxolif» o'rtasidagi nizolar muxolif o'zini guruh yetakchisiga, uning boshqa a'zolariga, ba'zi hollarda esa butun guruhga qarshi qo'yishi natijasida yuzaga keladi. Bunday muxolafatning sabablari turlicha: hokimiyat uchun kurash, yetakchilikni egallab olishga intilish, hasad, rashk, boshqa ishtirokchilarning jinoiy faoliyat usullaridan qoniqmaslik, o'zining guruhdagi mavqeidan, shuningdek, o'g'irlangan narsalardan oladigan ulushidan qoniqmaslik.

Shu ma'noda jinoiy guruhlarining zarur elementlaridan biri yetakchi (lider)ning mavjudligi bo'lib, u ma'lum bir vaziyatda norasmiy rahbar vazifasini bajaradi. Bunday shaxslarda rahbarlik, tashkilotchilik qobiliyati ustun turadi. Shuning uchun ham jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan baho berilganda lider guruhlarining tashkilotchisi va rahbari hisoblanadi. Yetakchi (lider)ning asl ma'nosi «tashkilotchi», «rahbar» degan ma'noni bildiradi.

Yetakchi faqat ba'zi bir yuqoridagi sifatlari uchun tanlanadi deyish katta xato bo'ladi. Agar yetakchi o'zining qaysidir tomonlari bilan guruh tashkil etilgan damlarda pand bersa, uni almashtirish choralari ko'riladi. Lekin yetakchilikdan ketish albatta kurashlar, kerak bo'lsa qurbonliklar talab qiladi.

Yetakchining funksiyasiga quyidagilar kiradi:

- tashkilotchilik;
- xabar berish;
- ma'lumotlarni strategik ishlash;
- tartib o'rnatish va boshqalar.

Yetakchining rahbarligi quyidagi holatlarda ko‘rinadi: jinoiy guruhni tashkil qiladi, rahbarlik qiladi, jinoyatni amalga oshirishda har bir ishtirokchiga vazifalarni bo‘lib beradi. Xabar berish, olish, xabardor bo‘lish rahbarning eng asosiy sifatlaridan biridir, ya‘ni xabarni tashqaridan olish bilan birga, guruh ichidagi vaziyatdan ham xabardor bo‘lib turadi, guruh a‘zolari o‘rtasidagi munosabatni bilish ham muhim hisoblanadi.

Strategik ishlar guruh yetakchisining g‘oyalari bilan amalga oshadi, u oldindagi qiyinchiliklarni ko‘ra biladi, guruhga o‘zgartirishlar kiritadi, olingan o‘ljalarni taqsimlaydi. Yetakchining ko‘rsatmalarini bajarmagan yoki bajarishdan bosh tortganlar qattiq jazolanadi, yetakchi jazoning turini aniqlaydi, amalga oshirish yo‘llarini taklif qiladi va jazolovchini tayinlaydi.

Yetakchining bu sifati ayniqsa uyushgan jinoiy guruhlariga taalluqlidir. Jinoiy guruhlar sodir etilishi kerak bo‘lgan jinoyatni amalga oshirishga ketayotganda, ishtirokchilardan biri operatsiyada ba‘zi kamchiliklar bor, rejani aniqlashtirish kerak degan fikrini shipshitib qo‘yadi, bu liderning qulog‘iga yetgandan keyin shu shaxsni qattiq jazolashni buyuradi, chunki guruh orasida ikkilanish paydo bo‘lib, operatsiya muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, boyagi fikrni tarqatgan odam haq bo‘lib, qahramonga aylanishi mumkin.

Mazmuniga ko‘ra jinoiy guruh rahbari yetakchi tashkilotchi, yetakchi ruhlantiruvchiga, rahbarligiga qarab demokratik va avtoritarga bo‘linadi. Demokratik rahbarlikda ham, avtoritarda ham demokratik yo‘l tutiladi, avtoritarda barcha vazifa shakllarini shaxsning o‘zi hal qiladi, tartibni juda qattiq ushlaydi.

Jinoiy guruhlar ichida quyidagilar o‘rtasida ziddiyatlar bo‘lgan, bo‘lib keladi:

- lider va guruh a‘zolari;
- lider va tarafkashlar;
- guruhning yangi va eski a‘zolari;
- jinoiy faoliyatini tugatmoqchi bo‘lgan shaxs va guruhdagi a‘zolar o‘rtasida;
- har xil jinoyatlarni sodir etishda turli vazifalarni bajaruvchi jinoyatchilar o‘rtasida;
- guruhda yuqoriroq mavqeni egallamoqchi bo‘lgan shaxs va guruh a‘zolari o‘rtasida;
- jinoiy guruh bilan boshqa bir jinoiy guruh va hokazo.

Jinoiy guruhlardagi shaxslar o'rtasida tenglik yo'q, bo'lishi mumkin ham emas, agar tenglik bo'lsa, u guruh bo'lmaydi. Ular o'rtasida yopiq psixologik bir-birini ko'ra olmaslik yotadi. Guruhning yadrosi, o'ziga bo'lib, u eng faol qatnashchilardan tashkil topgan bo'ladi.

Guruhning yetakchisi (verxushkasi) jinoyatdagi asosiy xatti-harakati bilan aniq ajralib turadi va «mozgovoy sentr» hisoblanadi. Ular ichki tartibni o'rnatadi, boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Bunday shaxslar o'ljani ko'proq qismini olishga harakat qiladi, yetakchilikda asosiy faoliyatni tartibga solish bilan birga, ko'p mas'uliyatni ham o'ziga oladilar.

Shu nuqtai nazardan yetakchi jamiyatga qarshi guruh tuzuvchi yoki tuzilgan guruh tepasiga o'z faoliyati bilan chiqqan jinoiy faoliyat tashkilotchisidir.

Ijtimoiy psixologiya yetakchining ba'zi bir xislatlarini ajratadi:

- 1) g'oya berishiga ko'ra faolligi;
- 2) tashkilotchilik qobiliyati;
- 3) muloqotga kirisha bilishi, o'ziga jalb qilishi;
- 4) ba'zi masalalarni yechishda kompetentligi.

Kriminogen guruhning asosiy tavsifi:


- 1) jinoiy xatti-harakati;
- 2) jinoiy tajribaga ega ekanligi;
- 3) o'g'rilar an'anasiga rioya qilishi;
- 4) o'g'rilar jargonini va tatuirovkalarini yaxshi bilishi.

Hozirgi vaqtda jinoyat olamida yetakchilarning quyidagi ijtimoiy-psixologik tasnifi mavjud:


- harakat dasturini berib, ruhlantiradi;
- murakkab vazifani bajaradi;
- guruhni tashkil qiladi va yo'naltiradi.

Jinoiy guruhni psixologik tahlil qilishda uning a'zolari o'rtasida axborot uzatish usullarini aniqlash juda muhim. Axborot uzatishning quyidagi usullari mavjud:

To'liq tuzilish – kommunikativ aloqalarning bunday turida guruhning har bir a'zosi boshqa a'zolari bilan aloqa o'rnatishi mumkin.




Aylana tuzilishi – axborot aylana bo‘ylab bir yoki ikki yo‘nalishda harakatlanadi.




Uzilgan *aylana* – axborot guruhning bir a‘zosi dan boshqasiga o‘tadi, ammo uchinchi a‘zosi ikkinchisiga axborotni kim berganligini, ikkinchisi esa zanjirning to‘rtinchi bo‘g‘inida kim turganligini bilmaydi.

Uzilgan aylana




O‘zakdan ajralgan aloqada tashkilotchi guruhning faqat bir a‘zosi bilan aloqada bo‘ladi. Guruh a‘zolari o‘zaro aloqa qilmaydilar va bir-birlarini bilmaydilar.


O‘zakdan ajralgan




O'zakli aylana – tashkilotchi guruhning faqat bir a'zosi bilan aloqada bo'ladi. Guruhning bu a'zosi esa, o'z navbatida, qolgan barcha a'zolar bilan aloqada bo'ladi.



Aralash tuzilma – tashkilotchi guruh a'zolariga axborot berish uchun aloqaning ikki yoki undan ortiq turlaridan foydalanadi.




Murakkab tuzilma – tashkilotchi ikki yoki undan ortiq kichik guruhga rahbarlik qiladi, bu guruhlar esa, o'z navbatida, kommunikativ tuzilishga ega bo'ladi.



Ko'p blokli tuzilma – guruh yetakchisi mamlakatning turli mintaqalarida jinoyatlar sodir etadigan yoki jinoiy faoliyatning ayrim turlariga ixtisoslashadigan bir necha jinoiy guruhlariga, himoya va ta'minot bloklariga ega bo'ladi.

Ko'p blokli tuzilma



Tashkilotchi faqat asosiy yo'nalishlar (molni o'tkazish, transport, buxgalteriya, muayyan hududdagi jinoiy faoliyatning aniq bir turiga mas'ul shaxslar) rahbarlari bilan aloqada bo'ladi. Bu rahbarlar, o'z navbatida, odatda ijrochilar bilan bevosita aloqalarga ega bo'lgan vositachilardan foydalangan holda u yoki bu kommunikativ tuzilmani o'rnatadilar.

Shuni aytib o'tish joizki, uyushgan guruh yetakchisi ishtirokchilikning boshqa (oddiy va murakkab) shakllaridagi guruh rahbaridan (tashkilotchisidan, yo'l boshchisidan) farq qiladi. Uyushgan guruh yetakchisi barcha faoliyat ustidan nazorat olib boradi, jinoyat sodir etishga rozilik beradi yoki bermaydi, jinoiy rejalarni ko'pincha o'zi tuzadi, jinoyat sodir etish vaqtini belgilaydi, jinoiy faoliyat orqali topilgan moddiy boyliklarni taqsimlaydi, guruh ichida «norasmiy» tartib-qoidalarga rioya etilishini nazorat qiladi, uni buzganlarga nisbatan chora ko'radi. Jinoiy uyushma tarkibiga kiradigan uyushgan guruhlarda yetakchi har bir jinoyatdan tushgan «daromad»dan uyushma a'zolariga hissa berib turadi hamda uyushma ko'rsatmalarining bajarilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, yetakchi bevosita guruh yig'iladigan joyni tayinlashi mumkin.

4. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishning psixologik muammolari

Jamiyatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlari va jinoyat qonuniga oid hozirgi liberallashtirish siyosatidan kelib chiqqan holda jinoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi uyushgan guruh qatnashchilariga jazo va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralari qo'llashning ikki yo'nalishini ajratish mumkin.

Birinchisi, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi uyushgan guruh a'zolariga jazo tayinlash va ayrim moddalarga jazoni og'irlashtiruvchi belgilarni kiritish.

Ikkinchisi, uyushgan guruhning ayrim a'zolari harakatiga yengillashtiruvchi holat tusini berish hamda rag'batlantiruvchi normalarni qo'llash.

Huquqshunos olimlar I. Ismailov va D. Buxarov bugungi kunda uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatini va ular sodir etadigan jinoyatlarning oldini olish sohasidagi hamkorlik quyidagi to'rt darajada amalga oshiriladi, deb ta'kidlaydilar:

- ichki idoraviy hamkorlik;
- idoralararo hamkorlik;
- jamoatchilik bilan hamkorlik;
- xalqaro hamkorlik.¹

Jinoiy uyushma va uyushgan guruhlarning a'zolariga jazo va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini qo'llashdan asosiy maqsad – jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni tez hamda har tomonlama ko'rib chiqib, aybdorlarni aniqlash va ularga qonunda belgilangan tartibda tegishli, odilona jazo tayinlashdan iborat.

Shu ma'noda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda psixologiya, sotsiologiya va iqtisodiyot sohasidagi olimlarning uyushgan jinoyatchilikdek salbiy holat yuzasidan olib borgan tadqiqotlarining xulosalariga tayanish katta ahamiyatga ega. Chunki jamiyat hayotidagi mavjud iqtisodiy-ijtimoiy kamchiliklar, qayd etib o'tganimizdek, uyushgan jinoyatchilikni yuzaga keltiradi va uning rivojlanishi uchun sharoit yaratib beruvchi omillardan biri sanaladi.

Ushbu ijtimoiy illatga qarshi olib boriladigan kurash strategiyasi bilan bog'liq huquqiy, psixologik va profilaktik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash zarur. Bunday tadbirlarning amalga oshirishini ta'minlash esa mavjud xufiyona iqtisodiyot va iqtisodiyot bilan bog'liq barcha jinoyatlarni atroflicha tahlil etish bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, hozirgi kunda jamiyatning ijtimoiy tizimini ilmiy jihatdan baholash, aholining turli qatlamlari va guruhlariga nisbatan differensial siyosat yuritishni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Shu ma'noda quyidagi toifadagi shaxslarga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

- shubhali tarzda daromad topayotgan va ko'p miqdordagi mulk va moliyaviy mablag'larga ega shaxslar;

¹ Qarang: *Исмаилов И., Бухаров Д.* Уюшган жиноий тузилмалар шаклланиши ва фаолиятининг олдини олишда ҳамкорликни ташкил этиш (муаммо ва ечимлар). – Т., 2007. – Б. 11.

- kam daromadli, umuman moddiy ta’minotga ega bo‘lmaganlar;
- jinoiy va ma’naviy buzuvchi yo‘lga kirganlar (jinoiyatni kasb qilib olganlar, bir necha bor sudlanganlar, ichkilikka ruju qo‘yganlar, giyohvandlar, o‘zgaralar hisobiga kun ko‘ruvchilar, daydilar va h.k.)¹.

O‘tkazilgan tadqiqotlar va jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, oxirgi to‘qqiz yilda jinoyatchilik tarkibida bir guruh shaxslar sodir etgan jinoyatlar 15–16 % ni tashkil etgan bo‘lsa, talon-tarojlik jinoyatlari bo‘yicha bu ko‘rsatkich 28–30 % ni tashkil etadi. Jinoyatni bir-ikki marta oddiy ishtirokchilik asosida sodir etgan shaxslar, *birinchidan*, sodir etgan jinoyati uchun jazosiz yoki yengil jazo bilan cheklanib qolayotganidan; *ikkinchidan*, jinoyatdan o‘zlashtirilgan mablag‘ hisobiga «yaxshi hayot» kechirayotganligidan; *uchinchidan*, ortiqcha mablag‘ egasi bo‘layotganligidan; *to‘rtinchidan*, ayrimlari esa «ruhlanib», bu «yutuqlarni» yanada mustahkamlash uchun asta-sekin jinoiy guruh faoliyatini kuchaytirish, kengaytirish, rejalashtirish, uni qurollantirish va boshqa jinoiy guruhlar bilan aloqa o‘rnatishga harakat qila boshlaydilar².

Umuman olganda, uyushgan jinoyatchilikning oldini olish va uni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning shakl va usullarini yaratish orqali ularning faoliyat yo‘nalishlarini tarmoqlararo tuziladigan muvofiqlashtiruvchi organ olib boradigan hamda ma’lum bir vaqt oralig‘iga mo‘ljallangan dastur asosida zarur vazifalarning bajarilishini belgilash;

- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslarni jalb qilish;

- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi maxsus guruhlarni zarur moddiy-texnika vositalar bilan ta’minlash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jinoyat yo‘liga kirgan yoki jinoiy harakatlaridan pushaymon bo‘lib tuzalish yo‘liga o‘tmoqchi bo‘lganlarning ijobiy harakatlarini jazoni yengillashtirish yoki undan ozod qilish yo‘li bilan jinoyatlarning oldini olishga sharoit yaratish yoxud jinoyatni kasb qilib olgan va jinoiy faoliyat bilan doimiy shug‘ullanmoqchi bo‘lganlarning jazosini og‘irlashtirib, ularning yangi

¹ Qarang: Криминология / Проф. З. С. Зариповнинг умумий тахрири остида. – Т., 2007. – Б. 391.

² Qarang: *Исмоилов. И. Жиноятчиликда уюшганликнинг олдини олишни ҳуқуқий таъминлаш.* – Т., 2007. – Б. 19.

jinoyatlar sodir etishiga to'sqinlik qilish umumiy jinoyatchilikning oldini olishga o'z hissasini qo'shadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoiy guruhlar shakllanishining psixologik sabab va sharoitlari nimalardan iborat?
2. Jinoiy guruhlar va jinoiy guruh yetakchilarining tipologiyasi qanday ko'rinishlarga ega?
3. Jinoiy harakat usullari va ularni niqoblash qanday amalga oshiriladi?
4. Jinoiy guruh a'zolari o'rtasidagi o'zaro muloqotning psixologik tavsiflang.
5. Jinoiy hamkorlikning psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Jinoiy guruhlarni ochish va fosh etishning psixologik asoslari nimalardan iborat?
7. Jinoiy guruhlarga ta'sir etishning psixologik usullarini aytib bering.

IX bob.
TERRORIZM PSIXOLOGIYASI

1. Zamonaviy terrorizmning psixologik xususiyatlari

Bugunga kelib terrorizm umumbashariy xavfga aylandi. Uni jinoiy xatti-harakatning muayyan ko‘rinishi sifatida yuridik jihatdan tasniflash zaruratidan tashqari, tarixiy ildizlarini, yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik sabab va oqibatlarini o‘rganish, nihoyat, siyosiy jihatdan tahlil qilish ehtiyoji tug‘ilmoqda.

Terrorizm degan dahshatli ajdarho sayyoramizning turli mintaqalarida bosh ko‘tarayotgani, bu ofat umumbashariy sivilizatsiya uchun katta xatar ekani bugungi kunda hech kimga sir emas.

Ushbu illatning o‘z vaqtida tushunib yetgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov inson, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan, ayniqsa, uyushgan jinoyatchilikning xavfli ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan terrorchilik tajovuzlaridan himoya qilishga katta e‘tibor qaratmoqda. Jumladan, u «keyingi yillarda jahonning turli hududlarida ro‘y berayotgan terrorchilikning yovuz ko‘rinishlari tobora kuchayib bormoqda... Xalqaro terrorizmning o‘taketgan yovuz kirdikorlari dunyodagi barcha sog‘lom fikrli kishilarning qahr-u g‘azabini uyg‘otdi, unga nisbatan befarq bo‘lish mutlaqo mumkin emasligini ko‘rsatdi»¹, deb ta’kidlaydi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘zining deyarli har bir nutqida bu global muammoga jiddiy e‘tibor berib o‘tadi. Masalan, «yurtimizda chet eldagi markazlar tomonidan moliyaviy ta’minlangan va boshqarilgan terrorchi to‘dalar Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining tog‘li tumanlari orqali suqilib kirgan tahlikali kunlarni ham eslashimiz lozim. Agarki ana shu yovuz niyatli kuchlarning qabih va uzoqni ko‘zlagan buzg‘unchilik maqsadlari amalga oshganida bormi, mamlakatimiz fuqarolar urushi olovi ichida

¹ *Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли.* –Т., 2007. – Б. 9.

qolib ketgan va uning oqibatlari, hech shubhasiz, butun O'rta Osiyodagi vaziyatni portlatib yuborgan bo'lur edi»³.

Dinni niqob qilib, turli qo'poruvchiliklar, zo'ravonliklar sodir etayotgan kuchlar muayyan markazlar tomonidan bajarilmoqda. Buni so'ngi yillarda nafaqat yurtimizda, balki AQSh, Rossiya, Jazoir, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda yuz berayotgan voqealar ham ko'rsatib turibdi. Diniy-ekstremistik tashkilotlar so'zda bir qarashda ijobiydek tuyuladigan maqsadlarni ilgari surgani bilan, ularning asl niyati hokimiyatni egallashdir. Bu yo'lda ular har qanday vahshiyona usullardan tap tortishmayapti. Kerak bo'lganda millatchilik, etnik nizolardan ham ustunlik bilan foydalanishmoqda. Bunday xatti-harakatlar xalq, shaxs erkinligiga daxl qilishi, urush va zo'ravonlikni keltirib chiqarishi oqibatida minglab begunoh odamlar jafo chekishi, qirilib ketishi mumkin. Ammo hech qanday dinni, e'tiqodni zulm-zo'ravonlik yordamida qurol kuchi bilan yoyish mumkin emas. Ma'naviy qadriyatlar haqida gap ketganida qurol hal qiluvchi rol o'ynamaydi¹.

Bugungi kunda jamiyatimizga xavf solayotgan hodisalar ichida terrorizm xavfi alohida o'rin tutadi. Terrorizm eng murakkab va xavfli holatlarni o'z ichiga qamrab, odamlarda yovuzlik va qo'rquv hissini paydo qiladi.

«*Terrorizm*» lotincha so'z bo'lib, «*dahshat*» degan ma'noni anglatadi. Terrorizm O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 155-moddasida nazarda tutilgan va portlatishlar, o't qo'yishlar yoki odamlarning halok bo'lishi, katta mulkiy zarar keltirish yoxud ijtimoiy xavfli oqibatlarga olib kelish xavfini tug'diruvchi boshqa harakatlar sodir etishdan iborat bo'lgan va jamoatchilik xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat. Mazkur harakatlarning jamoat xavfsizligini buzish, aholini qo'rqitish yoxud hokimiyat organlarining qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida amalga oshirilganligiga, shuningdek, ana shu maqsadlarda amalga oshirilish xavfi mavjudligi ushbu jinoyatning muhim jihatlarini tashkil etadi².

¹ Qarang: Баймуханов З. Дин – бузғунчиликка қарши // Қалқон. – 2006. – №5. – Б. 28–29.

² Qarang: Юридик энциклопедия / проф. У. Таджиханов таҳрири остида – Т., 2001. – Б. 434.

Terrorizm va xalqaro terrorizm uyushgan jinoiy guruh sifatida hududiy va millatlararo muammolarni yuzaga keltiradi. Bugungi kunga kelib siyosiy ekstremistlar, kriminal ishga qo‘l urgan biznesmenlar va jinoiy jazoni o‘tab qaytgan ba’zi bir shaxslar jamiyatga, aniqrog‘i odamlar taqdiriga katta xavf tug‘dirmoqdalar.

Hozirgi vaqtda terrorchi shaxs va terrorchilik xatti-harakatlarini yuzaga keltiruvchi psixologik mexanizmlar to‘liq o‘rganilmagan, shuning uchun terrorizmga qarshi kurashish va uning oldini olishda psixologik bilimlar muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy terrorizmning psixologik o‘ziga xos belgilari:

- 1) terror – psixologik ta’sir etish vositasi;
- 2) terrorchilik aktlar oldindan puxta rejalashtiriladi va vahshiyona amalga oshiriladi;
- 3) terror umuminsoniy qonuniyatlarni inkor etadi;
- 4) o‘z qarashlarini ochiq-oydin oshkora etadi;
- 5) terrorchilik zamonaviy ommaviy axborot vositalari bilan qurollangan.

Terror psixologik ta’sir etish vositalaridan biridir. Uning o‘ziga xos jihatlaridan biri insonlar ongida qo‘rquv hissini paydo qilish, jamiyatda murakkab vaziyatlarni yuzaga keltirishdan iborat. Odamlar ongida qo‘rquv hissini paydo qilish uning asosiy mohiyati sanaladi. Ularning asosiy obyekti kim terror qurboni bo‘lgani emas, balki kimning tirik qolganidir. Terrorchilikning asosiy maqsadi odam o‘ldirish emas, tirik qolgan shaxslarni ruhan sindirishdir. Shu nuqtai nazardan terrorchilik faqat moddiy va siyosiy zarar yetkazadi.

Terrorchilik aktini sodir etish bu oddiy ish bo‘lmay, u yashirincha, puxta va mukammal ravishda amalga oshiriladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun oylab, yillab tayyorgarlik ko‘riladi.

Terror umuminsoniy qonuniyatlarni inkor etadi, insonlarning huquq va erkinliklarini tan olmaydi. Terrorchilar o‘z xatti-harakatlarini ochiq oydin oshkor qiladilar. Terrorchilik jamiyatga nooshkora e’lon qilingan udum, uning asosida qadrsizlangan inson hayoti mavjuddir.

Hozirgi kunga kelib terrorchilik zamonaviy ommaviy axborot vositalari bilan to‘liq qurollangan. Ba’zi holatlarda ommaviy axborot vositalari orqali ular insonlar ongiga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadilar.

Terrorchilik faoliyatida katta auditoriyalarga, keng ommaga ta’sir o‘tkazish muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, zamonaviy

terrorchilikda ijtimoiy xavfli bo'lgan quyidagi sifatlar aniq namoyon bo'ladi:

- insonlarning ommaviy qurbon bo'lishi, moddiy zarar keltirishi, uning oshkorona va hamda vahshiyona tus olishi;

- terrorchilik tizimining moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashning yuqori darajasi;

- xalqaro terrorchilik tizimlarining foydali qazilmalar hamda energiya manbalariga egalik qilish uchun intilishi;

- xalqaro va millat darajasidagi terrorchilik tizimlari o'rtasida qat'iy aloqa, shu bilan birga, odam savdosi, qurol-yarog', psixotrop moddalar va narkotik vositalar bilan, noqonuniy jinoiy uyushmalar bilan aloqadorligi;

- yollanma shaxslardan faol foydalanishi;

- yadro quroli, ximik, biologik va boshqa ommaviy qirg'in qurollariga ega bo'lishga intilish, terrorchilarning ushbu qurollardan jinoiy faoliyatlarida foydalanish xavfi;

- yangi terrorchilik ko'rinishlarining paydo bo'lishi (muhim sanalgan davlat va jamiyatdagi kompyuter boshqaruv tizimini blokirovka qilish);

- ijtimoiy tashkilotlar qaramog'i ostida harakat qilishi, ya'ni janggarilarni tayyorlash uchun o'quv markazlari va lagerlar, qurol-yarog' va oziq-ovqat uchun omborxonalar tashkil etish, terrorchilik aktlarini sodir etish uchun firma, bank va fond tashkilotlari xizmatidan foydalanish va boshqalar¹.

Bundan ko'rinib turibdiki, terrorchilik faoliyati va u amalga oshirishi mumkin bo'lgan qilmishlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashishda samarali usullarni ishlab chiqish va uni tatbiq etish uchun uning kelib chiqishi va namoyon bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'lish kerak:

- terrorchilik aktlari sodir etiladigan joylarini oldindan ko'ra bilish juda qiyin, ba'zan umuman aniqlab bo'lmaydi, biroq jinoyatchilar yuqori darajada natijaga erishish uchun obyekt tanlaydilar;

- terrorchi shaxsining sifatlarini odatda aniqlab bo'lmaydi (o'z joniga qasd qiladi, u voqea joyidan qochib ketganida ham noma'lum bo'lib qoladi);

¹ Qarang: Основы противодействия терроризму / Под ред. Я. Д. Вишнякова. – М., 2006. – С. 27–28.

– xalqaro terrorizm jahon bo‘ylab rivojlanmoqda, shuning uchun terrorchilarning hujum qilish obyekti aholi, ma’muriy binolar va qurilmalar bo‘lib, ular nafaqat terrorchilik aktlari olib borilayotgan davlat hududida, balki boshqa davlatlarda ham o‘z aksini topadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, terrorizmga qarshi kurash kompleks tarzda amalga oshirilishi (terrorchi guruhlar va a’zolarining yo‘nalganlik darajasini aniqlash, terrorchilarning xalqaro aloqalarini buzish, sodir etilishi mumkin bo‘lgan terrorchilik aktlariga tayyorgarlik haqidagi ma’lumotga o‘z vaqtida ega bo‘lish, aybdorlarni ushlab va ularni huquqni muhofaza qilish organlari ixtiyoriga topshirish) lozim. Terrorchilik aktlarini sodir etuvchining shaxsi, sodir etilishi vaqti va joyining noma’lumligida asosiy diqqat-e’tiborni akt sodir etilishi mumkin bo‘lgan obyektlarga va ular tomonidan foydalanish mumkin bo‘lgan vositalarga qaratish kerak.

Turli ko‘rinishdagi jinoyatlarga qarshi kompleks tarzda olib boriladigan kurashda asosiy e’tiborni jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi shart-sharoit va sabablarga qaratish lozim. Zamonaviy xalqaro va milliy terrorizmda bunday ta’sir etish ba’zi bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Terrorchi shaxsining zamonaviy sifatлари o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu odatda diniy fanatlar, zamonaviy sivilizatsiya va madaniyatga bo‘lgan munosabat, boshqa e’tiqodlarga va boshqacha fikrlovchilarga g‘arazlik bilan qarashda namoyon bo‘ladi. Terrorchilik aktini sodir etishga chog‘langan shaxs ma’lumki o‘zini o‘zi qurbon qilishga tayyor bo‘ladi. Bunday insonlarning shaxsiga ta’sir etish juda ham qiyindir. Ularni qayta tarbiyalashning umuman iloji yo‘q. Terrorchi shaxsni individual tarbiyalash mumkin, buni esa insoniy, barcha madaniy qadriyatlar o‘z aksini topgan demokratik davlatda amalga oshirish mumkin.

Terrorizm ma’lum sabab va vaziyatlarga ko‘ra paydo bo‘ladi. Bu sabablar shaxsiy (fanatik tarbiya bazasi asosida) motivlar bo‘yicha, ya’ni yaqin qarindoshlaridan (turmush o‘rtog‘i, otasi, akasi) birining o‘limi yoki qamalishi, urush davrida uyining buzilishi yoki moddiy boyligini yo‘qotishi, mahalliy rahbarning qattiqqo‘lligi natijasida (agar ular boshqa millat va boshqa e’tiqodda bo‘lsa) namoyon bo‘ladi.

2. Terrorchi shaxsi psixologiyasi

Insonni terrorchilik faoliyati bilan shugʻullanishga va shunday tashkilotlarga aʼzo boʻlishga qanday motivlar undaydi? Bu savolga javobni uning psixologiyasidan qidirish lozim. Aslida terrorizmni vujudga keltiruvchi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa koʻplab sabablar mavjud boʻlib, bularning barchasi shaxsni va mavjud shaxsiy omillarni, psixologik mexanizmlarni, shaxsning qadriyatlarini izdan chiqaradi, oxir-oqibat uni terrorchilar safiga olib kiradi.

Psixologlar individlarning terrorizm yoʻliga kirishiga undovchi motivlarga aylanadigan bir qator shaxsiy moyilliklarni ajratadilar¹.

Terrorchilik faoliyati bilan shugʻullanishga undovchi shaxsiy omillar:

1) oʻz «men»ini doimiy ravishda hujumkorlik – himoyaga tayyorgarlik orqali mudofaa qilishga tayyor turish;

2) yetarli boʻlmagan shaxsiy moslik, oʻz-oʻzini quyi baholash;

3) guruhga yoki guruhiy aynanlikka boʻlgan kuchli ehtiyoj;

4) oʻzining omadsizliklariga jamiyatni aybdor deb bilish, ijtimoiy adolatsizlikni boshdan kechirish;

5) ijtimoiy yakkalanish va begonalashuv, hayotga va kelajakka qiziqishning soʻnishi;

Yuqorida keltirilgan tavsiflar terrorchi shaxsining qandaydir umumlashgan psixologik xususiyatlar hisoblanadi. Shu oʻrinda shaxsning guruhga kirishida bir qator siyosiy-mafkuraviy motivlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin ular koʻproq chuqur shaxsiy motivlarni takomillashtirish shakli hisoblanadi.

Terrorchi guruhlardagi individlar psixologik jihatdan toʻliqsiz yoki izdan chiqqan psixoiijtimoiy moslik natijasi ekanligini koʻrishimiz mumkin. Bular uning uchun barqarorlashtiruvchi psixologik asos hisoblanadi, oʻzini yaxlit shaxs sifatida his qiladi.

Terrorchi shaxs uchun dunyoni salbiy jihatdan tushunish bir qator omillar taʼsiri ostida vujudga kelishi xarakterlidir. Birinchidan, oʻz-oʻzini boshqarish imkoniyatlari va real dunyoni ideal obrazi orasidagi tafovut tegishlidir. Bu ideal subyektning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan bilishining qarama-qarshiligidir, natijada terrorchi shaxsda «Men yaxshi, dunyo yomon» degan qarash shakllanadi. Bu qarash turli xil despruktiv harakatlarni oqlash va oʻz-oʻzini ruhiy himoyalash vositasi boʻlib qoladi.

¹ Qarang: Психологи о терроризме (Материалы круглого стола) // Психологический журнал. – 1995. – №4.

Terrorchilik faoliyatini ta'minlashga jalb etilgan ijtimoiy-psixologik omillar.

Terrorchi tashkilot, boshqa har qanday jinoiy tashkilot singari, murakkab iyerarxik tuzilishga ega va uning turli pog'onalarida turli xil odamlar joylashadilar hamda ularga individual xususiyatlar xosdir. Lekin terrorchilik faoliyati, boshqa har qanday faoliyat singari, ana shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi insonlarda ma'lum bir tipik xulq-atvor va shaxsning o'ziga xosliklari ishlab chiqilishiga olib keladi. Binobarin, terrorchi tashkilotga qo'shilishning o'zi ham shaxsdan muayyan u yoki bu iyerarxik pog'onaga mansub bo'lgan xususiyatlarning mavjud bo'lishni oldindan taqozo qiladi.

Terrorizm muammosining turli xil psixologik tadqiqotlarini umumlashtirgan holda, terrorchilar shaxsiyatining quyidagi tasnifini keltirish mumkin:

1. Tashkilotchilar: mafkuraviy fanatlar; bevosita tashkilotchilar; namoyishkorona tip.

2. Ta'minlovchilar: yollovchilar; teraktlarni tayyorlovchilar; pedagog-murabbiylar; texnologlar.

3. Bajaruvchilar: tajovuzkor tip, fanatik tip, zombilashtirilgan tip, qasoskor tip; avantyurist tip.

Birinchi kategoriyaga a'zo bo'lganlarni genetik terrorchilar yoki insonlar deyish mumkin, ular yoshlik davridan terrorchilik faoliyati bilan shug'ullanishga moyil bo'lgan shaxslardir. Hozirgi zamon tibbiyoti nuqtai nazaridan olib qarasak, genetik terrorchilar miya tuzilishining mavjud tug'ma yoki erta yoshligidagi og'ishlari natijasida hokimiyatni qo'lga olish, boshqarish kabi illatlarga muhtalo bo'ladilar. Ularda siyosiy yoki ijtimoiy ko'rinishdagi hokimiyatga pog'onama-pog'ona erishish emas, balki umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lgan vahshiyona xatti-harakatlarni amalga oshirish orqali erishish ustun turadi.

Mafkuraviy fanatlar terrorchilarning juda xavfli tipi hisoblanadi, shaxsiy e'tiqodlari (diniy, mafkuraviy, siyosiy) va xatti-harakatlariga, shuningdek o'z dunyoqarashlari, o'zining gunohsizligi hamda insonlarning taqdirini boshqarish mumkinligiga ishonadilar. Ushbu toifadagilar notiqqligi, yetarli darajada yuqori aqliy darajasi va boshqa odamlarga samarali psixologik ta'sir eta olish qobiliyati mavjudligi bilan ajralib turadilar.

Bevosita tashkilotchilar – ma'lum ma'noda barqaror va sovuqqon tip. Aniq teraktlar, oldindan o'ylangan va rejalashtirilgan terrorchilik

aktlari g'oyaviy ta'minlanganlik va emotsional qat'iyatlilik bilan amalga oshiriladi. Lider ushbu faoliyatdan tashqarida bo'lishni ma'qul ko'radi.

Namoyishkorona tip – ochiqchasiga jangovar boshqaruvchi, maqtanchoq va o'zini yaxshi ko'ruvchi «dovyurak-jangchi». Barcha narsalar va hammaga nafrat ko'zi bilan qarab lazzatlanadi. O'z-o'zini buyukligiga ishontirish ularga xos xislat.

Ikkinchi kategoriyaga turli ko'rinishdagi noqonuniy yoki jinoiy yo'llar yordamida oddiy mablag' yig'ish bilan shug'ullanuvchi shaxslar kiradi.

Yollovchi – boshqalarni terrorchi tashkilotlarga jalb qiluvchi shaxs. Yuqori va tez psixologik aloqa o'rnatishga moyil, psixotexnologik ko'nikmalarga ega, ishontirib (gipnoz) ta'sir qilishi bilan ajralib turadi. Ushbu toifadagilar terrorchi tashkilotlarda eng kuchsiz bo'g'in hisoblanib, ularning vazifasi ta'sirga tez beriluvchi odamlarni aniqlash va topib, psixologik ta'sir o'tkazishdan iborat.

Teraktlarni tayyorlovchilar asosan sobiq maxsus xizmat xodimlari bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlatlarda maxsus xizmatlarda tayyorgarlikdan o'tganlar. Ularda uzoq yillar davomida qo'poruvchilik, ba'zan esa antiterrorchilik faoliyati bilan shug'ullanish natijasida terrorchi shaxslarga xos bo'lgan psixologik sifatlar shakllangan. Biroq, yosh jihatidan yoki biror-bir sabab tufayli davlat xizmatining ijtimoiy yo'nalganligini o'zgartiradi. Masalan, ular odatiy davlat xizmatida, biroq «dushman tarafi»da bo'lib faoliyat olib boradilar. Bunday maxsus xizmat xodimlarining ma'naviy-axloqiy, insoniy qadriyatlari qo'poruvchilik faoliyati bilan uzoq yillar davomida shug'ullanishi natijasida yo'q bo'lib ketgan. Ijtimoiy yo'nalganlikning o'zgarishida asosiy rolni «moddiy manfaat» o'ynaydi. Terrorizmga ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchun davlat xizmatiga qaraganda bir necha barobar ko'p haq to'lanadi.

Pedagog-murabbiylar teraktlarni tayyorlovchilar bilan bir jabhada faoliyat ko'rsatadilar. Bu shaxslar terrorchilik faoliyatining barcha mutaxassisligi bo'yicha yo'riqchi (instruktor)lik faoliyati bilan shug'ullanadilar. Odatda ular boylik girdobiga tushgan sobiq maxsus xizmat xodimlaridir. Pedagog-murabbiy terrorchilarning professional faoliyati o'zgarmaydi. Ular ilgari terrorizmga qarshi kurashishni o'rgatgan bo'lsalar, endilikda esa, o'tmishdagi tajribalariga suyangan holda, terrorchilarni o'zlarining sobiq shogirdlariga qarshi kurashishga o'rgatadilar.

Texnologlar ham terrorchi tashkilotlarning a'zolar bo'lib, ularning asosiy vazifasi teraktlarning sodir etilishini texnik jihatdan ta'minlab berish hisoblanadi. Aniq terrorchilik xatti-harakatlarini sodir etish uchun shart-sharoitlarni tayyorlash va portlovchi moslamalarni yaratish sohasida texnik hamda boshqa malakalarga ega bo'ladilar. Kimdir terrorchilar uchun soxta hujjatlar, kimdir transport vositasi va samolyot uchun chipta, yana kimdir portlovchi moslamalar uchun omborxonalar tayyorlaydi.

Uchinchi kategoriyadagi shaxslar terrorchi tashkilotning eng quyi pog'onalarida turadilar va ularning asosiy vazifasi bevosita teraktlarni amalga oshirish hisoblanadi. Bular portlovchi moslamani hodisa joyiga olib boruvchi, masofada turib portlovchi moslamani harakatga keltiruvchi, o'limdan qaytmaydigan yo'l ko'rsatuvchilar, o'zini «qurbon» yoki «shahid» qiluvchi ayol va erkaklardir.

Tajovuzkor tip toifasidagi odamlar zo'rlashga, o'ldirishga, hamma narsani buzishga va hammani qo'rqitishga xos tajovuzkor ehtirosiga ega. Terror – emotsional qoniqishning asosiy usuli. Ushbu toifadagilar «qotib qolgan» (otmarozka), umuman ma'naviyatsiz, vahshiy, rag'batlantirish uchun ishlovchi, kimni so'yish va kimni otish ularga baribir.

Fanatik tip terrorchilarning eng xavfli tiplaridan biridir, ular teraktlarni sodir etishga borishda o'z o'limiga oldindan va ongli ravishda tayyorlanadilar.

Zombilashtirilgan toifadagilar o'z joniga qasd qilish vazifalarini ideal tarzda bajaruvchilardir. Dasturlashtirilgan avtomat sifatida va ta'sirga berilish oqibatida harakat qiladi. Vazifani bajarishda tez fikrlaydi va qo'rquvni his qilmaydi.

Qasoskor tipning asosiy motivi o'zi uchun, yaqinlari yoki do'stlari hamda yagona e'tiqoddoshlari uchun qasos olish hisoblanadi. Ushbu toifadagilar ichida ko'proq o'spirinlar va ayollar uchraydi.

Avantyurist tip – qattiq siyosiy e'tiqod va barqaror siyosiy yo'nalishga ega bo'lmagan odam. Ushbu toifadagi odamning boshqalardan farqi – yakka holda harakat qiladi.

Uchinchi kategoriyaga kiruvchi «bajaruvchilarni» **o'z joniga qasd** qiluvchi-terrorchilar toifasiga kiritish mumkin. Ushbu toifadagi odamlarda o'lish va o'ldirishga xohish yuqori bo'ladi, o'zini juda kuchsiz his qiladi. Ushbu e'tiqodning ichki motivlaridan biri o'z kuchi

bilan zaiflikdan qutilishdir. Bunday odamlarda tobelik ekstremal kechinma hisoblanadi.

O‘z joniga qasd qiluvchi terrorchilarning maqsadlari – odamlar ko‘p joylarda, shaharning markaziy tumanlarida o‘zlariga katta e‘tibor qaratishni nazarda tutadi. Agar aholidan to‘sib qo‘yilsa, u ko‘proq huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini yo‘q qilishga harakat qiladi. Ular muzokara olib borishda bir maqsadni ko‘zlaydi – yon-atrofiga imkoni boricha ko‘proq odamlarni yig‘ish, ya‘ni o‘z jonini qimmatroqqa sotishga harakat qiladi.

Terrorizm keyingi paytlarda turli ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Agar ilgari muayyan maqsadlarga erishish yo‘lida uning odamlarni garovga olish, aholi o‘rtasida vahima uyg‘otish, u yoki bu davlat obyektlarini portlatish, davlat arbobiga suiqasd qilish va hokazo ko‘rinishlari kuzatilgan bo‘lsa, bugun o‘z g‘arazli maqsadi yo‘lida to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson resurslaridan foydalanish hollari ham ommalashib bormoqda. Terrorizmning bu ko‘rinishi «qurbonlik» yoki «shahidlik» terrorizmi deb ataladi.

«*Qurbonlik*» yoki «*shahidlik*» terrorizmi xalqaro terrorizmning bir ko‘rinishi sifatida turli ijtimoiy-siyosiy tartiblarda muayyan sabablar va omillar ta‘sirida namoyon bo‘ladi. Uning bunday ko‘rinishi O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. 2004 yil 29–30 mart kunlari «shahidlik» terrorizmining dastlabki ko‘rinishi kuzatildi¹.

Odatda «shahidlik»ni qaror qilgan shaxslar o‘z jonini qurbon qilishni taklif qilmaydilar. Ularni «ma‘naviy murabbiyi» yoki sardori tanlab oladi. Shundan so‘ng esa uzoq muddatga rejalashtirilgan psixologik tayyorgarlik jarayonlari boshlanadi. «Qurbonlik» yoki «shahidlik» maqomidagi terrorchilarni odatda Yaqin Sharq, Kavkazorti, Afg‘oniston va Pokistonda tayyorlaydilar.

«Qurbonlik» yoki «shahidlik»ka muhtalo bo‘lgan terrorchilarni zararsizlantirish juda mushkul, chunki u o‘limga tayyor. Bunday nobakor ishlarga qarshi maxsus xizmat xodimlarining samarali mehnatlari orqali natijaga erishi mumkin. Mutaxassislarining ta‘kidlashlaricha, terrorchi har soniyada hayot bilan vidolashishga tayyor emas. U doimiy ravishda barmog‘ini harakatga keltiruvchi tugmada tutib turishi mumkin emas. Terrorchi o‘z joniga qasd etishi uchun kamida yarim daqiqa vaqt kerak

¹ Qarang: Қодиров А., Исмоилов М. «Қурбонлик» ёки «шаҳидлик» кўринишидаги терроризм // Хуқуқ–Право–Law. –2004. – №2. – Б. 16–17.

bo'lishi hisoblab chiqilgan. Mana shu yarim daqiqa hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Terrorchi shaxsning sifatlari:

1) tajovuzkor va shafqatsiz (qattiq qo'l) xulq-atvorga egalik;
2) o'zini oqlash. Siyosiy mafkuraviy motivlar odatda shaxsni yashirin ehtiyojlarini qondirish sifatida namoyon bo'ladi;

3) agressivlik xususiyati, ya'ni voqelikka to'g'ri baho bera olmaslik, aybni tashqi omillardan qidirish va o'zining muvaffaqiyatsizligini vaziyatga yuklashga moyillik;

4) terrorchi tashkilotlarga, uning vazifa va ideallariga ko'r-ko'rona sodiqlik;

5) yetarli darajada aqliy rivojlanmaganlik, bilim darajasining pastligi;

6) odatda nosog'lom oilalardan chiqqanligi, ijtimoiy patologik rivojlanishga ega bo'lmaganligi. Jamiyatda o'z o'rnini topa olmagan odamlar, ish o'rnini yo'qotgan yoki unga ega bo'lmaganlar, yaqin kishilarini yo'qotganlar, jismoniy imkoniyati chegaralangan shaxslar, og'ir psixotravmalarni boshidan kechirganlar, terrorchilik yoki diniy an'analarga rioya qiladiganlarning qarindoshlari, farzandlari yoki nevaralari bo'lishi mumkin;

7) doimo o'z «men»ligini himoya qilish, o'z fikrini tasdiqlashga intilish, boshqa insonlarning istak va hissiyotlariga e'tibor bermaslik va fanatizm;

8) shoshqaloqlik, o'zgaruvchanlik va ikkilanishlar va hokazo.

3. Terrorizmga qarshi kurashishning psixologik muammolari

Shuni ta'kidlash lozimki, terrorizm xavfini bartaraf etish mumkin, ushbu muammoni hal etib bo'lmaydi, deb hisoblash noto'g'ri. Terrorizm ustidan g'alaba qozonish jamiyatning barcha qatlamlari va guruhlarining harakatlarini birlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari profilaktik chora-tadbirlarni olib borayotganda zamonaviy terrorizmning asosiy g'oyalari va mafkurasini, mavqeini obro'sizlantirishga qaratilgan harakatlarni tashkil etishlari kerak. Profilaktik faoliyat davomida shaxsning birdaniga terrorchi bo'lib qolmasligi holatini hisobga olish lozim. Terrorchilik faoliyatga shaxslarni jalb qilish uzoq muddatli jarayondir. Odatda bu hol o'ziga xos

psixologik tuzilishga ega bo‘lib, alohida guruhlar faoliyati bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ushbu guruhlarini aniqlash va faoliyatining oldini olish juda muhimdir.

Profilaktika faoliyati terrorchi guruh va tashkilotlarning shakllanishi va amal qilishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini hisobga olishni taqozo etadi. Bu guruhlarining psixologik tarkibi, bajarayotgan vazifalarining taqsimlanishi, guruhlararo o‘zaro munosabatlarining xususiyatlarini bilish juda muhimdir. Bunday uyushgan jinoiy guruhlarini bo‘lib tashlash (ajratish) uchun ishlab chiqilgan taktik psixologik metodlarni qo‘llash muhimdir:

- guruh liderlarini ajratish metodi;
- guruh liderlarini obro‘sizlantirish metodi;
- guruhni ichidan «buzish» metodi (portlash);
- guruhning ichki munosabatlarida ziddiyatlarni keltirib chiqarish metodi;
- «zaif bo‘g‘indan» foydalanish metodi va boshqalar.

Terrorchilar narsa va shaxslarni garovga olgan vaziyatlarda aniq kontrterror operatsiyalarni amalga oshirish psixologik jihatdan juda qiyindir. Bunday vaziyatlarda xodimlarning muvaffaqiyatli harakati garovga olinganlarni ozod qilish bo‘yicha muzokaralarni to‘g‘ri olib borishiga bog‘liq.

Garovga olinganlarni ozod qilish bo‘yicha olib boriladigan muzokaralarda psixologik nuqtai nazardan nimani hisobga olish zarur?

1. Jinoyatchi shaxsini chuqur o‘rganish. Bu jinoyatchi bitta yoki ko‘p bo‘lishidan qat’i nazar muvaffaqiyatli muzokara olib borishning birlamchi asosidir. Bu masalaning murakkabligini hisobga olgan holda jinoiy guruhning har bir qatnashchisi o‘rnini aniqlash, uning imkoniyatlari, boshqa qatnashchilarga ta’sirini o‘rganish muhimdir.

2. Jinoyatchilar bilan muzokara olib borish majburiy xarakterga ega. Bu fuqarolar erkinligi, sog‘lig‘i, hayotini himoya qilish zarurati hamda boshqa huquqiy himoya qadriyatlarini bilan bog‘liq.

3. Jinoyatchilar bilan muzokaralar olib borishning yana bir muhim xususiyati bor: ular ko‘pincha kim bilan muzokara olib bormoqchi bo‘lsa, o‘sha odamni tanlaydilar. O‘rganilgan holatlar qolib, muzokaralar jinoyatchilar bilan aloqasi yo‘q vositachilar yordamida olib boriladi.

4. Barcha tugallangan muvaffaqiyatli muzokaralardan olingan asosiy xulosa shuki, jinoyatchi garovga olinganlarning sog‘lig‘i va hayotini kafolatlasa muzokara o‘tkazishdan ma’no bordir. Muzokara davomida

garovga olinganlarga nisbatan zoʻrluk ishlatilmasligi uchun jinoyatchilarning talabi albatta qondirilishiga ishonirish kerak.

Garovga olinganlarni qutqarish uchun muzokara olib borishda quyidagi psixologik omillar hisobga olish kerak:

- 1) garovga olgan jinoyatchining shaxsi;
- 2) garovga olishning odatiy motivlari;
- 3) garovga oluvchilarning oʻzini tutishini oldindan koʻrish;
- 4) muzokaralar oʻtkazish jarayoni;
- 5) muzokara olib boruvchi va psixolog maslahatchini taʼminlash;
- 6) muzokara olib boruvchi, rahbar va qutqaruv guruhi oʻrtasidagi

oʻzaro harakat.

Muzokara olib boruvchining muhim kasbiy sifatleri:

- 1) hissiy barqarorlik va chidamlilik;
- 2) eshitish qobiliyati va muloqotga kirishimlilik;
- 3) oʻzgalarni asoslarga tayangan holda ishonirish va mantiqiy hukm chiqarishni bilish;
- 4) suhbatdoshining ijtimoiy kelib chiqishidan qatʼi nazar oson psixologik aloqa oʻrnata olishi;
- 5) sogʻlom tafakkur va nozik didga egaligi;
- 6) noaniq holatlarda harakat qila olishi va masʼuliyatni oʻz zimmasiga ola bilishi;
- 7) muzokaraga jiddiy yondashishi;
- 8) agar muzokaralar ijobiy natija bermasa va garovdagilarning hayoti xavf ostida boʻlsa, kuch ishlatib boʻlsa-da ozod etishga yordam bera olishi.

Nima uchun odamlar garovga olinadi? Odamlarni garovga olishning motivlari turlicha boʻlib, ularning hammasi ham ayon boʻlavermaydi. Siyosiy terrorizmدا xususan jamoatchilikka hokimiyat aholini himoya qilishga qodir emasligini singdirish haqida gap boradi. Shu bilan birga, odamlarni garovga olish ommaviy axborot vositalarining eʼtiborini jalb qiladi. Terrorchilar shunday nizolar sonining ortishi oxir-oqibat aholining qoʻzgʻalishi va hukumatni agʻdarib tashlashiga olib keladi, deb umid qiladilar.

Lekin garovga olishning birlamchi motivi qanday boʻlishidan qatʼi nazar, ularni keyinchalik ushlab turish motivi oʻzgarishi mumkin. Masalan, bankni talash paytida fosh qilingan jinoyatchi avvaliga katta miqdorda pul talab qilishi, keyinchalik esa oʻzining jismoniy xavfsizligi yoki sudning muruvvati kafolatlanishi bilan qoniqishi mumkin.

Terrorchilar dastlab zudlik bilan siyosiy o'zgarishlar yoki boshqa shartlarni talab qilish, lekin oxir-oqibatda ushbu shartlar yuzasidan muzokaralarga rozilik berishi mumkin. Odamlarni garovga olishning dastlabki motivi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ko'pincha ma'lum vaqt o'tganidan keyin garovga oluvchi o'z da'volarini kamaytirishga rozi bo'ladi.

Garovdagilarning o'zi muzokaralarda muhim rol o'ynaydi. Garchi ularning har biri o'zini turlicha tutsa-da, ba'zan xatti-harakatlardagi «Stokgolm sindromi» degan nom bilan ma'lum bo'lgan umumiy qirralar aniqlanadi. Bu sindromning o'ziga xos belgilar to'plami quyidagicha:

- asirlar o'zlarini qo'lga oluvchilarga qiyoslay boshlaydilar;
- qurbon ko'pincha qutqaruvchilar ko'rayotgan choralar unga zarar yetkazishi ehtimoli borligini tushunadi;
- asirda uzoq vaqt bo'lish qurbonning jinoyatchini odam sifatida bilib olishiga olib keladi;
- asir hissiy tomondan vaziyatdan uzoqlashadi, bu narsa u bilan sodir bo'lmasligi kerak, buning hammasi tush, deb o'ylaydi.

Asirdagilar o'zlarini garovga olganlarga qiyoslay boshlaydilar. Hech bo'lmaganda, bu avvaliga himoya mexanizmi bo'lib, u agar harakatlar birgalikda bo'lsa va ijobiy qabul qilinsa, jinoyatchi qurbonga zarar yetkazmaydi, degan yanglish g'oyaga asoslanadi. Asir amalda chin dildan garovga oluvchining homiyligiga erishishga harakat qiladi.

Qurbon ko'pincha qutqaruvchilar ko'rayotgan choralar unga zarar yetkazishi ehtimoli borligini tushunadi. Qutqarishga urinish vaziyatni tubdan o'zgartirishi, barqaror vaziyat o'ta xavfliga aylanishi mumkin. Agar garovdagi odam qutqaruvchilar o'qiga uchramasa, garovga oluvchining o'qiga duchor bo'lishi mumkin.

Asirda uzoq vaqt bo'lish qurbonning jinoyatchini odam sifatida bilib olishiga olib keladi. Uning muammolari va intilishlari ma'lum bo'ladi. Bu, ayniqsa, asir o'zini garovga oluvchining nuqtai nazarini, hokimiyatdan noroziligi sabablarini bilgan siyosiy va mafkuraviy vaziyatlarda juda yaxshi ish beradi. Shunda qurbon jinoyatchining yo'li yagona to'g'ri yo'l deb o'ylashi mumkin.

Asir hissiy tomondan vaziyatdan uzoqlashadi, bu narsa u bilan sodir bo'lmasligi kerak, buning hammasi tush, deb o'ylaydi. U foydasiz, lekin vaqtni oluvchi «og'ir ishda» qatnasha turib vaziyatni esdan chiqarishga urinishi mumkin. O'zini garovga oluvchi bilan bir xil deb o'ylashi natijasida qutqaruvchilar va ularning intiluvchanligini haqiqatan ham bo'lib o'tayotgan voqeada qoralashi mumkin.

Muzokara olib borish nuqtai nazaridan bu sindrom bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy tomonlarga ega. Ijobiy tomoni shundan iboratki, «Stokgolm» sindromi qanchalik kuchli bo'lsa, garovga oluvchi garovdakilarni o'ldirishi ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Boshqa tomondan garovga olinganlardan kelayotgan xabar ishonchli bo'lmasligi mumkin.

Odamlar garovga olinganda ularning hayotini saqlab qolish, garovga oluvchilarni ushlab va mulkni qaytarish yoki muhofaza qilish asosiy vazifa hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari muzokara predmeti bo'lishi mumkin. Faqat so'rashayotgan narsanigina berish kerak. Agar buterbrod so'rasha, faqat buterbrod berish, unga ichimlikni yoki boshqa narsani qo'shish kerak emas.

Ichimliklar ham muzokara predmeti bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, bu alkogolli ichimliklarga tegishli emas. Bordi-yu, ishonchli manba orqali alkogol garovga oluvchini bo'shashtirishi va yumshatishi ma'lum bo'lsa, uni berishga tavakkal qilib ko'rish mumkin. Agar aksincha, alkogol uni asabiy va janggari qilib qo'yishi ma'lum bo'lsa, hech qanday holatda unga ichimlik berish kerak emas.

Garovdakilarni ozod qilish hamisha muzokara predmetidir. Garovga oluvchilarga ozodlik berish ham shunday predmet bo'lishi mumkin. Ularni ozod qilishga faqat garovdakilarni qo'yib yuborilgandan keyingina va'da bergan ma'qul.

Sotib olish eng ko'p tarqalgan talablardan biridir. Bu tajriba ko'pincha garovga oluvchi shaxs o'rab olinganda qo'llaniladi.

Garovdakilarni boshqa shaxslarga almashish ko'p sabablarga ko'ra qoniqarsiz taktikadir. Garovdagi odamni huquqni muhofaza qilish idoralari xodimiga almashtirish keskinlikni kuchaytiradi, chunki u garovga oluvchi uchun katta xavf tug'diradi. Bundan tashqari, garovga oluvchi uchun oddiy fuqarodan ko'ra huquq-tartibot xodimini o'ldirish ko'proq obro' keltiradi.

Garovdakilarni garovga oluvchining oila a'zolariga ham almashtirmaslik kerak. U «o'z-o'zini o'ldirish uchun odam to'plash» maqsadida qarindoshlari va do'stlarini talab qilayotgan bo'lishi mumkin.

Almashuvni amalga oshirish ancha qiyin jarayon, chunki siz garovga oluvchiga yana bir kishini garovga berib, evaziga hech nima olmaslik tavakkali xavfi ostida qolasiz. Bundan tashqari, har bir almashilgan

garovga olinuvchi bilan siz «Stokgolm sindromi» bilan bogʻliq boʻlgan ustunlikni yoʻqotasiz.

Qanday qilib boʻlsa ham muzokaralarni choʻzish kerak. Vaqt garovdagilar sogʻ-salamat va ziyon yetmay ozod qilinishiga xizmat qiladi. Buning quyidagi sabablari bor:

1) oziq-ovqat, ichimlik suvi, uyqu va shu kabilarga boʻlgan ehtiyoj ortib boradi;

2) xatar kamayib boradi;

3) odamlarning koʻpchiligi hissiyotlarini jilovlay boshlaydi;

4) «Stokgolm sindromi» shakllana boshlaydi;

5) garovdagilarda qochib ketishga koʻproq imkoniyat paydo boʻladi;

6) olingan maʼlumotlar ishni yaxshiroq bilib qaror qabul qilishga imkon beradi;

7) muzokara olib boruvchi va garovga oluvchi oʻrtasida yaxshi munosabat va ishonchlar muhit oʻrnatilishi mumkin;

8) garovga oluvchining talablari kamayishi mumkin;

9) nizo oʻz-oʻzidan barham topishi mumkin. Baʼzan garovga oluvchilar evaziga hech nima talab qilmay, oʻz asirlarini shunchaki qoʻyib yuborganlar.

Garchi vaqt shubhasiz muzokaralarga qulaylik tugʻdirsa-da, salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Muzokara olib boruvchi va qutqaruvchilar charchoq taʼsiriga tushib qolishlari natijasida xatolar qilishlari, nizoni tugatish istagida huquq-tartibot kuchlari voqealarni tezlashtirishni xohlab qolishlari, masalan, ular tegishli ehtiyot choralarini koʻrmay, garovga oluvchilarga yaqinlashishi yoki oʻzlari yashiringan joyda hushyorlikni yoʻqotishlari mumkin.

Muloqot oʻrnatish uchun vaqtni aniq belgilab olish, garovga oluvchiga tinchlanishi uchun vaqt berish lozim. Vaqtdan oldin qilingan aloqa stress holatini keltirib chiqarishi hamda uni oʻylab koʻrilmagan va tajovuzkor talablarga undashi mumkin. Agar unda tinchlanish va vaziyatni real baholash uchun vaqt boʻlsa, uning talablari mulohazaliroq boʻladi.

Aloqaga kirishishda megafon va boshqa ovoz kuchaytirgichlar oʻzaro ishonch muhiti hamda yaxshi munosabat oʻrnatishda samara bermasligi mumkin. Yuzma-yuz muloqot garovga oluvchining ruhiy holati haqida yaxshiroq mulohaza yuritishga imkon beradi. Muzokara olib boruvchini koʻrish imkoni ham munosabatlarni yaxshilashi mumkin. Yuzma-yuz muloqotning asosiy kamchiligi muzokara olib boruvchi duch keladigan xavfning kattaligidir. Faqat boshqa aloqa vositalari orqali

aloqa oʻrnatilgandan keyingina yuzma-yuz muzokara olib borishga kirishish, yaʼni muzokara himoya toʻsiqlari mavjud boʻlganda olib borilishi kerak.

Yuzma-yuz muzokara olib borish jarayonida qoʻyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

1. Avvalo insonlarni garovga olgan odam Sizga hech qanday zarar yetkazmasligi toʻgʻrisida soʻz bersin.

2. Sizga nisbatan qurol oʻqtalغان holatda gaplashmang va undan qurolni tushirib muloqotga kirishishni soʻrang.

3. Yuzma-yuz gaplashish uchun biroz vaqt talab qilinadi, jinoyatchi shaxs bilan tegishli munosabatlar oʻrnatilib, oʻzaro ishonch va muhit paydo boʻlganidan keyin muzokaraga kirishing.

4. Hech qachon bir nechta jinoyatchi bilan yuzma-yuz va aynan bir vaqtda suhbat olib bormang.

5. Muzokara davomida, vaziyat taqozo etsa, qochish imkoniyati va sharoit hisobga oling.

6. Muzokara vaqtida garovga olgan odamga hech qachon orqa oʻgirmang.

7. Odamlarni garovga olgan shaxsning koʻziga doimo tik qarang.

8. Odamlarni garovga olgan shaxsning oldiga borish yoki yaqinlashishdan avval uning tashqi koʻrinishi va qiyofasini tezda koʻzdan kechiring.

9. «Xavfsizlik doirasini» baholang, jinoyatchining shu doiraga kirishi natijasida yuzaga keladigan xavfni va himoyani chamalang.

Telefon orqali muloqot olib borish muloqot olib borayotgan shaxs uchun maksimal darajada xavfsizlikni taʼminlaydi va muloqot olib borilishini soddalashtiradi.

Odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxslar bilan aloqa oʻrnatish. Odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxsning yoshi, jinsi, atrofdagilar toʻgʻrisida imkoni boricha koʻproq maʼlumot olishga harakat qilish kerak. Jinoyatchi savol berganda «*ha*» yoki «*yoʻq*» degan javob bilan cheklanmasdan, toʻliq javob qaytarishga harakat qilish lozim. Aloqa oʻrnatish jarayonida odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxsga shunday savollar berilishi kerakki, u savolga javob berish uchun koʻproq vaqt sarflasin.

Muzokara jarayonda jinoyatchi bilan jinoyatchilar olami tilida gaplashish yaxshi samara berishi mumkin. U bilan muloyimlik va

bosiqlik bilan, qo‘pollik ishlatmasdan, «Injil» yoki «Qur’ondan» suralar o‘qisa, shirk keltirmasdan gaplashish lozim.

Odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxs bilan aloqa o‘rnatish jarayonida eng muhim jihatlardan biri jinoyatchining ruhiy holatini baholash hisoblanadi. Jinoyatchining ruhiy holati (kuchli stress holatida, qo‘rquvda, hayajonlanyapti, devonasifat va hokazo)ni bilish muzokara olib borishda yordam beradi. Shuningdek, uning fikrlash doirasi, bilimi, dunyoqarashlarini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Odamlarni garovga olgan jinoyatchi shaxs bilan muzokara jarayonida oshkora aloqa o‘rnatishga harakat qilish kerak. Muloqot olib boruvchi o‘zini tanishtirishi, ismini aytishi va jinoyatchi o‘zini qanday atagan bo‘lsa, uni shunday chaqirishi kerak. Unga «muloqotlarni olib boruvchi shaxs» sifatida o‘zini muntazam tanishtirishdan, shuningdek, jiddiy salbiy javob berishdan voz kechish lozim. Bu harakatlar munosabatlarni chigallashtiradi. U bilan murosaga kelishga harakat qilish tavsiya etiladi. Masalan: «*Siz va men bir qarorga birgalikda kelib, muammoning yechimini topishimiz mumkin*», «*Men boshlig‘imga Sizning maktubingizni yetkazaman va talablaringizni to‘la qabul qilishi uchun harakat qilaman, ammo o‘ylaymanki, bu masalani hal qilish jarayoni qiyin kechadi*» va hokazo.

Jinoyatchi shaxsning muntazam ravishda qarorlar qabul qilish bilan band bo‘lishiga erishish kerak. Nima qilish, muammoni qanday va qachon hal qilishni o‘zi o‘ylasin. Agar u ovqatlanishni xohlasa, nimani yemoqchi yoki ichmoqchi ekanligini bilib, yetkazib berishga harakat qilish lozim. Bu muloqotning samarali yakunlanishiga yordam beradi.

Jinoyatchi shaxs bilan muloqotni muntazam ravishda olib borish, agar u biror narsani talab qilsa, evaziga undan ham biror narsani talab qilish kerak. Shunday holatlar ham bo‘lganki, sigareta evaziga garovdagi shaxslar almashtirilgan.

Sodir etilgan harakatlar, otishma natijasida xodimlar orasidan kimdir halok bo‘lgan yoki atrofda gilaridan kimdir o‘lgan bo‘lsa, bu to‘g‘risida jinoyatchiga bildirmagan ma’qul. Aks holda jinoyatchi shaxs boshi berk ko‘chaga kirib qoladi va bu holat uni favqulodda harakatlarni amalga oshirishga undaydi.

Muloqot jarayonida jinoyatchi shaxsning biron-bir narsaga erishish umidining so‘nmasligiga muloqotning davom ettirilishiga sabab bo‘ladi. Muloqotni shunday olib borish lozimki, bunda barcha shaxslar, ya’ni

garovga olinganlar, jinoyatchi hamda muzokara olib boruvchida ijobiy natijaga erishish tuygʻusi ustunlik qilsin. Raqibni aldash bilan bogʻliq har xil urinishlar, masalan ovqat va ichimliklariga giyohvandlik moddalarini qoʻshib berish katta tavakkalchilikni yuzaga keltiradi. Amaliyotda kimyoviy moddalar yoki giyohvandlik moddalari mavjudligini oson yoʻl bilan aniqlash mumkin. Agar jinoyatchi uni aldashga harakat qilinganini bilib qolsa, muloqot jarayoniga putur yetadi. Shuning uchun shubha ostiga tushadigan hech qanday harakatlarni sodir qilmaslik lozim.

Garovdagi shaxslarni ozod qilish bilan bogʻliq muzokaralarni olib borish murakkab jarayon boʻlib, oqilonalik va yaxshi tayyorgarlik natijasida olib borilgan muloqotning ijobiy natija bilan tugashi shubhasiz.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Islom Karimovning qaysi asarlarida terrorchilik muammosi borasida atroflicha fikr yuritilgan?
2. Terrorchi shaxsi psixologik jihatdan qanday tasniflanadi?
3. «Qurbonlik» yoki «shahidlik» koʻrinishidagi terrorchilik nima?
4. Terrorchi shaxslarning tiplarini tavsiflang.
5. Terrorchilik xavfi va uni bartaraf etish yoʻllarini ayting.
6. Muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari qanday namoyon boʻladi?
7. Terrorchi shaxsi tabiatidagi sifatlarni sanang.
8. Terrorchilikka qarshi kurashning qanday psixologik muammolari mavjud?

X bob.

**PROFILAKTIK FAOLIYATNING
PSIXOLOGIK ASOSLARI**

1. Profilaktik faoliyatning psixologik tahlili

Ma'lumki, ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini profilaktika (jinoyatlarning oldini olish) inspektorlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Profilaktika inspektorining asosiy vazifasi jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, o'z hududida hisobda turadigan fuqarolarni nazorat qilish hamda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishdan iborat.

Profilaktika inspektori ijtimoiy faoliyati jarayonida davlat tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarni o'z hududida targ'ibot va tashviqot qiladi, o'z hududidagi jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan fuqarolarni hisobga oladi va jinoiy jazoni o'tab kelgan shaxslarni qayta tarbiyalashda hamda nosog'lom oilalar bilan profilaktik ishlarni olib borishda katta rol o'ynaydi.

Profilaktika inspektorining tashkiliy faoliyati quyidagilardan iborat: o'z hududidagi aholining yashash sharoiti bilan yaqindan tanishish; iqtisodiy nochor oilalarga, boquvchisi yo'q fuqarolarga yordam berish ishlarini tashkillashtirish, fuqarolar tomonidan berilgan ariza va shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va mavjud muammolarni bartaraf etishdir.

Profilaktika inspektorlari faoliyati kasbiy psixologiya yoxud psixologiya fan bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-biridan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Profilaktik faoliyat psixologiyasining predmeti, maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

1) *predmeti* – huquqbuzarliklarning oldini olish jarayonida turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish va huquqiy me'yorlar orqali ta'sir etish usullarini o'rganish;

2) *maqsadi* - huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda tinglovchilarda psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

3) *vazifalari* – ichki ishlar organlari faoliyatida profilaktik ishlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni

shakllantirish, profilaktik xizmat xodimlarining shaxsiy-kasbiy sifatlari va kasbiy mahoratlarini shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari bilan tanishtirish.

Ichki ishlar organlari xodimlari profilaktik faoliyatining asosiy maqsadi jinoyatchilikning oldini olish va favqulodda holatlarni bartaraf etishdan iboratdir. Binobarin, profilaktik faoliyat har bir ichki ishlar organlari xodimi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik faoliyati bir qator oʻziga xos psixologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- huquqiy reglamentatsiya;
- faoliyatning turli xil koʻrinishlari va uning ijodiy xarakteri;
- tegishli shaxslarning qarama-qarshiligi;
- hokimiyat vakolatiga egaligi;
- aholining koʻz oʻngida voqea sodir etilganida yuqori masʼuliyat bilan yondashish;
- fuqarolar bilan munosabatlarni yaxshilashda jamoat tashkilotlari va institutlarining vakillari, hamda mahalla faollari bilan doimiy aloqalarni tashkil etish majburiy ahamiyat kasb etadi.

Profilaktik faoliyat asosan fuqarolar, mahalliy oʻz oʻzini boshqarish organlari vakillari, mansabdor shaxslar bilan faol kommunikativ munosabatlarga kirishi orqali olib borilib, bu, oʻz navbatida, ichki ishlar organ xodimlarining kommunikativ va pedagogik qobiliyatlarini hamda fuqarolar bilan munosabatda ularning huquqlarini qonun, qonun osti aktlariga rioya etgan holda tashkil etishni talab qiladi.

Profilaktika inspektorining psixogrammasi mutaxassislar tomonidan tahlil qilinganda xodimning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun quyidagi psixologik sifatlari boʻlishi aniqlangan:

- kasbiy kuzatuvchanlik;
- ziddiyatli holatlarda oʻzini boshqara olish qobiliyati;
- oʻz atrofida insonlarni jamlay olish va ularning ishonchiga kira olish qobiliyati;
- inson hayotiga eʼtiborli boʻlishi va uni kuzata olishi;
- oʻz nuqtai nazarini himoya qila olish;
- voqea hodisalar obrazini fikran qayta tiklash;
- qarama qarshi maʼlumotlardan xulosa chiqara olish uquvi;
- insonning tashqi koʻrinishi va xatti-harakatlarini esda saqlab qolish;
- begona insonlar bilan tez psixologik aloqa oʻrnatish olish

qobiliyati¹.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik faoliyatini samarali olib borishiga to'sqinlik qiladigan ko'rsatkichlar mavjud, bular: individualizm, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy o'zaro harakatlar tizimini buzuvchi ijtimoiy begonalashish; peshqadamlikka (liderlikka) intilishning kuchliligi va qat'iyatliligi; faoliyat maqsadiga erishish motivlarining past darajasi; irodaviy jarayonlarning va irodaviy intilishlarning yetarli darajada emasligi; psixologik og'ishlarning mavjudligi va boshqalar.

Profilaktik faoliyat bilan shug'ullanadigan ichki ishlar organ xodimlarining asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash, jinoyat sodir etilish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda o'z hududida ularni bartaraf etish hisoblanadi. Profilaktika inspektorlari har bir fuqaroning huquqlarini himoya qiladi, tashkilot, korxonalarni noqonuniy harakatlardan saqlashdir. Uning barcha xatti-harakatlari qonun doirasida amalga oshiriladi.

Profilaktika xizmatida faoliyat olib borayotgan ichki ishlar organ xodimi professiogrammasida uning shaxsiy sifatlarini, ko'nikma va malakalarini, murakkab, ammo kerakli faoliyatida namoyon etuvchi quyidagi faoliyat ko'rinishlari mavjud, bular:

- ijtimoiy faoliyat;
- konstruktiv faoliyat;
- tashkiliy faoliyat;
- tasdiqlovchi faoliyat;
- kommunikativ faoliyat;
- qidiruv faoliyati.

Ijtimoiy faoliyat – bu profilaktika inspektorining davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarni to'g'ri va chuqur anglagan holda o'ziga birlashtirilgan hududda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkillashtirishi, shaxslarni tarbiyalash ishlarida shart-sharoitlarni yaratishi, tarbiyalash qiyin bo'lgan shaxslarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga pedagogik ta'sir etishi, biror sohaga, mehnatga jalb qilish orqali ijtimoiy xulq normalariga rioya etish hissini oshirishi, jamiyatga foydasi tegadigan inson qilib tarbiyalashga harakat qilishidir. Profilaktika

¹ Основные виды деятельности и психологическая пригодность к службе в системе органов внутренних дел: Справ. пособие / Под ред. Б.Г. Бовина, Н.И. Мягких, А.Д. Сафронова. – М., 1997. – С. 85.

inspektorlarining maslahatlari, sidqidildan ko'rsatgan yordami inson hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Profilaktik faoliyat bilan shug'ullanayotgan har bir xodimning hayotda murakkab vaziyatga yoki holatga tushib qolgan fuqaroga yordam berish faoliyatining muhim tomoni hisoblanadi. Bunday yordamga odatda yolg'iz va qarovsiz bo'lgan yoshi ulug' qariyalar, oilada ichkilikka ruju qo'ygan ota-onalar, nosog'lom oilada tarbiya ko'rayotgan voyaga yetmaganlar va jinoiy jazoni o'tab kelgan sobiq mahkumlar muhtoj bo'ladilar.

Bunday toifadagi har bir insonga o'z hayot yo'lini topishga ko'mak berish, ya'ni ishga joylashishga yordamlashish, surunkali alkogol iste'mol qiladigan shaxslarni majburiy davolash markazlarida davolash ishlarini tashkillashtirish, mahalla fuqarolari yig'inlarida kam ta'minlangan va nosog'lom turmush-tarzi olib borayotgan oilalarga mahalla fuqarolari orqali ta'sir etish va boshqalar profilaktika inspektorlari faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Bunday insonlar taqdiri haqida qayg'urish profilaktik faoliyatning ***konstruktiv faoliyat*** ko'rinishi hisoblanadi.

Tashkiliy faoliyat xodimning o'z kasbiy faoliyati jarayonida turli vazifalarni amalga oshirish uchun maqbul sharoitlarni ta'minlovchi bosh omil hisoblanadi. U sodir etilgan voqea, hodisalarga oid turli taxminlar va ishchi rejalar tuzish hamda ularni amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan irodaviy xatti-harakatlardan iborat. Tashkiliy faoliyat muayyan kasbiy masalalarni hal etish uchun o'zini va vaziyatga aloqador bo'lgan mansabdor shaxslarni safarbar qilish singari omillarda namoyon bo'linadi.

Profilaktika inspektori ko'proq tashabbus ko'rsatishi, kimga qanday yordam ko'rsatish, kim bilan qanday muomalada bo'lishni bilishi kerak. Bundan tashqari, xodim ariza va shikoyatlarni faqatgina qayd etmasdan, balki bevosita fuqarolarning muammolarini ijobiy hal qilishni tashkillashtira olishi ham talab etiladi.

Dalillash faoliyati sodir etilgan jinoiy ish bo'yicha olingan barcha ma'lumotlarni qonunda ko'zda tutilgan tarzda, maxsus shaklda bayon (qaror, bayonnoma, hukm va hokazo tarzda) etishni bildiradi.

Kommunikativ faoliyat aloqaga kirishish va fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatishdir. Shu bilan birga, profilaktika inspektorining kommunikativ faoliyati o'z hududidagi aholi bilan doimiy ravishda

aloqada bo‘lish, aholisi gavjum hududlardagi fuqarolarning kayfiyatlarini o‘rganish va ularga do‘stona munosabatni namoyon etishdan iborat.

Profilaktika inspektorlarining asosiy xususiyati biriktirilgan hududda fuqarolar bilan ishonchli aloqa o‘rnata olishi hisoblanadi. Bu oson kechadigan jarayon emas, chunki hududda turli toifadagi fuqarolar bo‘lib, ba‘zi birlari do‘stona munosabatda bo‘lsa, ba‘zilari agressiv, talabchan, tez xafa bo‘ladigan va boshqa sifatlarga ega bo‘ladilar. Faqatgina psixologik aloqa o‘rnatish bilan cheklanmasdan, balki ular orasida hurmat qozonish, ishonch hissini uyg‘otish va obro‘-e‘tiborga ega bo‘lishga harakat qilish lozim. Profilaktika inspektorlari o‘z hududlaridagi fuqarolar bilan turli vaziyatlarda uchrashadi. Masalan, oilada, ko‘chada va boshqa joylardagi janjalli vaziyatlar. Bunday vaziyatlarda xodim to‘g‘ri va qonuniy harakat qilishi uchun fuqarolarning turmush tarzini, oilaviy sharoitini, fe‘l-atvorini yaxshi bilish kerak.

Qidiruv faoliyati. Huquqbuzar shaxslar odatda o‘zlarining jinoiy xatti-harakatlarini yashiradilar, yolg‘on ma‘lumotlar beradilar, vaziyatni murakkablashtirishga harakat qiladilar. Bunday vaziyatlarda profilaktika inspektorlari harakatlari haqiqatni yuzaga chiqarish va qonun ustuvorligini ta‘minlashda aniq, keskin, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil orqali vaziyatning mohiyatiga yetib borish hamda adolat qaror topishga erish bilan izohlanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, ichki ishlar organ xodimi har doim va har yerda davlat boshqaruv organ xodimi hisoblanadi hamda uning adolatli va odil himoyachisidir. Xodim qo‘pollik va dag‘allikka shunday munosabat bildirishi va tarbiyasizga tarbiyasizlarcha munosabatda bo‘lishi mumkin emas. U har yerda o‘zining xulq-atvori bilan ibrat bo‘lishi, o‘zining ma‘naviy va ma‘rifiy yetukligi, yuksak siyosiy ongi, madaniyati, yurish turishi, kiyinishi, muomalasi, axloq-odobi bilan yosh avlod qalbida o‘zlariga nisbatan havas uyg‘otishga intilishi kerak¹.

Profilaktik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xodim bevosita unga biriktirilgan hududdagi kriminogen vaziyatdan to‘liq xabardor bo‘lishi kerak, uning psixologik o‘ziga xosligini inobatga olish orqali oldiga qo‘ygan vazifalarni to‘liq amalga oshiradi.

Hududda ko‘p uchraydigan muhim psixologik tavsiflar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aholining huquqiy tartib-qoidalar va qonunga xilof ish qilishga

¹ Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларининг касб маданияти ҳақида қўлланма. – Т., 2011. – Б. 4.

munosabati;

- huquqni muhofaza qilish organlarining aholi orasidagi obro‘-e‘tibori;

- mazkur hududda istiqomat qiladigan aholining milliy, kasbiy-psixologik va yoshga oid o‘ziga xosligi;

- aholining turlicha yashashi va turmush tarzi;

Profilaktika inspektori shunday ko‘rinishlarni nafaqat chuqur bilib qolmay, balki ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatini tashkillashtirishi kerak.

Ijtimoiy-psixologik ko‘rinishlarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy fikr;

- guruhiiy kayfiyat;

- urf-odat va qadriyatlar;

- irim- sirim va taassub;

- insonlarning jamoadan tashqari xatti-harakatlari (olomon, vahima, sarosima, biror-bir sabab yuzasidan yoki tasodifan yig‘ilgan insonlar guruhi);

- mish-mish gaplar.

Shaxsning ma‘naviy shakllanish jarayonida muhitda muayyan salbiy ma‘naviy omillar mavjud bo‘ladi, ular shaxsni jinoyatga yetaklovchi omil bo‘lib xizmat qiladi va bu muayyan hayotiy vaziyat deb hisoblanadi. Muayyan hayotiy vaziyat shaxsning qarashlari, xohishlari va odatlari bilan bir vaqtda unga ta‘sir qiluvchi omillar yig‘indisidir. Hayotiy vaziyatlarni kriminogen va kriminogen hisoblanmagan vaziyatlarga ajratish mumkin.

Kriminogen vaziyat – mazmuni bo‘yicha jinoiy niyatning, jinoyat sodir qilish maqsadining shakllanishiga ijobiy ta‘sir qiluvchi, jinoiy natijaga erishish uchun qulay hisoblangan, ya‘ni jinoyat sodir etishga ko‘maklashuvchi vaziyat. Har qanday kriminogen vaziyat o‘z holicha mustaqil tarzda shaxsning jinoyat sodir etishiga olib kelmaydi.

Jinoyat sodir etish vaqtida kriminogen vaziyat shaxsning muhit bilan aloqasining alohida darajasi hisoblanadi. Bu aloqada salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxsdagi jinoyat sodir etish moyilligi kriminogen vaziyat ta‘sirida muayyan xatti-harakatga aylanadi.

Kriminogen vaziyatlar mazmunan quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) shaxs o‘z maqsadlari yo‘lida qiyinchilik va to‘siqlarga duch kelgandagi vaziyat;

2) aybdor bilan boshqa shaxslar yoki davlat va jamiyat manfaatlari, qarashlarining qarama-qarshiligi oqibatida vujudga kelgan vaziyat.

Shuni ta'kidlash lozimki, kriminogen vaziyatlar shaxsni turli salbiy-ijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga undaydi, undagi muayyan jinoiy tajovuzning motivini shakllantiradi, uning xarakteri, maqsadini belgilaydi va jinoyat sodir etishda subyektiv omilning muayyan jinoiy xatti-harakatda namoyon bo'lishiga ko'maklashuvchi sharoit rolini bajaradi. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, kriminogen vaziyatlar turli xil qarashlarga ega bo'lgan shaxslarga turlicha ta'sir qiladi. Ya'ni, jamiyatga zid qarashga ega bo'lgan shaxslarga jinoiy xatti-harakatlar sodir etishiga yordamlashadi, har tomonlama barkamol, ijobiy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar esa bunday vaziyatlarda umuminsoniy va huquqiy normalarga muvofiq harakat qiladilar.

Profilaktika xizmatlari tomonidan kriminogen vaziyatni umumiy tahlil qilish faoliyatining mohiyatini quyidagilarda ko'rish mumkin: kriminogen vaziyat, uni tahlil etish; kriminogen vaziyatni tashkil etuvchi omillar; kriminogen axborotlarni o'rganish; huquq-tartibot holatini aks ettiruvchi axborotlarni o'rganish va ularning maqsadi; huquqbuzarliklarni tahlil qilish; huquqbuzarliklar dinamikasini tahlil qilish; huquqbuzar shaxsini tahlil qilish va hokazo.

Kriminogen vaziyatni o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- hududni tavsiflovchi ma'lumotlar (maydoni va uning o'ziga xosligi);

- hududda istiqomat qiluvchi aholini tavsiflovchi ma'lumotlar (qariyalar, yetuk yoshdagilar va voyaga yetmaganlar soni);

- hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tavsiflovchi ma'lumotlar (ish bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarish, korxonalar, tashkilotlarning mavjudligi);

- huquqbuzarliklarni tavsiflovchi ma'lumotlar;

- huquqbuzarlik sodir etgan va unga moyil shaxslarni tavsiflovchi ma'lumotlar;

- hududdagi jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati subyektlarini tavsiflovchi ma'lumotlar.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar bo'yicha ma'lumot to'plash, ularni tahlil etish va ular asosida tegishli profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Profilaktika faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlar o'zlariga birlashtirilgan hududdagi kriminogen vaziyatni aniqlashda quyidagi ma'lumotlardan foydalanadilar:

– mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi aholining soni va ishsizlar haqidagi ma'lumotlardan;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, kam ta'minlangan, janjalkash va noqobil oilalar haqidagi, shuningdek, voyaga yetmaganlar borasidagi ma'lumotlardan;

– mahalla posbonlari jamoat tuzilmalaridagi pasport tizimi qoidalarini buzayotgan hamda uyidan uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarolar, shuningdek giyohvandlikka moyillar, diniy ekstremistik oqimga a'zo bo'lganlar haqidagi ma'lumotlardan;

– diniy-ma'rifat va ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy masalalar bo'yicha maslahatchilarda to'plangan hududdagi ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ular orasidagi ishsizlik, diniy ekstremistik oqimlarga a'zo bo'lganlar, shuningdek jinoyat sodir etishga moyillar, giyohvandlar va farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanmaydiganlar, fohisha, qo'shmachi, axloqan buzuvchi ayollar haqidagi ma'lumotlardan.

Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining kriminogen vaziyatni o'rganish, tahlil qilish va baholash bilan bog'liq faoliyatini takomillashtirish butun faoliyat davomida rejalashtirilgan asosda olib boriladigan tadbirlar majmuidan iborat bo'lib, aytish mumkinki, u ichki ishlar organlari faoliyatining barcha yo'nalishlari takomillashuviga chambarchas bog'liqdir. Bu takomillashuv hamkorlikdagi faoliyatga ham taalluqlidir. Bunda hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'ya oladigan, kasbiy mahoratga ega bo'lgan xodimlar va rahbarlarning roli kattadir.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, kriminogen vaziyatni tahlil qilish va unga binoan kelgusidagi profilaktik ishlarni rejalashtirish yaxshi samara beradi. Shuning uchun har bir reja hududning holati, tuzilishi, sodir etilgan jinoyatlar soni, jinoyatchilarning soni, aholi gavjum joylar yoki ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan hamda fuqarolar ko'p to'planadigan joylarni alohida nazarda tutgan holda puxta ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim.

2. Profilaktik faoliyat subyektlari va ular bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari

Jinoyatchilikka qarshi kurash ishlarini tashkil etishda jinoyat va, umuman, barcha huquqbuzarliklarning o'ziga xos ichki qonuniyatlarini

bilish orqali hamda har biriga alohida yondashgan holda ish olib borish talab etiladi. Bu profilaktika faoliyati subyektlarining ishlarini to'g'ri tashkil etishlariga ham yordam beradi.

Profilaktika inspektorlari kundalik faoliyati mobaynida doimo fuqarolar bilan munosabatga kirishadilar, ular bilan muloqot olib boradilar, ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadilar, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etadilar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadilar.

Biriktirilgan hududda istiqomat qiladigan barcha fuqarolar profilaktik faoliyatning subyektlari hisoblanadilar. Ular tarkibini oddiy fuqarolar, voyaga yetmaganlar, o'z xulq-atvori va faoliyatini o'zgartirishga, tibbiy, ijtimoiy, pedagogik yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar tashkil etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda profilaktika inspektorlari faoliyatining ba'zi yo'nalishlariga to'xtalib o'tamiz.

Profilaktika inspektorlarining faoliyatini umumiy va yakka tartibdagi profilaktik faoliyat ko'rinishlariga ajratish mumkin.

Umumiy profilaktik faoliyat yo'nalishi huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish hisoblanadi. Umumiy profilaktik faoliyat huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlari nazarda tutadi.

Yakka tartibdagi profilaktik faoliyat bir maqsadga qaratilgan, ya'ni muayyan shaxs ongiga psixo-pedagogik ta'sir etish, mavjud salbiy xislatlarini (jamiyatga qarshi fikr va maqsadlar, salbiy odat va motivlar va boshqalar) yo'qotish, bartaraf etish, irodaviy sifatlarini oshirish, shu bilan bir vaqtda qonunga itoatkorlik, ijobiy fazilatlar ko'rinishidagi xulq-atvor ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Profilaktik faoliyat bilan shug'ullanadigan xodim kasbiy faoliyatining subyekti shaxs yoki guruh bo'lib, u shaxsning huquqiy psixologiyasi va xatti-harakati qaysi yo'nalishda shakllanayotganini bilishi kerak.

Shaxs psixologiyasining huquqiy tuzilishi asosini shaxsning qonunga itoatkorlik xulq-atvoriga yo'nalganligi tashkil qilib, o'zida qonuniylikka undaydigan kuchni qamrab oladi. O'lar quyidagilar:

– *ma'naviy va moddiy ehtiyojlar rivojlanishidagi uyg'unlik*, ya'ni kriminogen og'ishlarning yo'qligi (surunkali ichish, giyohvandlik, kleptomaniya, o'g'rilikka moyillikdan iborat ruhiy kasallik, jinsiy buzuqlik va h.k.);

– *huquqiy ong* – huquqiy qarash, g'oyalar, ishonchlar, adolat orzusi, qonuniylik, teng huquqlilik, huquqiy birlik, majburiyat va

hokazo.

– *huquqiy qarashlar* – jamoa, guruhning bir a’zosi bo’lgan inson jamiyat hayotida yuzaga keladigan huquqiy savollarga sinchkovlik va diqqat bilan qiziqishi va uni hal etishda qonuniylikka itoat etishi;

– *qonuniylikni va huquqiy tartib-intizomni mustahkamlashga ko‘maklashish va qonuniy harakatlarni amalga oshirishdagi qiziqish va ehtiyojlar*, ya’ni huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, oilada, ishda va atrofdagi kishilarni huquqiy norma va talablarga rioya etishni ta’minlash;

– *huquqiy motivlar* – shaxsni qonuniy xatti-harakatlarini ifoda etishga undaydigan kuch.

Psixo-pedagogik ta’sir etish usullari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: ishontirish, rag‘batlantirish, majburlash, harakatni tashkil etish usullari.

Muloqot jarayonida psixo-pedagogik ta’sir etish prinsiplari:

1. Ta’sir etish shaxsning muayyan o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

2. Psixologik ta’sir etish uchun inson psixikasining umumiy qonuniyatlarini va rivojlanish darajasini bilish kerak.

3. Ta’sir etish jarayoni, uning elementlari, oqibatlarini oldindan rejalashtirish va bashorat qila olish shart.

4. Shaxsning ijobiy ta’sirlanishi rag‘batlantirib borilishi kerak.

5. Ta’sir etish inson huquqlarini poymol etishi kerak emas.

6. Shaxsga ta’sir etish rejalashtirilganida barcha xatti-harakatlari tizimi aniqlanishi va hisobga olinishi kerak.

7. Ta’sir etish jarayonida tashqi ta’sir etuvchi omillarni hisobga olish zarur.

8. Ta’sir etish shaxsning hissiy holatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

9. Ta’sir etish jarayonida ta’sir yo‘llanayotgan shaxsning psixologik faolligini ta’minlash zarur.

Maishiy turmush sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda psixologik aspektlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maishiy turmush sohasidagi munosabatlar asosida sodir etiladigan jinoyatlarning umumiy profilaktikasi aholi orasida targ‘ibot va tashviqot ishlari orqali ta’sir etish hisoblanadi. Fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish jarayoni tizimli amalga oshirishni talab etadi. Buning uchun ko‘rgazmali targ‘ibot vositalaridan, turli-tuman ijtimoiy ta’sir etish

vositasidan keng foydalaniladi. Targ'ibot va tashviqot ishlari huquqiy va ma'naviy-axloqiy mavzulardagi ma'ruza, uchrashuvlar, yashash joylarida mahalla fuqarolik jamoalari faollari ishtirokidagi muhokamalar, televideniye va radio ko'rsatuvlarda ishtirok etish hamda chiqishlar orqali amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi profilaktika ishlari profilaktika xodimlari tomonidan amalga oshirilib, unda maishiy turmush sohasidagi jinoyatlarning oldini olish hamda ogohlantirish maqsadida va amalga oshishi mumkin bo'lgan salbiy xatti-harakatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgandir. Yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirishning quyidagi elementlari mavjud:

- shaxslarni o'rganish va ma'lumotlarni tekshirish hamda ularni operativ-profilaktik hisobga qo'yish;

- maishiy turmush sohasidagi qonunga xilof xatti-harakatlarni o'rganib, shaxslarga ta'sir etish;

- hisobga olingan shaxslarni doimiy ravishda yashash sharoiti va fe'l-atvorini kuzatib borish;

- maishiy sohadagi nizoli vaziyatlar paydo bo'lishiga omil bo'luvchi ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish va uning huquqbuzarlikka ko'chishining oldini olish;

- jabrlanuvchilarga profilaktik ta'sir etish (viktimologik effektga erishish yo'lida shaxslarning sun'iy ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchilar orasida);

- vaqti-vaqti bilan yakka tartibdagi profilaktik tadbirlar natijalarini tekshirish va ularni psixologik tahlil qilish.

Maishiy turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda yashash joylarida tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlar muhim o'rin tutadi va bunda dam olish jarayonlarini samarali tomonga burish lozim. Bu tadbirlarni ham umumijtimoiy chora sifatida asosan joylardagi hokimiyatlar faoliyatlari bilan uzviy bog'liq tarzda kompleks yondashuv asosida amalga oshirish talab etiladi.

Aholining huquqiy jihatdan o'zini tutish samaradorligini oshirishda omma o'rtasida g'oyaviy, mehnat va ma'naviy tarbiyaning o'zaro birligini ta'minlash lozim. Bunda asosiy e'tibor asosan maishiy turmushda jinoyat sodir etishga moyil shaxslarga qaratilmog'i zarur. Aynan shu kabi shaxslarda o'zgalarning huquq va manfaatlariga hurmat bilan qarashni hamda jismoniy kuch ishlatishdek g'ayriqonuniy xatti-

harakatlar bilan nizolarni hal etmaslik odatlarini shakllantirish katta ahamiyatga ega.

Voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarini tashkil etishning ijtimoiy- psixologik asoslari:

- oiladagi ko‘ngilsiz voqealarning oldini olish;
- maktabdagi ko‘ngilsiz voqealarning oldini olish;
- o‘smirga ba’zi guruhlarning salbiy ta’sir etishi;
- tarbiyasi qiyin o‘smirda o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘zini ko‘rsatishning paydo bo‘lishi.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘yicha inspektor profilaktik ishlari turli usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ta’sir etish usullari yakka, guruhiy va ommaviy ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Yakka tartibda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar voyaga yetmaganlar bilan ishlashning asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, voyaga yetmaganlarni hisobga olish, uni ichki ishlar organlari bo‘limlariga chaqirish, ishga joylashtirish, o‘quv muassasalariga qaytarish, maxsus o‘quv maskanlariga joylashtirish, sport va boshqa seksiya, to‘garaklarga jalb etish va rasmiy ogohlantirish kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Nosog‘lom oilalar va norasmiy voyaga yetmaganlar guruhi *guruhiy ko‘rinishdagi* tarbiyaviy ishlarni olib borishda profilaktik tadbirlarning obyekti hisoblanadi.

Umumiy profilaktika choralari asosan beqaror oilalarning salbiy ta’sirini neytrallashtirish, muhtoj o‘smirlarga davlat va jamoat yordamini ko‘rsatish (vasiylik va homiylik o‘rnatish, mehribonlik uyi, maktab-internatga yuborish, o‘qishga yoki ishga joylashtirish), voyaga yetmaganlarga ta’lim-tarbiya berish bilan shug‘ullanuvchi muassasalar faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, o‘smirlarning dam olishini oqilona tashkil etish, voyaga yetmaganlar qonun hujjatlariga rioya etishi ustidan nazorat olib borish va hokazolarni nazarda tutadi.

Ommaviy ko‘rinishdagi tarbiyaviy ishlarning maqsadi, guruh yoki aniq shaxs bo‘lishidan qat’i nazar, profilaktik ta’sir etish hisoblanadi. Ularga xodimning aholi oldida, ommaviy axborot vositalari, ya’ni radio, televideniye va matbuotda chiqishlari (bunday chiqishlarda oilada, jamoat tashkilotlarida foydalanmagan va ta’sir etilmagan tarbiyaviy ishlardan foydalaniladi. Bunda doimo shuni ta’kidlash kerakki, tarbiya va profilaktik ishlarni amalga oshirish jarayonidagi kamchiliklar

o'smirdan mas'uliyat hissini kamaytirmaydi, tarbiyachi tarbiya uchun javob bersa, jinoyatni kim sodir etgan bo'lsa o'sha javobgar bo'ladi) va omma oldidagi suhbatlar, hududdagi ta'lim muassasalari va boshqa turli tashkilotlarda amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish jarayonida ularning yoshga oid o'ziga xos sifatlarni va oilaviy sharoitidagi ma'naviy qadriyatlarni shakllanganlik darajasini inobatga olishi kerak. Shuning uchun yuqorida ta'kidlanganidek, o'smir va bolalarni o'rab turgan mikromuhitdagi salbiy ta'sirlarni bartaraf etish zarur bo'ladi. Voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirishda huquqiy, ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik ruxida tarbiyalash orqali amalga oshiriladi.

Voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish usullari turlicha bo'lib, ulardan suhbat usuli keng tarqalgan ommaviy usul hisoblanadi. O'smir va bolalar bilan yakka tartibda profilaktik suhbatni amalga oshirish jarayonida ularning psixologik o'ziga xosligini, ya'ni: ko'ngli nozikligi, arzimagan narsaga xafa bo'laverish, jizzakilik, qo'rquv va tashvishga beriluvchanligi, g'azablanganligi, qasoskorlik, tajovuzkorlik, taqlid qilishga moyilligi va boshqalarni hisobga olish darkor.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlash jarayonida ishonch hissini uyg'otish har bir profilaktika inspektorlaridan katta mas'uliyat talab etadi. Shu sababli suhbatni rasmiy ohungda emas, balki do'stona munosabatlar orqali boshlash, hamda suhbatning asosiy mazmuniga birdan berilmaslik tavsiya etiladi. Suhbat mobaynida ishonch hissini uyg'otish profilaktika inspektorining samimiy munosabati orqali boshlanadi, o'smirning bergan savollariga oddiy harakat va so'zlar yordamida munosabat bildirish unda yaxshi taassurot qoldiradi.

Profilaktika inspektori suhbat mobaynida o'smirning ota-onasi yoki sinf rahbarini taklif etsa, uning tarbiyaviy ahamiyati yanada ko'proq bo'ladi. Bunday holatda profilaktika inspektori ko'proq maslahatchi vazifasini bajaradi, ya'ni yaqinlariga farzandining o'qish yoki ishlashga xohish-istagi yo'qligini, jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirayotganligini misollar bilan keltirib o'tadi, qonunlarni tushuntirib, izohlab beradi.

Profilaktika inspektori o'smirning ota-onasi bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlari orqali unga tarbiyaviy ta'sir etishlari kerak. Ushbu tarbiyaviy jarayon, agar o'smirning ota-onasining o'zi nosog'lom

turmush tarzini olib borayotgan bo'lsa, tarbiyaviy jarayonni ancha murakkablashtiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda profilaktika inspektorlari voyaga yetmaganlarni jamoat ishlariga, ijtimoiy zarur mashg'ulotlarga ko'proq jalb etishlari tavsiya etiladi, bunda o'smirda ijobiy qiziqish va ehtiyojlar paydo bo'ladi, ma'naviy-irodaviy sifatlar, kerakli va zarur odatlar shakllanadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bilan bog'liq barcha choralar uning bosh vazifasini amalga oshirish –shaxs buzilishi boshlanishini to'xtatishga, uning ayrim salbiy xususiyatlariga barham berishga, shuningdek kriminogen omillar ta'siriga chek qo'yishga qaratilishi lozim. Profilaktika chora-tadbirlari tarbiyasi og'ir o'smirlar g'ayriijtimoiy xulq-atvorining yanada xavfliroq shakllarga o'tishini to'xtatishlari, ular kelajakda to'g'ri yo'lga kirib, faol hayotiy nuqtai nazarni egallashlarini ta'minlashi lozim.

Jiddiy kamchilik shundan iboratki, voyaga yetmaganlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlarining profilaktik ta'siri doirasiga asosan huquqbuzarliklar sodir etganlaridan keyin tushadilar.

Muqaddam sudlanganlar bilan profilaktik ishlarni olib borishda quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- muqaddam sudlanganlar shaxsini har tomonlama va sinchiklab o'rganish (shaxsning ijobiy sifatlarini aniqlash maqsadida);
- muqaddam sudlangan shaxslar o'zini yaxshi tutishi uchun maxsus va pedagogik vaziyatlarni tashkil etgan holda ta'sir etishni amalga oshirish;
- ma'naviy-moddiy rag'batlantirish usulidan mehnat tarbiyasida foydalanish;
- muqaddam sudlanganlarni to'g'ri yo'lga solish usullarini tanlash;
- muqaddam sudlangan shaxslarni mehnat faoliyatga jalb etish orqali to'g'ri hayotga yo'naltirish.

Profilaktika inspektorlari jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslarning xulq-atvorini, yashash va ish joylarini muntazam nazorat qilib boradilar hamda ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilsa, bu haqida o'z vaqtida tegishli choralarni ko'radilar. Ular to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish uchun boshqa xizmat xodimlari va jamoatchilik vakillari bilan uzviy hamkorlik qilish talab etiladi. Bundan tashqari, profilaktika inspektorlari kundalik ish jarayonida sudlanganligiga ko'ra ma'muriy nazoratga olish kerak bo'lgan shaxslarni aniqlash

choralarini ko'radilar, ular haqida tegishli ma'lumotlarni to'plab, hujjatlarini rasmiylashtiradilar. Jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan xavfli shaxslarning o'z vaqtida nazoratga olinishi va tegishli profilaktik choralar ko'rilishi muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, profilaktika inspektorlari ma'muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashtirishini ta'minlash maqsadida ijtimoiy ko'nikma markazlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirishlari maqsadga muvofiqdir.

Ichkilikbozlik va giyohvandlikning oldini olish bo'yicha profilaktik faoliyatni amalga oshirishda nosog'lom oilalar bilan profilaktik ishlarni olib borish va ichkilikbozlik hamda giyohvandlikka qarshi targ'ibot va tashviqot ishlarni tashkillashtirish talab etiladi, bunda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- sog'lom turmush tarzi va uning afzalliklari haqida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;
- ommaviy axborot vositalarini jalb etish;
- ta'lim muassasalarida ichkilikbozlik va giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish;
- psixolog, pedagog, tibbiyot xodimlarini tadbirlarda ishtirok etishini ta'minlash;
- huquqni muhofaza qilish organlarining huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirishdagi ishtirokini yo'lga qo'yish;
- jamoatchilik fikrini ichkilikbozlik va giyohvandlikni qoralashga qarshi yo'naltirish va uni shakllantirish, mazkur muammoga mahalla qo'mitasi va jamoatchilikni jalb etish;
- huquqiy talablar darajasini oshirish, giyohvand moddalarni tarqatuvchi shaxslarni aniqlash;

Giyohvandlikka ruju qo'ygan shaxs ma'naviyatida jamiyat uchun xavfli illatlar shakllanadi. Eng avvalo, qonunbuzarlik uchun javobgarlikdan qochish maqsadida asta-sekin xufiya faoliyat yuritishga o'tadi, bu esa ularning xavfliligini yanada oshiradi. Chunki giyohvandlarning jamiyat va davlat organlari nazoratida bo'lmasligi ularning og'ir jinoyatlar sodir etishiga olib keladi. Shu bilan birga, bu bosqichda giyohvandlar ruhiyatida yolg'onchilik, odamovilik kabi illatlar shakllanadi.

Umuman olganda, ichkilikbozlik va giyohvandlikka qarshi kurashga psixologik tavsif berishda ijtimoiy turmush va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlarini imkon darajasida hisobga olish katta ahamiyatga egaligiga ham nazariy, ham amaliy jihatdan e'tibor qaratish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, jinoyatchilikning oldini olishda ichki ishlar organlari aniq va mas'uliyatli vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadilar. Ular jinoyatchilikning oldini olishda o'ziga xos subyekt sifatida turli yo'nalishlarda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari jinoyatchilikning oldini olishda boshqa huquq-tartibot idoralari qatori maxsus profilaktika ishlarini tashkil etadilar va olib boradilar. Bu kriminogen vaziyatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni hisobga olish hamda bartaraf qilish borasidagi ishlarni yo'lga qo'yish, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan yakka tartibda ish olib borish kabilarda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, muntazam ravishda jinoyatchilikka oid axborotlarni jamlash, tahlil qilish va hokimiyat organlari hamda jamoatchilikni bu haqda xabardor etish ham ichki ishlar organlarining vazifasiga kiradi. Bayon etilganlar ichki ishlar organlarining maxsus profilaktika chora-tadbirlari sifatida idrok qilinishi lozim. Shuningdek, ichki ishlar organlari tomonidan umumiy profilaktika ishlari tashkil etilishiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu faoliyat yo'nalishini amalga oshirishda jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan. Aynan shu hamkorlikni tashkil etish huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati va profilaktika inspektorlarining vakolat doirasiga kiradi. Profilaktika inspektorlari o'z faoliyatlarini tashkil etishda mahalla yig'inlari va ularning faollari bilan hamkorlikda profilaktika ishlarini tashkil etadilar. Bu esa u yoki bu aholi yashash joylarida, ishlab chiqarish korxonalarida, tashkilotlarda turli xil jinoyatlarning sodir bo'lishiga sabab bo'layotgan sharoitlarni aniqlash va, umuman, kriminogen vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

3. Profilaktik xizmat xodimlari faoliyatini takomillashtirishning psixologik muammolari

Jinoyatchilikning oldini olish davlat tomonidan olib boriladigan ijtimoiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'z mazmun va mohiyatiga ega. Shu bilan birga, bu faoliyat yo'nalishi davlat va jamiyatda o'ziga xos maxsus chora sifatida e'tirof etilgan.

Jinoyatchilikka qarshi doimiy ravishda kurash olib borish alohida yondashuvni talab etadi. Chunki ijtimoiy hayotda yuzaga keluvchi har

bir o'zgarish jinoyatchilik bilan uzviy bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda jinoyatchilikning oldini olish faoliyatini ham ushbu jarayonlar bilan birdek bo'lishini ta'minlash lozim. Binobarin, jinoyatlarning oldini olishda zarur bo'lgan doimiy harakatdagi va o'zaro hamjihat tizim orqali ish yuritish maqsadga muvofiqdir.

Jinoyatchilikning oldini olishda ichki ishlar organlari ham aniq va mas'uliyatli vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Ular jinoyatchilikning oldini olishda o'ziga xos subyekt sifatida turli yo'nalishlarda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari jinoyatchilikning oldini olishda boshqa huquq-tartibot idoralari qatori asosan maxsus profilaktika ishlarini tashkil etadi va olib boradilar. Bu esa kriminogen holatlarni o'z vaqtida aniqlash, ushbu kriminogen holatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni hisobga olish hamda ularni bartaraf qilish borasidagi ishlarni yo'lga qo'yish, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan yakka tartibda ish olib borish kabilarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, muntazam ravishda jinoyatchilikka oid axborotlarni jamlash, tahlil qilish va hokimiyat organlari hamda jamoatchilikni bu haqda xabardor etish ham ichki ishlar organlarining vazifasiga kiradi.

Ichki ishlar organlari, aytib o'tilganidek, davlatning huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda o'z tarkibiga kiruvchi turli xizmat sohalari, bo'lim va boshqarmalar bilan hamjihatlikda vakolatlari doirasiga kiruvchi boshqa vazifalarni ham bajaradilar.

Umuman olganda, jinoyatchilikning oldini olishda zarur huquqiy asoslar ushbu faoliyat yo'nalishining umumiy jihatlarini muvofiqlashtirib boradi. Shu bois umumiy-huquqiy muvofiqlashtirishni tashkil etish maqsadida zarur darajadagi huquqiy asoslarni ishlab chiqish yo'lga qo'yiladi. Bu jinoyatchilikning oldini olishda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Ichki ishlar organi xodimi har yerda va har doim davlat xodimi hisoblanadi va qonunning, adolatning tantanasi uchun kurash olib boradi. Kasbiy ish faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga erishishi uchun har tomonlama obro' e'tiborga ega bo'lishi uning faoliyat olib borish usuliga bog'liq.

Obro'-etibor murakkab bo'lgan ijtimoiy-psixologik ko'rinishlar tarkibiga kiruvchi bilimdonlik, kasbiy qobiliyat va tajriba, xizmat vazifalarini bajarishda faoliyatni tashkillashtirishda ifodalanadi.

Xodimning ish uslubi, faoliyati, shaxsiy hayot kechirish tarzi ko'pgina omillarga: asab tizimi, xarakteri, yo'nalganligi, qiziqishlari, ehtiyojlari va boshqalarga bog'liq.

Profilaktika inspektorining ish olib borish usuliga quyidagi talablar qo'yiladi:

- qonunchilikka rioya etish;
- kasbiy yo'nalganlik;
- qaror qabul qilish uquvi;
- doimo o'z kasbiy mahoratini takomillashtirib borish.

Jinoyatchilikning oldini olish hamda unga qarshi kurashni tashkil etish o'ziga xos va maqsad sari yo'naltirilgan, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni ifodalovchi bir butun tizimdan iboratdir.

Shuning uchun ham jinoyatlarning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik borasida olib boriladigan profilaktik ishlarni tashkil etishda quyidagi bosqichlar orqali zarur tadbirlar amalga oshiriladi:

- huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabab va omillarini tahlil qilish;
- profilaktik tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishni rejalashtirish;
- profilaktik faoliyat olib borishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishlarini muvofiqlashtirish;
- rejalashtirilgan, maqsad qilib qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish va olingan natijalarni psixologik tahlil qilish.

Profilaktika faoliyatini umumiy, yaxlit tizimda tashkil etish, tabiiyki, jamoatchilik fikri va aholining tashabbuskorligini e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi.

Shu sababli profilaktik ishlarni olib borishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- profilaktik faoliyatni olib borishda turli huquqbuzarliklar va salbiy xatti-harakatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni hisobga olish;
- shaxsning ma'naviy shakllanishida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy hayot tarzi va muhit (oila, maktab, ish joyi, dam olish joylari va h.k.) o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- jinoiy xatti-harakatlar va kriminogen vaziyatlarga nisbatan turli ijtimoiy tuzilmalar faoliyatini profilaktik tadbirlarga jalb etish;
- turli soha vakillarini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilanish

Profilaktika inspektorining tarbiyaviy ta'sir bir qator omillarga bog'liq bo'ladi: tashqi qiyofasi; tashabbuskorlik; obro'-e'tiborga egaligi; demokratiya; eshitish qobiliyati; vaziyatni haqqoniy baholash va qabul qilmoq; mas'uliyat.

Profilaktika inspektorlari aholi bilan hamkorlikda faoliyat olib borishda muloqotning quyidagi jihatlariga e'tibor berishlari lozim:

- suhbatdoshiga tushunarli bo'lgan so'z va birikmalarni tanlash, uning fikrlarini diqqat bilan eshitish;

- huquqbuzar bilan muloqot davrida aniq, qisqa va xushmuomalalik bilan suhbat olib borish;

- suhbatdosh tomonidan berilayotgan axborotga qiziqish bilan munosabat bildirish. Agar xodimga berilayotgan axborot tushunarsiz bo'lsa, u holda aytilgan fikrlarni va ba'zi jummalarni takrorlash xushmuomalalik bilan so'raladi;

- suhbat davomida salbiy ta'sir etuvchi omillarga e'tibor qaratmaslik (qo'ng'iroqlar, begonalarni yo'lakda yurishi va boshqalar);

- suhbatdoshning mimika, jestlar va reaksiyalariga e'tibor berish.

Suhbatdosh fikrlarini tugatgan bo'lsa, olingan ma'lumotlar umumlashtiriladi, tahlil qilinadi, aniq dalillar oydinlashtiriladi, zarur bo'lgan vaqtda dalillar bilan hujumga o'tiladi. Xodimga qo'yiladigan asosiy talablardan biri eshitish qobiliyatining shakllanganligi hisoblanadi.

Profilaktika xodimlari ishlash usullarini takomillashtirish uchun kuzatish texnikasini yaxshi egallagan bo'lishlar lozim. Xodimlarning kuzatish texnikasini egallashlari shaxsning hayotiy tajribasi, odatlari, ruhiy holati, hissiy barqarorligi, o'z harakatlarini nazorat qila olishi, madaniyat darajasi, xarakter sifatlarini bilishga xizmat qiladi.

Xodimning rivojlangan kasbiy kuzatuvchanligi rivojlangan kasbiy diqqatlilik, sezgi va tasavvur a'zolarining mashq qilish orqali rivojlanganligi, hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni tez, to'liq va aniq esda olib qolish, xotirada yaxshi saqlash va to'g'ri bayon etish bo'yicha mashq qilganlik hisoblanadi.

Kuzatishning predmeti xodim uchun insonning tashqi ko'rinishi, xatti-harakati va uning fikr-mulohazasi bo'lishi mumkin. Inson qiyofasi, mimikasi (harakatlar ifodasi) uning vaqtinchalik psixik holati va voqealikka munosabatini to'liq yoki qisman ifodalaydi. Shu sababli insonning yuz ifodasi kuzatishning asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi. Mimika esa to'rt asosiy psixik holatlardan birini ifoda etadi, bular:

xursandchilik, norozilik (xafa bo'lish, alam, uyat va h.k.), g'azab va qo'rquv.

Keskin, nosamimiy mimika, yuzning qizarishi yoki oqarib ketishi, lablarning titrashi kuchli hissiy bezovtalanishni namoyon etadi. Nosamimiy mimika (masalan, qayg'uli voqealar aytilgandagi kulgu) bo'layotgan hodisalarga nisbatan o'zining aniq pozitsiyasining yo'qligi, o'ziga ishonchsizlik va haqiqiy munosabatini yashirishda namoyon bo'ladi. Jazava holatidagi namoyishkorona mimika odatda suhbatdoshni o'ziga jalb etishga, unda qandaydir taassurot qoldirishga e'tiborini qaratadi. Sodda, ifodasiz mimika depressiv (ruhiy siqilish), tushkunlik holatida kuzatiladi.

Tashqi ko'rinishga oro berish (soch turmagi, kiyim-bosh, zebziynat), insonning xatti-harakat motivlari, o'ziga munosabati, estetik tasavvuri, yashash tarzini ifodalaydi. Tashqi ko'rinishga haddan tashqari oro berish (masalan, erkaklarda uzuk, zanjir, bilak uzuk taqish) qarama-qarshi jinsga yuqori darajada qiziqish, o'zini ko'rsatishga moyillikni anglatadi.

Tashqi ko'rinishni bezashning ba'zi ko'rinishlari ba'zi urf-odatlar, qiziqishlar, muayyan guruhlarning ma'naviyatini bildiradi.

Profilaktika inspektori shaxs yuz a'zolarining barcha harakatlarini kuzatishi aloqa o'rnatishni muvofiqlashtiradi yoki to'sqinlik qiladi. Ko'pgina holatlarda to'sqinlik, qarshilik qilish insonda ichki qo'zg'alish, o'z-o'zini nazorat qilishining o'sishi, tashqi nosamimiylik, harakatlarning erkin emasligida o'z ifodasini topadi. Bunday qo'zg'alishlarni hech kim to'liq bartaraf eta olmaydi. Agar fuqaro suhbat mobaynida o'zining ichki his-hayajonidan qutila olmasa, bunday holat uning nimanidir yashirayotgani yoki biror narsadan qo'rqayotganini anglatadi.

Qo'llarning harakati alohida e'tiborga ega. Shu sababli ko'pgina insonlar o'zlariga ishonmaganlarida, xijolat bo'lganida, jur'atsizlikda ongli yoki ongsiz ravishda qo'llarini yashiradilar. Xodimga samarali kuzatish olib borish uchun kasbiy va hayotiy tajriba zarur bo'ladi. Shu sababli fuqaroning xar bir xatti-harakati sinchkovlik bilan tahlil qilinishi kerak.

Nutqli muloqot faqatgina og'zaki nutq emas, balki jestlar, intonatsiya, pauza va mimikalar yordamida ham amalga oshiriladi. Nutqiy harakat obykti so'z boyligi, nutqning grammatik tuzilishi, ko'rinishlari (monologik va dialogik), intonatsiya, nutq tempi, artikulyatsiya va boshqalar hisoblanadi.

Nutqiy harakatlarning ba'zi birlari shaxsning emotsional holatlarini namoyon etadi: hissiy qo'zg'alish (g'azab, qo'rquv, shubhalanish va h.k.), nutq tempining o'zgarishi, duduqlanish, pauzaning uzayishi yoki torayishi bilan davom etadi. Kuchli asabiy-ruhiy zo'riqish nutqiy faoliyatni sekinlashtirishi, yaxshi ma'lum bo'lgan so'z va iboralarni esdan chiqishi, ularni qaytarilishi, talaffuzdagi xatolarni keltirib chiqaradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Kriminogen sharoitning holatiga ta'sir qiluvchi psixologik omillar. OAVning aholi huquqiy psixologiyasiga ta'sirini izohlang.

2. Profilaktika xizmati xodimlarining aholi bilan samarali muloqot qilishning psixologik sharoitlari nimalarni o'z ichiga oladi?

3. Huquqbuzarlarga ta'sir o'tkazishning psixologik omillari nimalardan iborat?

4. Fuqarolar murojaatlarining psixologik tahlili qanday amalga oshiriladi?

5. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatlarning oldini olish faoliyatning psixologik asoslarini tushuntirib bering.

6. Oilada giyohvandlik va ichkilikbozlikning oldini olishning psixologik asoslarini izohlang.

7. Turli toifadagi fuqarolar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

8. Profilaktik xizmat xodimi shaxsiga qo'yiladigan talablar sanab bering.

XI bob.
**JINOYATCHILARNI TERGOV QILISHNING
PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**1. Jinoyatlarni tergov qilish faoliyatiga
psixologik tavsif**

Respublikamizda hozirgi siyosiy ahvol, zamon bilan hamnafas oʻsib borayotgan jinoyatchilikning turli koʻrinishlari ichki ishlar idoralari xodimlari zimmasiga ulkan va masʼuliyatli vazifalarni yuklamoqda. Bu borada respublika hukumatining bir qator qonun, qaror, farmonlari qabul qilindi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 va 2004-yillarda Respublika ichki ishlar organlari faoliyatini takomillash-tirish toʻgʻrisidagi farmonlari qabul qilingandan soʻng ichki ishlar organlari, xususan tergov boʻlimlari faoliyatida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 7-maydagi 206–35-sonli qarorining qabul qilinishi ham bu boradagi ishlarning naqadar dolzarbligidan dalolatdir.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishda xalqimizning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Biz oʻrganayotgan dastlabki tergov faoliyatining oʻziga xos jihatlari koʻpgina fanlar tomonidan oʻrganiladi va ularning obykti hisoblanadi. Masalan, kriminalistika, tezkor-qidiruv, pedagogika, jinoyat protsessi kabi fanlar ushbu muammoga oʻz nuqtai nazaridan qaraydi va ilmiy asosda tadqiq etadi. Dastlabki tergov faoliyati tergovchi va jinoyatchi oʻrtasidagi oʻzaro psixologik qarama-qarshilikdir.

Yuridik psixologiya fani dastlabki tergov harakatlarini olib borish, voqea sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish, tintuv va boshqa tergov harakatlarining psixologik jihatlarini boshqa fanlar bilan bogʻlangan holda tadqiq etadi. Bu borada bir qator psixolog olimlar (A. V. Dulov, A. R. Ratinov, V. V. Romanov, N. Selivanov, M. I. Yenikeyev, V. L. Vasilyev va boshq.) oʻz qarashlarini ilmiy ishlarida bayon etishgan.

Jinoyat ishlari boʻyicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi. Biroq sud ish holatlarini har tomonlama, toʻliq va xolisona tekshirishi uchun dastlabki tergov deb ataladigan tayyorgarlik ishlari talab qilinadi.

Dastlabki tergov faoliyati – tergovchi topilgan izlar boʻyicha sodir etilgan jinoyatni qayta tiklashdan iborat boʻlgan va muayyan maqsadni

koʻzlaydigan jarayon. Shu maʼnoda dastlabki tergov faoliyati faqat amaliy faoliyat boʻlmay, balki nazariy idrok etish jarayoni hamdir. Qonunchilikda tergov harakatlarining ayrim jihatlarigina belgilanib qolmasdan, tergovning boshdan-oyoq tartibi tasdiqlab qoʻyilgan.

Dastlabki tergov faoliyatining maqsadi asosiy ijtimoiy qadriyatlarni huquqiy qoʻriqlash, tergov qilish chogʻida sodir etilgan jinoyatlar boʻyicha haqiqatni aniqlash, aybdor shaxslarni odil sudlovga topshirishdir. Shu bois tergovchi shaxsining kasbiy-psixologik sifatleri uning faoliyatiga xos ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va psixologik xususiyatlar bilan bogʻliq.

Dastlabki tergov faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– jinoyat hodisasi haqida kelib tushgan ariza yoki xabarni tergovgacha tekshirish;

– jinoyat ishini qoʻzgʻatish haqidagi masalani hal etish;

– jinoyatlarni tergov qilish;

– jinoyatlarning oldini olish;

– fuqarolarni tarbiyalash va maʼrifatli qilish;

– tergov materiallarini umumlashtirish, bir tizimga solish, taqqoslash va takomillashtirish choralari koʻrish;

– jinoyatni ochish – jinoyat hodisasi va jinoyatchi shaxsini aniqlash;

– jinoiy dalillarni mustahkamlash, tekshirish va dastlabki tartibda baholash. Bundan maqsad aybdorni sudga topshirish, yaʼni uning bir tomondan aybiga muqarrar boʻlishiga, boshqa tomondan esa yetarlicha asoslarga ega boʻlishga erishishdir.

Shu nuqtai nazardan dastlabki tergov faoliyatida kelib tushayotgan maʼlumotlarning mazmun-mundariyasi tergovchining xohish-istagiga toʻgʻri kelmasligi, bitta tizimga mos tushavmasligi mumkin. Tergov faoliyatidagi vazifalar xilma-xilligi jihatidan oʻziga xos boʻlib, ularni hal etish turli shaxsiy fazilatlar, koʻnikmalar, bilimlarni talab qiladi.

Tergovchining dastlabki tergov boshlanishida zarur maʼlumotlarga ega boʻlmasligi uning muayyan darajada notoʻgʻri qarorlar qabul qilishiga olib keladi. Ish mobaynida tergovchining tafakkuri faqat oʻz faoliyatini aks ettirib va yoʻnaltiribgina qolmay, ishning barcha ishtirokchilari va ishga daxldor shaxslarning aqliy (intellektual) darajasi, ruhiy holatlarini hisobga olishi, uni qiyoslashi, muvofiqlashtirib borishi lozim. U nafaqat oʻzi, balki oʻzgalari uchun ham fikr yuritishi, qaror va xatti-harakatlarni oldindan koʻra olishi, ularni yoʻnaltirib turishi hamda ana shu barcha omillardan kelib chiqib, oʻz xulq-atvorini idora etishi

zarur. Ushbu jarayonda manfaatlari turli-tuman, bir-biriga mos kelmaydigan, ba'zan butunlay qarama-qarshi bo'lgan shaxslar: tergovchi va ayblanuvchi, so'roq qiluvchi va so'roq berayotgan hamda hokazolar to'qnash keladilar.

Dastlabki tergov jarayonida turli-tuman manfaatlararo ziddiyatlar hamda ularning to'qnashuvi tergov taktikasiga ehtiyoj tug'diradi. U psixologik nuqtai nazardan ma'lum darajada tergovchi va ishda ishtirok etayotganlar aql-idrok, iroda, xarakter, axloqiy tamoyillarining o'zaro kurashi tarzida namoyon bo'ladi.

Jamlanayotgan ma'lumotlarning mantiqiy tahlilida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun tergovchi mantiqiy tafakkur qonuniyatlari va shakl-tamoyillarini yaxshi bilishi va ularga rioya qilishi, ma'lumotlarga ma'lum faktlar asosida yondashishi, u yoki bu xulosani chiqarishda dalil-isbotlarning to'laqonligini doimo nazorat qilib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Muayyan xulosaga kelishda xayolan jinoyat sodir etilish jarayonida o'zini ayblanuvchi o'rniga qo'yib ko'rish, ayblanuvchining moddiy va ma'naviy manfaatdorligi nuqtai nazaridan fikr yuritishi tergov uchun qimmatli natijalarni berishi mumkin.

Tergov qilinayotgan holat yuzasidan jinoiy ishlarni ochish va zudlik bilan tergov harakatlarini boshlash talab qilinadigan vaziyatlar tergovchi uchun psixologik jihatdan o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Jinoiy ishlar bo'yicha tergov harakatlari hamda shaxslarni hibsdan ushlab turish muddatlari tugagan vaziyatni eng qiyin deb hisoblash mumkin. Bunday vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish bir qator bilim, qobiliyat, fazilat, malaka va ko'nikmalar: ishlar bo'yicha samarali reja tuzish, his-tuyg'ularni jilovlash, psixologiya tili bilan aytganda ruhiy tetiklik, hissiy barqarorlik va o'zini uyushtira bilish kabi sifatlarni talab etadi. Tergovchining belgilangan muddatda aybdor shaxslarni aniqlash uchun jinoyat ustida ish olib borayotgan guruhga bosh bo'lishi va uning haqiqiy yetakchisiga aylanishi undan boshqaruvchanlik qobiliyatini talab etadi.

Tergovchi tergov jarayonida talab qilinadigan o'ziga xos jihatlarni hech qachon diqqat-e'tibordan chetda qoldirmasligi zarur. Jumladan, tergov xatti-harakatlari mobaynida hissiyotlarga berilmaslik va shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasligi, o'zining irodaviy sifatlarini namoyon qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy vazifani muvaffaqiyatli ado etish, jinoyatni tezroq ochish, ishda aybdor shaxslarni fosh etish uchun yo'l-yo'riq va vositalarni tanlash, tergov yo'nalishlarini belgilashga har tomonlama, atroflicha fikr-mulohaza qilgan holda yondashish muhimdir.

Ma'lumki, tergovchi davlat nomidan faoliyat olib borar ekan, hokimiyatining obro'si va hukmron kuchi unga ruhiy madad beradi, uning qo'lida turli sanksiyalarni qo'llash imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu vakolatdan oqilona va qonun doirasida foydalanish tergovchiga qo'yiladigan asosiy professional talablardan biridir. Tergov sirini saqlash tergov jarayonining o'ziga xos qonun-qoidasi hisoblanadi. Tergov harakatlariga xalaqit berish maqsadida jinoyat sodir etgan shaxs hamda uning sheriklari har doim tergov harakatining yo'nalishi, tergovchining niyatlari va qarashlari haqida imkon boricha ko'proq ma'lumotlarni bilib olishdan manfaatdor bo'ladilar. Tergovchining daliliy materiallar, o'z maqsadi va yo'nalishlarini bevaqt oshkor etib qo'yishi tergovni muvaffaqiyatli olib borishga to'sqinlik qiladi va jinoyatni fosh etishda yordam bergan shaxslar hayotini xavf ostida qoldiradi.

Tergovchi xizmat sirlarini oshkor etmaslik maqsadida, jinoyat ishi bo'yicha shug'ullanayotgan shaxslar bilan pinhona ish ko'rish (konspiratsiya)ning maxsus talablariga so'zsiz rioya etishi zarur. Bu talablarni bajarish va unga rioya etish tergovchining kasbiy odati va ko'nikmasiga aylanishi kerak.

Shu bilan birga, tergovchi faoliyatiga tergov vositalari va muddatlarining protsessual jihatdan tartibga solinganligi, ijtimoiy vazifasining shakllanganligi; muayyan bilish-izlash faoliyati; harakatlarining tezkorligi va niqoblanganligi; manfaatdor shaxslarning ehtimol tutilgan qarshiliklarini yengishga shayligi va yo'nalganligi; hokimiyat vakolatlarining mavjudligi, keng miqyosdagi ijtimoiy kommunikativlik (kiri-shimlilik), qabul qilinadigan qarorlar uchun nihoyatda katta shaxsiy mas'uliyat kabi xislatlar xosdir.

Tergovchi faoliyati psixologiyasi tuzilishining asosiy hal qiluvchi jihati uning xilma-xil faktlarni to'plash va tekshirish borasidagi bilish faoliyatidir.

To'plangan faktlar asosida u o'tmishda bo'lgan voqeani, ushbu hodisa bilan bog'liq turli shaxslarning o'zaro munosabatlarini idrok qiladi va xotirada tiklaydi, jinoyat sodir etgan subyektning shaxsini aniqlaydi. Aynan dastlabki tergovda o'tmishda sodir etilgan jinoyatning xayoliy modelini yaratish jarayoni amalga oshiriladi.

Tergovchi faktlarni to'plash jarayonini boshlar ekan, ko'pincha ushbu ma'lumotlarni to'plash qanday natijaga olib kelishi mumkinligini bilmaydi, o'tmishda bo'lib o'tgan voqeaning to'liq fikriy modelini tasavvur eta olmaydi. Bilish faoliyatining bu xususiyati olingan ma'lumotlarni to'plash, tanlash va baholashda jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi, u yoki bu

faktlarning tabiati va haqiqiy qadr-qimmati, alohida faktlar o'rtasidagi o'zaro aloqa masalasida nihoyatda ko'p va turli-tuman tasmollar (taxminlar)ni ilgari surish va tekshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tergovchining faoliyatida mavjud axborotni tushunish, yetishmayotganlarini izlash, zarur ma'lumotlarni to'g'ri tanlash uchun sharoit yaratadigan kriminalistik bilim va amaliy tajriba katta ahamiyat kasb etadi. Bu bilim va tajriba tiklovchi xayolotni faollashtirish uchun ham zarur hisoblanadi.

O'tmishdagi voqeani idrok qilish, xotirada tiklash va bilish doimo ayni paytdagi faktlarga asoslanadi. Shu sababli mavjud faktlar va hodisalarning bo'lib o'tgan voqea bilan o'zaro aloqalarining fikriy modellarini qurish zarurati yuzaga keladi. Bilish jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur, sezgi, idrok, xayol) o'rganilayotgan faktlar, hodisalarni tekshirish va baholashga qaratilgan amaliy faoliyatni ham qamrab oladi. Ushbu faoliyat jarayonida aniqlangan obyektlar bilan keng miqyosdagi eksperimentlar o'tkaziladi¹.

Dastlabki tergovda bilish jarayoni axborot kelib tushishining muayyan tartibsizligi bilan ajralib turadi. Jinoyat tadqiqot predmeti sifatida murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, u jinoyat sodir etilishiga doir barcha elementlarni, ya'ni jinoyatga tayyorgarlik harakatlari, ishtirokchilarning til biriktirishi, subyektlar o'rtasidagi aloqa, jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar va boshqalarni mushohada etmaslik mumkin emas. Bularning barchasi birgalikda ma'lum bir faktlar orqali aniqlanadi (isbotlanadi).

Umuman olganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, dastlabki tergov nazariy bilish faoliyati emas, balki jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan amaliy faoliyatdir. Qonun nafaqat tergov harakatlarining ayrimlarini tartibga soladi, balki butun tergovning muayyan tartibini belgilaydi.

Odillik, xolislik, ayblovga yon bosishdan qochish, qonunni og'ishmay amalga oshirish – tergov faoliyatining asosiy talablari hisoblanadi.

Tergov faoliyatining vazifalari nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turadiki, ularning to'g'ri hal qilinishi tergovchidan turli-tuman xislatlar, kasbiy ko'nikmalar va bilimlarni talab qiladi. Tergovchiga tibbiyot, pedagogika, buxgalteriya va psixologiya singari turli sohalardan olinadigan maxsus bilimlar kerak bo'ladi. Bu bilimlar tergovning murakkab

¹ Qarang: *Селиванов Н.* Критерии допустимости применения тактических приемов при расследовании // *Законность.* – 1999. – №. 3. – С. 23–28.

vaziyatlarida qo‘llash uchun muayyan tartibga solingan bo‘lishi zarur. Tergovchi u yoki bu tergov harakati davrida amal qiluvchi obyektiv psixologik qonuniyatlardan samarali foydalanish uchun yana shaxsni atroflicha o‘rganish hamda axborot olish va qayta tarbiyalash maqsadida unga ko‘rsatiladigan psixologik ta’sirni uyushtirishga qaratilgan psixologik dasturga ham ega bo‘lishi lozim¹.

Tergov faoliyatiga jinoyat ishining muvaffaqiyatli tergov qilinishidan manfaatdor bo‘lmagan shaxslarning qarshilik ko‘rsatishi tabiiy, albatta. Shu ma’noda, tergovchi jinoyatni tergov qilish hamda ochishga qaratilgan faoliyatiga aybdorlarning uyushgan holda qarshilik ko‘rsatishini va bu ushbu faoliyatni jiddiy qiyinlashtirishi mumkinligini inobatga olishi lozim.

Bundan avvalo jinoyatchining o‘zi eng ko‘p darajada manfaatdor bo‘ladi va, odatda, butun kuchini sarflab, tergovchiga qattiq qarshilik ko‘rsatadi. Bu borada u xilma-xil nayranglarni ishlatadi: shantaj, aldash, tuhmat qilish, qalbakilashtirish, guvohlarni sotib olish kabi u qo‘llaydigan vositalarning ushbu to‘plami amalda hech cheklanmagan. Tergovchi esa faqat qonuniy hamda axloqiy jihatdan nuqsonsiz vositalardangina foydalanishga haqlidir.

Tergovchi va manfaatdor shaxslar o‘rtasidagi tengsizlik manfaatdor shaxslar qaysi holatlarni yashirish ma’qulligini bilishlari bilan ham bog‘liq. Ayni vaqtda tergovchi ish yuzasidan aynan nima aniqlanishi kerak va mumkinligi xususida nihoyatda kam tasavvurga ega bo‘ladi. Tergovni o‘tkazayotgan shaxs jinoyat izidan borar ekan, doimo «voqealar ortida» bo‘ladi. Jinoyatchi esa doimo vaqt va tashabbusda muqarrar ustunlikka ega bo‘lib, tergovchini nihoyatda qiyin vaziyatda harakat qilishga majbur etadi.

Bularning barchasi tergovga psixologik kurash tusini beradi, ushbu kurash ba’zan nihoyatda keskin shakllarga kiradi. Xavfli vaziyatlarni yengish, tergovchining yo‘lida atayin yaratiladigan to‘siqlarni bartaraf etish zarurati, unda turli emotsional reaksiyalarni yuzaga keltiradi, bu esa undan doimiy hissiy-irodaviy zo‘riqishni va kuchli aqliy faoliyatni talab etadi².

Tergovchining kasbiga xos xislatlar orasida **aqliy**, **irodaviy** va **kommunikativ** xislatlar birinchi darajali ahamiyatga egadir.

¹ Qarang: Васильев В. Л. Юридическая психология. – М., 2005. – С. 331.

² Qarang: Чуфаровский Ю. Юридическая психология. – М., 2005. – С. 152–153; Унинг ўзи. – С. 205–206.

Tergovchining asosiy vazifalaridan biri mavjud nizoli vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik (motivatsion, aqliy, tarbiyaviy, emotsional va boshq.) to'siqlarni hushyorlik bilan bartaraf etish hisoblanadi va bu juda muhimdir. Bunda esa unga vaziyatni tizimli tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va aniqlashtirish ijobiy yordam berishi mumkin. Tergovchi unga ko'rsatilayotgan psixologik qarshiliklarni inobatga olishi va unga tayyor turishi lozim, chunki ular xolisona tergov qilishga xalal beradi. Tergovchi muayyan usulni tanlar ekan, uning harakat strategiyasi ushbu vaziyatda eng yaxshi strategiya ekanligini ko'rsatadigan asosga ega bo'lishi, o'z tanlovini mustahkamlashga, miqdorga oid ma'lumotlar bilan asoslashga harakat qilishi kerak.

Ta'kidlash lozimki, tergovga faqat kurash xos emas, haqiqiy tergovchi uchun yanada ko'proq darajada so'roq qilinayotgan shaxsga nozik psixologik ta'sir ko'rsatish, muloqot maromini to'g'ri tanlash zarur. Chunki insonni inson tomonidan idrok qilinishi munosabat mexanizmini yaratadi. Bundan maqsad jinoyatni ochish va jinoyatchilikning oldini olish uchun ushbu shaxsning ichki ruhiy-emotsional holatlarini va hatto harakat yo'nalishini o'zgartirishdir.

Yuridik adabiyotlarda tergovda «**psixologik reagent**»dan foydalanish bilan bog'liq taktik usullar qo'llashga yo'l qo'yilishi ko'rsatilgan. Bunday reagentlar vazifasini narsa, inson, fakt, hodisa, xabar bajarishi mumkin. Psixologik reagentlar ulardan foydalanishning asl maqsadiga ko'ra muayyan tarzda tizimlash-tiriladi (misol uchun tergovchining «bexoslik» omilini ishga solishi gumonlanayotgan shaxsda xuddi uning sherigi fosh etilganday taassurot tug'dirishi mumkin). Bunda aybsiz odamga u farqsiz bo'ladi, aybdor ongida esa u jinoyat bilan bog'lanadi va tegishli shartsiz reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Ushbu reaksiya ko'pincha tashqaridan, masalan, shaxs qo'llarining qaltirashi, yuz mimikalari va ovoz tembrlarining o'zgarishi va hokazolarda ko'rinib turadi¹. Ayblanuvchining har bir ko'rsatmasini diqqat bilan tekshirib ko'rish, o'z faoliyatini qonun va axloq normalari doirasida yuritish tergovchiga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir.

Tergov jarayonida maxsus bilimlarni ishlatishning eng muhim shakllaridan biri tergovchi tomonidan jinoyatlarni tergov qilganda, ya'ni jinoyat voqeasi va uni sodir etgan shaxslarni aniqlashda, bevosita tegishli

¹ Qarang: *Селиванов Н. Этико-тактические вопросы расследования.* – М., 1999. – С. 55.

faktik ma'lumotlarga alohida diqqat-e'tiborni qaratish bo'lib, ulardan unumli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tergov harakatlarini olib borishda ko'pgina holatlarda voqeadagi mujmallik va har xil subyektiv sabablar kriminalistikadan, sud tibbiyotidan mutaxassislarni jalb qilishni taqozo etadi, ikkinchi tomondan mutaxassisning fikri shartdir. Bunday shaxslar shu sohada maxsus bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'ladilar.

Tergov jarayoni psixologik tahlil obyekti sifatda quyidagilarga bo'linadi.

Umumiy tergov jarayoni. Bunda tergovchi har xil umum faoliyat orqali maqsadga erishadi. Buning uchun turli tasmollar, operatsiyalar o'ylanadi va ko'pgina shaxslar yordamida amalga oshiriladi. Guvoh va gumon qilinayotgan shaxslar bilan muloqotga kirishish orqali ma'lumotlarni yig'ishda ichki va tashqi bir-biriga mantiqiy bog'liqlik yuzaga keladi, uning ehtimollik darajasi ham har xil bo'ladi.

Alohida tergov harakati. Bu ma'lum bir vaqtda bir nechta subyekt bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu tergov jarayoniga ochiq rivojlanuvchi tizim sifatida qarash mumkin, bunda har bir shaxs alohida vazifani bajaradi.

Tergov jarayonini olib borish faoliyati aniq shaxslarga qaratiladi. Tergov faoliyatining obyekti shaxslar va ularning xatti-harakatlari hisoblanadi. O'rganilayotgan obyekt tergov jarayonida nafaqat o'rganish obyekti, shuningdek tarbiya subyekti hamda ma'lumot olish manbai hamdir, uning (subyektning) hissiy-emotsional holati va xatti-harakati tergov jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Jinoyatchi shaxsining faoliyatini o'rganish spiral shaklida deb qarash mumkin, chunki spiralni bir uchi topilgandan keyin uning oxirini topish osonroq bo'ladi, ya'ni faktlar bir-biriga ulanadi. Bizga ma'lumki, sodir qilingan jinoyat izsiz qolmaydi, qandaydir darajada, qandaydir hajmda psixologik iz qoladi, bu iz orqali jinoyatning tuzilishini idrok qilish va xayoliy modelini yaratish mumkin.

Tergov ishlarini olib borishda tergovchi nazariy fikrlar asosida, yig'ilgan faktlarga suyanib eng qulay yo'l tanlaydi va yakuniy xulosaga keladi. O'tmishdagi voqealarni xotirada tiklashda faqatgina birinchi bosqichda hayotiy nazariy bilimlarga tayanadi va taxminiy voqealarning modelini tizimlashtiradi, faktlarni bir-biriga bog'laydi, ish davomida faktlarni to'ldirib boradi.

Bunda bilish jarayonlari tergovchining amaliy faoliyatini ham qamrab oladi. U faoliyatida ko'proq o'z bilimi, ko'nikmasi va tajribasiga suyanadi. Tergov faoliyati davomida butunlay shu muammo bilan

yashaydi, shu muammo bilan nafas oladi. Tergov jarayonida ma'lumotlarning ko'payib yoki juda ham kamayib ketishi tergovchi ishini og'irlashtiradi. Bir qarashda hamma faktlar ishga taalluqligiga o'xshaydi, amalda esa keyinchalik ko'pi puchakka chiqib ketadi. Bunday dalillar tergovchining qanday qiyinchiliklar va qaysi yo'llar bilan obyektivlik muammosini yechayotganini ko'rsatadi. Tabiiyki, bunday vaziyatlar tergovchidan kuchli irodaviy xislatlarni talab etadi.

Tergov harakatini olib borishda tergovchining ruhiy holati ham ko'p narsani belgilaydi. Jumladan:

- 1) jinoyat sodir bo'lganidan keyin jabrlanuvchilarning hissiy-emotsional holati tergovchida ruhiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi;
- 2) jinoyat sodir bo'lganidan keyin shaxsni aniqlashdagi holatlar;
- 3) yomon holatni yuzaga keltiruvchi obyektlar (masalan, murda);
- 4) tergov faoliyatida kutilmaganda voqealarning birdan o'zgarishi (ko'rsatmalaridan voz kechish hollari).

Tergov faoliyatida voqealarning xayoliy modelini tiklashda tergovchi ikkita yo'lni tanlaydi:

– obyektiv borliqni qabul qilish (ya'ni xonalarni, narsalarni ko'rish va hujjatlarni tekshirish);

– og'zaki, yozma xabar va dalillarni qabul qilish.

Dastlabki tergov faoliyatini olib borishda tergovchining quyidagi xususiyatlari muhim ahamiyatga ega:

- 1) o'zi hissiyotini boshqara bilishi;
- 2) tergov davomida gumon qilinayotgan shaxsning ruhiy-emotsional holatini tushunishi;
- 3) shaxsning to'liq gapirishi uchun sharoit yaratib berishi va uni eshita bilishi.

Tergov faoliyatida har xil soha kishilarini tergov qilish jarayonida tergovchi kerakli, zarur ma'lumotlarni oladi, lekin bu ma'lumotlar hamma vaqt ham aniq va ravshan bo'lavermaydi. Shuning uchun ham turli voqea-hodisalar bilan taqqoslash, umumlashtirish, tajribali xodimlardan maslahat so'rash muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishning samarali bo'lishi hamda muvaffaqiyatli yakun topishiga olib keladi.

2. Voqea sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish psixologiyasi

Yuridik psixologiyada voqea sodir bo'lgan joyni ko'rish ma'lumot to'plash jarayoni bo'lib, ularni analiz, sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirish orqali zarur ma'lumotlarni yig'ish, demakdir.

Yurisprudensiyada esa voqea sodir bo'lgan joy – jinoyat, baxtsiz hodisa, tabiiy ofat yoki hodisa alomatlari bor deb qaraladigan joy. Ko'rsatmalarni voqea joyida tekshirish, ba'zi bir o'xshashliklar mavjud bo'lishiga qaramay, so'roq qilish, voqea sodir bo'lgan joyini tekshirish, jinoyatchini tanish uchun ko'rsatish, tergov eksperimenti kabi tergov harakatlaridan mohiyati jihatidan farq qiladi.

Voqea sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish alohida tergov harakati bo'lib, jinoyat izlarini, boshqa daliliy ashyolarni izlab topish, voqea tafsilotini hamda ushbu jinoiy ishga aloqador boshqa tafsilotlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Ayni chog'da ko'zdan kechirish boshqa tergov harakatlari: hibsga olish, daliliy ashyoni topish, tergov eksperimenti, ko'rsatmani voqea joyida tekshirish kabi jarayonlarning tarkibiy qismi hamdir.

Voqea joyini ko'zdan kechirish tergov harakatlarining eng muhim, asosiy shartlaridan biri aynan shu paytda olinadigan taassurotlar, ma'lumotlarning o'rnini boshqa tergov harakatlari yordamida to'ldirib bo'lmasligidir. Jinoyatchining qo'l va oyoq izlari, foydalanilgan quroli haqidagi ma'lumotlar bunga misol bo'la oladi. Voqea joyidagi taassurotlar tergovchilarga tafsilotlarni to'g'ri tasavvur qilish imkonini beradi.

Voqea joyini ko'zdan kechirish harakati zudlik bilan o'tkazilishi shart. Ushbu harakatni kechiktirish yoki ortga surish shart-sharoitning o'zgarishi, izlar va daliliy ashyolarning g'oyib bo'lishi, hodisani ko'rgan va guvohlarning muhim holatlarni unutib qo'yishlariga olib kelish ehtimolini tug'diradi. Agar tergovchi voqea joyini bevosita ko'zdan kechirib, daliliy ashyolarni topib, natijasini protokolga qayd etsa, tezkor xodim tergovchi ruxsati bilan jinoyatni ochishga qaratilgan tezkor-qidiruv ishlari bilan shug'ullanadi, mutaxassis yoki ekspert-kriminalist tergovchiga izlarni topish, aks ettirish va nusxa ko'chirishda yordam beradi,

Bu tadbirlar ko'zdan kechirish bilan bir paytning o'zida o'tkazilishi, keyinroq asliga to'g'riligini tekshirib ko'rish imkoni saqlanishi lozim.

Ko'zdan kechirish mobaynida ma'lumotlarning kamligi yoki tanqisligi sharoitida qiyin masalalarni fikran hal etishga to'g'ri keladi. Tergovchi bunday vaziyatda qo'lga kiritilgan faktlar, ayrim tafsilotlarga tayanadi, o'z bilimlari, professional va hayotiy tajribasidan ko'pincha hissiy (intuitiv) ehtimollik va taxminlar darajasida foydalanadi. Ayniqsa, guvohlarsiz sodir etilgan qotillik jinoyatlarini ochishda tergovchining ijodiy tasavvuri va sezish qobiliyatining foydasi kattadir.

Tergov sezish qobiliyati ma'lumotlar qariyb yo'q bo'lgan bir vaziyatda vazifani tez va bevosita hal etishga oid tajriba hamda bilimlardan orttirilgan aql-idrok qobiliyatidir. Turli tasmollar (versiya)ning tekshirib ko'rilishi jarayonida dastlabki faraz puch bo'lib chiqishi mumkin. Bu psixologik nuqtai nazardan ikkita oqibatni keltirib chiqaradi. Avvalo yetishmayotgan ma'lumotlarni qidirishga kirishiladi. Shunday holatlar ham bo'ladi, yangi ma'lumotlar topilmaydi, ayni chog'da masalaning yechimi mavjud faktlar ichida yashiringan, deb o'ylashlariga asos bo'ladi. Bunday holatlarda ilgari yaratilgan tafsilotlar tizimini alohida qismlarga ajratish hamda ularning har birini ilgari e'tiborga olinmagan aloqadorlikda qaytadan mushohada qilib ko'rish zarur. Ikkinchidan, ana shu holatda obyektning yangi aloqadorlik zanjirida ko'rib chiqish, uning yangi belgilarini ochishda tafakkurning asosiy hissasi ko'zga tashlanadi. Yangicha aloqadorlikda o'sha predmetlarning o'zi yangi mazmun kasb etadi. Bu tahlil asosida yangi tafsilotlar tizimi paydo bo'ladi, shuningdek boshqa taxminlar tug'iladi.

Jinoyatning qay yo'sinda sodir etilgani, jinoyatchining qay jinsga mansubligini ham voqea joyini ko'zdan kechirish paytida tasmollab bilish mumkin. Voqea joyida jinoyatchining yoshi, jinoyatchilarning kasb-kori, professional malakasi, bilim va ko'nikmalari aynan aks etadi (misol uchun slesar seyfni buzishga, elektromontyor ogohlantiruvchi signalizatsiyani o'chirib qo'yishga ustasi farang bo'ladi).

Voqea joyini ko'zdan kechirish jarayonida o'tkaziladigan psixologik tahlil sodir etilgan jinoyat motivi xususida xulosa chiqarish imkonini tug'diradi. Jinoyat xarakter chizgilari (ochko'zlik, shafqatsizlik), irodaviy xususiyatlar (janggarilik, qo'rqqoqlik)ni aks ettirishi mumkin. Voqea joyidagi tafsilotlar ba'zan subyekt tomonidan jinoyat sodir etilayotgan paytdagi uning ayrim psixologik, xususan hissiy (emotsional) holatini ham namoyon etadi.

Shuningdek, tergov harakatida jinoyat izining qalbaki ekanligini ko'yidagi holatlarda kuzatish mumkin:

- jinoyat izining ochiq-oydin qoldirib ketilishi;
- jinoyat sodir bo'lgan joyda har xil izlarni qoldirish;
- jinoyat sodir etilgan joyda jinoyat izlari bekitilganining aniq ko'rinib turishi bilan izohlash mumkin.

Tergov harakatlarini ishlab chiqishda voqea sodir bo'lgan joyini ko'rish kengroq maqsadlarga xizmat qiladi.

Birinchidan, so'roq qilinayotgan shaxs voqea joyida bo'lgan voqeaning mexanizmini namoyish qilish, voqeani xotirada qayta tiklash,

u haqida yanada to'liq, har tomonlama va obyektiv ko'rsatmalar berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, voqea sodir bo'lgan joyni ko'rish jarayonida tergovchi ko'rsatmalarni faqat eshitibgina qolmay, balki ularni ifodalovchi harakatlarni bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi, ko'rsatilgan buyumlar, bino, yer uchastkalarini tekshirilayotgan ko'rsatmalarga taqqoslash asosida yaxshiroq tushunib oladi.

Uchinchidan, voqea sodir bo'lgan joyda ko'rsatmalarning qaytarilishida va natijalarini qayd qilishda faqat aniq shaxsning ko'rsatmalari ifodalanmay, balki boshqa qatnashchilarning harakatlari, xonadagi buyumlar, izlar shuningdek, real sharoit, vaziyat bilan olingan faktik holatlar ham qayd qilinadi.

Shu bilan birga, mazkur tergov harakatini o'tkazishda albatta xolis guvohlarning ishtirok etishi talab qilinadi. Voqea sodir bo'lgan joyda ko'rsatmalarni tekshirish jarayonida faqat joyning, binoning, shaxs ko'rsatgan yer maydonlarining o'ziga tekshiriladi va qayd qilinadi. Agar ko'rsatmada qayd etilgan joy ilgari tekshirilgan bo'lsa, tekshiruv va tintuv vaqtida narsalarning holati o'zgartirilgan, hatto ular tergov ishiga qo'shib qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bunday o'zgarishlar psixologik nuqtai nazardan ko'rsatmalarni to'g'ri berishga sharoit yaratadi. Shaxs so'roq qilib bo'linganidan keyingina uning ko'rsatmalarini voqea joyida tekshirish mumkin.

Tergov harakatlarini ishlab chiqishda voqea sodir bo'lgan joyni ko'rishning taxminiy 7 ta holati mavjud:

- 1) voqea sodir bo'lgan joyni umumiy holda ko'rish;
- 2) yon-atrofdagi joylarni ko'rish;
- 3) xonalarni ko'rish;
- 4) predmetlarni ko'rish;
- 5) xonadagi hujjatlarni ko'rish;
- 6) agar shaxs o'lgan bo'lsa, jasadni ko'rish;
- 7) pochta, telegraf, xatlarni ko'rish.


Dastlabki tergov harakatlarini ishlab chiqishda tergovchi quyidagi uchta asosiy vazifani yechishga harakat qiladi:

- 1) tergov jarayoniga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va hisobga olish;
- 2) yig'ilgan hujjatlarni fikran tahlil qilish va taxminiy xulosalarga kelish;
- 3) voqea sodir bo'lgan joydan yig'ilgan materiallarni analitik nuqtai nazardan tahlil qilish.

Ko‘riladigan ishning samaradorligi va sifatini oshirishda, jinoyatning turini aniqlashda psixologiya fanining ahamiyati o‘ziga xosdir.

Ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirishning psixologik funksiyasi ikki manbani o‘z ichiga oladi. Birinchisi, so‘roq qilinayotgan shaxsning ichki ruhiy holati, individual psixologik xususiyatlari, ikkinchisi, hodisa joyidan olingan ko‘rsatmalar va haqqoniy axborotlardan iboratdir.

Ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirish ilgari berilgan ko‘rsatmalarni mazmunini aniqlashtiradi. Tergovchining so‘roq qilinayotganga beradigan savollari uning ruhiy-emotsional holatiga ta‘sir qiladi va obyektlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi, so‘roqdagi shaxsning yolg‘on gapirishiga yo‘l qoymaydi, ko‘rsatmalarni oydinlashtiradi.



Shunday ekan, voqea joyini ko‘zdan kechirish moddiy obyektlar, ularning belgilari hamda hodisani tergov qilish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan, u yuz bergan va izlari topilgan makondagi o‘zaro aloqalarni aniqlash hamda bevosita tadqiq etishdir. Voqea joyini ko‘zdan kechirish yuz bergan jinoiy hodisa haqidagi ma‘lumotlarni, jinoyat ishini ko‘rib chiqish uchun ahamiyatga ega masalalarni hal qilishda faol, maqsadli idrok etish, tahlil qilish va olingan axborotni sintezlash sifatida ta‘riflanadi. Tergovchining voqea joyini ko‘zdan kechirish chog‘idagi

faoliyatini, shuningdek, har xil ma'lumotlarni qidirib topish va ishlatish hamda protsessual jihatdan qayd etish orqali jinoiy voqeaning fikriy modelini tuzish jarayoni sifatida ham ta'riflash mumkin.

Har bir jinoyat moddiy vaziyatda muayyan o'zgarishlarga uchraydi va odamlarning ongida o'z aksini topadi. Voqea joyidagi vaziyatning o'zgarishi aniqlanishi, qayd etilishi, tekshirilishi va dalil sifatida foydalanishi mumkin.

Voqea joyini ko'zdan kechirish odatda birlamchi tergov harakatlari kiradi, shaxsga qarshi o'ta xavfli jinoyatlarga doir ishlarning aksariyati esa voqea joyini ko'zdan kechirishdan boshlanadi. Bunda ishning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ko'p jihatdan to'g'ri tushulning ilgari surilishiga bog'liq. Boshqa tomondan, u ko'p hollarda tergovning borishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uni noto'g'ri yo'ldan ketishiga yoki boshi berk ko'chaga kirishiga olib keladi.

Voqea joyini ko'zdan kechirish jinoyat izlarini, boshqa ashyoviy dalillarni topish, voqea holatlarini, shuningdek, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni aniqlash maqsadlarida o'tkaziladigan mustaqil tergov harakati hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'zdan kechirish boshqa tergov harakatlari – ushlab turish, tintuv o'tkazish, olib qo'yish, tergov eksperimenti, ko'rsatmalarni voqea joyida tekshirish kabilarning tarkibiy qismi bo'lishi ham mumkin¹.

Voqea joyini ko'zdan kechirish almashtirib bo'lmaz tergov harakati hisoblanadi, chunki ko'zdan kechirish chog'ida olinadigan ma'lumotni aksariyat hollarda boshqa joydan topish, boshqa tergov harakatlarini o'tkazish orqali olish mumkin bo'lmaydi. Masalan, jinoyatchining oyoq va qo'l izlari, uning buzish qurolini qo'llash usullari ana shularga misol bo'la oladi. Tergovchi voqea joyidagi obyektlarni o'rganish jarayonida bilishning tergov yo'nalishini belgilash va voqealarning haqiqiy xususiyatini aniqlash imkonini beradigan faktlar va holatlarni topishga qaratilgan turli xil shakl va usullaridan foydalanadi².

Voqea joyidagi holatni idrok etish tergovchiga hodisaning manzarasini tasavvur qilish imkonini beradi, tushularni ilgari surish, boshqa tergov harakatlarini o'tkazish uchun zarur empirik baza yaratadi.

¹ Qarang: *Чуфаровский Ю.* Юридическая психология. – М., 2005. – С. 158.

² Qarang: *Шмидт А. А.* Сущность и понятие осмотра места происшествия. Следственные действия (криминалистические и процессуальные аспекты). – Свердловск, 1999. – С. 89.

Albatta, hech qanday hujjat tahlili, bayonnomalar, chizmalar, fotosuratlar bevosita ko'rishning o'rnini bosa olmaydi, ana shuning uchun ham avvalgi yillarda sodir etilgan va ochilmagan jinoyatlar ishlash uchun qabul qilinganida, vaziyat katta o'zgarishlarga uchragan hollarda ham voqea joyida bo'lish va u bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Juda ko'p hollarda voqea joyini ko'zdan kechirish tergovning boshlang'ich bosqichiga xos bo'lgan noaniq tergov vaziyati sharoitida o'tkaziladi. Bunda nima yuz bergani, ya'ni jinoyat, baxtsiz hodisa, uyushtirilgan voqea, agar jinoyat sodir etilgan bo'lsa, u qanday jinoyat, uni kim va nima uchun sodir etishi mumkinligi aniqlanadi.

Ko'zdan kechirish tergov harakatining o'ziga xosligini uning kechiktirib bo'lmas xususiyatga egaligi ham tashkil etadi. Aksariyat boshqa dastlabki tergov harakatlaridan farqli ravishda voqea joyini ko'zdan kechirish zudlik bilan o'tkazilishi kerak. Har qanday kechikish vaziyatning o'zgarishiga, iz va dalillar yo'qolishiga, voqea shohidlari va guvohlari ish uchun muhim holatlarni unutishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda tergovchida ko'zdan kechirishga, uning taktikasini o'ylab ko'rishga, maslahat olishiga yetarli vaqt bo'lmaydi. U juda tez harakat qilish kerak, aks holda yo'l qo'ygan xatosini tuzatish qiyin kechadi, bu dalillar o'rnini to'ldirib bo'lmas darajada yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bularning bari tergovchida yuqori darajadagi mas'uliyat hissini yuzaga keltiradi, yosh, yetarli tajribaga ega bo'lmagan xodimlarda esa ko'pincha «xato qilishdan qo'rqish» deb atash mumkin bo'lgan o'ziga xos holat yuzaga keladi. Bu ortiqcha hayajonlanish, o'zini yo'qotish, shoshma-shosharlik, oqilona faollikning, maqsadga muvofiklikning pasayishida namoyon bo'ladi, aniq fikriy faoliyat yurita olmaslikka, ko'zdan kechirish ishtirokchilarining harakatlarini to'g'ri boshqarishda qobiliyatsizlikka olib keladi. Ayni vaqtda shu narsa yaxshi ma'lumki, malakali tergovchilar xuddi shunday murakkab vaziyatda nafaqat tez, balki maqsadga yo'naltirilgan tarzda, butun diqqat-e'tiborini jamlagan holda harakat qiladilar. Ularning kuzatuvchanligi, fikriy faoliyati kuchayadi, ular ko'zdan kechirishning borishiga mohirlik bilan rahbarlik qiladilar. Umuman olganda, bunday tergovchilarda barcha ma'naviy va jismoniy kuchlar safarbar etiladi¹.

Voqea joyiga chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish chog'ida tergovchining bo'lg'usi faoliyatga ruhiy jihatdan tayyorlanish zarurati yuzaga

¹ Qarang: Глазырин Ф. В. Психология следственных действий. – Волгоград, 1993. – С. 7.

keladi. U voqeaning xususiyatiga qarab o'z harakatlarining umumiy tartibini modellashtiradi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish yo'nalishlarini shakllantiradi.

Voqea joyini ko'zdan kechirish ishtirokchilarining qarashlari psixologik jihatdan mos kelishi ham alohida ahamiyatga ega. Tergovchi hokimiyat vakolatiga ega bo'lsa-da, shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Uning ko'zdan kechirish ishtirokchilari bilan ish yuzasidan xushmuomala munosabatda bo'lishi bir guruh shaxslar ishtirok etadigan voqea joyini ko'zdan kechirishni muvaffaqiyatli o'tkazishning muhim shartidir.

Puxta ishlangan dastlabki ruhiy, tashkiliy va texnikaviy tayyorgarlik voqea joyini ko'zdan kechirish muvaffaqiyatli o'tishining garovidir.

Voqea joyini ko'zdan kechirish boshlanishidan avval tergovchi tashkiliy ishlarni (tezkor guruhni tanlab olish, ilmiy-texnikaviy vositalarni tayyorlash va tekshirish, mutaxassislarni taklif etish, voqea joyini qo'riqlash kabilarni) amalga oshirishi kerak. Tezkor guruh a'zolarining o'z vazifalarini yaxshi bilishi, bir-birlari bilan aniq hamkorlik qilishi katta ahamiyatga ega. Tezkor guruhni tashkil qilishda ishtirokchilarining kasbiy mahorati va hayotiy tajribasini uyg'unlashtirishning, o'zaro psixologik mos kelishining (birga ishlashga, o'zaro yordam berishga, har qanday vaziyatda og'ir bo'lishga, xayrixohlik, o'zaro tutish, o'zaro hurmatni saqlab qolishga tayyorlik, yuzaga kelgan nizolarni tez bartaraf eta olishning) maqsadga muvofiqligini yodda tutish zarur.

Voqea joyini ko'zdan kechirish tergovchi oshkora, boshqa odamlar hozirligida harakat qiladigan kam sonli tergov harakatlari qatoriga kiradi. Bu ham muayyan ruhiy tayyorgarlikni, jumladan fikrni jamlay olish, og'ir-vazmin bo'lish, diqqatni jamlash va zarur bo'lganida boshqa narsaga ko'chira olish, ayni vaqtda voqea joyini ko'zdan kechirish ishtirokchilarining harakatlariga rahbarlik qilish, zarur intizomni, hamkorlik muhitini saqlash mahoratini talab qiladi.

Voqea joyini ko'zdan kechirish – tergovchi, surishtiruv organining xodimi, mutaxassislar va shohidlardan iborat bo'lgan hamda tergovchi rahbarlik qiladigan murakkab, keng qamrovli faoliyat turi. Tergovchining faoliyati bir qator operatsiyalardan tashkil topadi hamda bilish, izlash, tashkil qilish va ishonch hosil qilish elementlarida amalga oshadi. Ularni qisqacha tavsiflab o'tamiz.

Faoliyatning bilish elementi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– vaziyatni, faktlar va hodisalarni idrok etish;

- ular o‘rtasidagi sababiy aloqani aniqlash;
- taxminlar, tasmollarni ilgari surish.

Faoliyatning qidirish elementi – jinoyatchining harakatlari tufayli kelib chiqqan o‘zgarishlarni izlash va topish; izlar, ashyoviy dalillarni olish.

Tergovchi faoliyatining tashkiliy elementi ko‘zdan kechirish vaqtida tezkor guruhga rahbarlik qilish harakatlarini (voqea joyining qo‘riqlanishini tashkil qilish, jabrlanuvchiga ko‘maklashish, vazifalarni ko‘zdan kechirish ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash kabilarni) o‘z ichiga oladi.

Tergovchi faoliyatining dalillash elementi o‘z ichiga ko‘zdan kechirish davomida topilgan izlar, ashyoviy dalillarni, aniqlangan faktlarni qayd etish, tasdiqlash va mustahkamlashni oladi.

Tergovchi voqea joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasini tuzadi, chizmalar tayyorlaydi; o‘zi yoki mutaxassis yordamida fotosurat, kino-surat, audio-video yozuvga olishni amalga oshiradi. Ko‘pincha voqea joyidagi barcha narsalar keltirilgan inventar ro‘yxatga o‘xshash bayonnomalar uchraydi. Tergovchi bu tariqa harakat qilganida ayrim holatlarning ahamiyati haqida o‘ylab o‘tirmaydi, qamrab olish mumkin bo‘lmagan narsani qamrab olishga harakat qiladi. Muvaffaqiyatsizlikka mahkum bo‘lgan bunday harakat ko‘zdan kechirish doirasini aniqlash, ushbu ish bo‘yicha muhim belgilarga e‘tiborni qaratishga xalal beradi.

Tergovchining voqea joyini ko‘zdan kechirish chog‘idagi faoliyatining yuqorida sanab o‘tilgan tomonlarini ajratish muayyan darajada shartli xususiyatga ega. Amaliyotda tergovchining voqea joyini ko‘zdan kechirish jarayonidagi faoliyati doimo yaxlit birlikni tashkil qiladi.

Rus olimi V. L. Vasilyevning yozishicha, voqea joyini muvaffaqiyatli ko‘zdan kechirish uchun quyidagi uchta vazifani aynan bayon etilgan ketma-ketlikda bajarish tavsiya etiladi.

Birinchi vazifa – tergov qilinayotgan hodisaga aloqador bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma ma‘lumotlarni to‘plash. Bu bosqichda faqat bir tasmolga to‘g‘ri keladigan ma‘lumotlarni to‘plash bilan cheklanmaslik kerak.

Ikkinchi vazifa – to‘plangan axborotni tahlil qilish va shu asosda yuz bergan voqeani izohlaydigan tasmollarni yaratishga urinib ko‘rish.

Uchinchi vazifa – ilgari surilgan har bir tasmolni voqea joyidagi barcha holatlar bilan qiyoslashdan iborat. Bunday qiyoslash davomida barcha ziddiyatlar xolisona ta’kidlab o‘tilish lozim.

Agar ikkinchi vazifani bajarishda loaqal bitta, yetarlicha asoslangan tusmolni ilgari surish imkoni bo'lmasa, tergovchi shoshilganligini tan olishi va birinchi vazifani (axborot to'plash vazifasini) bajarishga qaytishi lozim.

Ilgari surilgan har bir tusmolni tekshirish chog'ida ziddiyatlar aniqlansa, yana birinchi vazifani bajarishga qaytish, so'ngra esa ikkinchi vazifaga o'tish zarur¹.

Voqea joyini ko'zdan kechirish nafaqat jinoyat hodisalari haqida, balki shaxsning ko'plab (jismoniy, biologik, psixologik) xususiyatlari to'g'risida ham ma'lumotlar olishga imkon beradi. Jinoyat insonning maqsadga qaratilgan ongli faoliyati turlaridan biri sifatida huquqbuzar shaxsining ko'pgina xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bois jinoyat sodir etilganida dalillar muqarrar ravishda yuzaga keladi, ularning yuzaga kelish jarayonining o'zi esa qonuniy xususiyatga ega.

Voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatiga psixologik tavsif berar ekanmiz, bu maxsus uyushtirilgan, reja asosida olib boriladigan kompleks tadbir bo'lib, bunda asosiy vazifani tergovchi o'ynaydi.

3. Tintuv o'tkazish psixologiyasi

Tintuv o'tkazish voqea joyini ko'zdan kechirishdan farqli o'laroq, tergovchining izlov faoliyati tintuv vaqtda ko'pincha qidirilayotgan narsalar topilishidan manfaatdor bo'lmagan shaxslar bilan bevosita muloqot sharoitida, o'zlarining protsessual maqomiga ko'ra tergovchining harakatlari samaradorligini, individual psixologik, kasbiy xislatlarini va uning shaxsiga xos boshqa jihatlarni baholash uchun bevosita imkoniyatga ega bo'lgan shaxslarning ochiqchasiga ruhiy qarshilik ko'rsatishi sharoitida amalga oshiriladi².

Tintuv psixologik jihatdan murakkab va o'ziga xos tergov harakati hisoblanadi. Uning asosiy elementlaridan birini tintuv qilinayotgan shaxsga nisbatan majburlov choralarining qo'llanishi tashkil qiladi. Tintuv vaqtda tergovchi va unda ishtirok etayotgan boshqa mansabdor shaxslar jinoyatni tergov qilish uchun zarur ma'lumotlar topish maqsadida uy-joy, turli imoratlar, hududlarni, kiyim-kechak va hatto insonning badanini ko'zdan kechiradilar va tekshiradilar.

¹ Qarang: *Васильев В. Л.* Юридическая психология. – М., 2001. – С. 352–353.

² Qarang: *Романов В. В.* Юридическая психология. – М., 1998. – С. 358.

Tintuv yashirilgan (ko‘pincha bila turib ongli ravishda yashirilgan) obyektlarni qidirib topish bo‘lib, ko‘zdan kechirishdan farqli ravishda tergovchiga ushbu harakat oldiga qo‘yilgan maqsadning ma‘lumligi, shu bilan birga, qidirilayotgan obyekt qayerda ekanligini aniqlash yo‘llarining nihoyatda noaniqligi bilan ajralib turadi.

Tintuv – shaxslarni, predmetlarni, xonalarni ongli ravishda yashiringan obyektlarni topishda faol va maqsadga yo‘naltirilgan holda idrok etilgan, keyinchalik to‘plangan ma‘lumotlarni analiz va sintez qilishdan iborat bo‘lgan tergov harakati.

Tintuv o‘tkazish tergovchidan turli-tuman psixologik sifatlar, professional bilim, qobiliyat va malakani talab qiladi. U tintuv uchun ko‘maklashadigan omil, vaziyatlardan foydalana bilishi shart. Muayyan maqsadni ko‘zlaydigan kuzatuv hamda tintuv o‘tkazilayotgan joyda holatni to‘g‘ri tahlil qilish, qidiriluvchi va yashirinuvchi shaxs psixologiyasidan boxabar bo‘lish, tintuv qilinayotgan shaxs xulq-atvorini kuzatish tergovchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan tintuv ko‘p tabaqali faoliyat bo‘lib, unda ishtirok etayotgan xodimlararo harakatlarni muvofiqlashtirib olish, umuman har tomonlama tayyorgarlik va ishlarni rejalashtirishni talab etadi. Shuning uchun tintuv qilinajak obyektning hamda tintuv tartibining loyihasini tuzib olish, unda har bir mansabdor shaxsning vazifalarini belgilab qo‘yish, tergov bo‘linmasi bilan aloqa yo‘sinini ko‘zda tutish, xolislar tanlashni avvaldan o‘ylash kerak.

Tintuv o‘tkazishga oid tashkiliy ishlar odatda tergovchi zimmasiga yuklanadi. U o‘z harakatlari va boshqa ishtirokchilarning harakatlari aniqligi, bir-birini to‘ldirishi, uzluksizligi va samaradorligini ta‘minlashi lozim.

Jumladan, tergovchi tintuv vaqtini tayinlaydi, tergov harakati ishtirokchilarini jamlaydi, zarur texnik vositalarni tayyorlaydi, zarurat tug‘ilganda mutaxassislarni jalb etadi, tintuv qilinajak joy egalarining shaxslarini o‘rganishni uyushtiradi, tintuvning eng maqbul taktikasini belgilaydi.

Tintuv paytida ma‘lumot olishning asosiy usullaridan biri kuzatish va uning natijalarini darhol tahlil qilish hisoblanadi. Ayniqsa, tintuv qilinayotgan shaxs xulq-atvori juda ko‘p narsalarni aytib berishi mumkin. Bunday kuzatishdan imkoni boricha to‘laroq va haqqoniyroq natijaga erishish uchun bevosita tintuv vaziyatida tintuv qilinayotgan

shaxs xulq-atvorining psixologik qonuniyatlaridan har tomonlama boxabar bo'lish zarur.

Tintuv o'tkazish uchun turli soha mutaxassislarini ham jalb etish kerak, ular har bir narsaning mohiyatini, qo'llanish sohasini, undagi nuqsonlarni, o'ziga xos alomatlarini ilg'ab olishga qodirdirlar.

Tintuv o'tkazish uchun xonalarni xonadon egasi foydalanadigan chiroq nuridan ortiqroq darajada yoritish, tevarak-atrofni yaxshiroq idrok qilish sharoitini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu tintuv qilinayotgan shaxs oddiy yorug'likda ko'rmay, payqamay qolgan, yo'qotishga ulgurmagan belgi va izlarni topib olish imkonini yaratadi.

Ko'pchilik paytlarda tintuv qaltis vaziyatlarda, asabiy taranglik, murakkab psixologik muhit, nafrat, qahr-g'azab kuchaygan vaqtlarda o'tadi. Tintuv jarayonida mojaroli vaziyat tug'iladigan bo'lsa, ta'sir ko'rsatish metodlaridan biri – buyruqqa bo'ysundirish ham qo'llanishi mumkin. Bu o'sha zahoti tintuv qilinayotganning xulqi, organizmining asab-gumoral regulatsiya jarayoni o'zgarishiga olib keladi.

Tergovchining ikkinchi muhim vazifasi – tintuv jarayonida tintuv o'tkazilayotgan shaxs bilan og'zaki muomala (kontakt) o'rnatishdan iborat. Tintuv paytida tintuv qilinayotgan shaxsni imkoni boricha suhbatga tortish, u yoki bu predmetlarning zarurati haqida savollar berish ham muhim ahamiyatga ega. Uning so'zlari ichki holatini, tergovchining ayrim harakatlariga yoki so'z borayotgan narsaga munosabatini sezdirib qo'yadi. So'z ohangi, gapirish uslubi kishining haqiqiy kechinmalari, munosabati to'g'risida nisbatan ko'proq ma'lumotlarni berishi mumkin.

Tintuv qilinayotgan shaxsning turli xatti-harakatlari:

- tintuv ishtirokchilari diqqatini ayrim joy va predmetlardan chalg'itish, tintuvga xalaqit berish va uni to'xtatishga urinish;

- ba'zi narsalarni olib qo'yish yoki ularga kishilarni yaqinlashtirmaslikka intilish;

- tintuvning besamaraligi, ayrim obyektlarning hech qanday ahamiyati yo'qligiga ishontirish kabilarda namoyon bo'lib, unga nisbatan sezgirlik bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Tergovchi tintuv mobaynida axloqiy-etik me'yorlar doirasidan chetga chiqmasligi, boshdan oxirigacha xushmuomalalik bilan ish ko'rishi, qo'pollik, haqorat, qo'rqitishga yo'l qo'yimasligi zarur. Tergovchi uyi tintuv qilinayotgan shaxsga nisbatan nafrat, g'azab, jirkanish hislarini yashira olishi, o'zini tuta bilishi, ayniqsa, xatti-

harakatlari bilan oilaning boshqa a'zolari izzat-nafsiga tegmasligi darkor. Tintuv paytida hujjatlarni, tintuv qilinayotgan shaxsning shaxsiy hayotiga oid guvohnomalarni, yozishmalar, suratlar, kundaliklarni ko'zdan kechirayotganda tergovchilik odobiga rioya qilish talab qilinadi.

Psixologik xarakterga ega muammolar tintuv boshidanoq paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun ayblanuvchi yoki gumonlanuvchining uyiga kirishda shunday usulni qo'llash kerakki, qarshilik ko'rsatish, jinoyat qurollarini, qimmatbaho buyumlarni, muhim daliliy ashyolarni yashirish yoki yo'q qilishga imkon qolmasin.

Tintuv o'tkazilayotganda ayblanayotgan shaxsning ma'lumoti, madaniyati, kasbi, bilimi, aql-idroki, qobiliyatini e'tiborga olish muhimdir, bu daliliy ashyolarni yashirish joyi va usulini chamalab olishda katta yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, qurolni olib qo'yish maqsadida o'tkaziladigan tintuvda tintuv o'tkazayotgan kishilar hamda shu yerdagi boshqa odamlarning xavfsizligini ta'minlash eng asosiy shartlardan biridir, shuning uchun tergov harakati boshlanishi bilan shaxsiy tintuv o'tkazilmog'i talab qilinadi. Ayblanuvchi va uning oila a'zolarini jinoiy ishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlarni topish maqsadida boshdan-oyoq tintib ko'rishni esa tintuv jarayonining oxirida o'tkazgan ma'qul.

Tintuv mobaynida ayblanuvchini fosh etadigan predmetlarning topilishi uni og'ir psixologik ahvolga solib qo'yadi, ko'pgina psixologik jarayonlarni izdan chiqarib, sodir etilgan jinoyatga daxlsizligini tasdiqlashga urinishdan iborat irodaviy harakatlarini sustlashtiradi. Ana shuni hisobga olgan holda tintuv payti topilmagan ma'lumotlarni yangi holatlar bilan mustahkamlab olish maqsadida tintuvdan keyin darhol so'roq va yuzlashtirishni o'tkazish yaxshi samara beradi.

Tintuv joyida qat'iy intizom o'rnatilishi, asosiy ishdan diqqatni chalg'ituvchi ortiqcha gap-so'zlarga yo'l qo'yimaslik, bekordan-bekorga xonama-xona yurish taqiqlanishi zarur.

Tintuv sodir etilgan voqea-hodisa joyini ko'zdan kechirishdan yana shunisi bilan farq qiladiki, uning obyekt geografiyasi juda ham kengdir. Tintuv o'tkazishda organ xodimlarining harakati, e'tibori jinoyatchining ataylab yashirgan narsalarini topishga qaratiladi. Tintuv o'tkazishdan avval tintuv o'tkazuvchining bunga to'liq asosi bo'lishi kerak.

Tintuvning psixologik o'ziga xosligi:

- 1) tintuvning majburlash xarakteriga egaligi;
- 2) tintuvda ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishi;

3) tintuvda aniq stress holatlarining mavjudligi;

4) tintuvda muammoli holatlarning mavjudligi.

Tintuv o'tkazish dastlabki tergovning kechiktirib bo'lmaydigan harakatlaridan biri bo'lib, u jinoyatni ochishda jinoyat izlarini topish va ularni yo'q bo'lib ketishining oldini olishga qaratilgan harakatdir. Har qanday tintuv harakatlari o'tkazilishida qonun tergovchi uchun asos bo'ladi.

Tintuv olib borish yashiruvchi va qidiruvchi shaxslar psixologiyasidagi qarama-qarshiliklar kurashidan iborat. Tintuv psixologik jihatdan og'ir va o'ziga xos tergov harakatlari hisoblanadi.

Yashirilgan narsani topish uchun tergovchi ikki turdagi faoliyatni amalga oshirishi lozim:

– muayyan obyekt qayerda ekanligini topishdan iborat qo'yilgan vazifani fikran hal qilish, buning uchun yashirgan shaxsning fikriy jarayonlari va harakatlarining ehtimol tutilgan ketma-ketligini ochib berish;

– tergovchining o'zi yashirilgan narsani izlab topish borasida harakat qilishi.

Tintuv qilinayotgan shaxsning boyliklar yoki jinoyat qurollarini yashirish borasidagi harakatlarining fikriy modelini tuzish tintuvga tayyorgarlik ko'rishning majburiy elementi hisoblanadi. Buning uchun refleksiya usulidan foydalanish, ya'ni tergovchi o'zini tintuv qilina-yotgan shaxsning o'rniga qo'yib ko'rishi (kasbi, ma'lumoti, xarakteri va odatlarini, qiziqishlari va boshqalarni inobatga olishi) lozim.

Tergovchi tintuv o'tkazilayotgan shaxsning obyektini yashirish usuli va joyi haqidagi masalani hal qilish chog'ida uning fikrlash yo'llarini bilishi juda muhim. Odatda har qanday inson obyektini yashirish haqidagi masalani mavjud amaliy imkoniyatlar, obyektning xususiyatlari, kasb-kori, kasbiy bilimlari va nihoyat, o'zining aniq ruhiy holatlarini inobatga olgan holda hal qiladi. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqadiki, tintuv o'tkaziladigan insonning shaxsini, hayotining barcha shart-sharoitlarini avvaldan o'rganish nihoyatda muhimdir. To'plangan ma'lumotlar ko'p jihatdan refleksiv tafakkur – yashirilgan obyektlarni izlash usullarini aniqlash imkoniyatlarini oshiradi.

Tintuv tergovchining asoslantirilgan qarori bo'yicha amalga oshiriladi. Qarorga tintuv nima sababdan va qayerda o'tkazilishi, shuningdek, qaysi boyliklar, narsa va hujjatlar olib qo'yilishi lozimligi ko'rsatiladi. Qarorda (u tintilayotgan shaxsga ko'rsatilgani bois) oshkor etilishi tergovning borishiga xalal berishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar bo'lmasligi kerak. Tintuv faqat prokurorning ruxsati bilan amalga

oshiriladi. Kechiktirib bo'lmaz vaziyatlarda u bunday ruxsatsiz ham o'tkazilishi mumkin, ammo bir sutka ichida bu haqda prokurorga xabar berilishi shart.

Tintuvga, bir tomondan, tergovchi va tintuvning boshqa ishtirokchilari, boshqa tomondan, tintilayotgan shaxs maqsadlarining qarama-qarshiligi xosdir. Tintuvning majburlash xususiyatiga egaligi hamda unda ishtirok etayotgan shaxslar maqsadlarining qarama-qarshiligi deyarli doimo nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Tintuv, tergov harakati sifatida, yorqin ifodalangan izlov xususiyatiga ega. Demak, ichki ishlar organlari xodimlari ayblanuvchi tomondan yashirilgan jinoyat qurollari, narsa va boyliklarni topishlari zarur. Tergovchi tintuv o'tkazayotganida odatda uni o'tkazishning shart-sharoitlari, olib qo'yilishi lozim bo'lgan obyektlar, ularning qayerda ekanligi haqida juda cheklangan ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ushbu omillar tergovchining yashirilgan narsalar qayerda ekanligi haqida axborot olishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tintuv o'tkazish tergovchidan psixologik sifatlari, kasbiy bilim, uquv va ko'nikmalarini namoyon etishini talab etadi. U tintuvning muvaffaqiyatiga yordam beradigan omillardan foydalanishi kerak. Ularga quyidagilar kiradi:

- tintuv o'tkazishga psixologik tayyorgarlik ko'rish;
- tintuv o'tkazilayotgan joydagi vaziyatni maqsadli kuzatish va to'g'ri tahlil qilish;
- tintilayotgan shaxsning xatti-harakatini kuzatish va hokazo.

Tintuvning ijobiy yoki salbiy natijasi ko'pgina holatlarda ushbu tergov harakatiga lozim darajada tayyorgarlik ko'rilishiga bog'liq. Tintuvga yaxshi tayyorgarlik ko'rish ushbu harakatning o'z vaqtida boshlanishi, rejali o'tkazilishi, ishtirokchilarda muvaffaqiyatga bo'lgan ishonchni ta'minlaydi. Yomon tayyorgarlik ko'rish tasodifiy, tartibsiz izlovlarga, tintuv o'tkazayotgan shaxslar harakatining nomuvofiqligiga va oxir oqibatda muvaffaqiyatga ishonchsizlik hissi paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Tergovchi tintuvga tayyorgarlik qilayotganida quyidagi savollarga javob topishi tavsiya etiladi:

- 1) nimani izlash kerak, qidirilayotgan narsa qanday ko'rinishga ega (shakli, rangi, hidi va h.k.);
- 2) qidirilayotgan obyekt nima; obyektning maydoni, relyefi, tuzilishi, xonalari, eshiklari va derazalarining soni hamda joylashuvi, mebel va uning joylashuvi va hokazo;
- 3) obyektida tintuv o'tkazilayotgan paytda tintilayotgan shaxsdan

boshqa yana kim bo'lishi mumkin;

4) obyektning sun'iy va tabiiy yoritilishi qanday;

5) obyektida telefon va boshqa aloqa vositalari (ratsiya, qo'ng'iroq, selektor va sh.k.) bormi;

6) qidirilayotgan narsalar qayerda bo'lishi mumkin;

7) kim tintuv o'tkazadi;

8) qanday texnik vositalar va materiallarni olish kerak;

9) tintuvni qachon o'tkazgan ma'qul;

10) tintuv qancha davom etishi mumkin;

11) tintilayotgan obyekt chizmasi va unda tintuv o'tkazish tartibini, har bir mansabdor shaxs uchun vazifalarni aniq taqsimlagan holda tuzish;

12) shohidlarni tanlash masalasini oldindan o'ylab ko'rish;

13) tergov bo'linmasi bilan aloqa usullarini (telefon, radio, selektor) nazarda tutish kerak.

Tergovchi yuqorida keltirilgan savollarga tintuv o'tkazilguncha qanchalik batafsil javob bersa, tintuv o'tkazish paytida kutilmagan holatlar shunchalik kam va uning muvaffaqiyatli o'tishi uchun imkoniyat shunchalik ko'p bo'ladi.

Kuzatuv tintuv o'tkazilayotgan obyektlardan tashqari, hayvonlar va qushlarning xatti-harakatini ham qamrab olishi mumkin. Ular ko'pincha yashiringan inson yoki yashirilgan ashyolar qayerda ekanligidan xabar beradi. Ma'lumki, uy hayvonlarining ko'pchiligi murdani sezib bezovtalanib qoladi, itlar ularning hududida begona odam bo'lganida asabiylashadilar va hokazo.

Muayyan ish bilan band bo'lgan insonning ko'pgina xato va kamchiliklari tashqaridan ko'proq sezilishini nazarda tutish lozim. O'zini o'zi nazorat qilish ruhiy harakat sifatida boshqa shaxsning faoliyatini nazorat qilishga qaraganda qiyinroq vazifa ekanligi bilan bog'liq. Shu bois tintuv o'tkazilayotganida qidirayotgan shaxsning kamchiliklarini qayd etadigan va ularni birovga sezdirmay, masalan, qidirayotgan shaxsga yaqinlashib, sezdirmasdan, ilgari kelishilgan usulda bildiradigan, qo'shimcha tekshirish kerak bo'lgan narsaga e'tiborini qarata-digan (qutini sug'uradigan, eshigini ochadigan va h.k.) tashqi kuzatuvchiga ega bo'lgan ma'qul.

Tintuv samarasi tergovchida maqsadga qaratilgan harakat va barqaror diqqat bo'lishini taqozo etadi. Diqqat deganda, psixologiyada ongning shaxs uchun ahamiyatga ega bo'lgan muayyan obyektga qaratilganligi tushuniladi. Tintuv vaqtida diqqat ixtiyoriy, irodaviy xususiyatga ega bo'ladi, tergovchi undan ko'zlangan maqsadga erishish

uchun foydalangani bois, diqqatini saqlab qolish va boshqa ta'sir manbalariga chalg'imaslik uchun jamlashga muayyan darajada harakat qiladi.

Diqqatni barqaror holda uzoq vaqt saqlashning ma'lum qiyinchiliklari mavjud. Izlash ishlarining o'ziga xos xususiyati, chalg'ituvchi omillarning mavjudligi asta-sekin charchoq yig'ilishiga, jumladan diqqat chalg'ishiga olib keladi. Shu bois tintuv uzoq cho'zilgan va qiyin kechgan hollarda muayyan vaqt oralig'ida qisqa muddatli tanaffuslar qilgan ma'qul. Biroq tintuv jarayonida chalg'imaslik, belgilangan aniq rejaga rioya etish muhim. Tintuv ishtirokchilari vaqti-vaqti bilan izlov ishining xususiyatini o'zgartirib turishlari maqsadga muvofiq bo'ladi (masalan, tergovchi ayblanuvchining shaxsiy yozuvlarini ko'zdan kechirgandan keyin mebel narsalari orasida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan yashirin joylarni izlashga o'tishi va h.k.).

Tintuv o'tkazuvchi shaxslar jinoyatchilar maxfiy va turli buyumlar saqlanadigan joylar tayyorlashda ba'zan bir qator psixologik omillarni inobatga olishlarini nazarda tutishlari kerak. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) charchash va avtomatizm omillari paydo bo'lishini hisobga olish. Masalan, qidirilayotgan hujjatni ko'pincha kitob javonining o'rtasida turgan kitob ichiga qo'yadilar. Bunda kitoblar javonning u yoki bu chekkasidan boshlab ko'zdan kechirilishi, javon o'rtasiga borganda esa muayyan avtomatizm, charchoq paydo bo'lishi, tergovchi kitobning har bir betini varaqlamasligiga umid qilinadi;

2) hazar qilishni nazarda tutish (yashirilayotgan narsalar go'ng ichiga ko'miladi, hojatxonaga tushiriladi va h.k.);

3) tergovchining odobi va boshqa olijanobliklariga umid qilinadi (obyektlar og'ir bemor shaxsning krovatiga, go'dak krovatiga, yaqin qarindoshlarining qabriga yashiriladi va h.k.);

4) narsani yashirishda atayin beparvolikka yo'l qo'yiladi (yuzada qoldiriladi);

5) boshqa maxfiy joylar yasash orqali e'tibor chalg'itiladi. Bunda birinchi bo'm-bo'sh maxfiy joy topilganida qolgan xuddi shunday maxfiy joylar ko'zdan kechirilmasligiga umid qilinadi;

6) qidirilayotgan obyektни olib qayta yashirish uchun e'tiborni chalg'itish maqsadida tintuv vaqtida nizo keltirib chiqarishga umid qilinadi.

Sanab o‘tilganlarni sinchiklab tahlil qilish tergovchiga tintuv o‘tkazish vazifalarining birinchi qismini – tintilayotgan shaxsning harakatlarini fikran bilib olish masalasini muvaffaqiyatli hal qilishga olib keladi.

Tintuv o‘tkazish uchun har bir buyumning mohiyatini, vazifasini yaxshiroq biladigan, buyumning vazifasidan og‘ishlarni sezadigan, uning xususiyatlarini aniqlay oladigan mutaxassislarni jalb qilish zarur. Masalan, adabiyotlarda tintuvda ishtirok etish uchun duradgor, quruvchi va santexnik taklif etilganligi bois maxfiy joy topilgan tintuv misoli keltiriladi. Tergovchining obyektlarni idrok etishi ushbu obyektlarning mutaxassislar tomonidan idrok etilishi bilan to‘ldirilgan. Ular u yoki bu ta‘mirlash qancha vaqt ilgari va qaysi maqsadda o‘tkazilganligini aniqlashga yordam berganlar, obyektlarning qismlari aslida qanday nisbatda bo‘lganligini aniqlaganlar va hokazo.

Tintuv o‘tkazishda vaziyatni idrok qilish uchun tintuv o‘tkazilayotgan kvartirada shaxs odatda foydalanadigan yoritishga qaraganda yaxshiroq sharoit yaratadigan yoritish moslamasi o‘rnatilgani ma‘qul. Bu hol odatdagi yoritishdan tintilayotgan shaxs obyektini yashirayotganida ko‘rmagan belgi va izlarni aniqlashga imkon beradi.

Tergovchining tintuv o‘tkazishdagi faoliyati quyidagi psixologik tuzilishdan iborat:

- 1) kerakli axborotlarni yig‘ish;
- 2) yashiruvchining xayoliy modelini tuzish;
- 3) oldiga qo‘yilgan qidiruv tasmollarini idrok qilish.

Tintuv o‘tkazishda turli obyektlar axborot manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Masalan:

- tintuv o‘tkazilayotgan xona;
- alohida buyumlarning joylashishi;
- tintuv o‘tkazilayotgan shaxsning xulqi;
- qush va hayvonlarning o‘zini tutishi.

Tintuv o‘tkazilayotgan xonadagi vaziyat gumon qilinuvchi shaxsning qanday xususiyatlarga ega ekanligini o‘zida aks ettiradi. Masalan, uning ijtimoiy mavqe, madaniyat darajasi, didi, ehtiyojlari, qarashlari, qiziqishlari, moyilligi, xarakterning belgilari va hokazo.

Tintuv qilinayotgan xonadagi predmetlarning joylashishi ham axborot manbai bo‘lishi mumkin. Biz hayotda tipik holatlar to‘g‘risidagi alohida stereotiplarni qoidaga ko‘ra qo‘llaymiz. Masalan, u yoki bu kategoriyalarda kishilar xonadonidagi predmetlar soni, rassom, olimlar, sportchilar, musiqashunoslar, shahar va qishloqda yashovchilarda bu to‘la oqlangan. Shuning uchun ham gumonlanuvchi xonadonda uning

moddiy holatiga yoki yashash tarziga, qiziqishlariga to'g'ri kelmaydigan predmetlarning topilishi tergovchining diqqat va e'tiborini o'ziga tortishi albatta tabiiydir.

Yashirilgan joy to'g'risida eng zo'r manba gumonlanuvchining tintuv o'tkazilayotgan vaqtdagi xulq-atvori va reaksiyasi hisoblanadi. Gumon qilinayotgan shaxsning ruhiy holati qidirilayotgan obyekt qayerda joylashganligini aniqlashda indikator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, tintuv juda kuchli xavotirga olib keluvchi kuch hisoblanadi, shaxsda kuchli emotsional holatni yuzaga keltiradi, natijada uning reaksiyasi va xulq-atvori ham to'liq o'zgaradi. Ma'lumki, inson reaksiyasi ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga bo'linadi. Ixtiyorsiz reaksiya boshqarilmaydi va quyidagilarda namoyon bo'ladi: yuzning oqarib ketishi, qizarishi, qo'lning qaltirashi, tez-tez nafas olish, terlab ketish, ovozining o'zgarishi, harakat yo'nalishining buzilishi, duduqlanishi va boshqalar. Ushbu qayd etilgan belgilarning tintuv o'tkazilayotgan shaxsda kuzatilishi tergovchining qidirilayotgan obyektga yaqinlashayotganini bildiradi.

Tergov amaliyotida shunday holatlar kuzatilganki, qush va uy hayvonlarning harakatlari murakkab va chigal jinoyatlarni ochishda katta yordam bergan.

Jinoyatchilar ko'pchilik holatlarda tintuv o'tkazilishini oldindan biladilar va shuning uchun ham jinoyat qurolini, predmetlarni, jinoiy yo'l bilan topilgan qimmatbaho narsalarni ishonchli joylarga yashirishga harakat qiladilar. Tergovchi qidirilayotgan buyumni topish uchun yashiruvchi shaxsning psixologiyasiga kirishi lozim. Yashiruvchi shaxs psixologiyasining mohiyati tintuv o'tkazayotgan shaxs yashirilgan buyumlarga yetib bormasligi sharoitini yaratishdan iborat bo'ladi. Ushbu maqsad uchta o'zaro bog'liq vazifalarni hal qilishga, ya'ni maqsadga erishishga sharoit tug'diradi.

Yashiruvchining predmet va obyektlarni yashirishda hal qiladigan vazifalari:

- yashirish joyini tanlash;
- yashirish joyini niqoblash;
- tintuv va uni kuzatuv jarayonidagi xatti-harakati va xulqi yo'nalishini tanlash.

Ko'pchilik hollarda yashirish joyini tanlash jinoyatchining yashash sharoiti, masalan, uydagi xonalar, ularning soni, dala hovlisi, transportlar soni va boshqalar bilan chegaralanadi. Bundan kelib chiqadiki, bunday sharoitning ko'pligi jinoyatdan qo'lga kiritilgan buyumni yashirish joyini

tanlash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, yashirish joyini tanlashga alohida subyektiv omillar ham ta'sir qiladi.

Yashirish joyini tanlashga ta'sir qiluvchi subyektiv omillar:

- jinsi va yoshi;
- professional bilimi va qobiliyati;
- qiziqishi va mashg'uloti;
- yashirilayotgan obyektga nisbatan shaxsning munosabati;
- harakatli belgilari;
- madaniy va intellektual darajasi.

Erkaklardagi maxsus qiziqishlar, ya'ni bilimi, qobiliyati, texnik bilimlari elektr asbob-uskunalar korpusida, ayollardagi esa ko'pchilik hollarda kundalik ehtiyoj predmetlari orasida, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va tuzlangan meva-sabzavotlar ichida saqlashiga olib keladi.

Kriminalistik va psixo-yuridik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yashirish joyini va usulini aniqlashga kasbiy bilim va qobiliyat katta ta'sir qiladi. Bizga ma'lumki, kasb shaxsning ko'p tomonlarini, masalan, uning qiziqishlari, yo'nalishlari, qarashlari, bilimlari, eslash qobiliyati, kuzatuvchanligi va boshqa tomonlarini belgilab beradi. Shunday holat mavjudki, yashirilgan joy qo'g'irchoq qush (chuchelo) bo'lib chiqqan, bunga sabab yashiruvchi shaxs ovchilik bilan shug'ullangan, lekin o'zi santexnik bo'lib ishlagan.

Yashirilayotgan obyektga nisbatan shaxsning munosabati, ya'ni jinoyatchi yashirilgan obyekt va qimmatbaho narsalarga hech qachon befarq bo'lmaydi. Chunki yashirilgan predmet qanchalik katta miqdordagi qiymatni tashkil etsa, jinoyatchi shunchalik o'ziga yaqin joyga yashiradi. Ya'ni xohlagan vaqtda uni ko'rib turishiga imkoniyati bo'lishi kerak yoki uning aksi, agar bu buyum jinoyat quroli bo'lsa, jinoyatchi undan shunchalik tezroq qutulishga, ya'ni uni hech qachon ko'rmaslikka harakat qiladi.

Shuningdek, xasis va bировga ishonmaydigan inson, shu vaqtning o'zida qimmatbaho narsalarni o'ziga yaqinroq joyga yashirishga harakat qiladi, ya'ni uning daxlsizligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qo'rqoq va xayolparast shaxs esa bunday predmetlarni yiroqroqqa yashirishga harakat qiladi.

Jinoyatchining madaniy va intellektual darajasi o'ta muhim hisoblanib yuqorida qayd etilganlarning har biri bilan bevosita bog'liq.

Ularning madaniy va intellektual darajasining yuqoriligi tintuv o'tkazilishini qiyinlashtiradi. U jins bilan bog'liq bo'libgina qolmay, balki kasb bilan ham o'zaro bog'liqdir.

Jinoyatchining yashirish joylarini tayyorlashda hisobga oladigan psixologik omillari:

- organ xodimining charchash vaqti;
- organ xodimini iflos predmetlardan nari yurishi;
- tergovchining tajribasizligi va e'tiborsizligi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tergovchining charchog'i uning diqqatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tintuv uzoq cho'zilgan va katta jismoniy zo'riqish bilan kechgan taqdirda dam olish uchun tanaffuslar qilish zarur. Shuni nazarda tutish kerakki, jinoyatchilar ko'p hollarda aynan tergovchining charchashiga umid qilib ish ko'radilar.

4. So'roq qilishning psixologik jihatlari

So'roq – tergovchi bilan so'roq qilinuvchi o'rtasida uzoq davom etadigan bevosita muloqot jarayoni. So'roq dialog shaklida bo'lib, ushbu jarayonda haqiqat izlanadi va aniqlanadi. So'roq vaqtida ikki xil dunyoqarash, ikki xil iroda, ikki xil kurash taktikasi va turli manfaatlar to'qnashadi. Ko'pincha so'roqda so'roq qilinayotgan shaxs va boshqa odamlarning taqdiri hal bo'ladi. Tergovchiga bu kurashda g'alaba qozonishda psixologiya va so'roq taktikasi sohasidagi maxsus ilmiy bilimlari hamda suhbat olib borishning kasbiy ko'nikmalarida namoyon bo'ladigan mahorati yordam beradi. Shu bois so'roq natijasi ko'p jihatdan ishtirokchilarining bilimlariga, hal qiluvchi darajada esa tergovchining kasbi uchun zarur bo'lgan psixologik sifatlariga bog'liq. Prinsipial, adolatli, halol, xayrixoh tergovchi so'roq qilinayotgan shaxsda hurmat uyg'otadi, to'g'ri ko'rsatmalar berish va tergovga ko'maklashish istagini yuzaga keltiradi.

So'roqning samaradorligini tergovchining boshqa ijtimoiy-psixologik xislatlari ham ta'minlaydi. Ularga sabr-toqat, vazminlik, hissiy barqarorlik, hayotiy tajriba, kasbiy bilim, so'roqni mantiqan to'g'ri olib borish mahorati kabilar kiradi. So'roq qilinuvchiga kerakli individual-psixologik yondashuvni topa olish tergovchining asosiy vazifalaridan biri. Bu yondashuv so'roq qilinayotgan shaxsning yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasbi, hayotiy tajribasini, madaniyat darajasi, manfa-

atlari, qarashlari, so‘roq paytida his qilayotgan ruhiy holatini inobatga olishni nazarda tutadi.

Tergovchining kommunikativligiga tashqi ko‘rinishi, jismoniy jihatlari, o‘zini tutishi, kiyinishi kabilar kiradi. Tergovchining batartibligi, ozodalik, oddiyligi, kirishimliliigi, kiyimining ozodligi, e’tiborliliigi, xayrixohligi – bularning bari – ishonch paydo bo‘lishiga, so‘roq qilinuvchining muloqotga tayyor bo‘lishiga yordam beradi.

So‘roqqa chaqirtirilgan guvohning ruhiy holatini ham inobatga olish zarur, chunki aksariyat odamlar uchun tergovchining huzuriga chaqirtirilish noodatiy voqea bo‘lib, hayajon va sarosima keltirib chiqaradi. Tergovchining ayrim psixologik xislatlari, jumladan hech kimga ishonmasligi, odamoviligi, muloqot qila olmasligi ham so‘roqda kerakli psixologik vaziyatni hosil qilish yo‘lidagi to‘siqdir.

Barcha holatlarda so‘roqdan oldin tergovchi guvoh bilan suhbatlashishi kerak. Uning qarashlari, qiziqishlari, kayfiyati, psixologik xususiyatlarini hisobga oladigan suhbat ruhiy zo‘riqishni yo‘qotish, ishonchsizlikni bartaraf etish, to‘g‘ri ko‘rsatmalar berishga tayyor bo‘lish holati paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Jabrlanuvchilarni so‘roq qilish yanada katta psixologik tayyorgarlikni talab etadi.

Jabrlanuvchilarning ko‘rsatma berishda xatoga yo‘l qo‘ymasliklari uchun doimo ularning jinoyat sodir etilayotgan paytdagi holatlari va jinoyatchi shaxsini idrok etish xususiyatlarini inobatga olish muhim. Eksperiment orqali shu narsa isbotlanganki, ular his qilayotgan qo‘rquv, g‘azab, uyat, alam kabi hissiyotlar idrok etishning buzilishiga sharoit yaratishi mumkin. Bunday vaziyatda idrok etishning hajmi torayadi, ko‘pincha bir qator faktlar, belgilar, tafsilotlar noto‘g‘ri baholanadi.

Psixologik aloqa o‘rnatish usullari juda ko‘p va xilma-xildir. Ularning tanlanishi yuzaga kelgan tergov vaziyati, shaxs xususiyatlari, so‘roq qilinayotgan shaxs va tergovchining psixologiyasiga bog‘liq. Psixologik aloqa jabrlanuvchi, guvohlarning ijtimoiy-psixologik xislatlariga ta’sir ko‘rsatish orqali o‘rnatilishi mumkin. Ba’zan tergovchi jabrlanuvchilar, guvohlarda o‘ziga nisbatan ishonch, qiziqish uyg‘otib, psixologik aloqa o‘rnatilishiga erishadi.

Tergovchi guvoh, jabrlanuvchiga nima sababdan so‘roqqa chaqirtirilganliklarini tushuntirib, ular bilan erkin suhbat olib borishi kerak. Bu so‘roq qilinayotgan shaxsga fikrini jamlash, voqea-hodisalarni eslash, tergovchiga esa kuchli ta’sir ko‘rsatadigan va javobga yo‘naltiradigan savollar qo‘yishdan qochish imkonini beradi. Guvohlar

va jabrlanuvchilarning ko'rsatmalarini hurmat qilish va ularga ishonish tergovchi uchun majburiy shart bo'lishi lozim. U shaxsga nisbatan qo'pollik qilishi, uning ustidan kulish, unga nisbatan ko'rinib turgan ishonchsizlik, e'tiborsizlik, shoshqaloqlik kabilarni namoyish etishiga yo'l qo'yilmaydi.

So'roq qiluvchining nutqiy faolligini oshirish tergovchining aniq savollar berish mahoratiga bog'liq. Tergovchining savollari tizimi shaxsga huquqiy psixologik ta'sir etish vositasidir. So'roqning muvaffaqiyati uni yaxshi boshlanishi va so'roq qiluvchi bilan aloqani to'g'ri o'rnatishdir. So'roqning boshlang'ich bosqichida tergovchi so'roq qiluvchining shaxsini, shaxsiy xususiyatlarini, voqeaga nisbatan munosabatini aniqlashga harakat qiladi. Tergovchi so'roq taktikasi haqida oldindan xulosalar chiqarib, so'roq qiluvchi bilan kommunikativ aloqa o'rnatadi. Kommunikativ aloqa kishilar o'rtasida axborot almashinuvi zarurligiga asoslangan.

So'roq qilish harakati hamda butun tergov jarayonining muhim muammosi yolg'on ko'rsatmalarni aniqlash va fosh qilishdir. Yolg'on ko'rsatmalarni fosh etishning universal usullari yo'q. Bu borada yolg'onning aniqlash indikatori va psixosomatik reaksiyalar – qaltiroq tutish, nafas olishining o'zgarishi, tomoq qurish, to'qimalarning torayishi yoki kengayishi, terining oqarib ketishi va qizarishi ham ishonchli vosita emas. Shu bilan birga, ko'rsatma beruvchining nutqidagi to'xtalishlar, ohangga ham e'tibor berish kerak. Lekin yolg'on tez fosh qiluvchi taassurotdir. Yolg'on ko'rsatma beruvchi o'zining yolg'on ko'rsatmalari tergovchi tomonidan qanday baholanishini kuzatadi, tergov jarayonini qo'lga olib, suvdan quriq chiqishga intiladi.

Xo'sh, tergovni samarali olib borish uchun yolg'on ko'rsatmani aniqlash boshqa mamlakatlarda qanday olib boriladi? AQSHda yolg'on ko'rsatmalarni aniqlash maqsadida poligraf (lay detektor) – test jarayonida insonni psixologik reaksiyalarini o'zgarishini aniqlovchi tizimlar tarkibi (puls, chastota, qon bosimining o'zgarishi, nafas olishning o'zgarishi) keng qo'llaniladi. Shu qatorda mashhur italiyalik kriminalist vrach Ch. Lombroso gumonlanuvchilarning so'roq vaqtida qon bosimini o'lchash, yolg'on ko'rsatmalarni shu tariqa aniqlash mumkinligini ilgari surgan. Haqiqatda alohida fiziologik reaksiyalarni yolg'on ta'siri mohiyati bilan adashtirib bo'lmaydi. Lekin ushbu usullar mutaxassislarga shaxslarni holatlar yuzasidan yashiringan voqealarga oydinlik kiritishiga imkon beradi. Bunda tekshiriluvchiga ahamiyatli

yoki ahamiyatsiz savollar beriladi. So‘roq davomida yolg‘on ko‘rsatmalarni fosh etishning eng ishonchli omili bu muloqotdir¹.

Muloqotda inson odatda nafaqat aniq vazifalarni hal qilib qolmay, balki shaxsiy xohishlarini ham amalga oshiradi: o‘zi haqida yaxshi taassurot qoldirishga, mustaqilligini, bilimini ko‘rsatishga intiladi.

So‘roq qilish jarayonini taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin.

1. (Kirish qismi) Tergovchi tomonidan og‘zaki shaklda kerakli ma‘lumotlarni olish, ya‘ni demografik ma‘lumotlar. Bu ikki shaxsning bir-biri bilan bo‘ladigan o‘zaro muloqoti.

2. Tergov qilishning asosiy qismi. Bunda tergovchi so‘roq qilinuvchi shaxsdan kerakli hamma ma‘lumotlarni oladi, ya‘ni tergov to‘g‘ri olib borilsa, u holda kerakli ma‘lumotlar olinadi. Tergovchi so‘roq jarayonida birinchi olingan ma‘lumotlar bilan keyingi olinganlarini taqqoslashi, noaniqlarni yo‘qotishi kerak.

3. Tergov qilishning xulosa qismida tergovchi olgan dalillarni har xil usullar bilan ko‘rib chiqishi kerak.

So‘roq qilinuvchi shaxslar xotirasidagi axborot tergovchining tartibli savollari ruhiy ta‘sir qilishi orqali tiklanadi. Tergovchi so‘roq vaqtida turli xil axborotlar yig‘indisiga to‘qnash keladi. Uning vazifasi esa ushbu ma‘lumotlarni tartibga solib, voqea-hodisani ochib beruvchi «kalit»ni topishdan iboratdir. So‘roq tergovchining mahoratidan kelib chiquvchi jarayondir, chunki bu holatda tergovchining malakasi, bilimi va so‘roq qilinuvchi bilan til topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘p hollarda tergovchi so‘roq vaqtida nutqiy qobiliyati passiv bo‘lgan so‘roq qilinuvchiga duch keladi. Bunday vaziyatda so‘roq qilinuvchining nutqiy faoliyatini faollashtirish tergovchining kommunikativ vazifasi hisoblanadi. Har bir kishi nutqining kuchli, kuchsiz tomonlari bo‘ladi, bu psixologik nuqtai nazardan so‘roq qilinuvchi shaxsga ta‘sir qiluvchi omildir.

So‘roq qilish jarayonining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bor:

1) tergov jarayoni jinoyat-protsessual qonunlari bilan tartibga solinadi;

2) tergovchi va so‘roq qilinuvchi shaxs o‘rtasida majburiy muloqot yuzaga keladi va bu shaxsning psixologik holatiga ta‘sir qiladi;

3) so‘roq vaqtidagi hamma muloqot so‘roq bayonnomasida qayd qilinadi.

¹ Qarang: *Еникеев М.И.* Юридическая психология. – М., 2005. – С. 179 – 180.

Kommunikativ aloqa axborot almashish jarayoni bo‘lib, qayta aloqaga asoslangan. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari jinoyatchi shaxslar bilan psixologik aloqa o‘rnatishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlariga ega. Psixologik aloqa o‘rnatishda hamjihatlik va hamkorlik, aloqa o‘rnatishda ijobiy yaqinlashuv bo‘lajak muloqotning samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. O‘rnatiluvchi aloqaga tergovchining hodisaga bir tomonlama yondashuvi, ayblash holatlari, e‘tiborsizligi, vaziyatni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi belgilarga e‘tibor bermasligi salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, tergov jarayonida tergovchi ishga mos aloqa o‘rnatish uchun so‘roq qilinuvchini kommunikativ aloqa o‘rnatishga qiziqtiruvchi holatlarni o‘rganishi zarur. Tergovchi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida terish uchun qulay usullarni tanlaydi. Ushbu usullarning eng muhimi psixologik aloqa o‘rnatishdir. Psixologik aloqa o‘rnatishga ijobiy ta‘sir etuvchi omil esa tergovchi nutqining aniqligi, mantiqiyliqi, ishonarliligi va yetarlicha yoritilishidir.

Yuridik adabiyotlarda so‘roq quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

- 1) ishning holatini o‘rganish va tahlil qilish;
- 2) so‘roqqa psixologik tayyorgarlik ko‘rish;
- 3) so‘roq qilish;
- 4) so‘roqdan keyingi xulosalar;
- 5) so‘roq natijalarini tahlil qilish va baholash.

Jinoyatchi shaxs o‘jar, janjalkash bo‘lsa, u holda quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

- 1) yolg‘on (gapirish)ga yo‘l qo‘yish;
- 2) favquloddagi holat (savol);
- 3) savolning ketma-ketligi;
- 4) diqqatini chalg‘itish;
- 5) so‘roq sur‘atini oshirish;
- 6) so‘roq sur‘atini birdan pasaytirish;
- 7) shaxsning nozik joyini topish.

Tergov eksperimenti shuni ko‘rsatadiki, 5–7 yoshdagi bolalar diqqati 15 daqiqadan ko‘p bo‘lmaydi, 7–10 yoshdagilarniki 20 daqiqa, 10–12 yoshdagilarniki 25 daqiqa, 12 yoshdan kattalarniki 30 daqiqa bo‘ladi.

Jinoyat qilgan shaxsning psixologiyasi faqat o‘zini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, buni bildirmaslikka harakat qiladi.

So‘roq qilinayotganda gumon qilinuvchiga aybini tan olishi jazosini yengillashtirishini aytish lozim. Guvoh va jabrlanuvchiga yolg‘on ko‘rsatma bergani va ko‘rsatma berishdan bosh tortgan uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi eslatiladi.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va tergovchi o‘rtasida doimo psixologik to‘siq mavjud, tergovchining vazifasi shu to‘siqni yo‘q qilishdir.

Tergovda tergovchi liderlikni o‘z qo‘liga oladi, bundan ko‘zlangan maqsad so‘roq qilinayotgan odamni ezish emas, balki unda psixik faollikni yuzaga keltirish va shu orqali shaxsning qandayligini aniqlashdir.

Tergovchi so‘roq qilishda faqat shaxsning og‘zaki javobiga emas, balki uning mimika, pontomimika, ovozidagi o‘zgarishlarga ham e‘tibor berish kerak. Birinchi uchrashuvdagi taassurot doimo aldamchi taassurot bo‘ladi.

Tergovchi tergov jarayonida shaxsning shaxsiyatiga tegadigan gap aytish kerak emas. Hech qachon so‘roq qilinayotgan shaxsga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lmaslik tergovchilarning oltin qoidasiga aylanishi lozim.

Tergovchi so‘roq qilinayotgan shaxsning ismini aytib murojaat qilsa, u tergovchining munosabatini ijobiy qabul qilishi mumkin. Tergovchi so‘roq qilinayotgan shaxsning quyidagi o‘ziga xos ichki kechinmalarini doimo yodda tutishi kerak:

- 1) jinoyat qilib qo‘yganidan qattiq hayajonda;
- 2) qamab quyishlaridan qo‘rqadi;
- 3) odatiy hayoti (turmush tarzi) buziladi.

Tergovchi, shuningdek so‘roq qilinayotgan odamning ijobiy tomonlari to‘g‘risida gapirishni ham hech esdan chiqmasligi lozim. So‘roq jarayonida gumon qilinuvchining ustidagi kiyimi, qo‘lidagi uzugi, tatuirovkasi yoki jargoni tergovchiga gap boshlash uchun sabab bo‘lishi mumkin, lekin shaxsiyatiga tegish kerak emas.

5. Guvohlar va jabrlanuvchilarni so‘roq qilish psixologiyasi

Ilmiy adabiyotlarda guvohlar va jabrlanuvchilarning so‘roq qilish psixologiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta e‘tibor berilgan. Bunday qiziqish, avvalo, guvohlar va jabrlanuvchilarning ko‘rsatmalari jinoyat ishlari bo‘yicha eng kerakli dalil ekani bilan izohlanadi.

Guvohlar va jabrlanuvchilarni so‘roq qilishga tayyorlashning psixologik jihatlari quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) ish materiallari hamda aniqlanishi kerak bo‘lgan masalalar doirasini tahlil qilish;
- 2) so‘roq qilinayotgan shaxsni o‘rganish;
- 3) so‘roq qilish muvaffaqiyatli o‘tishi uchun zarur shart-sharoitni ta’minlash;
- 4) tergovchining o‘zini tutishi.

Kutilayotgan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilish bir qarashda oson tuyilsa ham, bari bir jiddiy va puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. So‘roq qilishning asosini reja tashkil qiladi. Unda aniqlanishi talab etilayotgan masalalar doirasi, ularning mazmuni va ketma-ketligi belgilanadi. So‘roqdan avval ish hujjatlarini o‘rganish, guvoh, jabrlanuvchini so‘roq qilish chog‘ida aniqlanishi lozim bo‘lgan masalalar doirasi bilan bog‘liq dalillarni tahlil qilish zarur. Agar tergovchi so‘roq qilishga yaxshi tayyorlanmagan bo‘lsa, uni ishonchsizlik bilan va maqsadga qaratilmagan holda o‘tkazishi deyarli aniq. Tergovchining so‘roqqa tayyorgarlik ko‘rmaganligini so‘roq qilinayotgan shaxs sezmasligi mumkin emas, bu esa so‘roq qilinayotgan shaxsning hayajonini kuchaytiradi, zarur ma’lumotlarni eslash jarayonini qiyinlashtiradi, umuman olganda, so‘roq natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bila turib yolg‘on ko‘rsatma berayotgan guvoh va jabrlanuvchilarga kelsak, tergovchining yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagani ularning ustunligini kuchaytiradi, xolos.

So‘roqni boshlashdan avval guvoh va jabrlanuvchilarning shaxsini o‘rganish zarur. Bunga ularning tarjimai holi, kasbi, ma’lumoti, ish sharoiti, turmush tarzi, rivojlanish darajasi, qiziqishlari, eng muhim shaxsiy psixologik xislatlari, jinoyat hodisasini qanday qabul qilishi, jinoiy qilmishga, jinoyatchiga munosabati kabi ma’lumotlar kiradi.

Tergovchi so‘roqning rasmiy qismidan avval bo‘ladigan bevosita muloqotda kuzatish orqali guvoh, jabrlanuvchining tashqi qiyofasi, ularning madaniyat darajasi, nutqi, mimikasi, imo-ishoralari, o‘ziga xos xususiyatlari, ko‘zga tashlanadigan psixofiziologik reaksiyalari va holatlari (parishonligi, hayajonlanishi, qo‘rqishi, xotirjamligi, befarqligi, adovati va h.k.), tergovga yordam ko‘rsatish istagi yoki, aksincha, juda kam va muhim bo‘lmagan ma’lumotlar bilan cheklanib qolishga intilishi kabilar haqida ma’lumot oladi. Guvoh, jabrlanuvchining shaxsiga oid

ma'lumotlar tergovchiga ruhiy aloqa o'rnatishi, so'roqning eng oqilona taktikasini tanlashida katta yordam beradi.

Guvohlar va jabrlanuvchilarni chaqirtirishning aniq vaqti va usuli, shuningdek, tergov harakatini o'tkazish sharoiti va joyi psixologik ahamiyatga ega. Umumiy qoidaga ko'ra, guvoh va jabrlanuvchilar iloji boricha so'roq qilinishlari kerak. Biroq, bunda ham istisnoli holatlar mavjud. Agar jabrlanuvchi, ba'zan esa guvohlar ham sodir etilgan jinoyat natijasida ruhiy hayajon, zo'riqish, parishonlik holatida bo'lsalar, so'roqni kechiktirish lozim.

Bezorilik, bosqinchilik, banditizm, terrorchilik, nomusga tegish jinoyatlarini tergov qilayotganda kechiktirib bo'lmas so'rov chog'ida jinoyatchini qidirish va ushlab tash uchun ma'lumotlar olinganidan so'ng, jabrlanuvchilar va guvohlarni takroran batafsil so'roq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, psixologiyada ma'lum bo'lgan reminissensiya, ya'ni takroran xayolda tiklashni yaxshilash hodisasini inobatga olish kerak. Shu bois ko'rsatmalarni tergovchi yetarlicha to'liq emas, tushunish qiyin bo'lgan joylari bor, ko'rsatmalari ish uchun juda muhim bo'lishi mumkin bo'lgan guvoh va jabrlanuvchilarni takroran so'roq qilgan ma'qul. Birinchi so'roq natijasida assotsiativ aloqalar yuzaga kelganidan so'ng o'z-o'zidan eslash jarayoni davom etishi hamda guvoh, jabrlanuvchi jinoyat voqeasi huquqbuzar sha'ni bilan bog'liq muhim faktlar va holatlarni eslashi ham mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan guvoh, jabrlanuvchini chaqirtirish vaqtini belgilashda ish manfaatlarini chaqirtirilayotgan shaxslarning imkoniyatlari va manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilish kerak. Chaqiruv so'roq qilinayotganlarga ortiqcha qiyinchilik va noxush kechinmalar tug'dirmasligi kerak. Zero, bu ularning tergovchi bilan bo'ladigan munosabatlarini qiyinlashtirishi mumkin. Masalan, chaqirilayotgan odamni o'z vaqtini rejalashtira olmaydigan tarzda chaqirtirish, qabulxonada uzoq vaqt kutishga majbur qilish, so'roqni boshqa vaqtga ko'chirish kabilar bo'lmasligi kerak. Guvoh, jabrlanuvchini yaxshisi ishdan tashqari vaqtda, o'quvchilarni esa mashg'ulotdan oldin yoki keyin so'roq qilish kerak.

Agar chaqirtirilayotgan shaxslarning ko'rsatmalari ish uchun juda muhim bo'lsa, ularni chaqirtirish uchun telefondan foydalangan ma'qul. Telefon qo'ng'irog'i nafaqat psixologik aloqa o'rnatishga yordam beradi, balki so'roqqa chaqiriladigan odamlarga xos bo'lgan va kerakli faktlarni

eslashga to'sqinlik qiladigan ortiqcha hayajonni yo'q qilishga imkon beradi. Tergovchi guvoh yoki jabrlanuvchini huquqni muhofaza qilish organlariga taklif qilish faktini uning qarindoshlari, qo'shnilari, begona shaxslardan yashirish uchun ham telefon orqali chaqirtirishi mumkin. Ularni jabrlanuvchi, guvohlarning uy manziliga yuboriladigan yelimlab yopishtirilgan va begona shaxslar tanishishiga yo'l qo'ymaydigan konvertdagi chaqiruv qog'ozi orqali ham so'roqqa chaqirtirish mumkin.

Psixologik jihatdan guvoh, jabrlanuvchini so'roq qilish joyi haqidagi masalani ham hal qilish muhim. Ushbu masala qonunda hal qilingan, guvoh tergov o'tkazilayotgan joyda so'roq qilinadi deb belgilangan bo'lsa-da, so'roq qilishga tabaqalashgan holda yondashish lozim. Agar, masalan, guvohlar, jabrlanuvchilar jinoyat hodisasining ish uchun muhim bo'lgan holatlarini unutgan, ularning mexanizmi, ketma-ketligi, ayrim tafsilotlarini eslay olmasalar, ularni voqea joyida so'roq qilish uchun asos bo'ladi. Uyida, tartibni saqlash jamoat punktida so'roq qilish ham psixologik jihatdan o'zini oqlaydi. Bunda tezkor-taktik mulohazalarga ko'ra jabrlanuvchi, guvohni chaqirtirish faktini oshkor etmaslik nazarda tutiladi.

So'roq qilish joyini tanlashda axloqiy masalalarni ham unutmaslik kerak. Yoshi o'tgan yoki bemor shaxslarni tergovchining huzuriga chaqirtirish tavsiya etilmaydi. Ushbu holda uning o'zi mazkur shaxslarning oldiga borib, ularni so'roq qilgani ma'qul. Buning iloji bo'lmaganida tegishli tergovchi yoki surishtiruv organiga bu shaxsni turar joyida so'roq qilish haqida alohida topshiriq yuborish zarur. Bemor jabrlanuvchi, guvohni faqat shifokor ruxsati bilan va bemor davolanayotgan joyda (kvartira yoki shifoxonada) so'roq qilish mumkin.

So'roqning muvaffaqiyati ko'p jihatdan u o'tkazilayotgan joydagi sharoitga bog'liq. Guvohlarni so'roq qilish tartibining psixologik asoslari qonun normasida keltirilgan. Xususan, aynan bir ish bo'yicha chaqirtirilgan guvohlar alohida-alohida va boshqa guvohlar yo'qligida so'roq qilinadilar, bunda tergovchi aynan bir ish bo'yicha guvohlar o'zaro muloqot qila olmasliklari chorasini ko'rish kerak.

«Ko'z ko'zga tushib», begona shaxslarsiz so'roq qilish eng muhim psixologik qoida hisoblanadi. Guvohlar va jabrlanuvchilarni so'roq qilish odatda tergovchining xizmat kabinetida o'tkaziladi. Kabinetdagi sharoit muhim ahamiyatga ega. Oddiylik, ishga oid va qat'iy uslub ko'pincha ishonchli va jiddiy suhbatga sharoit yaratadi. Butun so'roq davomida tergovchi, jabrlanuvchi, guvohning diqqatini hech narsa chalg'itmasligi,

tergovchiga telefon qo'ng'iroqlari, kabinetga kiruvchi xodimlar xalal bermasligi muhim.

6. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish psixologiyasi

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi hali jinoyatchi emas. Shu bois jinoyatni ushbu shaxs sodir etganmi, degan masalaga javob izlayotganda uning psixologiyasini aniq tushunish zarur. Aybdor javobgarlikdan bo'yin tovlash va jinoyatda ishtirokini yashirishga intilib, atrofdagilardan jinoyat bilan bog'liq kechinmalarini yashirishga harakat qiladi. U o'z xotiralarini tashqi ko'rinishlardan asraydi va bu bilan ularga doimo jonli tus beradi, kechinmalarini yashirar ekan, ularni yanada keskinlashtiradi. Oxir oqibatda o'z hissiyotlari va fikrlarini yashirishga qaratilgan harakatlar uning ruhiy jarayonlarida kuchli buzilishlar hosil qiladi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining protsessual holati yuridik jihatdan jiddiy farqlarga ega bo'lsa-da, psixologik jihatdan bu farqlar unchalik muhim hisoblanmaydi. Jumladan, gumon qilinuvchida uning holati tez-tez o'zgarib turadi, goh o'ziga nisbatan ishonch paydo bo'lishi, faol qarshilik ko'rsatishga intilish, tergovchining imkoniyatlarini yetarli baholamaslik, o'ziga nisbatan ortiqcha ishonish, goh aksincha, g'amginlik, depressiv holat, parishonlik, irodasizlik hosil bo'lishi bilan kechadi.

Gumon qilinuvchidan farqli ravishda ayblanuvchi ko'pincha ishning holati, tergovda mavjud dalillarning mazmuni haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. Biroq dastlabki tergovda gumon qilinuvchida ham, ayblanuvchida ham ko'pgina o'xshash psixologik holatlar, maqsadlar va motivatsiyalar kuzatiladi, binobarin, ularning xatti-harakatlarida ham bular ko'rinadi¹.

So'roq qilinayotganlarning ruhiy holati, harakat motivlari, shaxsiy xislatlari ularning dastlabki tergovdagi xatti-harakatlarini va ularga psixologik yondashuvni, eng samarali taktik va psixologik usullarning tanlanishini belgilab beradi. So'roqda ayblanuvchi turli-tuman hissiyotlarni boshdan kechirishi mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxs fosh bo'lishdan va, albatta, jazolanishdan qo'rqadi. Bu holat odatda uning ruhiyatiga og'ir ta'sir ko'rsatadi, irodasiga muayyan darajada bosim o'tkazadi, yuzaga kelgan holatlarni

¹ *Izoh:* Shu o'rinda va bundan keyin ayblanuvchi haqida aytiladigan hamma fikrlar teng darajada gumon qilinuvchiga ham taalluqlidir.

to'g'ri baholash imkoniyatini pasaytiradi, o'zini nazorat qilishini yomonlashtiradi, uni ruhan siqilgan, depressiv holatga solishi mumkin. Qo'rquv odatda jinoyat sodir etgan shaxsda uni jinoiy javobgarlikka tortishdan ancha avval paydo bo'ladi. Bunday psixologik holatlar so'roq qilinayotgan shaxs bilan psixologik aloqa o'rnatishni qiyinlashtiradi, so'roq samaradorligini pasaytiradi.

So'roqda ayblanuvchi ruhiy larza, yuz bergan voqeadan qarindoshlari va yaqinlari, do'stlari, xizmatdoshlari, qo'shnilar xabardor bo'lishi mumkinligidan xavotirlanib uyalishi mumkin. Atrofdagilarning bahosi va fikrlariga hattoki qat'iy shakllangan g'ayriijtimoiy qarashlarga ega bo'lgan shaxslar ham befarq emasdir. Oshkor bo'lishni istamaslik juda kuchli motiv bo'lib, ko'p jihatdan ayblanuvchining xatti-harakatini belgilab beradi. Bunday motiv aniqlanganida tergovchining vazifasi so'roq qilinayotgan shaxsni to'g'ri va to'liq ko'rsatma berish zarurligiga ishontirishdir. Faqat shugina, biroz bo'lsa-da, yaqin odamlarning xayrixohligini saqlab qolishga yordam beradi.

Tergovchi ba'zan boshqalarning fikri bilan qiziqmaydigan ayblanuvchilar (ko'pincha retsivistlar) bilan uchrashishiga to'g'ri keladi. Ular «ushlanmagan o'g'ri – o'g'ri emas», «pulning hidi yo'q» kabi prinsiplarga asoslanadilar.

Ayrim ayblanuvchilarga o'zi erishgan ijtimoiy, xizmat va moddiy mavqeini yo'qotishdan qo'rqish xos bo'ladi. Shu bois so'roq paytida bunday ayblanuvchi ko'pincha to'g'ri ko'rsatma berishdan bo'yin tovlaydi. Bu o'rinda tergovchi ayblanuvchining mazkur psixologik holatni yengishi uchun uni halol va vijdonan mehnat qilish orqali ijtimoiy mavqeini tiklash, jamiyatning to'la huquqli a'zosiga aylanishi mumkinligiga ishontirishi kerak.

Ayblanuvchining harakat motivlarini shakllantiradigan kuchli psixologik holat ozodlikdan, odatdagi turmush tarzidan mahrum bo'lish, jinoyatchilar orasida bo'lib qolishdan qo'rqish tashkil qiladi. Bunday hissiyot ayniqsa birinchi marta jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga xosdir. Ushbu vaziyatda ayblanuvchi faqat aybini rad etish, yolg'on ko'rsatma berish orqaligina ushlab turish, hibsdan saqlash, qamoqqa olish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq hukm chiqarilishidan qutulib qolish mumkin deb hisoblaydi. Unda tegishli psixologik holat yuzaga keladi, tergovchi yengishi zarur bo'lgan qarash shakllanadi. Buning uchun ayblanuvchini aybni isbotlash uning e'tirofiga uncha bog'liq emasligiga, hal qiluvchi darajada butun dalillar

majmuiga bog‘liq ekanligiga ishontirish talab qilinadi. Bu o‘rinda chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish hamda jinoyatni ochishga faol ko‘maklashish sud uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holat hisoblanishini tushuntirish talab qilinadi.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, guruh tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarda ayblanuvchi guruh ishtirokchilariga har xil munosabatda bo‘ladi. Agar u kimgadir ko‘p jihatdan qarzdor bo‘lsa, ushbu shaxsning jinoyatga aloqadorligini yashirishga urinadi, bunda uning yordami va qo‘llab-quvvatlashidan umidvor bo‘ladi. Ko‘pincha jinoyatchilar guruhidagi psixologik munosabatlar tizimi kuchga bo‘ysunish, qo‘rquvga, boshqa tuban intilishlar va instinktlarga asoslanadi. Shu bois tergov jarayonida jinoiy guruh ishtirokchilari bir-birlaridan ajratilganda ushbu asosda qurilgan munosabatlar buzilib ketadi. Ayblanuvchida uni jinoiy guruhga tortgan, jinoiy javobgarlikka jalb qilinishiga sabab bo‘lgan shaxslarga nisbatan adovat mustahkamlanib boradi. Tergovchi ayblanuvchining bunday ruhiy holatidan foydalanishga, uning oldida jinoiy guruhda mavjud bo‘lgan munosabatlar tizimini ochib berishga, jinoyatchilar orasidagi soxta o‘rtoqlik hissiyoti nimaga asoslanganligini ko‘rsatishga, bu bilimlardan so‘roq qilishning eng samarali taktik usullarini tanlashda foydalanishga haqlidir. Biroq ularni jinoiy guruh ishtirokchilarining psixologik o‘zaro munosabatlarini inobatga olgan holda tanlash zarurligini yodda tutish lozim, chunki tuban hissiyotlar va intilishlarni qo‘zg‘atish, ulardan foydalanishga asoslangan usullarni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Gumon qilinuvchi, hatto ayblanuvchiga aylanib qolgan aybsiz kishi boshidan kechirayotgan psixologik holat alohida o‘rin tutadi. Shubhasiz u g‘azab, jahl, alam hislarini sezadi, asoslanmagan shubhalardan tezroq qutulishga, aybsizligini isbotlashga intiladi, shuningdek, chorasizlik, o‘ziga qarshi dalillarni rad eta olmaslik, atrofdagilarning o‘zi haqidagi noto‘g‘ri fikrlarini yengish hislarini sezishi mumkin.

So‘roqning samaradorligi ko‘p jihatdan so‘roq qilinayotgan shaxsning psixologik holatiga, ayblanuvchining o‘z aybini anglashiga, to‘g‘ri ko‘rsatmalar berishga tayyor ekanligiga bog‘liq. Tergovchi salbiy psixologik holatlarni taktik jihatdan mohirlik bilan susaytirishi yoki zararsizlantirishi hamda ijobiy tomonlarni kuchaytirishi, qo‘llab-quvvatlashi kerak.

7. Yuzlashtirish psixologiyasi va uning o'ziga xosligi

Yuzlashtirish tergov harakati bo'lib, aynan vaqtda shaxsni so'roq qilishdir. Bu harakatning maqsadi jinoyatga oid muhim holatlar to'g'risida avval olingan ko'rsatmalarda mavjud bo'lgan qarama-qarshilikni yo'q qilishdan yoki aniqlashdan iborat. Bu tergov harakati ikkita ayblanuvchi (gumonlanuvchi), ayblanuvchi (gumonlanuvchi) va guvoh, ayblanuvchi (gumonlanuvchi) va jabrlanuvchi, ikkita guvoh, jabrlanuvchilar o'rtasida o'tkazilishi mumkin.

Yuzlashtirish ma'lum ma'noda ruhiy xususiyatlarga ega bo'lib, boshqa so'roq qilish harakatlaridan quyidagilari bilan farq qiladi.

1) yuzlashtirish paytida murakkab ruhiy munosabatlar vujudga keladi. Tergov ziddiyatli tus oladi, chunki shaxsning birinchi bergan ko'rsatmalari yuzlashtirish paytida to'g'ri kelmasligi mumkin;

2) yuzlashtirishda so'roq qilinuvchilardan biri haqiqiy ko'rsatma bersa, ikkinchisi yolg'on ko'rsatma beradi;

3) yuzlashtirishda jinoyat hodisasi va so'roq predmetiga aloqador ikkita shaxs uchrashadi.

Yuzlashtirish qatnashchilari ruhiy jihatdan unga tayyor bo'lishlari lozim. Yuzlashtirishdan avval tergovchi quyidagi tayyorgarlik harakatlarini o'tkazishi kerak:

– ko'rsatmalardagi ziddiyatlarga baho berib, ular ish bo'yicha ahamiyatga ega yoki ega emasligini aniqlashi;

– ish bo'yicha katta ahamiyatga ega ziddiyatlarni bartaraf etish uchun yuzlashtirish tergov harakatini o'tkazish va uni o'tkazish to'g'risida taktik qarorga kelish (ziddiyatlar boshqa tergov harakati asosida yo'q bo'lishi mumkin emas);

– yuzlashtirish vaqtini va joyini belgilash;

– yuzlashtirishda qatnashuvchilarning shaxsini o'rganish va ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash;

– yuzlashtirish rejasini tuzish lozim va unga yuzlashtirish predmeti, unda ishtirok etuvchi shaxslarning yuzlashtirishda qiladigan xatti-harakat variantlarini tahlil qilish, so'roqning, savollarning shakli va ketma-ketligini belgilash;

– yuzlashtirishda ishlatiladigan qayd qiluvchi vositalarni (qalam, qog‘oz, kompyuter, magnitofon, videoyozuv asboblari, yoritkichlarni va h.k.) tayyorlab qo‘yish;

– yuzlashtirishga chaqiriladigan shaxslarning tegishli sanada va vaqtda kelishi, shuningdek yuzlashtirishda boshqa shaxslarning ishtirok etishi zarur deb topilsa (masalan, voyaga yetmagan ayblanuvchining himoyachisi), bunday shaxslarni yuzlashtirishga chaqirish choralarini ko‘rish.

Yuzlashtirish o‘tkazilgani to‘g‘risida bayonnoma tuziladi va unda tergovchining savollari va qatnashchilarning javoblari ketma-ketlikda qayd etiladi. Yuzlashtirishda ko‘rsatmalarni qo‘shimcha qayd qilish uchun magnitofon yoki video yozuv uskunasi ishlatilishi mumkin va bu to‘g‘risida bayonomada tegishli belgi qo‘yiladi va ularning ishlatilishi haqida qatnashuvchilar yuzlashtirishdan avval ogohlantiriladilar.

Yuzlashtirish jarayoni boshlanishida avval yuzlashtirilayotgan shaxslarning bir-birlarini qanchalik bilishlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar o‘rganiladi. Shundan so‘ng ular navbatma-navbat sodir etilgan voqea, hodisa yuzasidan o‘zlarining ko‘rsatmalarini beradilar. Tergovchi haqiqatni aniqlash maqsadida so‘roq qilinayotganlarning bir-birlariga savol berishlariga ruxsat beradi.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, so‘roq jarayonida yuzlashtirilayotgan ikki shaxs bir-biriga qarama-qarshi fikrda, nizoli vaziyatda bo‘lishadi. Shu o‘rinda tergovchi birinchi navbatda diqqatini aniq va to‘g‘ri ko‘rsatma berayotgan shaxsning ko‘rsatmalariga qaratishi taktik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi.

Shuningdek, yuzlashtirish jarayonida tergovchi o‘z ruhiy, emotsional-hissiy holatini to‘liq boshqarishi va murakkab, nizoli vaziyatlarda tinchlik va xotirjamlikni saqlashi hamda so‘roq qilinayotgan shaxsni chuqur o‘rganishi natijasida uning shaxsiy xarakteridagi «nozik joylarini» bilishi zarur.

Yuzlashtirish jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy-psixologik effektlar ingibitsiyasi, ya’ni boshqa odamlarning qatnashishi effektidan samarali foydalanish zarur. Ushbu vaziyatda shaxs xulq-atvori (modifikatsiya) o‘zgaradi, ya’ni u qatnashchilarning ta’siridan yo‘nalish oladi, natijada so‘roq qilinayotganda himoyalaniş mexanizmining ustunlik qilishi kuzatiladi.

Yuzlashtirishdan asosiy maqsad tergov jarayoniga qarshi, yolg‘on ko‘rsatma berayotgan shaxsni aniqlashdir. Bizga ma’lumki, aniq

ma'lumotlar psixologik ta'sir ko'rsatish omillari asosida olinadi. Shu ma'noda sodir etilgan voqeani birma-bir, to'liq tasvirlash qarama-qarshi shaxslarga psixologik ta'sir ko'rsatishning hal qiluvchi usullaridan biri sanaladi. Shuningdek, yuzlashtirish jarayonida ko'rsatma berayotgan shaxsga nisbatan hech qanday tazyiq va boshqa psixologik ta'sirlar o'tkazilishi mumkin emas.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Tergov harakatlarini olib borishning o'ziga xos psixologik asoslari nimalardan iborat?
2. Voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish qanday o'ziga xosliklarga ega?
3. Tintuv o'tkazishga psixologik ta'rif bering.
4. Tergovchi shaxsidagi professionallik sifatlariga tavsif bering.
5. Yashirish joylarini tanlashda hisobga olinadigan psixologik omillar nimalardan iborat?
6. So'roq qilish jarayoniga psixologik tayyorgarlik ko'rishda nimalarga e'tibor qaratiladi?
7. Yuzlashtirish jarayonida ishtirokchilarning psixologik holatiga ta'rif bering.

XII bob.

**JINOYATCHINI QIDIRISH VA JINOYATNI OCHISH
FAOLIYATINING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

1. Jinoyatlarni ochish faoliyatining psixologik xususiyatlari

Yuridik psixologiya fanining kriminal psixologiya sohasi jinoyatlarni ochishda jinoyatchi shaxsning g'ayriijtimoiy xulqi sabablarini ikki guruhga – ijtimoiy va biologik sabablarga ajratgan holda o'rganadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiylik yoki biologiklik omillariga «ruhiylik» nomli tizim hosil qiluvchi omilni kiritish hamda inson xulqining sababiy bog'lanishlari (determinatsiyasi) bilan bog'liq barcha muammolar majmuini *ijtimoiy-psixologik-biologik* sabablar deb atash to'g'ri bo'ladi. Bunda «psixologik» jihatning o'rtada joylashgani uning ham ijtimoiy, ham biologik omil uchun birlashtiruvchi funksiyaga egaligini anglatadi. Shu bois jinoyatlarni ochish jarayonida ichki ishlar xodimi shaxsning «*ijtimoiy-psixologik-biologik*» tuzilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Jinoyatlarni ochish faoliyatida shaxsning xulqida namoyon bo'luvchi g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni hisobga olish muhimdir. Chunki g'ayriijtimoiy xulq, normadagi xulq kabi, ko'p omilli bo'lib, u bir yoki bir qancha sabablarning oqibati emas, balki alohida olingan individual axloqiy ko'rinishning ko'p omillar bilan bog'liqligi va ehtimolli xususiyati natijasidir. Bu o'rinda shaxsning tipik individual-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini aniqlash ustun ahamiyatga ega. Ijtimoiy va biologik omillar o'z-o'zicha emas, balki jinoyatchi shaxs xulqining o'ziga xosligini namoyon qiluvchi uning shaxsiy-psixologik xislatlari bilan birlashgan holda g'ayriijtimoiy xulqning aniqlovchilariga aylanadi.

Inson tomonidan jinoyat sodir etilishida shaxs xulqi, ehtiyojlari, anglangan va anglanmagan mayllari tizimi, qarashlari hamda qadriyat-lari, oldiga qo'ygan maqsad va unga erishish istagi birinchi o'ringa chiqadi.

Aksariyat jinoyatchilarning xulqiga ijtimoiy qadriyatlarga moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) va o'zini o'zi boshqarishdagi nuqsonlar xosdir. Individning o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarining past darajada bo'lishida, uning g'ayriijtimoiy mayllari, odatlari nafaqat

nazorat qilinmaydi, balki ularning o‘zlari xulqning maqsad hosil qiluvchi mexanizmlariga aylanadi. Ya’ni, g‘ayriijtimoiy xulq individning o‘z ijtimoiy mas’uliyatini himoya qilish (o‘zini oqlash) motivatsiyasi, umum qabul qilingan ijtimoiy qadriyatlarning qadrsizlanishi asosida amalga oshiriladi. Inson xulqi uning ehtiyojlari va yo‘nalganlik sohasi, qabul qilgan qadriyatlar tizimi, umuminsoniy madaniyatdan bahramandlik darajasi bilan bog‘liqdir.

Inson xulqini aniq instinktiv (tug‘ma) mayllari emas, balki ijtimoiylashuv darajasi yuzaga keltiradi. Inson xulqidagi tashqi holatlar tizimi unda shakllangan ichki ruhiy shart-sharoitlar tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu ichki ruhiy shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- qadriyatlar tizimi;
- axloqiy yo‘nalganlik;
- xatti-harakatning umumlashgan usullari;
- o‘zini o‘zi tartibga solishning psixodinamik xususiyatlari.

Shaxs qanchalik kam ijtimoiylashgan bo‘lsa (bu, odatda, jinoyatchi shaxsning o‘ziga xos xususiyatidir) unda biologik omillarning ustun (dominanta) bo‘lish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Inson ongining rivojlanishi qanchalik cheklangan bo‘lsa, uning xulqida iyerarxik jihatdan quyi turadigan motivatsiya darajalari shunchalik katta rol o‘ynaydi.

Kriminolog olim Z. S. Zaripov va I. Ismailovlar jinoiy xulq shakllanish jarayonini quyidagi toifalarga ajratishadi: 1) shaxs ehtiyoji va manfaatlarini buzilishi bilan bog‘liq jinoiy xulq shakllanish jarayoni; 2) shaxs ehtiyoji (manfaat) va imkoniyati o‘rtasidagi farq (qarama-qarshilik) bilan bog‘liq jarayonlar; 3) shaxs ma’naviy va huquqiy tasavvurining, qadriyatlar va ijtimoiy yo‘nalishining buzilishi bilan bog‘liq jarayonlar; 4) qaror qabul qilish va amalga oshirishdagi nuqson va kamchiliklar bilan bog‘liq jarayonlar¹.

Jinoiy xatti-harakat jarayonlari quyidagi asosiy qismlarni o‘z ichiga oladi: motivatsiya, qaror qabul qilish va uni amalga oshirish. Har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xatti-harakat shaxsdagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan tashqi muhit o‘rtasidagi aloqaning natijasi bo‘lib, muayyan jinoiy xatti-harakat jarayonini o‘zida aks ettiradi.

Shu ma’noda, aksariyat jinoyatchi shaxslarning xulqida janjalkashlik, tez ta’sirlanish, salbiy mayllarning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi,

¹ Qarang: *Zaripov Z.S., Ismailov I. Криминология. – Т., 1996. – Б. 130.*

o‘z xulqini ijobiy qadriyatlar va motivatsiyalar bilan boshqarish mexanizmining sustligini kuzatish mumkin.

Shu ma’noda, aksariyat jinoyatchilarda o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan mayllarning tasodifiy vaziyatlarga bog‘liqligi xosdir. Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining tarqoqligi aksariyat jinoyatchilarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy psixologik jihatlardan biridir. Jinoyatchilarning ayrim xudbinona intilishlari g‘ayriijtimoiy tus olganda ularning axloqiy tizimi ong osti mayllari darajasida boshqariladi.

Yaqin o‘tmishda bo‘lgan freydizmning asossiz tanqid qilinishi bizda «ong osti» tushunchasiga salbiy munosabatni yuzaga keltirdi. Hozirgi ilmiy psixologiya «ong osti omilini» «o‘z» o‘rniga qaytardi.

Ruhiy boshqaruvlarning ong osti mexanizmlari barcha maqsadli harakatlarda, axloqiy qarashlarning keng miqyosli tizimida namoyon bo‘ladi. Ong darajasi qanchalik past bo‘lsa (aksariyat jinoyatchilarga ana shu belgi xos), xulqni tartibga solishning ong osti mexanizmlari shunchalik katta rol o‘ynaydi.

Insonning asosiy axloqiy fondi umum qabul qilgan me‘yorlarga aylanib ulgurgan. Muayyan shaxs xulqining mustahkamlangan, umumlashgan usullari uning tabiatiga xos xislatlardir.

Ijtimoiylashgan shaxs barcha vaziyat va sharoitlarda barqaror va yaxlitdir, jinoyatchi shaxs esa vaziyatga tobe bo‘ladi. Shu bilan birga, ashaddiy jinoyatchilarga xos barqaror g‘ayriijtimoiy yo‘nalganlik ularda tegishli ustunlik qiluvchi kriminogen motivlar, jamiyat uchun xavfli anglangan, ularning hayoti va faoliyatidagi boshqa barcha ko‘rinishlarni o‘ziga bo‘ysundiruvchi intilishlar borligidan dalolat beradi.

O‘z navbatida, shaxs o‘zining ruhiy xislatlariga ko‘ra jinoyatchining ijtimoiy roliga muqarrar mahkum etilishi mumkin emas. Biroq, har bir jinoyatda uning subyektiv tomoni sifatida jinoyatchi shaxsning ruhiy holatlari doimo namoyon bo‘ladi.

Jinoyatchilar bir-birlaridan hamda ijtimoiy hayotga moslashgan, qonunga itoatkor odamlardan «jinoiy jihatlari» bilan emas, balki hayoti va faoliyatining turli sharoitlarida shakllangan fe‘li-atvoriga xos salbiy xislatlari bilan farq qiladilar.

«Jinoiy ruhiyat» ham, «jinoiy vorisiylik» ham mavjud emas. Ayni vaqtda ruhiyat ham, uning tabiiy shart-sharoitlari ham har qanday axloqiy aktga, jumladan g‘ayriqonuniy harakatlarga «daxldordir».

Ijtimoiy qarashlari qat’iy bo‘lmagan irodasiz insonda hatto uning tabiiy mayllari ham g‘ayriijtimoiy axloq shakllarida, ya’ni jinsiy instinkt – nomusga tegishda; faol mudofaa refleksi – shaxsga tajovuz qilishda;

o'zini saqlash instinkti – dezertirlikda namoyon bo'lishi mumkin. Huquqiy belgilariga ko'ra bir xil jinoiy qilmish turli ruhiy omillardan kelib chiqishi mumkin. Masalan, o'g'rilik jinoyati aybdorning shaxsiy yo'nalishi bilan ham, irodasining sustligi va ishonuvchanligi bilan ham, patologik xususiyati bilan ham sodir etilishi mumkin.

Insonning jinoiy qilmishida namoyon bo'ladigan shaxsiy xislatlari «huquqiy ongdagi qandaydir umumiy nuqsonlar»dan emas, balki aniq axloqiy-psixologik qusurlari (baxillik, shafqatsizlik, ijtimoiy salbiy odatlar)dan dalolat beradi.

Rus olimi A. R. Ratinovning o'tkazgan tadqiqotida jinoyatchi shaxslar bilan qonunga itoatkor fuqarolar o'rtasida jiddiy psixologik farqlar borligi kuzatilgan. Ya'ni, shkalali tahlilda tekshiriluvchilarning qonunga itoatkor guruhi barcha asosiy qadriyatlarga o'zining ijtimoiy-ijobiy munosabatini, o'z hayotining mazmunini baholashi bo'yicha jinoyatchi shaxslardan ancha ustun ekanligi ma'lum bo'lgan. Jinoyatchi shaxslar bilan qonunga itoatkor shaxslar o'rtasidagi farqlar ijtimoiy muhit, faoliyat, badiiy zavq, nikoh, sevgi, farzandlar, oila kabi qadriyatlarda yorqin ko'rinadi¹.

Har bir insonda ijobiy xulq mavjud bo'lib, bu xulq anglangan hamda qarorni erkin, to'g'ri qabul qilsa, vaziyatning quliga aylanmaydi, albatta, qonunga itoatkor shaxslarda ushbu xislatlarni kuzatish mumkin.

Inson xulqining ruhiy boshqaruv darajasi qanchalik past bo'lsa, uning xulqida vaziyat bilan bog'liq holatlar shunchalik katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ko'pchilik jinoyatchilarga haqiqatan ham xulqining vaziyat bilan bog'liqligi xos bo'lib, bu uning fe'liga xos jihatdir.

Inson o'zi uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan narsa, hodisa sababligina faol harakat qiladi. Qadriyatlar tizimi individual bo'lib, u insonning ruhiy faolligini belgilab beradi: bir kishi uchun hayotiy muhim bo'lgan narsa, boshqa shaxs uchun unchalik muhim bo'lmasligi mumkin.

Jinoyatchining xulqi ham qadriyatlar asosida yo'nalgan. Ammo jinoyatchining qadriyatlari buzilgan, ular ijtimoiy qadriyatlarning umum e'tirof etgan tizimiga mos kelmaydi. Shu ma'noda jinoyatlarni ochish jarayonida sodir etilgan jinoyatning sababini aniqlash yaxshi samara beradi. Chunki ***jinoyat motivi*** jinoiy qilmish sodir etishga ahd qiluvchi anglab yetgan his-tuyg'udir.

¹ Qarang: *Ратинов А. Р. Судебная психология для следователей.* – М., 1987. – С. 59.

Jinoyatlarni ochishda avvalo jinoyatchining intellektual-ma'naviy xislatlari, qadriyatlari, ruhiy va jismoniy holatini hisobga olish zarur. Shuningdek, jinoyatchi shaxsining ruhiy holatlarini mantiqiy tahlil etish, u sodir etgan jinoyatni malakali baholash, jumladan individual bashorat qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sodir etilgan jinoyatni ochishda jinoyatchi to'g'risida har tomonlama chuqur tasavvurga ega bo'lish uchun jinoiy harakatning vaqti, joyi va boshqa jihatlari to'liq psixologik tahlil etilishi, ya'ni jinoyat sodir etilishining yashirin motivlari va maqsadlarini inobatga olish zarur.

Jinoyatchi shaxs jinoyatni nima maqsadda sodir etishi mumkin?

Aynan mana shunday muammoli savol qo'yish jinoyatchilikka qarshi kurashishda, ayniqsa, agar u «o'z kasbi»ni puxta biladigan retsivist tomonidan sodir etilsa, unga qarshi kurashish o'ta muhim hisoblanadi. Bu borada jinoyat-qidiruv faoliyati mutaxassisleri shunday xulosaga kelgan: *«Jinoyatchilikka qarshi kurash bu xuddi ziddiyatdek, ya'ni ikki tomon ham o'ziga xos bir-biriga qarshi xabarga ega bo'ladi va bu xabarlar natijasida ikkala subyekt ham bir-birining eng nozik tomonini bilgan holda kurash olib boradi»*.

Jinoyat sodir qilgan shaxsning asosiy maqsadi:

- 1) o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish;
- 2) qilgan jinoyatining izini yo'qotish.

Jinoyatchi shaxslarning ichki ruhiy olami va an'analaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ular ko'p hollarda jinoyatni mahorat bilan (professional) sodir etadilar, shuningdek, boshqa shaxslarni qo'rqitish, aldash yo'li bilan jinoyat sodir etishga majbur qiladilar.

Jinoyatchi shaxslar iloji boricha ichki ishlar idoralari xodimlari bilan muloqotda bo'lishni xohlashmaydi, ulardan uzoqroq yurish, o'zlarini olib qochishga harakat qiladilar. Agar ular bilan muloqotga kirishadigan bo'lsa, o'zlarining faqat ijobiy tomonlarini ko'rsatishga intiladilar, chunki ijobiylik ularning har xil voqea-hodisalardan keyin gumon qilinmasligini ta'minlashi mumkin, degan farazni yuzaga keltirish mumkin.

Jinoyatlarni ochish va tergov qilishda tergovchi operativ qidiruv xizmati xodimi bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Mazkur hamkorlik jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni topishda alohida o'rin egallaydi, ya'ni ular tergov faoliyatini tezkor axborot bilan ta'minlaydilar.

Shu o‘rinda operativ qidiruv faoliyatining alohida psixologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yashirin jinoyatlarni ochish;
- jinoyatchining qarshi harakati va qarshilik ko‘rsatishini yengish;
- muayyan rolga qirish va ayyorlikni qo‘llash.

«Operativlik» atamasi muayyan amaliy sharoitlarga javoban amaliy harakatlarni amalga oshirilishini bildiradi. Operativ faoliyat yuqori darajada harakatchan (dinamik) mohiyatga ega bo‘lib, rasmiyatlantirilishi mumkin emas.

Jinoyat qidiruvi ochiq usul va vositalardan tashqari, shaxsiy qidiruv, yashirin kuzatuv, yopiq manbalardan axborot yig‘ish, maxsus hisobga olish, operativ texnika kabi yashirin vositalarni qo‘llash huquqiga ega.

Operativ-qidiruv yo‘llari orqali tergovchi quyidagilarni olishi mumkin:

- obyektlar to‘g‘risida ma’lumotlar, shuningdek o‘z ichida isbotlash axboroti ehtimoli bo‘lgan ashyoviy dalillar;
- dalillar yig‘ishning taktik usullarini belgilovchi sharoitlarga yo‘naltiruvchi ma’lumotlar;
- dalillarga to‘g‘ri baho berishga ko‘maklashuvchi ma’lumotlar;
- gumon qilinayotgan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotlar.

Yuqorida ko‘rsatilgan fikrlar isboti sifatida odam o‘ldirish kabi o‘ta og‘ir jinoyatlarni qidirish, topish va tergov qilish harakatlarining umumiy tarkibini ko‘rib chiqamiz.

1. Jinoyatchi shaxsning jinoyat sodir etishga qadar bo‘lgan psixologiyasi tahlili:

– qonunbuzar shaxsning jabrlanuvchi bilan jinoyat sodir etilishiga qadar bo‘lgan aloqasi, jabrlanuvchining xulq-atvori bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarni bilishi, jabrlanuvchi bilan nizoli munosabatlarni rivojlantirish, jinoyatning asosiy yo‘naltiruvchi motiviatsiyalarini, jinoyatni amalga oshirishning dasturini belgilash va amalga oshirish shartlarini aniqlab olish;

– jinoyatning qurol va vositalarini olish yoki yasash (mutaxassislar bilan maslahat qilish, adabiyotlarni o‘rganish);

– jinoyatni hech qanday to‘siqlarsiz yashirin tarzda amalga oshirish uchun zamin tayyorlash, kelgusida qotillikni yashirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

2. Jinoyat sodir etishning individual xususiyatlari mexanizmini tahlil qilish:

- jabrlanuvchi bilan jinoiy aloqaning xulq-atvorga bog‘liq xususiyatlari (jinoiy o‘zaro aloqada boshlang‘ich bosqichining xususiyatlari);
- qotillikning turli usullarida tan jarohati yetkazish mexanizmining operatsional xususiyatlari: qarshidan, o‘rtacha va uzoq masofadan turib o‘q otish, pistirma yoki binodan turib o‘q uzish, qo‘l, sirtmoq bilan bo‘g‘ish, turli moddalar va usullar bilan zaharlash, tepalikdan tashlab yuborish, mashinada bosish, yurib ketayotgan avtotransportdan uloqtirib yuborish, jabrlanuvchini yordamga muhtoj holatga keltirish va uni hayot uchun xavfli bo‘lgan sharoitda qoldirish va hokazo.

3. Jinoyat izlarini tahlil qilish:

- murdadagi tan jarohatlari, kiyim-kechakdagi shikastlar;
- murda tanasida va kiyimida kuyish alomatlarining borligi;
- jabrlanuvchi tanasida tirnoq va tish izlari, shuningdek biologik kelib chiqishga ega boshqa izlarning borligi (tupuk, qon, sperma, soch, shuningdek tirnoq ostidagi moddalarning biologik komponentlari);
- voqea sodir bo‘lgan joyda kurashish izlari (jinoiyatchi tana a‘zolari qismlari (tizza, bilak, kaft), shuningdek jinoiyatchi poyafzalining izlari);
- jinoiyatchi tomonidan foydalanilgan transport izlari, uning tanasi, poyafzali va kiyimidagi izlar, mikroizlar, (kiyim tolalari, qo‘llanilgan qurollarning mikro zarralarining borligi);
- gumonlanuvchi yashash joyida mikroizlarning mavjudligi, jinoyatni yashirish alomatlari.

4. Jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari tahlili va jinoyat sodir etish sabablarini o‘rganish:

- jinoiyatchining anatomik-fiziologik va shaxsiy xususiyatlari to‘g‘risida ehtimolli xulosalar (kriminlashish darajasi, xulq-atvorning jinoiy usullarini bilishi, jinoiy maqsad qo‘yish va unga erishishda individual-operatsional afzalliklar);
- jinoyat sodir etishning ehtimolli motivlari (qasd, o‘ch, rashk, affektiv zo‘ravonlik va h.k.);
- shaxsga oid aksentuatsiyalar va psixik anomaliyalar (muayyan vaziyatga mos kelmaydigan to‘satdan yuzaga keladigan, noadekvat xulq atvor, xatti-harakatlar, bema’ni shafqatsizlik, sadizm, jinsiy patologiya, harakatlarning tor yo‘nalishda tanlanganligi va hokazo).

Jinoyat qidiruv xodimlari shaxslarni profilaktika inspektorlarining tavsiyasi bilan tekshirishi mumkin. Ko‘p hollarda jinoiyatchi shaxslar ichki ishlar xodimi, ya’ni profilaktika inspektorlari bilan muomalasini

yaxshi qilishga harakat qilishadi, o'zini ijobiy tomondan ko'rsatib yuradi va bundan foydalanib, jinoyat sodir qiladi. Jinoyatchi shaxslar o'zlari haqida biror-bir yomon fikr yuzaga keltirmaslikka harakat qiladi, asosan o'zlarini boy qilib ko'rsatmaydi, agar jinoyat, masalan, o'g'rilik sodir qilgan bo'lsa ham tanishlaridan hammaning oldida pul qarz so'raydi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari turli toifadagi jinoyatchilarning psixologik xususiyatlariga, sodir etgan jinoyatiga qarab, sodir etilgan jinoyatning asosiy maqsadi va motivlarini mukammal bilishlari, zudlikda ehtiyot choralarini ko'rishlari, shuningdek, jinoyatchi shaxs hamda jinoyatchi guruhlarning qilgan jinoiy xatti-harakatlari, ularning psixik holatlari, individual psixologik xususiyatlarini jinoyatni ochish jarayonida psixologik bilimlar va usullardan mohirona foydalangan holda ochish qobiliyatiga ega bo'lishlari davr talabidir.

2. Qidiruv faoliyatining psixologik tuzilishi

Jinoyat sodir qilgan shaxslarni qidirib topish va qo'lga olishda tezkor xodim jabrlanuvchi, guvoh, qidiruvdagi shaxslar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Chunki olingan xabar, ma'lumot shaxsning qayerga ketishi, kim bilan bo'lishi, nima uchun bu jinoyatni aynan mana shu vaqtda sodir qilganligi haqida o'ylashga, xayoliy obrazini yaratishga imkon beradi. Qayd etib o'tganimizdek, har qanday jinoiy harakat o'zining dinamik xususiyatiga ega, sababi har bir qilmishning boshlanish va oxirgi bosqichi bo'lishi tabiiy. Ma'lumki, faoliyatida jinoiy harakat ikki bosqichga bo'linadi:

- 1) motivatsion, ya'ni boshlang'ich, tayyorgarlik bosqichi;
- 2) maqsadning qat'iyiligi, ya'ni maqsad yo'lida irodaviy kuch ishlatish natijasida biror-bir qilmishning sodir etilishi.

Xodim qidiruvni amalga oshirishda sodir etilgan jinoyatga qarab jinoyatchining xulq-atvorini psixologik bashorat qilishi va xayolan uning psixologik portretini ongida tasavvur etishi zarur. Sababi, jinoyat sodir etilgandan so'ng qidiruvdagi shaxsning ruhiyatida o'zgarishlar bo'ladi va bu ko'p jihatdan uning psixologik tuzilishi temperamenti, xarakteri, qobiliyati va yo'nalganligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, xodim qidiruv faoliyatini amalga oshirishda ko'yidagi psixologik tizimlilikka e'tibor qaratishi zarur:

- 1) sodir etilgan jinoyat ongsiz yoki ongli, reja asosida amalga oshirilganligini hisobga olish va shu asosda qidiruv tasmollarini tuzish;

2) jinoyat ayrim ijtimoiy rollarning buzilishi natijasida yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganligi. Chunki professional jinoyatchilarda oldindan tayyorgarlik ko'rish natijasida hissiy emotsional zo'riqish kamroq bo'ladi.

Har qanday jinoyat sodir qilgan shaxsni psixologiyasida doimo mening sodir qilgan jinoyatimni hech kim topa olmasligi zarur, buni uchun men barcha shart-sharoitlarni ongli ravishda amalga oshirib qo'ydim, degan fikr turadi. Ko'pincha retsediv jinoyatchilar jinoyat sodir qilishlaridan oldin ilgari sodir qilgan jinoyatlaridagi xatolarini hisobga oladi, uni o'zicha tahlil qiladi va ichki ishlar xodimi isbotlay olmasligi kerak, degan xayol bilan yuradi.

Jinoyat sodir qilgan shaxslarni qidirish faoliyatini psixologik jihatdan quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish lozim.

Birinchi bosqichda qidiruvning sababi, maqsadi, jinoyatni kim yoki kimlar tomonidan sodir etilgani, jinoyatning sodir etilish usullari va jinoyatchilarning jinoyat sodir qilishdan maqsadlari va ularning vazifalari o'rganiladi.

Ikkinchi bosqich – guvohlar va ularning ko'rsatmalarida qanday psixologik xususiyatlar xosligi. Jinoyat sodir qilishda jinoyatchi shaxslarning psixologik jarayonlarini o'rganish, ya'ni:

- jinoyatchining tashqi ko'rinishini idrok etish;
- jabrlanuvchining tashqi ko'rinishini idrok etish;
- jinoyatchi shaxsning xatti-harakatlarini esda saqlab qola bilish;
- jinoyatchi shaxsning yuz tuzilishini tasvirlab berish.

Uchinchi bosqich – jinoyatchi shaxs haqida ma'lumot to'plash va ularni tahlil qilish:

- jinoyatchi shaxsning tashqi ko'rinishi haqida tasavvurga ega bo'lish;
- jinoyatchi shaxs obrazini xayoliy tasavvur qila bilish;
- yashirinish joylarini taxmin qila bilish;
- qidiruvdagi shaxsni qo'lga olish uchun qo'llanadigan usullarni o'ylab topish.

To'rtinchi bosqichda xodim qidiruv harakatlarini amalga oshirishda quyidagi holatlarni aniqlashga e'tibor qaratadi:

- qidiruvdagi shaxsning ehtimoliy harakatlari va yashirinishdan maqsadi;
- uning yashirinish niqoblari;
- odatlari, qiziqishlari;
- xarakteri va temperamenti;

- qidiruvdagi shaxsning yaqin qarindoshlari, tanishlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish;
- qidiruvdagi shaxsning boshqa shaxslar bilan o'zaro aloqasi;
- qidiruvdagi shaxs qidiruv harakatlarini sezganda o'zini chetga olishi va aldash usullari;
- qidiruvdagi shaxsning intellektual sifatlarini hisobga olish va boshqa shu kabi psixologik tomonlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qidiruvdagi shaxs xatti-harakati dinamik xarakterga ega. U qidiruvda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida vujudga keladi va o'zgarib boradi. Xodimda qidiruv ishlarini olib borish uchun quyidagi psixologik sifatlar: psixologik tayyorgarlik, kasbiy mahorat, rivojlangan xotira, mantiqiy tafakkur muhim hisoblanadi.

Shu ma'noda yashiringan jinoyatchining shaxsi to'g'risida tasmollarni quyidagi ma'lumotlarga ko'ra ilgari surish mumkin:

- jabrlanuvchi va shohidlarning jinoyatchining tashqi ko'rinishi, ketgan yo'nalishi va u qo'llagan transport to'g'risidagi ko'rsatmalari;
- jinoyat usullari va motivlari to'g'risida; jinoiy xulq-atvorning moddiy materiallardan mustahkamlangan izlaridan, jinoyat sodir etish natijasida voqea sodir bo'lgan joylarda qolgan izlar bo'yicha;
- jabrlanuvchining bedarak yo'qolishi va u bilan birga bo'lgan hamrohlarning aniqlash natijasiga ko'ra.
- mazkur qotillikka muqaddam shaxsga qarshi jinoyatlarga, shuningdek qotillik sababli mulkning o'g'irlanishiga daxldor shaxslarni tekshirish bo'yicha.

Qotillik bilan bog'liq jinoyatlarda psixologik xususiyatga ega holatlarni tahlil qilish. Jinoyat tarkibining subyektiv tomonini tashkil qiluvchi barcha psixik holatlar – motiv, maqsad, ayb, uning shakllari, ayblanuvchi shaxsining psixik xususiyatlari va isbotlanishi zarur bo'lgan holatlar hisobga olinishi shart. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- tergov harakatlari olib borilayotgan voqealikning obyektiv xususiyatlari (jinoyatchi va jabrlanuvchining psixik faolligining tashqi namoyon bo'lishi, qilmishning maqsadga yo'nalishi, qarashlar va stereotiplarning tashqi namoyon bo'lishi, xulq-atvor, ko'nikmalar va hokazo);
- jinoyatchining jinoyat sodir etgunga qadar xulq-atvori va ruhiy holatlari;
- jinoyatchining jinoyat sodir etgandan keyingi xulq-atvori va

ruhiy holatlari.

Jinoyatdan avvalgi shart-sharoitlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish jinoyatchining jinoyatni sodir etishda ongli yoki ongsiz ravishda harakat qilishi, uning shaxs sifatida ongli tarzda o'zini o'zi idora qila olishi, xatti-harakatlarining rejalashtirilayotgan jinoyat bilan mosligi, shaxs kriminallashtiruvining me'yori, jinoyatchi tomonidan uning jinoiy qasdini amalga oshirishiga yordam beradigan yoki qiyinlashtiradigan holatlarni oldindan ko'ra olish, uning qasdi yoki ehtiyotsizligini aniqlash zarur.

Jinoyat sodir etilishidan avvalgi holatlardan deyarli barcha qasddan sodir etiladigan qotillik jinoyatlari sabablarini aniqlash mumkin (o'ch olish, g'araz, rashk, adovat va hokazo.). Jinoyatning impulsivligi, affektivligi ko'pincha jinoyat voqeligini tahlil qilishga bog'liq. Sodir etilgan jinoyatga tegishlilik ayblanuvchining jinoyat sodir etilganidan keyingi xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixik anomaliya (og'ish)lar bilan bog'liq holatlarni tahlil qilishda psixologlarning maxsus bilimlaridan foydalaniladi, bunda sud-psixologik ekspertiza tayinlanadi.

3. Jinoyatchilarni qo'lga olishda psixologik omillarni hisobga olish

Qo'lga olish – jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan uning jinoyatga aloqadorligini aniqlash hamda unga qamoq tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasini hal qilish maqsadida qo'llaniladigan qisqa muddatli majburlash chorasi.

Gumon qilinuvchini quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lgandagina qo'lga olish mumkin:

– agar shaxs jinoyat sodir etayotganida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushgan bo'lsa;

– shohidlar, jumladan jabrlanuvchi bu shaxsni jinoyat sodir etgan shaxs sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatganlarida;

– gumon qilinuvchining o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida jinoyatning aniq izlari topilganida.

Gumon qilinuvchini qo'lga olish shaxsga majburiy (qonun doirasida) ta'sir ko'rsatish, uning erkinligini cheklash bilan bog'liq bo'lgan tergov harakati.

Qo'lga olish vaziyati odatda o'zining jadalligi, holatlarning tez o'zgarishi bilan ajralib turadi. U zudlik bilan mas'uliyatli qarorlar qabul

qilish, vaziyatni har tomonlama tahlil etish, vaqt tanqisligi sharoitida qat'iyat bilan harakat qilishni talab etadi.

Qo'lga olishda ushlanayotgan shaxsning psixologik xususiyatlarini, uning muayyan vaziyatlarda ehtimol tutilgan harakatlarini inobatga olish zarur. Bularning bari muayyan kasbiy bilimlarga ega bo'lishni, refleksiv, noodatiy vaziyatlarda to'g'ri fikr yuritishni, ushlanayotgan shaxs xatti-harakatlarini oldindan ko'ra bilishni talab etadi. Bunda ushlanayotgan shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi, jismoniy va hissiy-irodaviy xislatlari (tajovuzkorligi, dadilligi va shu kabilar) haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Qo'lga olinayotgan shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari – uning g'ayriijtimoiyligi (retsdivligi), axloqsizligi, psixopatik jihatlari (affektivligi) va boshqalarning darajasini ham inobatga olish muhimdir. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda ushlash joyi, vaqti va usuli haqida qaror qabul qilinadi. Ushlash ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash uchun choralar ko'rilishi kerak.

Mazkur harakatni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ushlanayotgan shaxsning ayni paytdagi ruhiy holatini ham hisobga olish lozim. Yuqori darajadagi xavflilik, zo'riqish, umidsizlik, nafrat, affekt, stress, frustratsiya, shuningdek, alkogol va narkotiklardan mastlik keskin jismoniy harakatlar qilinishiga, tajovuzkor qarshilik ko'rsatish yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Tajovuzkor, qurollangan jinoyatchini ushlash favqulodda xususiyatga ega bo'lmagan hollarda (masalan, jinoyatchining yo'li to'silgan va u yashirinish va atrofdagilarga zarar yetkazish imkoniga ega bo'lmasa) ushlashni haddan tashqari tezlashtirmaslik kerak – chorasizlik holatini cho'zish ushlash uchun qulay ruhiy sharoit yaratadi.

Yashiringan jinoyatchilarga qaratilgan murojaat qisqa, xushmuomala, xotirjam va ishonarli bo'lishi kerak. Murojaat so'ngida «ushlangan vaqtingizda sizga insoniy munosabatda bo'linishini kafolatlayman» kabi jumlar bo'lishi kerak.

Yashiringan jinoyatchilarni ushlashda ko'pincha ular bilan ruhiy ta'sir ko'rsatadigan muzokaralarga kirishish zarurati yuzaga keladi.

Muzokara – jinoyatchilarni bundan buyon jinoiy harakatlardan voz kechishga ko'ndirish maqsadida ularga qonuniy-ruhiy ta'sir ko'rsatish. Muzokaralarda psixologik aloqa o'rnatish eng qiyin vazifa hisoblanadi.

Mantiqiy dalillash bilan birga jinoyatchilarning hissiy-irodaviy o'ziga xosliklariga ta'sir ko'rsatish (qarindoshlik hissiyotlarini

qo'zg'atish, altruistik hissiyotlar, yengilishning muqarrarligi hislari va m.k.) usullaridan ham jadal foydalaniladi.

Muzokaralar zarur hollarda jinoyatchilarni kuch ishlatib ushlashdan avval uni ruhiy toliqtirish maqsadida ham olib boriladi.

Muzokaralarni vakolatli shaxslar olib boradilar. Muzokarachining nutqi ravon, ishontirish va hissiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega, operativ va refleksiv tafakkuri rivojlangan, simpatiyasi – shaxsiy jozibasi bo'lishi va maxsus tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi zarur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Xodim harakatlarining yo'nalishini aniqlovchi psixologik shart-sharoitlar nimalardan iborat?

2. Operativ-qidiruv faoliyatining psixologik tuzilishini izohlang.

3. Qarshilik ko'rsatayotgan shaxsning xatti-harakatini refleksiv boshqarish qanday amalga oshiriladi?

4. Operativ-qidiruv taxminlarini ishlab chiqrishda qidirilayotgan jinoyatchining xulq-atvori va shaxsi to'g'risida ma'lumotlar qanday ahamiyatga ega?

5. Jinoyatchini qo'lga olishga psixologik tayyorgarlik jarayonini ta'riflang.

6. Hibsga olish ishtirokchilarining xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi stress omillar nimalardan iborat?

XIII bob.

**ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARINI TAYYORLASHNING
KASBIY PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**1. Ichki ishlar idoralari xodimlarini tayyorlashning
psixologik mazmuni**

Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlaridan biri xodimlarni psixologik jihatdan tayyorlashdir. Har qanday kasbiy faoliyat insonga muayyan talablar qoʻyadi hamda uning shaxsi va butun turmush tarzida oʻziga xos iz qoldiradi. Ichki ishlar idoralari xodimi kasbiy faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi qanday shaxsiy xislatlarga ega boʻlishi lozimligini aniqlash uchun ushbu faoliyatning oʻzini psixologik jihatdan tahlil qilish, uning oʻziga xos jihatlarni aniqlash, tarkibiy tuzilishini ochib berish zarur. Kasbiy faoliyatning qonuniyatlarini aniqlash uni nafaqat oʻrganishga, balki takomillashtirishga ham qaratilgan tashkiliy tadbirlar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarini psixologik jihatdan tayyorlashdan koʻzlangan *maqsad* ularda xizmat faoliyatining har qanday murakkab sharoitlarida kasbiy jihatdan toʻgʻri, aniq, yuqori ishchanlik bilan harakatlanish koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining shaxsiy, birinchi navbatda, kasbiy jihatdan muhim xislatlariga alohida talablar qoʻyiladi. Ushbu faoliyat xodimlarda hissiy-irodaviy barqarorlikni, stress holatlarini vujudga keltiruvchi omillar taʼsiriga qarshi psixologik immunitet shakllantirishni talab etadi.

Psixologik tayyorgarlikning asosiy *vazifalari* quyidagilardan iborat:

- xodimlarning ichki ishlar idoralari uchun tipik boʻlgan stress omillar va ularning taʼsiriga psixologik chidamliligini oshirish;
- xodimlarda psixologik xislatlarni rivojlantirish, har qanday vazifani operativ xizmat faoliyatining turli murakkab va xavfli sharoitlarida ham muvaffaqiyatli bajarishlariga yordam beruvchi uquv va koʻnikmalarning oʻziga xos jihatlarni shakllantirish.

Psixologik tayyorgarlik xodimlar kasb mahoratining tarkibiy qismidir. U xodimning shakllangan va rivojlangan psixologik

xususiyatlari majmui bo‘lib, operativ xizmat faoliyatining o‘ziga xos va muhim psixologik xususiyatlariga javob beradi va uni amalga oshirishning zarur shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlik xodimning kasb mahoratini keskin oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar va mavjud ijobiy tajriba professional ta’lim tizimiga psixologik tayyorgarlikni maqsadga yo‘nalgan tarzda oshirib borishning maxsus vazifalari, shakl va usullarini kiritish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda psixologik tayyorgarlik – ichki ishlar organlari kasb tayyorgarligining muhim tarkibiy qismidir. «Shaxsiy tarkib sifati uning kasbiy mahorati darajasi, axloqiy-ruhiy darajasi, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi»¹.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining psixologik tayyorgarligi xodimlarga operativ xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli va samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan sifatlarni shakllantirish, rivojlantirish va faollashtirish bo‘yicha maxsus tashkil etilgan maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatish jarayonidir.

Psixologik tayyorgarlik xizmat faoliyatining xususiyatlariga bog‘liq. Shunga ko‘ra, psixologik tayyorgarlikning mazmuni aniq ifodalangan kasbiy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i lozim.

Xodimlar psixologik tayyorgarligining mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

– jinoyatchilikka qarshi kurashga psixologik jihatdan tayyor bo‘lish xislatlarini shakllantirish;

– maxsus operativ xizmat faoliyatining turli jihatlariga psixologik yo‘nalganlikni rivojlantirish;

– kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

– turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnatish uquv va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

– operativ xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirishish ko‘nikmalarini ta’minlash;

– fuqarolar bilan muloqotga kirishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta’sir etishning psixologik-pedagogik usullarini qo‘llash mahoratini shakllantirish;

– operativ xizmat faoliyatining og‘ir vaziyatlarida o‘zini tuta olish va psixologik barqarorlikni ta’minlash;

¹ *Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.* – Т., 1998. – Б. 128.

- shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o‘zini tutish va boshqarish usullarini o‘rgatish;
- irodaviy faollikni va irodaviy harakat ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ishdagi ruhiy zo‘riqishlarga tayyorlash.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda psixologik jihatdan tayyorlash. Ma’lumki, bu psixologik tayyorgarlikdagi eng muhim jihatdir. Bu o‘rinda asosiysi xodimlarning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish, ularda faoliyatga nisbatan barqaror kasbiy qiziqishni rivojlantirish hisoblanadi.

Shuningdek, bu tayyorgarlik xodimlarda har qanday qonunbuzarlikka nisbatan kelishmovchilik, huquqiy normalarni so‘zsiz bajarishdan iborat barqaror odatni, kuchli rivojlangan haqiqat, adolat va qonuniylik hissini shakllantirishni taqozo etadi.

Maxsus operativ xizmat faoliyatining turli jihatlariga psixologik yo‘nalganlikni rivojlantirish. Bu xodimlarni psixologiya asoslari bilan tanishtirishni, ularda o‘z ishlarida odamlar, guruhlar psixologiyasini inobatga olish ko‘nikmalari va odatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Operativ xizmat faoliyatining psixologik jihatlarini tushunish xodimlarning o‘tkaziladigan tergov, operativ qidiruv va boshqa harakatlardagi psixologik xususiyatlarni bilishlari va hisobga olishlarini nazarda tutadi.

Kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish. Ushbu xislatlar xodimlar bilish faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi. Bilish faoliyatiga kasbiy ziyraklik, idrok, kuzatuvchanlik, xotira, tafakkur va tasavvur xosdir. Ushbu xislatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar xodimlarning kasbiy jihatdan muhim ma’lumotlarni esda olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirish samaradorligini oshirish qoidalarini, mantiqiy fikrlash va ijodiy tasavvurni rivojlantirishning asosiy usullari va ularga doir bilimlarni egallashlariga yo‘naltirilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar (A.M. Stolyarenko, A.A.Volkov, O.Y. Saparin) mazkur xislatlarni amaliy mashg‘ulotlar va maxsus mashqlar yordamida maqsadli rivojlantirish natijani 2–3 marta yaxshilashga imkon berishini ko‘rsatadi.

Turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnatish uquv mahorati hamda ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish. Ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini turli toifadagi fuqarolar (jabrlanuvchilar, guvohlar, gumon qilinuvchilar, maxsus hisobda

turganlar va h.k.) bilan doimiy muloqotda bo'lishsiz tasavvur etish mumkin emas. Olinadigan operativ jihatdan muhim axborotning sifati xodimlarning ular bilan muomala qilish, psixologik aloqa o'rnatish, ishonchli munosabatga kirishish qobiliyatiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, butun faoliyatning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tayyorgarlik davomida xodimlar psixologik aloqa o'rnatish usullari va yo'llari tizimini egallashlari kerak. Ularda notanish kishilar bilan tezda aloqa o'rnatish va ularni o'ziga moyil qilish, odamlarning fikrini eshita olish, muloqot jarayonida psixologik to'siqlarni yenga olish mahorati shakllanishi lozim. Psixologik tayyorgarlik xodimlarning psixologik aloqa o'rnatish jarayonini yengillashtirishga imkon beruvchi muayyan qoidalarni o'zlashtirishlarini taqozo etadi.

Operativ xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirishish ko'nikmalarini shakllantirish. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy mahoratini tashkil qiluvchi muhim tarkibiy qismlardan biri jinoyatlarni ochish yoki ularning oldini olish uchun zarur axborotni olish maqsadida foydalanadigan rolga kirish ko'nikmalaridir. Shu bois, psixologik tayyorgarlik davomida xodimlar o'zlarining ichki ishlar xodimi ekanliklarini, haqiqiy holatlarni, muloqotga kirishishdan ko'zlagan maqsadlarini niqoblay olish mahoratini shakllantirishlari kerak.

Fuqarolar bilan muloqotga kirishishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta'sir etishning psixologik-pedagogik usullarini qo'llash mahoratini shakllantirish. Fuqarolar bilan muomala qilish jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida odatiy holdir. Shu bois xodimlarda nizoli vaziyatni bartaraf etish mahoratini shakllantirish, ularga nizolarni hal qilish usullarini o'rgatish juda muhim. Xodimlar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan odamlarga psixologik ta'sir ko'rsatishning ishontirish, majburlash, rag'batlantirish singari muayyan usullaridan mohirlik bilan foydalanishlariga bog'liq. Xodimlarda nizoli vaziyatda o'zini tutishning turli taktik usullarini qo'llash hamda nizoli vaziyatdan operativ maqsadda foydalanish ko'nikmalari ham shakllanishi kerak.

Operativ xizmat faoliyatining og'ir vaziyatlarida o'zini tuta olish va psixologik barqarorlikni ta'minlash. Xodimlar o'zlarining kundalik amaliy ishlarida kasbiy vazifalarini bajarish sifatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan ko'plab noqulay psixologik holatlar ta'siriga duch keladilar. Psixologik barqarorlik xodimlarning salbiy holatlar ta'siriga tushmaslik qobiliyatida namoyon bo'ladigan psixologik tayyorgarlikning muhim

ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Bu o'rinda operativ xizmat vazifalarini bajarish chog'ida mazkur qiyinchiliklarni oldindan ko'rish qobiliyatini shakllantirish muhim. Psixologik barqarorlikning shakllanishi xodimlarning eng katta psixologik qiyinchiliklar sharoitida o'z vazifalarini kamchiliksiz bajarish mashqini olishiga yordam beradi. Bunga mashqlar va amaliy mashg'ulotlar jarayonida og'ir vaziyatlarni modellashtirish yo'li bilan erishish mumkin.

Shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o'zini tutish va boshqarish usullarini o'rgatish. Xodimlarning psixologik barqarorligini va og'ir vaziyatlarda o'zini tuta bilish qobiliyatini shakllantirish ularda mas'uliyat, muvaffaqiyatsizlikka chidash, tavakkalga moyillik va barqarorlik, o'zini boshqara olish, sobitlik kabi muayyan hissiy-irodaviy xislatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Xodimlar o'z xatti-harakatlarini va his-tuyg'ularini nazorat qilish va boshqarish usullarini egallagan bo'lishlari kerak. Ular mashg'ulot va mashqlar jarayonida o'zlarini boshqarish, asabiy zo'riqishni yo'qotish, ichki imkoniyatlarni qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar qilish usullarini egallaydilar.

Irodaviy faollik va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish. Ichki ishlar idoralari xodimlari o'zlarining amaliy faoliyatlarida vazifani sifatli bajarishni qiyinlashtiradigan, ba'zan esa qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladigan turli xil qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchilik va to'siqlarni yengishga undovchi irodaviy faollikni namoyish etishlariga to'g'ri keladi. Irodaviy harakat ko'nikmalarini rivojlantirishga mashg'ulotlar jarayoniga qo'yilgan vazifani bajarishga to'sqinlik qiluvchi muayyan elementlar, to'siqlar kiritish yordam beradi. Bunday mashqlar jarayonida to'plangan irodaviy faollik tajribasi shaxs irodasini, irodaviy xislatlarini rivojlantirishga ta'sir etadi.

Ishdagi ruhiy zo'riqishlarga tayyorlik. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatiga xos xususiyatlardan biri shundaki, ta'sir etuvchi omillar ko'pincha stress holatini keltirib chiqaradi, asab tizimiga haddan tashqari katta og'irlik tushadi. Bu, o'z navbatida, ular amalga oshiradigan faoliyatning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xodimlar ushbu jarayonlar kechishining asosiy qonuniyatlari hamda qisqa vaqt ichida ish qobiliyatini tiklashga va ortiqcha asabiy zo'riqishni bartaraf etishga yordam beradigan usullar (chunonchi, psixologik boshqaruv mashqlarini bajarish usullari) bilan tanishtirilishi zarur.

Bundan tashqari, xizmat vazifalarni samarali bajarishda maxsus poligonlar, trenajyorlar, har xil to‘siqlar, psixologik tayyorgarlik xonalarining xizmati beqiyosdir.

2. Kasbii-psixologik trening haqida tushuncha va uning asosiy shakllari

Xodimlar psixologik tayyorgarligining mohiyatini belgilovchi markaziy bo‘g‘in va o‘zak uni o‘tkazish usullaridir. Bu o‘rinda operativ xizmat vazifalarini samarali bajarishga imkon beruvchi psixologik tayyorgarlik rivojlantiriladigan va uning zarur darajasiga erishishga yordam beradigan usullar nazarda tutiladi. So‘nggi vaqtlarda psixologik tayyorgarlikni tashkil etishda ichki ishlar xodimlarining kasbiy psixologik treningidan foydalanish borgan sari ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Kasbiy-psixologik trening xodim shaxsining kasbiy muhim xislatlarini samarali rivojlantirishga imkon beruvchi maqsadga qaratilgan mashqlar tizimidir. Ushbu trening xodimning kasbiy faoliyati samaradorligini oshiradigan tegishli psixologik usullarni egallashini ham taqozo etadi.

Psixologik tayyorgarlikni amalga oshirish uchun quyidagi *kasbiy-psixologik trening usullari* qo‘llaniladi:

- bilish xislatlari treningi;
- kommunikativ trening;
- rolga kirish treningi;
- psixologik boshqaruv mashqlari;
- psixo-texnik o‘yinlar.

Kasbiy psixologik trening usullari operativ xodim uchun zarur bo‘lgan xislatlar, ko‘nikmalar va mahoratni samarali shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradi.

Bilish xislatlari treningiga kasbiy xotira, kasbiy kuzatuvchanlikni rivojlantirish va kasbiy idrok tajribasini to‘plash bo‘yicha treninglar, kasbiy ziyraklikni rivojlantirish bo‘yicha mashqlar kiritiladi.

Kommunikativ trening psixologik aloqa va ishonchli munosabat o‘rnatish, operativ qiziqish uyg‘otuvchi shaxslarga psixologik ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalarini egallashni o‘z ichiga oladi.

Xodimlar operativ xizmat vazifalarini bajarish jarayonida turli rollarni bajarishlariga to‘g‘ri keladi. Boshqa qiyofaga kirish, o‘z xatti-harakatlarini niqoblash va asoslash qobiliyati ichki ishlar xodimlari

kasbiy mahoratining zaruriy tarkibiy qismi bo‘lib, unda tegishli xislatlarni shakllantirish uchun *rolga kirish treningi* katta ahamiyat kasb etadi. Rolga kirish ko‘nikmalari rol gimnastikalari, ya’ni nutqqa va nutqsiz vositalarga tegishli rolga mos tashqi ifodali belgilar bag‘ishlash, ushbu vositalarni qo‘llashda improvizatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarish orqali rivojlantiriladi.

Hissiy-irodaviy jarayonlarni boshqara olish ko‘nikmalarini egallash uchun *psixologik boshqaruv mashqlaridan* foydalaniladi. Bu mashqlar shaxsning hissiy holatlarini boshqarishga, ortiqcha asabiylik, zo‘riqishni bartaraf etishga, xodimning faoliyatida muayyan ijobiy kayfiyat yaratishga imkon beruvchi o‘zini o‘zi boshqarishning eng oddiy usullaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallashga qaratilgan. Ushbu guruhga autogen mashqlar, irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish usullarini egallash ham kiritilgan.

Psixotexnik o‘yinlar xodimlarni psixologik tayyorlashning samarali usuli bo‘lib, o‘yin tarzidagi xatti-harakatlarni bajarish orqali muayyan xislatlarni shakllantirish uchun qo‘llaniladi. Psixotexnik o‘yinlar psixologik jihatdan amaldagi vaziyatlarga yaqin bo‘lgan, haqiqatda mavjud bo‘lgan vaziyatlarni qaror toptirishga asos bo‘ladigan muayyan rollarni, o‘zaro harakatlarni bajarishni nazarda tutadi.

Psixologik tayyorgarlik usullariga *operativ xizmat faoliyati sharoitlari va qiyinchiliklarini psixologik modellashtirish* ham kiritiladi. Bu operativ xizmat faoliyatining haqiqiy vaziyatlariga yaqin bo‘lgan tashqi va ichki (psixologik) sharoitlarni yaratishga imkon beruvchi yo‘llar, usullar va vositalar majmuidir.

Psixologik tayyorgarlik usullari orasida *amaliy vazifalarni psixologik tahlil qilish va bajarish usuli* ham ajratilishi mumkin. Ushbu usulning afzalligi xodimlar kasbiy psixologik tayyorgarligining darajasini haqiqatda tekshirish imkoniyatidadir. Amaliy vaziyatlarni hal qilish xodimlarga erishilgan amaliy bilimlar, ko‘nikmalar va uquvlarni operativ xizmat faoliyatida qo‘llashga imkon beradi.

Kasbiy psixologik trening vazifalari, mazmuni hamda amalga oshirish yo‘llarining murakkabligi va mas’uliyatligi uni o‘tkazishni tashkil etishga va usullariga yuqori talablar qo‘yilishini belgilab beradi.

Kasbiy psixologik treningni amalga oshirishda uni tashkil etishning muayyan prinsiplariga suyanish zarur.

Quyidagi umumiy prinsiplar mavjud:

– treningning ilmiy asoslanganligi va maqsadga muvofiqligi;

- treningning kasbiy yo‘nalganligi;
- uni o‘tkazishda muntazamlilik va ketma-ketlik;
- ta’lim oluvchilarning ongliligi va faolligi;
- tayyorgarlik ko‘rishning barcha uchun osonligi.

Kasbiy-psixologik treningning qo‘llaniladigan vosita va usullari majmuining *ilmiy asoslanganligi va maqsadga muvofiqligi* uning psixologik jihatdan nozik jihatlarini chuqur va aniq bilish hamda yuridik psixologiya va pedagogika tavsiyalariga rioya qilish zarurligidan kelib chiqadi.

Treningning kasbga yo‘nalganligi tayyorgarlik vazifalari va mazmunining xodimlar kasbiy faoliyatining xususiyatlari va ular duch keladigan psixologik qiyinchiliklardan kelib chiqib maksimal darajada aniqlik kiritilishida ifodalanadi. Shuningdek, ana shundan kelib chiqib o‘quv vazifalari, usullari, obyektlarini tanlash, shart-sharoitlar va harakatlarni imitatsiya qilish zarur.

Kasbiy psixologik treningni o‘tkazishda *muntazamlilik va ketma-ketlik* yangi bilim, ko‘nikma va uquvlar avvalgilari asosida egallanganda, avvalgilari esa rivojlantirishni talab etganda psixologik tayyorgarlikni o‘tkazishda qat’iy mantiqiy aloqa bo‘lishini talab etadi. Bunda oddiydan murakkabga, sinalgandan sinalmaganga tomon borish; mashq qiluvchilarning haqiqiy bilimlarini va avvalgi mashg‘ulotlarda erishgan natijalarini to‘liq hisobga olgan holda katta, ammo bajarsa bo‘ladigan qiyinchiliklarni yaratish zarur. Ushbu mashg‘ulot topshiriqlari (vazifalari, sur’ati, sharoitlari va sh.k.)dagi qiyinchiliklar avvalgilaridan biroz ko‘proq bo‘lgani ma’qul. Agar mashq qiluvchi, harakat qilishiga qaramay, vazifani umuman bajara olmayotgan bo‘lsa, qiyinchilikni kamaytirish lozim.

Mashqlar vaqtidagi qiyinchiliklar talabalarning imkoniyatlarini safarbar qiladi, ta’lim jarayoni tezlashadi, natijalar ham oshib boradi. Vazifalar oddiy, oson bajariladigan bo‘lsa, mashg‘ulotlarga qiziqish pasayadi, ta’lim sur’atlari sekinlashadi.

Ta’lim oluvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi xodimlarning o‘z qobiliyatlarini takomillashtirib borishlari, bilim olishlarini faollashtirish, psixologik tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulotlarga barqaror qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan ongli faoliyatini ta’minlashdan iborat. Mashq qiluvchi nimani va qanday tartibda bajarish kerakligini aniq tushunib olishi zarur. Bunda harakatni egallash sur’atlari va darajasi hamda amaliyotda bajarish samaradorligi oshadi.

Tayyorgarlik ko‘rishning osonligi prinsipi psixologik tayyorgarlikni xodimlarning zarur bilimlar hamda talab etilayotgan ko‘nikma va uquvlarni o‘z aqliy va jismoniy kuchlarini muayyan darajada zo‘riqtirish evaziga ongli ravishda o‘zlashtira olishlari uchun qulay tarzda tashkil etish va o‘tkazishni talab etadi.

Kasbiy psixologik treningni samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biri xodimlarning o‘z imkoniyatlarini, kasblari uchun muhim shaxsiy xislatlarining rivojlanganlik darajasini bilishlaridir. Bu esa xodimga tayyorgarlik dasturini to‘g‘ri belgilash, o‘z kuchlarini kerakli yo‘nalishda jamlash imkonini beradi. Bu borada xodimga o‘z psixologik imkoniyatlarini yaxshiroq bilish imkonini beradigan muayyan oddiy psixodiagnostik usullardan foydalanish katta yordam berishi mumkin.

3. Psixologik tayyorgarlik xodimlarni kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning asosi

Psixologiyada shaxsning kasbiy mahoratini tadqiq qilishda S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev va boshqa psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda rivojlantirilgan ong va faoliyat birligi tamoyiliga fundamental kategoriya sifatida yondashiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy kamoloti muammosini tadqiq etishda T.V.Kudryavsev tomonidan ishlab chiqilgan shaxsning kasbiy kamoloti uzoq davom etuvchi, ko‘p jabhali va harakatchan jarayon ekanligi hamda u o‘z taraqqiyoti davomida to‘rt bosqichni bosib o‘tishini e‘tirof etuvchi qarashlar nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

T.V. Kudryavsev nazariyasi bo‘yicha kasbiy kamolotning bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1-bosqich – kasbiy niyat;
- 2-bosqich – ta’lim va tarbiya;
- 3-bosqich – kasbga kirish;
- 4-bosqich – kasbiy mahorat.

Har qanday mutaxassislikda kasbiy mahoratga erishish davri uzoq va qiyin kechadi. Mazkur muammoning nazariy jihatlari B. G. Ananyev, Y. A. Klimov, A. I. Alekseyev, R.Z.Gaynutdinov, E.G. G‘oziyev, U. Tadjixanov, Z. S. Zaripov, S. V. Asyamov, Y. Y. Agzamova, R. M. Maxmudov va boshqalarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida kasbiy faoliyatning boshqaruvda bevosita ishtirok etadigan alohida shaxs tuzilmalari hamda ularning ontogenezi, tuzilishi, vazifalari,

imkoniyatlari, shakllanish qonuniyatlari, huquqiy madaniyati va boshqa masalalar tahlil qilingan. Bir qator ilmiy ishlarda odam tomonidan o'z shaxsiy sifati, xususiyatlarini aks ettirishi va anglashining nazariy ahamiyati bilan birgalikda, ularni takomillashtirishda amaliyotning muhim ekanligi, ya'ni shaxsning kasbiy xususiyatlari va kasbiy mahorati o'rtasidagi o'zaro bog'lanish ham e'tirof etiladi.

Xodim kasbiy faoliyatining asosiy psixologik xususiyatlari va tarkibiy elementlarini ko'rib chiqish ham uning faoliyati qanchalik murakkab va serqirraligidan dalolat beradi.

Kasbiy faoliyat xodimga ko'plab turli xil talablar qo'yadi, ular orasida eng muhimlaridan biri – *shaxsda kasbiy xislatlarning rivojlangan bo'lishi*. Bunga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

- shaxsiga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yo'nalganligi;
- psixologik barqarorlik;
- rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;
- yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar;
- turli toifadagi kishilar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish va uni saqlay bilish;
- turli xil profilaktik ishlarni amalga oshirishda fuqarolarga psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bo'lgan bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvur;
- rivojlangan tafakkur, aqliy ishga moyillik, farosat, rivojlangan intuitsiya;
- ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Ushbu xislatlar insonga tug'ilganidan xos emas, ularni shakllantirish va rivojlantirish – davomli va qiyin jarayon, ammo u ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy shakllanishi uchun zarur shartdir. Ushbu xislatlarning xodim shaxsida bo'lmasligi yoki yetarli rivojlanmaganligi o'z funksional vazifalarini me'yorida bajarishiga xalaqit beradi, faoliyatida xatolarga yo'l qo'yishiga, o'z kasbiga moslasha olmasligiga va kasbiy buzilishiga olib keladi. Shu bois xodimlarda ushbu xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan kasbiy-psixologik tayyorgarlik katta ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat jarayonida o'z holatini boshqarish zarur bo'lgan vaziyatlar tez-tez yuzaga keladi. Ruhiy va jismoniy zo'riqishlar haddan tashqari katta bo'lganda, buning ustiga xodim o'z xatti-harakatlarini yomon boshqarganda asabiylashish yuzaga keladi. Bu esa faoliyat samaradorligini pasaytiradi va uning noto'g'ri tashkil

etilishiga, ishda jiddiy xato va kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarning takrorlanishi ko‘pincha o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishiga, asabiy depressiyalarga olib keladi. Masalan, o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, jinoyat qidiruv bo‘limlarining so‘ralgan xodimlaridan 30 % uyqusining buzilishidan shikoyat qilganlar, 80 % dan ko‘prog‘i nevroitik holat ko‘rinishlarining bir necha alomatlari borligini ta’kidlaganlar. Bu alomatlar ish kunining oxiriga borganda charchash (70 %), diqqatning pasayishi (30 %), tajanglik (20 %), bosh og‘rig‘i va aylanishi (10 %), uyquchanlik va darmonsizlik (10 %)larda namoyon bo‘ladi¹.

Shu bois xodimlarning hissiy-irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish yo‘llari va usullarini egallashlari bugungi kunda juda dolzarb vazifadir. Xizmat faoliyatida asablari mustahkamroq bo‘lgan, raqib (jinoyatchi) bilan kurashishga yaxshiroq shaylana oladigan, nafaqat jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan, balki asabiy-ruhiy faolligini maqbul darajada saqlay oladigan, tezkor-xizmat faoliyatining murakkab vaziyatlarida o‘zining irodaviy faolligini namoyon qila oladigan xodimlar ko‘proq muvaffaqiyatni qo‘lga kiritadilar.

Xodimdagi hissiy-irodaviy barqarorlikka uning kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligini ko‘rsatuvchi alomatlardan biri sifatida qarash mumkin. Bu, o‘z navbatida, har bir xodimning kasbiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hissiy-irodaviy barqarorlik deganda, murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishlash uchun qulay bo‘lgan psixik holatni saqlash qobiliyati tushuniladi. Hissiy-irodaviy barqarorlik quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– ekstremal vaziyatlarda xodimda harakatlarining samaradorligini pasaytiruvchi va noaniqliklar, adashishlar tug‘diruvchi psixologik reaksiyalarning yo‘qligi;

– psixologik jihatdan murakkab bo‘lgan sharoitlarda vazifani bexato bajarish mashqini olganlik;

– kasbiy ziyraklikni saqlash, tavakkal, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan oqilona ehtiyotkorlik va diqqatni namoyish etish;

– ishlarni qat’iy qonun asosida yuritishga ta’sir etuvchi shaxslarning ruhiy ta’siriga berilmaslik;

– jinoyatlarning oldini olishga, ularni ochish va tergov qilishga qarshilik ko‘rsatuvchi shaxslarga qarshi psixologik kurash olib borish qobiliyati;

¹ Qarang: *Асямов С. В., Пулатов Ю. С.* Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – Б. 35–36.

– psixologik jihatdan murakkab, nizoli, ig‘vogarona vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaslik.

Hissiy-irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish jarayoni quyidagi uchta asosiy prinsipga tayanadi:

- relaksatsiya;
- vizuallashtirish;
- o‘zini o‘zi ishontirish.

Relaksatsiya prinsipining mohiyatini tana va ruhning birgalikda ishlashga tayyorlanishi tashkil etadi. Aynan relaksatsiya paytida o‘z ichki ovozingizni eshitish hamda o‘z organizmingiz va tafakkur faoliyatingizning aloqasini his etishingiz mumkin. Relaksatsiya yoki bo‘shashish tana va ruhni keraksiz zo‘riqishdan va odamni bo‘shashtirib yuboradigan jihatlardan ozod qilishni bildiradi, u insonga foydali psixologik va fiziologik ta‘sir ko‘rsatadi. Bu o‘zaro ta‘sir ko‘rsatuvchi jarayon: unda miya xotirjamlashgani sayin tana bo‘shashadi, tana bo‘shashgani sayin miya xotirjam bo‘la boradi.

Ikkinchi prinsip – **vizuallashtirish**. Intiutiv tafakkur ongga kirib borishining turli yo‘llaridan foydalanadi. Asosiysi manzara hosil qilish yoki miyangizda obrazlarni gavdalantirish yo‘lidir. Vizualashtirish yo‘nalgan tasavvurni eshitish, ko‘rish, hid bilish, ta‘m bilish, teri bilan sezish sezgilari hamda ularning kombinatsiyalari yordamida faollashtirishning turli usullarini bildiradi. Aslida inson miyasi obyektiv olam obrazlariga ham, ongda yuzaga keladigan obrazlarga ham bir xilda javob beradi. Shu bois vizuallashtirish ko‘nikmalari insonga o‘z ichki imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish, ruhiy jarayonlarning kechishini faollashtirish imkonini beradi.

O‘zini o‘zi ishontirish prinsipning mohiyati shundaki, biz o‘zini o‘zi ishontirish yordamida ichki obrazlarimizni ongimizda aks-sado sifatida bir necha marta takrorlanadigan so‘zlar bilan ifodalaymiz. O‘zining ichki kuchi va qo‘llab-quvvatlanishi bilan to‘lgan bu so‘zlar his-tuyg‘ular darajasida chuqur qabul qilinadi. Bunday ichki aks-sadoni «Men buni qila olaman» so‘zlarida namoyon bo‘ladigan munosabat, niyat va mayl sifatida ifodalash mumkin. O‘zini o‘zi ishontirish muvaffaqiyatga erishish mumkinligi haqida birinchi shaxs nomidan hozirgi zamonda ifodalangan aniq ta‘kiddir. Insonning o‘ziga qarata aytgan so‘zlari o‘z maqsadlariga erisha olishiga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi va qaysi yo‘nalishda harakat qilish kerakligini ko‘rsatadi. Bu so‘zlar miyani maqsadga erishish borasida ishlashga va bunda faol ishtirok etishga majbur qiladi. O‘zini o‘zi ishontirish – obrazlarni so‘zda ifodalashga imkon beruvchi faol moyillikdir.

Autogen mashqlar organizmning avvaldan boshqarilmaydigan funksiyalarini boshqarish imkoniyatini oshirishga qaratilgan mashqlar to'plamini o'z ichiga oladi. Autogen mashq – nemis olimi I. G. Shuls taklif etgan o'zini o'zi ishontirish usuli. Ushbu metodda dastlab o'zini o'zi ishontirish orqali mushaklar tonusining bo'shashiga – relaksatsiyaga erishiladi, so'ngra ushbu holatda organizmning u yoki bu funksiyaga qaratilgan o'zini o'zi ishontirish amalga oshiriladi.

Bugungi kunda xodimning kasbiy-psixologik tayyorgarligi ichki ishlar organlari faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ichki ishlar idoralari xodimining inson va uning ruhiyatini uzviy ravishda qamrab oladigan kasbiy mahorati nafaqat maxsus yuridik bilimlardan, balki kasbiy-psixologik tayyorgarlikdan ham tashkil topadi. Agar uning bunday tayyorgarligi bo'lmasa, haqiqiy mahorati ham bo'lmaydi. Shu munosabat bilan xodimlarning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydigan zarur, professional jihatdan muhim xislatlarini rivojlantirish, faoliyatining ishonchliligini oshiruvchi, odamlar bilan mohirona ishlashiga yordam beruvchi usullarni o'zlashtirishlari juda muhim. Shu bois kasbiy-psixologik tayyorgarlikning juda istiqbolli yo'nalishi bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-psixologik treningi bugungi kunda katta qiziqish uyg'otadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ichki ishlar idoralari xodimlarini tayyorlashning kasbiy-psixologik asoslari nimalardan iborat?
2. Psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
3. Xodimlarning psixologik tayyorgarligi mazmuniga nimalar kiradi?
4. Kasbiy-psixologik trening nima va uning qanday usullari mavjud?
5. Kasbiy-psixologik treningni amalga oshirish prinsiplarini aytib bering.
6. Kasbiy kamolotning qanday bosqichlari mavjud?
7. Hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarishning relaksatsiya, vizuallashtirish va o'zini o'zi boshqarish prinsiplarini tushuntirib bering.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2012.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни. – Т., 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш бўйича миллий дастури. – Т., 1997.
4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2011.
5. *Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. – Т., 1996.
6. *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарорлик тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998.
7. *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т.10. – Т., 2002.
8. *Каримов И. А.* Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-кудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т.12. – Т., 2004.
9. *Каримов И. А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005.
10. *Каримов И. А.* Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий кадрият. Т. 14. – Т., 2006.
11. *Karimov I. A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., 2008.
12. *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – 56 б.
13. *Karimov I. A.* Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. Т.19. – Т., 2011.
14. *Karimov I. A.* O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Т., 2011.
15. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2011 йил 4 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларининг касб маданияти ҳақида қўлланмани тасдиқлаш тўғрисида»ги 96-сонли буйруғи.
16. *Аванесов Г. А.* Криминология и социальная профилактика. – М., 1980.
17. *Андреева Г. М.* Социальная психология. – М., 1990.
18. *Андрианова В. Е.* Деятельность человека в системах управления. – М., 1974.

19. *Антонян Ю. М.* Изучение личности преступника. – М., 1992.
20. *Антонян Ю.М.* Терроризм. – М., 1998.
21. *Арифходжаева И. Х.* Ички ишлар идоралари ходимлари психологияси. – Т., 2007
22. *Асямов С.В., Пулатов Ю.С.* Ички ишлар органлари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002.
23. *Белинская Е.П., Тихомандрицкая О.А.* Социальная психология личности. – М., 2001.
24. *Билл Уизерс.* Управление конфликтами. – СПб., 2004.
25. *Васильев В. Л.* Юридическая психология. – СПб., 2005.
26. *Введенская Т. Ю., Дзигумская Е. А.* Международный терроризм: психологический аспект // Проблемы политической психологии. – Киев, 1997.
27. *Вердервер Р., Вердервер К.* Общение. – СПб., 2005.
28. *Гозиев Э. Ф.* Ёш даврлари психологияси. – Т., 1994.
29. *Гозиев Э.Ф.* Умумий психология. – Т., 2002.
30. *Гришина Н. В.* Психология конфликта. – СПб., 2005.
31. *Еникеев М. И.* Юридическая психология. – СПб., 2005.
32. *Жаринов К. В.* Терроризм и террорист. – Минск, 1999.
33. *Зарипов З. С., Кержнер М. Ю.* Профилактика правонарушений. – Т., 1994.
34. *Зельдович Б. З.* Психология и педагогика в профессиональной деятельности юриста. – М., 2003.
35. *Зигерт В., Ланг Л.* Руководитель без конфликтов. – М., 1990.
36. *Исмаилов И.* Жиноятчиликда уюшганликнинг олдини олишни ҳуқуқий таъминлаш. – Т., 2007.
37. *Исмаилов И., Бурханов Д.* Уюшган жиноий тузилмалар шаклланиши ва фаолиятининг олдини олишда ҳамкорликни ташкил этиш (муаммо ва ечимлар). – Т., 2007.
38. *Каримова В.* Психология. –Т., 2002.
39. *Қобилов Ш., Таджиханов Б.* Ислом Каримов терроризм хавфи тўғрисида. – Т., 2002.
40. *Коган М. С.* Мир общения. – М., 1990.
41. *Қодиров У., Умаров Б.* Ҳуқуқшунослик фаолияти психологияси. – Т., 2005.
42. *Кожушко Е.* Современный терроризм. – Минск, 2000.
43. *Курт Бартол.* Психология криминального поведения. – СПб., 2004.
44. *Ле Бон Гюстав.* Психология масс и народов. – М., 2000.
45. *Леонов Н. И.* Конфликты и конфликтное поведение – СПб., 2005.

46. *Лучинин А. С.* История психологии. – М., 2005.
47. *Майерс. Д.* Социальная психология. – СПб., 2005.
48. *Мальцева О.А., Ратова И.В.* Профессиональная психологическая подготовка сотрудников ОВД. – М., 1998.
49. *Мешерекова Б. Г., Зинченко В. П.* Большой психологический словарь. – СПб., 2005.
50. *Минковский Г. М.* Психология личности преступника. – М., 1989.
51. *Михайлов А. Г.* Загадки человеческого «Я». – М., 1991.
52. *Назаретян А.М.* Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. – СПб., 2004.
53. *Ольшански Д. В.* Психология терроризма. – СПб., 2002.
54. *Платонов Ю. П.* Социальная психология поведения. – СПб., 2006.
55. *Плевако Ф. Н.* Избранные речи. – М., 1993.
56. Психология о терроризме (материалы «круглого стола») // Психологический журнал. – 1995. – № 4.
57. Психология террористов и серийных убийц: Хрестоматия. – Минск, 2004.
58. *Рональд Блекборн.* Психология криминального поведения. – СПб., 2004.
59. *Рубинштейн С. Л.* Основы общей психологии. – СПб., 2006.
60. *Самыгин С. И., Столяренко Д. А.* Психология управления. – Ростов на-Дону, 1997.
61. *Селиванов Н.* Этико-тактические вопросы расследования. – М., 1989.
62. *Сельченков К. В.* Психология лидерства. – Минск, 2004.
63. *Семечкин Н. И.* Психология социального влияния. – СПб., 2004.
64. Современный терроризм: состояние и перспективы. – М., 2000.
65. *Тўлаганова Г. К.* Тарбияси қийин ўсмирлар. – Т., 2005
66. *Филонов Л. Б.* Тренинги делового общения сотрудников правоохранительных органов с различными категориями граждан. – М., 1992.
67. *Чуфаровский Ю. В.* Юридическая психология. – М, 2000.
68. *Шеглов А. В.* Анатомия терроризма: проблемно-психологический анализ // Право и политика. – 2000 – №5.
69. *Шейнов В. П.* Психология обмана и мошенничества. – М., 2002.
70. *Шиханцов Г.Г.* Психология следователя. – Воронеж, 1999.
71. *Щекин Г. В.* Визуальная психодиагностика и её методы. – Киев., 1991.
72. *Энтони Гидденс.* Социология. – Т., 2002.
73. *Якубов А. С., Кабулов Р.* Новое в уголовном законодательстве. – Т., 1995.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

I bob. PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA ICHKI ISHLAR IDORALARI FAOLIYATINI PSIXOLOGIK TA'MINLASH

1. Kasbiy psixologiya fanining obykti va predmeti	5
2. Kasbiy psixologiya fanining yuridik psixologiya tizimida tutgan o'rni.....	9
3. Kasbiy psixologiya fanining qonuniyatlari, metodlari va prinsiplari.....	13
4. Kasbiy psixologiya fanining asosiy vazifalari.....	26

II bob. ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMI SHAXSIGA PSIXOLOGIK TAVSIF

1. Psixologiyada «shaxs» tushunchasi. ichki ishlar idoralari xodimi shaxsini o'rganishning psixologik muammolari.....	28
2. Ichki ishlar idoralari xodimlari shaxsining psixologik tuzilishi.....	31
3. Ichki ishlar idoralari xodimlari shaxsining bilish faoliyatiga psixologik tavsif.....	34
4. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyati samaradorligini oshirishda hissiy - irodaviy va shaxsiy fazilatlarining o'rni.....	55

III bob. KASBIY FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAVSIF VA KASBIY BUZILISHNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

1. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatiga psixologik tavsif.....	66
2. Ichki ishlar idoralari tizimida kasbiy qobiliyat va kasbiy mahorat.....	70
3. Kasbiy buzilish tushunchasi va ularning oldini olish yo'llari.....	76

IV bob. ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARI KASBIY MUOMALASINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

1. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida «muomala» tushunchasi va uning psixologik o'ziga xosligi.....	83
---	----

2. Muomala vositasi va kommunikativ ta'sir etish usullari.....	87
3. Ichki ishlar idoralari xodimlarining fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish usullari.....	92

V bob. ICHKI ISHLAR IDORALARI FAOLIYATIDA «ZIDDIYATLAR» TUSHUNCHASI VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

1. Psixologiya fanida «ziddiyat» tushunchasi va uning turlari.....	96
2. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida ziddiyatlarning paydo bo'lish sabablari.....	100
3. Ichki ishlar organlar xodimlari faoliyatida ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llari.....	104

VI bob. JAMOADAN TASHQARI AXLOQ PSIXOLOGIYASI

1. Jamoadan tashqari axloq psixologiyasi va uni belgilovchi omillar.....	112
2. Ichki ishlar organlari faoliyatida ashaddiy va g'arazli mish-mishlar va ularning oldini olish.....	115
3. Ichki ishlar idoralari faoliyatida olomon psixologiyasi va uni hisobga olishning o'ziga xosligi.....	122

VII bob. HUQUQBUZAR SHAXS PSIXOLOGIYASI

1. Jinoiy xulq va unda «normadan chetga chiqish» tushunchasi.....	131
2. Yuridik psixologiyada «jinoiyatchi shaxsi» tushunchasi.....	140
3. Jinoiyatchi shaxslar tipologiyasi.....	146
4. Alohida toifadagi jinoiyatchilarning psixologik xususiyatlari.....	151
5. Professional jinoiyatchilar va retsdivistlarning psixologik xususiyatlari.....	160

VIII bob. JINOIY GURUHLAR VA UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA PSIXOLOGIK TAVSIF

1. Jinoiy guruhlar shakllanishining psixologik sabab va sharoitlari.....	178
2. Jinoiy guruh va uyushgan jinoiyatchilik psixologiyasi.....	182
3. Jinoiy guruhlarda yetakchilik (liderlik) va uning psixologik tavsifi.....	193
4. Uyushgan jinoiyatchilikka qarshi kurashishning psixologik muammolari.....	201

IX bob. TERRORIZM PSIXOLOGIYASI

1. Zamonaviy terrorizmning psixologik xususiyatlari.....204
2. Terrorchi shaxsi psixologiyasi.....208
3. Terrorizmga qarshi kurashishining psixologik muammolari.....214

X bob. PROFILAKTIK FAOLIYATNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

1. Profilaktik faoliyatning psixologik tahlili223
2. Profilaktik faoliyat subyektlari va ular bilan
ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari230
3. Profilaktik xizmat xodimlari faoliyatini
takomillashtirishning psixologik muammolari238

XI bob. JINOYATCHILARNI TERGOV QILISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

1. Jinoyatlarni tergov qilish faoliyatiga psixologik tavsif224
2. Voqea sodir etilgan joyni ko‘zdan kechirish psixologiyasi.....253
3. Tintuv o‘tkazish psixologiyasi261
4. So‘roq qilishning psixologik jihatlari272
5. Guvohlar va jabrlanuvchilarni so‘roq qilish psixologiyasi278
6. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq
qilish psixologiyasi281
7. Yuzlashtirish psixologiyasi va uning o‘ziga xosligi284

XII bob. JINOYATCHINI QIDIRISH VA JINOYATNI OCHISH FAOLIYATINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

1. Jinoyatlarni ochish faoliyatining psixologik xususiyatlari287
2. Qidiruv faoliyatining psixologik tuzilishi294
3. Jinoyatchilarni qo‘lga olishda psixologik omillarni
hisobga olish297

XIII bob. ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARINI TAYYORLASHNING KASBIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

1. Ichki ishlar idoralari xodimlarini tayyorlashning psixologik mazmuni300
 2. Kasbiy-psixologik trening haqida tushuncha va uning asosiy shakllari...305
 3. Psixologik tayyorgarlik xodimlarni kasbiy
ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning asosi308
- TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR313

DUSHANOV Rustam Xo‘janovich
psixologiya fanlari nomzodi; dotsent
FARFIYEV Yoqubjon Atxamdjanovich

KASBIY PSIXOLOGIYA

DARSLIK

Muharrir B. A. Yarov
Texnik muharrir D. X. Hamidullayev

Bosishga ruxsat etildi. 5.01.2014. Nashriyot hisob tabag‘i 20,0
Adadi 200. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.